SHARQSHUNOSLAR ANJUMANI

17-son

- Tilshunoslik va adabiyotshunoslik
- Manbashunoslik va matnshunoslik
- Tarix va falsafa
- Xalqaro munosabatlar va iqtisod
- Pedagogika va metodika

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SHARQSHUNOSLAR ANJUMANI

17-SON

Toshkent – 2023

Ushbu to‘plamda sharqshunoslik ilmi bilan shug‘ullanayotgan bo‘lajak tilshunos, adabiyotshunos, tarjimashunos, tarixchi, faylasuf, siyosatshunos va iqtisodchi yoshlarimizning ilmiy izlanishlaridan namunalar jamlangan.

Mas’ul muharrir:
t.f.d., prof.v.b. D.Sayfullayev

Muharrirlar:
PhD. Abdullayeva Dilafruz
PhD. Rasuleva Nigina
PhD. Alimov Zuhriddin
PhD. To‘rayev Laziz
PhD. Po‘latov Sherdor
PhD. Alimov Oqiliddin
PhD. Xodjimuratova Dilshoda
PhD. Bo‘ronov Suhrob
PhD. Mustapova Hilola

Nashrga tayyorlovchilar:
Y. Kushanova
I. Karimov

Ushbu ilmiy to‘plam TDSHU Kengashining 2023-yil 25-fevradagi 7-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK

Nilufar TURDIMURADOVA
2- kurs magistranti, TDSHU

XITOY TILI PUBLITSISTIK MATNLARIDA BADIIY-TASVIRIY VOSITALAR

Annotatsiya. Publitsistik uslubda xabar matnining bo‘yoqdorligi va ta’sirchanligini oshirish maqsadida turli usullardan foydalaniladi. Xitoy matbuot tili ham bundan mustasno emas. Mazkur maqolada xitoy publitsistik matnlarining o‘ziga xos xusuiyatlaridan biri bo‘lmish badiiy-tasviriy vositalar tahlili amalga oshirilgan. Maqola bilan tanishib chiqish jarayonida badiiy-tasviriy vositalarning mazmuni, turlari, bir-biridan farqi va umumiylik jihatlarini misollar yordamida kuzatish mumkin.

Kalit so‘zlar: publitsistik uslub, matbuot tili, badiiy-tasviriy vositalar, ritorika texnikasi, metafora, o‘xshatish, jonlantirish, parallelism, kontrast, mubolag‘a, metonimiya, antiteza, iqtibos, ritorik savol, farazli savol (so‘roq), interstekstuallik, sinesteziya, kinoya, takrorlash.

Zamonaviy xitoy publitsistikasida, xususan siyosiy xabar matnida ham ma’lum o‘rinlarda nutqning ta’sirchanligini oshirish maqsadida badiiy-tasvir vositalarnig qo‘llanishini kuzatish mumkin. Xitoy tilida badiiy-tasvir vositalari 修辞手法 xiūcí shǒufǎ (so‘zma-so‘z tarjimasi – ritorika texnikasi) deb yuritiladi. 修辞手法 xiūcí shǒufǎ – bu nutq ta’sirini yaxshilash yoki kuchaytirish maqsadida turli xil maqolalarda yoki amaliy ishlarda ishlatiladigan ifoda uslublari to‘plamidir.

Matbuot tili nafaqat publitsistik, balki ilmiy-ommabop, rasmiy va badiiy uslublarning qorishmasidan iborat o‘ziga xos til deb atash mumkin. Xususan, siyosiy xabar matnlari aksariyat hollarda rasmiy uslub elementlariga asoslanadi. Ya’ni ramiy hujjatlarga xos aniqlik va ixchamlik xususiyatlari siyosiy xabar matnlari uchun ham tegishli. Bundan tashqari, ularda muayyan nutqiy qoliplar, kasb-hunar so‘zlari, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta’minlaydi.

Kundalik hayotda oddiy odamlar va tomoshabinlar uchun eng ko‘p mutolaa qilinadigan adabiy va yozma asarlar yangiliklar hisobotlaridir. Jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti bilan hamnafas ravishda axborot tarqatishning ilg‘or usullari ko‘payib bormoqda. An’anaviy ommaviy axborot vositalarida gazetalar har doim ma’lumot etkazib beradigan “katta

birodar” bo‘lib kelgan. Aloqa texnologiyalari rivojlanishi bilan radio, televidenie va internet gazetaning ommaviy axborot vositalarining “xo‘jayini” maqomiga tobora kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, auditoriyani qanday qilib yaxshiroq jalb qilish matbuot xodimlari uchun qiyin muammoga aylandi. Natijada gazetalarda yangiliklar tezligi, kengligi va chuqurligi soha mutaxassislari va gazetxonlar tomonidan tobora ko‘proq baholanmoqda. Ular orasida sarlavha – yangiliklarning yuzi demakdir. E’lon qilingan xabar yoki maqola birinchi marta o‘quvchilarni jalb qila olish yoki olmasligi birinchi darajali muhim masalaga aylangan bir sharoitda matbuot xodimlarining asosiy vazifasi qiziqarli, dolzarb, o‘rni kelganda esa jumboqli sarlavhalar orqali mushtariyni xabar matni bilan hech bo‘lmaganda yuzaki tanishib chiqishga undash hisoblanadi.

Xitoyda shunday bir mashhur ibora mavjud: “看报看题，看书看皮” *“Kàn bào kàn tí, kànshū kàn pí”,* ya’ni “Gazetani o‘qiganda sarlavhasiga qarang, kitobni o‘qiganda muqovasiga qarang”. Garchi bu jumla har doim ham ijobiy ma’noni ifodalashga xizmat qilavermasa-da, u asl mazmun-mohiyatni aks ettiradi: o‘quvchi bilan birinchi bo‘lib sarlavha uchrashadi. Ayniqsa, bugungi kunda, ma’lumot vulqon singari “portlayotgan” va “quyilib kelayotgan” bir zamonda, o‘quvchilar odatda gazetani olgandan keyin boshdan oxirigacha so‘zma-so‘z o‘qimaydilar, ko‘pincha sahifalarni varaqlaydilar va faqat o‘zlarini qiziqtirgan sarlavhani ko‘rsalargina matnni diqqat bilan o‘qiydilar. Demak, maqola yoki xabar o‘quvchilarning e’tiboriga tushishida, ularni hayratga solishi va jalb qilishida sarlavha muhim rol o‘ynaydi.

Shu sababli, bugungi kunda xabar matnidan ham ko‘ra sarlavhaning tuzilishiga, diqqatga sazovorligiga va bo‘yoqdorligiga yuqori talablar qo‘yiladi va natijada yangiliklar sarlavhalarida tobora ko‘proq badiiy-tasvir vositalaridan foydalanish kuchaymoqda. Yangiliklar sarlavhalarida keng tarqalgan ritorik vositalar metafora, parallellik, kontrast, mubolag‘a, so‘roq, ritorik savol, kinoya va boshqalarni o‘z ichiga oladi.[1]

Badiiy-tasvir vositalarining asosiy turlari quyidagilar:

1. 比喻 *bǐyù* – metafora, o‘xshatish
2. 拟人 *nǐrén* – jonlantirish
3. 排比 *páibǐ* – parallelism
4. 对比 *duìbǐ* – kontrast
5. 夸张 *kuāzhāng* – mubolag‘a

[1]张 燕 峰. 报纸新闻标题常用的修辞手法举例. Journal of Mudanjiang University Feb . 2008.

6. 借代 *jièdài* – metonimiya
7. 对偶 *duì'ǒu* – antiteza
8. 引用 *yǐnyòng* – iqtibos
9. 反问 *fǎnwèn* – ritorik savol
10. 设问 *shè wèn* – farazli savol (so‘roq)
11. 互文 *hù wén* – interstekstuallik
12. 通感 *tōng gǎn* – sinesteziya
13. 反语 *fǎnyǔ* – kinoya
14. 反复 *fǎnfù* – takrorlash

比喻 bǐyù – metafora, o‘xshatish. O‘zaro o‘xshashlik belgilaridan foydalanib, ma’nosi mavhum, tushunish yoki tasavvur qilish qiyin bo‘lgan narsa va tushunchalarni tasvirlash uchun aniq, sodda va tanish narsalardan yordamida ifodalash, ya’ni o‘xshatish. Bu ifoda ma’lum tushunchaning mazmunini aniq va ravshan tasvirlab, o‘quvchida yorqin va chuqur taassurot qoldiradi, asl mohiyatni teran anglab yetishiga yordam beradi. 比喻 bǐyù xitoy tilida 明喻 míngyù, 暗喻 ànyù va 借喻 jièyù kabi turlarga bo‘linadi.

Masalan:

主题：白宫“喉舌”斯诺本月走人

副题：副发言人佩里诺将接替其职[1]

Zhǔtí: Báigōng “hóushé” Sī nuò běn yuè zǒu rén

Fùtí: Fù fāyán rén pèi lǐ nuò jiāng jiētì qí zhí

Mavzu: Oq uy “og‘zi” Snou bu oy vazifasini tark etadi

Subtitr: Vakil o‘rinbosari Perino uning o‘rnini egallaydi

Siyosiy xabar matnlarida, aniqsa, sarlavhalarida matbuot kotiblarini “og‘iz” deb atash juda mashhur metaforalardan hisoblanadi.

俄罗斯为何频频“亮剑”[2]

Èluósī wèihé pínpín “liàngjiàn”

Nega Rossiya tez-tez “qilichini yalang‘ochlamoqda”

“亮剑” liàngjiàn “qilich yalang‘ochlash” – bu odam bajarishi mumkin bo‘lgan harakat. Bu erda, bir mamlakatning harakati odam harakatiga o‘xshatilgan bo‘lib, Rossiya harbiylari 2007 yil yozidan buyon katta harakatlarni amalga oshirayotganligini ochib berishga va u tahlil qilishga xizmat qilmoqda. “Nima uchun Rossiya tez-tez harbiy katta harakatlarni amalga oshirmoqda” kabi sarlavhalar bilan taqqoslab ko‘rilganda, bu nafaqat ixcham va aniq, balki yanada yorqinroq. Bundan tashqari, “Qilich

[1] 《钱江晚报》2007-9-2

[2] 《南方周末》2007-8-30

yalang‘ochlash” – bu so‘nggi bir necha yil ichida ommalashgan harbiy mavzudagi romanning nomi ham (shu nomdagi teleserial ham mashhur), shuning uchun siyosiy xabarga bunday sarlavha tanlash yangiliklar nuqtayi nazaridan, shuningdek, o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish uchun yanada qulayroq usuldir.

夸张 kuāzhāng – Bu muayyan ifoda effektlariga erishish uchun narsalarning tasvirini, xususiyatlarini, funksiyasini va darajasini oshirib yuboradigan yoki kamaytiradigan badiiy-tasvir vositasi hisoblanadi. Mubolag‘a “normal” toifaga va “rivojlangan” toifaga bo‘linishi mumkin. Mubolag‘a - ifoda etish effektini oshirish, kuchliroq ta’sir ko‘rsatish maqsadida obyektiv haqiqat asosida narsalarning tasvir xususiyatlarini maqsadga muvofiq ravishda kattalashtirish yoki kamaytirish uchun boy tasavvurni ishlatadigan ritorik usul.

Narsalarning tabiati va xususiyatlarini ataylab oshirib yuborish yoki kamaytirishiga ko‘ra mubolag‘a quyidagi turlarga bo‘linadi.

扩大夸张 kuòdà kuāzhāng – kengaytirilgan mubolag‘a tushunchaning shaklini, tabiatini, xususiyatlarini, funksiyalarini, narsalarning darajasini va hokazolarni bo‘rttirib ko‘rsatdi.

缩小夸张 suōxiǎo kuāzhāng – narsalarning surati, tabiati, xususiyati, funksiyasi, darajasi va boshqalarni kamaytirish uchun nihoyatda kichraytirib ifodalash.

Masalan:

主题：埃及媒体揭美国对中国“鬼胎”， 字字见血！

副题：埃及《金字塔报》2 月 19 日评论，原题：中国在新冠病毒（溯源）上是清白无辜的。

Zhǔtí: Āijí méitǐ jiē měiguó duì zhōngguó “guǐtāi”， zì zì jiàn xiě!

Fùtí: Āijí “jīnzìtǎ bào”2 yuè 19 rì pínglùn, yuán tí: Zhōngguó zài xīnguān bìngdú shàng shì qīngbái wúgū de.

Misr OAV Qo‘shma Shtatlar Xitoyga qarshi har bir so‘zini “yashirin ma’noli” qilib qo‘yganini fosh qildi!

Misrning “Piramida” gazetasi 19-fevral kuni sharh berdi, asl sarlavha: Xitoy yangi toj virusida aybsiz.

字字见血 zì zì jiàn xiě (so‘z-so‘z tarjimasi: har bir so‘zi qon bilan yozilgan, har bir so‘zidan qon tomadi) jumlasi bu yerda AQSHning Xitoyga nisbatan qo‘ygan ayblovlari nihoyatda ayovsiz ekanini anglatishda ma’noni yanada ta’sirchanroq va kuchliroq ifodalashga xizmat qilgan.

Shuningdek, siyosiy xabar sarlavhalarida savollarga ham tez-tez murojaat qilinadi. Bu usul orqali xabar matnida yoritiladigan mavzu yanada

aniqroq va tushunarliroq mazmun kasb etadi. Qolaversa, u o‘quvchini juda tez diqqatini tortadi.

Masalan:

拜登刚上台就向中国示好？找李建这个回答太漂亮，美国这次听好了

Bài dēng gāng shàngtái jiù xiàng Zhōngguó shì hǎo? Zhǎo lǐ jiàn zhège huídá tài piàoliang, Měiguó zhè cì tīng hǎole

Bayden hokimiyatga kelishi bilanoq Xitoyga o‘z foydasini ko‘rsatdi? Chjao Litszianning javobi juda chiroyli bo‘ldi, Amerika Qo‘shma Shtatlari bu safar oxirigacha tingladi.

美国回来了？ 拜登将再次推翻特朗普，重新加入联合国人权理事会

Měiguó huíláile? Bài dēng jiāng zàicì tuīfān Tè lǎng pǔ, chóngxīn jiārù Liánhéguó rénquán lǐshì huì

AQSh qaytib keldimi? Bayden Trampni yana ag‘darib tashlaydi va BMTning Inson Huquqlari Bo‘yicha Kengashiga qaytadan qo‘shiladi

拜登 G7 峰会将重点讨论中国，欧洲怎么看？

Bài dēng G7 fēnghuì jiāng zhòngdiǎn tǎolùn Zhōngguó, Ōuzhōu zěnme kàn?

Bayden G7 sammitida diqqatni asosan Xitoyga qaratmoqchi, Yevropa bunga qanday qaraydi?

Yuqorida keltirilgan misollarda ma’no ko‘chirishning yana bir usuli bo‘lmish metonimiyadan ham takror va takror foydalanganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Umuman olganda, bu usul siyosiy xabarlar matnining o‘ziga xos xususiyati hamdir.

借代 jièdài – metonimiya, ya’ni qayta nomlash siyosiy xabarlar tilida keng tarqalgan ritorikadir. Metonimiya – ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan ko‘chim. Metonimiyada biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqasiga ko‘chiriladi, biroq bu nomlash narsalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka emas, balki ular o‘rtasidagi yaqinlikka, aloqadorlikka asoslanadi. Narsalarning dolzarbligidan foydalanib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri odamlarga yoki narsalarga nom berish o‘rniga, u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ism yoki narsadan foydalaniladi va natijada tilning ifoda ta’siri yanada kuchli, o‘ziga xos va ravshanroq bo‘ladi.

Masalan:

美国回来了? Měiguó huíláile?

AQSh qaytdimi? (aslida AQSh hukumati avvalgi holatiga qaytdimi yoki Baiden hukumat avval qabul qilingan qarorni o‘zgartirdimi deyilmoqda).

美国这次听好了 Měiguó zhè cì tīng hǎole

AQSh bu safar oxirigacha tingladi (aslida AQSh nomidan kelgan vakillar yoki mutasaddilar nutqni oxirigacha tinglaganiga ishora qilinmoqda).

欧洲怎么看？Ōuzhōu zěnme kàn?

Yevropa bunga qanday qaraydi? (bu yerda ushbu masalaga Yevropa davlat va hukumat rahbarlarininng munosabati haqida gap ketmoqda).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. 张 燕 峰. 报纸新闻标题常用的修辞手法举例. Journal of Mudanjiang University Feb. 2008.
2. 杨文全、胡琳.“文眼”之眸：新闻标题修辞格的优选[J].
3. 南通师范学院学报(哲学社会科学版) ，2003 年 12 月， 第 19 卷第 4 期， 第 158-160 页.
4. 沈爱国. 消息写作学[M].杭州大学出版社，1996 年 9 月第 1 版，第 124 页.
5. 王廷鹏. 新闻标题修辞手法面面观[J].军事记者， 2005.6，第 27 页.
6. 读报知中国 . 上:报刊阅读基础 / 吴雅民编著 . – 北京:北京语言大学出版社, 2005.7 (2013.9 重印)
7. Siddiqova M.I. Xitoy Xalq Respublikasi geosiyosiy manfaatlari tizimida ommaviy axborot vositalari– T.:JIDU, 2019.
8. Богуславская В.В. Моделирование текста: лингвосоциокультурная концепция. Анализ журналистских текстов [Текст] / В.В. Богуславская. М.: Изд-во ЛКИ, 2013. – 280 с.
9. Трушков К.О. Публицистический стиль как один из функциональных стилей китайского языка. 2016

Zaxro XALILOVA
2-kurs magistranti, TDSHU

USHA PRIYAMVADA HIKOYALARIDA ZIYOLI AYOLLAR TAQDIRI VA SHAXSIYATI MASALASINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy hind adabiyoti uchun yangi mavzu hisoblangan masalalardan biri – Hindiston ijtimoiy hayotidagi ayol kishining o‘z taqdirini o‘zi hal qilishiga urinishi, o‘zaro bir – birini tushunish masalasi, ona va qiz farzand o‘rtasidagi xunuk munosabatlar, ziyoli ayollarning achchiq taqdiri kabilar adiba hikoyalari timsolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual proza, yangi hikoya, ijtimoiy hayot, ayollar tanqidchiligi, avlodlararo munosabatlar.

Firuz Jafarning fikriga ko‘ra ona, opa, qiz, xotin, kanizak kabi toifalarni ajratib olib, ayolni ayolligicha, o‘ziga xosligicha ko‘rish faqat ayollar adabiyotidan kelib chiqqan[1].1960-70-yillarda G‘arbda davom etayotgan ayollar ozodlik harakatining ta’siri shu davrda chet elda yashab kelgan Usha Priyamvada hikoyalarida aniq ko‘rinadi. Ammo g‘arbiy syujetdagi ayollarni ozod qilish masalasi hind syujetidan butunlay farq qilgan. Agar g‘arbga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “ayollar ozodligi” ning yangi davri fransiyalik Simon de Buvarning “Ikkinchi jins” kitobi bilan boshlanadi. Shundan so‘ng ayollar o‘zlarining borligi va kimligi haqida jiddiy o‘ylay boshladilar[2]. Bu harakatning ta’siri natijasida, G‘arb ayollari “qullik”dan ozod bo‘lishni istab olg‘a intiladi. 1970-yillarda Amerika va boshqa mamlakatlarning ayollari “bizni ozod qiling” talabi bilan ko‘chalarga chiqishadi, endi ular hech qanday qullikni qabul qilishmaydi. Shunday qilib, bu harakat asta-sekin keng tus olib, adabiy jarayonni ham qoplab oladi.

Ayollarga bag‘ishlangan hikoyalarda ilk bora intellektual mehnat bilan band bo‘lgan oilali ayollar obrazi o‘tkan asrning 60- 70- yillarda paydo bo‘la boshladi. Yozuvchilar turmushni, ayollarni o‘z ishlaridan vos kechishga majbur qiluvchi holatlarni tanqid ostiga olishadi. Usha Priyamvada esa, “yangi hikoya” yo‘nalishiga umuman o‘zgacha motiv – o‘z ota – onasi, aka – uka, opa – singillarini boquvchi oilali ayollar obrazini olib kiradi.[3] Bunday

---

[1]डॉ.फिरोजजाफ़रअली-स्त्री-अस्मिताकासंघर्ष: नयेप्रश्नऔरनईचुनौतियाँ 2011 http://chhattisgarhvivek.blogspot.in/2011/12/blog-post_8143.html

[2]मंजूकुमारी//उषाप्रियंवदाकीकहानियोंमेंस्त्री-अस्मिताकाप्रश्न// स्त्रीकाल -March 23, 2015

[3]Дагман Ансари, Новые рассказы в литературе хинди, Народы Азии и Африки, 1975 N 2, 99-bet

obrazlarda ko‘zga tashlanadigan jihat o‘z taqdirini o‘zi hal etishini anglashi va bunga urinishi hamda jamiyat hayotida faol qatnashish huquqini tushunib yetishi kabilardir.

“Yangi hikoya” yo‘nalishi vakillaridan biri bo‘lgan Usha Priyamvadaning “Hayot va atirgul” (“ज़िन्दगीऔरगुलाबकेफूल”) nomli hikoyasida ham mehnatkash qiz obrazi yaratilgan.[1] “Hayot va atirgullar” - har qanday inson, u xoh ayol bo‘lsin, xoh erkak, faqat hayotida moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lgan taqdirdagina o‘zi qaror qabul qilishga qodir degan g‘oyani ilgari suradi. Hikoya bosh qahramoni Vrinda moliyaviy jihatdan mustaqil bo‘lmaguncha, o‘z oilasida va jamiyatda hech qanday o‘ringa ega emas edi. Zamonaviy ayolni obrazini o‘zida aks etgan Vrinda shaxsiyatini topishga intiladi. Hikoyada bir tomondan, oilada va jamiyatda erkaklar ustunligi qay tarzda asta-sekin zaiflasha borishi aks ettirilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ayollar oila va jamiyatdagi o‘z o‘rnini qayd etib borishi aniq ko‘rsatib o‘tilgan.Vrindaning ishsiz qolgan akasi - Subodhning bezovtaligi sababi ham xonadonida erkak ustunligi zaiflashuvida ekanligini ko‘rish mumkin. Hikoyada eski an’analar, qadimiy urf-odatlar va yangicha hayot tarzi hamda undagi muamomlar ko‘tarilgan. Yozuvchi hikoyada yangi hayotga moslasha olmaydigan inson haqida yozadi. Hikoyada, ayniqsa, qaxramonning yolg‘izlikka bo‘lgan salbiy munosabati yaxshi yoritilgan. Hikoya qaxramoni yangicha hayotning talablarini amalda axtarishga harakat qiladi, ya’ni o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlash, ko ‘proq maoshli ishni qidirish va shunga o‘xshash zamonaviy hayot tarzini amalda topishga harakat qiladi, lekin asl hayotda esa bunday imkoniyatlar juda chegaralangan edi. Shu bois yangi hayot mazmunini kundalik hayotda amalga oshira olmay qiynalgan qaxramonning ko‘pincha boshi berk ko‘chaga kirib qolishi va shu sababli hikoyaning noaniq, mavxum tarzda tugatilishi ham “yangi hikoya”ning asosiy uslubidir. Bu muammolarni tasvirlashda yozuvchi o‘z davri yoshlarining hayotini chuqur o‘rganadi va ular hayoti asosida mana shunday obrazlarni aniq va ravshan qilib tasvirlaydi.

1969-yilda yozilgan “छुट्टीकादिन” hikoyasida kichik shaharchadagi kollejda hindi tilidan dars beradigan Mayaning yolg‘iz hayoti tasvirlanadi, ya’ni hikoya ziyoli ayol haqida. Bu mavzu esa o‘z navbatida, oldingi hikoya singari “yangi hikoya”ga xosdir. Unda modernizm oqimi bo‘lmish naturalizmdan ustalik bilan foydalanilgan. Bir qaragana Juda mayda, ahamiyatsizdek tuyuladigan narsalar ham batafsil, ikir chikiriga qadar tasvirlanadi:

[1]Xodjayeva T.A., Hindiston xalqlari adabiyoti (yangi va eng yangi davr), Tosh.,2010, 143-bet

Hikoyada bosh qahramon Mayaning bir kunlik hayoti tasvirlanadi. Shu 24 soatlik vaqt orqali uning umri nimaga sarflanayotganligi, tushkun kayfiyatda yurishi, uyini qumsashi, ishiga nisbatan mas'uliyat bilan yondashmasligini bilib olish mumkin: Bugungi kuni dam olish kuni bo'lishiga qaramay Maya erta uyg'onadi. Bu uning odatiga muvofiq emas, balki, yon – atrofidagi yoqimsiz baland tovushlar tufayli sodir bo'ladi. U o'rnidan turgach juda uzoq vaqt yuzini yuvish uchun borgan oynasi qarshisida turib qoladi. O'zining hozirgi tashqi ko'rinishidan xo'rligi kelib ketadi: *"**बेसिन के ऊपर लगे शीशे में अपना प्रतिबिम्ब देखर हीथीं, सूना मुँह, सूनी आँखें, एक क्षण को उसे लगा कि यह प्रतिबिम्ब किसी और का है। वह स्वयं कैसे इतनी थकी, इतनी टूटी-सी हो सकती है।** - Rakovina (jo'mrak) ustida osig'lik oynada o'z aksini ko'rib, bir lahza bu oynadagi aks boshqaga tegishli deb o'ylab qoldi – quq lablar, ma'nosiz ko'zlar. Axir uning o'zi qanday qilib shunchalar charchagan, shunchalik singan holatda bo'lishi mumkin."* Parchadan anglash mumkinki, Maya ilgari o'ziga yarasha chiroyga ega, kuchga to'la qiz bo'lgan. Hozir esa u holatidan balki, uyalmoqda, balki achinmoqda. Qay biri ekanligi kitobxonlarning xulosasiga havola qilinadi. U o'zini hattoki oynada ko'rib tanimay qoladi: *"**शे के अन्दर से वह अनजान – सी युवती, माया को, जैसे पहचानने की कोशिश कर रही हो, ऐसे देखती रही, जब तक कि माया ने भीगे, असहाय, विवश हाथों से अपने बाल छूते हुए दृष्टि हटान ली।** - Oyna ortidan notanish qiz huddi Mayani tanib olmoqchidek unga tikilib turar edi. Nam, kuchsiz qo'llari bilan sochiga tegib, nigohini o'sha tarafga olib qochmaguniga qadar shunday tikilib turaverdi".* Dam olish kunini qanday o'tkazishga o'ylangan Maya yolg'iz o'zi kinoga borishga qaror qiladi. Kinodan chiqqach yana o'zini bekorchiday kezaveradi va amakivachchasini ko'rgani uning uyi tomon yo'lga tushadi. Tashrif ko'ngildagidek o'tmaydi – amakivachchasining xotini Mayani xushlamaydi, tushlik esa oz hamda bemaza. Maya uyiga qaytgach ketishi oldidan suvga ivitib ketgan kiyimlari esiga tushadi – ranggi bir birga yuqib ulgirgan tog'ora ichidagi ustki kiyimlar. Xo'rligi kelib karavotiga yotib, yig'lab uxlab qoladi. U uyg'onganida esa, osmon xiralashib, qoqong'u tushayotgan edi. Stol ustida esa hali ham ohiriga yetmagan ishi turardi - tuzatishlarni kutayotgan talabalarning daftarlari.

Maya qahramoni o'qimishli va o'z ish o'rniga ega bo'lishiga qaramay, jamiyatning konservativ qarashlari tomon ovozini ko'tarib shaxsiy fikrini ayta olmaydi. Demak masala faqat ayolning ziyoli bo'lishida emas.

मछलियाँ – "Baliqlar" hikoyasida Viji (Vijayalakshmi) sevgilisi Manishning turmush qurish haqidagi so'zlariga ishonib chet elga

keladi.Ammo Viji u erga yetib borgan kuni, Manish bu haqda xabardor bo‘la turib Meksikaga jo‘nab ketadi. Viji oila a’zolarining rad etishi va ta’qiqlariga qaramay, Manishning so‘zlari bilan o‘z sevgisi uchun chet elga boradi.U, albatta, Manish yuz o‘girganida xafa bo‘ladi, lekin o‘zini qo‘lga olishga qaror qiladi. Viji Manish bilan uchrashish istagidan bir marta ham voz kechmadi. Bu narsadan esa u yana ham ko‘proq azob chekar edi.Vijining ichida kuch manbai bor: U yiqiladi, parchalanadi, lekin o‘zini yana qayta qayta qo‘lga ola oladi. Bunday sharoitda boshqa har qanday qiz aqldan ozgan bo‘lar edi. Usha Priyamvada nazdida zamonaviy ayollar avvalgi an’analar bilan bog‘langan ayollar kabi his-tuyg‘ularga berilib ketishni o‘ziga yo‘l qo‘ymaydi. Ular vaziyatga qarshi kurashadi, ko‘z yoshlarini to‘kadi, lekin sinmaydi va taslim bo‘lmaydi. Hatto noqulay sharoitlarda ham yangi ishtiyoq va yangi yo‘l topib, maqsad sari intilaveradi.

प्रसंग – “Jarayon” 1988-yilda, ya’ni bu davrda adiba ijodiga g‘arbiy qarashlar singib kirishni boshlagan, va asarlariga ta’sir ko‘rsatayotgan onlarda yozilgan hikoya. Ushbu hikoyaning qahramoni Mamta turmush qurishga ahamiyat bermaydigan, ishlaydigan va o‘z ishi bilan o‘ralashib qolib juda band bo‘lgan ayol obrazidir. U chet elda ishlash uchun yashab qolishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Chet elga ketgach esa, huddi robot mashina singari e’tiborini faqat ishga qaratadi. U yerdagi hayoti davomida muhabbat tuyg‘usiga berilmaydi va umuman hayotida uning ahamiyati bo‘lmaydi. Qahromonning shahvoniy istaklarni qondirish ham faqatgina hayotdagi ish, kunlik ishi esa karyeradagi ish deb biladi. Yoshining o‘tishi, oradan yillar o‘tishi bilan bunday jadvalga solingan (robot singari yashash) hayotidan zerikib, u turmush qurishni va oilaga qaytishni istay boshlaydi. Shunday qilib bu hikoyada g‘arb ayollarining ozodlik harakati g‘oyasiga singdirilgan “oiladan ajralish, nikoh kishanidan xalos bo‘lish” tushunchalarini ko‘rishimiz mumkin. Ammo Usha Priyamvada asarlarida butunlay g‘arb g‘oyasiga ergashib ketmaydi, ohirida Mamta o‘zining zerikarli, tartibli va yolg‘iz hayotidan charchab oila qurish qaroriga keladi. Adiba hikoyada oila hamda nihokni qullik deb bilib, ularning baridan vos kechgan holda haddan tashqari erkin yashash natijasida ohir oqibat o‘zini qanday azobga duchor qilishi mumkinligini ochib bergan. Bu azob esa uning hayotida umidsizlik, zerikish va yolg‘izlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

आधा शहर – “Yarim shahar” (1984-yilda yozilgan) hikoyasi ham ziyoli ayolning taqdiri hamda o‘z shaxsiyatini topish uchun qilgan harakatlarini yoritib beradi. Hikoya qahramoni Ila, bolaligida uyidan qochib ketadi. U qandaydir kimsasiz joyga yoki o‘ziga maqbul tushmaydigan tomonga

burilmaydi balki chet elga ketadi. U yerga yetib borgach esa, o‘qishini to‘liq tamomlaydi va hayotda o‘z o‘znini topishga harakat qiladi. Ayolning o‘ziga xosligi va uning mavjudligi masalasi ayolning o‘zligi bilan teng ekanlgini hamda uning borligini ko‘rsatib turishini olg‘a suradi. Amrita qahramoni zamonaviy ayolni ifodalaydi. U mag‘rur ayol bo‘lgani uchun hech kimga bosh egishni yoqtirmaydi. Qiyinchilikka duchor bo‘lgan ayol sifatida esa u o‘qishni tugatgandan so‘ng bir ish bilan shug‘ullanishga qaror qiladi. Shunday qilib, u jamiyatda hukm surayotgan erkaklar hukmronligiga qarshi chiqadi.

Usha Priyamvadaning ba’zi erta yozilgan hikoyalarida hind muhiti tasvirlangan, ba’zi hikoyalarida esa muhit begona bo‘lishiga qaramay qahramonlar ham hind, ham xorijliklardir. Hind madaniyati va xorijiy madaniyatning to‘qnashuvi atmosferasida ayollarning ozodligi va ularning o‘z shaxsiyatini o‘zi topishi masalasi ta’kidlangan. O‘zgarib borayotgan ayol qiyofasiga, adiba hikoyalaridagi ogohlik va erkinlik masalasiga nazar tashlansa, o‘z-o‘zidan o‘zgarib borayotgan zamon va jamiyatning ahvoli fosh etilgan degan xulosaga kelish mumkin. 20 – asr bilan bugungi zamon adabiy jarayonini solishtirganda, adiba hikoyalaridagi ayol obrazlari nisbatan jaranglab turibdi. Usha Priyamvada o‘z hikoyalarida ayolning ichki ziddiyatlarini osongina ochib bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Usha Priyamvada, “Pratinidhi kahaaniyaan”, 2018-Rajkamal prakashan pvt. Ltd., 13 – bet

2. Yadav Rajendra, “Admii kii nigaah mein strii” New Delhi, Patna, Ilahabad, 2010.

3. मंजूकुमारी//उषाप्रियंवदाकीकहानियोंमेंस्त्री-अस्मिताकाप्रश्न // स्त्रीकाल - March 23, 2015

4. XodjayevaT.A., Hindiston xalqlari adabiyoti (yangi va eng yangi davr), Tosh., 2010

Mukarramxon ESHONXO‘JAYEVA
2-kurs magistranti, TDSHU

YAPON VA O‘ZBEK TILLARIDA “YAXSHILIK VA YOMONLIK” TUSHUNCHALARIGA OID MAQOLLARNING MA’NODOSHLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon va o‘zbek tillaridagi yaxshilik va yomonlik tushunchalariga oid maqollarning semantik xususiyatlarini va o‘ziga xosliklarini ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, maqolada maqollarda ibratlilik, pand-nasihat kabi jihatlar ustun turishi orqali o‘zining umuminsoniy jihatlari tahlil qilindi. O‘zbek va yapon tillaridagi yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma‘no-mazmunga egaligi maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo‘lsa, yomonlik insoniyatning yovuzlik tomoni ekanligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: maqollar, semantik ma’no, tarjima, ekvivalentlik tushunchasi, qiyosiy tahlil, o‘xshash va farqlar.

O‘zbek tilshunosligida o‘zbek maqollariga ilmiy munosabat shakllarini qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devon-u lug‘atut turk” asarida uchratamiz. Mahmud Koshg‘ariy an‘anasi davom ettirilib, maqollarning umumiy mazmuni uning leksik strukturasiga asosiy e‘tibor qaratilmagani holda folkorlshunoslik, madaniyatshunoslik va etnografiya sohasida o‘rganilib kelindi. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan keyin maqollarning lisoniy tarkibi, unda ishtirok etgan leksik birliklar, leksik birliklararo hamda maqollarning o‘z mazmuniga ko‘ra semantik munosabatlari masalasi lingvistik yondahsuvlar asosida o‘rganila boshlandi. Bu borada X.Abdurahmonov, Ya.Pinsaxov, SH.Rahmatullayev. G‘.Salomov, Q.Samadov, M.Sadriddinova, Sh.Shorahmedov kab ustoz tilshunoslar hamda tadqiqotchilarni alohida ta’kidlamoq joiz[1].

“Til, falsafa va badiiy ijodning o‘ziga xos hodisasi sifatida yuzaga kelgan xalq maqollari folklorning ixcham shakli, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir shaklidir. Har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql-

[1] Abdurahmonov X. O‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari: avtoreferat. Diss.- Tashkent: Uzbekistan, 1964; Pinxasov YA. O‘zbek tili frazeologiyasi haqida – Toshkent: Fan, 1957; Rahmatullayev Sh. O‘zbek maqollarining lug’ati- Toshkent: Fan, 1970; Salomov G‘. Maqollarning til va tarjimada tutgan o‘rni-Toshkent: Fan, 1966; Samadov Q. Maqollarda til mahorati – Toshkent: Fan, 1981; Sadriddinova Maqollarning matnda va og‘zaki uslubda qo‘llanilishi: Avtoreferat. Diss.- Tashkent, 1985-20b; Shorahmedov SH. Maqollarning paydo bo‘lishiga doir o‘zbek tili va adabiyoti- 1971 – B31-34.

farosat va tafakkurimiz mantig‘ini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga , inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy- siyosiy, ma’naviy – ma’rifiy, axloqiy – estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o‘zi va o‘zligi to‘la namoyon bo‘lgandir.”[1] O‘zbek maqollarida eng ko‘p uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid ayrim maqollarning yapon va o‘zbekcha variantlarini tahlil qilgan holda, maqollarning har ikkala tilda uchrovchi o‘xshash va farqli jihatlarini ko’rib chiqamiz. Kundalik hayotimizda uchrovchi turli xil narsalarni hamisha ikki xil, ya’ni bir-biriga qarama- qarshi jihatlari orqali bilamiz. Bular ichida eng ko‘p uchrovchi hodisalardan yaxshilik va yomonlik xislatlaridir. Yoki tilimizda bularni ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar va salbiy bo‘yoqdor so‘zlarga ajratamiz. Yaxshilik va yomonlik tushunchalarining maqollarda keng ko‘lamda uchrashi tabiiy holdir. Chunki maqollar xalqning hayotiy haqiqatga nisbatan qarashlarini va munosabatlarini ko‘rsatuvchi hodisadir. Shu o‘rinda yapon va o‘zbek maqollarida uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusidagi maqollar xalqning ushbu tushunchalarga bo‘lgan munosabatlarini yaqqol ifoda etadi. Keltirilgan fikrlarimizni isbotlash maqsadida quyida bir qator yaxshilik va yomonlik mavzusidagi ayrim o‘zbek va yapon maqollarining semantik tahlillarini keltirib o‘tamiz.Quyida tahlil qilmoqchi bo‘lgan yaxshilik va yomonlik mavzusidagi o‘zbek Yapon xalqi va o‘zbek xalqining milliy mentaliteti va urf odatlarining bir-biriga o‘xshash va o‘ziga xos jihatlariga ega. O‘zbek milliy mentaliteti, o‘zbekona fikrlash yapon xalqi uchun ham nihoyatdaqiziq va ochilmagan orol desa ham bo‘ladi. Maqollar- xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Ularda har bir xalqning o‘ziga xos jihatlari, turmush tarzi, maishiy , ijtimoiy, iqtisodiy hayoti, xalqning o‘y-fikrlari aks etadi. Qaysi bir xalqda yoki tilda bo‘lmasin maqollarning nutqqa go‘zallik, mazmuniy serjilolik berishda, gapning butun bir mazmunini qisqa tarzda ifodalab berishdagi o‘rni beqiyosdir. Maqollarning ba’zan oddiy ma’noda ba‘zan maqsadli ma‘noda qo‘llanishi kabi o‘ziga xos xususiyatlari bor. Shu sababli dunyoning turli tillarida mazmun jihatdan bir-biriga o‘xshash maqollar uchraydi. Shunday ekan, jamiyat hayotida muhim o‘rin tutuvchi milliy mentalitetimizga oid tushunchalarni yaponiyalik kitobxonning ongiga yetkazib berish muhim vazifalardan biridir. Buning uchun esa tilshunos dastlab milliy mentalitetning jamiyat hayotidagi rolini tadqiq etishi lozim ko‘rinadi.

[1] T. Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. –T.: “Sharq”, 2005-B1

Odatda boshlagan ishimizning yakuni uni qanday ruhiyatda boshlashimizga va yon-atrofimizdagilarni bunga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham ishni yaxshi boshlasak yaxshi, aksincha yomon boshlasak yomon yakun topishi maqollarda ifodalangan. Bunga qo‘shimcha qilib quyidagi maqolni ham keltirib o‘tsak bo’ladi.

O‘zbek tilida: Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, O‘n beshi yorug‘ bo‘ladi.

Yapon tilida: “らくあればくあり”. [1]

O‘zbekcha tarjimasi: Oqshom kunduzning toji. O‘zbekcha ekvivalenti: Har kechaning — kunduzi, Har kunduzning kechasi bor.

Ushbu maqollar orqali xalq o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda mangu yomonlik va yovuzlik bo‘lmasligi yoki har doim ham faqat yaxshilik bo‘lavermasligini ifodalaydi. “Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, O‘n beshi yorug‘ bo‘ladi” va “Har kechaning — kunduzi, Har kunduzning kechasi bor” maqollari orqali xalq har qanday yomonlik ketidan yaxshilik yoki qiyinchlik ketidan faravonlik kelishi tasvirlanadi. Ta’kidlab o‘tganimizdek, maqollar bu xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo’lib, xalqning hayotiy tajribasi va orzu- intilishlarini, umuman olganda hayotga bo’lgan munosabatini qay daraja baholashining natijasidir.

Shu o‘rinda yana bir maqolni misol sifatida keltirib o‘tamiz.

O‘zbek tilida: Yaxshiga yaxshi, yomonga yomon[2]

Yapon tilida: **善には善の報い、悪には悪の報い**[3]

Ma’noviy ekvivalenti: Yaxshiga yaxshi mukofot, yomonga yomon mukofot. O‘zbekcha ekvivalenti: Har yaxshi insonga yaxshi inson, yomonga yomon inson uchrashi mumkinligi haqidagi ma’noni bildiradi.

O‘zbek tilida: yaxshi do‘st achitib gapirar, yomoni kuldurib

Yapon tilida: **善悪は友による**

O‘zbek tilidagi tarjimasi: yaxshi va yomon do‘stingga bog‘liq Ma’noviy ekvivalenti: Do‘sting yaxshi bo‘lsa haqiqatni gapradi, yomon bo‘lsa aybini ko‘rsatadi.

Yapon tilida: **善は急げ悪は延べよ**

O‘zbek tilidagi tarjimasi: Yaxshilikka shoshiling, yomonlikni cho‘zing. O‘zbek tilida: yomon ishni qo‘y, yaxshisiga yugur[4] Ma’noviy ekvivalenti:

---

[1] https://kotowaza.jitenon.jp/kanji/4.php
[2] T. Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. –T.:”Sharq”, 2005 102-b
[3] http://annaka-net.com/kojikotowaza.html
[4] T. Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. –T.: “Sharq”, 2005, 105-b

yomon ishni qo‘yib, yaxshi ishni tezroq amalga oshirgan ma’qul degan ma‘noda ishlatiladi.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, maqollar bu xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo’lib, xalqning hayotiy tajribasi va orzu- intilishlarini, umuman olganda hayotga bo‘lgan munosabatini qay daraja baholashining natijasidir. Badiiy matn ijodkori asar mazmunini anglatishda qo‘llagan tasviriy ifodalar va ko‘pgina stilistik vositalar tilshunoslikda ham o‘z aksini topishi lozim. Asliyat muallifi va tarjimani o‘qiydigan kitobxon o‘rtasidagi kommunikativ muloqotning saqlab qolinganligi, shu millat mentalitetiga oid nazariy ma‘lumotlarning qay darajada talqin qilinganligiga bog‘liq[1].

Dono xalqimiz hamisha kechirimli bo’lishni eng yaxshi fazilat deb biladi. Yovuzlikni yo‘qotishning eng buyuk tadbiri yaxshilik ekanligi maqollarda ifodalanadi. Yomonlik ustidan faqat yaxshilik bilan g‘alaba qozonish mumkinligi xalq maqollarida o‘z ifodasini topgan. Shuninigdek badiiy matndagi har bir so‘z leksik yoki frazeologik birikmalar har bir kitobxon tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Bu har bir xalqning etnik kelib chiqishi, psixologiyasi, mentaliteti, yashash sharoiti kabi ko‘plab omillarga bog‘liq.

Keltirib o‘tgan maqollarimizning tahlil natijalaridan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- maqollarining ko‘pchilik qismida yaxshilik va yomonlik obrazlari, hodisalari, holatlari ifodalangan bo‘lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini ifodalashdir;

- yaxshilik va yomonlik tushunchalari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi;

- yaxshilik va yomonlik obrazlari keltirilgan maqollarning yaponcha muqobil variantlarida aynan bir xil yaxshilik yoki yomonlik nomi ishlatilmasligi yoki umuman ushbu tushunchalar nomi qatnashmasligi maqolning har ikki tildagi umumiy ma‘nosiga ta’sir ko‘rsatmaydi Maqollarning semantik xususiyatlarini tahlil qilganimizda mavzu maydoni, ishtirokchilari va ifoda tarzini e’tiborga olamiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tishimiz mumkin, tadqiqotimizda o‘zbek va yapon tillaridagi maqollarni o‘rganganimizda ular orasida bir – biriga ikkala tilda ham mos maqollar tashkil qildi. Bir – biriga o‘xshash maqollarda esa ayrim leksik farqlarni kuzatdik. Ikkala tilda ham faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatli maqollarda turli obrazlar, turli ma’nolarni ko‘rishimiz mumkin. Bu natijalardan kelib chiqadiki, turli

[1] Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir ilmiy qarashlar. T.: O‘zbekiston Madaniyati. – 1965. - 213 b.

tillarda maqollar ma’nodoshlik xususiyatiga ega bo‘lsada, ularda ma’lum millatgagina xos bo‘lgan milliy ruh sezilib turadi. O‘zbek va yapon tillaridagi yaxshilik va yomonlik mavzulariga oid bir qancha maqollarni semantik tahlil qilib, ma’no jihatidan bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlarini o‘rganib chiqishga harakat qildik. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir yapon va o‘zbek maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo‘lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko‘rsatiladi. Xullas, yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid o‘zbek va yapon xalq maqollari semantik jihatdan deyarli bir-xil ma’no anglatadi. Har ikkala tilda ham yaxshilik va yomonlik tushunchalariga oid maqollarda asosan millat xarakteridagi individual belgilar, milliy xarakter, ruhiyatidagi va atrof-muhitga bo‘lgan munosabati, harakatlari, qilmishlari, his-tuyg‘ulari albatta stilistik vositalar orqali har ikki tillarda ham o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 5-jild.Toshkent .2013-530-b
2. T. Mirzayev, A. Musaqulov, B. Sarimsoqov. O‘zbek xalq maqollari. –T.: “Sharq”, 2005-1-b
3. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir ilmiy qarashlar. T.: O‘zbekiston Madaniyati. –1965. -213 b
4. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov.Hikmatnoma.-T.1990-458-b
5. https://kotowaza.jitenon.jp/kanji/4.php
6. http://annaka-et.com/kojikotowaza.html
7. Abdurahmonov X. O‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari: avtoreferat. Diss.- Tashkent: Uzbekistan, 1964;
8. Samadov Q. Maqollarda til mahorati – Toshkent: Fan, 1981
9. Shorahmedov SH. Maqollarning paydo bo‘lishiga doir o‘zbek tili va adabiyoti - 1971 – B31-34
10. Sadriddinova Maqollarning matnda va og‘zaki uslubda qo‘llanilishi: Avtoreferat. Diss.-Tashkent, 1985-20b;

Nigora SAFAROVA
2-kurs magistranti, TDSHU

XITOY TILIDA HISSIY METAFORALARNING ASOSIY KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Og‘zaki ifodada mavhum, noaniq va boy his- tuyg‘ular asosan metafora orqali amalga oshiriladi. Emosional metaforalar, asosan, insonlarning shaxsiy tajribasiga tayanadi, bu maqolada xitoy tilidagi ta’m so‘zlari kognitiv tilshunoslik metaforasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xitoy tilida ham emotsional metafora- odamlarning dunyoni umumiy bilishi va umumiy jismoniy tajriba orqali his- tuyg‘ularni ifodalashda ko‘proq o‘xshashliklarga ega ekanligi, shu bilan birga xitoy xalqning o‘ziga xos an’anaviy madaniyati va yashash muhiti bunday fikrlash usullarini keltirib chiqaradi.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, xitoy tili, hissiy metafora.

Kognitiv tilshunoslik sohasi kognitiv tilshunos olimlar Lakoff va Jonsonning (1980) “Biz yashayotgan metafora” kitobi nashr etilgandan keyin tez rivojlana boshladi va tilshunoslikning yangi maktabiga aylandi. Kognitiv lingvistlarning fikricha, inson hayotida metafora butun dunyoda odamlar tomonidan umumiy bo‘lgan universal kognitiv hodisa [1] dir. Metafora nafaqat fikrlash birlashmalarini ifodalash uchun ishlatiladigan ritorik vosita, balki insonning fikrlash, harakat qilish va dunyoni idrok etishning asosiy usuli hamdir. Metaforaning mohiyati ikki xil kontseptual soha o‘rtasidagi aloqani xaritalashdir. Xaritalangan domen asl, manba domen deb ataladi va xaritalanadigan domen maqsadli domen deb ataladi. Ikkalasi o‘rtasidagi bir tomonlama xaritalash aloqasi narsa va hodisalarning o‘xshashligi asosida amalga oshiriladi. O‘xshashlik manba domenining ma’nosi va tegishli strukturaviy xususiyatlarini maqsadli domenga solishtirish imkonini beradi. Manba domenining strukturaviy xususiyatlari maqsadli domenga uzatiladi va maqsadli domenning strukturaviy xususiyatlarining bir qismiga aylanadi. Xuddi shu narsa emotsional metaforalar uchun ham amal qiladi. Mavhum his-tuyg‘ularni til yordamida ifodalash jarayonida odamlar odatda hissiy maqsad sohasini xaritalash uchun manba damen sifatida o‘ziga xos tana tajribasiga ya’ni sezgi organlariga tayanadi.

Kognitiv tilshunoslikning ta’rifiga kelsak, xitoylik kognitiv tilshunos Van Yan (2007) shunday deb hisoblaydi: “Tajribaga falsafiy qarashga rioya

[1] Lakoff, G., M. Johnson. Metaphors We LiveBy [M]. Chicago: University of Chicago Press, 1980

qiling, jismoniy tajriba va bilishdan boshlang, kontseptual tuzilish va ma’no tadqiqotlariga e’tibor qarating va til faktlarini izlashga e’tibor qarating. Sababi kognitiv usullar anglash tuzilmalari orqali tilning talqinini birlashtiradigan rivojlanayotgan va fanlararo intizomdir” [1]. Vetnamlik kognitiv tilshunos Ly Toan Thang ham “kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi maktabi bo‘lib, tilni inson tajribasi, inson idroki, obyektiv dunyoni idrok etish va kontseptuallashtirishga asoslangan holda o‘rganadi” [2] deb ta’kidlaydi. Yuqoridagi tilshunoslar ta’rifidan ko‘rinib turibdiki, kognitiv tilshunoslikning tadqiqot maqsadi til, jismoniy tajriba va bilish o‘rtasidagi munosabatni ochib berishdan iborat bo‘lib, tilning kognitiv funktsiyaga ega ekanligini, til, inson tajribasi va idrok o‘rtasidagi bog‘liqligini ta’kidlaydi. Insonning obyektiv dunyoni anglash jarayonida tasniflash va nomlanishi kerak bo‘lgan son- sanoqsiz narsa va hodisalar mavjud. Bu tasniflash jarayoni murakkab psixik jarayon (ruhiy jarayon) bo‘lib turkumlash deb ataladi. Uning mahsullari kognitiv kategoriyalar tashkil qiladi, har bir kategoriya o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Demak, kognitiv tilshunoslikda tushunchalar nafaqat tafakkur jarayonining natijasi, balki ongning birligi, bilish faoliyatining mahsuli hamdir. Tushunchalarga avloddan-avlodga o‘tish tajribasi asosida insonlar tan oladigan bilimlar kiradi. Ma’no tushunchalar bilan bir vaqtda shakllanadi, ma’no esa til orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun inson tanasi tajribasi va kognitiv qayta ishlash til shakllanishining asosidir. Kognitiv tilshunoslar Lakoff va Jonson kognitiv fanda juda muhim kashfiyot bo‘lgan kontseptsiya “fikrlash tabiatan tajribaga ega”, “tafakkur tanadan mustaqil ravishda ajralishdan ko‘ra, miyada, tanada va jismoniy tajribada ishlab chiqariladi”[3], deb hisoblashadi. Tana, miya va jismoniy tajribasi orqali faqat mana shu tana tajribasi orqali kognitiv jarayon tushunchalarini tushunish mumkin. Xususan, insonning kontseptual tizimi tajriba orqali, ayniqsa idrok va harakat qobiliyatlari orqali shakllanadi. Demak, ma’no tashqi obyektiv dunyodan emas, balki inson tanasi tajribasidan kelib chiqadi. Zhao Yanfang shuningdek, inson tushunchalari, fikrlash, ma’no va tilning barchasi tana tajribasini kognitiv qayta ishlash orqali shakllantirilishi [4] ni ta’kidlaydi. Psixologlar Filipp Jonson- Leyrd va Keyt Oatli ‘his-tuyg‘uni asosan inson ijtimoiy muloqot jarayonida o‘rganadi’ desa, Skot Brave va Klifford Nassning fikricha, ‘hissiyot shaxsiy ehtiyoj va maqsadlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib,

---

[1] 王寅.认知语言学[M]. 上海:上海外语教学出版社, 2007.
[2] 舒丽娜.英汉消极情感隐喻体验基础认知对比[J]. 伊 犁师范学 院学报,2011
[3] Lakoff, G., M. Johnson. Metaphors We LiveBy [M]. Chicago: Uni- versity of Chicago Press, 1980.
[4] 赵艳芳.认知语言学概论.上海:上海外语教育出版社, 2001

his- tuyg‘ular, harakatlar va hislar orqali shakllanadi, [1] deydi. Turli olimlarning his-tuyg‘u haqidagi qarashlaridan shuni ko‘rish mumkinki, hissiyot subyektiv tajriba, subyektiv munosabat yoki subyektiv reaktsiya turidir, lekin unga atrof- muhit, makon, vaqt, iqlim va boshqa ko‘plab omillar bevosita ta’sir qiladi. Kognitiv nuqtai nazardan, turli his-tuyg‘ular kognitiv kategoriya yoki kognitiv tushunchalarning bir qismi sifatida qaraladi va turli xil tushunchalar insonning turli his-tuyg‘ularni idrok etishi yoki tajribasiga asoslanadi. Insonning murakkab, mavhum va noaniq his-tuyg‘ularini yorqin tasvirlash uchun odamlar ko‘pincha metaforalardan, hissiy metaforalardan foydalanadilar. Tuyg‘u bilim tafakkurining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u insonning idrokida, doimo o‘zgarib borayotgan dunyoni his qilishda, boshqa odamlarning munosabatlari, xatti-harakatlari va maqsadlarini tushunishda asosiy rol o‘ynaydi, bunda odamlar obyektiv dunyoga mos munosabat bildira oladilar. Shuning uchun his-tuyg‘ular inson tanasi va tana tajribalari bilan chambarchas bog‘liq. Odamlarga xos bo‘lgan turli xil his- tuyg‘ularni tasvirlash uchun dunyodagi barcha tillar odatda inson tanasiga tegishli so‘zlardan foydalanadilar. Jorj Lakoff va Mark Jonson (1980) turli tajribalar, ayniqsa, hissiy tajribalar inson tanasining tabiatiga asoslanishi[2]ni ta’kidlashadi. Inson his-tuyg‘ulari ko‘p darajada inson idrokiga asoslangan metaforalarda ifodalanadi. Shuning uchun hissiy metaforalar mohiyatan kognitiv hodisadir. Emotsional til bo‘yicha eng chuqur tadqiqotchi Zoltan Kovechses 1986-2006 yillarda u kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tadqiqot olib borgan va hissiy ifodalar bo‘yicha ingliz va ko‘p tillarda bir qator asarlarni nashr etgan. “Til, madaniyat va tana” asari 2000-yilda nashr etilgan. U har bir his- tuyg‘uning to‘rtta kontseptual komponentga ega ekanligini aniqladi, ya’ni kontseptual metafora, kontseptual metonimiya, turli xil bog‘liq tushunchalar va ‘turli kognitiv yoki kognitiv namoyishlar’ deb ataladigan madaniy kognitiv modellardir deydi. Kovechses, shuningdek, “faqat til, madaniyat va tanani birlashtirgan holda, biz his-tuyg‘ularni to‘liq tushunishimiz mumkin”[3] deya, metafora his-tuyg‘ularni ifodalashning eng muhim usuli ekanligini ta’kidlaydi. Vetnam tilshunosi Nguyen Van Xiep ham shunday ta’kidlagan edi: “Kundalik til hayotida metaforalarni aks ettiruvchi tajriba hodisalari bitmas- tuganmas va eng xarakterlisi shundaki, hissiy idrok so‘zlari boshqa kontseptual sohalarni ifodalovchi leksik metaforik ma’nolarga ega, ya’ni

[1] Scott Brave, Clifford Nass, Emotion in human-computer interection, In Jacko[M].// J.A& Sears.A (Eds).Handbook of hunman-computer interaction, 2002

[2] Lakoff, G., M. Johnson. Metaphors We LiveBy [M]. Chicago: Uni- versity of Chicago Press, 1980

[3] Zoltan Kovecses. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human

hissiy idrok etish orqali olingan xususiyatlarni tana tajribasini boshqa maqsadli sohalarning xususiyatlarini ifodalovchi manba sohasi sifatida ko‘rish mumkin. Hissiyot inson tajribasining muhim qismidir. Tilni ifodalashda mavhum, noaniq va boy hissiyotlar asosan metafora orqali amalga oshiriladi[1]’’. Tuyg‘uni kontseptsiyalashda metafora muhim rol o‘ynaydi. Turli xalqlar va mamlakatlarning til tizimlarida emotsional metaforalarni ifodalovchi son-sanoqsiz so‘zlar mavjud. Hissiy metafora - milliy an’anaviy madaniyat va chuqur madaniy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan milliy tajribaning kristallanishidir. Hozirgacha xitoy tili va boshqa tillar o‘rtasidagi emotsional metaforalarni solishtirish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar, ayniqsa, xitoy tilidagi idioma tizimlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda harorat, konteyner, yo‘nalish kabi o‘ziga xos konseptual sohalar ochib berilgan. Bundan bilish mumkinki, tananing turli tajribalari kognitiv mavzu bilan eng to‘g‘ridan-to‘g‘ri va eng yaqin munosabatda bo‘lib, hissiy so‘zlar har doim eng sodda, eng aniq va tushunarli so‘zlardir. Dunyoni idrok etishda tanamizga, ayniqsa, beshta sezgi a’zomizga tayanamiz. Qadim zamonlardan xitoy xalqlari ‘酸-nordon’, ‘甜-shirin’, ‘苦-achchiq’, ‘淡-chuchuk’ va ‘咸-sho‘r’ kabi beshta ta’mini dunyodagi ‘yuz lazzat’ning asosiy ta’mi deb bilishgan. Kognitiv metaforalarning eksperimental tabiatiga asoslangan holda besh ta’mli so‘zlardan 苦 ‘achiqchiqlik’ ning hissiy metaforasi manba sohasidan hissiy maqsadli sohaga xaritalash mexanizmi sifatida tahlil qilinganda. Jismoniy sezgilarda ma’lum o‘xshashliklar mavjud. Beshta asosiy ta’m orasida achchiqlik kam bo‘lmagan o‘ringa ega. Tabiiy muhitda ko‘plab zaharlar achchiq ta’mga ega, shuning uchun qadimgi odamlar ko‘pincha achchiq ta’mga qarab biror narsa zaharli yoki zaharli emasligini hukm qilishgan. Achchiqlik yoqimsiz ogohlantiruvchi ta’m bo‘lganligi sababli, biz achchiq ovqat iste’mol qilganimizda, bu stimulyatsiya odamlarni juda noqulay his qildiradi, yutishni xohlamaydi, yuzini ajin qiladi, ko‘zlarini yumadi yoki tilni chiqaradi. Agar u yosh bola bo‘lsa, u achchiq ta’mga chiday olmagani uchun yig‘lashi mumkin. Odamlar muvaffaqiyatsizlik yoki baxtsizliklarga duchor bo‘lganda, g‘am, qayg‘u va tushkunlik hissiyotlari fiziologik tuyg‘uni keltirib chiqaradi, bu esa ta’m hissi bilan his qilingan achchiq ta’m tufayli yuzaga keladigan fiziologik tuyg‘uga o‘xshaydi. Shuning uchun, xitoy tilida ‘achchiqlik’ salbiy ma’noni anglatadi, bu hayotdagi qiyinchiliklar metaforasidir. Bundan ko‘rinib turibdiki, 苦 hayotdagi achchiqlik va

[1] Hoàng Phê.Từ điển tiếng Việt Mỹ. 2014.

mashaqqatni ifodalaydi, 甜 – baxtni, 辣 ham siz duch kelgan baxtsiz hodisalar va sizni hayajonga solgan o‘tmishni, 咸 siz doimo tatib ko‘radigan hayot ta’mini ifodalaydi ya’ni agar taomga juda ko‘p tuz qo‘shilsa, odamlar uchun maqbul me’yordan oshsa, taomning ta’mi o‘zgaradi, achchiqdan achchiqroq ta’mga yaqinlashadi. Bu ta’m haddan tashqari sho‘r ta’mni tasvirlaydigan yoqimsiz jismoniy his-tuyg‘ularga olib kelishi mumkin. Odamlar kambag‘al hayotlari tufayli tushkunlik, tashvish va boshqa qayg‘uli his- tuyg‘ularni his qilishadi, salbiy emotsional metaforalarda esa ular aks etadi. G‘amginlik va tushkunlikning emotsional metafora tushunchalari odamlarning hissiy idrokidan va inson tanasining tajribasidan kelib chiqadi. Kundalik hayotda odamlar dunyodagi hamma narsa bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishadi. Harakat natijasida hosil bo‘ladigan turli xil mavhum sezgilar bilan ta’m a’zolari bilan hosil bo‘ladigan javoblar yoki tuyg‘ular o‘rtasida ma’lum o‘xshashlik mavjud bo‘lib, bu ta’m so‘zlarida emotsional metaforalarni ifodalash uchun asos bo‘ladi. Emotsional metaforalarda metafora tanlashda ma’lum qoidalar mavjud bo‘lib, u odatda odamlar uchun oson idrok etiladigan va inson fiziologik omillari ta’sirida bo‘ladigan tushunchadir. Odamlar dunyoni taniganda, ular bir xil fiziologik xususiyatlarga va jismoniy tajribaga ega bo‘lganligi sababli, odamlar his-tuyg‘ularni ifodalashda ko‘proq ta’m tushunchalariga yuzlanadi. Turli xil yashash muhiti va madaniyati tufayli odamlarning fikrlash usullaridagi farqlar ham o‘ziga xos emotsional metafora ma’nolarini keltirib chiqaradi. Ushbu maqola shuningdek, ‘tanani aql uchun metafora sifatida ishlatish’ nazariyasi xitoy tilida ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. 王寅.认知语言学 [M].上海:上海外语教学出版社, 2007.

2. 王寅.语言研究新增长点思考之四:后语言哲学探索——语言哲学、后语言哲学与体验哲学[J].外语学刊, 2008.

3. 舒丽娜.英汉消极情感隐喻体验基础认知对比[J].伊犁师范学 院学报, 2011.

4.胡广耀.英汉语味觉词语情感隐喻认知对 J.文学语言研究, 2012.

5. 金品银.汉韩情感概念隐喻对比研究.D.北京:中央民族大 学, 2012

6. 赵艳芳.认知语言学概论.上海:上海外语教育出版社, 2001

7. Scott Brave, Clifford Nass, Emotion in human-computer interection, In Jacko [M].// J.A& Sears.A (Eds). Handbook of hunman-computer interaction, 2002

8. Lakoff, G., M. Johnson. Metaphors We LiveBy [M]. Chicago: University of Chicago Press, 1980.

9. Zoltan Kovecses. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling[M]. Cambridge & New York: Cambridge University Press, 2000.

10. Sweetser. From Etymology To Pragmatics: Metaphorical and Cultural Aspects of Semantics [M]. Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

11. Ungerer.F, Schmid. An Introduction to Cognitive Linguistics [M]. Longman, London and New York, 1996.

12. Philip Johnson Laird, Keith Oatley. Cognitive and social construction in emotion. In Lewis, M & Havi land. J. (Eds) Hand- book of Emotion, 2nd edition, 2000.

Internet manbalar:

1. www.yiwen.com.cn
2. www.ewen.com.cn
3. www.baidu.com

Shozoda FATXULLAYEVA
1-kurs magistranti, TDSHU

FORS TILIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING O‘RGANILISHI VA YASALISHIGA OID QARASHLAR

Annotatsiya. Fors tilidagi qo‘shma so‘zlar bo‘yicha jahon tilshunos olimlari tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borilgan bo‘lib, mazkur maqolada Eron, Yevropa va o‘zbek tilshunoslari tomonidan fors tilida qo‘shma so‘zlar bo‘yicha qilingan tadqiqotlari va ularni modellashtirish masalasi bo‘yicha qarashlari keltirib o‘tilgan. Eron, Yevropa va o‘zbek tilshunoslarining qo‘shma so‘zlarga oid asarlari tahlili fors tilshunosligida qo‘shma so‘zlarni tasniflashning yagona tizimi mavjud emasligini ko‘rsatdi. Ba’zi olimlar qo‘shma so‘zlarni faqat struktur-morfologik mezonlarga ko‘ra tahlil qilsalar, boshqalari esa struktur semantik yoki faqat leksik-semantik mezonni asos qilib olganlar.

Kalit so‘zlar. Qo‘shma so‘z, modellashtirish, tilshunoslik, struktur-morfologik, struktur semantik, funksional, negiz, kopulyativ, agglyutinativ,

determinativ, morfema, kompozitsiya, posessiv, affiksatsiya, yarimaffiksatsiya, leksikalizatsiya, transpozitsiya, termin, komponent.

Jahon tilshunosligida qo‘shma so‘zlar va ularning yasalishi bo‘yicha tilshunos olimlar tomonidan ko‘plab izlanishlar olib borilgan, ko‘p fikrlar aytilgan. Eron tilshunosligida so‘z yasash usullarini ilmiy o‘rganish o‘tgan asrning 50- yillaridan boshlangan, 70- yillarga kelib bu mavzu alohida ilmiy muammo sifatida jiddiy tadqiq qilina boshladi[1]. Eron tilshunosligida mahsuldor va keng tarqalgan qo‘shma so‘zlar haqidagi tasavvurlar aniqdek tuyulsa-da, lekin ularni modellashtirish ko‘plab lingvistik bahslar va nazariy tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda. Qo‘shma so‘zni aniqlashda tadqiqotchilar turli mezonga asoslanadilar – ba’zilar faqat shakily nuqta’i nazardan, boshqalar esa semantik va funksional belgilariga ko‘ra tadqiq etishgan[2].

Fors tilidagi qo‘shma so‘zlar haqida so‘z yuritishdan avval qo‘shma so‘zlar haqidagi ta’rifga to‘xtaladigan bo‘lsak, A. Hojiyev qo‘shma so‘zni “birdan ortiq negizdan tashkil topgan bir so‘z” (tog‘olcha, gulbeor, xushmanzara, sotib olmoq, har qachon kabi)[3], deb ta’riflaydi. Fors tilida qo‘shma so‘zlar bo‘yicha o‘zbek sharqshunos olimlaridan A.Quronbekov, X.Alimova, A.Voxidov, N.Nuriddinov tomonidan salmoqli ishlar olib borilgan. O‘zbek eronshunoslarining mavzuga oid tadqiqotlarida qo‘shma so‘zga ta’rif berilib, ular bir qancha modellar asosida tahlilga tortilgan.

Qo‘shma so‘z deb ikkita va undan ortiq so‘z negizining o‘zaro qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z yasashiga aytiladi[4] va fors tilida qo‘shma so‘zlarning quyidagi turlari ajratiladi:

1) Kopulyativlar. Kopulyativ ikki bir-biri bilan teng negizlar qo‘shilishidan yasaladigan qo‘shma so‘zlardir. Kopulyativ so‘zlar ko‘pincha o‘zaro bog‘lovchi yoki ko‘makchilar vositasida bog‘langan bo‘ladi. Kopulyativ so‘zlarning boshqa bir modeli aglyutinativ model bo‘lib, unda ot bilan ot, sifatdosh, ravish, HZFN, taqlidiy so‘zlar va qaytariq so‘zlar uchraydi. Masalan: a) bog‘lovchili kopulyativlar: takodow “yugur-yugur”, gerdāgerd “yon-atrof”, qowmoxiš “qarindosh-urug‘”, šostošu “yuvinish”. b) aglyutinativ kopulyativlar: gāwmiš “qo‘tos”, širberenj “shirguruch”, šekarbādām “shakarga qovurilgan bodom”, kāsekuze “idish-tovoq”. 2) Determinativ. Bu guruhdagi so‘zlarda «ot bilan ot», «ot - sifat», «son bilan ot», «olmosh bilan ot» va h.k. biri-birini aniqlab keladi. Bunday

[1] Алимова Х. Дарий_тилида сўз ясалиши. Монография, Т.: ТДШИ, 2019. – Б. 26.
[2] Нуриддинов Н. Форс тилида копулятив қўшма сўз ва эркин копулятив сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари. Монография, Т.: ТДШИ, 2020. – Б. 6.
[3] Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Т.: Ўзфанакаднашр, 1963. – Б. 7
[4] Quronbekov A, Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi – T.: TDShI, 2019 – B. 20.

qo‘shma so‘zlarning eng ko‘p uchraydigan modellari quyidagilar: 1. Ot + ot modeli: Irānšahr “Eronshahr”, xārčašm “ko‘zga tushgan cho‘p”. 2. Sifat + ot: sefidcašm “bezbet”, sefidruy “oq yuzli”. 3. Son + ot: čāhārpā “chorva”, setār “musiqa asbobi”. 4. Ot + HZFN: ābxor “sug‘orish joyi”, bādkon “ventilyator”. 5. Ravish + ot: sobhdam “ertalab”, šabhengām “kechki payt” va h.k[1].

X. Alimova “U yoki bu so‘zning qo‘shma so‘z deb qaralishi ularning morfem strukturasiga bog‘liq. Ya’ni tarkibida birdan ortiq mustaqil leksik ma’no ifodalay oladigan birlik bo‘lgan har qanday so‘z qo‘shma so‘zdir. Lekin tilda biror so‘zning u yoki bu yo‘l orqali, biror hodisa tufayli yuzaga kelishi bilan maxsus usul asosida yangi so‘z hosil qilish hodisasini farqlash kerak. Bunday so‘zlar so‘z yasalishining tamomila boshqa-boshqa usullariga mansub bo‘lishi mumkin. Shu sababli kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi deganda umuman qo‘shma so‘z yasalishini tushunish va qo‘shma so‘z hosil bo‘lishi deganda faqat kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishini nazarda tutish to‘g‘ri bo‘lmaydi[2]. X. Alimova qo‘shma so‘zlarni yasalish modeli haqida ham to‘xtalib, “Qo‘shma so‘zlarga oid ishlarda qo‘shma so‘zlarning yasalish modeli haqida gapiriladi va bunda, odatda, “qo‘shma so‘z”ning tarkibi qaysi turkumga oid so‘zdan bo‘lishi nazarda tutiladi. Bizningcha, qo‘shma so‘z tarkibining qaysi so‘z turkumiga oid so‘zlardan bo‘lishi so‘z yasalishi nuqtai nazaridan hech narsani belgilamaydi” deya ta’riflaydi[3].

A. Quronbekov ham qo‘shma so‘zlarni kopulyativ qo‘shma so‘zlar va determinativ qo‘shma so‘zlar kabi guruhlarga bo‘lib o‘rganadi. Muallifga ko‘ra, kopulyativ qo‘shma so‘zlar ikki bir-biri bilan teng negizlar qo‘shilishidan yasaladigan qo‘shma so‘zlardir. Kopulyativ so‘zlar ko‘pincha o‘zaro bog‘lovchi yoki ko‘makchilar vositasida bog‘langan bo‘ladi[4].

Rus eronshunosligida L.S. Peysikovning fors tili so‘z yasalishining nazariy muammolarini belgilashga oid fikrlari muhim sanalib, olim o‘z tadqiqotlarida so‘z yasalishining 1) affiksatsiya; 2) yarimaffiksatsiya; 3) so‘z qo‘shish (kompozitsiya); 4) leksikalizatsiya; 5) transpozitsiya usullarini ajratadi[5].

L.S. Peysikovning so‘z yasalishiga oid ocherkida kompozitsiya hodisasiga modellar asosida o‘zaklarning qo‘shilishi, deb ta’rif beriladi.

---

[1] Quronbekov A, Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi – T.: TDShI, 2019. – B. 23.
[2] Алимова Х. Дарий_тилида сўз ясалиши Монография - Т.: 2019. – В. 33.
[3] Алимова Х. Дарий_тилида сўз ясалиши Монография - Т.: 2019. – В. 31.
[4] Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – T.: TDShI, 2009. – B. 19.
[5] Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1973. С. 110.;

Ma’lumki, so‘z qo‘shish yoki kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi deganda, odatda, qo‘shma so‘zlar nazarda tutiladi. Shuningdek, u hamma qo‘shma so‘zlar so‘z qo‘shish asosida yuzaga kelmaganligi, ular boshqa yo‘llar (sintaktik birlikning leksikalizatsiyalshuvi, konversiya va b.) bilan ham yasalishini ta’kidlaydi[1]. Uning fikricha, fors tilida qo‘shma so‘zlar uch guruhga bo‘linadi:

1) determinativ qo‘shma so‘zlar (determinativlar);

2) kopulyativ qo‘shma so‘zlar (kopulyativlar);

3) sintaktik tipdagi qo‘shma so‘zlar – bitishmalar[2].

Yu.A. Rubinchik ikki yoki undan ortiq leksik morfemlarning bir so‘zga birlashishini grammatikada qo‘shma so‘z sifatida qaraydi va qo‘shma so‘zlar faqat so‘z qo‘shish asosida emas, balki sintaktik birliklarning leksikalizatsiyalashuvi orqali ham hosil qilinadi deya takidlaydi. Ushbu so‘z yasalish jarayonida lug‘aviy asoslarning ikkilik birligi bo‘lgan qo‘shma so‘z hosil bo‘ladi, ularning har biri ko‘pincha tilda erkin qo‘llaniladigan so‘zdir[3] deya ta’riflaydi. Rubinchik fors tilidagi qo‘shma so‘zlarni kopulyativ va determinativ qo‘shma so‘zlar deb nomlangan ikkita katta guruhga bo‘lib o‘rganadi[4].

O.M.Sotova o‘z dissertatsiyasida qo‘shma so‘zlarni “ikki yoki uch negizning qo‘shilib bir butun terminologik ma’no bildirishiga aytiladi deya ta’riflaydi va qo‘shma so‘zlarni ot+ot, sifat+ot, olmosh+sifat, sifat+ot modellari asosida yasalishini ajratib ko‘rsatadi[5].

T.D. Chxeidze esa qo‘shma so‘zlarning quyidagi turlarini ajratadi:

1) kopulyativ, 2) determinativ, 3) posessiv va 4) takroriy qo‘shma so‘zlar.

T.A.Chavchavadze fors tilidagi qo‘shma so‘zlarni tasniflashda hindiy tilidagi nomlanishlardan foydalanib, to‘rt turga ajratadi: 1) dvandva (kopulyativ qo‘shma so‘zlar); 2) tatpurusha (determinativ qo‘shma so‘zlar); 3) bahuvrihi (posessiv qo‘shma so‘zlar); 4) av’yayibxava (qo‘shma ravishlar)[6].

---

[1] Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1975. – С. 99.

[2] Ko‘rsatilgan kitob. B. 101.

[3] Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: «Восточная литература» РАН, 2001. – С. 159.

[4] Ko‘rsatilgan kitob. B. 16.

[5] Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке. Диссертация на соискание уч.степени канд.филол.наук. – Москва. 2008. – С. 55-60.

[6] Алимова Х.З. Вопросы классификации сложных слов в иранском языкознание // Восточные языки и культуры: Материалы III Международной научной конференции. – М., 2010. - С. 14.

Eronlik dasturnavislardan P.N. Xonlariy, H. Anvariy va H. Ahmadiy-Giviy; A. Qariyb, M. Bahor, B. Foʻruzonfar, J. Humoiy, R. Yosamiy, Muhammad Javod Mashkur va yana koʻplab olimlar fors tilida qoʻshma soʻzlarga oid tadqiqotlar olib borishgan.

Hasan Ahmadiy Giviy, Hasan Anvariy qoʻshma soʻzlarga quyidagicha ta'rif beradi: ikki morfema va yoki bir nechta birikmadan tashkil topgan soʻz qoʻshma soʻz deyiladi[1].

قلم+دان = **قلمدان** ، خدا+پرست+ی = **خداپرستی** ، کتاب+شناس+ی = **کتابشناسی**

Ular soʻz yasalish usullarini soʻz turkumlari doirasida oʻrganib, ularniاسم مرکب esm-e morakkab "qoʻshma ot",اسم مشتق esm e moštaγ "yasama ot",صفت مرکب sefat-e morakkab "qoʻshma sifat", صفت مشتق sefat-e moštaγ "yasama sifat" kabi turlarga boʻlganlar[2].

Abdulazim Qarib, Malikushshuaro Bahor, Badi uz-zamon Foruzonfar, Jalol Hemoiy, Rashid Yosemiylar hammuallifligida yozilgan "پنج استاد" nomli fors tili grammatika kitobida qoʻshma soʻzlar کلمه های مرکب kalemehā-ye morakkab termini bilan izohlangan va qoʻshma soʻzlarni ikki yoki undan ortiq soʻzlarni qoʻshilishi natijasida yasaladi deya ularni quyidagi komponentlarga ajratilgan[3]:

1. Ikki otning qoʻshilishi natijasida "ot+ot" modeli:

golšekär "atirgul barglaridan tayyorlangan murabbo", golāb "gulob (gul yaproqlaridan olingan suv), kārxāne ishxona.

2. Ikki fe'lning qoʻshilishi natijasida "fe'l+fe'l" modeli:

kašākaš, kešākeš "ketma-ket chizmoq", hästonist "barcha mulk", bud-o-näbud "(bor-u yoʻgʻi)" gir-o-där "hoʻl va nam".

3. Sifat va otning qoʻshilishi natijasida "sifat+ot" modeli no(w)ruz "navroʻz", sefidrud "buloq", siyahkuh "Siyoh kuh (togʻ nomi)"

4. Son va otning qoʻshilishi natijasida "son+ot" modeli:

čhäharpa "toʻrt oyoqli", čarsu "toʻrtburchak", "kvadrat", se xahär "uch yulduz"

5. Sifat va fe'lning qoʻshilishi natishasida sifat + fe'l modeli:

Šadbaš "tabriklar, salomlar", zendebad "uzoq umr", xorräm baš "mehribon, muloyim boʻlish"

6. "OʻZFN+OʻZFN" modeli asosida:

räftoamäd "harakat", taxtotaz "bosqin", zädoxord "jang, kurash"

7. "OʻZFN+HZFN" modeli asosida:

---

[1] حسن انوری، حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی. ویرایش دوم. تهران: انتشارات فاطمه، ۱۳۸۹ . ص. ۹۹.

[2] Koʻrsatilgan kitob. B. 100.

[3]. عبدالعظیم قریب، ملک الشعرای بهار ، بدیع الزمان فروزانفر، جلال همایی، رشید یاسمی. دستور زبان فارسی "پنج استاد" - تهران، ۱۳۶۶ ۳۵-۳۴.ص

jostoju “qidirish, izlash”, goftogu “dialog”

8. Ot va suffikslarning qo‘shilishi natijasida: “Ot+suffiks” modeli aosida:

bağban “bog‘bon”, dehkäde “qishloq”, juybar “daryo,qirg‘oq”.

Muhammad Javod Mashkur o‘zining “Dasturnoma”[1] kitobida qo‘shma so‘zlarni واژه های مرکب vājeha-ye morakkab deb nomlab, ularni 19 xil modellar asosida yasalishini sanab o‘tgan[2].

O‘z tadqiqotida 20.000 dan ortiq qo‘shma so‘zlarni tahlil qilgan[3]A. Tabotaboiy qo‘shma so‘zlarga quyidagicha ta’rif beradi:

Qo‘shma so‘z – kamida ikki so‘zning birikuvidan hosil bo‘ladigan jarayondir. Golxāne, sarāb, delpazir kabi. Har bir qo‘shma so‘z mustaqil leksik birlik bo‘lib, sintaktik so‘z birikmalari (āb-e sard, deraxtān-e mive kabi)dan farqlanadi. Fors tilida qo‘shma so‘zlardan barcha so‘z turkumlari yasalishi mumkin: qo‘shma ot (dandānpezešk), qo‘shma sifat (xošru), qo‘shma ravish (pāykubān), qo‘shma fe’l (kār kardan), murakkab old ko‘makchi (dar bare ye), murakkab bog‘lovchi (tā inke)[4].

Yuqorida tilshunos olimlar tomonidan fors tilidagi qo‘shma so‘zlarga oid keltirilgan mulohazalar fors tilidagi qo‘shma so‘zlarni modellashtirish bo‘yicha o‘xshash va farqli tomonlar ko‘p ekanligini, hanuz fors tilida qo‘shma so‘zlar masalasida yagona tasnif mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алимова Х. Дарий_тилида сўз ясалиши. Монография, Т.: ТДШИ, 2019. – Б. 26.
2. Нуриддинов Н. Форс тилида копулятив қўшма сўз ва эркин копулятив сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари. Монография, Т.: ТДШИ, 2020. – Б. 6.
3. Ҳожиев А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Т.: Ўзфанакаднашр, 1963. – Б. 7
4. Quronbekov A, Nuriddinov N. Fors tili leksikologiyasi – T.: TDShI, 2019 – B. 20.
5. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – T.: TDShI, 2009. – B. 19.
6. Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1973. С. 110.;

[1] محمد جواد مشکور. دستورنامه در صرف و نحو زبان پارسی. تهران، ۹۸۴۱ .ص. ۲۱.

[2] Ko‘rsatilgan kitob. B. 22.

[3] Нуриддинов Н. Форс тилида копулятив қўшма сўз ва эркин копулятив сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари. Монография, Т.: ТДШИ, 2020. – Б. 7.

[4] عالء الدین طباطبایی. ترکیب در زبان فارسی. بررسی ساختاری واژه های مرکب. تهران، ۹۸۱۷. . ۹۱-۱. ص

7. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Изд-во МГУ, 1975. – С. 99.

8. Сотова О.М. Основные структурно-семантические особенности терминообразования в современном персидском языке. Диссертация на соискание уч.степени канд.филол.наук. – Москва. 2008. – С. 55-60.

9. Алимова Х.З. Вопросы классификации сложных слов в иранском языкознание // Восточные языки и культуры: Материалы III Международной научной конференции. – М., 2010. - С. 14.

10. Shaki M. A study on nominal compounds in neo Persian. – Praha, 1964. - P. 84.

11حسن انوری، حسن احمدی گیوی. دستور زبان فارسی. ویرایش دوم. تهران: انتشارات فاطمه، ۱۳۸۹ .ص. ۹۹

12عبدالعظیم قریب، ملک الشعرای بهار ، بدیع الزمان فروزانفر، جلال همایی، رشید یاسمی. دستور زبان فارسی "پنج استاد" - تهران، ۱۳۶۶ ص . ۳۵-۳۴

13 محمد جواد مشکور. دستورنامه در صرف و نحو زبان پارسی. تهران، ۹۸۴۱ .ص. ۲۱

14 عالء الدین طباطبایی. ترکیب در زبان فارسی. بررسی ساختاری واژه های مرکب. تهران، ۹۸۱۷ . ص.۹۱-۱.

Фарзона БАЗАРБАЕВА
Студент 3-курс, ТГУВ

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ О ТЕРПЕНИИ 忍 В КИТАЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ СОЦИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ

Аннотация: В статье объясняется значение иероглифа 忍, понимание терпения не только в Китае, но и Узбекистане. Сравнивается каким образом терпение проявляется в вышеперечисленных странах. В дополнение отмечено что терпение — это часть культуры народа.

Ключевые слова: терпение, поступательность, судьба, уважение, самообладание.

Национальные представления, накопленные языковой картиной мира, могут быть установлены и описаны с помощью анализа словарного определения слова с учетом этимологии слова.

По данным толковых словарей китайского языка значение иероглифа 忍 значительно шире, чем значение лексем терпение в

толковых словарях русского языка. Этимологически иероглиф состоит из двух частей и трактуется буквально как ножом по сердцу. Стоит еще отметить что один и тот же иероглиф в китайском языке выступает в качестве существительного, глагола, прилагательного, союза.

Но в китайской лингвокультуре больше значений отсубъектной активности, выбора, целеполагания, представления о том, что терпение может сделать крепче и жестче, это скорее личный выбор, это умение.[1]

Любовь к поступательности в Китае.

В связи со своей любовью к поступательности китайцы — очень комфортные собеседники: терпимые, понимающие, умеющие приободрить и передать свой оптимистичный настрой. Получил плохую отметку? Нелегко справляться с работой? Ничего страшного, мань мань лай. Здесь не любят работать в авральном режиме, больше уважая долгий, упорный ежедневный труд, благодаря которому всегда остается время на то, чтобы отдохнуть, расслабиться, насладиться жизнью. Нужно смириться с тем, что судьба будет постоянно вносить свои коррективы в наши планы.

Каждый китаец испытывает почти мистический трепет перед словом «судьба» (мин), и, что бы она ни вытворяла с ним, он скажет лишь: «Мне просто не повезло. Да ничего, все еще образуется».

В этом причина феноменального китайского терпения, а также их умения мыслить большими категориями. Отводя руководящую роль судьбе, будучи подготовленным к любого рода переменам, обнаруживаешь, что твои планы становятся очень гибкими, появляется стойкость перед лицом неожиданностей. А поскольку неожиданности могут возникнуть на каждом шагу, и китаец знает об этом, он предпочитает двигаться постепенно, сверяясь на каждом шагу с окружающей его действительностью, как с компасом.

Китайский народ уверен: ничто в Поднебесной не получится сделать сразу, с наскоку. Положительный результат, достигнутый посредством рывка, не закрепится на долго. Необходимо маленькое усилие каждый день — в течение долгого времени.

За примерами далеко ходить не приходится – они обнаруживаются в самом языке, в часто употребляемых пословицах и фразеологизмах: «Двигаться к цели шаг за шагом» («И бу и бу дэ дадао муди»), «Большой успех есть сумма многих маленьких» («Цянь ли чжи син ши юй цзу ся»). И, самое популярное, для тех кто хоть раз вел разговор по

[1] https://urgi.urfu.ru/fileadmin/user_upload/common_files/Aksiologija_2021_27042021.pdf

душам с китайцем, — «Постепенно все придет» («Мань мань лай»). Не следует торопить события, когда знаешь, что они неминуемо произойдут. Следует положиться на судьбу и не тратить свои усилия там, где они не нужны.

В истории Древнего Китая есть множество примеров, связанных с настоящим терпением:

Эта история произошла с одним из великих полководцев Китая Хань Синем, который служил императору Лю Бану (256- 195 г. до н.э.) династии Западной Хань и был известен кроме прочего своей большой терпеливостью и способностью в любых ситуациях не терять самообладания.[1]

Хань Синь с юных лет изучал боевое искусство и также технику владения мечом. В те времена те, кто обучались ушу, всё время носили с сбой настоящие боевые мечи. Однажды Хань Синь шёл по улице и один местный хулиган преградил ему дорогу и вызывающе сказал: «Ты носишь меч, значит ты смелый и можешь убить человека. Отруби мне голову». Сказав это, хулиган, ухмыляясь, наклонился перед Хань Синем и подставил ему шею. Однако вызывающий тон и жесты этого человека не затронули Хань Синя и он остался стоять не пошелохнувшись. Увидев это, хулиган сказал: «Если ты не осмеливаешься меня убить, то проползи между моими ногами». В Китае подобный поступок считался самым большим унижением для человека. Однако Хань Синь прополз у него между ног.

Таким образом можно сделать заключение, что не просто так, китайская мудрость гласит, что настоящий воин это тот, кто может победить, прежде всего, самого себя и держать под контролем свои чувства и страсти.

Терпение у узбеков входит в национальные ценности, которые много уважаются это проявляется фактически ещё с малых лет когда родители учат детей спокойному перенесению боли беды скорби несчастья в собственной жизни.

Терпение от араб (сабр терпение выносливость).

Больше употребляется при исполнении религиозных обязанностей.

Часто упоминается что только терпимостью можно добиться счастья в обеих мирах и заслужить милость Всевышнего. Всевышний Аллах упомянул о нем в Куръане девяносто раз.

---

[1]说 汉语谈文化 。Xiaolu Wu 62 стр.14 урок.

Во многих местах Куръана Аллах повелевает нам терпеть и призывает нас:

«Просите помощи у Аллаха и терпите» (7:128).

В других местах Священной Книги Аллах восхваляет обладателей терпения:

«Терпеливые в беде и нужде и во время опасности. Это те, кто правдив те, кто богобоязнен»[1] (2:177)

В некоторых аятах Куръана Аллах говорит о своей любви к терпеливым:

«Аллах любит терпеливых» (3:146).

«Лучшее в этой жизни мы приобрели благодаря терпению» Умар ибн аль-Хаттаб.

Трудно переоценить значимость терпения в жизни человека. Терпение - это сила, которая помогает перенести тяготы, делать правильный выбор, возвращать себя на путь нравственности и истины и просто быть уравновешенным и благоразумным. В Коране терпение (сабр) упоминается более 100 раз. И в разных аятах и в разных значениях… О том, что Всевышний любит терпеливых:

«И Аллах любит терпеливых» (сура «аль Имран).

В заключении, выполненный нами сравнительный анализ показывает что в китайской социальной жизни терпение больше идет от любви к поступательности, в то время как у узбекского народа это понятие склоняется к выносливости. Китайцы редко наскоку что то предпринимают, для них все что достигнуто успеха быстро не закрепится надолго.

Ежедневно, в течении долгого времени непременно нужно делать маленькие шаги к цели. Только в этом случае результат прочно закрепится на месте и на долго.

По отношении проявления выносливости в сравниваемой нами второй страны, мысль терпение больше исходит из религиозных представлений и часто упоминается что исполнением религиозных обязанностей, также часто упоминается что только терпимостью заслужить милость Всевышнего и можно добиться счастья в обеих мирах.

---

[1] https://islam.uz/statya/4921#:~:text=%C2%AB%D0%A2%D0%B5%D1%80%D0%BF%D0%B5%D0%BB%D0%B8%D0%B2%D1%8B%D0%B5%20%D0%B2%20%D0%B1%D0%B5%D0%B4%D0%B5%20%D0%B8%20%D0%BD%D1%83%D0%B6%D0%B4%D0%B5,%C2%BB%20(3%3A146).

Использованная литература.

1. Бариловская А.А. Лексическое выражение концепта «Терпение» в истории и современном состоянии русского языка: дис. канд. филол. наук. Красноярск, 2008.
2. https://islam.uz/statya/4921 Коран. Сура Бакара
3. 说 汉语谈文化 。Xiaolu Wu 62 стр.

Lobar DONAYEVA
2-kurs magistranti, TDSHU

DAVLAT RAHBARI NUTQI SIYOSIY DISKURSIDA METAFORALARNING KOGNITIV TAHLILI (XITOY, AQSH, YEVROPA DAVLAT RAHBARLARI NUTQLARI MISOLIDA)

Annotatsiya: Maqolada davlat rahbari nutqi siyosiy diskursida metaforalarning kognitiv tahlili o‘rganiladi. Mazkur fan yo‘nalishlari bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotlar o‘rganilib nazariy bilimlar umumlashtiriladi. Ular ishlariga munosabat bildiriladi.

Tayanch so‘zlar: diskurs, diskurs va matn, siyosiy diskurs, metafora, konseptual metafora, kognitiv tahlil, diskurs kognitiv tahlil.

Siyosiy diskurs tushunchasi. Zamonaviy ijtimoiy fanlarda diskurs atamasi keng qo‘llaniladi, uning talqini bo‘yicha turli xil asarlar nashr etilgan, ammo hozirgi vaqtda diskursni tushunish va uni o‘rganish metodologiyasi bo‘yicha yagona fikr mavjud emas. Xususan, Ye.S.Kubryakova tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida diskursning umumiy qabul qilingan biror bir ta’rifi mavjud emasligini ta’kidlaydi[1]. Tilshunoslikda diskurs bir gapdan ham uzunroq til birligiga ishora qiladi. Diskurs so‘zi lotincha “dis”- “uzoqda” ma’nosidagi prefiksdan va “yugurish” ma’nosini bildiruvchi “currere” o‘zagidan olingan. Diskurs tadqiqotlari nutqda tilning shakli va funksiyasini uning kichik grammatik qismlari, masalan, fonema va morfemalardan tashqari ko‘rib chiqadi.

E.S. Kubryakova va Aleksandrovaning fikricha, diskursni tushunishda kognitiv jarayon haqiqiy nutqni ishlab chiqish va yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan muhim element, matn esa ma’lum bir qat’iy shaklga ega nutq

[1] Кубрякова Е.С. Парадигмы научного знания в лингвистике и ее современный статус.// Изв. АН Серия: лит-ра и яз. Т. 53. – 1994. – № 2. – С.24 – 30.

faoliyatining so‘nggi natijasidir[1]. Bunda tadqiqotchi nutq va matnni o‘zaro bog‘liq, biroq bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan tushunchalar sifatida ajratadi. E. F. Kirov esa matnni diskursning belgisi, diskursni esa individual idrok etilgan matn deb biladi[2]. M. L. Makarov esa “Diskurs bu matn va vaziyatdir”, deb hisoblaydi[3]. M.B. Voroshilovaning fikriga ko‘ra, “diskurs faqat o‘z matni bilan cheklanib qolmaydi, balki uning ishtirokchilariga xos bo‘lgan nutqning ijtimoiy kontekstini, asosiy bilimlarni hisobga olgan holda nutqni ishlab chiqarish va idrok etish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Diskurs - bu muayyan vaziyatdagi kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan matn bo‘lib, u matn chegarasidan tashqariga chiqadi va uni amalga oshirish uchun turli shart-sharoitlarni o‘z ichiga oladi”. Bundan xulosa qilish mumkinki, diskurs matn bilan cheklanib qolmaydi, balki matnni muloqot konteksti va boshqa omillar bilan bog‘laydi[4].

Diskurs o‘tgan asrning 80-yillari oxirida, G‘arb tadqiqot nazariyalari va tushunchalari Xitoy gumanitar fanlariga integratsiyalashganidan beri xitoy tilshunoslari tomonidan o‘rganish mavzusiga aylandi. Diskurs tushunchasi, uning tuzilishi va ijtimoiy hayot hodisasi sifatidagi vazifalari islohotlar va oshkoralik siyosatining boshlanishi davrida Xitoy ilmiy makoniga eksport qilingan “g‘arbiy” mahsulotdir. Xitoyda 60 dan ortiq ilmiy markazlar diskurs tilshunoslikni o‘rganish bilan shug‘ullanadi, ular diskurs nazariyasi va turlarini, diskurs tuzilishini, diskursiv funksiyalarni va diskursiv kontekstni o‘rganadi[5].

Xitoy akademik doiralari diskursning ta’rifi va uning tadqiqot usullari bo‘yicha bir xil fikrda emas, tadqiqotchilar “diskurs”ga turlicha talqin berishadi. Tilshunoslar “diskurs”ni gapdan ko‘ra kengroq sathga ega til birligi, sotsiologlar turli guruhlarning til darajasidagi xatti-harakatlarining aksi, kommunikativ olimlar axborot tashuvchi, adabiyotshunoslar tanqid obyekti, siyosatshunoslar kuch va qudrat ramzi sifatida ko‘rishadi. Xitoy tilida “diskurs”ga turli nomlar beriladi. Xususan, tilshunoslikda “话语 huàyǔ ” eng keng qo‘llaniladigan termin bo‘lib, “言语 yányǔ” , “语篇 yǔ

---

[1] Кубрякова Е.С., Александрова О.В. Виды пространств текста и дискурса // Категоризация мира: пространство и время: Материалы науч. конф. – М.: 1997. – С. 19.

[2] Киров Е. Ф. Текст и дискурс в семиотическом соотношении // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2, Языкознание. – 2018. – Т. 17, № 2. – С. 15–25.

[3] Макаров М. Л. Основы теории дискурса.— М.: ИТДГК «Гнозис», 2003.— 280 с.

[4] Ворошилова М. Б. Креолизованная метафора: первые зарисовки // Политическая лингвистика. – 2012. – № 4 (42). – С. 94—99.

[5] Геннадьевна. Формирование дискурсивно-коммуникативной парадигмы в китайском языкознании: от теории к социальной практике. Дисс…канд. филол. наук. – Красноярск, 2017. – 231 с.

piān”, “文本 wénběn” , “篇章 piānzhāng” , “谈话 tánhuà”, “讲话 jiǎnghuà”, “演讲 yǎnjiǎng”, “语词 yǔcí”, “文辞 wéncí”, “文章 wénzhāng”, “书籍 shūjí” va boshqalarni “话语 huàyǔ” ga ma’no jihatidan yaqinligini va alamashtirib qo‘llanilishini keltirish mumkin[1].

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, keng ma’noda siyosiy diskurs “siyosiy nutqlarda qo‘llaniladigan barcha nutq harakatlarining, shuningdek, an’analar bilan tasdiqlangan va tajriba bilan sinovdan o‘tgan davlat siyosati qoidalarining yig‘indisi” deb tushuniladi[2].

E. I. Sheygal ta’riflaydiki, siyosiy diskurs “subyekti, adresati yoki mazmuni siyosat sohasiga tegishli bo‘lgan har qanday nutq shakllaridir”[3].

Bundan tashqari, T.van Deykning fikricha, siyosiy nutq aynan siyosat sohasi bilan chegaralangan, ya’ni siyosiy nutq muayyan siyosiy muhitda ma’lum bir siyosiy harakatning hamrohi sifatida shakllanadi. Siyosiy diskurs siyosatchilarning nutqlari, parlamentdagi munozaralari, hukumatdagi muhokamalari natijasida shakllanadigan diskursdir va u siyosat sohasidagina qo‘llaniladi[4].

*Davlat rahbari nutqi alohida diskurs sifatida***.** Siyosiy diskurs va institutsional diskursning boshqa turlari (reklama, ilmiy, pedagogik, huquqiy, diniy, sport, harbiy va h.k. diskurslar), shuningdek, muloqotning institutsional bo‘lmagan shakllari (badiiy va kundalik nutq) o‘rtasida o‘xshash jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkin[5].

Siyosiy tilshunoslik diskursiv tadqiqotlarida alohida siyosiy voqea va vaziyatlar (urush, saylovlar, janjal, korrupsiya va boshqalar), alohida siyosiy partiyalar va harakatlar (o‘nglar, so‘llar, ekologlar, antiglobalistlar, millatchilar, kommunistlar va boshqalar) diskurslari yoki alohida siyosiy liderlar nutqlari hisobga olinadi[6].

Bundan xulosa qilish mumkinki, diskurs tushunchasiga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar va faqat o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlarni jamlagan holda, davlat rahbari nutqi alohida diskurs sifatida tadqiq etiladi.

---

[1] https://www.sohu.com/a/154992114_723134

[2] Баранов, А. Н., Казакевич, Е. Г. Парламентские дебаты: традиции и новации // Сов. полит. яз. (от ритуала к метафоре) / А. Н. Баранов, Е. Г. Казакевич. – М.: Знание, 1991. – 63 с.

[3] Шейгал Е.И. Структура и границы политического дискурса // Филология -Philologica,. №14. – Краснодар, 1998. – С.22-29.

[4] Dijk T. A. van. Political Discourse and Racism: Describing Others in Western Parliaments // The Language and Politics of Exclusion: Others in Discourse. – Thousand Oaks (Cal.): Sage Publications, 1997. – P. 31-64.

[5] Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. – Волгоград, 2000. – 440 с.

[6] Э. В. Будаев, а. П. Чудинов. Современная политическая лингвистика. – Екатеринбург, 2006. – 5-с.

Davlat rahbari nutqidagi konseptual metaforalar kognitiv tahlili. Kognitiv tilshunoslikda markaziy o‘rinni atrofdagi voqelikni turkumlash muammosi egallaydi, bunda *metafora* – inson ongining analogik imkoniyatlari (bir til birligining qaysidir ma’noda boshqasiga o‘zlashtirilish imkoniyatlari) namoyon bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy kognitiv fanda metafora odatda dunyoni bilish, kategorizatsiyalash, kontsepsiyalash, baholash va tushuntirish usuli sifatida, aqliy operatsiya sifatida ta’riflanadi[1].

J. Lakoff “Metaforaning zamonaviy nazariyasi” asarida “metaforaning o‘rni tilda emas, fikrda”[2] ekanligini ta’kidlagan. J. Lakoff va M. Jonsonning "Biz yashayotgan metaforalar" asarida “*kontseptual metaforalar*” muayyan jamiyatning tili va madaniy an’analarida mustahkamlangan manba maydoni va maqsad maydoni o‘rtasidagi barqaror muvofiqlik deb ataladi. Yevropa madaniyatining kontseptual metaforalariga, masalan, **TIME is MONEY** (VAQT – bu PUL), **ARGUMENT is WAR** (BAHS – bu URUSH), **LIFE is a JOURNEY** (HAYOT – bu SAYOHAT) va hokazo metaforik tasvirlar kiradi. Kontseptual metaforalar odamlar ongida ildiz otgan va shunchalik odatiy holga aylanib ulgurganki, ular ko‘pincha metafora sifatida tushunilmaydi[3]. Siyosiy nutq, jumladan, davlat rahbari nutqini o‘rganishda konseptual metaforalarni o‘rganish muhim hisoblanadi[4].

S. Nosirova o‘z maqolasida XXRning amaldagi Raisi Si Szinpin nutqlarida ko‘plab uchraydigan konsept sifatida “中国梦想 Zhōngguó mèngxiǎng – Xitoy orzusi” ni keltirar ekan, yaqin kelajakda tinch va barqaror xalqaro muhitni yaratish “Xitoy orzusi”ni amalga oshirishning asosiy sharti bo‘lgani holda, yosh avlod bu orzuni amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuchligini ta’kidlovchi Si Szinpinning individual notiqlik mahorati xususiyatlarini o‘rganadi va uning mahoratli hikoyachi, o‘z xalqi tarixi bilimdoni sifatida o‘zini namoyon eta olishini keltiradi[5]. Shuningdek, “Xitoy orzusi” matritsasining doimiy elementi bu orzu strategiyasini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha kontseptual tushunchalarni rasman aks ettiruvchi 24 iyeroglifning mavjudligi: 富强

---

[1] Э. В. Будаев, а. П. Чудинов. Современная политическая лингвистика. – Екатеринбург, 2006. – 35-36-с.

[2] G.Lakoff,. The contemporary theory of metaphor. In A. Ortony (Ed.), Metaphor and Thought (second edition) . — Cambridge: Cambridge University Press,1993. – pp. 202-251.

[3]Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. — М.: Едиториал УРСС, 2004. — 256 с.

[4] Э. В. Будаев, а. П. Чудинов. Современная политическая лингвистика. – Екатеринбург, 2006. – 42- с.

[5] Abdullaevna, N. S. Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches)// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 2020. – c.1086-1092.

fùqiáng farovonlik va (o‘zini) kuchaytirish, 民主 mínzhǔ demokratiya, 文明 wénmíng svilizatsiya ma’rifati, 和谐 héxié uyg‘unlik, 自由 zìyóu erkinlik, 平等 píngděng tenglik, 公正 gōngzhèng adolatlilik, 法治 fǎzhì qonunga muvofiq boshqaruv, 爱国 àiguó vatanparvarlik, 敬业 jìngyè mehnatga hurmat, 诚信 chéngxìn ochiqko‘ngillik, 友善 yǒushàn do‘stonalik va boshqalarga g‘amxo‘rlik konseptlari, deya ta’kidlaydi[1].

“Xitoy orzusi” ilk bora rasmiy ravishda 2012-yil 29-noyabrda amaldagi XXR raisi, o‘sha paytda bosh kotib lavozimidagi Si Szinpin tomonidan taklif etilgan edi. 2013-yil 17-martda O‘n ikkinchi Butunxitoy xalq vakillari kengashi birinchi sessiyasining yakuniy yig‘ilishida yangi saylangan Rais Si Szinpin “Xitoy orzusi”ni “Xitoy xalqining zamonaviy davrda eng katta orzusi bo‘lgan Xitoy xalqining qayta tug‘ilishini amalga oshirish” deb ta’rifladi va bu orzu “albatta amalga oshishini” aytdi. “Xitoy orzusi”ning asosiy maqsadi – “ikkita yuz yillik maqsad”ni, ya’ni 2021-yilda Xitoy Kommunistik partiyasi tashkil topganining 100 yilligiga qadar va Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganining 100 yilligiga qadar bajarilishi lozim bo‘lgan “o‘rtacha farovon jamiyat” – 小康 ni qurish maqsadini bosqichma-bosqich amalga oshirish, mamlakatning qayta tug‘ilishi, aniqroq qilib aytganda, mamlakatning gullab-yashnashi, xalq farovonligi va turmush darajasini oshirishda namoyon bo‘ladi. Xitoylik tadqiqotchi Jao Sinhua shunday yozadi: “Xitoy orzusi” haqida gap ketganda, ko‘pchilik G‘arb jamiyatida azaldan mashhur bo‘lgan “Amerika orzusi”ni hayoliga keltiradi…“Xitoy orzusi” da “Amerika orzusi”dan ma’no jihatidan ko‘p farqlar mavjud bo‘lib, ular tegishli ravishda bugungi kunda dunyodagi ikki yirik davlat xalqlarining orzu va intilishlarini o‘zida mujassam etgan. “Xitoy orzusi” va "Amerika orzusi" nafaqat geografik va xronologik jihatdan farq qiladi, balki turli tarixiy madaniyatlarga ega ikki mamlakatning fikrlash va yashash tarzi turfa xilligini ham namoyon qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, biri G‘arbning individualistik qadriyatlarini aks ettiradi, ikkinchisi Sharqning kollektivistik qadriyatlarini aks ettiradi”[2].

“Xitoy orzusi” konseptual metaforasining eng katta xususiyati shundaki, u mamlakat, millat va shaxslarning taqdirlari chambarchas bog‘liqligini, shu sabab mamlakat, millat va har bir shaxsning manfaatlari uyg‘un bo‘lishi

---

[1] Nasirova, S. A. Concepts of 中国 梦想" Chinese dream" and 类 命运 共同 "Community of the one fate of humanity"//a linguistic area. – Journal of Central Asian Social Studies, 1(01), 2020.– pp.05-14.

2 赵欣华。习近平“中国梦”讲话的批评话语分析。- 新加坡国立大学中文系，2013。 - 121 页。

lozimligini mamlakat fuqarolari ongiga singdirishni o‘ziga maqsad qilib qo‘ygan edi:

“中国梦是民族的梦，也是每个中国人的梦。只要我们紧密团结，万众一心，为实现共同梦想而奋斗，实现梦想的力量就无比强大，我们每个人为实现自己梦想的努力就拥有广阔的空间。生活在我们伟大祖国和伟大时代的中国人民，共同享有人生出彩的机会，共同享有梦想成真的机会，共同享有同祖国和时代一起成长与进步的机会。有梦想，有机会，有奋斗，一切美好的东西都能够创造出来。全国各族人民一定要牢记使命，心往一处想，劲往一处使，用 13 亿人的智慧和力量汇集起不可战胜的磅礴力量”。

“Zhōngguó mèng shì mínzú de mèng, yěshì měi gè zhōngguó rén de mèng. Zhǐyào wǒmen jǐnmì tuánjié, wànzhòngyīxīn, wèi shíxiàn gòngtóng mèngxiǎng ér fèndòu, shíxiàn mèngxiǎng de lìliàng jiù wúbǐ qiángdà, wǒmen měi gèrén wéi shíxiàn zìjǐ mèngxiǎng de nǔlì jiù yǒngyǒu guǎngkuò de kōngjiān. Shēnghuó zài wǒmen wěidà zǔguó hé wěidà shídài de zhōngguó rénmín, gòngtóng xiǎngyǒu rénshēng chūcǎi de jīhuì, gòngtóng xiǎngyǒu mèngxiǎng chéng zhēn de jīhuì, gòngtóng xiǎngyǒu tóng zǔguó hé shídài yīqǐ chéngzhǎng yǔ jìnbù de jīhuì. Yǒu mèngxiǎng, yǒu jīhuì, yǒu fèndòu, yīqiè měihǎo de dōngxī dū nénggòu chuàngzào chūlái. Quánguó gè zú rénmín yīdìng yào láojì shǐmìng, xīn wǎng yī chù xiǎng, jìn wǎng yī chù shǐ, yòng 13 yì rén de zhìhuì hé lìliàng huìjí qǐ bùkě zhànshèng de páng bó lìliàng”.

“Xitoy orzusi – bu millatning orzusi va har bir xitoylikning orzusi. Biz bir tan-u bir jon bo‘lib yagona niyat uchun birlashamiz, umumiy orzularimizni ro‘yobga chiqarish maqsadi bilan kurashamiz, orzularimizni ro‘yobga chiqarish uchun qudratimiz nihoyatda tengsiz, har birimiz o‘z orzularimizni ro‘yobga chiqarish sa’y-harakatlari uchun keng maydonga egamiz. Buyuk Vatanimizda va buyuk davrda yashovchi xitoyliklar birgalikda hayotda ustun bo‘lish imkoniyatidan, o‘z orzularini ro‘yobga chiqarish imkoniyatidan, Vatan va zamon bilan birga o‘sish va rivojlanish imkoniyatidan bahramand bo‘lishadi. Orzular, imkoniyatlar va kurashlar bor bo‘lsa, barcha go‘zal narsalarni yaratish mumkin. Mamlakat bo‘ylab barcha millat vakillari o‘z missiyalarini yodda tutishlari, yakdil fikrlashlari, bir maqsad uchun kuyib-pishishlari, yengilmas ulug‘vor kuchni to‘plash

uchun bir milliard uch yuz million odamning donoligi va kuchidan foydalanishlari kerak.”

Konseptual metafora nazariyasi birinchi marta siyosat tiliga uning asoschilaridan biri tomonidan qo‘llanilgan. J. Lakoff tadqiqotining predmeti Amerika hukumati tomonidan 1990-1991 yillarda Fors ko‘rfazidagi inqiroz va AQSHning harbiy bostirib kirishi rejalari bilan bog‘liq jamoatchilik fikrini tayyorlash uchun qo‘llangan metaforalar edi. Bu davrda AQSh Prezidenti Jorj Bush va uning ma’muriyati tomonidan qo‘llanilgan metaforalar uning o‘g‘li, Prezident Kichik Jorj Bush tomonidan sezilarli o‘zgarishlarsiz, allaqachon AQShning Iroqdagi ikkinchi urushi kontekstida takrorlangan.

Muallif tegishli konseptual metaforalarni ajratib ko‘rsatdi, urushning yashirish uchun mo‘ljallangan tomonlarini ochib berdi va rasmiy dalillarning nafaqat axloqiy, balki harbiy-siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan ham nomuvofiqligini ko‘rsatdi. Masalan: URUSH – bu SIYOSAT, SIYOSAT – bu BIZNES ⇒ URUSH – bu BIZNES. Lakoff bu metaforalarning birinchisini Klauzevits metaforasi deb ataydi, chunki aynan Prussiya generali Karl fon Klauzevits “urush – siyosatning boshqa vositalar bilan davom etishi”, degan edi. Darhaqiqat, har bir davlat o‘z siyosiy maqsadlarini ko‘zlaydi va ba’zida urush ularga erishishga yordam beradi. O‘z navbatida, siyosat ko‘pincha biznesga yaqinlashib, muvaffaqiyatli siyosiy boshqaruvni samarali biznes rahbariyatiga o‘xshatadi: axir, hukumat ham o‘z faoliyatida xarajatlar va foydalarning qat’iy hisob-kitobini amalga oshirishga, rejalashtirilgan daromadlarni kutilgan yo‘qotishlar bilan solishtirishga majbur bo‘ladi va hokazo.

Ushbu ikki metafora birgalikda urushni biznes nuqtai nazaridan tushunishga imkon beradi. Misol sifatida, Lakoff 1990-yil 12-noyabrda “The New York Times” gazetasida AQSh Fors ko‘rfazi urushiga kirishi arzirlimi yoki yo‘qmi degan mavzuga bag‘ishlangan maqolani keltiradi. Maqolada turli tahlilchilar urushning mumkin bo‘lgan foyda-xarajat nisbatini qanday baholashlari muhokama qilingan; Bunday istiqbolning maqbulligi haqidagi savolga kelsak, u hatto ko‘tarilmagan.[1]

Yuqoridagi fikrlardan siyosiy nutqni tahlil qilishning kognitiv yondashuvi zamonaviy siyosiy tilshunoslikda yetakchi o‘rinni egallashi barobarida kognitiv tahlilning ko‘p jihatlari hali ham munozarali bo‘lib qolayotganligi anglashiladi.

---

[1] Скребцова, Т. Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011. — 36-с.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Кубрякова Е.С. Парадигмы научного знания в лингвистике и ее современный статус. // Изв. АН Серия: лит-ра и яз. Т. 53. 1994. № 2. С.24 – 30.
2. Кубрякова Е.С., Александрова О.В. Виды пространств текста и дискурса // Категоризация мира: пространство и время: Материалы науч. конф. М.: 1997. – С. 19.
3. Киров Е. Ф. Текст и дискурс в семиотическом соотношении // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 2, Языкознание. – 2018. – Т. 17, № 2. – С. 15–25.
4. Макаров М. Л. Основы теории дискурса.— М.: ИТДГК «Гнозис», 2003.— 280 с.
5. Ворошилова М. Б. Креолизованная метафора: первые зарисовки // Политическая лингвистика. 2012. № 4 (42). С. 94—99.
6. Геннадьевна. Формирование дискурсивно-коммуникативной парадигмы в китайском языкознании: от теории к социальной практике. Дисс…канд. филол. наук. – Красноярск, 2017. – 231 с.
7. https://www.sohu.com/a/154992114_723134
8. Шейгал Е.И. Структура и границы политического дискурса // Филология -Philologica,. №14. - Краснодар, 1998. - С.22-29.
9. Dijk T. A. van. Political Discourse and Racism: Describing Others in Western Parliaments // The Language and Politics of Exclusion: Others in Discourse. Thousand Oaks (Cal.): Sage Publications, 1997. - P. 31-64.
10. Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. – Волгоград, 2000. – 440 с.
11. Э. В. Будаев, а. П. Чудинов. Современная политическая лингвистика. – Екатеринбург, 2006.
12. Лакофф Джордж, Джонсон Марк. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под ред. и с предисл. А. Н. Баранова. — М.: Едиториал УРСС, 2004. — 256 с.
13. G.Lakoff,. The contemporary theory of metaphor. In A. Ortony (Ed.), Metaphor and Thought (second edition) . — Cambridge: Cambridge University Press,1993. - pp. 202-251.
14. Скребцова, Т. Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций. — СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2011. — 384 с.
15. Баранов А.Н. Предисловие редактора. Когнитивная теория метафоры: почти двадцать пять лет спустя // Лакофф Дж. Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. М.: ЕДИТОРИАЛ УРСС, 2004. С. 7-21.

16. Abdullaevna, N. S. Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on si jinping‘s speeches)// Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 2020. – c.1086-1092.

17. Nasirova, S. A. Concepts of 中国 梦想" Chinese dream" and 类 命运 共同 “Community of the one fate of humanity”//a linguistic area. – Journal of Central Asian Social Studies, 1(01), 2020.– pp.05-14.

18. 赵欣华。习近平“中国梦”讲话的批评话语分析。- 新加坡国立大学中文系，2013。 - 121 页

Nilufar SHIRINOVA
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, filol.f.n.

TURLI TIZIMLI TILLARDA LISONIY PARALLELIZM

Annotatsiya: Mazkur maqolada turli tizimli tillarda lisoniy parallelizmning metodologik masalalari, xususan aniq, tabiiy va ijtimoiy sohalardagi parallelizm ko‘rinishlari tadqiq qilingan. Shuningdek, lisoniy parallelizmning til tizimida voqelanishi hamda boshqa tur parallelizmdan farqli va o`xshash tomonlari ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: parallelizm, biologik parallelizm, intellektual parallelizm, lisoniy parallelizm, sintaktik parallelizm, lisoniy birlik, denotativ ma’no, konnotativ ma’no, lisoniy usul, lisoniy vosita.

Obyektiv borliq – insoniy tafakkur – insoniy til zanjiridan o‘tib, lisoniy sathda reallashadigan lisoniy kategoriya va ma’nolar muayyan til tizimida ham, turli tillar tizimida ham o‘zaro parallel ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Bunday parallel ko‘rinishlar nafaqat tilning o`ziga xosligini, balki tillararo umumiy tomonlarni ham asoslaydi.

Parallelizm (grekcha *parallelos* – yonma-yon turuvchi) – fanda o‘zaro solishtirilayotgan ikki predmet/hodisaning umumiy va o‘xshash tomon(lar)i, noto‘liq takrori sifatida ma’lum bo‘lib, tilda lisoniy (lingvistik) parallelizm shaklida ro‘yobga chiqadi [11; 15]. Parallelizm hodisasini biologiya, fizika, matematika, informatika kabi ko‘plab sohalarda kuzatish mumkin. Masalan, informatika va hisoblash muhandisligi sohasidagi parallelizm – bir paytning o‘zida yechilishi mumkin bo‘lgan kichik topshiriqlarni nazarda tutishi mumkin. Bunda ko‘plab hisoblash tugunlarida

ma’lumotlarni parallel qayta ishlashni u yoki bu usul orqali ro‘yobga chiqaradigan fizik hamda dasturlash tizimlari nazarda tutiladi. Masalan, ikki protsessorli mashinada massivni tezkor guruhlash uchun uni teng ikkiga bo‘lish yoki har ikki qismni alohida protsessorda saralash mumkin. Har bir qismning saralanishi turlicha vaqtni olishi mumkin, shuning uchun sinxronizatsiya (bir vaqtning o‘zida bir necha operatsiyalarning bajarilishi) kerak bo‘ladi [10; 15]. Dasturlashda parallelizmning – bitlar *sathida parallelizm*, *instruksiyalar sathida parallelizm*, *ma’lumotlar parallelizmi*, *vazifalar parallelizmi* kabi turlari mavjud bo‘lib, har biri o‘ziga xos vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashgan. Umuman olganda, parallel hisoblashlar kompyuterlar arxitekturasida dominant paradigma sifatida asosan ko‘pyadroli protsessorlar ko‘rinishida ifodalanadi.

Aslida parallelizm biologik (tabiiy) ong sathidan boshlanib, sun’iy ong sohasiga ko‘chirildi. 1970-yillarning boshida Massachusets texnologiya universitetining Sun’iy intellekt laboratoriyasi mutuxassislari Marvin Minskiy va Seymur Peypert “Aql jamiyati” deb nomlangan nazariya orqali biologik ongni ommaviy parallel hisoblash mashinasi sifatida qarashadi. 1986-yilda Marvin Minskiy “Aql jamiyati” deb nomlangan kitobida esa “ong o‘z-o‘zicha anglash qobiliyatiga ega bo‘lmagan ko‘plab kichkina agentlardan iborat”, degan fikrni ilgari surdi [3, 57]. Mazkur nazariyaga ko‘ra intellekt – o‘zi ongli bo‘lmagan agentlar deb nomlangan sodda qismlarning o‘zaro aloqadorligi mahsulidir. Muayyan anglash operatsiyasini bajarayotganda mazkur qism(cha)lar bir vaqtning o‘zida avtomatik harakatga keladi va o‘zaro munosabatga kirishadi. Mana shu jarayon (biologik, tabiiy) *intellektual parallelizm* deb hisoblanadi.

Demak, parallelizm tabiiy intellektual hodisa sifatida nafaqat insoniy tafakkur sathida, balki insoniy tafakkurning reallashuv shakli bo‘lgan lisoniy ong hamda insoniy til sathlarida ham reallashadi. Bunda obyektiv borliqda mavjud real va irreal hodisalarning inson ongida aks etish jarayonini kuzatish mumkin. Insoniy tafakkur reallikda diskret (alohida, ajralgan) bo‘lgan narsa/hodisalarni sinkretlashtirish (birlashtirish, umumlashtirish) yoki aksincha, sinkret bo‘lgan voqeliklarni diskretlashtirish yo‘lidan borar ekan, buni o‘ziga xos mantiqiy parallel operatsiyalar orqali amalga oshiradi [5].

Mantiqiy parallelizm, o‘z navbatida, lisoniy parallelizm shaklida reallashadi, bunda muayyan mantiqiy kategoriya va tushunchalar lisoniy birliklar ifodasida ro‘yobga chiqadi. Lisoniy parallelizm tilda grammatik kategoriyalar, leksik va grammatik ma’nolarni ifodalash, fonetik/fonologik ekspressiya kabi lisoniy operatsiyalar jarayonida kuzatiladi [4; 8; 9];

muayyan grammatik kategoriyani ifodalashda ishtirok etuvchi turli lisoniy birliklar bir vaqtning o‘zida bir maqsad – shu grammatik ma’noni yuzaga chiqarish yo‘lida qatorlanadi.

Biroq o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, fanda lisoniy parallelizm hodisasi ko‘proq nazmiy adabiyotda takror, anafora, qofiya va radiflarning parallel (muqobil) ishlatilishi yo‘nalishida o‘rganilganlik bilan cheklangan bo‘lib, sof lingvistik (lisoniy ma’nolarning ifodalanishida til sathlariaro va/yoki til birliklariaro parallelizm) yo‘sinda kamroq o‘rganilgan. Aslida lingvistik parallelizmning hatto tilning struktur sathlarida voqelanishida yuzaga keladigan stilistik, konnotativ funksiyasini ham inkor etib bo‘lmaydi, chunki har qanday parallel model, konstruksiya, tuzilma va hatto birlik – xoh so‘zlashuv yoki ilmiy, xoh poetik uslub bo‘lsin, asosiy denotativ ma’no asosiga qurilgan intensifikatsiyani namoyish etadi – bu holat birin-ketinlik bilan mikrosathdan makrosathga qarab o‘sishi va shu orqali turli lisoniy va nutqiy voqelanishlarni aks ettirishi mumkin [6; 7]. Tilning nazmiy ifodasini namoyon etuvchi adabiy uslubda parallelizm – lirik g‘oyani yetkazish jarayonida fonetik, morfologik va sintaktik birliklar orasidagi o‘zaro assimilyatsiyani ifodalovchi yo‘lga aylangan: bu *tovushlar parallelizmi* (tovushlar va bo‘g‘inlar o‘rtasida), *leksik parallelizm* (takroriy so‘z va iboralar vositasida) yoki *sintaktik parallelizm* (so‘z birikmalari va gap orasidagi) bo‘lishi ma’lum [1; 12; 13; 14].

Masalan, A.Nedogonovning quyidagi satrlarida sintaktik parallelizmni kuzatishimiz mumkin:

Алмаз шлифуется алмазом,
Строка шлифуется строкой.

Xuddi shunday holatni o‘zbek tilida yozilgan asarlar matnida ham uchratish mumkin: *“Gap shundaki, men adabiyot tarixi imtihonidan o‘tmay turib, muhabbat dardiga mubtalo bo‘ldim. Oqibatda na imtihondan o‘tdim, na u dardga davo topdim. Endi o‘ylab ko‘rsam, imtihondan eson-omon qutulgan taqdirimda ham unga davo topmog‘im gumon ekan* (Erkin A’zamning “Otoyining tug‘ilgan yili” asaridan keltirildi)”. Bu misolda tasvirlanayotgan voqea parallel birliklar orqali (bir harakat ikki xil ma’no ifodalab), parallel birlikning ma’nosi kengaygan holda ifodalangan, ya’ni sintaktik parallelizm yuzaga chiqqan [4].

Tovushlar parallelizmini izchil tadqiq etgan N.Djusupovning haqli ta’kidlashicha, bu tip hodisa nafaqat nutqning ravonligi, silliqligi va o‘qishliligini, balki ma’noviy/mantiqiy yukning simmetrik tarzda singdirilishini ta’minlaydi [2]. Darhaqiqat, bu o‘rinda parallelizm imkoniyatlaridan foydalanish – nafaqat o‘ziga xoslik, alohidalik,

individuallik belgilarini, balki ikki va undan ortiq birliklar va ular o‘rtasidagi o‘zaro semantik aloqadorlikning hamda o‘zaro tobelanishning faollashuviga xizmat qiladi.

Yuqorida aytganimizdek, lingvistik parallelizm, asosan adabiyot va musiqa sohasida stilistik usul sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Lisoniy parallelizmning obyektiv borliq – insoniy tafakkur – insoniy ong munosabatlarini namoyon etuvchi kognitiv hamda kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish uchun tilning aynan struktur yaruslari darajasida voqelanishi masalasi esa dolzarbligicha qolmoqda. Bunda lisoniy parallelizm nafaqat tuzilishi, balki faollashuviga ko‘ra ham universal hodisaligini namoyon etadi, bu esa o‘z navbatida biror-bir tashkiliy model (qolip/qurilma) bilan shartlangan birliklar orasidagi muayyan muvofiqliklar (o‘xshashliklar/umumiyliklar)ni ajratishga asoslanadi. Masalan, o‘zbek tilida son grammatik kategoriyasini ifodalash uchun fonetik, leksik va grammatik birliklarning qatnashishini kuzatishimiz mumkin:

1. **Fonetik**: *u-u-uy* (Bir u-u-uy odam xandon otib kulishmoqda)
2. **Takror**: *uy-uy* (uy-uy odam); *uy-puy* (Uy-puy qurishlarda qatnashgan)
3. **Affiksatsiya**: *uylar* (Uylarning chirog‘i haliyam yoniq)
4. **Juftlash**: *uy-joy* (Uy-joy qilishim kerak)
5. **Analitik**: *to‘rtta uy* (To‘rtta uy sotildi), *ko‘p uy* (Ko‘p uylar g‘ishtdan qurilmoqda), *bir necha uy* (Uning bir emas, ikki emas, bir necha uyi bor).

Ko‘rinadiki, lisoniy tizim son kategoriyasi tarkibida bo‘lgan birgina ko‘plik grammatik ma’nosini yuzaga chiqarish uchun fonetik, takror, affiksatsiya, juftlash va analitik usul kabi yo‘llardan parallel foydalana oladi, ya’ni mazkur alohida operatsiyalarning har biri lisoniy ongda alohida uyachalarda joylashgan va yashayotgan bo‘lsa-da, mazkur ma’noni ifodalash yo‘lida bir qatorga tiziladi va faollashadi. Aynan mana shu holat tilda lisoniy parallelizmni – o‘zida til birliklarining uzluksiz va barqaror harakatlanishi asosi sifatida nafaqat tuzilishi, balki faollashuvi bo‘yicha universal (umumiy) hodisa ekanligini va bunda u yoki bu tashkiliy qoliplarga aloqador birliklar o‘rtasidagi muayyan o‘xshashliklarning ajratilishini namoyon etuvchi lingvistik hodisani – namoyon etadi.

Demak, lingvistik parallelizm hodisasining turli lisoniy aspektlarda hamda turli tillar tizimida voqelanishi masalasiga bag‘ishlangan qator ishlardagi tahlillar asosida bu hodisaga oid nafaqat umumiy va farqli xususiyatlarni ajratish imkoniga, balki ekvivalentlik munosabatlari va ekvivalentlik tamoyilini ham o‘rganishga erishish mumkin, ya’ni o‘zaro

parallel munosabatlarga kirishayotgan istalgan til birligi muayyan kategoriya/ma’no/vazifani reallashtirish uchun o‘zaro muqobil/sherik/hamkor/o‘rinbosar mavqeyida bo‘ladi: o‘zaro parallel qatorda turgan bir lisoniy usul yoki vosita dominantlashsa, ikkinchi yoki keyingi usul/vosita neytrallashishi haqida xulosa qilish mumkin. Bu kabi hamkorlik til iqtisodiyligi, ixchamligi va maqsadliligini ham belgilaydi, chunki har qanday holatda ham (qanchalik boy va rang-barang vosita, resurs va usullarga ega bo‘lishiga qaramay) til o‘zining asosiy vazifasi – faol, o‘zaro shartlangan va maqsadli interpretatsiyani amalga oshirishga harakat qiladi.

Yuqorida aytilganlar asosida aytish mumkinki, obyektiv reallikda mavjud bo‘lgan hamda insoniy tafakkur va tilda voqelanadigan lisoniy kategoriya va ma’nolar muayyan til tizimida ham, turli tillar tizimida ham o‘zaro parallel ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Albatta, parallel ko‘rinishlar muayyan grammatik ma’noni ifodalashda lisoniy sathlararo o‘zaro hamkorlik va integratsiyani namoyon etsa, tillararo parallelizm umumlingvistik qonuniyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Веселовский А.Н. Психологический параллелизм и его формы в отражениях поэтического стиля // Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Л., 1940.
2. Джусупов Н.М. Лингвистический параллелизм в англоязычном поэтическом тексте: когнитивно-стилистический потенциал и проблема интерпретации // “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал, № 4 (23) / 2018. – С.113-119.
3. Минский М. Сообщество разума. – М.: АСТ, 2018.
4. Toshxujaeva SH.G‘., Abdusamatova N.M. Erkin A’zam asarlarida sintaktik parallelizm//International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia: https://econferencezone.org Nov, 24th 2022.
5. Shirinova N., Hamdamova G. Grammatik ma’nolarni ifodalashda parallelizm// Adabiy til jonkuyari. Prof. M.Mirzaev tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar to‘plami. – Buxoro, 2002. – B. 76-78.
6. Shukurov P.M. Parallel sintaktik butunliklar. – Fargona: NDA., 2004.
7. Shukurov R.M. Parallel sintaktik butunliklar: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – T., 2004.

8. Якобсон Р. Грамматический параллелизм и его русские аспекты//Якобсон Р. Работы по поэтике: Перевод/Сост. и общ. ред. М.Л. Гаспарова. – М.: Прогресс, 1987. – С. 99 – 132.

9. Якобсон Р. Поэзия грамматики и грамматика поэзии // Семиотика: Антология/Сост. Ю.С. Степанова. Изд. 2-е, испр. и доп. – М. Академический проспект; Екатеринбург: Деловая книга, 2001. – С. 525–548.

10. Almasi, G.S. and A. Gottlieb (1989). Highly Parallel Computing. – Benjamin-Cummings publishers, Redwood City, CA.

11. Carlson, Katy. Parallelism and Prosody in the Processing of Ellipsis Sentences. Routledge, 2002, pp. 4-6. https://ru.wikipedia.org/wiki

12. Leech G.N. A Linguistic Guide to English Poetry. – London–New York: Longman, 1969. – 237 p.

13. Leech G., Short M. Style in fiction: a linguistic introduction to English fictional prose. 2nd ed. – London: Longman, Pearson Education, 2007. – 404 p.

14. Short M. Exploring the Language of Poems, Plays and Prose. – London–New York: Longman, 1996. – 385 p.

15. https://www.textologia.ru/slovari/lingvisticheskie-terminy/parallelizm/?q=486 &n=1248

Mohijahonbegim SOBIROVA
1-kurs magistranti, TDSHU

KOREYS TILI TOPIK II IMTIHONIGA OID “YOZISH” BO‘LIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (54-SAVOL MISOLIDA)

Annotatsiya: Maskur maqolada hozirgi kunda ommalashib borayotgan Topik II imtihonida yuqori natijani qo‘lga kiritishga to‘siq bo‘ladigan omillarni “쓰기” (yozish) bo‘limi orqali yoritib berishga harakat qilindi. Tezisda “쓰기” (yozish) bo‘limidan yuqori ball olish uchun qaysi jihatlarga e’tibor berish kerak ekanligi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Topik II imtihoni, imtihon natijalari, yozish bo‘limi, insho yozish qoidalari, 54-savol turi.

Barchaga ma’lumki, hozirgi globallashuv jarayonida xorijiy tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish hamda talab kundan kunga oshib bormoqda.

O‘z o‘rnida uzoq sharq tillaridan bo‘lmish koreys tiliga bo‘lgan e’tibor ham kun sayin o‘smoqda. Ilgari, asosan koreys xalqining madaniyatiga bo‘lgan qiziqish tufayli o‘rganilgan bu til, hozirda dunyoda keng ommalashib borayotgan tillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda koreys tilini nafaqat boshlang‘ich darajada, balki, yuqori darajada o‘rganib, kelajakda o‘z kasbini aynan koreys tili bilan bog‘lamoqchi bo‘lganlar soni keskin oshmoqda. Bunga dalil - koreys tili bilim darajasini aniqlovchi TOPIK imtihonini topshirib, sertifikatga ega b‘lish talabi va taklifining oshganidir. Ya’ni, avval, birgina Toshkentning ikki joyida o‘tkaziladigan TOPIK imtihoni, bugungi kunga kelib O‘zbekistonning Toshkent, Samarqand, Urganch, Farg‘ona, Namangan hamda Buxoro hududlarida tashkil etilmoqda. Imtihon topshiruvchilar soni ham yildan yilga oshirilmoqda. TOPIK II imtihonida yuqori natijani qo‘lga kiritish uchun talabgorlar quyidagi bosqichlardan o‘tishlari darkordir.

TOPIK II imtihonida uch bo‘lim mavjud bo‘lib, bular:

- Eshitish (듣기)
- Yozish (쓰기)
- O‘qish (읽기)

Yuqoridagi bo‘limlar orasidan zabt etilishi eng qiyin bo‘lgani bu imtihonning ikkinchi qismi bo‘lgan, “Yozish” (쓰기) bo‘limidir. Nega ko‘p holatlarda aynan yozish bo‘limi yuqori daraja olishga to‘sqinlik qilishini anglash yuzasidan bu mazvuda juda turli xildagi ilmiy ishlar, maqolalar, dissertatsiya ishlari olib borilgan. “Yozish” bo‘limida savollarga javob berish chog‘idagi qiyinchiliklar nafaqat o‘zbek millatiga mansub imtihon topshuruvchilar orasida, balki, butun dunyodagi millatlar orasida mavjud bo‘lgan muammodir. Shu sababli ham, koreys tilshunoslari bu borada bir qancha tadqiqotlar o‘tkazishgan. Ulardan Kim In Xi (김은희), Chang Su (장수), Kim Von Kyong (김원경), Kim Xyon Jin (김현진)larni sanab o‘tsak bo‘ladi1.

Tadqiqotchilar orasida Kim In Xi (김은희[2]) “Yozish” bo‘limini uch darajaga bo‘lgan. Bular: boshlang‘ich, o‘rta hamda yuqori darajalardir.

---

[1] 장주천. 토픽II 쓰기 53 번 문항의 교육 내용 연구.-서울: 동국대학교,2020. – 2 쪽

[2] 김은희. 한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안. 국어교과교육연구, 2012,-21,쪽

So‘ngra o‘rta va yuqori daraja savol turlari va ularga qo‘yiladigan baho haqida tadqiqot o‘tkazib, “Yozish” bo‘limidan yuqori daraja olish uchun beriladigan bilim xaritasini tuzgan.

Chang Su (장수[1]) esa, TOPIK II mahsus yig‘ma testlardan imtihon topshiruvchilar yozgan asl nusxadagi insholarni tadqiq qilib, ular qiyinchilik tug‘dirgan qismlar qayerda ekanligini aniqlagan. Bu tadqiqot natijasiga ko‘ra talabgorlarning so‘z va grammatik zahirasi yetishmasligi, insho matnining butun bir ma’nosiga e’tibor bermasdan faqatgina ma’lum bir so‘z va iboralarga e’tiborini qaratishi ma’lum bo‘ldi.

Kim Von Kyong (김원경[2]), o‘z tadqiqotida, “Yozish” bo‘limi imtihon topshiruvchining nafaqat o‘z bilimini, balki, yana qo‘shimcha bilimlar (har xil mavzularga oid dunyo qarash)ni talab qilgani bois, talabgorning koreys tili ko‘nikmalarini baholashga to‘g‘iri kelmasligini aytib o‘tgan. Bu borada, “Yozish” bo‘limidagi savollarni qayta ko‘rib chiqish taklifini kiritgan.

TOPIK II imtihoni yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlarning birini quyidagi jadval orqali ko‘rib o‘tsak:

회수[3] / 영역	**58 회**	**59 회**	**60 회**	**61 회**	**62 회**
듣기	55.93	58.3	59.9	60.73	58.43
쓰기	31.32	36.1	33.4	31.89	32.49
읽기	52.57	54.82	54.7	54.76	54.94

Yuqoridagi jadvalda TOPIK II 58-imtihonidan 62-imtihonigacha bo‘lgan umumiy natijalar yig‘ib olingan. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, imtihonning eng qiyin hamda ball past chiqadigan bo‘limi, bu yozish bo‘limi bo‘lib, umumiy o‘rtacha ball 33 ni tashkil etgan. Vaholanki, yozish bo‘limidagi eng yuqori ball, 100 ball bo‘lib, bu bo‘limda mavjud bo‘lgan 51 va 52-savollariga 10 ball, 53-savoliga 30 ball, 54-savoliga ya’ni katta

---

[1] 장수. "한국어 능력시험 응시자를 위한 고급 쓰기 교육 방안." 국내석사학위논문 부산외국어대학교 일반대학원, 부산 2013.

[2] 김원경. "한국어교육을 위한 과정 중심 쓰기 평가 모형 연구." 국내박사학위논문 가톨릭대학교 대학원, 경기도 2016.

[3] 마광홍. "한국어능력시험(TOPIK)II 54 번 답안쓰기에 나타난 오류 양상 연구." 국내석사학위논문 中央大學校 大學院, 서울 2019.

inshoga esa 50 ball beriladi. Ko‘pchilik ball yo‘qotadigan savol turi ham aynan shu 54-savol turidir.

54-savol turiga imtihon topshiruvchi katta insho yozish orqali javob beradi. Katta insho hajmi 600-700 bo‘g‘in oralig‘ida bo‘lishi darkor. Bu savol boshqa savol turlari ichida eng qiyini bo‘lib ko‘rinishining sababi ham aynan shundadir. Inshoning hajmi va uni yozishga beriladigan vaqtning (25-daqiqa) kam ekanligidir. Bu vaziyatda esa, imtihon topshiruvchi sarosimaga tushib, inshoni yoza olmaydigan holatlar ko‘p.

Ammo, har bir ishni bajarishda bo‘lgani kabi, insho yozishning ham o‘z qonun qoidalari mavjud. Ko‘p holatlarda imtihon topshiruvchi inshoni mazmunini yuqori darajaga hos qilib yoritib berish uchun harakat qiladi. Biroq, shu bilan bir paytda aslida inshoni qanday yozish kerak, imlo xatolarga yo‘l qo‘ymaslik haqida unutish holatlari juda ko‘p uchraydi. Shu sababli ham, yozilgan insho hali o‘qib chiqilmasidan ball yoqotishni boshlaydi. Chunki, imloviy hamda insho bandlarini ajratishda qo‘yilgan xatoliklar inshoni tekshiruvchi insonning ko‘ziga yaqqol tashlanadi.

54-savol turiga insho yozishning asosiy qoidalari:

- Insho matnida kirish, asosiy qism va xulosa mavjud bo‘lishi darkor[1];
- Insho 600-700 bo‘g‘in oralig‘idagi matndan tashkil topishi kerak;
- Inshoda yuqori darajadagi so‘z, so‘z birikmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq;
- Inshoda fikr aniq hamda asoslangan bo‘lishi kerak;
- Insho yozish jarayonida insho varag‘i (원고지) dan to‘g‘iri foydalanish kerak.

Yuqorida ta’kidlab o‘tgan bandlarimiz orasida bu maqolada oxirgi bandga to‘xtalib o‘tsak. Ya’ni: insho yozish jarayonida insho varag‘i (원고지) dan to‘g‘iri foydalanish kerak. Insho varag‘idan oqilona foydalanish uchun unga qo‘yilgan qonun qoidalarni bilish darkordir. Misol uchun[2]:

- Bir katakga bir bo‘g‘in joylashishi kerak.

	현	대		사	회	는		정	보	화		사	회	이	다	·		

- Matnni birinchi bor boshlayotganda hamda xatboshi tashlanishi kerak bo‘lgan holatlarda insho varag‘idagi birinchi katak bo‘sh qoladi.

•	음	주		운	전		사	고	는		전	체		교	통	사	고	의

[1] 현빈, 최재찬.핫토픽.-서울:한글파크,2016. – 120 쪽

[2] 김지학, PERFECT TOPIK 2 쓰기. – 서울: 에듀윌, 2018. – 34 쪽

9	%	를		차	지	한	다	·	특	히		주	말	과		심	야	에	
음	주		운	전		사	고	가		많	이		일	어	난	다	·	따	라
서		이	를		예	방	할		방	법	을		찾	아	야		한	다	·
	우	선		사	고	의		심	각	성	을		알	려	야		한	다	·

- Oxirgi so‘zda bo‘g‘in ajratish kerak bo‘lsa, bo‘g‘in pastdagi birinchi katakdan boshlanib ketadi. Bu holda katak tashlanmaydi.

	우	주		왼	쪽	의		작	은		별	,	그		별	은		고	독
의		세	계	이	다	·													

- Rim raqamlari, alifboning bosh harflari va arab raqamlari har bir katakga bittadan yoziladi.

	K	O	R	E	A		I		II		2		1						

- Bosh harf bilan boshlanadigan ingliz tilidagi so‘zning katta harfi bir katakga, kichkina harflari esa ikkitadan bir katakga joylashadi.

	K	Or	ea		an	D		J	ap	an			1						

- Ikkidan ortiq arab sonlari hamda alifboning kichik harflari bir katakga ikkitadan joylashadi.

	20	15	년		10	월		A	와		ab		중	에	서				

- Tinish belgilari bir bo‘g‘in deya olinadi. Shunga ko‘ra bir katakga bitta joylashadi.

	“	수	희	야	,	점	심	은		먹	었	니	?	”					

- Undov hamda so‘roq belgisi katakning o‘rtasidan yozilsa, qo‘shtirnoq, vergul, nuqtalar katakning bir chetiga yoziladi.

	?		!		,		.			“	…	…	”						

- Barcha tinish belgilari yonidagi so‘zga birikgan holda yozilib, orqasidan katak tashlaydi.

	“	맛	있	어	요	?		다	행	이	에	요	·	”					

- Ammo, nuqta, vergul, ikki nuqta kabi tinish belgilardan so‘ng katak tashlamasa ham bo‘ladi.

	여	름	에	는		역	시		바	다	가	좋	다	·	여	행	을		

Berilgan bu qoidalarga rioya qilgan holda imtihon topshiruvchi yozayotgan insho matnining tuzilish hamda imloviy jihatdan to‘g‘iri bo‘lishiga erishadi. Bu esa, unga qo‘shimcha ball olib keladi. Har bir tilda yoziladigan insholar kabi, koreys tilida yoziladigan insholarning o‘z qonun qoidasi mavjud. O‘zbek tilida insho yozishga qanday tayyorgarlik ko‘rilsa,

koreys tilida ham shu kabi tayyorgarlik ko‘rish “yozish” bo‘limidan yuqori natijani kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. 장주천. 토픽II 쓰기 53 번 문항의 교육 내용 연구.서울: 동국대학교,2020.
2. 김은희. 한국어능력시험 고급 단계 학습자를 위한 쓰기 지도 방안. 서울: 국어교과 교육연구, 2012.
3. 장수. "한국어 능력시험 응시자를 위한 고급 쓰기 교육 방안." 국내석사학위논문 부산외국어대학교 일반대학원. 부산, 2013.
4. 김원경. "한국어교육을 위한 과정 중심 쓰기 평가 모형 연구." 국내박사학위논문 가톨릭대학교 대학원, 경기도 2016.
5. 마광홍. "한국어능력시험(TOPIK)II 54 번 답안쓰기에 나타난 오류 양상 연구." 국내석사학위논문 中央大學校 大學院. 서울, 2019.
6. 현빈. 최재찬. 핫토픽.-서울: 한글파크, 2016.
7. 김지학. PERFECT TOPIK 2 쓰기. 서울: 에듀월, 2018.

Азиз МУҲАММАДЖОНОВ
ТДШУ докторанти

ЛЕКСИКОЛОГИЯНИНГ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Аннотация: Мақолада лексикология, хусусан араб лексикологиясининг вужудга келиши ва тараққиёти борасидаги материаллар илмий ўрганилган бўлиб, лексикология муаммоларидан бири бўлган синонимлар масаласига алоҳида тўхталган. Муаллиф ўз фикрини баён қилишда бу борада изланиш олиб борган аввалги муаллифларнинг фикрини тадқиқи этиб, илмий таҳлиллар асосида бир қанча хулоасаларни берган. Араб тили лексикологияси тарихида муҳим ўрин тутган манбалар орасида Абу Ҳилол Ал-Аскарий (395

(1005) йилда вафот этган) қаламига мансуб “الفروق اللغوية” асари тўғрисда тўхталиб ўтган. Асарнинг араб тилидаги синонимлар моҳиятини очиб беришдаги аҳамияти, тилшуносликнинг умумий масалаларига асос бўлувчи назариялари ҳақида фикр юритилган. Шунингдек, асарда келтирилган синонимлар моҳияти араб луғатшунослигида мислсиз янгилик бўлгани ҳақида айтилади мақолада. Мақола илмий таҳлил ва хулосаларга асосланган.

Калит сўзлар: тил ва жамият, коммуникатив, лексикология, Абу Ҳилол Ал-Аскарий, Фуруқ-ал-луғавия, синонимлар.

Жамиятда инсоннинг оламни билишга йўналтирилган фаолияти, янгиликка бўлган қизиқиши ва интилиши кишилар ўртасида ўзаро муносабат-мулоқотни тақазо қилади. Бундай муносабат асоси эса – тил ва унинг белгиларидан иборатдир. Мулоқотнинг асосий вазифаси шахслараро мураккаб ва уларнинг ҳар томонлама жамиятда кечадиган муносабатларига мос келадиган, мазмундор ва талаб суръатидаги алоқа ўрнатишга кўп жиҳатдан боғлиқ. Тарихдан, бевосита тил тарихидан маълумки, башарият тараққиёти ҳам мулоқот асносида юз беради. Зеро, жамият ва тил ўзаро боғлиқликда тараққий этади: “Ҳар қандай тил жамият билан узвий алоқадорликда фаолият олиб боради ва тараққий этади. Тил бир томондан тарихий зарурат сифатида пайдо бўлиб, жамиятнинг ҳам унинг олдига қўйган ёки қўядиган маълум бир талабларига жавоб беради. Иккинчи томондан эса, тил жамият ҳолатини ўзида акс эттириб унинг фаол равишда тараққий этишига замин яратади. Тил ва жамиятнинг икки тарафлама алоқаси айни мана шунда намоён бўлади”[1]. Олимнинг фикридан келиб чиқадиган бўлсак, ижтимоий тараққиётнинг белгиловчи омили сифатида ўзаро муносабатларининг роли тобора ошиб бориши кузатилади. Ана шу жиҳатдан тилнинг энг муҳим алоқа воситаси сифатидаги коммуникатив қудрати, ривожланиш даражаси кўзга яққол ташланади.

Бошқа томондан олиб қаралганида, инсоният тараққиётида тил воқеликни билишнинг, ижтимоий борлиқни идрок этишнинг ҳам муҳим воситаси бўлиб хизмат қилган. Натижада инсоннинг коммуникатив ва билишга оид фаолиятида ягона бир восита - тилдан фойдаланиш умумбашарий тараққиётнинг муваффақиятини таъминлаб келган. Мулоқотнинг мазмунли, очиқ ва тушунарли бўлиши тил материалининг яъни лексик қатламнинг ҳажм ва маъно жнҳатдан чегараланмаганлигига боғликдир.

[1] Абдуллаев С. Араб мамлакатларида тил вазияти ва сиёсати. Тошкет. 2021. Б. 5.

Бу борада мутахассислар тил заҳирасида ижтимоий - тарихий ахборотни сақлашнинг икки даражасини ёки усулини фарқлаш мумкин эканини келтирадилар: 1) тилнинг ўзида, яъни тилнинг семантик тизим-луғатларда ва грамматик категорияларда; 2) тилда яратилган мулоқот материалида, яъни оғзаки ва ёзма матнларда[1]. Тилнинг бажарадиган кўплаб функциялари қаторида баъзилари энг муҳим ҳисобланади: 1) тил одамлар орасида энг муҳим алоқа воситасидир; 2) у инсониятнинг ижтимоий тарихий тажрибасини сақлаш учун хизмат қилади; 3) тил тафаккурнинг асосий элементи вазифасини бажаради[2].

Булар ҳар қандай тилнинг энг муҳим, асосий функциялари ҳисобланади. Аммо тилнинг функционал имкониятлари бу билангина чекланмайди. Инсон коммуникатив фаолиятининг турли-туманлиги алоқа воситаси сифатида хизмат қиладиган тил тизимининг ички мураккаблиги ва бажарадиган функциясининг хилма-хиллиги билан ҳам алоқадордир. Тилнинг коммуникатив акт жараёнини ўргана туриб, унинг барча функцияларини, ҳатто иккинчи даражали омилларини ҳам чуқур ўрганиш лозим[3]. Шунга кўра Р.Якобсон айтаётган тилнинг эмотив, фатик, металисоний, эстетик функцияларини ўрганиш ҳам муҳим аҳамият касб этади[4]. Шу ўринда айтиш мумкинки, араб тилининг металисоний ва эстетик фунциялари тилнинг лексик қатлами ва фразеологик бирликларида ўзининг гўзал ифодасини топган. Бу борада, араб тили лексикологиясига оид қадим манбалардан бўлган “الفروق اللغوية” асари ўзига хос бетакрор асар ҳисобланади. Бу асар муаллифи Абу Ҳилол Ал-Аскарий (395 (1005) йилда вафот этган) қаламига мансуб.

Асар асосан араб тилидаги синонимлар моҳиятини очиб беришга қаратилган бўлса ҳам, тилшуносликнинг умумий масалаларига асос бўлувчи назарияларни илмий жамоатчиликка меърос қолдирган. Айни шу жиҳатдан юқорида тилга олган олиб Р.Якобсон фикри билан уйғунлашади. Зеро, лексик қатлам таркибидаги синонимлар моҳияти тилнинг металисоний ва эстетик фунцияларини очиб беради. Жумладан асарда ўзбекчада “эр” ёки “жуфт” маъносини англатувчи “الزَّوْجُ” ва “البَعْلُ” синонимлари ўртасидаги фарқ борасида шундай келтирлади:

---

[1] Т.Бушуи, Ш.Сафаров. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент. 2007. Б. 21.
[2] Т.Бушуи, Ш.Сафаров. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент. 2007. Б. 21.
[3] R.Jakobson. Essais de linguistique generale. Paris. 1963. P. 55.
[4] Ўша манба, ўша жойда.

الزَّوْجُ ما لا يكمل المقصود إلا معه على نحو من الاشتراك والتعاون في إطار الزواج الكامل بالمس و المُعاشرة لمن تصلح شرعًا زوجا له. قال تعالى: (فَإِنْ طَلَّقَهَا فَلا تَحِلُّ لَهُ مِنْ بَعْدُ حَتَّى تَنْكِحَ زَوْجًا غَيْرَه). وقال تعالى: (وَإِذَا طَلَّقْتُمُ ٱلنِّسَآءَ فَبَلَغْنَ أَجَلَهُنَّ فَلَا تَعْضُلُوهُنَّ أَن يَنكِحْنَ أَزْوَٰجَهُنَّ إِذَا تَرَٰضَوْاْ بَيْنَهُم بِٱلْمَعْرُوفِۗ).

البَعْلُ: الزَّوجُ إذا امتنع عن المعاشرة الجنسيَّة مع زوجه بسبب تقدم العمر أو مرض. قال تعالى: يَا وَيْلَتَا أَأَلِدُ وَأَنَا عَجُوزٌ وَهَذَا بَعْلِي شَيْخًا). أو مانع شرعي مثل فترة العدة للمرأة عند الطلاق الشرعي. قال تعالى: (وَبُعُولَتُهُنَّ أَحَقُّ بِرَدِّهِنَّ فِي ذَلِكَ).

Таржимаси: “Завж” – шаръий жиҳатдан фақат интим мақсадларда жуфтига яқин бўлиш ҳуқуқига эга бўлган, биргаликда (яшаб) ҳамкорлик қиладиган шахсдир. Бунга Қуръондан далил: “Агар уни (учинчи марта) талоқ қилса, (у аёл) то бошқа эр билан никоҳланмагунича (ва ундан ҳам талоқ олмагунича), унга ҳалол бўлмайди” (Бақара: 230)[1].

Яна: “Хотинларни талоқ қилганингизда (идда) муддатига етган бўлсалар, (эй, ота-она ва қариндошлари,) улар ўзаро яхшиликча келишиб олган бўлсалар, эрларига (қайтадан) никоҳланишларида уларга тазйиқ ўтказмангиз!” (Бақара: 232).

“Баъл”: Кексалик ё касаллик сабаб аёли билан интим муносабатларга кириша олмайдиган эр. Бунга Қуръондан далил: “Вой, ўлмасам! Ўзим кампир ва бу эрим қария бўлатуриб, туғаманми?!” (Ҳуд: 72).

Ёки шаръий тўсиқ, масалан, шаръий ажралишдаги аёл учун идда даври. Бунга Қуръондан далил: “Агар эрлари ислоҳни (оилани тиклашни) истасалар, шу муддат ичида уларни қайтариб (никоҳларига) олишга ҳақлидирлар” (Бақара: 228).

Эътиборли томони шундаки, муаллиф эркак турмуш ўртоқ маъносига далолат қилувчи икки сўзнинг айнан синоним эмаслигини, бирини бошқаси ўрни ишлатиб бўлмаслигини далиллар билан келтирган. Бу шуни англатадики, мулоқот оғзаки бўладими ёки ёзма шаклдами ҳар бир сўзнинг ўз ўрни бор. Бу эса, кишининг эстетик дидини тарбиялайди.

Айтиш лозимки, мулоқот нафақат ахборотнинг мантиқий мазмунини, балки сўзлаётган шахснинг руҳий ҳолатини, ҳиссиётини, истакларини ҳам ифодалаши мумкин. Бундай ҳолатларда тил ўзининг эмотие (эмоционал-экспрессив) функциясини бажаришга киришади. Бу борада араб тили лексик қатламидан кўплаб мисолларни келтириш мумкин:

---

[1] Мақолада келтирилган Қуръон оятларининг ўзбекча таржимаси Абдулазиз Мансурники. А.Мансур. “Қуръони Карим: маъноларининг таржима ва тафсири”. Тошкент. 2019.

Ҳасрат ва ўкинишни изҳор қилганда: “رب اني وضعتها أنثى” – “Парвардигоро, мен қиз туғибман” (Оли Имрон: 36). Ё бўлмасам: Раҳм-шафқат тилаш мақсадида: “اني فقير الى عفو ربي” - “Мен Парвардигоримнинг кечиришига муҳтожман”. Ва яна: Заифлик ва қўрқувни ифодалаш мақсадида: “رب اني وهن العظم مني” (Марям: 4) – “Парвардигоро, менинг суякларим мўртлашди”.

Баъзи ҳолатда мулоқот мақсадсиз амалга оширилади. Масалан, суҳбатдошлар учун улар ўзаро алмашаётган ахборот муҳим эмас, улар ўз ҳиссиётларини ифодалашга ва бу орқали бир-бирларига таъсир қилишга уринмайдилар. Бу пайтда улар учун фақатгина алоқага киришув муҳим, бунда кейинги мазмундорроқ мулоқотга тайёрланадилар. Бундай ҳолларда тил ўзининг фатик функциясини (муносабат ўрнатиш функцияси, алоқага киришув) бажаради. Тилнинг фатик функцияси саломлашувларда, табрикларда, одатий об-ҳаво ҳақидаги ва шунга ўхшаш мазмундаги суҳбатларда намоён бўлади[1].

Тилнинг беҳад семантик имкониятлари суҳбатдошларга унинг металисоний функциясида фойдаланиш имконини беради. Бу сўзловчининг ахборотни янада тушунарлироқ, янада ифодалироқ етказиш учун тилнинг турли воситаларидан фойдаланишида ўз ифодасини топади. Бундай вазиятларда тилнинг ўзи нутқ объекти вазифасини бажара бошлайди. Тилнинг металисоний функцияси атамаси, бошқача айтганда, «нутқ материалини изоҳлаб гапириш» деган маънони англатади. Нутқ (тил) материалига эътибор тилга эстетик муносабатни шакллантиради: сўзловчилар матндаги сўзларнинг оҳанггига, гап қурилишига, ишлатилаётган сўзларнинг ифодадорлигига эътибор бера бошлайдилар. Тилга эстетик муносабат, шундай қилиб, нутқнинг эстетик объект сифатида гўзаллигига ёки маънисизлигига муносабат уйғотади.

Маълумки, тил, меҳнат, онг, турмуш каби тушунчалар инсоният ижтимоий ҳаёти асосини ташкил этувчи ҳодисалардир. Шундан ҳар қандай ижтимоий ҳодисанинг маълум ҳад ва чегарада мавжуд бўлишини эътиборга олсак, бунинг акси ўлароқ, тил ижтимоий онгнинг барча жиҳатларини ўзига қамрай олувчи ҳодиса экани ҳақиқатдир. Тилнинг глобаллиги, унинг ижтимоий ҳаёт ва онгнинг барча жабҳаларига кириб бора олиши, бошқа гуруҳлар, табақалардаги ҳодисалардан устуворлигини таъминлайди. Аслида кириб бориши эмас, жамиятдаги ҳар қандай масала моҳияти фақат тил

[1] Т.Бушуи, Ш.Сафаров. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент. 2007. Б. 22.

воситасидагина амалга ошади десак тўғри бўлади. Бу ўринда, ҳар қандай миллий тилдан фойдаланиш жамиятда бир хилда рўй бермайди. Унинг турли қатламлари, айниқса оғзаки тилда хилма хил мавжудликни тақазо этади. Шу сабабли касбга оид тил, жаргонлар, оддий халқ тили, олий табақадагилар тили, адабий тил сингари тушунчалар мавжуд. Ижтимоий диалектлар, шевалар ҳеч қачон алоҳида тил сифатида шаклланмайди. Бироқ, араб шевалари борасида тўхталганда бундай дея олмаймиз.

Араб тилидаги диалектлар хилма-хиллиги шу қадарки, мағриб давлатларидаги араб билан ироқлик араб сўзлашганда бир бирларини англашлари учун барча араб давлатларига хос бўлган замонавий адабий тил – фусага мурожаат қилишлари лозим бўлади. Ёки кўпгина араб халқларига таниш бирон диалектда муносабатга киришадилар. Асосан Мисрнинг шимолий диалекти бу борада кўпчиликка қулай. Чунки, кино ва шоу бизнес соҳасида мисрликлар экспорти бошқалардан кўра кўпроқ.

Диалект ва шевалар кўплиги лексик қатламнинг бойиши ва ранг-баранглигини орттиради. Маълумки, диалектлар туб илдизлари халқнинг маънавий маданиятга бориб тақалгани учун тил ижтимоий онгнинг бошқа шакллари ахлоқ, фан, санъат, дин кабилар орасида алоҳида ўрин тутади. Тил ижтимоий онгнинг асоси сифатида ижтимоий онгнинг бошқа шакллари сингари ижтимоий ҳаётни ўзида акс эттиради ва у орқали шаклланади. Бироқ ижтимоий онгнинг бошқа шаклларидан фарқли ўлароқ, ижтимоий ҳаёт билан боғлиқлиги билвосита экани билан ажралиб туради. Мутахассислар: тилни “ўзида ижтимоий ҳаётнинг билвосита ифодаланиши боис тил ижтимоий онгнинг бошқа шаклларидан фарқли ўлароқ, мафкурага, яъни ижтимоий онгнинг дунёқарашга оид шакллари масалан, сиёсат, ҳуқуқ, ахлоқ, эстетика ва динга тобе эмас”[1], деб қарайдилар. Бироқ бу фикр барча давр ва жамиятлар учун бир хил ҳақиқат деб айтиб бўлмайди. Тиллар бир неча жиҳатлари билан бошқа тилларга таъсир этиши, ўзидаги ҳодисаларни бошқа тилларга кўчириши мумкин. Бунга сиёсий, ижтимоий, иқтисодий манфаатлар, баъзан эса мафкуралар сабаб бўлади. Масалан: Уммавий халифалардан бўлган Халифа Абдулмалик (685-705) қўл остида бўлган ҳудудлар учун ягона давлат тили сифатида Араб тилига янгича мақом берди[2]. Бу эса, араб бўлмаган

[1] Т.Бушуи, Ш.Сафаров. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент. 2007. Б. 24.
[2] Абдуллаев С. Араб мамлакатларида тил вазияти ва сиёсати. Тошкет. 2021. Б. 26.

халқларнинг араблашувига олиб келди. Олим фикрини давом эттириб шундай ёзади: Албатта бу жараён бирданига амалга ошмади. Мусулмонлар сонининг бошқа халқлар ҳисобига кескин ошиб бориши араб тилини билишга бўлган эҳтиёжни орттириб юборди. Айни мана шу даврдан бошлаб Араб тилининг икки хил шакли юзага қалқди. Расмий доираларда ишлатиладиган араб тили ва минтақаларда араб бўлмаган халқаларнинг араблашгач ўзларининг қадимий она тиллари таъсирига дучор бўлган сўзлашув доирасидаги минтақавий шева тиллари. Албатта бу ажралишга минтақалардаги алоҳида шароитлар ҳам хизмат қилган[1].

Шунингдек собиқ шўролар истибдоди даврида миллий тилларга кўплаб рус тилидан сўзлар кириб келиб, ўзлаштирила бошланди. Бу жараён шундай кўр-кўрона амалга оширилдики, миллий тилларда мавжуд бўлган сўзлар ўрнига ҳам русча сўзлардан фойдаланиш авжига минди. Бундай шароитларда тил тараққий этиши у ёқда турсин, унинг истиқболи шубҳа остида қолиши аниқ. Мавзуга қайтиб, лексикология ва тил лексик қатламининг бойишида ажнабий тилларнинг ўрни борасида ҳам фикр юритадиган бўлсак, араб тилида ҳам ўзга тиллардан ўзлаштирилган бир неча сўзлар ишлатилишини эътироф этиш керак. Бироқ, араблар ўз тилдан ўзлаштирилган сўзларни ўз тиллари қоидаларига мувофиқлаштириб талаффуз этадилар. Масалан, юнон тилидаги “философия” ва “философ” сўзлари мос равишда араб тилида “فلسفة” (фалсафа) ва “فيلسف” (файласуф) деб номланган. Кўриниши ҳам талаффузи ҳам асл араб сўзига монанд. Замонавий ахборот технологияларига оид терминларни ҳам ҳозирги кунда араб тилидаги шакли ва талаффузи ана шу принцпдан келиб чиқиб ўзлаштирилмоқда. Бу бир тарафдан араблар учун талаффузни осонлаштириши билан биргаликда, араб тили лексик қатламини бойтиб, тараққий эттиради.

Маълумки, тил тараққиёти баъзан жамиятнинг ижтимоий тарихидан мустақил ҳолда рўй бериши ҳам мумкин. Шу тарзда, тил халқларнинг нодир мулоқот воситаси вазифасини ўтайди. Бу борада тилшунос Корнелов: “Тил авлодларнинг тарихий алмашинуви ва ижтимоий формацияларнинг алмашинуви жараёнида халқ, миллат бирлигини таъминлайди. У одамларни вақт ва замон, жуғрофий ва ижтимоий муҳитдаги бирлигини ҳам таъминлайди”[2].

---

[1] Абдуллаев С. Араб мамлакатларида тил вазияти ва сиёсати. Тошкет. 2021. Б. 27.

[2] Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. Москва. 2002. С. 47.

Тил тизимининг маълум бир ижтимоий онг вакиллари (халқ, этник, ижтимоий гуруҳ) томонидан қабул қилинган варианти шу ижтимоий гуруҳнинг тил нормасини ташкил қилиши лингвитикада эътироф этилган қоида. Бироқ, умумхалқ тили улардан фарқланиб, у барча мавжуд нормаларнинг умумлашган шаклини ифода этади.

Умумхалқ тили ўз таркибига Адабий тил; Сўзлашув тили; Ҳудудий диалектлар; Диалектларга мансуб бўлмаган тил бирликлари; Турли-туман ижтимоий диалектларни (касбий тиллар, жаргонлар, махфий корпоратив тиллар, табақавий тиллар) олади. Умумхалқ тилининг алоҳида вариантлари ҳам тилнинг мавжудлик шакллари ҳисобланади. Улар бир-бирларидан материал, тил бирликларининг таркиби, ижтимоий мақоми (ишлатилиш доираси), меъёрий даражаси билан фарқланади[1].

Одатда, муайян халқнинг адабий тили маълум бир диалектнинг ёки ўзаро яқин диалектларнинг умумий нормаларига асосланиб яратилади. Масалан, адабий француз тили франци диалекти асосида, испан адабий тили кастилия диалекти, инглиз адабий тили англо-сак ва ют диалектлари асосида, рус адабий тили ўрта рус Москва диалектлари асосида шаклланган, ўзбек адабий тили қарлуқ лаҳжасига кирувчи шеваларга асосланган.

Араб адабий тили эса, мелодий 3-6 аср оралиқлари баъдавий араб шоирлари асарларида шакллана бошлаган. Аммо, унинг тугал такомиллашуви Ислом келгач, Қуръон асосида рўй берган. Ҳатто араб тили қоидаларини тузиб чиқишга бўлган эҳтиёж шундан кейин пайдо бўлган.

Адабий тил шаклланган давридан бошлаб, ўзи асосланган диалектлардан олган меросни сақлаб келади. Бу қоида Қуръон нозил бўла бошлаган 7-аср бошидаёқ асосий планга чиққан. Қуръон қироатларидаги (асосий еттита ва яна уч қўшимча билан ўн хил) диалектларга хос талаффузлар айни шу асосда вужудга келган. Бу эса ўз ўрнида араб тили лексик қатламини бойишига ҳамда тилнинг рангинлигига сабаб бўлган.

Хулоса тарзида айтишимиз мумкинки, лексикология тилларни ўрганишда мураккаб ва ўта муҳим соҳалардан биридир. Айниқса, араб ликсикологиясига оид манбалар жумладан, Абу Ҳилол Ал-Аскарийнинг “الفروق اللغوية” асари шундан далолат берадики, бу соҳани

[1] Т.Бушуи, Ш.Сафаров. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент. 2007. Б. 26.

атрофлича илмий таҳлиллар асосида ўрганиш ҳамиша ўз долзарблигини йўқотмай келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абу Ҳилол Ал-Аскарий. “الفروق اللغوية”. Қоҳира. 1996.
2. Абдуллаев С. Араб мамлакатларида тил вазияти ва сиёсати. Тошкет. 2021. б. 216.
3. Белкин В.М. Арабская лексикология. - М., 1975, с.60.
4. Белокреницкий В.Я. Мусульманские страны к югу от СНГ: геодемография и и геополитика XXI века. // В кн. «Ислам и политика». - М., 2001, с. 253-263.
5. Бушуи Т., Сафаров. Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент. 2007. б. 321.
6. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. - М., 1998, с. 11.
7. Jakobson. R. Essais de linguistique generale. Paris. 1963. P. 255.
8. Мансур.А. “Қуръони Карим: маъноларининг таржима ва тафсири”. Тошкент. 2019.
9. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. Москва. 2002.
10. Ибн Джинни (942 1002) «ал-Хасаис» («Особенности») - Каир, 1952. 1956 г. (Издана в трёх частях, содержит до 1200 страниц оригинального текста. Считается лучшим языковедческим исследованием проблем связи слова и значения, его вариативности и т.п.)
11. Ибн Фарис. Ас-Сахиби фи фикх ал-луга ва синан ал-араб фи калямиха («Лексикологи и законы говорения по-арабски»). - Каир, 1910, с.438.
12. Соловьёв В.И., Яковенко. Э.В. Краткий русско-арабский общественно-политический словарь. / Под ред. Кузьмина С.А.- М., 2003.
13. Шарбатов Г.III. Современный арабский язык. - М., 1961, с.290.
14. Юшманов Н.В. Работы по общей фонетике, семитологии и арабской классической морфологии. Избранные труды. - М., 1998.

Akmal XOSHIMOV
2-kurs magistranti, TDSHU

YOQUB QODRI QORAUSMON O‘G‘LINING “YABAN” ROMANIDA ARAB TILIDAN O‘ZLASHMALARNING TURK VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MA’NO XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Bir tildan ikkinchi tilga o‘tgan so‘zga o‘zlashma so‘z deyiladi. Ushbu maqolada so‘zlarning o‘zlashish jarayonida bir tildan ikkinchi tilga o‘zlashishi moddiy, madaniy hamda ma’naviy omillar muhim ekanligini ko‘ramiz. Yoqub Qodri Qorausmon o‘g‘lining “Yaban” asarida arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning leksik-semantik tahliliga e’tibor qaratilganligi bois, asarda qo‘llanilgan so‘zlarga e’tibor berilgan. Asar zamonaviy turk tilinining rivojlanish bosqichida bo‘lgan davrda yozilgani uchun, tilning rivojlanish tarixi, shu jumladan, arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning tarixi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma so‘z, etimologik ma’no, arab tilidan o‘zlashmalar, turk tilida o‘zlashma so‘z tahlili.

Kirish. Jamiyat taraqqiy topgan sari shu jamiyatda yashovchi odamlarning tili ham, tafakkuri ham shunga monand ravishda o‘sib taraqqiy topadi. Jamiyatdagi har qanday o‘zgarish, ijtimoiy taraqqiyot tilda albatta o‘z aksini topmog‘i kerak. Bu qonuniyat umuminsoniy xarakterga ega bo‘lib, o‘zgarmas qudratli kuchdir [1:3].

Ijtimoiy tuzum va taraqqiyot tilga ta’sir etib, so‘zlar miqdori va semantik tarkibi bilan birga ularga ijtimoiy munosabat doirasini ham o‘zlashtiradi. Jumladan, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida axloq, odob tushunchalarini ifoda etadigan ko‘pgina turkiy so‘zlar va iboralar, avvalo, arab tilidagi so‘zlar bilan, qolaversa, fors-tojik tilidagi so‘zlar bilan almashdi [2:1]. Sobiq ittifoq davrida ilm-fan darvinizm ta’limoti va ateistik mafkuraga bo‘ysundurilgani bois bu sohadagi so‘z va iboralar etimologik hamda semantik tarkibida katta o‘zgarishlar yuzaga keldi [3:1]. Mazkur tarixiy sharoitda arab tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar jamiyat hayotida eskirgan so‘zlar yoki ularning izohiga bir yoqlama yondashuv holatlari kuzatiladi.

O‘zlashma so‘z – bir tildan ikkinchi tilga o‘tgan so‘z. Masalan, o‘zbek tiliga fors-tojik tilidan o‘zlashgan andisha, barg, tilla, shabnam; arab tilidan o‘zlashgan adabiyot, axloq, kitob, muallim; rus tilidan va u orqali o‘zlashgan bank, gazeta, samovar, televizor so‘zlari va boshqalar. O‘zlashma so‘z ma’lum ijtimoiy tarixiy voqealar, savdo va madaniy

aloqalar tufayli bir tildan ikkinchi tilga o‘tib o‘zlashadi. Xususan, o‘zbek xalqining tojiklar bilan qadimdan bir xil iqtisodiy tuzum sharoitida, qo‘ni-qo‘shni bo‘lib yashab kelganligi tufayli fors-tojikcha so‘zlar, arab istilosi natijasida arabcha so‘zlar, O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shib olinishi oqibatida ruscha va yevropacha so‘zlar o‘zbek tiliga kirib o‘zlashgan. O‘zlashma so‘z dastlabki davrda neologizm xarakterida bo‘lsa-da, keyinchalik asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunishi, xuddi o‘z so‘zdek tabiiy va aniq bo‘lishi (barg), fonetik qayta shakllanishi (karavot), grammatik singishi (bankdan), so‘z yasash tizimida faol ishtirok etishi (traktorchi), takror-takror qo‘llanishi tufayli uning yot elementligi sezilmay qoladi. O‘zlashma so‘z hosil qilishning turli usullari mavjud.[4:228] Demak, o‘zlashma so‘z bo‘lishi uchun har qanday so‘z boshqa bir tildan ikkinchi tilga o‘tgan bo‘lishi kerak. Endi, leksika haqida to‘xtalib o‘tsak, leksika (yun. lexis – so‘zga oid, lug‘aviy) – tildagi barcha so‘zlar va iboralar yig‘indisi, tilning lug‘at tarkibi hisoblanadi. Semantika esa, (yun. semantikos – bildiruvchi, ifodalovchi) – birinchi ma’nosi til yoki uning biron-bir birligi (so‘z, so‘zning grammatik shakli, frazeologizm, so‘z birikmasi, fan) orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma’no, axborot ma’nosini ifodalasa, yana turli til birliklarining ma’noviy tomonini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi ham tushuniladi.

Asosiy qism. XVII asr oxiridan boshlab Saruhan viloyati deb ataladigan Aydin va Manisa tumanlarida hukmronlik qilgan Qorausmono‘g‘lilar sulolasidandir. Misrdagi Ibrohim posho saroyiga joylashgan va o‘sha yerda Iqbolxonimga uylangan Qodribeyning o‘g‘lidir. U 1889-yil 27-martda Qohirada tug‘ilgan[4:9].

Maqolada Yoqub Qodri Qorausmon o‘g‘lining “Yaban” asarida o‘zlashmalarning izohi, etimologik ma’nosi haqida o‘zbek tili bilan qiyoslagan holda ma’lumot beriladi.

Demak, Yoqub Qodri Qorausmon o‘g‘lining “Yaban” asaridan parchani keltirgan holda tahlilni ko‘rib chiqamiz.

*“O **afet**lerden arta kalmış **halk**ın, bu taş yığınları arasında, ilk **insan**lardan farkı yoktur.”*[6:1]

(U ofatlardan ortda qolgan xalqning, bu tosh yig‘indilari orasida qolgan ibtidoiy insonlardan farqi yo‘qd.) ***1**

O‘zbek tilining izohli lug‘atida arabchadan olingan آفة - ranj, alam; jirkanish; baxtsizlik, balo; havf. 1-ma’nosi boshga kulfat soluvchi yoki halokatga olib keluvchi baxtsizlik; balo. *Xalq boshiga ko‘p ofatlar keltirgan Andijon zilzilasi Qorabuloqni suvdan mahrum qilib qo‘ydi*. (M.Ismoiliy,

[1] *Tarjima maqola muallifiga tegishli

Farg‘ona tong otguncha) 2-ko‘chma ma’nosi esa yo‘q qiluvchi; kushanda; iloj, davo. *Taqsir, gunohning ofati tavba-ku*. (Hamza, Tanlangan asarlar) [5:159] kabi ma’nolarni bildirsa, turk tili bu so‘zni https://www.nisanyansozluk.com/kelime/afet internet sahifasida “Awf” o‘zagidan olinib, āfa(t) آفة so‘zi yasalganligi ko‘rsatilgan. Turk tili izohli lug‘atida esa, ot so‘z turkumiga oid (a:fet) ekanligi, arab tilidan āfat shaklida o‘zlashganligi hamda quyidagi ma’nolarni: 1. Tabiat sabab vayron bo‘lgan joy: O‘sha yil suv bosqini bir ofat holida bo‘lgandi. 2. Qiron 3. Juda yomon: *“Mashhurlikning ham ofat ekanligini endi tushundim”*-R.N.Gultekin. 4. *Majoziy ma’nosi*. Go‘zalligi bilan insonlarni shoshirtiradigan, aqlini boshidan oladigan ayol: “*Gul yuzli bir ofat ediki, har bo‘sasi loladek.”*-Y.K.Beyatli. 5. *Tibbiy ma’nosi.* Kasalliklarning to‘qimalarni ishdan chiqarishi [7:28] kabilarni anglatilishi yozilgan. Boshqa internet manbasida “Awf” o‘zagidan olingan āfa(t) آفة so‘zi yasalganligi haqida ham ma’lumot mavjud [11].

Xalq so‘zi izohli lug‘atda arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, خلق yaratish, ijod qilish; yaratilgan jonzod va odamlar. 1. Odamlar. *Xalqqa xizmat – oliy himmat*. Maqol. 2. Tarixiy birlikning turli shakllari; qabila, elat, millat. *O‘zbek xalqi Navoiy, Bobur, Lutfiy kabi buyuk donishmand shoirlarning asarlarini o‘qigan*. Shukrullo, Saylanma. 3. Muayyan joy aholisi. *O‘zbekiston xalqi*. 4. Biror joyga to‘plangan odamlar; xaloyiq, olomon. *Tovushga qo‘yishda xalq bir og‘izdan qo‘l ko‘taradi, orqasidan bir necha daqiqagacha olqish davom etadi.* A.Qodiriy, Kichik asarlari. 5. Kasb, mashg‘ulot, toifa yoki jinsni bildiruvchi so‘zlar bilan kelib, o‘sha kasb, mashg‘ulot, toifa yoki jinsga mansub kishilar guruhini bildiradi. *Polvon xalqi yengilgan raqibini belidan olib, ko‘tarib qo‘yadi.* S.Ahmad, Ufq. 6. Umum (aholi, odamlar)ga aloqadorlikni, umum tomonidan e’tirof etilganlikni ifodolovchi so‘z sifatida ba’zi muassasalar, lavozim va unvonlar nomlari tarkibida qo‘llaniladi. *Xalq ta’limi* [5:381].

Turk tili izohli lug‘atida esa, ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, arab tilidan olingan *halk* shaklida. I. Ma’nolari quyidagicha: 1. Bir o‘lkada yashagan, bir millatga mansub insonlar to‘plamiga: *Turk xalqi*. 2. Ayni qavmdan bo‘lgan, boshqa mamlakatlarning millati bo‘lib yashagan insonlar jamiyatıga: *Yahudiy xalqi*. 3. Bir mamlakat ichida yashagan turli xil qavmlardan iborat inson to‘plamining har biri: *Mustaqil Davlatlar jamiyati xalqlari.* 4. Bir hududda yoki muhitda yashaganlarning butuni: *mahalla xalqi*. 5. Boshqaruvchilarga ko‘ra bir mamlakatdagi yurtdoshlarining hammasi: *Bilmaydilarki xalq, xalqning tili bilan gaplashgan san’atkorlar bilan birdir.* – O.V.Kanik. 6. Ziyolilarning tashqari qolgan jamiyat: *Xalqdan*

bir odam. II. Ma’nosi ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, arab tilidan olingan *halk eski shaklda* yaratish degan ma’noni bildiradi. Yana boshqa turk internet manbasida χlḳ o‘zagidan olingan χalḳ خلق so‘zi yasalgan. 1. Oromiy va suryoniy yozuvlarida χlḳ o‘zagidan olingan bo‘lib, χelḳā ܚܶܠܩܳܐ “ulush, bo‘lak, qisim” so‘zlari bilan sinonimdir. Bu so‘z Oromiy va suryoniy yozuvlarida χālaḳ חלק “ulashish, bo‘lishish” fe’lidan yasalgan. 2. Arabcha χlḳ o‘zagidan olingan bo‘lib, χalḳ خلق “yaratish” so‘zidan olingan. Bu so‘z Arabcha χalaḳa خلق “yaratdi” fe’linin faʿl vazning masdaridir. Bu fe’l oromiy va suryoniy yozuvlarida χālaḳ חלק “ulashish, bo‘lishish, tuzatish” so‘zlari bilan sinonimdir. [11]

Inson so‘zi ham o‘zbek tili izohli lug‘atida arab tilidan olingan bo‘lib, إنسان-odam; 1. Odamzod, bashar. *Inson — bu dunyoning aziz-u mukarram xilqati, mavjudotlar ichida sarvaridir.* Gazetadan. *…aqllilik, ma’naviyat insonga xos eng muhim xususiyatlar bo‘lib, ular insonning tarixiy mohiyatidan kelib chiqadi.* “Sirli olam” 2. Har bir yakka shaxs; odam. *Basharti Musulmonqul chin inson bo‘lsa, insondan vahshiy tug‘ilganini hech kim eshitgan chiqmas.* A. Qodiriy, O‘tgan kunlar. 3. Kimsaga (odatda, salbiy munosabatli) murojaat shakli. *Xo‘, inson, bu nima noma’qulchilik, tilsiz jonivorda nima qasdingiz bor?!* “Mushtum” **Inson emasman** Fikrining chinligini, o‘zining haqligini qayd etish shakli. *Uring, O‘rmonjon aka! So‘ying! Voy, desam, inson emasman!* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

Inson so‘zi turk tili izohli lug‘atida ot so‘z turkumiga oid, arabchadan olingan *insan*- 1. Sut emizuvchilardan, ikki qo‘li bo‘lgan, ikki oyoqda yuradigan, so‘zni tushunadigan, aqil va tushunchasi bo‘lgan, kelishgan jonli. 2. Bu turdan bo‘lgan jonli. 3. *Sifat so‘z turkumiga oid, majoziy ma’nosi:* Xulq-atvor va axloq tomonidan sifatlangan (kimsa). 4. Gumon olmoshi kabi qo‘llaniladi: “*Kafesli pencerelerinden ötesini insan tahayyül bile edemez.*” – S.F.Abasıyanık.

Yuqorida keltirilgan misollarning o‘zbek tili izohli lug‘atida arabchadan olingan ofat so‘zining ma’nosi turk tilidagi ma’nosiga qaraganda toraygan. Ko‘chma ma’noda esa, ma’nosi boshqa ma’noga ko‘chgan. Qolgan xalq va inson so‘zlarida ham so‘zlarning asl etimologik ma’nosi turli usulda ko‘chgan.

O‘zbek tilshunosi Umid Qo‘ziyev “O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda o‘zlashma so‘zlar tahlili” nomli monografiyasida so‘zning etimologik ma’nolar asosida o‘zlashma so‘zlarning asliyati va bugungi faol ma’nosi o‘rtasidagi munosabatlarini quyidagicha [10:62-66] guruhlab o‘rgangan:

1. So‘zning asl – etimologik ma’nosidan metonimlik usulda ma’no ko‘chishi.
2. So‘zning asl – etimologik ma’nosidan sinekdoxa usulida ma’no ko‘chishi.
3. So‘zning asl – etimologik ma’nosidan metaforik usulda ma’no ko‘chishi.
4. So‘zlarda ma’no torayishi.
5. So‘zlarning bir leksik sathdan ikkinchi sathga o‘tishi ham ma’no torayishining bir ko‘rinishi hisoblanadi.
6. Ayrim so‘zlarning kelib chiqishi tushunchaning nomlanish tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarni bildiradi degan xulosalarga kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Turk tilshunosi Fatma Mohamed Ahmed Eltamimi Elsherbini “Kırgız Türkçesindeki Arapça alıntı kelimeler üzerine “Fonetik ve semantik inceleme” nomli magistrlik dissertatsiyasida o‘zlashma so‘zlarning ma’no o‘zgarishining turlarini asosan to‘rt qisimga ajratgan holda tadqiq qilgan [9:130]. Bular:

1. O‘zlashma so‘zlarda ma’no torayishi.
2. O‘zlashma so‘zlarda kengayishi.
3. O‘zlashma so‘zlarni boshqa ma’noga ko‘chishi. Mana shu uchunchi qismni o‘z ichida yana ikkiga bo‘lishgan:

- 3.1. Ma’nosi butunlar o‘zgargan so‘zlar.
- 3.2. Ma’nosi qisman saqlangan so‘zlar ko‘rinishida.

4. O‘z ma’nosini saqlab qolgan o‘zlashma so‘zlar.

Bundan tashqari boshqa turk tilshunosi Günay Karaağaç “Alıntı kelimeler üzerine düşünceler” nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltirgan. Arab tilidan olingan “şems” turk tilida ham “şems”, ham “güneş” shaklida qo‘llaniladi. Arab tilida “kamer” turk tilida ham “kamer”, ham “ay” shaklida ko‘rishimiz mumkin. Xuddi shunday o‘zlashmalarni fors tilidan olingan o‘zlashmalarda ham uchratishimiz mumkin. Masalan, fors tilidagi “hurşid” turkchada ham “hurşid”, ham “güneş” shaklida, forschada “mâh/meh”, turkchada “mah”, “ay” kabi o‘zlashmalar, turk tiliga yangi bir bilim olib kirmagan o‘zlashma sifatida qabul qilingan, fakat arabcha “şemsiye” “güneşlik” turkcha “şemsiye” (soyabon), arabcha “kameriye” turkchada “kameriye” (shiypon, chodir) kabi turk tiliga yangi ma'lumot olib keladigan o‘zlashmalar sifatida ular turkcha lug‘atning a’zosi bo‘ldi” [8:499-510] deyiladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, o‘zlashma so‘zlar ma’lum davr, boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalarning

bog‘liqligi bilan ajralib turadi. O‘rganilgan so‘zlar ofat, xalq va inson so‘zlari semantik guruhlanadigan bo‘lsa, ofat - tabiat hodisasi guruhiga, xalq so‘zi esa umumiylik guruhiga va inson so‘zini shaxsning noma’lum guruhiga ajratishimiz mumkin. So‘z o‘zlashtirish keng tushuncha bo‘lib, o‘zlashtirish ob’yekti bo‘lgan tushuncha yoki narsaga jamiyat tomonidan ehtiyoj tug‘ulganda yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi? – Toshkent: Fan, 1972.
2. Farmonova M. Axloqshunoslikka oid leksemalarning tarixiy ildizlari // Til va adabiyot ta’limi, 2013, №3.
3. Qo‘ziyev U. Shaxs bildiruvchi arabcha o‘zlashmalarning me’yorlashuvi va talqini omillari // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2021, №11.
4. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2006.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, 2006-2008.
6. Yakup Kadri Karaosmanoğlu. “Yaban”. Istanbul. İletişim Yayıncılık, 2004.
7. Türkce Sözlük-TDK I-II, Ankara-1998.
8. Günay Karaağaç “Alıntı kelimeler üzerine düşünceler” Türk Dili, Ankara, 1997/2 (552, Aralık 1997).
9. Fatma Mohamed Ahmed Eltamimi Elsherbini “Kırgız Türkçesindeki Arapça alıntı kelimeler üzerine “Fonetik ve semantik inceleme””. Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Ankara, 2016.
10. Qo‘ziyev U. O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarda o‘zlashma so‘zlar tahlili. Namangan, 2016.
11. https://www.nisanyansozluk.com

Kumushoy MASHARIPOVA
Master’s student Uzbekistan State
World Languages University

THE ISSUE OF ADAPTATION IN TRANSLATIONS OF ADVERTISEMENT FROM ENGLISH INTO UZBEK

Abstract: The initial aim of the given publication work is to analyse the issue of adaptation in the process of advertisement translation from

English into Uzbek. Advertisements are the modern and effective way to call customers, translations of advertisements help international brands to sell their product through all over the world.

Key words: advertisements, international markets, translating advertisements, adaptation, steps in adaptation.

Introduction. Although translating advertisements was not very important in the past, since there were not studies or researches dealing with this subject. Nowadays, in the era of globalization, there is an outstanding need to advertising translation thanks to the international markets, so advertisers need to translate their advertisement into several languages in order to impact more potential consumers.

Analysis and results. According to Guider, advertising translation can be defined as a cultural and linguistic activity transferring advertising texts from one market into another. To translate an advertisement is not an easy task, because it confronts many problems and challenges especially cultural ones. This kind of translation is complicated in the way that the translator has to select different procedures and strategies and this should be according to the advertisement's field (food, beauty, tourism, technology…) Also, it is very hard to be faithful because the advertisement should be transferred into another language and another culture by giving an equivalent one at the syntactic level, the commercial purpose and other levels. It is not acceptable to translate the advertising text literally, because each language carries its own culture. So, the translator should be wise and translate ads using some techniques and strategies of translation.[1:210]

According to Mona Baker in her book the Routledge of encyclopedia (1998), translation argued a several procedures of adaptation while translating a

a) Transcription of the original: when the translator writes literal reproduction of a part of the source text in the original language with a transcription of that word in the target language.

b) Omission: in this case the translator omits the unwanted part from the ST. For instance, deleting the indecent scenes on Uzbek TV.

c) Expansion: to explain an idea that was mentioned in the ST even though footnotes in the TT.

d) Exoticism: in this case, the translator seeks to find a similar equivalent in the TL while the ST includes mysterious words that comes from dialects or nonsense words.

e) Updating: it takes place when the translator updates the old information or traditional information to modern equivalent widely used in the TL.

f) Situational equivalent: the adaptor contextualizes the original context to modern context that is different than the old one.

g) Creation**:** when the translator creates a text that conveys the essential of the source text.

Robinson states that "an advertising campaign is designed to associate a product with sophistication and uses entirely different images of sophistication in the source and target languages." Therefore, behind the translation of advertisement, the main purpose is attracting the target audience to buy a product. An ongoing debate is between global companies on whether adaptation takes place in advertisement through translating its message; when a company determines to use adaptation, the translator has an important role in adaptation in translating advertisement that is deemed the main element in the communication process that is between the company and the consumer. There are many factors involved when adapting an advertisement. It encompasses more than just a text; there are sounds, models, images, that all have a hand to the communication of the message. The translator must adapt the foreign image to turn out the targeted consumers in the targeted societies. Hence, when translating advertisement, textual adaptation plays the most important role, because without textual adaptation the voice of companies is not heard, and the message is considered unclear and ambiguous.

Translation of advertising texts is considered one of the most difficult types of interlingual communication, since it requires from the translator not only excellent knowledge of languages, but also a creative campaign, knowledge of the culture of the target audience. In other words, when translating advertising texts, it is necessary that the translation means have the same effect on the native speakers of the target language as the author's means for native speakers.

Conclusion. Although adaptation is the freest translation and advertisement is the activity of getting public attention to a product. A successful advertisement goes beyond the importance of the message and reproducing it in the other language with the same intention, impact and effect. It implies being creative and whilst at the same time remaining true to the original.

References:

1. Munday, “Advertising translation process and steps” 2004, p 210.
2. Bowker L., Pearson J. Working with Specialized Language. A practical guide to using corpora. – London, New York: Routledge.
3. Catford J. Linguistic Aspects of Translation. – London, 1965.
4. Crompton, Samuel Willard., The Printing Press. Transforming Power of Technology, Philadelphia: Chelsea House Publishers: 2004.
5. Chesterman, Andrew. 1997. Memes of Translation. Amsterdam: John Benjamins. p. 226.
6. Bartłomiejczyk, Magdalena. 2006. “Strategies of Simultaneous Interpreting and Directionality.” Interpreting 8.

Dilafruz OTAXONOVA
Magistrant TDSHU

MAHMUD ZAMAXSHARIYNING AL-MUFASSAL VA SIBAVEYHINING “AL – KITOB” ASARLARIDA FE’LLARNING TASNIFIGA DOIR AYRIM QARASHLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmud Zamaxshariyning Al-Mufassal va Sibaveyhining “Al – Kitob” asarlarida fe’llarning tasnifiga doir ayrim qarashlar keltirib o‘tiladi. Bu maqolada har ikkala grammatik asar asosida fe’llarning morfologik, leksik, grammatik xususiyatlari ko‘rib chiqildi va misollar keltirildi. Bu maqola arab tilidagi fe’llarning to‘liq grammatik xususiyatlari va tasnifiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Mahmud Zamaxshariy, Al-Mufassal, Sibaveyhi, Al – Kitob, fe’llarning grammatik xususiyatlari

O‘rta asrlarda filologiya Yevropada tushkunlikka uchragan davrda, 8-14-asrlar davomida arab filologiyasi keng ko‘lamda rivojlana boshlaydi. Arab filologiyasida tilshunoslik, qisman adabiyotshunoslik sohalari rivojlangan. Bu davrda Kufa va Basra grammatik maktab (oqim)lari yuzaga kelgan. Basra grammatik oqimi vakillari: Xalil ibn Ahmad (8-asr) va uning shogirdi Sibavayhiy o‘z asarlarida klassik arab tili me’yorlarini ishlab chiqib, arab tilining birinchi izohli lugatini tuzganlar, Sibavayhiy arab tilida so‘z turkumlarini 3 asosiy guruhga (ism, fe’l, harf) ajratgan va so‘z turkumlarining sintaktik munosabatlarini belgilagan. Kufa grammatik oqimi vakillari esa o‘z asarlarini arab tili sintaksisiga, arab tilining dialektal

grammatik xususiyatlariga bag‘ishlaganlar. 9—10 asrlarda har ikki grammatik oqim mustaqil tilshunoslik maktabi darajasiga ko‘tarilgan. Basra va Kufa fammatik oqimlari asosida Bagdod fammatik maktabi yuzaga keladi, Bag‘dod grammatik nazariyasi yaratiladi. Bag‘dod grammatik oqimining vakili Ibn Jinniy (10-asr) o‘z asarlarida etimologiya masalalariga e’tibor bergan. Arab xalifaligi hukmronligi Suriya, Misr, Eron, Ispaniya, O‘rta Osiyoga qadar tarqalishi munosabati bilan bu hududlarda ham Kufa, Basra, Bagdod fammatik oqimlari ta’sirida filolog-tilshunoslar yetishib chiqadi.

Arab filologiyasi an’anasining tashkil topishi va taraqqiy etishida arablar bilan bir qatorda boshqa xalqlarning arab tilida ijod etgan vakillari ham ishtirok etgan. Ingliz sharqshunosi Ye. Braunning ko‘rsatishicha, arab fani va madaniyatining eng mo‘tabar vakillari deb sanalgan 45 kishidan 30 tasi arab bo‘lmagan xalklarning vakillari bo‘lgan. Turkiy filologiya fanining vujudga kelishi ham ayni mana shu olimlarning ilmiy faoliyati bilan bog’lanadi[1].

O‘z davri olimlari tomonidan “Jorulloh” (“Allohning qo‘shnisi”) laqabini olgan Mahmud Zamaxshariy (11 —12-asrlar) Sharq fani va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. U falsafa, tarix, adabiyotshunoslik, folklorshunoslik, tilshunoslik kabi fanlarga oid 50 dan ortiq asar yaratdi. Uning “Muqaddimat uladab” asari faqat arab tili va tilshunosligi tarixini o‘rganish jihatidangina emas, balki turkiy xalqlar tillari tarixini o‘rganish jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Asarning lug‘at qismida arabcha so‘zlarning forscha, mo‘g‘ulcha tarjimalari bilan bir qatorda turkiycha tarjimalari ham berilgan.

Uchbu maqola arab tilidagi ikkita eng yirik Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal fin-nahv asari” va Sibaveyhining “Al – Kitob” asarlaridadagi fe’llarning tasnifiga va ularning ikkala asar asosidagi qiyosiy-chog‘ishtirma tahliliga bag‘ishlangan.

Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal fin-nahv asari” va Sibaveyhining “Al – Kitob” asarlarining boshlanishi ulardan oldin yozilgan asarlar singari, tamhid, avtobiografiyadan boshlangan. Ikkala muallif ham asarning grammatikaga kirish qismini “so‘z(kalom)” ilmidan boshlagan.

Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal fin-nahv asari” va Sibaveyhining “Al – Kitob” asarlarida fe'llarning tasnifiga doir ko‘plab qarashlar(gipotezalar)ni uchratishimiz mumkun. Ikkala yirik Grammatik olim fe’llar masalasida o‘z fikrlarini ilgari surar ekan, bu fikrlar orasida aksariyati bir biri bilan o‘xshash bo‘lsada, grammatikaning shunday

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki

nuqtalari borki, bu nuqtalarda olimlarning fikrlari sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, asarning kirish qismidan keyin boshlangan Grammatik asarning muqaddimasi Sibaveyhining “Al – Kitob” asarida “Babul-af’al” (“Fe’llar bobi”)dan boshlangan bo‘lsa, Mahmud Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asarida esa Grammatik qism “Ism” so‘z turkumidan boshlangan. Shuni ta’kidlash kerakki asarning boshlashdagi bu farqlanish o‘z navbatida ikki xil gipotezani ilgari surilishiga asos bo‘lgan. Sibaveyhi asarini fe’llar so‘z turkumidan boshlash orqali, arab tilidagi barcha so‘zlarning asosi fe’ldir va barcha so‘zlar **“fe’lun”** o‘zagidan hosil bo‘lgan degan qarashni ilgari suradi. Mahmud Zamaxshariy esa birinchi o‘rinda ismlarni qo‘yadi. Uning naznida esa arab tilida barcha so‘zlarning asosi “ism”dir, shu ismlardan, masdarlardan(Shuni ta’kidlash joizki, Kufa maktabi arab tilidagi barcha so‘zlarni “masdar” dan hosil bo‘lgan degan gipotezani ilgari surgan) fe’llar hosil qilinadi. Sibaveyhi Basra maktabi namoyondasi hisoblansa, Mahmud Zamaxshariyni esa ba’zi qarashlarini inobatga olib, ko‘proq Kufa maktabi qarashlarini ma’qullagan deyish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, ikki xil Grammatik olimlar bir xil arab tili grammatikasini ochib berar ekan, ba’zi jabhalarda ikki xil qarashlarni ilgari surgan ekanlar. Bu qarashlarga fikr bildirar ekanmiz har ikkala fikr ham to‘g‘ri ekanligini ko‘ramiz. Masalan, Sibaveyhining barcha so‘zlar fe’l so‘z turkumidan kelib chiqqan degan fikri arab tili grammatikasida, ayniqsa arab tilining “ishtiqoq” masalasida o‘z isbotini topgandir. Darhaqiqat, haqiqiy, sof arabiy so‘zlarning barchasining o‘zagiga qaralsa, dastlab hech qanday qo‘shimchalarsiz ishlatiladigan qismi bu fe’l ekanligini ko‘ramiz.

Sibaveyhiy e’roblar oladigan so‘zlar haqida fikr yuritganida ikkita asosiy xususiyatlarga urg‘u beradi. Uning asarida e’roblar haqida quyidagilar aytiladi: “Ismlarda asosan uchta e’rob qo‘llaniladi – jar, nasb, ra’f. Fe’llarda ham uchta e’rob bor - jazm, nasb, ra’f. Ismlarda jazm holati bo‘lmaganidek, fe’lar ham jar holati bo‘lmaydi. Ismlarda izofa orqali jar holatini hosil qilish (**mu‘āqibun li-t-tanwīn**) mumkin bo‘lsa, fe’llarda bunday holat uchramaydi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrdan ko‘rishimiz mumkinki, fe’llarda jar holati(qaratqich kelishigi) umuman uchramaydi. Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asarida ham Sibaveyhining fikrlari o‘z isbotini topadi. Faqat Zamaxshariy shuni qo‘shimcha qiladiki, arab tilida oxiri jazm(sukun) bilan tugagan fe’llardan keyin vaslali Hamza, yoki “al” aniqlik artiklini olgan so‘zlar kelsa, undan oldingi fe’lning oxiri sukundan kasraga o‘zgaradi. Bunga Zamaxshariy Qur’oni Karimdan ham bir qator misollar borligini

ta’kidlaydi. Bunday istisnoni esa Sibaveyhining “Al-Kitob” asarida uchratmadik.

Garchi Zamaxshariy fe’llarning jar olishi mumkin ekanligini ta’kidlasa ham, bu fonetik o‘zgarish sifatida qabul qilinadi, negaki bu fonetik o‘zgarish fe’lning asosiy ma’nosiga hech qanday ta’sir o‘tkazmaydi, aksincha tilda yengillik qilish maqsadida bitta so‘zni ikkinchi so‘zga bog‘lashga xizmat qiladi. Shu sababdan ham Grammatik jihatdan bu hodisani fe’lning jar olish holati deb to‘liq ta’kidlab bo‘lmaydi.

Zamaxshariy ham Sibaveyhiy ham fe’llarda bitta istisno borki, unda fe’l jar holatida (qaratqich kelishigida) kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. Bu fe’lning buyruq shaklidir. fe’lning ikkinchi shaxs muannas jinsiga buyruq berilayotganida o‘zakdagi oxirgi harfdan keyin uning muannas ekanligini bildirish uchun “kasra”(i) hamda choziq unli “yoy” harflari qo‘yiladi. Shuningdek fe’l muannas jinsda “lan”, “lam” kabi inkor yuklamalarini olganida ham, “nun” harflarining tushib qolishi natijasida fe’llarning oxiri kasralangan shaklda qoladi. Sibaveyhining Al-Kitob asarining ruscha tarjimasida shunday deyiladi[1]:

Однако здесь первый добавочный элемент — харф yā’, а nūn ты произносишьс гласным а, потому что предшествующий добавочный элемент стоитв той же позиции (bi-manzilati), что и добавочный элемент, указывающий на множественное число, и такой элемент имеется в именах в формах джарр и насб. Примером тому твое высказывание: anti taf‘alīna «ты(жен.) делаешь», lam taf‘alī «ты (жен.) не сделала», lan taf‘alī «ты (жен.) не сделаешь».

Noto‘g‘ri fe’llar haqida gap borganida Zamaxshariy notog‘ri fe’llarni quyidagicha ta’riflaydi[2]:

1. Ikkilangan fe’llar;
2. Illatli fe’llar;
3. Hamzali fe’llar.

Hozirgi zamon tilshunoslari ham noto‘g‘ri fe’llarni xuddi shunday tasniflaydilar: Mahmud Zamaxshariy ikkilangan fe’llarni quyidagicha ta'riflaydi: “Uch o‘zakli fe’llar turkumidagi ikkilangan fe’llar ikkinchi va uchinchi o‘zaklari bir xil harfdan iborat bo‘lgan fe'llardir.

Ikki bir xil harfning birinchisi assimilyasiyaga uchraydi, ikki bir xil harfning birinchisi – مد، شد shadda, madda kabisukunlanadi, bularning asli مدد، شدد shadada, madada bo‘lgan. Bunda birinchi dol sukunlanib, ikkinchi

[1] Абу Бишр Амр Сибавайхи Китаб. Введение (главы 1–7) . Перевод и комментарии / под общ. ред. Д. В. Фролова. – М.: Издательский дом ВКН, 2018. – 144 с.

[2] Sh. Mirziyotov “Mahmud Zamaxshariy asarlarida fe'l so‘z turkumi tahlili”- “Sharq mash’ali” jurnali

“ د dol”ning ichiga kirgi- zilgan. Bunday fe'llarda o‘rta o‘zak doim sukunli bo‘ladi. Agar sukunlanmasa, u holda ikki undosh o‘rtasi ochiladi. Masalan, شديد–،رديد shadiydun, radiydun so‘zlari kabi. To‘rt o‘zakli fe'llardan ikkilanganlari esa, birinchi va uchinchi o‘zaklari bir xil undoshdan iborat bo‘ladi. Masalan: – صلصل ṣalṣala bu فعلل fa'lala vazniga to‘g‘ri keladi.

Bunday o‘zakli fe'l yoki ismlarni B. M. Grande “reduplikasiyalangan o‘zaklar” deb ataydi.

Mahmud Zamaxshariy keyingi faslda illatli fe'llarni tushuntiradi: “Illatli fe'llar o‘zak harflaridan birortasi mad(cho‘ziq) va lin (yumshoq) harflaridan iborat

bo‘lgan fe'llardir. ا alif “mad” va ي ya “lin” harflari sanaladi. Masalan: ،وعد، قال

رمى rama, qo:la, va'ada fe'llari. فعل vaznining ع ayn va ل lom o‘zaklariga

to‘g‘ri kelgan har qanday ا harfining asli ى yo yoki و vov harflaridan biri bo‘ladi. Masalan, قال dagi ا alifning asli وvov hisoblanadi. Chunki uning masdari – قول qavala bo‘lib, kelasi zamoni – يقول yaquulu shaklida bo‘ladi. – باع baa'a dagi ا alifning asli ي yo, chunki uning masdari – بيع bay'un bo‘lib, kelasi zamoni – يبيعyabiy'u shaklida keladi. Shu singari quyidagi ,هاب – هيبة– haabaرمى – رمي, خاف – دعا,خوف – دعوة haybatun, ramaa – ramyun, xaafa – xavfun.

Arab tilidagi hamzali fe'llarni Mahmud Zamaxshariy quyidagicha bayon qilgan: “Hamza sog‘lom harf bo‘lib, u illatli hisoblanmaydi. Biroq uning talaffuzi qiyinroq bo‘lgani sababli gohida uni boshqa harfga o‘zgartirish yoki tushirib qoldirish orqali talaffuzda yengillik yaratiladi: ذئب ẕi’bun so‘zini ذيب ẕībun deb, لؤم la’mun so‘zini لوم lȳmun deb, رأس ra’sun so‘zini راس rāsun deb o‘zgartirish, يسأل yas’alu so‘zidagi hamzaning tushirilib, يسل yasalu shaklida kelishi, اسأل as’ala so‘zini سال sāla deb talaffuz qilishni misol qilib keltirish mumkin.

Zamaxshariy hamzali fe'llarga to‘xtalar ekan, o‘z e’tiborini, asosan, ularning fonetik o‘zgarishlariga qaratadi. Zero, hamzaning yozilish masalasi, ya’ni orfografiyasi hamma davrlarda qiyin muammo bo‘lgan. Hamzali fe’llarning noto‘g‘riligi ham shundaki, yozuvda u turlicha yoziladi va turli tayanch harflarga ega bo‘ladi. Uning o‘tgan zamonda tuslanishiga qarab, to‘g‘ri fe'llar qatoriga kiritish mumkin, ammo uning boshqa zamonlarda tuslanishi, sifatdosh, masdarlaridagi o‘zgarishlar uni noto‘g‘ri fe'llarning to‘g‘rilangan tarkibiga kirishidan dalolat beradi. Doktor Imod Hotam” – اللغة العربية : قواعد و نصوص“Al-lug‘atu – al-‘arabiyyatu: qavaa‘id

va nuṣuṣ kitobida hamzali fe'llarning turlari, ularda bo‘ladigan fonetik va orfografik o‘zgarishlar batafsil bayon qilingan.[1]

Yuqoridagilardan aytishimiz mumkunki, noto‘g‘ri fe’llar borasida Sibaveyhiy ham Zamaxshariy singari fikr bildiradi faqat Zamaxshariy singari fe’llarni katta umumiy notog‘ri fe’llar guruhi shaklida asarida shakllantirmaydi, aksincha “alif”, “yoy”, “vov” harflari yordamida keltirilgan illatli fe’llar, ajvaf, misol, noqis fe’llar; ikkilangan fe’llar; hamzali fe’llar kabi guruhlarga ajratib tasniflaydi. Zamaxshariy esa Sibaveyhining asarida sanalgan barcha to‘g‘ri bo‘lmagan fe’llarni bitta qilib “noto‘g‘ri” fe’llar deb umumiy bir guruhga kiritadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkunki, Zamaxshariy ham Sibaveyhiy o‘z zamonining yetuk arabshunos olimlaridan bo‘lishgan. Garchi ular bir sohada izlanish va tadqiqot olib borishgan bolishsada, arab tili grammatikasining ayrim jabhalarida ikki xil fikr yuritishgan va bu ularning asarlari va uning tuzilishida, so‘zlarning qo‘llanilishida o‘z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Абу Бишр ‘Амр Сибавайхи Китаб. Введение (главы 1–7) . Перевод и комментарии / под общ. ред. Д. В. Фролова. — М.: Издательский дом ВКН, 2018.

2. Б.М. Гранде “Курс арабской грамматики в сравнительно – историчическом освещении” издательство “Восточная литература” Москва – 2001 год

3. M. Nosirova “Unmuzaj fin-nahv” T- 2004.

4. Sh. Mirziyotov “Mahmud Zamaxshariy asarlarida fe’l so‘z turkumi tahlili”- “Sharq mash’ali” jurnali

5. Маҳмуд Замахшарий. Муқаддамату-л-адаб. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди, қўлёзма, инв № 429-В. 367а.

6. **اللغة العربية : قواعد و نصوص . طربلوس** 1980

7. https://uz.wikipedia.org/wiki

[1] **اللغة العربية: قواعد و نصوص. طربلوس 1980**

MANBASHUNOSLIKVA MATNSHUNOSLIK

G‘ayratjon JUMAYEV
Stajor-tadqiqotchi, TDSHU

MANBALARDA AMIR TEMUR TOMONIDAN TURSHIZ QAL’ASI EGALLANISHINING TASVIRLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning Turshiz qal’asini egallash jarayonlari haqida so‘z yuritiladi. Temuriylar davri manbalarida Turshiz toponimi to‘g‘risidagi keltirilgan ma’lumotlar tahlil etilgan. Maqolada qal’aning joylashuvi, XIV asrdagi boshqaruv tarixi, aholisi haqida ma’lumotlar berildi.

Kalit so‘zlar: Turshiz, Qoshg‘ar, Xuroson, G‘ur, Yassi Dobon, Xobushon, Amir Temur, Sadidiylar, Manjaniq.

Turshiz qal’asi o‘rta asrlarda Xuroson o‘lkasidagi Nishopur viloyatiga kiruvchi Pusht nohiyasining bosh shahri bo‘lgan. Hozir uning nomi Turbati Haydariyadir deb Sharafiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma asarini o‘zbek tilga tarjimasida qayd etiladi. Ushbu toponim haqida manbalarda keltirilgan ma’lumotlar bilan qiziqdik va bu toponimning tarixini tadqiq etish muhim deb bildik.

Turshiz (forscha: ترشیز *Turshēz*), shuningdek, **Turaysis** (طریثیث), nomi bilan ham mashhur. Ko‘histon viloyatining o‘rta asrlardagi tumani va shahri. Eronning hozirgi Razaviy Xuroson viloyatida joylashgan Kashmar hududiga to‘g‘ri keladi. Bu hudud to‘rt viloyatga bo‘lingan: Kashmar tumani, Ko‘hiso‘rx tumani, Xalilabod tumani va Bardaskan tumanlaridir.

Ibn Havqal o‘z asarida Turshizni “Xurosonning do‘koni” deb ataydi va o‘sha davrdagi eng ko‘p aholili shahri ekanligini yozib qoldirgan. Muqaddasiy esa Turshizni Ko‘histon viloyatining katta shaharlaridan ekanligini qayd etgan. Ibn Al-Asir Turshizni milodiy 1126-yilda Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjarning vaziri tomonidan egallanib, talon-toroj etilganini qayd etadi. Keyinchalik ma’lum muddat Xorazmshohlar davlati tarkibiga kiradi. Gay le Strenj “Sharqiy xalifalik yerlari” (The Lands of the Eastern Caliphate) asarida esa Turshiz shahrini Amir Temur qo‘shini hijriy 783-yilda (1381-yil) buzib vayron etgani va shu kungacha yer xaritasidan o‘chirib tashlaganini qayd etgan.

Endi XIV-XV asr tarixiy manbalarida Turshiz hisori haqida qanday ma’lumotlar keltirilgan? Shu masala haqida so‘z yuritsak.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Sohibqiron Amir Temur 1370-yil 11-aprelida Chig‘atoy ulusining barcha beklari, amirlari, viloyat va tumanlarning dorug‘alari hamda Termizning sayyidlari, shuningdek, Amir Temurning yoshlikdan birga bo‘lgan quroldosh do‘stlari va piri Sayyid Barakaning ishtirokida o‘tkazilgan qurultoyda an’anaga ko‘ra chingiziylardan Suyurg‘atmishxonni mamlakat hukmdori deb e’lon qilingan bo‘lsada, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temur o‘zi qo‘liga oldi. Shu davrdan boshlab, Amir Temur Movarounnahrdagi parchalanish, boshboshdoqlikni tugatib, Chig‘atoy ulusining barcha yerlarini bitta katta davlatga birlashtirdi. Shundan so‘ng, Amir Temur qo‘shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni o‘ziga bo‘ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Dastlab, Amir Temur 1372-yildan Xorazmga yurush boshlab, u yerni 1388-yildagina uzil-kesil bo‘ysundirdi. Xorazm va Qoshg‘ar yurushlaridan keyin, 1380-1381-yillarda Amir Temur e’tiborini Xuroson tomon qaratdi. Qurultoyda qatnashish sababi bilan Hirotga Malik G‘iyosiddin Pir Ali huzuriga Xoji Sayfiddinbekni elchi qilib jo‘natdi. Keyin esa amirzoda Mironshohni 50 qo‘shun (5000 askar) bilan hijriy 782-yilda Xuroson tomon jo‘natdi.

Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida ma’lumot berishicha, Tovuq yilida, tarix 782-yilda (1382-yil fevralda) Amir Temurning o‘zi katta lashkar bilan Xuroson tomon yurush boshlaydi. Oldinda esa Hirot, Seyiston, Mozandaron, G‘ur, Ko‘histon, Tus viloyatlari, Jom, Saraxs, Qavsiya, Sabzavor, Kalot, Niso, Moxon, Fushanj, Turshiz kabi hisor-qal’alar turardi. Bu viloyatlarning ayrimlari Kartlar davlati tarkibida ayrimlari esa turkman beklari tomonidan boshqarilar edi. Har bir vilayat qal’a, qo‘rg‘onning mahalliy hukmdorlari o‘zlaricha mustaqil edi yoki nomigagina o‘zlaridan yirikroq davlatning hukmdorlariga bo‘ysunar edi.

Bu davrda Kartlar, Sarbadorlar, G‘uriylar, Sadidiylar, Turkman urug‘lari (Joni Qurboniylar, Boronlilar, Sanjariylar Qora qo‘yunlilar va boshqalar) sardorlari, hokimlari, hukmdorlik iqtidori uchun bir-biri bilan kurash olib borar edi. Sohibqiron Amir Temur esa qurilayotgan imperiyasining asoslarini ushbu viloyatlarni bo‘ysundirishda ko‘rdi. Davlatining siyosiy-harbiy strategiyasini ushbu viloyatlarni egallash ustida olib bordi. E’tiborimizni tortgan jihat esa buyuk sarkardaning Turshiz qal’asini egallash jarayonlari va voqeliklar o‘sha davr manbalarida qay tarzda yoritilgani bo‘ldi.

Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarining “Hazrat Sohibqiron Turshiz sori borib, qal’asini fath qilg‘oni” bobida bayon etishicha: “Hazrat sohibqiron chun Kalot qal’asini mazbut qilib, o‘zi davlat va saodat bila

Turshiz sori yuridi. Yassi Dabondan o‘tib, Xobushonga kirdi. Va Mahdi ulyo Dilshod Og‘oda mariz paydo bo‘lib, Samarqand sori yibordilar va o‘zi nusrat va saodat bilan yurub, Turshiz viloyatiga kirdi. Va qal’ag‘a yaqin kelib tushti. Ul qal’a asru berk qal’a erdi va ichida Amir Ali Sadidiy sadidiylar bila o‘lturub erdi: sadidiylar G‘ur viloyatidin erdilar va alardek qal’a saqlamoqda va bahodurluqda ul zamon kishi yo‘q erdi va Malik G‘iyosiddin Pir Ali alarg‘a e’timod qilib, qal’ani topshurub erdi.

Hazrat sohibqiron Malik G‘iyosidding‘a ayttikim, “Bular sening navkarlaring turur va bu qal’ani sen bularg‘a beribsen. Sen bizga mute’ bo‘libsen. Ne uchun bular hisorni saqlaylar?”

Malik dedi: “Aqlsizliqdin”. Malik qal’a tubiga borib har necha nasihat qildi, aning so‘zini eshitmadilar. Sohibqiron buyurdikim, qal’ani o‘rtada olib, urushqa mashg‘ul bo‘ldilar. Hazrat sohibqiron otlanib, qal’a tegrasida yurub, chiqar-tushar yerini ko‘zladi va manjaniq buyurdi.Va handaqqa naqab solib, suvini chiqordilar va hisorning tubida nag‘amlar soldilar. Qal’a eli yuqoridan o‘q va tosh otar edilar. Manjaniq toshi bila burj va borani yiqittilar. Sadidiylar parishonhol bo‘lub, ko‘rdilarkim, qal’ani saqlasa bo‘lmas, tazarru’ va zori bila amon tiladilar. Hazrat alarg‘a amon berib, qal’adin chiqdilar, kelib, hazratning diydorig‘a musharraf bo‘ldilar va alarg‘a lutfidin yaxshi ko‘rub, in’omlar qildi va Turkiston sori yiborib, andag‘i qal’alarni alarg‘a topshurdikim, anda borib, ul qal’alarni muhofizat qilg‘aylar”.

Nizomiddin Shomiy esa o‘z “Zafarnoma”sida ushbu voqeani quyidagicha bayon etadi: “Sohibqiron Kalotga boradigan yo‘llarni qo‘riqlashni tayinlagandan so‘ng, o‘zi u yerdan Turshiz qal’asi tomon yurdi. Turshizning hamma yerini o‘rab tushdi. Amir Sohibqiron har kuni otga minib, qal’a atrofida aylanar edi. Uning kirish va chiqish joylarini mo‘ljallar edi. Yer kovlovchilar uning buyrug‘iga ko‘ra handaqni suvdan xoli etdilar va hisor devori tagini bir necha joydan kavladilar. So‘ng lashkar har tarafdan jang boshladi. Manjaniqlar qurib, undan otilgan tosh zarbi bilan qal’aning burji, borusi va fasilini buzib tashladilar, hisor va boruni yiqitdilar.

Dushmanlar bechora va ojiz bo‘lib qolib, jonlariga amonlik tiladilar. Amir Sohibqiron muxosara qilish vaqtida, ularning mardonaliklarini ko‘rgani sababli, inoyat ko‘rsatib, ularga amonlik hamda suyurg‘ollar va in’omlar berdi. Shahar va viloyatlar tayin etib, ularni Turkiston tarafga yubordi.”

Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorix” asarida yozishicha: “Xurosonning jami sardorlari dargohga kelib qo‘shilgan bo‘lsada, Turshiz qal’asi qutvoli hanuz Sohibqiron huzuriga bosh urishga kelmagan edi. Maslahat yuzasidan Kalotga e’tibor qilmay, Turshizni musohara qilishga farmon berildi. Ali Sadid bu metin qal’aning mustahkamligiga orqa qilib, jang qo‘li bilan beadablik dovulini qoqdi va qaysarlik boshini manmanlik qalqoni ortiga tortdi. Ittifoqan, ul qal’a handagi suvga to‘la g‘arq qiluvchi ko‘lga o‘xshar, uning chuqurligini qiyosiy o‘lchov bilan aniqlab bo‘lmasdi. Muhandislarga tayyorani ishga solib, yerning nishabini aniqlash amr qilindi. Hisob o‘n farsangga barobar chiqdi. Qazuvchilarga bu yerdan har biri o‘n farsangga barobar bo‘lgan qariyib ellikta koriz qazib, ul handaqning sarchashmasini sahroga qaratib oqizish haqida farmon berildi. Suv yer qa’riga ketgandan so‘ng, handaqning loyi oftob haroratidan xuddi suv ko‘rmagan sopol idishdek qup-quruq bo‘lib qoldi. Shundan keyin xokrez, devor va burjlarda ulkan rahnalar ochishdi. Chunonchi, qal’a devorining bo‘lak va parchalari taxtalar va belpoyalar ustida muallaq bo‘lib qolgandi. Har bir yoriq hosil bo‘lganida, Ali Sadid birodarlari bilan birga olishuv choparini handaq chekkasiga qo‘yishar va toshlar zarbasi bilan bahodirlarning otash damli qilichlari hamlalarini qaytarib, yoriqni qaytadan mahkam qilishar edi. Shu tariqa, qal’a devori va burjlarning yon-atroflari bir necha marta imorat qilindi, o‘pirildi va qayta tiklandi. Shundoq qudratli podsho shu to‘rt devorni egallashga ojizlik qildi. Oqshom payti baxt yulduzi lojuvard taxtga xursandchilik libosini yoyib, davlat yoritqichi (oyi) saodat matla’idan balqib chiqqanda, Ali Sadid xabar etmasdan va oldin bu ishning muqaddimasini ado etmaganiga qaramasdan, tavakkal kafanini zoru tavallo bo‘yniga o‘rab, qal’a kalitini qo‘liga olib, tashqariga chiqdi. U bironta amir yoki vazirga iltijo qilmasdan, ochiq-oshkor to‘g‘ri borgoh eshigi oldiga keldi va udaychiga dedi: “Ichkariga kir va hazratga falon xokisor banda eshik oldida turganini ma’lum qilgin”. Amir sohibqiron uning jasurligidan hayratga tushdi va ichkariga chaqirdi. Ali Sadid kalitni yerga qo‘ydi va tazarru’ yuzini tuproqqa surib, uzr va shafoat tili bilan qudratli davlatni duo qila boshladi. Amir sohibqiron dedi: “Bu dargohga mulozimat qilish niyatida ekansan, nega shunchalik qaysarlik qilib, ushbu barcha qon to‘kishlarga sababchi bo‘lding?” Ali Sadid dedi: “Barcha zamonlarda boshqa mamlakatlarga nisbatan Xuroson mamlakatining oriyati kuchli

bo‘lgan. Endilikda humoyun o‘rdu bu o‘lkani fath qilishga otlandi va bunga oson bir tarzda muyassar bo‘ldi. Bundan bu mamlakat bahodirlarining kuchli oriyati bemiqdor bo‘ldi. Shu sababli jangga jur’at qildim, tokim, shunday o‘rmon nar sherlardan xoli va bu maydon botir kishilardan bo‘shab qolgan deb, tasavvur qilmasinlar”. Amir sohibqironga uning so‘zlari yoqib tushdi va uni turli suyurg‘ol va in’omlar bilan sarafroz qildi. Qal’a devori esa farmonga ko‘ra tuproq bilan tekislab tashlandi.”

Muarrix G‘iyosiddin Xondamirning “Habib us-Siyar” asarida Turshiz qal’asini egallanish jarayoni qisqacha bayon etiladi: “Shundan so‘ng, zafarpanoh olishuv va urushga jazm qilib, Turshiz sari yuzlandi. Qal’ani u yerda hokim bo‘lgan Malik G‘iyosiddin Pir Ali nomidan boshqarayotgan amir Ali Sadidiy G‘uriydan sulh yo‘li bilan olib, ul qal’alarni muhofaza qilib turish uchun u yerning bahodirlarini in’om va ehson sifatida Turkistonga ko‘chirdi.”

Amir Temurning harbiy – siyosiy mahorati, qattiq qo‘l tartib-intizomi sarkardalik qobiliyati, oliyjanob insoniy fazilati, dushmanga marhamati, ijtimoiy adolati barchaga ma’lum. Lekin uning ham odamlar singari yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklari bo‘lgan. Ushbu tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Amir Temur va qo‘shini Turshiz qal’asining egallanishida qiyinchilikka uchraydi. Muniddin Natanziy bu voqeani real tavsiflar ekan shunday yozadi: “Shundoq qudratli podsho shu to‘rt devorni egallashga ojizlik qildi”. Bu o‘z navbatida qal’aning mustahkamligi, tabiiy-geografik joylashuvi, Sadidiylar va hisor ichidagi xalqning qal’adorlik mahorati bilan ham bog‘liq. Qanchalik harakat qilinmasin Turshiz hisori Amir Temur lashkari tomonidan jang qilib egallanmaydi.

Ushbu manbalarda bayon etilayotgan e’tiborga molik yana bir jihat Amir Temur qo‘shini tarkibidagi maxsus bo‘linmalar faoliyati va harbiy qurol-aslahalarning (lahmchilarning korizlar bunyod etishi, manjaniq, tayyora va boshqa) qo‘llanishidir. Yana bir muhim jihat Amir Temurning o‘sha davr urf-odati va an’analariga ko‘ra anchayin oqilona siyosiy, harbiy-diplomatik faoliyatida ko‘rinadi. Qurultoy chaqirish, elchilar yuborish, qavmlarni ko‘chirish siyosati, jangning texnik va taktik jihatlariga e’tibor berish, in’om, suyurg‘ol, ulufa, unvon, jaldu berish va shu kabilarda. Masalan, Sohibqiron Amir Temur Sadidiylar, G‘uriylar turkman urug‘larini saltanatining turli hududlariga ko‘chirish siyosatini ham olib borgan. Amir Temurning ko‘chirish siyosatida ko‘zlangan aniq maqsadlari bo‘lgan. Misol uchun Amir Temur tomonidan Sadidiylarning Turshizdan Turkistonga ko‘chirilishi uning uzoqni ko‘zlagan siyosiy-strategik faoliyatidir. Sababi Turkiston viloyati bevosita Jo‘ji ulusi yoki Dashti Qipchoq ko‘chmanchi turk hamda mo‘g‘ullarining hujumlariga tez-tez duchor bo‘ladigan

saltanatning shimoliy viloyati edi. Bu hududlarga ko‘chmanchi turklarga qarshi tura oladigan qal’a va qo‘rg‘onlarni saqlay olish ko‘nikmasiga va qal’adorlik xususiyati ega Sadidiylar, G‘uriylar va turkman urug‘larining ko‘chirilishi qurulayotgan imperiyaning shimoliy viloyatlari xavfsizligini ta’minlar edi. Shuningdek, ko‘chirish siyosatining asl mohiyati ushbu urug‘larga qo‘llangan jazo yoki surgun edi. Shu bilan birga Amir Temur Ali Sadidiyning bahodirligi, mardlik fazilatini ham tan olgan va munosib taqdirlagan odil hukmdordir.

Xulosa qilib aytganda, Turshiz qal’asi o‘rta asrlardagi mustahkam qal’alardan biri bo‘lib, Amir Temurdek buyuk sarkardaning ushbu qal’aning zabtida qiyinchilikka uchragani buning isbotidir. Qal’a aholisining mardonaligi, qal’adorlik sifatlari manbalarda bayon etilgandir. Amir Temur harbiy mahorati, janglarni tashkil qilish taktikasi, qo‘shin tarkibi va vazifalari, Amir Temurning siyosiy-strategiyasi va boshqalar haqidagi ma’lumotlarni ushbu qal’ani egallash jarayonlarini tadqiq etish orqali ham bilib olishimiz mumkin. Bu bilan manbalarda bayon etilayotgan kichik tarixiy jarayonlarning tadqiqi va talqini tarixiy voqelik to‘g‘ri tasavvurini yaratishda, real holatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома: Мовароуннаҳр воқеалари: (1360-1370) // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрлади.: А. Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов; Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.

2. Шомий Низомиддин. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Ю. Ҳакимжонов; Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрл. ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи Ҳ.Кароматов (географик номлар изоҳи О. Бўриевники). Ҳофизи Абрунинг “Зафарнома”га ёзган “Зайл”и − (“Илова”)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларни тузувчи О. Бўриев. − Тошкент: Ўзбекистон, 1996. − 528 б.

3. Натанзий Муиниддин. Мунтахаб ут-таворихи Муиний: (Муиний тарихлари танланмаси) / форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғ.Каримий; маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 264 б.

4. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар: (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст) / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари Ж.Ҳазратқулов, И. Бекжонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 1271 б.

Ҳамидулла АМИНОВ
т.ф.н., докторант ЎзР ФА ШИ

МАХДУМИ АЪЗАМ ДАҲБЕДИЙНИНГ “ТАНБЕҲ АС-САЛОТИН” НОМЛИ АСАРИ ҲАҚИДА

Аннотация: Мазкур мақолада Махдуми Аъзам Даҳбедий (1463-1542) томонидан битилган “Танбеҳ ас-салотин” номли асарнинг қўлёзмалари, унинг таркиби ва мазмуни тўғрисида сўз юритилади. Қўлёзмаларда асарнинг бир неча номда учраши ҳам айтиб ўтилади.

Мазкур асарда муаллиф мутасаввиф шайх сифатида ҳукмдорларга панд-насиҳат қилар экан, уларни олим ва уламоларни эҳтиром қилишга чақиради. Шунингдек, асарда яхши олим билан ёмон олимларнинг фарқи амир ва ҳукмдорларга муносабати ва таъсири орқали кўрсатиб берилади.

Калит сўзлар: уламо, умаро, салотин, амир, фақир, халифа, шариат, зиёрат, илм.

XVI асрда даврида бир қанча олим ва мутасаввифлар илмий фаолият олиб боришган. Улардан бири, “Махдуми Аъзам” номи билан шуҳрат қозонган мутасаввиф олим Саййид Аҳмад Хожаги ибн Саййид Жалолиддин Косоний Даҳбедий (1463/64-1542) бўлиб, Шайбонийлар давридаги мовароуннаҳрлик йирик диний арбоб ва нақшбандийлик раҳнамоларидан ҳисобланади. Шайбонийлар даврида яшаган олимлардан айримлари ҳукмдорларга аталган ва давлат бошқаруви назариясига бағишланган бир қанча муҳим асарлар ёздилар. Али Хоразмий (XVI аср биринчи ярми)нинг “Фавоид” асари, Фазлуллоҳ ибн Рўзбеҳон (1457-1521)нинг “Сулук ал-мулук” асари, Муҳаммад Қози (1448-1516)нинг “Ҳукмдорга ўгитлар” рисоласи Саййид Али Бухорий (XVI аср иккинчи ярми) қаламига мансуб “Муршид ал-муҳтасиб” асари кабилар шулар жумласидандир. Махдуми Аъзам ҳам ўзининг ўттизга яқин асарлари ичида иккитасини мазкур мавзуга бағишлаган эди.

Махдуми Аъзам ўз даврида Мовароуннаҳрда нақшбандия тариқати пешвоси сифатида тан олинган. Шайбоний султонлари ва ҳокимлари Махдуми Аъзамни ўзларининг пири деб билганлар. Заҳириддин Муҳаммад Бобур Махдуми Аъзамга бағишлаб рубоийлар ёзди. Махдуми Аъзам ҳам унга атаб ҳақидаги “Бобурия” рисоласини ёзиб, Ҳиндистонга жўнатган.

Махдуми Аъзам тасаввуфий-ирфоний мазмундаги 30 дан ортиқ асарлар муаллифидир. Унинг асарларининг қўлёзма нусхалари ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти фондида сақланади. Махдуми Аъзам асарларининг куллиёти бўлмиш рисолалар тўплами учта асосий қўлёзма мавжуд.

Қўлёзмаларнинг энг қадимийси 501 рақами билан сақланади. Муқова қора чармдан, устига мато ёпилган. Нусха "Асрори никоҳ"дан бошланиб, "Рисолаи баёни воқеа" деб аталган рисола билан тугаган. Мажмуада Махдуми Аъзамнинг 27 та рисоласи берилган. Котиб Саййид Муҳаммад бир Мир Жалол аш-Шуржаҳий ал-Бухорий уни 997 ҳ./1588 м. йили кўчирган. Қўлёзма жами 288 варақдан иборат, ўлчами: 24,5х17 см.

Иккинчи қўлёзма 1443 рақами билан сақланади. Муқова жигарранг лак урилган картон қоғоздан. Лабакиси қизил чармдан. Саҳҳоф номи лоланақшда "Амали Муҳаммад Зариф саҳҳоф" деб битилган. Қўлёзмада Махдуми Аъзамнинг 29 та асари кўчирилган. "Асрори ниқоҳ"дан бошланиб, "Рисолаи Илмия" билан тугаган. Асар Муҳаммад Шоҳ ибн Мулло Поянда Муҳаммад ал-Бухорий томонидан 1134 ҳ./1721 м. йили Саййид Муҳаммад Мирохўр буюртмасига биноан кўчирилган. Ўлчами: 24х18 см.

Учинчи қўлёзма 10626 рақами билан сақланади. Муқова жигарранг лак урилган картон қоғоздан. Чеккалари қизил чармдан, лабакиси ҳам қизил чармдан. Саҳҳоф номи ўртадаги лоланақшга "Амали Мулло Абдулазим саҳҳоф-1271" деб битилган. Қўлёзмада Махдуми Аъзамнинг 27 та асари берилган. "Асрори ниқоҳ" асаридан бошланиб, "Рисолаи Биттихия" билан тугаган. Асар Хожа Ҳамажон номли кишининг буюрмаси билан кўчирилганлиги қўлёзма хотимасида айтилган (262б-бетда). Қўлёзма 1272 ҳ./1856 м. йили кўчирилган, ўлчами: 26х15 см.

Мазкур учта қўлёзма таркибига ҳам Махдуми Аъзамнинг "Танбеҳ ус-салотин" ("Султонларни огоҳлантирув") номли асари киритилган. 997 ҳ./1588 м. йили кўчирилган қадимий қўлёзма нусхада "Танбеҳ ус-салотин" ҳамда "Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин" икки номдаги асар мавжуд[1]. Шунинг учун, ушбу асар айрим манбаларда "Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин" деб аталган бўлса, бошқа бирларида "Рисолаи аҳволи уламо ва умаро" деб аталган. Ушбу икки асарнинг ҳам мазмуни бир-бирига яқин. Ундаги оят, ҳадис ва ҳикматлар бир-бирида такрор учрайди.

[1] Махдуми Аъзам. Танбеҳ ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 501/10. – В.135а ва 209а.

“Танбеҳ ус-салотин”да “Амирларнинг (подшоҳларнинг) энг яхшиси уламоларни зиёрат қиладиганидир. Олимларнинг энг ёмони эса амирларни (подшоҳларни) зиёрат қиладиганидир” ҳамда “Фақирнинг эшигига борган амир қандай ҳам яхши! Амирнинг эшигига борган фақир қандай ҳам ёмон!” деган ҳадислар шарҳлаб берилган. Муаллиф ўз илмига амал қилувчи ва насиҳатгўй олимларни мақтар экан, улар ҳукмдорлар саройига борган тақдирда ҳам, уларга панд-насиҳат қилиш, тўғри йўлга солиш, халқнинг ҳаққоний аҳволидан хабардор қилиш мақсадида боришини, бунда эса ҳукмдорлар учун албатта манфаат борлигини уқтиради. Махдуми Аъзам: “Мана шундай олим амирнинг (подшоҳнинг, ҳокимнинг, бой-бадавлатнинг) зиёратига борса, суратдагина у зиёратчи, амир эса зиёрат қилинган бўлади. Аммо ҳақиқатда эса зиёратчи амир бўлади, у (олим) эса зиёрат қилинган бўлади. Олимнинг амирнинг зиёратига боришдан мақсади амирни ўз суҳбатига мушарраф қилишдан ўзга қасди йўқ. Ўзининг илму амали, дониши ила амирни ҳам баҳраманд қилади. Гапда ҳам, феълда ҳам Аллоҳнинг халқига шафқат қилганлигидан шундай қилади”, деб ёзади[1].

Махдуми Аъзам энг яхши ҳукмдорлар олимларнинг маслаҳатига қулоқ солувчи, илмни ва илм аҳлини эҳтиром этувчи, уларга ҳомий бўлувчи эканлигини айтади. Жумладан, “Амирларнинг яхшиси ана ўшандай олимларнинг зиёратини жону дилдан истайди. Ҳамиша унинг зиёратига бориб туради. Уни ўз мажлисларига ҳозир қилади. Унинг таъзими ва ҳурматини жойига қўяди. Халифалик, амирлик илмини ундан ўрганади. Шундагина амир (ҳоким) ҳалқ билан шариат ва тариқат йўриғида муомала қила олади. Бу салтанат деган улуғ неъматнинг шукрини келтирмоқлик шарт” дея олимларнинг сўзларига қулоқ осиш, уларнинг ҳурматини жойига қўйиш, илм аҳлини улуғлаш ҳукмдорларга берилган салтанат неъматига шукрона деб кўрсатади. Яна “Раҳбар ва бошлиқлар бу неъматни аниқ билсинларки, бир соатлик адолат олтмиш йиллик ибодат савобига тенг бўлади”, деб уқтиради[2].

Мамлакатдаги диний ислоҳотлар ва соғлом муҳитда ривожланиши ҳамиша ҳукмдорларнинг ва давлат арбобларининг унга бўлган муносабатига қараб юз беради. Ҳукмдорларнинг қўллаб-қувватлови натижасидагина диний илмлар ҳам, диний ислоҳотлар ҳам тараққий

---

[1] Махдуми Аъзам. Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 501/XXIV. – В. 210[a].

[2] Махдуми Аъзам. Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 501/XXIV. – В. 211[a].

қилади. Шу ҳақиқатларни Махдуми Аъзам ҳам: “Муҳаммадий шариат ва тариқатнинг ривожланишининг дебочаси бўлмиш амри маъруф ва наҳий мункар энг яхши амирларнинг ва раҳбарларнинг ёрдами ва мададига боғлиқдир”, деб кўрсатиб беради[1].

“Танбеҳ ус-салотин” асарида Махдуми Аъзам ҳукмдорларни ёмон мақсадли ва ғаразли олимлардан ҳам огоҳлантиради. Аслида, муаллифнинг илм аҳлига қаратилган алоҳида “Танбеҳ ул-уламо” номли асари ҳам мавжуд[2]. Ушбу асарда кўтарилган айрим масалаларини олим “Танбеҳ ус-салотин”да ҳам қисқароқ тарзда давом эттирган. Донишманд мутасаввиф фикрича, агар олим кишилар амир, подшоҳ ёки бой-бадавлат одамларнинг ҳузурига боришдан мақсади шуҳрат, мансаб, мусулмонларга бошлиқ бўлиб олиш ва замондошларидан устун бўлиш бўлса, камоли шарорат, ниҳоятда ёмонлик ва қабиҳликдир. Айниқса, талабаларда таҳсили илмнинг бошланишидаёқ бундай ниятлар бўлиши зарарли, деб алоҳида қайд қилади[3]. Бурҳониддин Марғиноний (1118-1197) шогирди Бурҳониддин Зарнужий томонидан талабаларнинг одоб-ахлоқига бағишланган “Таълим ал-мутааллим” асарида XII асрдаёқ: “Илм туфайли одамларни ўзига қаратишни, дунё матоларини жалб қилишни, подшоҳ ва бошқалар олдида улуғ бўлишни ва бошқаларни ният қилмасин”, деб ёзилган эди[4]. Зотан, “Таълим ал-мутааллим” асари Махдуми Аъзам яшаган даврлардан то XX асргача Мовароуннаҳр мадрасаларида асосий ўқув қўланмалари қаторида турган.

Махдуми Аъзам ҳукмдорлар ва раҳбарлар олдига боравердиган илм аҳлини ҳаром таомлардан парҳез қилмайдиганлар, деб билади. Бой-бадавлатларга хушомад қилувчилар, шунинг натижасида кўплаб ноҳақ ҳатти-ҳаракатлар қиладиганлар, деб кўрсатади. Чунки, амир олимга мадад ва ёрдам беради, олим ҳам амирга мадад ва ёрдам беришга мажбур бўлиб қолади. Амир ва ҳукмдорларнинг зиёратига борадиган бундай олимлар, ўзаро суҳбатлар қураркан, фуқароларга ва раиятга қанча-қанча зарарлар етади.

“Танбеҳ ус-салотин” асари давомида яхши ва ёмон одамлар суҳбатининг таъсири ҳақида сўз юритилган. Инсоннинг ҳарактери

---

[1] Махдуми Аъзам. Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 501/XXIV. – В. 211[а].

[2] Махдуми Аъзам Косоний. Рисолаи танбеҳ ал-уламо. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 1443/XXVI. – 357[б]-365[а] варақлар.

[3] Махдуми Аъзам. Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 501/XXIV. – В. 213[б].

[4] Бурҳониддин аз-Зарнужий. Таълим ал-мутааллим. – Карочи: Мактаба ал-Бушро, 2010. – Б. 12.

суҳбатдоши ва дўстига қараб ўзгариб туриши, суҳбатдошининг феъл-атвори унга ҳам юқиши мумкинлиги муаллиф томонидан бир неча ҳикматли байтлар орқали очиб берилади[1]. Шунинг учун ҳукмдорларга кунда-кунора гаплашиб-суҳбатлашадиган ўз ёнларидаги вазир ва давлат аъёнларини яхши ниятли кишилардан, қалби пок инсонлардан, халқпарвар ва ҳақиқий ватанпарвар одамлардан таъйинлаши зарурлигини уқтиради.

Асар давомида ҳукмдорлар ҳам тариқатга амал қилиб пок яшашларига тарғиб қилинади ва улар олдига тўртта шарт қўяди. Жумладан, ҳамма вақт халққа хайрихоҳлик қилиш ва яхши ниятли инсонлар билан суҳбат қуриш, иккинчи шарт ҳамиша таҳоратли бўлиб пок юриш, учинчи шарт дилдан зикрни канда қилмаслик, тўртинчи шарт бу ишларни давомли бажариб бориш[2].

Умуман олганда, Махдуми Аъзамнинг “Танбеҳ ас-салотин” асари мутасаввиф шайхнинг ҳукмдорларга панд-насиҳати ҳисобланади. Унинг энг муҳим жиҳати, давлат арбобларини илмпарвар бўлишга, илм-фанни қўллаб-қувватлаш зарурлигига, олим ва илм аҳлини эҳтиром қилишга чақиришидир. Шунингдек, асарда яхши олим билан ёмон олимларнинг фарқи амир ва ҳукмдорларга муносабати ва таъсири орқали кўрсатиб берилиши каби жиҳатлар унинг бугунги кундаги ҳам долзарблигини йўқотмаганини англатади.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Бурҳониддин аз-Зарнужий. Таълим ал-мутааллим. – Карочи: Мактаба ал-Бушро, 2010.
2. Зайниддин Маҳмуд Восифий. Бадойеъ л-вақойеъ. II жилд. – Теҳрон: Чопхонаи Зар, 1971.
3. Махдуми Аъзам Косоний. Рисолаи танбеҳ ал-уламо. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 1443/XXVI.
4. Махдуми Аъзам. Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 501/XXIV.
5. Фазлуллоҳ ибн Рўзбеҳон. Меҳмонномайи Бухоро. – Теҳрон: Баҳман-пресс, 1976.
6. Фазлуллоҳ ибн Рўзбеҳон. Сулук ал-мулук. – Ҳайдаробод: Вазорати Фарҳанг, 1966.

[1] Махдуми Аъзам. Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 501/XXIV. – В. 213б.

[2] Махдуми Аъзам. Зубдат ус-соликин ва танбеҳ ус-салотин. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 501/XXIV. – В. 218б.

Farhodjon DEHKANOV
the head of the Department of Work with Youth,
Spirituality and Enlightenment of, TSUOS

ABOUT THE FACTORS OF EMERGENCE OF 20TH CENTURY UZBEK TEXTUAL STUDIES

Annotation: The factors of the emergence of Uzbek textual studies of the 20th century are interpreted in detail and information is given about the persons who played an important role in its emergence.

Key words: textual studies, concept, source, theory, epic, lithography, literary critic.

Enter. During the years of independence, restoring the ancient history and rich culture of our nation, thoroughly studying and promoting the scientific, religious and spiritual heritage of our great scholars and saints, beautifying the holy places, educating the young generation in the spirit of their noble traditions. great work has been done and is being continued consistently.

Today, in World source studies and textual studies, there is an increase in the research of textual analysis in order to study the sources of Eastern literature. As a result, the theoretical foundations of textual studies, clear concepts of text analysis are being developed, and analysis methods are being defined. Existing priorities in textual studies allow to identify the original sources of classic literature samples and to draw new conclusions about their role in the spiritual and cultural development of our country.

In the science of world source studies and textual studies, primary sources are studied based on the principles of comparative analysis and interpretation. In order to draw a scientific-theoretical conclusion about the text and its author, which is the main object of textual studies, first of all, the research of the primary source, the creation of their scientific-critical texts, and the publication of ancient literary sources based on manuscript copies are among the most important tasks. Studying the scientific-literary environment that emerged at the beginning of the century, developing the principles of translation and interpretation of sources is one of the urgent problems facing the sciences of literary studies and textual studies today.

The literary heritage created by our ancestors, its research is of great importance in enriching the spiritual world of our people and educating the future generation as a well-rounded person. We have an enviable great history, we have enviable great ancestors. We have immeasurable riches to

covet. And I believe that if we are lucky, we will have a great enviable future, great literature and art. First of all, if we look at the historical roots of textual studies, we can conclude as follows.

"Golden Light", one of the notable written monuments among the Turkic-speaking peoples, plays an important role in illuminating the historical roots of the formation of Uzbek (Turkish) textual studies. The original text of "Golden Light" was created around the 1st century AD, and the work was copied ten times during the 10th-18th centuries and translated into many Eastern languages. N. Rahmonov notes that Sengi Seli Tugung, who lived in the city of Beshbaliq (Eastern Turkestan) in the 10th century, while translating "Golden Light" from Chinese to Uyghur, also compiled a summary text. The fact that he translated the places that were not included in the Chinese text from other languages and included them in the work means that the principles of text composition in Turkish textology have been formed since ancient times.

The formation of Uzbek textology is a long process. Its initial, simple manifestations can be seen in cases related to Turkish inscriptions. The restoration of the text, its editing, which is one of the research methods of textual studies, indicates a serious attention to the text in the first centuries of our era.

If we observe the history of Uzbek textual studies of the 16th-19th centuries, we can see that the scribes tried to choose a reliable, ancient copy of the work being copied or to create a summary text of the source. In the prefaces of many texts created during this period, the author's confessions such as "I collected from various specific sources" indicate his efforts to extend the life of works by creating new versions of works that are disappearing. Such works include religious, word, mystical, didactic works as well as works of a literary, historical-commentative nature. Among these, the copying of Alisher Navoi's works in the form of collections was the focus of the most famous people of the time. At the same time, as a result of the copying of manuscripts by scribes of various levels, the neglect of some calligraphers, the inability of some scribes to read stanzas, or the writing of some stanzas by deliberately omitting or changing them, the work began to drift away from the author's editing. This situation increased as many manuscripts were copied. We should not avoid the fact that the mistakes, cases of corruption of the author's text, and errors reflected in the hundreds of manuscripts created during this period also occurred as a result of the first exercises on the way to acquire the profession of an amateur or a calligrapher. Of course, in textual studies, the unknowingly changing of the

original words by the scribes is considered a defect. According to some literary experts, including A. Rustamov, it is very difficult to determine whether the changes in the text of the manuscripts copied during the author's time were made by the scribe or the author.

Another innovation seen in Uzbek textual studies of the 16th-19th centuries is the phenomenon of changing the form of the text while preserving its content. For example, the poet Umar Baqi Alisher Navoi, who lived in Khorezm in the second half of the 18th century and the beginning of the 19th century, turned the epics from “Khamsa” into a prose story. He named it “Nasri Khamsai Benazir”. Umar Baqi preserved the main events and episodes of the epics. Umar Baqi tried to preserve the main character of the characters without straying from the composition of the work. The remarkable thing about the prose narrative prepared by Umar Baqi is that this work is the first experiment used in the way of popularizing “Khamsa” and making its text understandable to ordinary readers. Typo-lithographic enterprises opened in Turkestan in the second half of the 19th century played an incomparable role in the development of Uzbek textology and expansion of new opportunities. Originally, the word lithography was derived from the Greek words “lithos” - stone and “grapho” - to write. For lithographic book printing, the surface of the stone served as a printing form, the text or image was drawn on the lithographic stone with ink or a special pen, and copies were multiplied. Some scholars call the preparation of books by the lithography method as flat printing. In particular, Sh. According to Ziyadov, the method of flat printing without typing, according to polygraphy terminology, is lithography, that is, flat printing is a method of copying the image, the text of which is previously written on a sheet of paper and the reverse of which is printed on the stone form.

The method of lithography was discovered by the German publisher Alonziy Zenefelder in 1796-1798 and entered the Eastern countries in the second half of the 19th century. Lithography has greatly facilitated the reproduction of manuscripts. The development of lithographic book publishing in India led to the spread of Oriental manuscripts. At the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, trade relations between Central Asia and India revived, and lithographic editions of the works of many Eastern writers and historians entered the territory of Uzbekistan. Such a convenient reproduction of manuscripts led to the emergence of lithographic publishing houses in Uzbekistan. Alisher Navoi’s “Khamsa” was published in the lithography opened by Otajon Abdullayev in Khiva in 1880 under the leadership of Khiva Khan.

The practical works carried out during the preparation of lithographic copies in the late 19th and early 20th centuries are directly related to Uzbek textology. The selection of copies for publication, the carrying out of certain editorial works during their preparation for publication required textual research. Sorting out copies for printing among many copies and studying them comparatively in the process of preparing them for publication, eliminating textual differences, identifying errors and creating a single text created the basis for the formation of certain principles in the textology of the next period. In this respect, books with lithographic copies are an important source for studying the history of the peoples of Central Asia, as well as an important phenomenon from the point of view of studying the characteristics of textual studies of this period.

In the development of Uzbek textology, the specific features of this period are distinguished by the fact that the work of the textualist was directly related to his task by the secretary, publisher, editor, etc. A calligrapher or scribe copying a work for a lithograph took a scientific approach to his work and looked critically at the text at hand. Of course, such an approach cannot be equated with the critical attitude of the present time. But the calligraphers and scribes were not only engaged in copying the text, but also comprehensively researched it along with its artistic, philosophical and historical aspects, made serious checks and made appropriate corrections.

At the beginning of the 20th century, attention to the critical study of the text increased in Turkestan. The establishment of various printing houses or libraries caused the development of Uzbek textual studies in a new direction. In March 1920, the Turkestan Central Executive Committee decided to establish the Turkestan State Publishing House (Turkdavnashr). He was entrusted with the tasks of unifying all publishing works in the country, supervising and directing the distribution of paper and printing equipment. Special attention was paid to the fact that the works intended to be published in this publishing house reflect Western traditions in their structure, form and content. In this process, it can be seen that the ancients were very interested in the issues related to the study and publication of written monuments. They were promoters of the achievements of the world civilization, and they were also great appreciators of the ancient national written literary heritage, its devotees and researchers. To have the author’s text of works of art or to get a reliable ancient and correct manuscript copy close to the author’s text was the dream and ideal of any scientist and virtuous person. In the second half of the 19th century - the first twenty years

of the 20th century, a large part of private libraries consisted of medieval manuscript books, whose works are becoming antiques. For example, one of the leaders of the Turkestan modernism movement, Mahmudhoja Behbudi, believed that it is important to study and promote the cultural and spiritual monuments of the past in the development of science, art and culture, and in 1913 he opened his private publishing house – "He founded Behbudiya publishing house. Literary scholar A. Hayitmetov, speaking about the development of Uzbek textual studies of this period, writes:" The development of textual studies in our country does not depend only on the names of textual scientists. Many literary scholars conducting scientific research on the first sources, even if they are not textualists by their main profession, had to carry out textological verification work and performed important tasks in this field and contributed to the development of textual studies. These comments of the scientist were fully confirmed in the work of the moderns. Uzbek textual studies based on a new methodology began to develop from the 19th-20th centuries. At the beginning of the 20th century, attention to the critical study of the text grew in Turkestan. The establishment of various printing houses or libraries in a certain sense caused the development of Uzbek textual studies in a new direction. The practical works carried out in the process of preparing lithographic copies of our textology at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century occupy an important place in the history of the development of Uzbek textology. Speaking about the appearance of printed publications, A. Habibullayev noted the following: The works carried out during the selection of copies for these publications and their preparation for publication - textual research corresponded to the requirements of that time. came and served as a stage in the transition to the requirements of modern textual science of the 20th century. The work of selecting copies for printing, sorting them, and finally creating a printed edition became more and more perfect, which paved the way for the emergence of modern textual studies.

Summary. As a result of these studies, it became known that Uzbek textual studies, based on a new methodology, developed from the 19th-20th centuries. It can be seen that at the beginning of the 20th century, attention to the critical study of the text increased in Turkestan. In fact, it was found in the researches that the organization of various printing houses or libraries in a certain sense caused the development of Uzbek textual studies in a new direction, and the practical works carried out in the process of preparing lithographic copies of our textology at the end of the 19th century and the

beginning of the 20th century Uzbek textology occupied an important place in the history of its development.

List of used literature.

1. N. Egamkulova. Devotee of the nation // World literature. - Tashkent, 2014. - No. 1. - P. 62-66 (10.00.00 No. 4).

2. Rashid Zohid. Basics of textual studies and literary source studies.- Tashkent, 2023-P.236.

3. Sh.Sirojiddinov, S.Umarova. Aspects of Uzbek textual studies.- Tashkent, 2023-P.128.

4. F.Sapayeva. Organızıng lecture courses on the scıence of texts. Tashkent, 2020-P.234.

5. N.B. Egamqulova. Literary process at the beginning of the XX century: based on the materials of "Oyina" magazine//ISJ Theoretical and applied sciences. – Philadelphia, USA, 2019.– No. 10 (78). -P. 410-416. Impact Factor: 6.6.

Zebiniso QURBANBOYEVA
2-kurs magistrant, TDSHU

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING ILMIY TANQIDIY MATNI VA KEYING NASHRLAR ORASIDAGI TAFOVUTLAR

Annotatsiya: Maqola “Hayrat ul-abror” dostonining ilmiy tanqidiy matni va keying nashrlar orasidagi tafovutlar tahlili berilgan.

O‘tgan asrning 50 – 60-yillarida qo‘lyozma manbalarni o‘rganish va nashrga tayyorlash adabiyotshunoslikdagi eng dolzarb masalalardan biri edi. 1957-yili Toshkentda o‘tkazilgan sharqshunoslarning Butunittifoq birinchi konferentsiyasi o‘tkaziladi. Shu konferentsiyada ishtirok etgan davlat rahbari N. A. Muhiddinovning nutqida shunday so‘zlarni o‘qiymiz: “Afsuski, biz o‘rta asr Sharqining ko‘zga ko‘ringan fan va madaniyat arboblari asarlarini juda sekin nashr etmoqdamiz. Respublika hukumatining Alisher Navoiy asarlarining to‘la to‘plamini nashr etish to‘g‘risidagi qarori sust bajarilmoqda”[1].

[1] Muhiddinov N. A. Sovet sharqshunosligining yangi muvoffaqiyatlari sari. Toshkent shahrida sharqshunoslarning Butunittifoq birinchi konferentsiyasida so‘zlagan nutqi. – T. : “Qizil O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka” va “O‘zbekistoni surx” birlashgan nashriyoti, 1957. – 35-b.

Bu davrda nafaqat Navoiy asarlari, balki ko‘plab mumtoz adabiyot vakillari asarlarini nashr ettirishga e’tibor kuchayadi. Shuning uchun ham ba’zi asarlar mukammal o‘rganildi, ba’zilari esa to‘la tadqiq etilmasa-da, ilmiy-ommabop shaklda xalqimizga yetkazildi. Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish[1] borasidagi dastlabki ishlar o‘tgan asrning 60-yillarga kelib qator tanqidiy matnlar saviyasining yaxshilanishiga olib keldi

Adabiyotshunoslikda amalga oshirilgan ushbu ishlar orasida Porso Shamsiyev tomonidan qilingan ilmiy tadqiqotlar tahsinga sazovordir. Matnshunos olim “Xamsa” tarkibidagi dostonlar yuzasidan olib borgan tekstologik ishlari natijasida 1960-yili “Xamsa”ning to‘liq matnini nashr etishga muvaffaq bo‘lindi. Bu nashr ham matnning to‘laligi, savodliligi jihatidan ancha puxta tayyorlangan. Keyinchalik matn ustoz tayyorlagan mazkur matn Navoiy asarlari o‘n besh tomligidagi “Xamsa” tarkibidagi dostonlarining nashri uchun ham asos bo‘ldi[2]. Bulardan tashqari ushbu nashr keyinchalik amalga oshirilgan XX tomlik “Mukammal asarlar to‘plami” va X tomlik “To‘la asarlar to‘plami” uchun ham asos sifatida olingan.

Porso Shamsiyev tayanch nusxa sifatida Abdujamil kotib tomonidan ko‘chirilgan nusxaga tayangan. Mutaxassislar bu xizmatlarning yuqori ilmiy darajada amalga oshganini e’tirof etishadi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, ilmiy tanqidiy matni bilan keyinchalik kirill alifbosga tabdil qilingan matnlar o‘rtasida sezilarli darajada farqlar ko‘zga tashlanadi. Nashrlarda tanqidiy matndan chekinishlarning asosiy shakllari imlo bilan aloqador. Ular orasida ishoraviy (punktuatsion) notugalliklar ham ko‘zga tashlanadi.

Imloviy va ishoraviy xatolar matn mazmuniga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatgan o‘rinlar kitobxonni chalg‘itadi. Ularda hazrat Alisher Navoiy asarlar mag‘ziga singdirilgan yuksak badiiy kashfiyotlar mohiyatini anglashga oid qiziqish va imkoniyatlar doirasini sezilarli tarzda toraytirib qo‘yadi. Dastlabki tanishuvdan keyin bizda ayrim tasavvurlar paydo bo‘ldi. Biz mazkur notugalliklar mohiyatini, ularning sabab va oqibatlarini ko‘z oldimizga keltirib, ayrimlari haqida ixchamroq tarzda bo‘lsada, o‘z mulohazalarimizni bildirishga harakat qildik. Misollarni bitta maqolat (20-maqolat) hamda “Hayrat ul-abror” dostonining xotima qismiga oid matnlar ichidan olishga harakat qildik. Ularning asosiy qismi quyidagilardan iborat.

Yaxshi ma’lumki, Alisher Navoiy asarlari tilida, jumlada, “Xamsa” tarkibidagi barcha dostonlarda ham o‘zlashma so‘zlarning miqdori ancha

---

[1] O. Fayzullayeva “Matnshunoslik fanidan o‘quv uslubiy majmua”. – Guliston, 2018. 16-b.
[2] Abduqodir Hayitmetov. Navoiyxonlik suhbatlari. –T.: O‘qituvchi, 1993.

katta. O‘zlashmalarning salmoqli qismi arabiy va forsiy so‘z hamda so‘z birikmalaridan iborat. Ushbu so‘z va birikmalarni nashrlarda tabdil qilish jarayonida ayrim o‘rinlarda qo‘shib yoki ajratib yozish qoidalariga nomutanosib tarzda berilgan. Masalan, ilmiy tanqidiy matndagi *charxduvoj* چرخ دواج (186), *tarabangez* طرب انکیز, *naxlsifat* نخل صفت (189), *shamvor* سمع وار (193), *ziyonbud* زیان بود (197), *tarannumsaroy* ترنم سرای (196), *g‘amobodig‘a* غم ابادی غه(195) so‘zlari faqat “To‘la asarlar to‘plami” – X tomlikdagina to‘g‘ri, ya’ni qo‘shib yozilgan, XV va XX tomliklarda esa ular noto‘g‘ri ravishda ajratib yozilgan, *nozparvardi* ناز پروردی (186), *dastras* دست رس *va erurmen* ایرورمین(196) so‘zlari esa X tomlik va XV tomliklarda qo‘shib, XX tomlikda ajratib yozilgan.

Achinarli tomoni shundaki, ularning mazkur shakllari – so‘zlarning ajratib yozilishi ayrim o‘rinlarda bayt mazmuniga ta’sir ko‘rsatgan. Masalan,

Kimniki inson desang, inson emas,

Shaklda bir, fe’lda <u>*yak son*</u> *emas*. (A–HA; 226-b)

Ushbu baytdagi *yakson* یکیان (189 va 198) birikmasi faqatgina XV tomlikda ajratib, qolgan nashrlarda esa qo‘shib yozilgan. Ajratib yozilganda yak so‘zi forschadan *bir* raqamini, *son s*o‘zi esa raqamni bildirib, qo‘shib yozilganda *teng, bir xil, o‘xshash* degan ma’nolarni bildiradi. Demak, bayt mazmuniga ushbu o‘rinda *yakson* tarzida qo‘shib yozilgani to‘g‘ri kelar ekan, ya’ni “Agar shaklda ham (tashqi ko‘rinishi), fe’l-atvorda ham bir xil bo‘lmasa uni inson dema, u inson emas …”

Bunga yana bir misol qilib quyidagi baytni ko‘rish mumkin:

Kim manga ko‘k yer bila <u>*yakson*</u> *bo‘lub,*

Charx ochuq gulshani zindon bo‘lub. (TAT–HA; 300-b)

Ilmiy tanqidiy matn va nashrlar o‘rtasidagi tafovutlarni qo‘shimchalar tarkibida kelgan *k, g,* va *q* harflarining turlicha qo‘llanilgani orqali ko‘rsak bo‘ladi. Masalan, *ayog‘ig‘akim* ایاغی غه کیم(186), *yasamog‘lig‘* یاساماغلاغ(189), *haftalig‘* هفته لاغ(195) so‘zlaridagi qo‘shimchalarda kelgan *g‘* harfi o‘rnida *q* harfi, aksincha ilmiy matnda *gadoliqcha* کدالیق چا (187), q*oronqu* قرانقو (189), *so‘ngqi* سونکقی (193), *nafsqa* نفس قه(198) tarzida berilgan so‘zlar nashrlarda *gadolig‘cha, qorong‘u, so‘ngg‘i va nasfg‘a* ko‘rinishida berilgan.

Ayrim o‘rinlarda nashr qilingan uchchala tomliklarda *-ga* jo‘nalish kelishigi qo‘chimchasidan oldin bitta *g* harfi (ilmiy tanqidiy matndan farqli ravishda) orttirib yozilgan. Bunga misol qilib *mulkunga* ملکونکا*va ilginga* ایلکینکا (188), *royinga* رایینکا *va ko‘zunga* کوزونکا (190) so‘zlarini keltirish joiz ko‘rinadi.

Yuqoridagi xato va kamchiliklar kontekstga ta’sir qilmagan, ammo asosiy matndan farq qiladi.

Qiyosiy materiallar orasida shunday so‘zlar ham borki, ulardagi bitta harfning noto‘g‘ri yozilishi sababi bilan butun bayt mazmuniga salbiy ta’sir etgan, so‘zning lug‘aviy ma’nosi butunlay o‘zgarib ketgan. Masalan,

Etti sababliqqa seni baxtiyor,

Qismat etarga sanga ne ixtiyor? (A–HA; 223-b)

Bu baytdagi *etti* ایتی (188) so‘zi X tomlik nashrda *yetti* tarzida berilgan. Bu yerdagi *etti* yordamchi fe’li “sabab” so‘ziga tegishli bo‘lib,” Seni baxtiyor bo‘lishing uchun sabab etti” ma’nosida kelgan. Bu o‘ringa *yetti* so‘zi, demak, mazmun jihatdan to‘g‘ri kelmas ekan. Mazkur holatda uning son (7) ma’nosi ham, harakat (yetib ilmoq) ma’nosi ham baytning umumiy mazmun va ma’no doirasiga sig‘ishmaydi.

Yana shunga o‘xshash holatlardan biri bu ilmiy tanqidiy matnda *emas* ایماس (190) so‘zi bilan bog‘liq tarzida berilgan so‘z faqat X tomlikda shu ko‘rinishda, qolgan XV va XX tomlik nashrlarda *esa* ko‘rinishida berilgan. Ammo *esa* so‘zi bayt mazmuniga to‘g‘ri kelmaydi:

Yaxshi emas afv siyosat chog‘i,

Lek kerak ishda farosat dog‘i. (TAT–HA; 286-b)

Quyidagi baytga ham nazar solsak *esam* (193) so‘zi X tomlik nashrda *yesam* tarzida berilgan:

Bilmas esam men tilak oyinini

Aylama zoyi aning ominini. (MAT – HA; 330-b)

Bu o‘rinda guvoh bo‘lganimizdek *yesam* so‘zi ma’no-mazmun jihatdan nomutanosib.

1965-yilda nashr qilingan “Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik” kitobida LXI bob butunlay tushirib qoldirilgan. Buning sababi, o‘sha davrdagi siyosat shuni talab qilgan. Ushbu bobda *Xoja Muhammad Porso va uning o‘g‘li* haqida gap boradi. Tushirib qoldirilgan baytlar soni 34 tani tashkil qiladi. Ammo keying yillarda 1991-yilda nashr qilingan XX va 2011-yilda nashr qilingan X tomlikda ushbu 34 bayt bilan birga to‘liq nashr qilingan.

Yana shuni ham aytish kerakki, bosh harf bilan yozish qoidalariga barcha nashrlarda to‘g‘ri berilgan emas. Masalan, Haq, Iloh, Tangri va boshqa so‘zlar misralar orasida kelganda faqatgina X tomlik “To‘la asarlar” to‘plamida to‘g‘ri shaklda, qolgan nashrlarda esa kichik harflar bilan berilgan.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, Porso Shamasiyev tomonidan tuzilgan ilmiy tanqidiy matn asos qilib olingan holda tabdil

qilingan va nashr etilgan to‘plamlar orasida sezilarli darajada tafovutlar mavjud. Qanchalik ko‘p xatolarga yo‘l qo‘yilsa, shunchalik ko‘p darajada asl nusxada bitilgan matn va uning asl mohiyatidan uzoqlashib boriladi. Shu sababli, kelajakda amalga oshiriladigan Navoiy asarlari bo‘yicha ilmiy va ommabop nashrlarda bunday xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun tadqiqot ishlarini bardavom qilish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат-ул-аброр. Илмий танқидий матн. (Тузувчи: Порсо Шамсиев), Т.: ЎзССР “Фан”, 1969
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. “Ҳайратул-аброр” 7 том. Тошкент: Фан, 1991.
3. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т.6.–Тошкент: “Тошкент” бадиий адабиет нашриети, 1965.
4. Алишер Навоий. асарлар тўплами. “Ҳайратул-аброр” Ўн жилдлик. 6-жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриет матбаа ижодий уйи, 2011.
5. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: П.Шамсиев. С.Иброҳимов -Тошкент Ғафур Ғулом номидаги адабиет ва санъат нашриети, 1973
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати II том. Э.И.Фозилов-Тошкент, Фан нашриети, 1983.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати III том. Э.И.Фозилов-Тошкент, Фан нашриети, 1984.

Muxlisa NAFASOVA
2-kurs magistrant TDSHU

TANQIDIY MATN TUZILISHI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqola yozma manbalarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, uning o‘ziga xos jihatlari va prinsiplariga bag‘ishlanadi. Maqolada asarlarning ilmiy-tanqidiy matni qanday tuziladi, bunda nimalarga ahamiyat berish lozimligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iboratligi, ilmiy-tanqidiy matn tuzishda tayanch nusxa qanday tanlab olinishi kabilar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ilmiy-tanqidiy matn, “Mezon ul-avzon”, “Mahbub ul-qulub”, “Muntaxab ut-tavorix”, tayanch nusxa.

Yurtimizda matnshunoslik bo‘yicha O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot, Sharqshunoslik universitetlarida qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek ko‘pgina mashhur asarlarning ilmiy-tanqidiy matni yaratildi. Bu esa qo‘lyozma manbalarni yaqindan o‘rganishga yordam bermasdan qolmaydi. Jumladan quyidagi asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarining tuzilishi alohida ahamiyatga egadir:

Alisher Navoiy asarlarining ilmiy tanqidiy matnlarini tayyorlash va nashr ettirishni S.Ayniy (“Hamsa”ning qisqartirilgan nashri), O.Sharafiddinov, I.Sultonov (“Mezon ul-avzon”), A.N.Kononov (“Mahbub ul-qulub”) va boshqalar amalga oshirdilar. Matnshunos olim P.Shamsiyev Navoiy “Hamsa”sining to‘la va yaxlit bir kitob holida nashrga tayyorlash borasida murakkab matnchilik yuzasidan tadqiqiy ishlar olib bordi. Natijada, “Hamsa”ga kirgan besh doston: “Hayrat ul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor”, “Saddi Iskandariy”larning barcha nashrlarini Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib va boshqa kotiblar tomonidan ko‘chirilgan nusxalari bilan qiyoslab, “Xamsa” ning asl matniga yaqin keladigan ilmiy tanqidiy matnini tayyorladi va 1960-yil nashr ettirdi. Hamid Sulaymonov Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asari tanqidiy matnini tayyorlab nashr ettirdi (1958– 1961). S.G‘aniyeva “Majolis un-nafois” asari tanqidiy matnini tayyorladi. O‘zbek olimlardan A S.Mirzayev, G‘.Karimov, S.Mutallibov, S.Dolimov, R.Majidiylarning matnchilikdagi xizmatlari natijasida bir qator o‘zbek mumtoz shoirlarining asarlari nashr etildi” [1] . Matnshunoslikning vazifalaridan biri asarning ilmiy-tanqidiy nashrini tayyorlash hisoblanib, tadqiqotchidan juda katta mehnat talab etadi. Masalan, Alisher Navoiyning asarlari turli davrlarda va turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari mavjud bo‘lib, matnshunosning oldida ularni sinchkovlik bilan o‘rganish, so‘zma so‘z qiyoslash, bir nusxadagi kamchiliklarni boshqalari bilan to‘ldirish orqali eng mukammal-ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash vazifasi turadi. Bundan tashqari tayyor bo‘lgan ilmiy-tanqidiy matnni nashrga berish uchun tadqiqotchi uni sharhlar, izohlar, lug‘atlarini berishi lozim.

Bugungi kunda turli xil fond va muzeylarda saqlanayotgan qimmatli asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini nashrga tayyorlashga jiddiy e’tibor berilmoqda. Ma’lumki, bir necha nusxada yetib kelgan asar qo‘lyozmalari orasida ancha-muncha tafovutlar bo‘lishi tabiiy holdir. Asarning turli

[1] F. D. Sapayeva. Matnshunoslik fanidan ma’ruza mashg‘ulotlarni tashkil etish (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). - Toshkent: “Tafakkur-bo‘stoni”, 2020. - 7-bet.

nusxalari muqoyasa qilinib yaratilgan ilmiy matnigina tarjima va tadqiqotlar uchun ancha ishonchli bo‘ladi. Qolaversa, turli mavzuda izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar tarjima emas, balki asl matnga tayanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.. Asl matnda muhim atama va unvonlar asar yozilgan davrda qanday ishlatilgan bo‘lsa, shunday yoziladi. Tarjimada esa ular o‘zgarishga uchrashi va boshqa ba’zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Darhaqiqat, yurtimiz tarixi va madaniyatiga oid asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlari Arab mamlakatlari (movarounnahrlik ulamolar kitoblari), Eron (fors tilidagi bir qancha tarixiy va adabiy manbalar), Amerika (Munis va Ogahiyning “Firdavs ul iqbol” asarining Yuriy Bregel tarafidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni), Yaponiya (Muhammad Hakimxonning “Muntaxab ut-tavorix” asarining Yayoi Kavaxara, “Boburnoma”ning Eyji Mano tarafidan nashr etilgan ilmiy-tanqidiy matnlari) va chet ellik olimlar tomonidan nashr etilgan. Bu esa qo‘lyozma asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini nashrga tayyorlash juda muhim ahamiyatga egaligini bildiradi.

Shuxrat Sirojiddinovning yozishicha badiiy asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish manbaning nusxalari ko‘p bo‘lganda amalga oshiriladi. Ilmiy-tanqidiy matn, bu-matn tarixini ilmiy o‘rganish asosida muallif matniga yaqin variantini tuzishdir[1]. Ilmiy-tanqidiy matn tuzishning o‘ziga xos xususiyatlari va prinsiplari mavjud. Dastlab, matn tuzuvchi asarning fanga malum bo‘lgan barcha nusxalarini ko‘rib chiqishi kerak bo‘ladi. O‘sha asarning qo‘lyozma nusxalari o‘rtasidagi tafovutlar ko‘p bo‘lsa, ilmiy-tanqidiy matn tuzuvchi matnshunos hamma nusxalarni ko‘rib chiqishi kerak bo‘ladi. bundan tashqari ko‘p nusxalari mavjud bo‘lgan asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda nusxalarni saralab olish katta ahamiyatga ega. Ko‘p nusxalarga ega manba matni ustida ishlash, ayniqsa, uning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash butun “injiqlik”lari bilan o‘ta nozik va mas’uliyatli, to‘xtovsiz aniqlik va intizom talab etuvchi “zahmat”lari bilan mashaqqatli, ammo samarali mehnatdir. Haqiqatdan ham ilmiy-tanqidiy matn tuzishda matnshunosdan juda katta mehnat talab etadi. Ushbu mashaqqatning zahmatlariga chidab, sabr qilgangina ko‘zlagan natijasiga erishadi. Agar ilmiy-tanqidiy matn tuzishda muallif nusxasi ya’ni muallif tomonidan yozilgan nusxasi bo‘lmasa, asarning eng qadimiy, ishonchli nusxasi tayanch nusxa sifatida tanlab olinadi va boshqa nusxalardan yordamchi manba sifatida foydalaniladi. Masalan, “matnshunos Mavjuda Hamidova “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishga kirishar ekan, dostonning turli fondlarda mavjud yuzdan ortiq qo‘lyozmalarini o‘rganib, ularni xronologik tartibda uch guruhda tasniflaydi:

[1] Сирожиддинов Ш. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент, 2018. - 74 б.

birinchi guruh – XV-XVI asrlarda, ya'ni shoir hayotlik davri va vafotidan biroz vaqt o'tgach kitobat qilingan qo'lyozmalar;

ikkinchi guruh – XVII-XVIII asrlarda kitobat qilingan qo'lyozmalar;

uchinchi guruh – XIX va XX asr boshlarida ko'chirilgan qo'lyozmalar.

Olima asar ilmiy-tanqidiy matni uchun dastlab birinchi guruhdagi manbalar asosida ish olib borilganini, keyinchalik esa ishga boshqa yondosh manbalar ham jalb qilinganini qayd etadi va buning sabablarini batafsil sharhlaydi"[1].

Muallif dastxati yoki uning davrida yaratilgan matn mavjud bo'lsa, ilmiy-tanqidiy matnning ilmiy qiymati yuksak bo'ladi. P.Shamsiyev jahon qo'lyozma fondlarida Navoiy asarlari qadimiy qo'lyozmalarining topilishi shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish uchun katta imkoniyat yaratganligini qayd etgan. Xususan, P. Shamsiyev Qozon davlat universiteti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan "Xamsa" ning XVI asrda ko'chirilgan deb taxmin qilingan nusxasining aniqlanishi haqida shunday yozadi: "Xamsa" ning ana shunday qadimiy nusxasining topilishi navoiyshunoslikda muhim hodisadir. Chunki u ulug' shoir asarining yagona ilmiy-tanqidiy matnini tuzish ishini yanada takomillashtirish yo'lida zarur manba xizmatini o'taydi, matn tuzishdagi ko'pgina masalalarni, chigalliklarni hal etishga yo'l ochadi[2].

Darhaqiqat ilmiy-tanqidiy matnni tuzishda matnshunosning asar mazmuni, g'oyasi, matn tarixini chuqur bilishi hamda to'g'ri xulosaga kelishi katta ahamiyatga egadir. Bunday matnni tuzishda barcha nusxalar matni tanqidiy jihatdan o'rganiladi. Matnshunos to'plangan barcha nusxalarni qiyosiy o'rganadi va tayanch nusxaga taqqoslagan holda barcha o'zgarishlarni ilmiy apparatda ko'rsatib boradi.

Shu o'rinda ilmiy-tanqidiy matn uchun asos bo'ladigan tayanch nusxani tanlash prinsiplari va e'tibor berilishi lozim bo'lgan xususiyatlari haqida to'xtab o'tish joiz. Ma'lumki, tayanch nusxani tanlab olish uchun asarning eng qadimiy, boshq nusxalarga qaraganda benuqson va to'la saqlangan qo'lyozma nusxasi tanlab olinadi. Biroq, ayrim hollarda qadimgi nusxaga nisbatan keyin ko'chirilgan qo'lyozma nusxasi asarning to'liqroq matni ham bo'lishi mumkin. Zeroki, muallif dastxatining saqlanmagani yoki keyin ko'chirilgan nusxa uchun asos bo'lgan manba yetib kelmagani bilan bog'liqdir. Shuningdek, ba'zan kotiblar nusxa ko'chirishda asarning bir necha manbalaridan foydalangan bo'lib, ular imkoniyatdan kelib chiqib

---

[1] Ҳамидова М. Алишер Навоий "Садди Искандарий" достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1994. – Б.37.

[2] Шамсиев П. Алишер Навоий "Сабъаи сайёр" достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида. – Тошкент, 1952. 142 б.

yig‘ma matn yaratishgan. Buning natijasida esa ilmiy-tanqidiy matn tuzuvchi tomonidan tayanch manbaning tanlanishini qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli ham “boshqa nusxalar bilan umumiy jihatlari ko‘proq nusxani tayanch nusxa sifatida tanlagan ma’qul. Shunda o‘qilishdagi farqlar soni ko‘payib ketmaydi”[1].

Demak, ilmiy-tanqidiy matn uchun tanlanadigan tayanch manba ko‘p xususiyatlari, jihatlari bilan matnning mukammal va to‘kis bo‘lishiga yordam beradi. Shuning uchun matnshunos manbaning barcha nusxalarini saralab, ajrata olishi ular orasida har jihatdan nuqsonsiz, to‘liqroq, mukammal bo‘lganini tanlashi lozim.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, ilmiy-tanqidiy matn tuzish matnshunoslik sohasida juda katta rol o‘ynaydi. Shu sababli ham matnshunos ilmiy-tanqidiy matn qanday tuziladi, qanday xususiyatlari mavjud hamda qanday prinsiplarga rioya qilish lozimliligini bilishi lozim. Tanqidiy matn aynan tanlab olingan mo‘tabar nusxalar asosida tuziladi. Shuning uchun bunda manbaning eng ishonchli, qadimiy, mukammal va to‘liq nusxalarini tanlab olish kerak. XX asrning 40-yillaridan Alisher Navoiy asarlarining nashr etilishi o‘zbek matnshunosligida ko‘plab tadqiqot ishlari qilinishiga, mumtoz adabiyotimiz durdonalarini, she’riy devonlarning ham ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. F. D. Sapayeva. Matnshunoslik fanidan ma’ruza mashg‘ulotlarni tashkil etish (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). - Toshkent: “Tafakkur-bo‘stoni”, 2020.
2. Сирожиддинов Ш. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент, 2018.
3. Ҳамидова М. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1994.
4. Шамсиев П. Алишер Навоий “Сабъаи сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида. – Тошкент, 1952.
5. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент: ТДШИ, 2012.

[1] Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Тошкент: ТДШИ, 2012. – Б. 22.

TARIX VA FALSAFA

Умид ЖИЯНОВ
Магистрант 2 курса СамГУ

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ СВЯЗИ ТЮРКСКОГО КАГАНАТА С САСАНИДСКОМ ИРАНОМ И ВИЗАНТИЕЙ

Аннотация: Ушбу мақолада Турк хоқонлигининг Сосонийлар Эрони ва Византия империяси билан алоқалари масаласи турли тиллардаги манбалар (византия, араб-форс ва хитой тилидаги) ва илмий тадқиқотлар асосида ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Турк хоқонлиги, Византия, Сосонийлар Эрони, турклар, дипломатик алоқалар

Дипломатические связи Тюркского Каганата с двумя крупными империями, Сасанидами и Византией, выделяются как один из важных предметов для изучения. По словам американского исследователья П. Голдена, тюрки были важными посредниками в международных торговых отношениях на Великом Шелковым Пути. Тюркский Каганат установил торговые отношения в основном с Китаем и отчасти со странами Восточного Средиземноморья (Сасанидский Иран и Византия) с Индией и служил торговым мостом, соединяющий Евразию. Укрепление и контроль над дорогами Шелкового пути, в свою очередь, на некоторое время создали условия для экономического развития Каганата[1].

Так, в то время ведущее место в экономической жизни Тюркского Каганата занимала торговля шелком, являвшаяся важным источником дохода для многих стран. Особенно в первые годы существования каганата, когда он стал расширять свою территорию за счет завоевания соседних стран, они уделяли внимание торговле шелком и посылали согдийских и тюркских купцов в Иран и Византию для продажи шелка[2]. В самом деле, тот факт, что эти представители каганата, посланные в качестве посольства, всегда носят с собой шелк и предлагают покупать шелк иностранным правителям в тех местах,

[1] Golden P.B. Türk Halkları tarihine Giriş / Çev. O. Karatay, KaraM. – Ankara, 2002. – S. 125.
[2] Пигулевская Н. В. Византия на путях в Индию (Из истории торговли Византия с Востоком в IVVI вв.). – М.–Л., 1951. – С. 203-204.

которые они посещают, свидетельствует о том, что изделия из шелка занимают высокое место во внешней торговле Каганата[1].

Чтобы экономическая жизнь Каганата была стабильной одной из предпринятых мер было установление международных торговых отношений. Тюркский Каганат отправил своевременно также торговый караван со своими посольствами, посланными для установления дипломатических отношений. В 560-х годах посланные послы в Сасанидский Иран брали с собой шелковые ткани. Подтверждением этого мнения является назначение в 570-х годах согдийского купца Маниаха руководителем послов, направленных в Византию с целью установления военного союза. В китайских летописях встречается много сведений об открытии рынков в приграничных районах Каганата и Китайской империи.

В международной торгово-экономической политике Шелкового пути Первый Тюркский Каганат с времен правления Мухан-хана (554-574 гг.) вступило в борьбу с Византией, Сасанидским Ираном и Китаем от Дальнего Востока до Средиземного моря. В этом важным этапом тюркско-согдийских отношений стали отношения каганата с Ираном и Византией. Согдийцы взяли под свой контроль «тюркско-согдийские» караванные пути от Амударьи до Великой Китайской стены под покровительством Тюркского Каганата. Это также было необходимо для политического статуса, экономической независимости и финансовой свободы Каганата[2].

Поражение эфталитов в 562-567 годах заставило Сасанидов установить хорошие отношения с Тюркским Каганатом. Для борьбы против эфталитов Сасанидский правитель Хосров I Анушерван (531-579) заключил тюрко-сасанидский союз с тюркским правителем Истеми Ябгу. По договору 567 г. земли на северо-востоке Амударьи отошли к Каганату, земли на юго-западе были захвачены Сасанидами. Но конфликт экономических интересов усилился, особенно в торговле шелком. Согдийский шелк стал вытеснять китайские ткани с западного рынка[3]. Доставка этого продукта в Византию была только через Иран. В VI веке Иран отправил своих послов в Лоян, столицу Китая, и подписал соглашение о поставках китайского шелка на Запад. Но

---

[1]Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк ҳоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент. Yangi nashr, 2018. – С. 318.

[2] Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Т.: ART-FLEX, 2010. – Б. 24.

[3] Массон М.Е. К вопросу о взаимоотношениях Византии и Средней Азии по данным нумизматики // Труды САГУ. – 1951. – Вып. XXIII. – С. 91-104.

согдийци с тюрками стремились установить прямой контакт с Византией, без участия Ирана. В результате иранские торговцы искусственно повышали цены на шелк[1]. Византия пыталась получить шелк из Индии, а не из Ирана, и это закончилось неудачей. В Византии шелковые ткани подорожали, и, чтобы выйти из положения, с VI века пытались выращивать тутовых шелкопрядов. Однако, когда ожидаемого результата достигнуто не было, Византия вновь обратилась к Согду. Это было в интересах Тюркского Каганата.

Были и политические проблемы в отношениях между Тюркским ханством и Византией. Одним из них был Аварский каганат на Северном Кавказе, созданный Байон-ханом в 565 г. и его конфликт с Тюркским каганатом. Византия симпатизировала аварам, но когда авары стали нападать на земли Византии, Византия стала сотрудничать с Тюркском каганатом в ликвидации авар. В 563 г. Истеми Ябгу отправил в Константинополь послов под предводительством Эскиля, старейшины племени Нушиби. Развитие политических и экономических отношений, в которых заинтересованы обе стороны, осложнило отношения с Ираном. В частности, Тюркское ханство отправило послов в Иран для доставки шелковых тканей в Византию по инициативе Согда в 568 г. и предложило персам посредничество в этой торговле. Послов возглавлял Маниах, «вождь» согдийцев. Хосрав I, шаханшах Ирана, оправдывался тем, что эти послы прибыли от имени Тюркского Каганата, а не Согда. Предложение послов было отвергнуто, шелковые ткани которые они привезли с собой были куплены персами и сожжены у них на глазах. Это признак того, что персам не нужны изделия согдийцев на службе у тюрков[2]. Истеми согласился на компромисс и второй раз отправил тюркских послов в Иран. На этот раз Хосров I подошел к вопросу предвзято и часть послов вернул, а некоторых отравил. Тюркскому кагану было отправлено ложное сообщение о том, что «ваши послы не выдержали жары». Это положило конец союзу между Тюркским ханством и Сасанидским Ираном и создало состояние войны[3].

Границы Ирана закрыты для тюркско-согдийских караванов, дипломатические отношения были разорваны. Сасанидские правители

---

[1] Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 1. – Душанбе: Ирфон, 1989. – С. 276

[2] Пигулевская Н.В. Византия во пути в Индии. Из истории торговли Византии с Востоком в IV-VI вв. – М.-Л.: 1951. – С. 203.

[3] Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 1. – С. 277.

воспользовались услугами Маниаха, чтобы восстановить отношения с Византией, сасанидским соперником[1].

В целом дипломатические отношения Тюркского Каганата с великими державами того времени - Сасанидским Ираном и Византией свидетельствуют о том, что они были великой державой в регионе и в торговле на Великом шелковом пути.

Список литературы:

1. Golden P.B. Türk Halkları tarihine Giriş / Çev. O. Karatay, KaraM. – Ankara, 2002.

2. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк ҳоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент. Yangi nashr, 2018

3. Массон М.Е. К вопросу о взаимоотношениях Византии и Средней Азии по данным нумизматики // Труды САГУ. – 1951. – Вып. XXIII.

4. Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Т.: ART-FLEX, 2010.

5. Пигулевская Н.В. Византия во пути в Индии. Из истории торговли Византии с Востоком в IV-VI вв. –М.-Л.: 1951.

6. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. 1. – Душанбе: Ирфон, 1989.

Одил ЗАРИПОВ
ЎзФА Тарих институти
етакчи илмий ходими т.ф.ф.д (PhD)

“ҚЎҚОН ХОНЛАРИ АРХИВИ” ЖАМҒАРМАСИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН

Аннотация. Тарихий ҳужжатлар қўлёзма асарлар каби Ўзбекистоннинг ўрта асрлардаги тарихини ёритувчи қимматли манбалардан ҳисобланади. Шу жиҳатдан ушбу ҳужжатларни илмий тадқиқ этиш, шарқшунос тарихчи олимларнинг эътибор марказида бўлиши керак. Мазкур мақолада Қўқон хонлиги девонхонасига тегишли турли хилдаги иш юритиш ҳужжатларининг жамғарма

[1] Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Марказий Осиё... – Б. 25.

сифатида жамланиши, шаклланиши тарихи, шунингдек ҳужжатларнинг турлари ҳақида умумий таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Архив, Қўқон хонлиги, ёрлиқ, иноятнома, муборакнома, патта.

Ҳужжатлар тарихи. Ўзбекистон миллий архивининг 1043 рақамли жамғармасида сақланувчи “Қўқон хонлари архиви” номли тўплам XIX аср хонлик девонхонасининг маъмурий бошқарув, солиқ, хўжалик юритишга оид турли тоифадаги ҳужжатлар жамғармаси ҳисобланади. Жамғармада хонлардан тортиб турли даражадаги амалдорларга тегишли муборакнома, дафтар, патта, ёрлиқ, хат каби ҳужжатлар ўрин олган. Ушбу жамғарма 1876 йилги Қўқон уюштирилган рус босқинидан сўнг, генерал-губернатор К. Фон Кауфман топшириғига кўра шарқшунос А.Л. Кун [1] томонидан Петербургдаги император Халқ кутубхонасига тақдим этилган. Бироқ шахсан Куннинг ўзи бу архив билан шуғулланмаган. Хонлик девонхонаси архиви билан бошқа бир шарқшунос Пантусов [2] шуғулланади. Пантусов ҳужжатларни тавсифлар экан, архивда ер – сув муносабатлари, масжид ва мадрасаларга тегишли вақф ҳужжатлари, солиқ ва йиғимлар ундириш, шунингдек, солиқлардаги имтиёзлар, кирим-чиқим қайдлари, хонга тегишли мулклар, ҳамда унга тақдим қилинган ҳадяларга оид мингга яқин дафтарлар мавжудлигини келтириб ўтади[3]. Пантусов ҳужжатларни қуйдагича таснифлаган:

1) Таноб солиғи тўғрисидаги.

2) Ерга оид солиқларлардан озод этилган ва имтиёзга эга бўлган давлат хизматчилари қатлами тўғрисидаги.

3) “پته داران” – патталилар ва “یارلغ داران” ёрлиғлилар, яъни солқилардан озод этилган диний қатлам вакиллари тўғрисида.

4) “بازیافت” – қўшимча аниқланган таноб ва харожга оид солиқлар тўғрисидаги.

5) Хонликнинг турли ҳудудларидаги қўшин миқдори (ўқчи, мерган, тўпчи турига қараб) тўғрисидаги.

---

[1] Александр Людвигович Кун (1840 – 1888) – рус шарқшуноси, Туркистон босқини иштирокчиси, Қўқон хонлиги маъмурий бошқарув тизимига оид бир неча асарлар муаллифи. Қўқон ва Хивадан ноёб қўлёзмалар ва ҳужжатларни империя пойтахтига ташишда жонбозлик кўрсатган шахслардан бири.

[2] Николай Пантусов (1849 – 1909) – рус шарқшуноси, Қўқон босқини иштирокчиси, Туркистон тарихига оид бир неча асарлар муаллифи. *Қаранг:* Мулла Нияз-Мухаммед-Бен-Ашур Мухаммед, Тарихи-шахрохи. История владетелей Ферганы, изд. Н. Н. Пантусов, Казань, 1885 (на перс. яз.); Пантусов Н., Данные о истории Ферганы в Х/Х в.(ЗИРГО по отд. этнографии, кн. VI, 1880).

[3] Н. П. Архивь Кокандскаго хана. // Туркестанские ведомости. 1786 год. 23 марта.

6) Қўшин ва унинг қўмондонларининг пуллари ва кийимлари, шунингдек озиқ-овқатига оид тўғрисидаги.

7) хонликнинг турли қишлоқларидаги маҳсулотлардан солиқ йиғиш ижараси.

8) Ғўза, тамаки, дон ва бошқа маҳсулотларидан харож олиш.

9) Хон ва унинг оиласига тегишли ҳовлиларнинг қурилиши ва таъмирига оид.

10) Қуйма қуроллар ва уларг тегишли жиҳозларга сарфланадиган харажатлар.

11) Кўчманчилар (қирғиз, қорақалпоқ, қурама ва бошқалар.) ва ўтроқ аҳоли чорвасидан йиғиладиган закот миқдори.

12) Пахтадан йиғилган харождан қарздорлик миқдори.

13) Таноб солиғининг миқдори.

14) Хоннинг турли ҳудудлардаги мулклари тўғрисидаги ҳужжатлар.

15) Хон қўшини сафидан қочган аскарлар тўғрисида.

16) Турли шахслар томонидан хонга тақдим этилган совғалар миқдори.

17) Мадраса, масжид ва бошқа муассасаларга ажратилган вақфлар миқдори.

18) Қўқон тумани аҳолиси “نکاحانه” никоҳона ва “تریکانه” тарикона – никоҳ тузиш ва мерос тақсимоти расмийлаштириш учун йиғиладиган тўловлар ҳақидаги ҳужжатлар.

Никоҳ тузиш, ажрим ва қариндошлар ўртасидаги мерос бўлишга оид ҳужжатлар метрик қайдлар, аҳоли статистикаси ва оила-никоҳ масалалари тарихини ёритиш жиҳатидан қиматли аҳамиятга эга. Шунингдек, қишлоқлар аҳолиси ҳақида маълумот берувчи солиқ дафтарларини мазкур давр тарихини ёритишда қўллаш мумкин.

Хонлик девонхона ҳужжатларидан фақатгина 151 ўрамдаги қоғоз ҳужжат Петербург кутубхонасига олиб келинган. Кўпгина ҳужжатлар Қўқонга уюштирилган рус босқини ва ундан олдин рўй берган ғалаёнлар сабаб йўқолган. Қолган ҳужжатларнинг асосий қисми эса кейинчалик янги тузилган Фарғона вилоятининг маъмурий, солиқ ва йиғим ишларини ташкил қилиш учун генерал-губернаторлик маркази бўлган Тошкентда сақланиб қолинди.

Узоқ вақт хонлар архиви тадқиқотчиларга маълум бўлмаган. Фақатгина, Хива хонлари архиви устида тадқиқот олиб борган П.

Иванов[1] ва М. Юлдашев[2] ҳужжатлар ичида форс-тожик тилидаги фарғонага оид ўрамлар мавжудлигини қайд қилишган. Ҳужжатларни саралаш устидаги ишлар 1952 йилда бошланган бўлиб, кўпгина ҳужжатларнинг зарар кўрганлиги (ғижимланган, йиртилган, булғанган) аниқланган. Бунинг натижасида жами 5026 варақ ва 151 ўрам реставрация қилинган. Таъкидлаш керакки, хонлик архиви устидаги жиддий илмий тадқиқот иши А. Троицкая томонидан олиб борилган[3]. Троицкая ҳужжатларнинг тизимлаштирилган каталогини ишлаб чиқади ва ҳар бир ҳужжатнинг рус тилидаги қисқа тавсифини беради. Каталог ер эгалиги ва ердан фойдаланиш, сувдан фойдаланиш, солиқ ва мажбуриятлар ва бошқа даромадлар, ҳарбий иш, хон ва бек ўрдаси каби асосий тўрт бўлимларга бўлинган.

Ҳужжатларнинг тарихий даври. Пантусов хонлик архивидан фақатгина ҳужжатлар борлигини, унинг ичидан қўлёзма асарлар чиқмаганлигини қайд этаркан, у ҳужжатлар даврий чегарасини “10 йилдан ошмаслигини”[4] таъкидлайди. Ҳақиқаттан ҳужжатларнинг аксарият қисми 1866-1875 йилларга тегишли бўлиб, бу Худоёрхон[5] нинг учинчи бошқарув даврига тўғри келади. Бироқ ҳужжатлар синчиковлик билан кузатилганда уларнинг ичида Худоёхоннинг отаси Шералихон[6] ва укаси Маллахон[7] бошқарувига оид ҳужжатларнинг ҳам борлигини кузатиш мумкин[8]. Шунингдек, ер-сув муносабатларига оид кўп миқдордаги ҳужжатлар Марғилон беги Султон Муродбекка тегишли. Айтиш мумкинки ҳужжатларнинг тўртдан бир қисмида сана кўрсатилмаган бўлиб, унинг қайси даврга

---

[1] Павел Петрович Иванов (1893 – 1942) – рус шарқшуноси, тарих фанлари доктори, ўзбек хонликлари тарихи бўйича кўплаб асарлар муаллифи. Қаранг: Иванов П. П. Архив хивинских ханов. Новые источники для истории Средней Азии XIX в. // Записки Института востоковедения Академии наук СССР. VII. Л.: Издательство Академии наук СССР, 1939. С. 5-26.

[2] Муҳаммаджон Юлдашев (1904 – 1985) – шакршунос тарихчи олим, тарих фанлари доктори, Хива хонлиги ер эгалиги масалаларига оид асарлар муаллифи. Қаранг: Новый архивный источник по истории Средней Азии // Краткие сообщения Института востоковедения АН СССР. М., 1951. № 1.

[3] Анна Леонидовна Троицкая (1899 – 1980) – элшунос, шарқшунос тарихчи олим. Қаранг: Троицкая А. Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. – Наука, Глав. ред. восточной лит-ры, 1968.

[4] Н. П. Архивь Кокандскаго хана. // Туркестанские ведомости. 1786 год. 23 марта.

[5] Худоёрхон (1831 – 1882) – Қўқон хонлиги доирасида ўзбек давлатини бошқарган минглар сулоласининг 1845 – 1858, 1862 – 1863, 1866 – 1875 йиллардаги етакчиси.

[6] Шералихон (1790 – 1844) – Қўқон хонлиги доирасида ўзбек давлатини бошқарган минглар сулоласининг 1842 – 1845 йиллардаги етакчиси.

[7] Маллахон (1812 – 1862) – Қўқон хонлиги доирасида ўзбек давлатини бошқарган минглар сулоласининг 1858 – 1862 йиллардаги етакчиси.

[8] Мисол учун Маллахоннинг миробларни тайинлаш бўйича берган буйруғи И.1043-жамғарма, 1-рўйхат, 652-ҳужжат.

тегишли эканлигини ҳужжатда қайд қилинган шахслар номи, ҳужжат палеографияси ва шунга ўхшаш ҳужжатлар асосида аниқлаш мумкин.

Ҳужжат турлари. Қўқон хонлари архиви мазмунига кўра, хўжалик иш юритиш ҳужжатлар тўпламидир. Ҳужжатлар форс-тожик тилида бўлиб, шу билан бирга уларда кўпгина ўзбек ва араб сўзлари ишлатилган. Архив Туркистон дипломатикаси бўйича қимматли манба ҳисобланади. Троицкая каталогда ҳужжатларга ном беришда ҳужжатлардаги матндан келиб чиқиб ном берганлигини ва ер эгалига оид айрим ҳужжатларни номлай олмаганлигини таъкидлайди [1]. У ҳужжатларни асосан қуйидаги турларга бўлади:

1. Иноянома (عنایتنامه) – бу хоннинг амалдорларга бирор бир масъала юзасидан берган топшириқ, маълум шахсга солиқ имтиёзи беришига оид ҳужжат.

2. Муборакнома (مبارکنامه) – хонга маълум бир масала юзасидан тушган аризага жавоб тарзида берилган ҳужжат.

3. Патта (پته) – турли хўжалик ишларини юритишдаги буйруқлар, юқори лавозимдаги мансабдордан қуйи даражадаги амалдорга бериладиган ҳужжат номи. Троицкая патта билан бирга “мусаввада” (مسوده) номли айрим ҳужжатларнинг қандай аҳамиятга эга эканлиги маълум эмаслигини таъкидлайди [2]. Бироқ, қоралама маъносини билдирувчи “мусаввада” ҳужжатлар ўзбек хонликлари, Усмонли давлати ва бобурийлар девонхонасида ҳам сақланган бўлиб, улар асл ҳужжатнинг қоралама нусхаси вазифасини бажарган.

5. Дафтар – аскарлар, солиқ тўловчилар ва бошқа турдаги рўйхатлар келитирилган дафтар ҳужжатлар.

6. Ариза – хон ёки бекка маълум масала юзасидан билдирилган арз ҳужжат.

Троицкаянинг айрим ҳужжатларнинг “муборакнома” ва “иноятнома” сифатида қатъий номланишига қўшила олмаймиз. Бунинг сабаби тадқиқотчи бу турга киритган кўпгина ҳужжатларнинг юқори ва ост қисмлари йўқ бўлиб, фақат ўртадаги матн сақланган. Архивда мавжуд ушбу турдаги ҳужжатлар “در ینولا” сўзлари билан бошлаган бўлиб, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида сақланадиган хонлар ёрлиқлари[3] билан бир хил тузилишга эга. Фақатгина ёрлиқларнинг юқори қисмида

[1] Троицкая А. Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. С. 7.
[2] Юқоридаги асар. С. 8.
[3] Қаранг: Каталог среднеазиатских жалованных грамот. Из фонда Института востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан / сост. А. Урунбаев, Г. Джураева, С. Гуломов // Orientwissenschaftliche Hefte. – 2007.

хоннинг интитуляцияси[1] мавжуд. Архивдаги ҳужжатларнинг юқори қисми йўқлиги, йўқолганлиги сабаб ушбу ҳужжатлар ҳам ёрлиқ эканлигини тахмин қилиш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, мазкур архив ҳужжатлари тадқиқотчилар томонидан ўрганилиб, ҳатто уларнинг каталоги ҳам тузилган бўласада, бироқ, уларнинг айримлари юзасидан ҳужжатшунослик таҳлили қилиш керак. Шу нуқтаи назаридан уларнинг айримларини таснифлашда якуний хулосалар ҳали чиқарилмаган дейиш мумкин. Бу эса, ўз навбатида ҳужжатшунос тадқиқотчиларнинг бу ҳужжатлар устида илмий тадқиқот олиб боришлари кераклигини кўрсатади. Таъкидлаш мумкинки, илмий аҳамият жиҳатидан "Қўқон хонлари архиви" қисқа даврд ҳужжатларини ўзида жамлаган бўлсада, Қўқон хонлигининг иқтисодий-ижтимоий, ҳарбий бошқарув тарихини ёритишда жуда қимматли манба бўлиб хизмат қилади. Қолаверса, ҳужжатлар кўлами манбашунослик, дипломатика бўйича ҳам қизиқарли тадқиқот объектидир. Шунингдек, архив ҳужжатларида моддий маданият, маросимларга оид элшунослик учун манба бўладиган маълумотлар ҳам мавжуд.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Иванов П. П. Архив хивинских ханов. Новые источники для истории Средней Азии XIX в. // Записки Института востоковедения Академии наук СССР. VII. Л.: Издательство Академии наук СССР, 1939.
2. Каталог среднеазиатских жалованных грамот. Из фонда Института востоковедения им. Абу Райхана Беруни Академии наук Республики Узбекистан / сост. А. Урунбаев, Г. Джураева, С. Гуломов // Orientwissenschaftliche Hefte. – 2007.
3. Мулла Нияз-Мухаммед-Бен-Ашур Мухаммед, Тарихи-шахрохи. История владетелей Ферганы, изд. Н. Н. Пантусов, Казань, 1885 (на перс. яз.).
4. Н. П. Архивь Кокандскаго хана. // Туркестанские ведомости. 1786 год. 23 марта.
5. Новый архивный источник по истории Средней Азии // Краткие сообщения Института востоковедения АН СССР. М., 1951. № 1.
6. Пантусов Н., Данные о истории Ферганы в Х/Х в.(ЗИРГО по отд. этнографии, кн. VI, 1880).

[1] Ҳужжатнинг ким томонидан берилганини кўрсатувчи қисм. Қаранг: Султонов Ў. Л. Мусулмон мамлакатлари диломатикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2019. 176-бет.

7. Султонов Ў. Л. Мусулмон мамлакатлари диломатикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2019.
8. Троицкая А. Л. Каталог архива кокандских ханов XIX века. – Наука, Глав. ред. восточной лит-ры, 1968.

Otabek PO‘LATOV
1-kurs magistranti, TDSHU

AFG‘ONISTON HAZORALARNING KELIB CHIQISHI TO‘G‘RISIDAGI NAZARIYALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg‘onistondagi hazoralarining va ularning kelib chiqishi borasidagi nazariyalar yoritilgan. Maqolada hazoralar ayni bir xalqning avlodlari ekanligi to‘g‘risidagi, shuningdek ushbu xalqning bir necha xalqlarning uyg‘unlashuvidan hosil bo‘lganligi borasidagi nazariyalar keltirilgan. Maqolada hazoralarning kelib chiqishi borasidagi tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Hazora, hazorajot, mo‘g‘ul, leksik tahlil, Chig‘atoy, Ariana, shi’a, Chingizxon,

Kirish. Hazoralar Afg‘onistonda yashovchi xaqlarning biri. Bugungi kunda ular Afg‘oniston bo‘ylab turli hududlarda yashab kelmoqdalar. Ularning aksariyati Afg‘onistonning markaziy qismida yashagani sababli ushbu hududlar Hazorajot deb ham ataladi. Hazoralarning katta qismi Islomning shi’a yo‘nalishiga e’tiqod qilishadi. Ular dariy tilining “hazoragi” (هزارگي) nomi bilan ataladigan o‘z shevalarida so’zlashishadi. Son jihatdan ular Afg‘onistondagi ikkinchi eng yirik millat hisoblanadi. Lekin millatchilik, irqiy kamsitish, tabaqalanish natijasida ular siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan Afg‘onistondagi eng qoloq millatga aylanib qolishgan.

Hazoralar Afg‘onistonning tub aholisi sifatida. Hazorlar Afg‘onistonning tub aholisi ekanligi to‘g‘risidagi qarashni fanga XIX asrda fransuz olimi Jan Ferryer kiritgan. Ferryerning fikricha, hazoralar Afg‘onistonda Buyuk Aleksandr ushbu hududga bostirib kelgan davrdan beri yashaydilar. O‘z fikrini isbotlash maqsadida Ferryer Yunon tarixchisi Kuintus Kurtusning Aleksandrning Afg‘onistonga yurishi borasidagi yozib qoldirgan ma’lumotlarini keltiradi va Aleksandrga qarshi kurashgan mahalliy aholi vakillarini hazoralarning ajdodlari sifatida ta’riflaydi.

Aleksandrning tarixchilari bu xalqni boshqa xalqlardan ko‘ra yengish qiyin bo’lganligini yozib qoldirgan[1].

Bir qator Afg‘on olimlar, shu jumladan Abdul Hay Habibi Ferryerning fikrini qo‘llab-quvvatlagan. Abdul Hay Habibi Fucherning “Eron sivilizatsiyasi” asariga asoslangan holda, o‘z fikrini dalillash uchun 3 ta isbot keltiradi:

Birinchisi, “hazora” (هزاره) nomi faqat Afg‘onistonning Markaziy qismidagi aholiga nisbatan emas, balki, Aba Sin, Mahobon, Abbatobod, Paxlai, Kagon, Kashmir tog‘lari quyi qismidagi tepaliklar atrofida yashovchi aholiga nisbatan ham ishlatilishini aytib o‘tgan. Bu aholi tatar ham, mo‘g‘ul ham emas, balki hind-aryanlarning avlodlari, ularning tili esa Hind-eroniy tilllar oilasidan kelib chiqqan[2]. Mahrab Singh “Tavorix-e mo‘lk-e hazora” (تاریخ ملک هزاره) kitobida bu borada muhim ma’lumotlarni keltirgan. Mayor H.G.Raverti Panjobda yashovchi hazoralarni ikki turga ajratgan: Chacha hazoralari va Qarluq hazoralari. Raverti Panjob hazorlari haqida haqida ma’lumot bermagan. Lekin shunisi aniqki, Chingizxon hech qachon Sind daryosini kechib o‘tmagan. Jalolliddin Chingizxon ta’qibidan qochib Nilob orqali Aba Singa boradi. Biroq, Chingizxon noqulay ob-havo tufayli ortga qaytishga majbur bo‘lgan[3].

Ikkinchisi, tarixiy nuqtayi nazardan “hazora” nomi mo‘g‘ullar davridan avval paydo bo‘lgan. Xitoylik mashhur tadqiqotchi Hiuen Tsiang ta’kidlashicha, Tsu Ku Cha milodiy 644-yilda Hindistondan Xitoyga qaytayotganda Araxosiyaning poytaxti Hosina, ikkinchi poytaxti esa Hosala deb atalashini yozgan. Bundan biroz keyinroq, Sent Martin Hosina G‘azni, Hosala “hazora” ekanligiga oydinlik kiritadi[4]. Xuddi shu davrda Ptolomey Araxosiyaning shimoli-g‘arbidagi “Ozala” deb ataluvchi joy haqida yozadi.

Habibi keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, Hosala va Ozala ayni bir joyning Xitoycha va yunoncha atalishidir. Shu sababdan Habibi shunday xulosaga keladi: hazoralar pushtunlar bilan birgalikda Aleksandr Makedonskiy davridan buyon yashab keladi.

Uchinchidan, Habibi Fucher va Sent-Martin keltirgan ma’lumotlar asosida, Afg‘oniston hukmdorlaridan biriga soliq yig‘ilishi jarayonida hamrohlik qilgan Hiuen Tisang keltirgan ma’lumotlardan iqtibos keltirgan. Hiuen Tisang Hazorajot aholisidan soliq yig‘ilayotgan paytda u yerda tashqi ko‘rinishi jihatidan xitoyliklarga o‘xshab ketadigan odamlarni ko‘rganini

---

[1] ۳.ص،۱۹۸۸ تهران،د -.ک تاب نیای– عبد الحی حبیبی اسلام از بعد افغانستان

[2] ۳.ص،۱۹۸۸ تهران،د عبد الحی حبیبی ..ک تاب– اسلام از بعد افغانستان

[3] جامع التواریخ;رشید الدین فضل الالله, تهران ۱۹۵۹ ; ۳۷۶-۳۷۹

[4] Louis Vivien de Saint Martin, Carte General de la Turquie d’Asie;Paris ,1824;p.23

aytib o‘tgan. Fucherning yozishicha, Aleksandr Afg‘oniston janubidan shimoldagi tog‘lar tomon harakatlanayotganda avval uchratgan raqiblaridan ko‘ra yengish qiyin bo‘lgan xalqlarni uchratgani shu davr tarixchilari tomonidan yozib qoldirilgan[1].

Habibi “hazora” so‘zi mo‘g‘ulchadagi “ming” (Mo‘g‘ulchada 1000 kishilik qo’shinni ifodalash uchun ishlatiladigan harbiy atama) so’zining fors tildagi tarjimasi degan fikrni rad etadi. Uning fikricha “ming” so’zining forschadagi tarjimasi “hazor”(هزار) mo‘g‘ullar davridan avval paydo bo’lgan “hazora” so’zi bilan chalkashtirib yuborilgan. Habibining fikricha “hazora” so’zining qadimgi xitoy va yunon manbaalarida keltirilishi, ushbu so’zning mo‘g‘ullar davrida vujudga kelgan degan qarashlarni yo‘qqa chiqaradi, “hazora” qadimiy aryanacha so‘z bo‘lib, “sof yurakli”, “saxiy” kabi ma’nolarni anglatadi[2].

Hazoralar mo‘g‘ullarning avlodlari sifatida.Ushbu nazariyaning tarafdorlari Herman Vamberi, Monstyuart Elfinston va Aleksandr Byornslardir. Ushbu nazariyaga ko‘ra hazoralar Chingizxon armiyasi bilan kelgan mo‘g‘ullarning avlodlaridir. Ushbu hududda o‘rnashgandan so‘ng mo‘g‘ullar mahalliy tojiklarning dini, tili va madaniyatini qabul qilishadi va bugungi kunda “hazora” nomi bilan ataluvchi xalqning asosini yaratishadi.

Bu nazariyaning tarafdorlaridan biri Belouning fikricha, mo‘g‘ul jangchilari Afg‘onistonning markaziy hududida 1000 kishilik harbiy bo‘linmalar sifatida qoldiriladi. Chingizxon bu hududda shunday guruhlardan o‘ntasini qoldiradi[3]. Ulardan 9 tasi Kobulda, 1 tasi esa Hindistonning Pakli shahrida edi. Fors tili mahalliy aholining asosiy tili bo‘lganligi sababli, mo‘g‘ullar ham ushbu tilni o‘rganishadi.

“Hazora” so‘zi mo‘g‘ulchadagi “ming” so‘zining fors tilidagi ekvivalenti sifatida ishlatiladi. Mo‘g‘ullar o‘z qo‘shinlarini o‘n, yuz, mingtalik guruhlarga bo‘lishgan. “Hazora” esa minglik guruhlarning forsiychada ifodalanishi hisoblanadi.

Saif Heravining fikriga ko‘ra, “hazora” va “sada” atamalari XIII asrda harbiy atama sifatida ishlatilgan. Bu qismlar shuningdek, xonlar va sardorlar tomonidan boshqariladigan, urush vaqtida 1000 talik harbiy qismlarga aylanadigan ko‘chmanchilar jamoasiga nisbatan ham ishlatilgan. Bu guruhlarning har biri o‘z navbatida “sadajit” deb ataladigan 100 lik guruhlarga, bo’lingan[4].

---

[1] عبد الحی حبیبی."آیا هزاره کلیمه قدیمتر است؟".: کابل،۱۹۶۲؛ص.۸

[2] عبد الحی حبیبی.: کتاب– اسلام از بغداد تا سند. ص،۱۹۸۸ هوان،د - 6-9

[3] H.W.Bellew:The races of Afghanistan: Being a brief account of the principal nations inhabiting that country, Thackar, Spink & Co., Calcutta 1880, p. 114

[4] سیف بن هروی:"تاریخنامه هرات" کلکوته،۱۹۴۳ص.۶۲-۶۳

Hazoralar mo‘g‘ullarning avlodlari deb hisoblaydigan olimlar ichida ba’zilari hazoralar Chingizxonning emas, balki, Nikudarining askarlari deb hisoblashadi. Bartold quyidagicha yozadi: “Tog‘li hududlar va tepaliklarni egallashda mo‘g‘ullar juda katta qiyinchiliklarga uchraydi. Natijada bu hududda ma’lum miqdorda qo‘shin qoldirib ketiladi, ma’lum vaqt o‘tib ular mahalliy tilni o‘zlashtirishadi. Ularga keyinchalik yana mo‘g‘ul askarlari kelib qo’shilgan bo’lishi mumkin. Ular bir-biridan qo’mondonlari bilan ajratilgan. Ularning eng mashhuri XIII asrda Chig‘atoy davrida ushbu hududga kirib kelgan Nikudaris bo‘lgan[1]”.

Ushbu nazariyaning boshqa bir guruh tarafdorlarining fikricha, hazoralar faqatgina mo‘g‘ullarning emas, balki turk va mo‘g‘ullarning avlodlaridirlar. Ular hazoralar Afg‘oniston hududiga turli davrlarda Amir Temur va Chingizxon qo‘shinlari bilan birgalikda kelgan va shu hududda yashab qolgan mo‘g‘ul va turk askarlarining avlodlari ekanligiga ishonadilar. Shu sababdan mo‘g‘ullar turk ham, mo‘g‘ul ham emas, balki ushbu ikki millatning aralashishidan hosil bo’lgan xalqdir. Bernard Dom hazoralarning Afg‘onistonning markaziga bosqichma-bosqich joylashishi mo‘g‘ul va turk qabilalarining XIII-XV asrlardagi hujumlari natijasida, asosan Manguxon va Argun Xon davrida yuz berganini ta’kidlagan[2].

Elizabet Bekon ham hazoralarning faqatgina mo‘g‘ullarning emas, balki turk va mo‘g‘ullarning avlodi ekanligini ta’kidlaydi: “Mo‘g‘ullarning Afg‘onistondagi tarixi borasidagi ma’lumotlar zamonaviy yozuvchilarning hazoralarning kelib chiqishi borasidagi fiklarini noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi. Mavjud dalillar shuni ko‘rsatadiki, Chingizxon armiyasi askarlari ma’lum bir hududni egallaganidan so‘ng ko‘p o‘tmasdan u yerni tark etgan. Chingizxon bu hududda harbiy qismlarni qoldirib ketgani to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q. U kelajakda mo‘g‘ul manzilgohlarini barpo etish uchun tog‘li hududdagi mahalliy aholini qirib tashlagan bo‘lishi mumkin.

Bugungi kunda Hazorajot nomi bilan mashhur hududlarga Amudaryodan shimolda yashagan Chig‘atoy ulusi aholisi kelib o‘rnashgan. Ularga keyinchalik turklar va mo‘g‘ullar kelib qo‘shilgan. Elxon tomonidan ushbu hududda qoldirilgan askarlar bir necha marotaba o‘z qo‘mondonlariga qarshi isyon ko‘tarishgan va ayrim isyonchilar berkinish oson bo‘lgan Afg‘onistonning markazidagi tog‘li hududlariga o’rnashgan bo’lishi mumkin. Keyinroq, Amir Temur davrida ushbu hududlarga askarlar

[1] В. Бартольд, “Историко-географический обзор Ирана”, Москва,1903, с.55
[2] Dorn Bernhard:History of the afghans,London;1829, p.67-71

ma’murlarini jo‘natgan va ulardan ayrimlari ushbu hududda yashab qolgan bo‘lishi mumkin”.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, hazoralarning kelib chiqishi borasida turlicha fikrlar bildirilgan bo‘lsa-da, hali hech qaysi bir nazariya to‘liq isbotini topmagan. Yuqoridagi nazariyalarning ikkisiga xos bo’lgan bir kamchiligi bor: ikkaala nazariya ham “hazora” nomining kelib chiqishiga e’tibor qaratib, bugungi hazora xalqining kelib chiqishini asoslashga qaratilgan.

Ma’lumki, hozirgi Afg‘oniston hududida milodiy I asrdan III asrgacha Kushonlar imperiyasi hukmronlik qilgan. Bugungi kunda Hazorajot deb ataladigan hudud ham aynan ushbu imperiya tarkibida bo‘lgan. Kushonlar imperiyasi asoschilari yuechji qabilalariga mansub edi. Yuechji qabilalari qabilaviy urushlar natijasida hozirgi Qoshg‘ar hududidan O‘rta Osiyoga, so‘ngra Amudaryo orqali hozirgi Afg‘oniston hududiga kirib kelgan. Bomiyondagi g‘orlardan topilgan devoriy suratlar, tangalardagi tasvirlar, shuningdek, kushoniylarning so‘nggi hukmdorlar saroylaridagi tasvirlardan shuni anglash mumkinki, ushbu hududda yashagan aholi 2300 yil avval ham bugungi kundagi hazoralarga o‘xshash tashqi ko‘rinishga ega bo‘lgan. Demak, hazoralarning ajdodlari Afg‘oniston hududida qadimdan yashab kelgan bo’lishi ehtimoli yuqori. Albatta, Afg‘oniston hududiga turli davrlarda bostirib kelgan xalqlar ham ushbu xalqning etnogenezida qatnashgan. Olimlar hali hanuz hazoralarning kelib chiqishi borasidagi munozarani davom ettirmoqdalar. Biroq, o‘rta asrlarda yozilgan hazoralarga oid manbaalarning aksariyati saqlanib qolmaganligi yagona xulosaga kelishni murakkablashtirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati

1.Hussain Ali Yazdani Behsoodi: Research on History of Hazaras, 2000 Tehran.

2. J.P. Ferrier (1857): Caravan Journeys and Wanderings in Persia, Afghanistan, Turkistan and Baluschistan, with historical notices on the countries lying between Russia and India, John Murray, London.

3. Hasan Pouladi :The Hazaras: History, culture, politics and economy by Hasan Pouladi, 1989.

4. Louis Vivien de Saint Martin, Carte General de la Turquie d’Asie;Paris ,1824.

5. E. Bacon; Obok: A study of social structure in Eurasia, Wenner-Gren, New York 1958.

6. Dorn Bernhard:History of the afghans, London; 1829, p.67-71.

7. S. A. Mousavi:The Hazaras of Afghanistan, Oxford, 1998.
8. K.Ferdinand: Nomad expansion and commerce in Central Afghanistan: A sketch of some modern trends” vol.4 .The Danish ethnographical association,Copenhagen, p.126
9. Dulling G.K. : “Hazaragi Dialect of Afghan Persian”; Central Asian research centre, London, 1973
10.Ferdinand K., “Preliminary notes on Hazara Culture”;The royal Danish adademy of sciences and letters , vol, 35, Copenhagen
11. В. Бартольд, “Историко-географический обзор Ирана”, Москва,1903
12. تیمورخانوف تاریخ ملی هزاره؛ تنظیم نسل نو هزاره؛ کویته،۱۹۸۰،
13.سیف بن هروی:"تاریخنامه هرات" کلکوته،
۱۹۸۸، هوان،د - عبد الحی حبیبی.: ک تاب– ا سلام از ب عد اف غاند سد تان.
14. تهران ۱۹۵۹; .جامع التواریخ ,رشید الدین فضل الالله
15. عبد الحی حبیبی."آیا هزاره کلیمه قدیمتر است.:کابل،۱۹۶۲؛

Muhriddin TOJIBOYEV
Quvasoy shahar XTB–tasarrufidagi
5-maktab 1-toifali tarix fani o‘qituvchisi

PARIJ TO‘PLAMLARIDA MOVOROUNNAHR BEZAKLI QO‘LYOZMA ASARLARINING SAQLANISHI VA O‘RGANILISHI

Annotatsiya. Bizning yurtimiz qadim zamonlardanoq ilm–fan, madaniyat o‘chog‘i sifatida dunyo tamadduniga munosib hissasini qo‘shib kelgan. Ko‘hna diyorimizdan Imom Buxoriy, Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Lutfiy, A.Navoiy, Z.M.Bobur singari allomalarimiz yetishib chiqqan. Ajdodlarimizning yuksak ilm-u mahorati bilan noyob ko‘plab memoriy obidalarimiz, qo‘lyozma asarlarimiz, ko‘rganda ko‘zni yashnatuvchi milliy hunarmandchilik va uy ro‘zgo‘r buyumalarini yaratganlar. O‘zbek xalqining noyob madaniy boyliklarini asrash va jahon miqiyosida o‘rganish, albatta, har bir mana shu zaminda kamol topib, vatan tuprog‘idan suv ichib, havosidan nafas olayotgan har bir vatandoshimizning yuksak burchidir. Ushbu maqolada Fransiyada to‘plamlaridagi Movorounnahr bezakli qo‘lyozma asarlarimiz haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

Kalit so‘zlar: Avesto, qo‘lyozma, Vessantaraka jataka, sug‘d, charm o‘ramlari, donishmandlik uyi, xalifalik, xattot, shayboniylar, spool, ikonografik, nasx.

Kitob zamonlar dengizida sayohat qilayotgan va o‘zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga tashiyotgan hikmat kemasidir.

Frensis Bekon

Kitoblar insonyat tomonidan kashf etilgan eng buyuk kashfiyotlardan desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Mana necha asrlar o‘tsa hamki, bu bilim bulog‘i hanuzgacha o‘z ahamiyatini va qadrini yo‘qotmay kelmoqda. Qadimdanoq yurtimizda kitobat sa’nati juda yaxshi rivojlangan. Ushbu san’at (arab, kataba-yozish, yozmoq so‘zidan) —qo‘lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash degan ma’noni anglatadi. Markaziy Osiyoda (jumladan, O‘rta Osiyoda) qo‘lyozma kitoblarni bezash qadimdan davrlardanoq yaxshi taraqqiy etgan. Eng qadimgi kitoblardan “Avesto” qo‘lyozmalari; sug‘d tilida yaratilgan “Vessantaraka jataka” asari (uning varaqlari turli mamlakatlar – Rossiya, Fransiya, Angliyada saqlanadi); sopol yuzasidagi bitiklar, charm o‘ramlari, metall buyumlardagi yozuvlar, qog‘oz varaq taxlamalari (taxtachalar orasiga olib tizimchalar bilan bog‘langan turi) va boshqa O‘rta asrlarda umuman musulmon yoki arab tilidagi qo‘lyozma an’analariga asoslangan kitobat san’ati to‘liq shakllandi va yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi.

O‘rta Osiyo hududini arablar zabt etishi bir tomondan madaniyatiga, turmush tarziga zarar keltirganiga qaramay, ma’daniyat, ilm-fan sohalarining rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Markaziy Osiyo kitobat sohasi va tub xalqlarninig turmushining barcha sohasiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bu borada ayniqsa, xalifalik poytaxti bo‘lgan Bag‘dod bu davrda Yaqin va O‘rta Sharqning yirik siyosiy. madaniy va ilmiy markaziga aylandi. VIII asrning oxirida, xalifa Horun ar-Rashid (786-809) hukmronligi davrida bu yerda o‘ziga xos Fanlar akademiyasi vazifasini bajargan “Donishmandlik uyi” (Bayt ul-Hikma) tashkil qilindi. Unda rasadxona hamda dunyo xalqlarining turli tillaridagi qadimgi qo‘lyozmalar kollektsiyasiga ega bo‘lgan va doimiy yangi kitoblar bilan boyitilgan boy kutubxona faoliyat ko‘rsatdi.[2.183-184].

Turon-Turkiston xalqlari kitobat sa’natida, jahon kitobat madaniyatida mavjud bo‘lgan barcha nashrlarning amaliyotdagi uchta turi vujudga keldi va tadrijiy taraqqiy etdi. Xususan ularning uch xil asosiy turini ko‘rishimiz mumkin bular:

“Asarlar to‘plami” yoki “Tanlangan asarlar”, “To‘plam” va “Yakka” asarning alohida nashri ya’ni o‘zida ayrim asarning alohida bir nashrini

mujassamlashtirgan qo‘lyozma yoki nashr kitobi. Bir muallifning barcha asarlarini o‘zida jamlagan kitob uchun kulliyot so‘zi qo‘llanilgan. Bunday qo‘lyozma badiiy-adabiy kitoblarining ilmiy nashrlar turiga kiradi. Bundan tashqari, Turonzamin kitobat ishida boshqa ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlar xil va toifalari keng ijtimoiy ist’emolda bo‘lgan. Bular xamsa, devon, bayoz, tazkira, majmua, kachkul, g‘azaliyot, muxammasot. qasoid, ruboiyot, fardiyot, mufradot, muqattaot, muraqqa, munshaot, muntaxab, risola, qit’a, urjuza, muxtasar. qomus, fixrist, lug‘at, farhang. tafsir. sharh, izoh, qo‘lyozma va toshbosma nashrlar xillarining shakliy toifalaridir.[2.93]

Bizning buyuk ajdodlarimiz o‘z bilim va hayotiy tajribalarini mana shu kitoblarda qoldirib ketishgan. Ushbu boyliklar butun dunyo madaniyatining noyob sarchashmasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”.[1]

Bugungi kunda ma’naviy meroslarimizning bir qismi saqlanayotgan joy sifatida ilmiy dargoh-O‘zFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma asarlar fondini misol keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda ushbu maskanda “26 ming jild qo‘lyozma, 40 ming jildga yaqin toshbosma, 5 mingdan ziyod tarixiy hujjatlar saqlanadi” Bu ulkan meros fanning turli sohalariga oid. Xususan, tabobat, kimyo, matematika, tarix, islom ilmlari-ajdodlarimiz shug‘ullangan barcha fan sohalariga doir manbalar o‘rin olgan. Qo‘lyozma manbalar IX asrdan boshlab XX asrgacha bo‘lgan davrga oid bo‘lib, arab, fors, qadimgi turkiy va boshqa sharq tillarida yozilgan.[2]

Ajdodlarimizdan meros qolgan noyob qo‘lyozma asarlarimiz ayrim sabablarga ko‘ra, chet davlatlarga chiqib ketgan. Ushbu bebaho boyliklarimizdan bir qismi bugungi kunda Parijdagi davlat to‘plamlarida saqlanmoqda. Ilk marta 1910-yilda Germaniyaning Muyunxen shahrida o‘tkazilgan (“Islom sa’nati durdonalari”) kataloglarini tayyorllash va ko‘rgazmani tashkil etish jarayonida Movorounnahr kitobat maktablarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, ular XVI asr davomida Buxorodagi shayboniylar hukumdorlari homiyligida maktablar juda faol ish olib borganlarini isbotladilar. Eron va Turk dunyosida kitoblar chiroyli ziynatlangan va bezatilgan. Aynan hukumdor saroylari qoshida “kitobxona olam (kutubxona ustaxona)” shakillangan bo‘lib, uning rahbari (kalantar yoki kitobdor deb nomlangan) u o‘z atrofida xattotlarni, muzahibblarni,

[1] Xalq so‘zi onlayn 21 Dekabr.2018. Siyosat
[2] Yigitali Mahmudov va Muhammadjon G‘aniyev. Kun.uz telegram kanali.14:33 / 08.01.2020

musavvirlarni, qog‘ozgarlarni birlashtirgan. Kitoblar bir vaqtning o‘zida homiylik obekti va hukumdorning ijobiy qiyofasini shakillantirish, g‘oya va ilmiy yutuq hamda bilimlarni targ‘ib qilish usuli bo‘lgan. Bugungi kunda Parijdagi davlat to‘plamlarida ko‘plab bezakli qo‘lyozma asarlarimiz saqlanmoqda. Shulardan ayrimlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

-“Me’rojnoma” (“Me’roj (payg‘ambar Muhammad s.a.v.ning arshi aloga ko‘tarilishi haqida) haqidagi kitob”) bu asar varaqlari tartibsiz tikilgan. Qo‘lyozmaning hozirgi holatida 60 ta miniatura mavjud bo‘lib, ularning barchasi meroj mazmunini aks ettiradi. To‘rtta sahifasi yo‘q. “Merojnoma”ni ko‘chirish joyi va sanasi hozirga qadar noaniq va muataxasislar o‘rtasida munozara bo‘lib kelmoqda. Hozirgi kunda ushbu qo‘lyozmani 1436 yoki 1437 yil Xirotda ko‘chirilgan va bezatilgan, deb hisoblanadi.

To‘plamdagi ikkinchi matn, “Tazkirat ul-avliyo” qo‘lyozmasining oxirgi sahifasida kolofoni bor. Unga ko‘ra qo‘lyozmani ko‘chirgan shaxs Xaru Malik baxshi bo‘lib, 1436-1437 yilda Xirotda ko‘chirgan. Tazkira va “Me’rojnoma” husnixati juda o‘xshash bo‘lib, har ikki matn hama aynan bir qo‘lda yozilgan degan, xulosaga kelish mumkin. “Me’rojnoma”ga chizilgan miniaturalarga imzo qo‘yilmagan, ammo miniaturalarga G‘iyosiddin Naqqoshning Xitoy ekspeditsyasi va kitobning ikonografik dasturi orasida bog‘liqlikni payqash qiyin emas.



1-rasm. “Me’rojnoma” asariga ishlangan miniatura. [4-60-61].

“Suvar al-kavakib as-sabita” (Qo‘zg‘almas yulduzlar tasviri) ushbu asar muallifi Abduarahmon ibn Umar as-Sufiy hisoblanib asarini 964-yilda yozib tugatgan. Kitob sanasi 1009 yil bo‘lib, u Oksfordagi Bodlian kutubxonasida saqlandi. Arabe 5036 raqamli qo‘lyozma ana shu mashhur matning juda kamyob nusxasi hisoblanadi. Uning yozilish sanasi ko‘rsatilmagan.[4-76]. Arabe 5036 qo‘lyozmasi yozuvi nasx yoki nasxi suls yozuvida yozilgan unda kotibning imzosi ko‘rinmaydi. Ushbu qo‘lyozma asar ikkita tekislikda: Yerdan va samoviy gumbazdan ko‘rinuvchi yulduzlar turkumini aks ettirgan 74 ta miniaturani o‘z ichiga oladi. Ushbu tasvirlarninig bazilari usluban, Xitoy sa’nat namunalaridan ilhomlanib chizilgan bo‘lishi mumkin. [4-78-79].

2-rasm. “Suvar al-kavakib as-sabita” asariga ishlangan miniatura. [4-92].

Parij davlat to‘plamlarida saqlanayotgan navbatdagi asarlardan biri nasta’liq usulida yozilgan Shayboniylar davri qo‘lyozmalaridan “Xusrav va Shirin” asari hisoblanib muallifi Abdulla Xotifiydir. Uning “Xamsa” asari Nizomiyning she’riyatiga taqlid qilib yozilgan bo‘lib, u “Xusrav va Shirin” dostonini yangi talqinini o‘z ichiga oladi. Ushbu asarni muallif 1490-yilda yozgan. Asar beshta miniatyuradan iborat bo‘lib, sanasi taxminan 1500-yilga to‘g‘ri keladi. Ularning orasida “Xusrav va Shirin”, “Farxod va Shirin”, “Shirinning Farxod yoniga tashrifi”, “Keksa ayol va joniga qasd qilgan Farxodning jasadi” va “Xusravning Shirin bilan uchrashuvi” miniaturalari bor. Mazkur miniaturalarning uslubi anchayin oddiy. Ushbu qo‘lyozma kolofonga ega emas, matning boshlanishi yo‘qolgan. Chamasi, u XVI asrning boshlarida Movorounnahrda ko‘chirilgan.[4-98]

3-rasm “Xusrav va Shirin” asaridan “Farxod va Shirin” asariga ishlangan miniatura. [4-104].

Bu qo‘lyzoma asarlarni o‘rganish orqali bizning ajdodlarimizning naqadar o‘z sohalarini mukammal ekanligini, boy o‘tishimiz o‘rganishimiz mumkin. Bugun ona diyorimiz xalqaro miqiyosda o‘z so‘zni ayta oladigan davlatga aylandi. Jahon kolleksiyalari to‘plamalaridagi qo‘lyozma asarlarimiz xalqimizning bebaho boyligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Erkin Axunjanov. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik nazaryasi va tarixi. “Tafakkur bo‘stoni”. Toshkent-2011

2. Xalq so‘zi onlayn 21 Dekabr.2018. Siyosat

3. Yigitali Mahmudov va Muhammadjon G‘aniyev. Kun.zu telegram kanali. 14:33 / 08.01.2020

4. O‘zbekiston madaniy merosi. Fransis Rishar. Movorounnahr bezakli qo‘lyozmalari Fransiya to‘plamlarida. “Silk Road Media”. “East Star Media”. Toshkent.2020-yil.

Feruza DJUMANIYAZOVA
O‘zR FA SHI, PhD

KIDARIYLAR DAVLATI XUSUSIDAGI AYRIM MASALALAR TO‘G‘RISIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada milodning IV asridan Markaziy Osiyoda faoliyat ko‘rsatgan Kidariylar davlatining ayrim masalalari (xronologiyasi, poytaxti va ayrim hukmdorlari) haqida to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Kidariylar, Sosoniylar, Katta Yuechji, Balx, Priskus.

Markaziy Osiyoning qadimiy va boy zaminida turli davrlarda o‘z izini qoldirgan turli xalqlar yashab kelgan. Bu xalqlardan biri kidariylar bo‘lib, ular yozma manbalarda ilk bor milodning IV asridan e’tiboran xioniylar va eftaliylar bilan birga tilga olinadi. Hozirgi vaqtda kidariylarning etnik kelib chiqishi masalasi bo‘yicha yagona nuqtai nazar mavjud emas, ularning xunlar, kushonlar, xioniylar va eftaliylar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi esa uzoq vaqt davomida olimlar o‘rtasida bahs-munozaralar mavzusi bo‘lib kelgan. Xullas, milodning III asridan e’tiboran janubiy hududlarga shimollik ko‘chmanchilarni turli guruhlari xioniylar, kidariylar, oq xunlar, avarlar, juan-juanlar kabi nomlar ostida katta yoyilish bilan kirib kelganlar. Ular ichida kidariylar alohida ajralib turar edi. Ushbu maqolada kidariylar davlatining xronologiyasi, poytaxti va ayrim hukmdorlari haqida to‘xtalib o‘tiladi.

Kidariylarning etnik va siyosiy mansubligi haqidagi fikrlarni tahlil qilib ularni ikki asosiy guruh(balki uchta)ga ajratish mumkin: birinchisi ularning kushonlarning (yuechji) avlodi ekanligi bo‘lsa, ikkinchisi ularning xun guruhiga mansubligi masalasi. Buni avvaldan ta’kidlamoq lozimki, bugungi

kunda fanda ularning “Katta yuechji” guruhiga mansubligi haqida fikr ustivorroq[1].

Yozma manbalar xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, Kidariylar haqida yunon-rim, arman tarixchilarining asarlarida, xitoy yilnomalarida va asosan numizmatik materiallardan ma’lumotlar olish mumkin. Bular orasida V asr yunon (Vizantiya) tarixchisi Priskusning so‘nggi Rim imperiyasi tarixi va uning xunlar bilan to‘qnashuvi haqidagi hikoyasida bu xalqni “xun kidariylari” yoki oddiygina qilib “xunlar” deya xabar beradi. Ushbu ma’lumot bir qarashda Kidariylarning xioniylar (xun so‘zining ko‘pligi) va oq xunlar/eftaliylarga qarindosh ekan degan fikrga oboradi. Biroq, bir manba asosida bunday aniq xulosani bildirish qiyin. Priscus hikoyasining voqealar rivojiga qaraydigan bo‘lsak, Pero‘zning elchilari 464 yilda Vizantiyadan kidariylar xunlari bosqinining oldini olish uchun ularga qarshi kurashishda yordam berishni talab qiladilar: “Ular (elchilar) kidariylar deb atalgan xunlarga qarshi urushda (rimliklar) pul bilan yordam berishlari kerakligini aytishdi”[2]. Bunga javoban vizantiyaliklar muzokaralar uchun Eronga o‘z vakilini yuborishga va’da berishadi. Vizantiyadan Pero‘zga elchi sifatida Vizantiyaning Eron bilan chegarasiga yaqin joylashgan Edessa shahrida uzoq vaqt yashagan Eparx Konstantiy yuborilgan edi. Biroq forslar yordamga rad javobini olishadi. Eronlıklar o‘sha paytdagi hukmron kidariylar shohining otasi o‘lponni to‘lashdan bosh tortgani uchun urushayotgan edilar. Taxminan, 468 yilga kelib, forslar Kidariylarning Balaam shahrini qamal qilganliklari haqida ma'lumotlar mavjud [3]. Tadqiqotchilar Bolo-Valaam bitta va bir xil geografik nuqta degan fikrga qo‘shiladilar. Joylashuvga kelsak, fikrlar turlichadir. Boloning Valaam bilan identifikatsiyasi birinchi marta Yu.Klaproth tomonidan taklif qilingan edi, uni Balxga joylashtirgan. N.I.Veselovskiy bu fikrga qarshi chiqqan. U Boloni Janubiy Xorazmga joylashtiradi, lekin bu hududda tegishli arxeologik yodgorlikni bilmagani uchun uning aniq koordinatalarini aytmagan. T. Neldeke, masofa o‘rtasidagi nomuvofiqlikni tan olsada baribir

---

[1] Курбанов А. Политическая история эфталитов. SWIATOWIT. TOM V (XLVI). FASC. A. 2003. – С.43-68; Cribb, Joe. 2010. “The Kidarites, the Numismatic Evidence: With an Analytical Appendix by A. Oddy.” In Coins, Art and Chronology II: The First Millennium C.E. in the Indo-Iranian Borderlands, edited by Michael Alram, Deborah E. Klimburg-Salter, Minoru Inaba, and Matthias Pfisterer, 91–146. Vienna: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften, А.М. Мандельштам. К вопросу о кидаритах// КСИЭ Вып. XXX. 1958. – С. 66-72; С.К. КАБАНОВ, К вопросу о столице Кидаритов, ВДИ 2, 1953, - С. 201-205.

[2] Пигулевская Н.В. Сирийские источники по истории народов СССР. – Москва-Ленинград. 1941. –С. 54.

[3] Курбанов А. Политическая история эфталитов… - С. 50.

Balx Kidariylar poytaxti ekanini tan olgan. I. Markvart bu farazga qarshi chiqqan va Kidariylar poytaxtining Balxanida ekani haqida fikrni qo‘llagan[1]. S.K. Kabanov kidariylar qarorgohini Qarshi vohasidagi Qarshi shahridan 10 km shimoli-g‘arbda joylashgan Yerqo‘rg‘on aholi punktida joylashtirgan[2]. A.M. Mandelshtam ham o‘z maqolasida Boloni Balxga joylashtirgan.

Priscus 465 yillar haqida yozar ekan Kidariylarning yangi rahbarini Kounchas (Κουνχας) (u Kunxas deb tarjima qilinadi, shu bilan birga Kunxon deb keltirilgan tadqiqotlar ham uchraydi) sifatida keltiradi va u hali farzand ko‘rish yoshiga yetmagan o‘smir yigit bo‘lgan. Sosoniylar va kidariylar o‘rtasidagi to‘qnashuvga esa Pero‘zning otasi Yazdigird IIning kidariylarga o‘lpon to‘lashni to‘xtatishi sabab bo‘lgan yoki teskarisi, kidariylar forslarga o‘lpon to‘lashdan voz kechgan. 467-yilda esa forslar kidariylarni mag‘lub etib, ularning Balaam (Βαλααμ) degan shahrini egallaydilar. Umuman, Yazdigird II kim bilan kurashlar olib borgani va ular xunlar yoki yuechjilarning qaysi guruhi edi, bu hozirgacha noma’lum. Ushbu sosoniy hukmdori bilan jang qilgan odamlar haqida 3 xil fikrlar mavjud: birinchisi xioniylar bo‘lsa, ikkinchisi eftaliylar va oxirgisi esa kidariylar bo‘lishi mumkinligi ilgari suriladi. E.E Nerazikning so‘zlariga ko‘ra, jang O‘rta Osiyoning ko‘proq sharqiy mintaqalarida Balx chegaralarida bo‘lgan. Biroq, shu narsa ma’lumki, Yazdigird IIning ushbu kurashi shimoldan kelgan xalqlar bilan bo‘lgan. L.N. Gumilyov fikricha, Yazdigird II kidariylar bilan jang qilgan[3]. U shuningdek, bu jangda ikki xalq kidariylar va eftaliylar qatnashganini aytib o‘tgan, bu esa anglashilmovchilikni keltirib chiqaradi. Xullas, Kidariylar poytaxtining identifikatsiyasi bo‘yicha tarixiy manbalargadi turli fikrlilik bilan birga tadqiqotchilar hali ham voqealarning yagona xronologiyasiga kela olmaydilar.

Xitoyning Shimoliy sulolalar tarixi “Beyshi” va “Veyshu” yilnomalarida “Da Yuechji” (Katta Yuechji) poytaxti “Boluo” (Balx) da bo‘lganligi va ularning hukmdori “Jiduoluo” (qadimgi talaffuzi kjie-ta-la, ya’ni Kidara) deb ataganligi qayd etilgan. Ichki Osiyodagi ko‘chmanchilar guruhi bo‘lgan juan-juanlar bosimi ostida bo‘lgan katta tog‘larni kesib o‘tib, janubga qarab Hindistonga (Tyanchju) bostirib kirgan.

Ayrim olimlarning fikricha hukmdor Kidara IV asrning ikkinchi yarmida yashagan va sosoniylar shohi Shopur II bilan kurashgan (R. Girshman, A.M. Mandelshtam), boshqalarga ko‘ra (L.N. Gumilyov, S.K.

---

[1] Юсупов Х. Еще раз о столице Кидаритов, Известия А Н ТССР СОН. 2, Ашхабад 1980. - С.40.
[2] Кабанов С.К. К вопросу о столице Кидаритов… - С. 201-205
[3] Гумилев Л.Н. Эфталиты - горцы или степняки? ВДИ 3, 1967. - С. 95

Kabanov) Kidara va kidarlar davlatining mavjud bo‘lgan vaqti V asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

Kidariylar kimligi va “Beyshi”da tasvirlangan Kidara bilan bog‘liq voqealar qaysi vaqtga oid ekani turli tadqiqotchilar tomonidan qayta-qayta ko‘rib chiqilgan. Birinchi marta I. Markvart ularni eng batafsil tahlil qilgan. U Kidariylar Kushon imperiyasining qoldig‘i bo‘lgan davlat degan xulosaga kelgan. Ular avarlarning hujumi tufayli eski poytaxtidan (I. Markvart fikricha - Iskimshit) yangi poytaxt Bolo - Kaspiy dengizi hududidagi Balxanga ketgan. Shimoliy Hindistonda bu yerdan yurish boshlangan va beshta sobiq Yuechji xonadoni yerlarini bosib olish amalga oshirilgan. Pero‘z tomonidan Balxanni bosib olinishidan keyin Kidaraning o‘g‘li - Kunxon Gandharaga yo‘l oladi, u yerda Kichik Yuechjilar davlatiga asos soladi. I. Markvart ham Kidara bilan bog‘liq voqealarni V asrga aloqador deb hisoblagan[1]. V asr voqealarini Kidara hukmronligi davriga bog‘lagan I. Markvartning fikri numizmatlar tomonidan tanqid qilingan. Numizmatik materiallarni o‘rganish asosida ular Kidara hukmronligini miloddan avvalgi IV asrga to‘g‘rilash kerak degan xulosaga kelishgan. Ya’ni ularning fikricha, kidariylar so‘nggi kushonlarning qoldiqlari edi. Taxminan 350 yilda juan-juanlar Kushonlarni Baqtriyani tark etishga majbur qilgan, bir qismi Kaspiy dengiziga, Kidara boshchiligidagi bir qismi Gandharaga yo‘l olgan. Buning ortidan Shapur II ning sharqqa yurishi boshlangan, natijada Kidara Eron hokimiyatni tan olishga majbur bo‘lgan. IV asrning 60-yillarida Kidara bu qaramlikdan xalos bo‘ladi, lekin tez orada Oq xunlar bosqinining xavfi uni o‘g‘li Piro (bu shaxs Kunxon bilan bitta shaxsmi yoki boshqa ekani alohida tadqiqotni talab qiladi)ni Peshavorda qoldirib, shimolga ko‘chishga majbur qilgan edi. Oq xunlar bilan to‘qnashuvning natijasi noma'lum, ammo 400-yillarda ular allaqachon Kobul va Gandharaga bostirib kirishgan[2].

Xionitlar va eftaliylar tarixini batafsil o‘rgangan R. Girshman kidariylarning ehtimol Sharqiy Turkistondan kelgan bo‘lishi mumkin degan fikrga keladi. IV asrda hukmronlik qilgan Kidara Shopur II ning zamondoshi bo‘lgan, bu Tepei Marenjandan tojlar va xazinaning tarkibi yaqin o‘xshashligiga tayanadi. Xioniylarga tayanib, Sosoniylar kidariylarning Baqtriyadagi hokimiyatiga chek qo‘ygan. 358-yildan ko‘p o‘tmay, Kidara Zobul qabilasi ko‘magida Kobul va Gandharani bosib oldi, shundan so‘ng u 367-368-yillarda Eronga qaramligini ham butunlay bartaraf

[1] Мандельштам А.М. К вопросу о кидаритах. Краткие Сообщения Института Этнографии, вып. XXX, Москва 1958. – С. 67

[2]Мандельштам А.М. К вопросу о кидаритах... –С. 67

etgan. Biroq Shopur II o‘zining ittifoqchilari bo‘lmish xioniylarga yordam so‘rab murojaat qiladi va ular 371-yilda Baqtriyani egallaydilar[1].

A.M. Mandelshtam “Beyshi”da Kidara Tsidolo nomi bilan Katta yuechjilar hukmdori deb atalganiga asoslanib, tangalarda Kidara “Kushanshoh” unvonini olgan, deb hisoblaydi: "Kelib chiqishi bo‘yicha kushonlar sulolasiga aloqali so‘nggi Kushonlar davlatida hukmronlik qilgan, Kanishka tuzgan imperiya parchalanganidan so‘ng yoki, aftidan, 293-yilda Baqtriyada sosoniylar hokimiyati tomonidan tugatilgandan keyin Baqtriya shakllangan davlatning asoschisi bo‘lgan”. A.M. Mandelshtam fikricha, bu davlatning mavjudligi IV asrning ikkinchi yarmiga tegishli bo‘lishidir. Tangashunoslar tomonidan berilgan numizmatik ma’lumotlarga ko‘ra, xususan, Kidara nomi yozilgan kumush tangalar guruhlaridan biridagi toj Shopur II tojining nusxasi hisoblanadi. Yana qo‘shimcha dalil sifatida: Tepei Marenjandagi Buddist monastirini qazish paytida topilgan xazinaga kiritilgan kushon-sosoniy tangalari Kidara nomi bilan bog‘liqqa o‘xshaydi. Shopur II va Shopur III tangalarini ham o‘z ichiga oladigan bu xazina IV asrning yarmiga to‘g‘ri keladi.

A.M. Mandelshtam Kushon poytaxtining ko‘chirilishi “Beyshi” da ko‘rsatilganidek, juan-juanlar (chunki o‘sha paytda xitoylar uchun juan-juanlar birinchi navbatda barcha G‘arb ko‘chmanchilari uchun umumiy ism bo‘lgan) ning hujumlari tufayli emas, balki Markaziy Osiyo hududda faoliyat yuritgan “Beyshi” tuzuvchilariga noma'lum ko‘chmanchilari tomonidan sodir etilgan[2].

A.M Mandelshtamdan ancha oldin bu muammo haqida G.E.Grum-Grjimaylo yozgan. “Ular Kushonlar shohi Tsi-do-loni g‘arbga quvib chiqarishgan va uni katta tog‘ tizmasining janubiy tomoniga borishga majbur qilishgan, Kandahor shimolida u erda beshta joylashgan knyazliklarni bo‘ysundirgan”. G.E Grum-Grjimaylo juan-juanlarning hujumi faqat poytaxtning ko‘chirilishiga sabab bo‘lgan, Tsi-do-loning Hindiston shimolidagi yurishi sabab bo‘lmagan deb hisoblagan[3].

V.M. Massonning so‘zlariga ko‘ra, Kidara kushonlardan edi va IV asrda hukmronlik qilgan, uni eramizning V asri bilan bog‘lashga harakat qilish ishonarsizroq. Xitoy yilnomasining “juan-juanlar” nomi ostida V.M.Masson xioniylarni ko‘rib chiqishni taklif qiladi. Lekin qiziq narsa, V.M. Masson, kidariylar (kushonlar) kechagi raqiblari – xioniylar bilan birlashib (V.M.Masson sabablarni ko‘rsatmaydi) Shopur II ga birgalikda qarshilik

---

[1] Мандельштам А.М. К вопросу о кидаритах... –С. 68

[2] Мандельштам А.М. К вопросу о кидаритах... –С. 69

[3] Грум-Гржимайло Г. Западная Монголия и Урян хайский край, т. II, Ленинград 1926. –С. 173 .

ko‘rsatib, uni mag‘lub qilishgan. Keyinchalik, Kidara Baqtriyadan janubda siljiydi, Gandharani zabt etib, o‘g‘lini Peshavorga hukmdor qilib tayinlaydi. Kidariylar poytaxtini identifikatsiya qilish masalasida u Bolo = Balx nazariyasiga qo‘shiladi, I. Markvart va S. K. Kabanov nazariyalarini shubha ostiga qo‘yadi. Kidariylar (Kushonlar) davlati eftaliylar tomonidan vayron qilingan edi[1].

Sizga shuni eslatib o‘tmoqchimanki, V.M. Masson xioniylar va eftaliylarni bitta deb aniqlaydi, keyin yuqoridagilarga qarasangiz, ma'lum bo‘ladiki, xiyoniylar = eftaliylar Kidaraga qarshi bo‘lgan, keyin sosoniylarga qarshi birgalikda kurashgan va nihoyat eftalitlar kidariylarni mag‘lub etgan.

L.N. Gumilyov S.K. Kabanovning ma'lumotlariga asoslanib, Kidariylar poytaxti Balxda emas, balki Qarshi vohasida joylashgan degan fikrga keladi. Kidariylar davlatining mavjud bo‘lgan vaqti esa 418-468 yillardir deb xulosa qiladi. Qizig‘i shundaki, L.N. Gumilyov 417 (!) yilda Kidara nomi yozilgan tanga chiqarilganligi haqida qayd etgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, 418-419 yillarda kidariylarni (L.N. Gumilyov bo‘yicha Yuechji) mag‘lubiyatga uchratgan juan-juanlarning bosimi ostida Bologa (Qarshi vohasi) borib, u yerda forslar va eftaliylar bilan to‘qnash kelgan[2]. Tadqiqotchi Kidariy davlati 420 yillarda tashkil topganligini ta’kidlagan. R. Frayning yozishicha, IV asrda hukmronlik qilgan, ammo aniq yillar ko‘rsatilmagan.

V.G. Lukonin Kidara tojining Shapur II toji bilan o‘xshashligi haqidagi numizmatik materiallarga asoslanib, Kidariy hukmdorlari hukmronligini 390-450 yillarga tegishli ekanini aytadi. Kidara hukmronligini Shopur II davriga bog‘lash uchun juda nisbiy va yetarli emas. R. Göbl o‘zining V.G. Lukonin asari bilan bir vaqtda nashr etilgan ko‘p jildli tadqiqotida, 371-385 yillar davrini Kushonlar yerlarining sosoniy hukmdorlari qo‘li ostiga va 385 dan milodiy 440 yil barchasini kidariylar hukmronligiga to‘g‘ri keladi, deb hisoblagan[3].

Ingliz tarixchisi Makgovern Kidaraning yuechjining eski poytaxtidan o‘z mulkining g‘arbiy chekkasiga ketishi, so‘ngra Hindistonga yurishi taxminan 425-yilda Baqtriyani egallab olgan eftaliylarning hujumi bilan bog‘liq, deb hisoblaydi. Makgovern Kichik Yuechji davlatining tashkil

---

[1] Массон В.М, Ромодин В.А. История Афганистана, т. 1, Москва 1964, - С. 168

[2] Гумилев Л.Н. Древние Тюрки. – Москва. 1967. –С. 14; Гумилев Л.Н. Эфталиты - горцы или степняки... –С. 94

[3] Маршак Б.И. К вопросу о восточных противниках Ирана в Vв., Страны и народы Востока, вып. 10, Москва – С. 58

topishini keyinchalik Kidaraning o‘g‘lining Hindistonga ketishi bilan bog‘ladi[1]. Xuddi shunday fikrni N.V. Pigulevskaya ham aytgan.

Kidariylarni Pero‘zning raqiblari sifatida ko‘rgan Priskusdan farqli o‘laroq, Suriya yilnomasida Eron shohi xiyoniylarga qarshi “Unnlar bo‘lgan Kionaye”ga qarshi urush olib borgan deb hisoblaydi. Priskusning xabaridan biz Pero‘zning kidariylarni mag‘lub etganini bilamiz, xususan, Vizantiya tarixchisi 468 yilda Vizantiya saroyiga borga Fors elchilari haqida gapirib, shunday yozadi: “O‘sha paytda Forsdan elchilar xabar bilan keldi. Forslar Unnlar Kidariylarni mag‘lub etib, ularning Balom shahrini qamal qilishdi. Bu g‘alabani e'lon qilar ekan, ular varvarlar odatiga ko‘ra bu bilan maqtandilar va o‘zlarining kuchlari qanchalik buyuk ekanligini ko‘rsatishni xohladilar. Shunday qilib, forslar kidariylarni 468 yilda yoki o‘sha yildan bir oz oldinroq quvib chiqargan ko‘rinadi. Ma'lumki, forslardan mag‘lubiyatga uchraganidan keyin Kidariylar Kidaraning o‘g‘li Kunxas boshchiligida Hindistonga borib, u yerda Gupta davlatini o‘ziga bo‘ysundirdi. I. Markvart xitoy manbalarining guvohliklariga asoslanib, taxminan 470-yillarda Hindistondagi davlatga Kidara o‘g‘li asos solgan degan xulosaga keladi.

L.A. Borovkova “Veyshu”dagi ma'lumotlarga tayangan holda, Katta Yuechji davlatini ilgari juan-juanlarning janubida yashagan va ulardan g‘arbga qochib kelgan xalqlar tomonidan yaratilgan, Kushonlar saltanatining vorisi emas V asrda tashkil topgan yangi davlat deb hisoblaydi. Keyinchalik, Tsi-do-lo boshchiligida ular janubga yo‘l oldilar, Tsyantoloda (Peshavor) beshta knyazlikni bosib oldilar. L.A. Borovkova qiziqarli faktni keltiradi, Tsi-do-lo tavsifida uni eftaliylar bosib olgani aytiladi. Uning fikricha, Tsi-do-loni zabt etgan Buyuk Yuechjilar va Eftaliylar bilan bitta xalqdir[2].

Kidariylarni mag‘lub etib, Pero‘z eftaliylar bilan ittifoqchilik shartnomasi tuzganiga qaramay ular tomon yuzlanadi va urushga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. Urushning sababi, Dinovariyning yozishicha, Toxariston aholisining eftaliylar zulmidan norozi bo‘lib, Perozga murojaat qilganligidir. Demak, Pero‘zda urush boshlash uchun bahona topiladi va u darhol undan foydalanishga o‘tadi. Ammo Pero‘z urush boshlanishidan oldin, at-Tabariyning yozishicha, davlatning turli hududlarida bir qancha qal’alar qurgan. Bu davrda (milodiy V asrning ikkinchi yarmi) eftaliylar Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘oqlari, Turkmaniston cho‘llari, Amudaryo bo‘yidagi viloyatlar, shu daryoning sharqida joylashgan keng hududlar va daryoning yuqori oqimini nazorat qilganlar. Murg‘ob va Tejen daryolari (Shimoliy

[1] Мандельштам А.М. К вопросу о кидаритах... –С. 68

[2]Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до н.э. - VII в. н.э., Москва 1989. –С. 117,

Afg‘oniston). Kopetdog‘ning shimoliy etaklari va Murg‘obning quyi oqimi bo‘ylab vohalar va Tejen esa Sosoniylar hukmronligi ostida qolgan.

Pero‘z va eftaliylar o‘rtasidagi uchinchi urushning sababi eronlik shohining aldanishi edi. Priskusning yozishicha, Pero‘z “Kidariy” podshohi Kunxa (Gunxaz) bilan sulh tuzishni taklif qilgan va uning samimiy garovi sifatida o‘zining singlisini Kunxonga xotinlikka yuborgan. Manzilga yetib kelgan bu ayol ularga Pero‘zning singlisi emas, quli ekanligini aytgan. Bundan xafa bo‘lgan Kidariy hukmdori Kunxon Sosoniylar shohidan o‘ch olishga qaror qiladi. U o‘zining katta armiyasi borligini, ammo yaxshi zobitlar yo‘qligini nazarda tutib, Pero‘zdan tajribali kishilarni harbiy instruktor qilib yuborishni so‘raydi. Hech narsadan bexabar Pero‘z bunga javoban 300 nafar forsni yuborgan. Ko‘pi o‘ldiriladi, qolgan qismi tahqirlangan. Priscus bu voqealarda Eftaliylarni emas, kidariylarni ko‘radi. B.G‘ofurov bu xabar kidariylarga tegishli ekanligini inkor etmaydi, lekin baribir u Priskusning barcha O‘rta Osiyo xunlarini “kidariylar” deb atagan versiyaga ko‘proq moyil bo‘lib, kidariylar haqidagi hikoyalarda turli markaziy osiyolik ko‘chmanchilar haqidagi ma’lumotlarga oid xabarlarni bir-biriga bog‘lagan deb hisoblagan. Biroq arman muallifi Lazar Parpetsining “Armaniston tarixi” asarida Pero‘zning dushmanlari Eftaliylar sifatida keltirilgan[1]. Tabariy ham ularning Hayatilalardan ekanini yozadi.

Shuning uchun tarixiy manbalar 430-yillargacha podshoh Kidara va V asrning o‘rtalarida kidariylar mavjudligiga ishora qiladi, ammo ular taqdim etgan cheklangan ma’lumotlarni Kidariylar davlati to‘g‘risidagi izchil ma’lumot bilan birlashtirish qiyin. Agar bolu/balom shahrini Balx deb tushunish mumkin bo‘lsa va Kidaraning tog‘lar bo‘ylab janubga Hindistonga ko‘chib o‘tishi uning Baqtriyadagi hukmronligini anglatish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lsa, unda bu ikki manba mushtarak asosga to‘g‘ri keladi. Bu manbalar ba’zilar tomonidan 420-yillarda Baqtriyada Kidariylar davlatining tashkil topishi va tez orada uning Gandharaga kengayishi haqida ishora qilish uchun foydalanilgan.

Biroq, so‘nggi yuz yil davomida topilgan numizmatik dalillar Kidariylar davlati xususida yangi fikrlarni oydinlashtirishi mumkin. Bu haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borish natijasida Kidariylar davlati xususida yangi ma’lumotlarni qo‘lga kiritish imkoni pydo bo‘ladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Боровкова Л.А. Запад Центральной Азии во II в. до н.э. - VII в. н.э., Москва 1989.

[1] Тер-Мкртичян Л.Х. Армянские источники о Средней Азии V-VII вв., Москва 1979. –С. 56.

2. Гумилев Л.Н. Эфталиты - горцы или степняки? // ВДИ 3, 1967. - С. 91 - 98.
3. Гумилев Л.Н. Древние Тюрки. – Москва. 1967.
4. Грум-Гржимайло Г. Западная Монголия и Урян хайский край, т. II, Ленинград, 1926.
5. Кабанов С.К. К вопросу о столице Кидаритов, ВДИ 2, 1953, - С. 201-205.
6. Курбанов А. Политическая история эфталитов. SWIATOWIT. TOM V (XLVI). FASC. A. 2003. – С.43-68.
7. Мандельштам. А .М. К вопросу о кидаритах // КСИЭ Вып. XXX. 1958. – С. 66-72.
8. Маршак Б.И. К вопросу о восточных противниках Ирана в Vв.//Страны и народы Востока, вып. 10, Москва – С. – 58-66
9. Массон В.М, Ромодин В.А. История Афганистана, т. 1, Москва 1964, - С. 168
10. Пигулевская Н.В. Сирийские источники по истории народов СССР. – Москва-Ленинград. 1941.
11. Тер-Мкртичян Л.Х. Армянские источники о Средней Азии V-VII вв., Москва 1979.
12. Cribb, J. “The Kidarites, the Numismatic Evidence: With an Analytical Appendix by A. Oddy.” In Coins, Art and Chronology II: The First Millennium C.E. in the Indo-Iranian Borderlands, edited by Michael Alram, Deborah E. Klimburg-Salter, Minoru Inaba, and Matthias Pfisterer, 2010. 91–146. Vienna: Verlag der Österreichischen Akademie der Wissenschaften.

Шухрат ТОХТИЕВ
ЎзХИА “Ислом тарихи ва манбашунослиги IRCICA” кафедраси катта ўқитувчиси, PhD

МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ҲАЗРАТ АЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЗИЁРАТГОҲЛАР

Аннотация: Мақолада Ҳазрат Али шахсини шиалар ўртасида илоҳийлаштирилиши туфайли турли ривоятларнинг келиб чиқишига ва ҳозирги Ўзбекистон, Тожикистон, Озарбайжон, Туркманистон ва Афғонистон ҳудудларида ҳам халифа Али номи билан боғлиқ

муқаддас жойлар вужудга келгани ёритилган бўлиб, шиалар Макка ва Мадина шаҳарларига ҳаж зиёрати вақтида амал қилинадиган тартиб-қоидалар, удум ва маросимларни бажариши каби шундай тартиб-қоидалар асосида ўзларининг муқаддас шаҳарларини ҳам зиёрат этишлари аниқланган.

Калит сўзлар: Марказий Осиё, Ҳазрат Али, Ироқ, Нажаф, Шоҳимардон, Дулдул, ривоят, суннийлар, шиалар, Мозори Шариф.

Маълумки, Ҳазрат Али 661 йил 19-январда Абдурраҳмон ибн Мулжам ас-Соримий (хорижийлик оқими вакили) деган шахс томонидан Куфа масжидидан чиқиш пайтида жароҳатланади ва икки кундан сўнг вафот этади.

Ҳазрат Алининг ўлими билан боғлиқ турли ривоятлар ҳам мавжуд. Мана шундай ривоятлардан бирида айтилишича, ҳазрат Али ўз ўлими яқинлигини билиб, уни ярадор қилган хорижийни қатл этмасликлари ва ўлганидан сўнг унинг жасадини туяга боғлашлари ва туя қайси жойга бориб чўккаласа, уни ўша жойга кўмишларини васият қилган. Ҳазрат Али қандай васият қилган бўлса, унинг ўлимидан кейин жасадини туяга боғлганлар ва очиқ далага қўйиб юборганлар. Туя 20 км. юриб, дам олиш учун чўккалаган ва ўша ерга ҳазрат Алини дафн этганлар. Унинг гўрига баланд тепалик қилиб тупроқ уюшган ва қабр атрофига чайлалар қуришган. Шундан кейин қабр атрофида яна чайлалар қурилиб, Нажаф шаҳри барпо этилган[1]. Зеро, ан-Нажаф араб тилидан таржимада “тепалик”, “дўнглик” маъносини билдиради.

Ҳазрат Али шахсини мусулмонлар орасида илоҳийлаштириш турли ривоятларнинг келиб чиқишига ва Марказий Осиё ҳудудида бир неча қадамжо ва мозорларни ҳазрат Али номи билан боғлаб, муқаддаслаштиришга олиб келган. Марказий Осиёда бундай муқаддас жойлар Шоҳимардон, яъни “эрлар шоҳи”, “мардлар шоҳи” номи билан юритилади. Бу ҳазрат Алига берилган номлардан бири бўлиб, турли ривоятларга кўра, ҳазрат Али жангларда жасурлик, мардлик кўрсатиб шу номга сазовар бўлган. Нақл қилинишича, ўлими одидан ўғиллари имом Ҳасан ва имом Ҳусайнларни чақириб: “Жигарбандларим, бугун сизлар билан абадий видолашсам керак. Эртага эрталаб оқ туя минган бир бадавий келиб, сизлардан менинг жасадимни сўрайди. Сизлар дарҳол жасадимни унга топширинглар! Аммо зинҳор унинг орқасидан эргашманглар”, деб васият қилади. Ўғиллари йиғлаб, “Унинг ортидан бормасак, қабрингизни қаердан излаб топамиз”, деб сўрайдилар. Ҳазрат Али қаерда уч томони тоғ билан ўралган текислик бўлса, ўша

[1] Ибрагимов ДЖ. На земле потомков Аладдина. – М.: “Наука”, 1988. – С. 37.

ер менинг қабрим бўлади, деб дунёдан кўз юмади. Дунё бўйича ана шундай маскандан еттитаси мавжуд[1].

Ўзбекистоннинг Фарғона вилояти Шоҳимардон қишлоғида ҳазрат Али номи билан боғлиқ муқаддас жой бўлиб, у Олой тоғининг 1540-1570 м. баландлигида жойлашган. Ўрта аср ёзма манбаларида Шоҳимардон ҳақида ҳеч қандай маълумотлар йўқ. Чамаси бу муқаддас жой тахминан XVII-XVIII асрларда машҳурликка эга бўлиб, Фарғона водийсининг энг қадрли муқаддас жойига айланган. XIX асрда Шоҳимардон Қўқон хонлигининг ҳоким ва амалдорларининг асосий зиёрат жойига айланган[2].

XX асрнинг 20-йилларида Шоҳимардон шайхлари Совет ҳукуматига қарши кайфиятда бўлганлар. 1929 йил Шоҳимардонда машҳур инқилобий ёзувчи ва давлат арбоби Хамза Ҳакимзода Ниёзий ўлдирилган. Шундан сўнг Шоҳимардондаги муқаддас жой атрофидаги қишлоқ Хамзаобод номини олган. 50-йилларда у ердаги олдинги мақбара бузиб ташланиб, унинг ўрнига Хамза қабрига мақбара қурилган. Шунга қарамай, бу жой ҳазрат Али номи билан боғлиқ муқаддас жой ҳисобланиб, нафақат Фарғона водийси, балки Марказий Осиёнинг барча аҳолиси учун зиёратгоҳ бўлиб қолаверган. Шоҳимардон ҳудуди ва унинг атрофи расмий равишда дам олиш оромгоҳига айлантирилган. Ўзбекистон мустақилликка эришгач, бу қишлоққа Шоҳимардон номи қайта берилган[3].

Марказий Осиёда ҳазрат Али номи билан боғлиқ яна бир қанча афсонавий муқаддас жойлар мавжуд. Шулардан бири Хива шаҳри ташқи қалъасининг Шоҳимардон дарвозасидан чиққач, 1 км. нарида жойлашган Бадирхон қишлоғидаги катта қабристондаги мозордир ва уни “бу мозорда эр- йигитларнинг шоҳи – ҳазрат Али ётибди”[4] деб аташади. Ундан ташқари Фарғона водийсининг Соха деган ҳудудидаги “Йигитпирим” мозорида ва Афғонистоннинг Мозори Шариф шаҳрида ҳам ҳазрат Али қабри мавжуд.

Марказий Осиёнинг баъзи ҳудудларида шундай жойлар борки, халқ бу ерларни ҳам ҳазрат Али номи билан боғлайди. Ривоятларга

---

[1] Петраш Ю.Г. «Священный» обман. – Т.: Узбекистан, 1965. – С. 51-54; From history to theology: Ali in Islamic beliefs. Edited by Ahmet Yasar Ocak. – Ankara, Turkish Historical Society. 2005. – P. 320.
[2] Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. – М.: 1950. – С. 310-311.
[3] Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. – М.: Восточная литература, 1999. Т. 2. – С. 110.
[4] Раҳмонов А., Юсупов С., Хоразмда “муқаддас” жойлар ва уларнинг вужудга келиш сирлари. – Т.: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистони Сўрх” бирлашган нашриёти, 1963. – Б. 8.

кўра, ҳазрат Али Марказий Осиёни босиб олишда шахсан ўзи қатнашган ва бу ерни кофирлардан озод қилиб, жангда ҳалок бўлган. Шунинг учун ҳам ҳазрат Али тўхтаб ўтган, намоз ўқиган ёки қандайдир жасоратлар кўрсатган ерлар ҳам муқаддаслаштирилган. Бундай жойлар қадамжо, яъни "оёқ изи қолган" ерлардир. Яна ҳазрат Али қиличи изи қолган жойлар ҳам бўлиб, улар Зулфиқор деб аталади. Масалан, Наманган вилоятининг Ғова қишлоғидаги Кескантош мозори бунга мисол бўла олади. Яна бошқа ерларда ҳазрат Али ўз ҳассаси билан ерга урганда у ердан чашма ёки булоқ чиққан ва баланд дарахтлар ўсиб чиққан муқаддас жойлар ҳам мавжуд. Масалан, Тожикистоннинг Ўратепа шаҳридаги "*Хауз-э Мўрон*", Ленинобод вилоятидаги "*Чашма-э Арзанак*", Наманган вилояти Балиқли қишлоғидаги "*Султон Вайс*", Тошкент вилояти Тўйтепа шаҳридаги "*Ахтам сахоба*" мозорлари бунга яққол мисолдир. Яна бошқа муқаддас жойлар бўлиб, ҳазрат Али намоз ўқиганда қолдирган қўл изларини ("*панжа*"дейилади) Марказий Осиёнинг турли ҳудудларида учратиш мумкин. Ҳазрат Алининг Дулдул деган отининг излари ҳам муқаддас ҳисобланиб, бундай муқаддас жойлар Дулдул номи билан Туркманистоннинг Ашхобод тумани Ёнбош, Эски Нисо қишлоғи, Хоразм, Фарғона ва Тошкент вилоятларида мавжуд[1].

Туркманистондаги Ёнбош қишлоғи Копетдоғ тоғининг этагида Дулдул номи билан боғлиқ тош бордир, у *Дулдул даш* дейилади. Ривоятларга кўра, ҳазрат Али намоз ўқиш учун тўхтаганда отини темир қозиққа боғлаб қозиқни шу тошга қоқиб қўйган экан. Ўзи эса 30 метр пастроқдаги тошнинг устида намоз ўқиган экан. Ушбу тош ҳам сақланиб қолиб, у *Намоз даш* деб аталади. Унда ҳазрат Али ўз панжа изларини қолдирган экан. Яна 50-60 метр пастроқда муқаддас ҳисобланган *Богаз даш* (Хомиладорнинг тоши) номли тош бордир. Ушбу тошнинг олдига асосан бепуштликдан даво истаб, фарзандли бўлиш ниятида бўлган аёллар ташриф буюрадилар, *Намоз даш* устида намоз ўқиб, *Богаз даш*га суяниб илтижо қиладилар[2].

Ҳазрат Али Хоразмга келиб ўз маҳоратларини кўрсатгани ҳақида ҳам ривоятлар мавжуддир. Масалан, Хоразмга келганида намоз ўқиш учун Маккага ўзининг қанотли Дулдул деган отида бормоқчи бўлиб

[1] Ислам на территории бывшей Российской империи... – С. 110.
[2] Демидов С.М. Легенда и правда о «святых» местах. – Ашхабад, Ылым, 1988. – С. 69-72.

Амударёдан сакраган экан Дулдул олди оёқлари билан қирғоқни босиб, орқа оёқлари сувнинг устида қолиб кетган экан[1].

Маълумки, ҳазрат Али ҳеч қачон Марказий Осиё ҳудудида бўлмаган. Муқаддас жойларда хизмат қилувчилар ҳазрат Али ҳақидаги афсонавий ривоятларга асосланиб, уларни далилламоқ учун, ҳазрат Али қабри қандай қилиб Марказий Осиёга келиб қолганини турлича изоҳлашмоқчи бўладилар. Масалан, шундай изоҳлардан бири шундай баён этилади: ҳазрат Али вафот этгандан кейин, унинг жасадини ўз юртида кўмиш учун турли гуруҳлар талабгор бўлган. Жанозага келган ҳар бир гуруҳлар ўз тобутларини очишганда, ҳар бирининг тобутида ҳазрат Али жасади ётган экан. Шунинг учун ҳам еттита (баъзи ривоятларга кўра ўн битта) жойга уни дафн этишган экан. Яна бир ривоятга кўра, ҳазрат Али жасадини осмондан туя келиб олган ва улар изсиз йўқолишган. Лекин шундай далил сақланиб қолганки, ҳазрат Али қабри икки дарё, яъни оқ ва қора дарё қуйилишида жойлашган. Бунда оқ дарё тоғлардаги оппоқ қорларни эришидан келиб чиққан ва қора дарё ер тагидан чиққан сув, деб айтилади. Мана шундай жойлардан бири Шоҳимардондаги ҳазрат Али мозоридир[2].

Ҳазрат Алини Марказий Осиёда бундай машҳурлигига сабаб, ҳазрат Али шахсини илоҳийлаштиришда сўфийлик катта роль ўйнаганидадир. Чунки сўфийлар ҳазрат Али шахсини жуда эъзозлаганлар, улар ҳазрат Алини *эзотерик* (яширинган, пинҳона) билиб, ўз соҳиби ҳисоблаганлар.

Шундай қилиб, Ҳазрат Али шахсини мусулмонлар ўртасида илоҳийлаштирилиши туфайли турли ривоятларнинг келиб чиқишига ва ҳозирги Ўзбекистон, Тожикистон, Озарбайжон, Туркманистон ва Афғонистон ҳудудларида ҳам ҳазрат Али номи билан боғлиқ муқаддас жойлар вужудга келган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Герасимов О.Г. На ближневосточных перекрестках. – М.: Наука, 1979.
2. Демидов С.М. Легенда и правда о «святых» местах. – Ашхабад, Ылым, 1988.
3. Ибрагимов Дж. На земле потомков Аладдина. – М.: Наука, 1988.

[1] Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М.: Наука, 1983. – С. 52-58.
[2] Сухарева О.А. Ислам в Узбекистан. – Т.; 1960. – С. 64.

4. Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. – М.: Восточная литература, 1999. Т. 2.
5. Петраш Ю.Г. «Священный» обман. – Т.: Узбекистан, 1965.
6. Раҳмонов А., Юсупов С., Хоразмда “муқаддас” жойлар ва уларнинг вужудга келиш сирлари. – Т.: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистони Сўрх” бирлашган нашриёти, 1963.
7. Снесарев Г.П. Хорезмские легенды как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М.: Наука, 1983.
8. Сухарева О.А. Ислам в Узбекистан. – Т.; 1960.
9. سفرنامه ابن بطو طه (Ибн Баттута сафрномаси). Форс тилида. Таржимон Доктор Муҳаммад Али Мужад. – Теҳрон. 1348/1969-1970. 1-жилд.
10. From history to theology: Ali in Islamic beliefs. Edited by Ahmet Yasar Ocak. – Ankara, Turkish Historical Society. 2005.
11. Федченко А.П. Путешествие в Туркестан. – М.: 1950. – С. 310-311.
12. Хисматтулин А.А. Смерть и похоронный обряд в исламе. – М.: Наука, 2000.
13. Ҳазрат Али ҳақида қиссалар. Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи С.Рафъиддин. – Т.: Ёзувчи. 1992.

Gulsara ABDUVAXOBOVA
2-kurs magistranti, TDSHU

NASIRIDDIN TUSIYNING ANIQ FANLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Annotatsiya: Mazkur maqola ensiklopedik olim Abu Ja’far Muhammad ibn Muhammad Nasiriddin at-Tusiyning aniq fanlar rivojiga qo‘shgan hissasini va uning bugungi kundagi ahamiyatini yoritib berishga qaratilgan. Maqolada qismida Tusiy asos solgan Marog‘a rasadxonasi va uni dunyoga tanitgan buyuk astronomik asari “Ziji Elxoniy” haqida atroflicha ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Nasiriddin Tusiy, riyoziyot, falakiyot, Alamut qal’asi, Marog‘a rasadxonasi, munajjimlik, Xuloguxon, “Ziji Elxoniy”.

Xurosonlik Xo‘ja Nasiriddin at-Tusiy tarixga qomusiy alloma sifatida kirdi. Tusiy, minerialogiya, tibbiyot, riyoziyot, falsafa, tabiatshunoslik va

ayniqsa falakiyotga oid asarlar hamda tarjima va sharhlar muallifi hisoblanadi. U ko‘pgina yunon olimlarining asarlarini arab tiliga tarjima qilgan. Uning 150 ga yaqin asarlari va maktublari mavjud bo‘lib shulardan 25 tasi fors, qolganlari arab, ayrimlari arab, fors va turkiy tillar birligida yaratilgan. Uning matematika va astronomiyaga oid “Algebra va al-muqobaladagi hisoblash masalalari haqida risola”, “Astronomiyadan Nasiriddinning esdaliklari”, fizikaga oid “Nurning sinishi va qaytishi haqidagi risola”, “Issiq va sovuq haqidagi risola”, boshqa fanlar sohasida Xuloguxonga bag‘ishlangan “Tansiqnomai Elxoniy” (“Elxon mineralogiyasi”), pedagogikaga oid “Axloqi Nosiriy”, mantiq bo‘yicha yozgan “Asos al-iqtibos” (“Bilim olishning asoslari”) va boshqa asarlari qimmatli meros hisoblanadi. Nasiriddin Tusiy 26 ta matematik va 21 ta astronomik asarlar muallifidir.

Nasiriddin Tusiy ko‘p yillar davomida Ismoiliylar tomonidan tutqunlikda saqlanadi. Astronomiya sohasiga katta ahamiyat qaratgan Ismoiliylar Nasiriddin Tusiyning bilimlarini nazarga olib, uni o‘ldirmaslikka qaror qildilar. Bu davrning eng hashamatli kutubxonalaridan birining Alamut qal’asida bo‘lishi va bu yerdagi munajjimlik chizmalari soyasida faylasuf bu yerda ham o‘z ilmiy faoliyatiga yo‘l ochdi. XIII asrning boshlarida boshlangan mo‘g‘ullarning ayovsiz yurishlarining oqibatida Ismoiliylar davlati ham tiz cho‘kdi. Mutafakkir Xuloguxonning xohishiga amal qilib, uning yonida maslahatchi bo‘lib qoldi. Ismoiliylarning qon to‘kilmasdan Xuloguxonga taslim bo‘lishida katta rol o‘ynagan Nasiriddin Tusiy mo‘g‘ul Elxonining yonida katta nufuzga ega edi. Nasiriddin Tusiyning ko‘rsatmalariga amal qilgan Xuloguxon Bag‘dodni ishg‘ol etdi. Bu hodisadan so‘ng xonning ishonchini qozongan faylasuf Marog‘a rasadxonasining qurilishiga rozilik oladi. Nasiriddin Tusiyning keng faoliyat asosida Sharq dunyosida ilm o‘chog‘iga aylangan rasadxonada arab mamlakatlaridan, Hindiston, Xitoydan, Mo‘g‘ulistondan, Yevropadan kelgan olimlar ilmiy tadqiqotlar bilan mashg‘ul bo‘lib, turli xil ilm sohalariga oid asarlar yaratar edilar.

Xuloguxonning 1265-yilda vafotidan hokimiyat tepasiga chiqqan Abaqaxon (1265–1282) ham otasiga sodiq qolgan holda Nasiriddin Tusiyni o‘ziga vazir qilib tayinlaydi. Hayotining qolgan qismini vazirlikka sarf etgan faylasuf o‘n besh yilga yaqin rasadxonaning ilmiy rahbari bo‘lib, bu ikki og‘ir mas’uliyatli vazifani sidqidildan bajaradi. 1231-1256 yillarda u Ko‘histonda shoh Nosir saroyida hizmat qiladi.

Xo‘ja Nasiriddin Tusiy bundan tashqari juda ko‘plab aniq fan sohalarida ilmiy ishlar qilgan. Umuman olganda, aniq fanlar sohasida O‘rta

Osiyo olimlari IX-XVIII asrlarda o‘zlarining ko‘pdan-ko‘p ilmiy asarlari bilan, ayniqsa, astronomiya va riyoziyotda, buyuk yangiliklar kiritdilar. To‘qqiz asr davomida Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, O‘rta Osiyoda ham, ulug‘ madaniy shaharlar vujudga keldi, bu shaharlarda ilmiy maktablar va aniq fanlar bo‘yicha hisoblash markazlari tashkil etildi. Ular ichidan faoliyatining asosiy yo‘nalishi astronomik tadqiqotlar bo‘lgan uch ilmiy maktabda vujudga kelgan kashfiyotlar e’tiborga loyiqdir.

Birinchi ilmiy maktab XIII asrda Janubiy Ozarboyjonning poytaxti Marog‘a shahrida tashkil qilindi. Maktabning ilmiy rahbari Nasiriddin Tusiy edi. Uning iltimosiga ko‘ra, 1259-yili Xuloguxon rasadxona qurdirdi. Chunki xon bundan o‘z manfaatini ham ko‘zlagan edi, ya’ni turli harbiy yurishlar va boshqa ma’muriy tadbirlarni amalga oshiradigan omadli kunlarni aniqlash va bunday kunlarni oldindan bildiradigan jadval tuzib berishlarini u olimlardan talab qilgan edi. Bunday jadvallarni tuzish esa, ma’lum astronomik kuzatishlarni taqozo qilar edi. Keyinchalik Nasiriddin Tusiyning g‘ayrati va shijoati sabab bo‘lib, bu rasadxona XIII asrning yirik ilmiy markaziga aylandi va tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Fransiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan arab olimi Al-Ordiziyning kitobida Tusiy rasadxonasining 10 ta astronomik asboblari haqida ma’lumot berilgan [1:98]. Olimning ilmiy merosi ichida uni dunyoga tanitgan buyuk astronomik asari “Ziji Elxoniy” – زيج ايلخانى (“Elxon ziji”) bo‘lib, Marog‘alik rasadxonada 1259-yildan 1271-yilgacha bo‘lgan 12 yillik kuzatuv natijasi hisoblangan. Bu asarda keltirilgan talay yirik shaharlarning geografik koordinatlari, yulduzlarning koordinatlari, Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarning harakatlari aks ettirilgan jadvallarda Quyosh va sayyoralarning joylashuv hisob-kitobi, osmon katalogi, shuningdek, sinus, tanges va katangensning 1 oralig‘idagi jadvali keltirilgan bo‘lib, to XV asrda Ulug‘bek rasadxonasining yirik astronomik asbobida bu ma’lumotlar aniqlashtirilgunga qadar, ya’ni ikki yuz yildan ko‘proq davr mobaynida dunyo astronom olimlarining foydalanadigan kundalik lug‘atiga aylandi. Ayni shu zijda Tusiy yillik pretsessiyani aniq hisoblab topgan [2:58].

O‘z asarida olim mashhur yunon astronomi, olam tuzilishining geosentrik ta’limotining asoschisi K.Ptolomeyning (mashhur “Almajistiy”ning muallifi) Oy va Utorud (Merkuriy)ning harakatiga bag‘ishlangan nazariyasiga qarshi chiqib, o‘zining nisbatan yengil hisoblash usulini taklif etadi [6].

Ta’kidlab o‘tilganidek, Marog‘a rasadxonasida ko‘p matematiklar va hay’ati-nujum ilmlarining olimlari faoliyat ko‘rsatishardi. Ushbu zaminning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shgan olimlar to‘rt nafar bo‘lib, Xo‘ja

Nasiriddin Tusiy “Ziji Elxoniy” kitobining muqaddimasida ushbu olimlar nomini keltirgan. Uning yozishicha, “Xuloguxon Tus shahridan bo‘lgan men kamtarin Nasirni bu rasadxonani qurish va yulduzlar borasida tadqiqot olib borishimni so‘radi, shuningdek, damashqlik Muiniddin Arziy, Faxriddin Marog‘iy, Tiflisdan Faxriddin Ixlotiy hamda qazvinlik Najmiddin Dabironiy o‘z viloyatlaridan da’vat etib, Marog‘ada ushbu rasadxonani qurishda hissa qo‘shishgan”i aytiladi. Ozarbayjonlik olim H. Mamedbeylining “Nasiriddin Tusiy – Marog‘a rasadxonasining asoschisi” degan asarida rasadxonada ishlagan 21 astronomning ro‘xati keltirilgan. O‘rta asr tarixchisi Rashiddinning ma’lum qilishicha, yuzga yaqin xodimi bo‘lgan Tusiyning Marog‘adagi astronomik rasadxonasi o‘rta asrlarda ishlangan va dunyoga dong‘i ketgan eng yirik rasadxonalardan bo‘lib, uning Sharq astronomiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir [3:32].

At-Tusiy, shuningdek, Klavdiya Ptolomeyning “Almagest”iga sharh tuzgan va bir qator boshqa astronomik risolalarni yozgan: “Muiniyning astronomiya bo‘yicha risolasi”, unga ilova, “Samoviy sfera astronomiya bilimlarini egallash”, “Astronomiya bo‘yicha yodnoma”. Ushbu risolalar majmuida at-Tusiy Ptolomeynikidan farqli, osmon jismlari kinematikasiga doir o‘z chizmasini tuzadi. Uning asosi o‘rnida “Tusiy jufti” xizmat qilib, aylanma harakatlarini intilma harakatga o‘zgartiradi. Shuningdek, “Astrolyabiyani o‘rganishga doir yigirma bo‘limli risola”, “Sinus kvadranti haqida risola” va astronomik qurollar haqidagi boshqa risolalar At-Tusiyga tegishli.

Tusiyning merosiga yuzlanar ekanmiz, biz yana bir bor dunyo madaniyatining birligida vaqtlarning uzviy bog‘lanishiga amin bo‘lamiz. Shunday qilib, u o‘z asarlarida osmon mexanizmini asos solgan olim izlanishlari 400 yil o‘tgach, ular g‘arbiy Yevropa olimlari tomonidan qayta kashf qilingan. Daniyalik astronom Tixo Brage (1546-1601) Tusiyning hisob-kitoblarini qaytarib, 700 dan ziyod yulduzlar katalogini tuzgan [4:306]. Bragening ilmiy ishi asosida I. Kepler osmon mexanikasini yaratgan. I. Nyuton ularning mehnatlariga tayangan holda, mexanikaning tayanch qonunlarini yaratgan. Tusiyning matematik mehnatlari Italiya, Angliya, Fransiya – Yevropa Uyg‘onish davrining bosh markazlarida nashrdan chiqqan. Tusiy “To‘la to‘rtburchaklar” (“Shakl ul-qit‘a” – شكل القطاع) nomli trigonometriyaga doir asar yozib, sistemalashgan to‘g‘ri chiziqli va sfera trigonometriyani yaratadi hamda trigonometriyaning alohida darajasiga o‘tishdagi muhim masalani to‘la-to‘kis hal qiladi. Tusiyning bu asari haqida nemis matematigi Braunmyul (1853-1908) shunday deydi: “Tusiydan oldin Abul Vafo, Abul Nasir, Beruniy va boshqalar astronomiyaga doir asarlarida trigonometriyaga yetarli o‘rin

bergan bo‘lsalar-da, ularda trigonometriya alohida fan bo‘lmasdan, vositachi rolini o‘ynagan. Tusiy, aksincha, trigonometriyaning matematik ahamiyatini bilib, “To‘la to‘rtburchaklar” asari bilan trigonometriyaning alohida fan ekanini asoslab beradi” [5:50-51]. Shuning uchun Tusiyning bu asarini sistemalashgan trigonometriya nomi bilan atash mumkin.

Aytish kerakki, Nasiriddin Tusiyning aksar asarlari arab tilida yozilgan. Uning bilimi va nufuzini, hatto Ibni Sino bilan qiyoslash mumkin. Chunki Ibn Sino tibbiyot ilmida, ammo Nasiriddin Tusiy riyoziyot fanida ko‘proq mahoratga ega edilar. Xo‘ja Nasiriddin Tusiydan riyoziyot fanida yozgan buyuk asari bizgacha saqlanib qolgan. Germaniyalik sharqshunos Karl Brokelman o‘zining “Arab adabiyoti tarixi” kitobida quyidagicha yozadi: “Xo‘ja Nasiriddin riyoziyot ilmida katta hissasini qo‘shdi hamda oldingi olimlar asarlarini tarjima, tahrir va tayyorlashda bebaho xizmat qildi. Undan qolgan nujum ilmi bobidagi asari bebaho va beqiyosdir” [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Матвиевская Г. Розенфелд Б., Математики и астрономы мусулманского средневековя и их труды (VIII-XVII вв), I-III т. – М.: «Наука» 1983.
2. Паннекук А. Истроия астрономии. –М.: «Наука» 1966.
3. Мамедбейли Г. Насриддин Туси – основатель Марагинской обсерватории. – Баку, 1963.
4. Мамедов. Ф.Т. Культурология – Баку, 2002.
5. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi –T.: “Cho‘lpon”, 1994.
6. “Dunyoning faxri bo‘lgan eronlik buyuk shaxsiyatlar” rukni ostidagi turkum eshitirishi / ParsToday.com/uz

Sohibjon UMARJONOV

Ijtimoiy –gumanitar fanlar kafedrasi tayanch doktoranti, TDIU

FAHRIDDIN ROZIY - IBN SINO ASARLARINING MOHIR SHARHLOVCHISI

Annotatsiya: Falsafa tarixida Ibn Sino shaxsi va uning mantiq va falsafaga doir asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. “Ishoralar va tanbehlar” asari eng ko‘p sharhlar yozilishiga sabab bo‘lgan va ko‘plab faylasuf va diniy ulamolarning baxs-munozaralari mavzusiga aylangan. Bu esa asarning

ahamiyati qanchalik darajada muhim ekanligini ifodalaydi. Ibn Sino falsafasi va mantig‘ining davomchisi, sharhlovchilaridan biri Fahriddin Roziy hisoblanadi. Ushbu maqolada Ibn Sinoning “Ishoralar va tanbehlar” asariga Fahriddin Roziyning sharhi haqida fikr yuritamiz. Biz quyida tadqiq qilayotgan mavzu mamlakatimizda juda kam o‘rganilganligi, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonida “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” yo‘l xaritasi maqolamizning nazariy asosi va ko‘tarilayotgan muommoning dolzarblik darajasini yanada oshiradi. Maqolada taniqli sharqshunoslarning mavzuga doir fikrlari, Fahriddin Roziy va Sharafiddin al-Mas’udiy sharhlarining qiyosiy tahlili orqali Roziyning sharh yozish sabablari, sharx uslubi, sharxlarning mazmuni turli manbalar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: “Al-Ishorot va-l-tanbihot”, “Sharh al-Ishorat”, “Javabat”, shubhalar, jumboqlar, ko‘rsatma, eslatma, tanbehlar, asossiz tahminlar.

Insoniyat tarixida shunday davrlar bo‘ladiki, muayyan hududda shakllangan, biron-bir xalq erishgan yuksak intellektual salohiyat jahon svilizatsiyasi va madaniyati xazinasiga ulkan xissa bo‘lib qo‘shiladi, uning taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunday davrlarda nomlari tarixda qolgan ko‘plab allomalar va mutafakkirlar bir joyda yashab, yonma-yon ijod qiladilar, jamiyatni ma’naviy yuksalish va madaniy taraqqiyotga yetaklaydilar. Qadimgi Yunonistonning mashhur allomalari Epikur, Geraklit, Demokrit, Suqrot, Platon, Aristotel va boshqalar nom qozongan miloddan avvalgi VII-V asrlar yoki Xitoydagi qariyb barcha antik dinlar va ta’limotlarni vujudga keltirgan Konfutsiy, Lao Szi, Fun Szi kabi qadimgi Chin mamlakatining deyarli barcha mutafakkirlari yashagan ikki-uch asr ham insoniyatning madaniy xazinasiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan buyuk yuksalish davrlari bo‘lgan.

Yurtimiz o‘tmishiga xolisona nazar tashlagan har bir kishi bir emas ikki marta bunday noyob jarayonni guvohi bo‘lishi mumkin. Vatanimiz tarixidagi “Ilk o‘rta asrlar (Uyg‘onish davri)” deb yuritiladigan milodning IX-XI asrlari hamda Amir Temur va temuriylar davri insoniyat tarixining ana shunday buyuk yuksalish davrlari bo‘lgani shubhasiz. Bu Amudaryo va Sirdaryo bo‘ylarida yashagan xalqimizning intellektual salohiyati, ilmiy-falsafiy dahosi eng yuksak darajaga ko‘tarilgan, uning Al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Imom Buxoriy, at-Termiziy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zamahshariy, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi atoqli

namoyyandalari jahon sivilizatsiyasi va madaniyati sahifalariga o‘zlarining o‘chmas nomlarini muhrlab ketgan davrlardir. [1; 81]

Bugungi kunda ilm-fanga, yoshlar tarbiyasiga har qachongidan-da ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’daniyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” [2; 24] Shu asosda ajdodlarimiz ma’naviy merosini, ularning ibratli hayot yo‘lini tadqiq qilish jamiyatimiz uchun, ta’lim-tarbiya uchun juda muhim jarayon hisoblanadi.

Sharafu-l-mulk – Abu Ali ibn Sino insoniyat madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta’sir ko‘rsatgan, jahon fani, falsafa, badiiyati, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan vatandosh mutafakkirlarimizdan hisoblanadi. Ibn Sinoning dunyoqarashi o‘zi yashagan madaniyatini aks ettiradi. Uning dunyoqarashi Hindiston tabiatshunosligi va Yunoniston falsafasi ta’siri ostida shakllandi. Ibn Sino Buqrot (Gippokrat), Jolinus (Galen), Yevklid, Arximed, Pifagor, Arastu, Porfiriylarning asarlari bilan yaxshi tanish edi. Ibn Sinoga Abu Bakr Zakariyo ar-Roziy va Forobiylar juda katta ta’sir o‘tkazishdi. [3; 69]

Ibn Sino yaratgan asarlar jahon xalqlari ma’naviy-madaniy mulkiga aylandi. Uning “Tib qonunlari”, o‘n sakkiz jilddan iborat “Kitob ash-Shifo”, “Kitob an-Najot”, “Ruh haqida kitob”, “Al-ishorot va-t-tanbihot”, “Quroza-ey tabiat” (“Tabiat durdonasi”), “Risolai tadbiri manzil” (“Oilaviy baxt-saodatga erishish tadbiri haqida risola”) va qator boshqa asarlari asrlar davomida turli fan sohalari mutaxassislarinining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. [4;27]

Donishmand umrining oxirida, 1030-1034 yillarda o‘zining prinsipial asari “Kitabu-l-ishorot va-t-tanbihot”ni yozdi. [5; 142] Bu asar musannifning bibliografiyasida aytilishicha “boshqalardan sir tutgan so‘ngi asari” [6; 155] hisoblanadi. Unda muallifning mustaqil fikrlari bayon etilgan. Shu sababli bu asar talabalar orasida “Kitob ash-shifo” dan ko‘ra katta e’tiborga sazovor bo‘lgan edi. [7; 100] Ushbu asar ko‘plab faylasuf mutafakkirlar e’tiborini torta oldi va bir nechta sharhlar yozildi. Chunki u Ibn Sinoning mantiq ta’limoti, ijtimoiy-siyosiy, ontologik, gnoseologik qarashlarining muhim xususiyatlarini aks ettiradigan asardir. [8; 102-103, 9; 1]

Fahriddin Roziy Aristotel, Demokrit, al-Kindiy, Zakariyyo ar-Roziy, Farobiy va Ibn Sinolarning tafakkur rivojidagi ilmiy merosi va faoliyatini yuksak baholaydi va o‘zini ularning g‘oyalari davomchisi deb biladi. [10; 8] Fahriddin Roziy birinchi bo‘lib Ibn Sinoning “*Al-ishorot va-t-tanbihot*”

ya'ni "*Ishoralar va tanbehlar*" asariga mukammal, to'liq dalillash uchun keltirilgan fikrlarga sharh yozgan bo'lsada, sharhlash an'anasi undan boshlanmagan edi. Roziydan oldingi sharh *"Al-Mabahis va-l-shukuk ala kitab al-Ishorot va-l-tanbihot"* (Ishoralar va tanbehlarga e'tirozlar va tekshiruvlar) deb nomlangan yetarlicha isbotlanmagan sharh muallifi Sharafiddin al-Mas'udiy (v. 600/1204- yildan oldin) bo'lgan edi. [11; 16]

Roziy tanqidchi sifatida Ibn Sino asarlarining eng mohir sharhlovchisi bo'lgan. Bunga uning "*Sharh al-Ishorat*" (Ishoralarga sharh) asari dalil sifatida ko'rsatishimiz mumkin. [12; 20] Uning "*Sharh al-Ishorat*" deb nomlangan asari Ibn Sinoning "*al-Ishorot val-tanbihot*" (Ishoralar va tanbehlar) asariga mashhur sharhi hisoblanadi va u faqatgina Roziyning sharhidan iborat emas. Uch to'mli asarning ikkinchi to'mi "Ishorot" asari bilan bog'liq. *"Lubab al-Ishorot"* ("Ishoralarning eng muhim qismi") deb nomlangan uchinchi to'mi *"al-Ishorot va-l-tanbihot"* asariga muhim hisoblangan to'liq sharhi hisoblanadi. [13; 473] Bu qism "*al-Tafsir al-Kabir*" va "*Kitab al-Muhassal*" kabi Roziyning asarlari qatoridagi shoh asar hisoblanadi. [14;3] "*Javabat al-masail al-buxariyya*" ("Buxorodagi [falsafiy] muommolarga munosabat") deb nomlangan Roziyning super sharhi "*Sharh al-Isharat*" asarining birinchi to'mi bo'lib, quyidagi ikki jihatdan juda muhim hisoblanadi: Birinchisidan, Roziyning dastlabki falsafiy asari sifatida faylasuf tafakkurining dastlabki rivojlanishidagi qimmatli yangi ma'lumotlarni beradi. Ikkinchidan, ehtimol eng muhim jihati Roziyning ilmiy muhit bilan qanday munosabatda bo'lganligi haqidagi hayotiy ma'lumotlarni beradi va bu nafaqat "*Ishorot*" ning to'liq sharhini muhokama qilishga, shuningdek, uning butun falsafiy va ilohiyotshunoslikka oid faoliyati va samaradorligi kengroq bo'lishiga xizmat qiladi. Professor Ayman Shihadeh "*Ishorot*" ning ba'zi qismlarini bir nechta tadqiqotlarida tahlil qilgan va qimmatli ma'lumotlarni bayon qilgan. [15, 16, 17,18] Quyida muhokamalarimizni Ayman Shihadeh, A. Michael Rapoport, Frank Giffel va boshqa sharqshunos olimlarning ilmiy izlanishlari asosida davom ettiramiz.

A. Michael Rapoport 4 ta sharhni, xususan, ularning ikkitasi juda mashhur (bu sharhlarning mazmuni bo'lmasada hech bo'lmaganda mualliflarning obro'si sifatida), qolgan ikkitasi esa unday mashhur bo'lmagan sharhlarni o'zining doktorlik dissertatsiyasida tadqiq qiladi. Dastlabki ikki mashhur mualliflar va ularning asarlari quyidagicha: Fahriddin ar-Roziyning "Ishoralar va tanbehlarga sharh" (*Sharh al-Ishorat*

val-Tanbehot) [1] va Nosiriddin Tusiyning "Ishoralardagi muommolarga yechim" (*Hall mushkilot al-Ishorat*). [2] Keyingi ikki sharh esa kamroq ma'lum bo'lgan asarlar hisoblanib, sharhlarni sharhlash an'anasi janridagi ikkita namunasi, ya'ni hukm va muhokama; bu holda hukm yuqorida tilga olingan ikki sharhlovchi o'rtasida bo'ladi. Birinchisi Badriddin al-Tustarining (v. 1332) "Nosiriddin va al-Roziy o'rtasidagi muhokama" (*al-Muhokama bayna Nasir al-Din val-Razi*)[3] va ikkinchisi Qutbiddin al-Razi al-Tahtaniyning (v. 1365) "Al-Imom va al-Nosir o'rtasidagi muhokama" (*Kitab al-Muhokama baynal-Imam val-Nasir*).[4] Biz ushbu tadqiqotimizda Fahriddin Roziyning sharhini tadqiq qilamiz.

Roziy birinchi bo'lib "Ishoralar" ga mukammal, to'liq isbotlash uchun keltirilgan fikrlarga sharh yozgan bo'lsa-da [19;48], sharhlash an'anasi undan boshlanmagan. Roziy taxminan 1180-yilgacha yozilgan "Ishoralar va tanbehlarga e'tirozlar va tekshiruvlar" (*al-Mabahis val-shukuk ala-kitab al-Ishorat val-Tanbihot*) deb nomlangan, yetarlicha isbotlanmagan sharh muallifi Sharafiddin al-Mas'udiy (v.1204) dan keyingi sharh muallifi bo'lgan. [20;41] Mas'udiyning "Ishoralar" ga tanqidiy sharhi Fahriddin Roziyning Ibn Sino asariga yozgan uchta sharhning birinchisi hisoblangan "Buxorodagi masalalarga javoblar" (*Javabat al-masail al-Buxariyya*) deb nomlangan sharhni yozishga turtki bo'ladi. [11;16] Al-Mas'udiy o'zining "E'tirozlar va tekshiruvlar" asarining muqaddima va xulosa qismida Ibn Sinoning "Ishoralar" asariga to'xtalib, uni mutolaa qiluvchilar biroz shubha (*shubah*) va jumboqlarga (*shukuk*) duch kelishi haqida ma'lumot beradi va o'z sharhini

---

[1] Ma'lumot uchun: Fahriddin al-Roziyning "Ishoralar va tanbehlarga sharh" (فخر الدين الرازى شرح الاشارات وتنبيهات) asarining qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fo'ndida 4957/1, 4957/2 inventar raqamlari ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozmalar arab tilida, nastaliq yozuvida ko'chirilgan. Birinchi qismi 18 (1b-18b), ikkinchi qismi esa 253 (19a-271b) sahifani tashkil etadi. Fahriddin Roziyning qo'lyozma asarlari haqida ma'lumot olish uchun: Umarjonov, S. (2022). Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy asarlarining qisqacha sharhi. Imom Buxoriy saboqlari, 1, 24-25.

[2] Ma'lumot uchun: Nosiruddin Muhammad ibn Muhammad ibn al-Xasan at-Tusiyning "Ishoralardagi muommolarga yechim" (حل هشكلات الاشارات) asarining qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fo'ndida 2065 inventar raqam ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma milodiy 1271 – yil 21- iyunda kotib Axmad ibn Muhammad al-Banokatiy tomonidan arab tili, nastaliq yozuvida ko'chirilgan. Qo'lyozma 270 sahifani tashkil etadi.

[3] Ma'lumot uchun: Ash-Shams at-Tustariy nomi bilan tanilgan Muhammad ibn Abdulla al-Bag'dodiyning "Ishoralarga sharh" (شرح الاشارات) asarining qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fo'ndida 3201 inventar raqam ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma milodiy 1333 – yil 21- yanvarda arab tili, nastaliq yozuvida ko'chirilgan. Ash-Shams at-Tustariy mashxur tabib bo'lgan.

[4] Ma'lumot uchun: Qutbiddin ibn Muhammad ar-Roziy at-Taxtaniyning "Al-Imom va al-Nosir o'rtasidagi muhokama"(المحاكهات بين الامام والنصير فى شرح الاشارات) asarining qo'lyozma nusxasi O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fo'ndida 2433 inventar raqam ostida saqlanadi. Ushbu qo'lyozma Hindistonda arab tili, nastaliq yozuvida ko'chirilgan. Sanasi ko'rsatilmagan (taxminan XVII asr). 174 sahifadan iborat.

qaysidir jihatdan “adovat va tarafkashlik” dan yiroq holda, ideal ravishda ularga yechim topish va tadqiq qilish uchun yozgan edi. [19;48-53] Umuman olganda Mas’udiy “Ishoralar” da berilgan 50 ta masalani (*mas’ala*) muhokama qiladi. (Matn bilan muommolar bo‘lganligi sababli barcha masalalarni qamrab olish kerak emas shuning uchun u birlamchi masalalarning hosilasi bo‘lgan ikkilamchi masalalarga e’tibor qaratmaganligini tan oladi.) Mas’udiyning har bir masalaga munosabati garchi bu masalalar qat’iy tartibda ko‘zga tashlanmasada quyidagi tarkibni o‘z ichiga oladi: “Ishorat” ga tegishli parchadan mulohaza (*lemma*), biroz tafsir sharhi, muhim bo‘lgan parchada uchragan jumboqlar va e’tirozlarni ko‘rsatish, shuningdek, izohlar hamda gipotezalarning muqobil variantini ko‘rsatish. [19;53-59]

Biroq, Mas’udiyning sa’r-harakatlari Roziyning yuqori darajadagi mezonlariga javob bermasligini ko‘rsatadi. Roziy “Javabat” asarining muqaddimasida bir nomalum homiy undan “bu mummolar ummonini sinchkovlik bilan o‘rganishini va o‘sha jumboqlarga yechim topishini” soraydi. [18;11] Shunday qilib Roziy tanqidiy tadqiqotning o‘ziga hos ravishda tizimli va keng qamrovli uslubini tadbiq qildi va Mas’udiyni o‘z sharhida bir xil tizimli tarzda yozmaganligini quyidagicha tanqid ostiga oldi:

فإن من حق هذا الفاضل أن يعترض أؤلا على الحجة التى نقلها من ٧١شارات ثم يشتغل بيان مذهب نفسه فإن من خالف الجميور فى شىءلا يكفيه أن بشتعل بيبان مذهب نفسه بلا لا بذ وأن يقدح في أدلة المتقدمين ويبين في مقدمات تلك الأدلة من الضبحف والغلط.

“Xurmatli sharhlovchi “Ishorat” dan keltirgan fikrga e’tiroz bildirishi va keyin o‘zining yondashuvini tushuntirishga harakat qilishi kerak. U kim bo‘lsa ham o‘zining yondashuvi asosida ko‘pchilikning fikriga qarshi chiqishi yetarli emas. Yo‘q albatta! Aksincha u o‘zidan oldingi shaxslarning fikrlarini noto‘g‘ri ekanligini isbotlashi va bu fikrlarning mazmunidagi xatolik va kamchiliklarni tushuntirishi kerak.” [18;33]

Roziy o‘zining bir qator asarlari muqaddimalarida Mas’udiyning tanqidiy tadqiqoti uslubi haqida bevosita to‘xtalib o‘tadi. U “Sharq munozaralari” asarining muqaddimasida o‘z nuqati nazarini tasdiqlaydigan dalil keltirishi kerakligiga urg‘u beradi. Ahamiyatsiz ma’lumotlarni deb xushomadgo‘ylik bilan ularning salaflariga ergashganlarni qattiq tanqid qiladi. Bunday xatolardan xalos bo‘lish uchun Roziy “Aqlning cheklanishi” asari muqaddimasida “mashaqqatli tadqiqotning savol-javoblari va muommolar ummonini batafsil, sinchkovlik (*ta’ammuq*) bilan tadqiq qilish” [16;299] metodini talab qilishga urg‘u beradi. Shihadeh bu terminlarni Roziyning bir masalani to‘g‘riligini aniqlashdan oldin barcha ehtimoliy fikrlar va qarshi fikrlarning batafsil va tizimli tahliliga murojaat qilgan holda tushuntiradi. [16;300] O‘z da’volarini faqatgina o‘tmishdagi bilimlar bilan asoslash yoki

shunchaki bu bilimlarga qarshi e'tirozlarni oshirish va uni shunday qoldirish Roziy uchun qoniqarli holat emas edi. Visnovskiy ta'kidlaganidek, Roziy uchun "Agar siz tasodifan haq bo'lsangiz bu yetarlicha yaxshi emas: siz to'g'ri sabablarga ko'ra haq bo'lishingiz kerak." [21;361] Roziy o'zining uslubini juda puxta, keng qamrovli ekanligini ta'kidlaydi va holisona baho beradigan bo'lsak, Roziyning asarlari qarama-qarshi maktab vakillarining (*madhab*) asarlaridagi g'oyalarga ko'proq foydali ekanligini isbotlaydi.

Roziy asarlariga tadbiq qilgan mukammal tahlil uslubi puxta tarkibiy strukturada namoyon bo'ladi. Bu struktura Roziy masala yoki muommo deb tariflagan qisqa savollar va bildirilgan fikrlardagi saralab olingan murakkab falsafiy va teologik masalalarni o'z ichiga oladi. "Ishoralar" ga Roziyning sharhida muommolar ba'zida bo'limlarning (*qism*) keng sarlavhasi ostida joylashgan. Bu muommolar qismlar (*fasl*) yoki nuqtai nazarlarga (*vajh*) bo'linishi mumkin lekin har doim ham bunday bo'lmaydi. Roziy esa bu tamoyildan ko'plab asarlarida foydalangan, ayniqsa Ibn Sino atayin mavhum qilib yozgan "Ishoratlar" ga sharhi bu tamoyilga mos tushadi. Shunday qilib Roziy bu asarning istehzoli va mavhum tiliga yashiringan argumentlarni tushunishga harakat qilganlar uchun yo'l xaritasini ishlab chiqqan edi.

Roziy o'zining jiddiy tanqid uslubiga qay darajada amal qilganligi uning postklassik Islom tarixidagi tutgan o'rnini qaytadan ko'rib chiqishni, baholashni talab qiladi. Ash'ariy g'oyalarini qabul qilishiga qaramasdan, Roziy qat'iy ravishda tanqidchilarning qarshiligiga uchragan. Ibn Sino va falsafiy an'analarning manfaatlarini ximoya qildi, Roziy Mas'udiyni Ibn Sinoga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lishini va "Ishoralar" ni yaxshiroq tushunishi uchun Ibn Sinoning boshqa asarlariga murojaat qilmaganligini qoralaydi. Roziy doimo Ibn Sino asarini Mas'udiy noto'g'ri o'qiganligini yoki noto'g'ri tushunganligini ta'kidlaydi. [16;303-304] Buning natijasida zamonaviy olimlar odatda Avitsennaizmning himoyachisi sifatida Nosiriddin Tusiyni ko'rsatadilar.

Roziy "Ishoralar" asarini o'ziga xosligi va qadr-qimmatini, shuningdek, uni o'qigan har bir kishi uchun qanday qiyinchilik tug'dirayotganligini aniq tushunadi. Roziyning "Javabat" asaridan ko'rinib turibdiki, Mas'udiy bu mashaqqatni yengib o'ta olmagan. Shu tariqa "Ishoralar va tanbehlarga sharh" nomli ikkinchi sharhni yozadi. Birinchisidan farqli o'laroq, bu ishoralarni tushuntirish yoki tanqid qilish uchun oldingi urunishlarga javoban yozilgan super sharh emas, aksincha Roziy Ibn Sino asariga bevosita murojaat qiladi. U o'z oldiga qo'ygan vazifaning muhimligi va ulkanligini quyidagicha tan olishdan boshlaydi:

ولما كان كتاب الإ شارات والتنبيهات من كتب: الشيخ الرئيس وان كان صغير الحجم إلا أنه كثير العلم عظيم الاسم مستعلق النظم مستصحت على الفهم مشنمل على العجنب العجاب منطبق على كام أولى الألباب متضمن للنكت العجيبة والفوائد الغريبة التي خلت عنها أكثر المنسوطات ولا توجد فى شيء من المطولات ورأبت أكثر الخلق مقيين على تحقيق معانه باحذين عن أسراره ومبانياه متفحصين عما فيه من الغوامض والمشكاتت متصفحين ما فيه من الفوائد والنكات ثم رأيت بعضهم يرجعون عنه بحفى حين وينصرفون إلى ما وراء هم بذون قرة عين وكنت قد صرقت طرفا صالحا من العمر إلى تتبع فصوصه وتفم نصوصة واستكشاف أسراه والتعمق في أغواره أردت أن أثبت تلك الفوائد إرشادا للطالبين إلى هذا المطلب الحظيم والمقصد الكريم قصرفت عنان العناية إلى تلخيص ذاك الشرح وترتبه.

“Buyuk ustozning (Ibn Sino) “Ishoralar va tanbehlar” kitobi kichik hajmli bo‘lishiga qaramasdan, ma’no-mazmunga to‘la, ajoyib nomli, tushunish qiyin bo‘lgan struktura, murakkab tushuniladigan mo‘jizalar mo‘jizasini qamrab olishi, yozuv tili ko‘ngilga yaqinligi, fikrlashga majbur qiladigan g‘alati, nozik kinoyalardan va o‘ziga xos fikrlardan iboratligi, ko‘plab misollar yetishmasligi va ularni hech qanday uzun asarda uchramasligi; va (shuning uchun) men ko‘plab odamlarni uning ma’nosini tekshirishga e’tibor berganligini, asarning siri va asosini o‘rganib chiqish, asarda mavjud bo‘lgan muommo va jumboqlarni tadqiq qilish va undagi foydali fikrlarni va nozik mulohazalarni diqqat bilan ko‘rib chiqishini ko‘rdim. Shundan keyin men ularning ba’zilarini bo‘sh qo‘l bilan qaytganini (hech narsaga erishmaganligini) ko‘rdim. Hech qanday tasalli bermasdan ularning e’tiborini keyingi narsaga qaratishga va hayotimning katta qismini undagi muhim fikrlarni davom ettirishga va mulohazalarni tushunishga, undagi sirlarni ochishga va asarning tub ma’nosini tushunishga bag‘ishladim. Mana shu buyuk izlanish va ezgu maqsad sari intilayotganlarga qo‘llanma sifatida men bu muhim, foydali mulohazalarga oydinlik kiritishni xohladim. Shunday qilib men bezovtalikni bir chetga surib (va bor kuchimni) ushbu sharhni ixcham qilish, uni tizimlashtirishga, bo‘limlarga bo‘lish va qayta ko‘rib chiqishga, shu bilan birgalikda zerikarlilikka yetaklaydigan ezmalik va lo‘ndalikka olib keladigan tushirib qoldirishga tomon yuzlanishga bag‘ishladim.” [16;305-306]

Roziy “Ishoralar”ni sharhlash orqali o‘ziga ulkan, mas’uliyatli vazifani o‘z bo‘yniga oladi va bu ishni muaffaqiyatli amalga oshiradi. U “Ishoralar”ni shakllantirib, uni bo‘limlarga bo‘lish rejasini bayon etar ekan, har biri bir nechta ko‘rsatma (*ishora*), eslatma (*tanbih*), tanbehlar (*tadnib*) va asossiz tahminlardan (*vahm*) tashkil topgan asarning 20 ta bobini mavzular (*mas’ala*), bo‘limlar (*fasl*) va qismlar (qism) ko‘rinishida bayon etishni joriy etadi. [11;22] Roziy sharhining tuzilishi o‘z davri nuqtai nazaridan juda innovatsion hisoblangan edi. Shu o‘rinda Shihadeh Roziyni

aporik va tafsir janrlarini birinchi bo‘lib yagona asarda birlashtirganligini ta’kidlaydi. [16;304]

Roziyning to‘liq tekshirilgan, mukammal sharhi uning “Ishoralar” dagi muommoli masalalarning xulosasidan darak bermaydi. Tahminan 1201-yilda o‘zining “Javabat” asarini tugatganidan 20 yil o‘tib, Roziy “Ishoralarning eng muhim jihatlari” (*Lubab al-Isharat*) deb nomlangan sharxni yozdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Nazarov Q. “O‘zbek falsafasi” – Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – bet 212.

2. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” – Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2021. – bet 464.

3. Axmedova M. A. Umumiy muharrirligi ostida “Falsafa” – Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – bet 496.

4. Isakdjanov R. Ibn Sino teologik ta’limotida gnoseologik tamoyillar. Fal. fan. b. falsafa dok. … diss. – T.: O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, 2017. – bet 143.

5. Ziyodov Sh., Muhammadiyev O. “O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlari ensiklopediyasi” – Samarqand.: Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2016. – bet 612.

6. Gutas D. Avicenna and the Aristotelian Tradition. Brill, Leiden. Boston, 2014. P 617

7. Пўлатова Д., Қодиров М., Аҳмедова М., Абдуҳалимов А., Шозамонов Ш. Шарқ фалсафаси ўқув қўлланма. –Тошкент.: «Jahon print», 2011. – bet 516.

8. Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури (ўрта асрлар) –Т.: ТДШИ, 2009. – bet 191.

9. Po‘latova, D., Jurayev, Sh. (2018). Ibn Sinoning “al-Ishorat va al-Tanbihot” asaridagi borliq muommasining kognetiv tahlili. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали, №4, 1-8.

10. Н. Наимов. Философские и логические воззрения Фахриддин Рази: Дисс. автореферат…канд.ф.наук, – Ташкент, Институт философии и права АН Уз ССР, 1971. С 30.

11. Rapoport A.M. “The life and afterlife of the rational soul: Chapter VIII-X of Ibn Sina’s Pointers and Reminders and their commentaries”. A dissertation presented to the faculty of the Graduate school of Yale university in Cand. for the degree of doctor of philosophy, 2018. p 500.

12. Peter Adamson. Philosophy in the Islamic world. A very short introduction. Oxford university press, 2015. p 133.

13. Frank Giffel. Herausgegeben von Ulrich Rudolph, Philosophie in der Islamischen welt, 11. und 12. jahrhundert: Zentrale und Östliche gebiete. Schwabe verlag, 2021. s 471-501.

14. M. Saghir Hasan Ma'sumi. "Imam Razi's Ilm al-akhlaq", New Delhi-110002. 1992. p 334.

15. Shihadeh A. (2015). "From al-Ghazali to al-Razi: 6th/12th Century Developments in Muslim Philosophical Theology. Arabic Sciences and Philosophy, 15 (1), 141 – 179.

16. Shihadeh A. (2016). Razı's (d. 1210) Commentary on Avicenna's Pointers: The Confluence of Exegesis and Aporetics in *The Oxford Handbook of Islamic Philosophy*, eds. K. El-Rouayheb and S. Schmidtke Oxford: Oxford University Press, 296-325.

17. Shihadeh A. (2013). A Post-Ghazalian Critic of Avicenna: Ibn Ghaylan al-Balkhı on the Materia Medica of the *Canon of Medicine*. *Journal of Islamic Studies,* 24, 135–174.

18. Shihadeh A. (2014). "Fakhr al-Dın al-Razı's Response to Sharaf al-Dın al-Mas'udı's Critical Commentary on Avicenna's Isharat". The Muslim world, volume 104, 1-60.

19. Shihadeh A. (2016). Doubts on Avicenna: A Study and Edition of Sharaf al-Din al-Mas'udi's Commentary on the Isharat. Islamic Philosophy, Theology and Science. Texts and Studies 95. Leiden, Boston: Brill, 2016. p 48.

20. Umarjonov, S. (2023). Ibn Sinoning "Ishoralar va tanbehlar" asari va Postklassik Islom falsafasining boshlanishi. Scienceproblems.Uz, 3(1), 37–50. https://doi.org/10.47390/1342V3I1Y2023N4

21. Wisnovsky, Robert. (2013). Avicennism and Exegetical Practice in the Early Commentaries on the Ishara. Oriens 41, no. 3-4, 349-78.

22. Umarjonov, S. (2022). Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy asarlarining qisqacha sharhi. Imom Buxoriy saboqlari, 1, 24-25.

Shohruh ISMOILOV
2-kurs magistranti, TDSHU

HAYOTNING MA'NOSINI BILISH – INSON BORLIG'INING BOSH MASALASI(MI?)

Annotatsiya: Bu tezisda komil inson tushunchasi, O'rta Osiyo olimlari, faylasuflari asarlaridagi komil inson g'oyalari bilan birgalikda, hozirgi global dunyoviy o'zgarishlarda barkamol insonni tarbiya qilish zarurati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: inson, Shekspir,Dostoyevskiy, oliy g'oya, bilim, halol yasash, nafs, hayotning maqsadi, Avraam Maslou, Krishnamurti, Hinduizm, Aristotel.

Ma'naviy madaniyatning mag'zini inson hayotining ma'nosi muammosini muayyan darajada yoritilishi tashkil etadi. Shu ma'noda hayotning ma'nosini to'g'ri anglash hamisha dolzarb muammo bo'lib kelgan. Zero bu dunyoda inson sha'niga munosib faqat bitta intilish bor, u ham bo'lsa dunyo va undagi o'z o'rnini, o'zining bu dunyoga qanday, nima uchun (qay maqsadda) kelganini, ya'ni hayotida yuksak ma'no va maqsad bormi yoki yo'qmi, agar bor bo'lsa bu nimadan iboratligi haqidagi haqiqatni bilishdir. Yer yuzida inson zotidan boshqa hech bir tirik jonning bunday muammo bilan ishi yo'q. Hech qaysi tirik mavjudot shu haqiqatni deb o'z jonidan ham voz kecha olmaydi. Shu ma'noda "insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'rin tutadi."[1]

Ko'pchilik bolalar endi shakllanayotgan o'smilik chog'laridayoq bu jumboqni yechishga qattiq qiziqadilar, bu haqidagi savollari bilan ota-onalarini yoki yoshi kattalarni juda dovdiratib qo'yadilar ham. Lekin kattalarning o'zlari ham bu masalaning aniq yechimini bilmaganlari uchun bolaga har xil qoniqarsiz javoblar berib, masalani jumboqligicha qoldiradidar. Masalan, kimdir hayotning ma'nosini o'z atrofdagi odamlar hurmatini qozonishda desa, boshqasi - vijdonni pok saqlab yashash bilan qanoatlanishda, uchinchisi - atrofdagi odamlarni o'ziga bo'ysundirishda, to'rtinchisi – boy badavlat bo'lib yashashda deydi va h.k. Umuman ko'pchilik kishilar hayotning ma'nosini inson o'z oldiga qo'yadigan turli maqsadlarni amalga oshirishida deb qaraydi. Lekin, inson o'z oldiga qanday maqsad qo'yishi kerakligining o'zi ham jumboq emasmi? Bu - bir

[1] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent.: Ma'naviyat. 2008. – B.19

kaltakning ikkinchi tomoni xolos. Inson hayoti esa abadiyatning juda kichik bo‘lakchasi bo‘lib, u juda tez o‘tib ketadi. Shuning uchun bu oraliqda inson iloji boricha o‘z hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygisi keladi. Lekin bu savolga javob topmasdan turib, bunga qanday erishish mumkin?

Vaholanki, bu eng murakkab muammo bo‘lib, bu haqida ne-ne donishmandlar bosh qotirishmagan. Xususan, Shekspir ham o‘z qahramoni Gamlet tilidan “Tirik qolmoq yo o‘lmoq” degan otashin monologda diqqatni ayni shu muammoga qaratadi. Buyuk mutafakkir Umar Hayyom ham:

Men tug‘ildim, gardun ko‘rdimi foyda,
O‘lsam, martabasin oshmog‘i qayda?
Hech kim tushuntirib bera olmaydi
Kelib-ketishimning ma’nosi qayda?! – deb savol beradi.

Mashhur rus yozuvchisi va ekzistensializm falsafasining asoschisi F.M.Dostoevskiy (1821- 1881) hayotning ma’nosini yoritib bera oladigan oliy g‘oyalar yetishmasligi tufayli inson o‘zini o‘ldirish darajasiga borib yetishi haqidagi fikri o‘zining barcha asarlari asosiga qo‘ygan edi.

Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, bir tomondan, kishi o‘z bilimlarida qancha yuksaklikka erishsa, hayotning ma’nosi muammosi masalasini yechish ham shuncha katta zaruratga aylanadi, ikkinchi tomondan, bu muammoni yechishda nafaqat oddiy, xatto yuksak ilmiy va falsafiy tafakkur ham yordam berishi tobora mushkullashib boradi. Insoniyatning eng ziyoli qatlami ayni shu tufayli kuchli iztirob chekkanlari ma’lum. Masalan, mashhur rus yozuvchisi L.N.Tolstoy (1828- 1910) 51 yoshida ayni shu masalada qoniqarli javob topa olmaganini anglab, keyingi 20 yil mobaynidagi hayotida shu maslaning javobini izlab chekkan azoblarini o‘zining falsafiy asari bo‘lmish “Iqrornoma”sida batafsil yoritgan. Shu yillar mobaynida u bir necha bor o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lgan. Yozuvchining tushuntirishicha, bu holat unda dinga bo‘lgan e’tiqodining so‘nishi oqibatida u o‘z hayotining ma’nosini yo‘qotgani tufayli yuz bergan edi. Ulug‘ yozuvchi hayotning ma’nosi masalasiga javobni aniq fanlardan ham, turli falsafiy ta’limotlardan ham astoyidil va uzoq izlab topa olmaganidan qattiq siqilib, o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lgan.

Umuman, har bir fikrlovchi inson ertami kechmi, hech bo‘lmaganda umrining so‘nggi damlarida ayni shunday holatni boshdan kechiradi, qattiq iztirob chekadi. U bu masala ustida ancha kechikib o‘ylab qolganidan badtar iztirobga tushadi albatta. Lekin bizning hozirgi global axborotlashgan, global sivilizatsiya va madaniyat krizisi hukm surayotgan davr yoshlari ongi juda tez ulg‘aymoqda. Shuning uchun ular hayotning ma’nosi xususida ancha erta va chuqur hayolga botmoqdalar.

Taniqli ruhshunos olimlar o‘z ishlarida ayni shu holatni tashvish bilan alohida qayd etmoqdalar. Masalan, shaxs psixologiyasi va psixoterapiyasi masalalari bo‘yicha jahonda tanilgan mutaxassis, amerika olimi V.Franklning[1] 360 ta universitetda 189 733 ta talaba bilan o‘tkazilgan savol-javoblariga asoslanib chiqargan xulosalariga ko‘ra hozirgi davrda hayotida sodir bo‘layotgan o‘z-o‘zini o‘ldirish, ichkilik, giyohvandlik, turli jinoyat va agressiv kayfiyatlar inson o‘z hayotining ma’nosini bila olmasligidan, ya’ni ekzistensial vakuumga tushib qolgani tufayli yuz berishini ko‘rsatdi. Amerika aholisi ruhiy salomatlik Milliy institutida qilingan hisobot ma’ruzalaridan birida ham 48 ta Oliy ta’lim yurti 7948 talabasidan olingan so‘rov javoblarida ulardan 78 foizi “o‘z hayotining ma’nosini bilish” istagini bildigani habar qilinadi. Sotsiologik tadqiqotlarda ham, masalan, K.V.Sherif tomonidan chiqarilgan xulosaga ko‘ra, sport o‘yinlari ham endi odamlarda tezlik bilan ortib borayotgan agressiyani yo‘qotishga bo‘lgan umidlarni oqlamadi.

Bizningcha, ushbu axborotda muhim bir fakt, ya’ni, jamiyatda to‘qlik, farovonlik, barcha qulayliklar hukm surib turgan esada, inson faqat o‘z tuban nafsini qondiradigan sharoit bilan qanoatlanib yashay olmasligi fakti ham borligini ko‘rishimiz joiz. Zero, oqil inson, ayniqsa musaffo yoshlik chog‘ida o‘z hayotining ma’nosini faqat boylik to‘plash, uni bir umr qo‘riqlab, asrab-avaylab yashash, keyin armon bilan uni tashlab ketishdangina ibrat emasligini tasavvur eta oladi. Majoziy ravishda aytsak, moddiyuchi fan va falsafaning dengiz bo‘yida qumdan yasagan qasrga o‘xshash sivilizatsiya idealini endilikda hayot dengizining kuchli to‘lqini yuvib ketdi.

Chindan ham, hozirgi davrda G‘arbda yuksak rivojlangan ishlab chiqarish tizimi ko‘pchilik fuqarolarining moddiy ehtiyojlarini osongina qondirib turgan bugungi sharoitda endi inson nimani deb yashashi kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Ezgulik, yaxshilik nimayu yovuzlik, yomonlik nima, turli ijtimoiy tizim modellarini baholash uchun asos bo‘ladigan mezonlar qanday bo‘lishi kerak kabi muammolar hozirgi davr yetuk kishisining ongida ham har qachongidan keskinroq ko‘ndalang bo‘lmoqda.

F.M.Dostoevskiy o‘zining “Aka-uka Karamazovlar” nomli asarida tushuntirganiday, “Inson borlig‘ining siri uning faqat yashay olish imkoniyatlarida emas, balki uning nima uchun yashashi kerakligidadir...”, “Agar inson nima uchun yashashi kerakligini bilmasa, u o‘zini halok qilishi turgan gap”, “shuningdek, nima uchun yashash kerakligi ideali albatta yalpi

[1] В.Франкл. Человек в поисках смысла. - Москва. “Прорессс”. 1990. – Б. 24 – 54.

umumiy (umumbashariy haqiqat) bo‘lishi kerak, bu esa etnosdan yuqori turuvchi ideal demakdir...”.

Nisbiylik nazariyasining asoschisi A. Eynshteyn “o‘z hayotini ma’nosiz (bema’ni) deb his etadigan (yoki bu ma’noni bila olmagan) kishi nafaqat baxtsiz, balki umuman yashashga noqobil bo‘ladi” degan edi. Hind mutafakkiri Krishnamurti esa “...agar siz jiddiy kishi bo‘lsangiz, vaholanki, kishi jiddiy bo‘lishi kerak, u holda siz o‘z hayotingiz ma’nosini izlab topishingiz zarur, aks holda siz butun borlig‘ingiz bilan, to‘la-to‘kis yashay olmaysiz ”, - deydi.[1]

Vaholanki, yuqoridagi savollarga qoniqarli javob bergan abadiyat haqidagi metafizik g‘oyalarga tayangan madaniyat va shunday madaniyat asosida gullab-yashnagan sivilizatsiyalar insoniyat tarixida mavjud bo‘lgan. Lekin keyinchalik bunday an’anaviy ta’limotlar o‘rnini dunyoviy moddiyunchi ilm va falsafiy g‘oyalar egalladi. Endilikda esa ular tanazzulga uchrab, kishilik jamiyatining hozirgi inqirozini keltirib chiqardi.

Hayotning maqsadi - asrlar davomida insoniyatni o‘ylantirib kelayotgan savol. Faylasuflar, ilohiyotchilar, olimlar va boshqa ko‘plab odamlar inson mavjudligining yakuniy ma'nosi va maqsadini tushunishga va aniqlashga harakat qilishdi. Ba’zilar hayotning maqsadi - baxtni izlash, boshqalari - bu o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, va boshqalar - bu yuqori kuchga xizmat qilish yoki ma’lum bir diniy yoki axloqiy tamoyillarga amal qilishdir. Oxir oqibat, hayotning maqsadi har bir shaxs uchun har xil bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsiy va subyektiv tushunchadir.

Hayotning maqsadi haqidagi eng qadimgi va eng keng tarqalgan dalillardan biri bu baxtga intilishdir. Bu g‘oyani Aristotel kabi qadimgi yunon faylasuflari bilan bog‘lash mumkin, ular inson mavjudligining yakuniy maqsadi “baxt” yoki “gullash” degan ma’noni anglatuvchi eudaimoniyaga erishishdir, deb hisoblaganlar. Aristotel eudaimoniyaga mardlik, donolik, adolat kabi fazilatlarni amalda qo‘llash orqali erishiladi va bu inson mavjudligining oliy maqsadi, deb hisoblagan. Bu fikr tarix davomida boshqa ko‘plab faylasuflar va mutafakkirlar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, hayotning maqsadi baxt va rohat izlash ekanligini ta’kidlagan.

Hayotning maqsadiga oid yana bir mashhur dalil - bu o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdir. Bu g‘oya har bir shaxsning o‘ziga xos iste'dod va qobiliyatlari borligiga ishonchga asoslanadi, ularni rivojlantirish va muvaffaqiyatga erishish va amalga oshirish uchun foydalanish mumkin. Ushbu g‘oya ko‘pincha psixolog Avraam Maslou tomonidan

[1] Кришнамурти Джидду. Первая и последняя свобода. - Харьков. “Весть”. 1994.- Б. 358

ommalashtirilgan o‘z-o‘zini amalga oshirish kontseptsiyasi bilan bog‘liq. Maslou o‘z-o‘zini namoyon qilish inson mavjudligining yakuniy maqsadi va unga o‘z-o‘zini anglash va shaxsiy o‘sishga intilish orqali erishish mumkin deb hisoblardi.

Ko‘pgina dinlar ham hayotning maqsadi haqida tushuncha beradi. Masalan, yahudiy-xristianlik an'analarida hayotning maqsadi Xudoga sajda qilish va unga xizmat qilish va imon amrlari va ta'limotlariga amal qilishdir. Buddizmda asosiy maqsad ma'rifatga erishish va qayta tug‘ilish siklidan xalos bo‘lishdir. Hinduizmda hayotning maqsadi reenkarnasyon siklidan xalos bo‘lish va yakuniy haqiqat bilan birlashishdir.

Ushbu an’anaviy e'tiqodlarga qo‘shimcha ravishda, ba'zilar hayotning maqsadi oliy maqsadga xizmat qilish yoki katta yaxshilikka hissa qo‘shishdir. Bu g‘oya ko‘pincha altruizm konseptsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu odamlar boshqalarga yordam berish va jamiyatning katta farovonligi yo‘lida xizmat uchun axloqiy majburiyatga ega ekanligiga ishonishdir. Bu g‘oya ko‘pincha insonparvarlik va ijtimoiy adolat harakati bilan bog‘liq bo‘lib, ular hayotning maqsadi boshqalarning hayotini yaxshilash va dunyoni yaxshiroq joyga aylantirishdir.

Oxir oqibat, hayotning maqsadi har bir shaxs uchun har xil bo‘lishi mumkin bo‘lgan chuqur shaxsiy va subyektiv tushunchadir. Ba'zilar baxtga intilishda maqsad topishlari mumkin, boshqalari buni o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda, boshqalari esa buni yuqori kuchga xizmat qilish yoki katta manfaatlar yo‘lida ishlashda topishlari mumkin. Hayotning maqsadi haqida kimning e’tiqodi bo‘lishidan qat’i nazar, har bir inson to‘laqonli va qoniqarli hayot kechirishi uchun o‘z mazmuni va maqsadini topishi muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hayotning maqsadi - tarix davomida faylasuflar, ilohiyotchilar, olimlar va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan muhokama qilingan murakkab va juda bahsli mavzu. Inson mavjudligining yakuniy ma’nosi va maqsadi haqida juda ko‘p turli xil g‘oyalar va e'tiqodlar mavjud. Ba’zilar hayotning maqsadi - baxtni izlash, boshqalari - bu o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, va boshqalar - bu yuqori kuchga xizmat qilish yoki ma’lum bir diniy yoki axloqiy tamoyillarga amal qilishdir. Oxir oqibat, hayotning maqsadi har bir shaxs uchun har xil bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsiy va sub'ektiv tushunchadir. Har bir inson hayotini to‘laqonli va qoniqarli o‘tkazish uchun o‘ziga xos ma'no va maqsadni topishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Abilov O‘. Milliy g‘oya, ma’naviy omillar. – T.: Ma’naviyat, 1999.
2. Boboyev X, Y. G‘ofurov 3. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.
3. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi. T., O‘zbekiston,1996.
4. Sa’dullayev D. Iymondan ayrilgan baxtli bo‘lmas. Muloqot, № 2.
5. Bozorov O. Xudoyqulov A. Axloqiy qadriyatlar va islom. S., 1997.
6. Jakbarov M. Komil inson g‘oyasining tarixiy-falsafiy negizlari – T.:Tafakkur, 2011.

Mirzo ZOKIROV
1-kurs magistranti, TDSHU

MIRZO BEDIL FALSAFASIDA KOMIL INSON G‘OYASI

Annotatsiya: maqolada mutafakkir Mirzo Bedil falsafasida komil inson qarashlarni o‘rganish dolzarb mavzulardan biri ekanligi, olim asarlarida axloqiy va komil inson qarashlarning o‘ziga xosligi haqidagi falsafiy mohiyatiga bog‘liq muammolariga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: axloq falsafasi, sabr, yaxshilik, yomonlik, ezgulik, vatanparvarlik, muloyimlik, donolik.

Kirish. O‘sib kelayotgan yosh avlodni ota-bobolarimizdan qolgan axloqiy ma’naviy va diniy falsafiy meroslardan foydalangan holda tarbiyalash, unutilgan odatlar va qadriyatlarni zamonaviy metodlar yordamida dars jarayonlariga kiritish natijasida milliylik hamda o‘zlikni saqlab qolgan axloqan va ma’nan yetuk komil avlodlarni tarbiyalash uchun har tomonlama chuqur tahlil bilan yechim topishdir. Darhaqiqat yozuvchi va shoirlarni inson ruhiyating injinerlari deyishadi. Odam bolasining inson bo‘lib shakllanishida, uning qalbida pokiza iymon va e’tiqod, insonparvarlik, yurtsevarlik, adolat, shafqat va muhabbat, o‘zgalar dardi bilan yashash singari ezgu tushuncha va tuyg‘ular barq urushida - bu nafis san’atning o‘rni va ahamiyati beqiyos, almashtirib bo‘lmasdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “Farzandlarimizni ota - bobolarimizning shonli an’analari ruhida, bugungi dunyoning shaxs kamolotiga xizmat qiladigan yutuqlar asosida tarbiyalashda kitobning rolini boshqa narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi”. Shunday ekan har bir adabiy asar

insonning ma’nan va axloqan yetuk bo`lishiga xizmat qiladi. Ozod va obod Vatan hamda erkin fuqarolik jamiyatini sog‘lom va barkamol insonlargina yarata oladi. Shuning uchun ham barkamol avlod tarbiyasi davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, komil inson g‘oyasini buyuk faylasuf Mirzo Bedil falsafasi nuqtai nazari asosida tadqiq etishda ham o‘ziga yarasha mahno va mazmun mujassamdir. Zero, ushbu g‘oya o‘zining falsafiy asosi hamda tarixiy ildizlari bilan bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir. Faylasuf-shoir “Men nafasla tor-mor etmoqchiman” deganda, bevosita ilmiy-ma’naviy yuksaklik, Allohni anglash holatlari nazarda tutilgan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas. Mirzo Bedil olamning sir-sinoatini bilishda, jumboqlar iskanjasini yengishda komillikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. U komil insonning xislatlarini odamlardan izlaydi, insonni o‘zini anglashga dahvat etadi. Bedil ushbu g‘oyani ilgari surishda mutasavviflarning o‘z-o‘zini anglash g‘oyasiga tayangan holda quyidagi fikrni ilgari suradi: Inson o‘zini bo‘lgani kabi ko‘rsatsin, Yo ko‘rsatgani kabi bo‘lsin. Inson qanday bo‘lsa shu holda, o‘zini bo‘yamay ko‘rsatishga yetishish uchun o‘z borlig‘ini to‘g‘ri tasavvur etishi, insoniy mohiyatini tushunib yetishi lozim. Bedil odamlarning ichki dunyosi uning tashqi qiyofasi bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishiga urg‘u berib, dil bilan til, qalb bilan qiyofa birligini saqlashga undaydi. Bu bilan mutafakkir insonni takabburlik va munofiqlikdan voz kechishga chaqiradi. Agar inson o‘zining kim ekanligini to‘g‘ri fahmlay bilmasa, turmushda o‘zining har bir qadamini tahlil etib yashashdan ojiz qolsa, uning dunyoni tushunishi amri maholdir. O‘z holini anglamagan, qalbida kechgan botiniy tuyg‘uni boshqara olmaydigan kishi o‘zgalarni to‘g‘ri anglab, borliq mohiyati haqida haqqoniy fikr yuritishga qodir bo‘la olmaydi. Inson o‘zining salbiy jihatlarini idrok eta olgandagina, haqiqatga yaqinlashishi mumkin, haqqa yaqinlashmoq esa, inson borlig‘ining azaliy murodlaridandir. Bedil tomonidan ilgari surilgan o‘z-o‘zini anglash g‘oyasi Aziziddin Nasafiyning komil inson to‘g‘risida aytgan fikrlariga ham monand keladi. Masalan, “Kimki o‘zini anglagan, o‘zini tanigan bo‘lsa, o‘z Rabbini anglaydi va taniydi. O‘zini tanigan kishi - ulug‘ olam (olami kabir)ni ham anglaydi. Shuning uchun barcha kuchni o‘z-o‘zini anglashga sarflashi lozim”[1] - deydi Aziziddin Nasafiy.

Asosiy qism. Mirzo Bedil inson tabiatini tahlil qilar ekan, uni doimo izlanuvchanlikka moyil ekanini ta'kidlaydi. Faylasufning yuqoridagi fikri, mutasavvuf Aziziddin Nasafiy tomonidan ilgari surilgan, odamzod ham safardadir va o‘z mohiyatiga erishmaguncha tinmay harakat qiladi, (agar shunday qilmasa) u o‘zini ham tanimaydi, ham xulq bilan bezanib kamolot

[1] Aziziddin Nasafiy. “Al — inson al — komil” (“Komil inson”) 208 b.

kasb etmaydi, degan fikriga nihoyatda yaqindir. Umuman, musulmon sharqi mutafakkirlarining asarlarini ilmiy tahlil qiladigan bo‘lsak, insonni o‘z-o‘zini anglashi, axloqiy va ma’naviy yuksakligi kamolotning bosh mezoni sifatida qaraladi. Mirzo Bedil komil insonning xislatlarini yerdagi odamlardan izlaydi, insonni o‘zini tanishga, buyukligini anglashga dahvat etadi. Uning ta’kidlashicha, insonda nafaqat ikki dunyoning asrori mujassam, balki u ikki dunyodan ulug‘roqdir. Bedil ilgari surgan g‘oyada olamning yagona ruh tajalliysi orqali boshqarilishi, har bir zarrada shu mutlaq javharning zuhuri borligi tahkidlanadi. Bedil “Muhiti ahzam” (Buyuk uq-yonus) nomli asarida olamning yaratilishini mayning ko‘pirishi bilan qiyoslaydi, may bu o‘rinda ilohiy tajalliy - nuri Mutlaq bo‘lib, olamning harakati, jamoli shundan, deydi u. Odamlarning tinib-tinmas hayoti, orzu-armonlari, fikr-ijodlari ham shu maydandir. Bu may go‘yo bir olov, u kishini hamisha mast etib, o‘z asli-rabbiga tortaveradi. Butun olam - yagona ruhning ijodi. O‘sha tufayli mavjud va o‘shanga qaytadi. Inson ruhi ham olovdir. U jismni yondirib kul qilmaguncha tinchimaydi. Yor vujudi kul bo‘lmaguncha tinchimaydi, yo‘qlik sari intilish surhati ana shunday. Mirzo Bedil inson komilligini tahlil etishda, boshqa tasavvuf shoirlariga yaqin turadi. Shuni alohida tahkidlash lozimki, Bedil ilgari surgan tahlimotda har bir inson kamolot sari intilishi lozim, biroq komillikka erishish oson emasligi, bu yo‘lda nihoyatda sabr-bardoshli, qathiyatli bo‘lishlikka alohida e’tiborni qaratadi. Faylasuf-shoir uni quyidagicha tavsif etadi: Inson koinotning kichraytirilgan nusxasi, insonda barcha ilohiy va moddiy olamlarning xislati jamul jam. Inson shuni anglashi va o‘z ruhi - ilohiy javharni poklab, asl maqomiga qaytishi lozim. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri - komil inson g‘oyasi ekanligi buning dalilidir. Ya’ni, mafkuramizning asosiy maqsadlaridan biri - har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Komil inson g‘oyasini milliy istiqloldan ajratib bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, komil insonning mohiyati, avvalo jamiyatni barkamol qilish yo‘lidagi sahy-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Jamiyatning umumiy rivojiga, insoniyat sivilizatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi komillik mezoni, shaxsning barkamolligi orqali jamiyatni baxt-saodatli qilishdan iborat bo‘lib kelgan. Insondagi komillik, eng avvalo, uning fikr, tafakkur va amaliy faoliyat erkinligini anglashidadir. Inson kamolotida jismoniy va ma’naviy go‘zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog‘lom bo‘lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Komillikning yana bir jihati vatanga, millatga, elu-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Komillik insoniy fazilatlarning uyg‘unligini ifodalaydi. Kishining ichki va tashqi dunyosi, sog‘lom fikr va oqilona so‘zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo‘lishi komillikning mezonlaridir.

Ma’naviy barkamol, komil insonlargina insoniyat olamini asrab, uni jaholat botqog‘idan olib chiqishi muqarrar ekanligini ilm-fan yana bir bor isbotlamoqda. Umuman, Mirzo Bedil insonning kamoloti haqida fikr yuritganida, insonning vujudidagi jismoniy, aqliy va ilohiy mohiyatning bir butun mavjudligi, uning komilligiga asos bo‘lishini isbotlashga harakat qiladi. Insonni sevish, ruhni poklash, tahlim-tarbiya kabi axloqiy tushunchalar inson kamolotining mezoni sifatida qaraladi. Bedil dunyoqarashidagi axloqiy qadriyatlar umumlashgan holda komil insonni aks ettiradi. Mirzo Bedil tomonidan ilgari surilgan komil inson – bu ilohiy muhabbatni qalbiga jo etgan, o‘zini va borliqni anglagan, inson qalbini “Allohning uyi”, deb bilib, insonni sevgan va qadrlagan, olamni ma’naviyat, mahrifat nuri bilan bezashga intilgan, axloqiy qadriyatlarni va umuman jismoniy, aqliy, ruhiy mohiyatni o‘zida mujassam etgan insondir.

Xulosa. Mirzo Bedilning komil inson borasidagi g‘oyalarini umumlashtirib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Birinchidan, insonning o‘zligini anglashi, o‘zini boricha yo ko‘rsatgani kabi bo‘lishi yoki bo‘lganikabi ko‘rsatishi insonning kamoloti yo‘lidagi dastlabki qadamdir.

Ikkinchidan, insonning jismoniy, aqliy va ruhiy mohiyatining uyg‘unligi, inson kamolotini tahminlovchi asosiy omillardir. Chunki jismonan sog‘lom va baquvvat, aqlan yetuk va barkamol, mustaqil dunyoqarashga ega, ijtimoiy munosabatlarda faol, shuningdek, ma’naviy-ruhiy jihatdan kamol to‘gan, ehtiqodi mustahkam, yot va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi turib, insoniyat taraqqiyoti, ma’naviy kamoloti uchun o‘zini mashuliyatli his etish, komil inson qiyofasining asosiy namunasi sanaladi.

Uchinchidan, faylasuf-shoir Mirzo Bedil ilgari surgan komil inson g‘oyasi insonni komillik sari intilishida, yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda, hozirgi vaqtda ham o‘z tarbiyaviy kuchini yo‘qotmagan o‘lmas ezgu g‘oyadir. Bu g‘oya jamiyatda, kishilararo munosabatda ro‘y berayotgan salbiy illatlar va odamiylikka zid xatti-harakatlarga qarshi kurashda, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarni birlik va hamjihat bo‘lib yashashida, milliy g‘oya va ma’naviyatni yoshlar ongiga singdirishda albatta katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ushbu g‘oya milliy istiqlol g‘oyasini xalq ongiga singdirishda,ma’naviyat rivojida bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo’lida yanada hamjihat bo’lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik – Xalq so’zi, 2017 yil, 16 iyun.
2. Мухаммадиева О. Мирзо Абдуқодир Бедилнинг ижтимоий ахлоқий қарашлари. – Тошкент, Фан ва технология, 2010, - 6
3. Bedil. Chor unsur. Tahiyai Rahimi Bobobek// Sadoyi Sharq. - 2007.- № 9-12.- 2008.- № 1-5
4. Ayniy S. Tanlangan ilmiy asarlar. Mirzo Bedil. – T.: “Fan”, 1978.
5. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: “O‘qituvchi”, 1992.
6. Alisher Navoiy she’riyatidan. (“Chor devon”dan tuzuvchi. Sh. Shomuxamedov) – T.: “O‘zbekiston”. 1977.
7. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – T.: F.Fulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti. 1983.
8. Aziziddin Nasafiy. “Al — inson al — komil” (“Komil inson”) 208 b.

Farida IBODOVA
2-kurs magistrant, TDSHU

SHRI AUROBINDO GHOSH. INSON VA EVOLUTSIYA

Annotatsiya: Shri Aurobindo Ghosh inson ongi bilan bog‘liq ko‘plab nazariyalarni ilgari surdi. Xususan, u ong evolutsiyasi, inson ongi va inson evolutsiyasi haqida o‘zining qarashlarini bayon qildi. Uning nazariya va ilmdagi xissasi hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan ko‘plab olim va faylasuflar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Shuni inobatga olgan holda, ushbu maqolada Ghoshning inson va uning evolutsiyasi haqidagi nazariyasini yoritib berishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: inson ongi, ong evolutsiyasi, kosmik ong, spiritual ong, materiya, davomiylik sikli, inertsiya, instinkt.

Aurobindo Ghosh XX asrning birinchi yarmi mutafakkirlari orasida muhim shaxs bo‘lib, uning ijodiy taqdiri, falsafiy va madaniy merosi zamonaviy insoniyat taraqqiyotining murakkab, ko‘pincha qarama-qarshi tendentsiyalarini aks ettirgan. Aurobindoning falsafa va ma’naviy fikrga qo‘shgan ulkan hissasi dunyo miqyosida tan olindi. Shu bilan birga u o‘zining inson hodisasini anglash ko‘lami, istiqbollari haqidagi tasavvurlari

bilan ajralib turadi. Uning antropologiyasi bugungi kunda inson hayotini belgilab beruvchi globalizm, gumanizm va bag‘rikenglik g‘oyalariga mos keladi. Asrimizning ma’naviy gigantlaridan biri hisoblangan barcha yoshdagilar kabi bizning dunyomizga qo‘shgan hissasi Hindistonning Alipor qamoqxonasida boshlangan isyondir. Keyinchalik Shri Aurobindo tezda o‘z o‘zini anglash cho‘qqisiga chiqadi. Uning yutuqlarining chuqurligi va keng qamrovliligi haqiqatdan ham ajoyib edi. Bu Shri Aurobindoning asosiy asari nomiga o‘xshab, oliy yakuniy voqeilikni o‘rganish va inson hayotini “Ilohiy hayotga” aylantirishga qaratilgan zamonaviy, ruhiy urinishlarining eng yuqori nuqtasi edi. Uning hayoti va ta’limotlari bizning davrimizga juda mos keladigan o‘z-o‘zini o‘zgartirish usulini taklif qiladi. Alipordagi tajribasidan keyin Shri Aurobindo inson kamolotiga faqat butun dunyo ongini tubdan o‘zgartirgandan so‘ng erishish mumkinligini his qildi. Bu butun mavjudotning birligini ta’minlaydigan o‘zgartirish, bu o‘ziga tegadigan barcha alohida shakillarda namoyon bo‘ladi. Bunga erishish uchun Shri Aurobindo o‘zining o‘zgarish yogasini yaratdi. Bundan tashqari Aurobindo Ghoshning falsafasida inson muammosiga e’tibor kuchayadi. Bu odamni anglashga urinishlarda, bunday tushunishning yangi usullarini ishlab chiqishda, ushbu mavzuga yaxlit yondashuvni izlashda ifodalanadi. G‘arb falsafasida ham uning mohiyatini tobora yangi talqinda ishlab chiqildi. Ghoshning inson va uning evoluysiyas uchun qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Uning bu nazariyadagi qarashlari xaligacha o‘qib, o‘rganilib kelinadi va o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Barcha mavjudotlardagi yagona sir – Xudo. U hamma narsani qamrab oluvchi,barchaning ichidagi ruhi,barcha harakatlarga rahbarlik qiluvchi, guvoh, ongli biluvchi va mutlaq... Tabatga nisbatan kuchsiz bo‘lgan ko‘pchilik ustidan nazorat qiluvchi va ko‘p urug‘larni birlashtiruvchi yagona modda[1].

Ghosh Evolutsiya to‘g‘risidagi qarashlarida asosan ong evolutsiysi haqida gapiradi. Uning fikricha, o‘zining yashirin ongini tobora ko‘proq namoyon qilish har bir hayot ustidan g‘alaba qozonish uchun bir qadamdir. Aqliy evolutsiya materiyadagi ongning doimiy rivojlanib boradigan o‘z-o‘zini shakllantirishdagi evolutsiyadir. Materiya ichida ongning yanada ko‘proq rivojlanishi bilan, oxir oqibat materiyaning o‘zi ruhning to‘liq namoyon bo‘lish vositasiga aylanadi. Avvaliga u o‘zini butunlay behush ko‘rinishida materiya shakllarida joylashadi. So‘ngra tirik materiya qiyofasida mentalitettga intiladi va ongli hayvonga qaraganda nomukammalroq darajaga erishadi. Bu ong dastlab ibtidoiy asosan yarim

[1] Sri Aurobindo. The hour of God. Selection from his writings. Manoj Das. 2010. – P. 11.

ongsiz yoki shunchaki ongli instinktdir. U sekin rivojlanadi tirik materiyada yanada uyushadi va aqlining cho‘qqisiga yetib, fikrlaydigan aqliy mavjudotga aylanadi. Biroq o‘zining eng yuqori aqliy cho‘qqisiga chiqqanda ham o‘zi bilan birga hayvonlik qolipini olib yuradi. Tana vijdonsizligini ko‘taraolmaslik, tortishishning dastlabki inertsiyasi, nodonlik tomon pastga tortilish,ongli evolutsiya ustidan moddiy tabiatning nazorati va uning chegaralanish kuchi, qiyin rivojlanish qonunlari, uning orqada qolishi va umidsizlikka olib keladigan ulkan kuchlar ularda johillikni namoyon qiladi. Unda paydo bo‘lgan ong dastlab vijdon tomonidan nazorat qilinsa ham lekin uning asosiy tabiati johillikdir. Shunday qilib, to‘siq va yuklarga qaramay aqliy inson o‘zidan xali ham to‘liq ongli mavjudotni ilohiy erkaklik yoki evolutsiyaning keyingi maxsuli bo‘lgan ruhiy va yuqori insoniylikni rivojlantirishi kerak. Bu o‘tish joxiliyatdagi evolutsiyadan ilmdagi buyukroq evolutsiyaga o‘tishni belgilab beradi. Endi unda vijdon nuri johillik ustidan g‘alaba qozonishi kerak. Tabiatning materiyadan ongga va ongdan tashqaridagi evolutsion harakati ikki tomonlama jarayonga ega. Tananing xar bir rivojlangan shakli uchun o‘ziga xos rivojlangan ong kuchi saqlanib qolinadi va irsiyat bo‘yicha davomiylik siklini davom ettiradi. Shu bilan birga shakl va ongning mexanizmi sifatida yuksalish darajasiga qayta tug‘ulish kabi ko‘rinmas evolutsiya jarayoni mavjud. Birinchisi o‘z-o‘zidan faqat kosmik evolutsiyani anglatadi[1]. Chunki shaxs bu tezda yo‘q bo‘lib ketadigan vosita bo‘lib, kosmik evolutsiya esa yanada mustahkamroq jamoaviy shakl, kosmik yashovchi,umuminsoniy ruhning progressiv nomoyon bo‘lishining haqiqiy bosqichi va qayta tug‘ilish uzoq davom etishining ajralmas shartidir. Yerdagi mavjudotning individual evolutsiyasidir. Kosmik evolutsiya namoyon bo‘lishning har bir darajasi o‘zida mujassamlashtiraoladigan shaklning har bir turi qayta tug‘ilish orqali o‘zi uchun o‘zi vositaga aylanadi. Biroq evolutsion harakatning cho‘qqisiga erishish uchun hech qanday sabab yo‘q. Biz yaratilish tamoyillarini doimiy va o‘zgarmas ekanligini ko‘ramiz. Mavjudlikning har bir turi o‘zida qoladi va boshqa bo‘lishga harakat qilmaydi. Borliqning ba’zi turlari bor bo‘lib boshqalari yo‘q bo‘ladi chunki,oinotdagi ong kuch o‘zining hayot zavqini nobud bo‘lganlardan tortib olib,boshqalarni yaratishga sarflaydi. Ammo hayotning har bir turi u davom etar ekan, alohida o‘ziga xoslikka egadir. U o‘z ongiga bog‘langan va undan boshqa onga o‘ta olmaydi, o‘z tabiati bilan chegaralangan bo‘ladi. Insondagi ong kuchi ong va materiyani namoyon qilgandan keyin, keyingi yerdagi yaratilish sifatida super ongni yaratilish uchun asos bo‘la olmaydi, chunki aql

[1] Аурoбиндо Шри. Техника медитации в системе интегральной йоги. Йогическая садхана. - Киев., 1992. – С.95.

va super ong alohida tushunchalardir. Aql jaholatning pastki maqomiga, super ong esa ilohiy bilimning yuqori maqomiga kiradi. Bu dunyo johiliyat olamidir va faqat shu uchun mo‘ljallangan. Agar inson o‘z evolutsiyasida uzoqroqqa borishga harakat qilsa, u faqat o‘z ong chegaralaridagina aylanadi, chunki inson aqli o‘z aylanishlarida yuradi va xar doim boshlangan nuqtaga qaytib keladi. U o‘z siklidan tashqariga chiqaolmaydi. Cheksiz to‘g‘ri harakat chizig‘i yoki cheksiz yuqoriga yoki cheksiz chekka tomonga bo‘lgan taraqqiyot haqidagi barcha g‘oyalar yolg‘ondir. Agar insonning ruhi insoniylikdan tashqariga chiqib, yo oliy yoki undan yuqori maqomga erishmoqchi bo‘lsa u kosmik borliqdan chiqib, saodat yoki ilm dunyosiga yoki noaniq abadiy cheksizlikka o‘tishi kerak[1].

Avvalambor, evolutsiyani insoniyatning o‘zi o‘zining maqsad va xohishlari uchun yaratadi. Uning fikricha bugungi kunda evolutsiyaning yarmi insonlar tomonidan yaratilgan, ammo uning ilmiy asoslanmaganligi va yer yuzidagi mavjudlikning ochiqcha tushuntirishda ojiz ekanligi sabab qilib e’tirozlar bildirilmoqda. Biroq inson evolutsiyasi hozirgi darajasidan ancha uzoqroqga va supermental evolutsiya darajasiga erishishi mumkin edi, agarda insonlar o‘z onglarini yer yuzidagi jaxolatga qarshi kurashishda asosiy vosita ekanligiga shubha bilan qaramaganlarida. Yaratilish ya’ni, evolutsiya bir paytda abadiyatning bir ko‘rinishi ekanligini, ongning yetti darajasi borligini, ruhning qayta ko‘tarilishi va uning keyingi hayotidagi o‘rnini belgilash mezoni sifatida moddiy vijdon qo‘yilganligi va qayta tug‘ilish haqiqat ekanligini tan olishdir. Yaratilgan har bir narsa ochiq oydin ilohiy mavjudlikning bir shaklidir, ularning har biri tabiatdagi tashqi ko‘rinishi, qiyofasi va xarakteridan qat’iy nazar ular ilohoydir[2]. Ular xar bir ko‘rinishda ilohiylik zavqini oladi va xar bir jism o‘zini o‘zgartirishga va hattoki taraqqiyotga erishishga ham ehtiyoj sezishmaydi. Ular xudo tomonidan qanday yaratilgan va tartiblangan bo‘lsa shu ko‘rinishda qoladi, chunki tabiatdagi xar bir narsa xudo tomonidan o‘zgaruvchanlik, ong turlari va boshqa narsalar bilan yetarli darajada ta’minlangandir. Aurobindo Ghosh odamda ancha chuqur va kuchli ichki ong mavjud deydi. U odamni aql, hayot materiyaning dunyo darajalari bilan bog‘laydi. Shu bilan birga insonda tashqi ong ham bor. Tashqi ong tanasi uning sezgi va shaxsiy ongi bilan cheklanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Ghosh inson evolutsion jarayonlarida birinchi o‘ringa materiyani qo‘yadi. Dastlab materiyada u jonsiz ko‘rinishda

---

[1] Величенко А. Е. Эволюция религиозно – философских взглядов Ауробиндо Гхоша. Диссертация насоискание ученой степени кандидата философских наук. - Санкт - Петербург. 1999. - С.113.

[2] Sri Aurobindo, The life divine, Pandishery. - Deliu, 1955. – P.86.

bo‘lib,hayotga aylanadi, undan aql darajasiga chiqadi. Yanada takomillashsa u supermind (super ong)ga yetadi va o‘ta rivolangan sikli bu baxt ong kuchidir. Biroq kamdan kam insonlar baxt ong kuchiga yetib keladilar va hatto kelmaydilar ham. Ular ba’zilari superong darajasigacha kela oladilar qolganlari esa aql yoki hayot tarzida qolib, yana nobud bo‘ladilar. Ghoshning evolutsiya to‘g‘risidagi ta’limotini ketma ketlikda joylashtiradigan bo‘lsak;

Materiya; hayot; aql; super ong; baxt ong kuchi ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shu ketma ketlik darajasida inson yaratiladi va boshqalari yaratilishi uchun halok bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Аурoбиндо Шри. Техника медитации в системе интегральной йоги. Йогическая садхана. - Киев., 1992. – С.150.
2. Величенко А. Е. Эволюция религиозно – философских взглядов Аурoбиндо Гхоша. Диссертация насоискание ученой степени кандидата философских наук. - Санкт - Петербург. 1999. - С.143.
3. Emile, Redeau. Teilhard de Chardin- A Guide to His Thought (Translated by Rene Hague), Collins. -London, 1967. – P. 104.
4. Sri Aurobindo. The hour of God. Selection from his writings. Manoj Das. 2010. – P. 78
5. Sri Aurobindo, The life divine, Pandishery. - Deliu, 1955. – P.149.

Abror ABDUSALIMOV

2-kurs magistranti, TDSHU

DIN SVAMI VIVEKANANDA TALQINIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada Svami Vivekanandaning din haqidagi fikrlari, uning amaliy ahamiyati, uning shaxs va jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqidagi fikrlari bilan qisqacha tanishtirib o‘tiladi. Maqolada shuningdek o‘sha davrdagi hind jamiyatidagi ijtimoiy ahvol, diniy sharoit haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Svami Vivekananda, din, ehtimoliy ilohiylik, bhoga (lazzatlanish), yoga (o‘zini tiyish), payg‘ambarlik, Budda, Muhammad, Iso Masih, Kurma (toshbaqa), Mayya, Leviafan, Shri Ramakrishna.

Svami Vivekananda o‘zini faylasuf yoki ilohiyotchi emas, balki birinchi navbatda o‘qimishli rohib, diniy islohotchi va missioner deb hisoblardi. Ammo u hech qachon xurofotchi bo‘lmagan. Hissiyotni jumbushga keltiradigan notiq va iqtidorli yozuvchi bo‘lib, u o‘z fikrlarini tinglovchilarning xatti-harakati va qarashlarini o‘zgartirish maqsadida ularga mos keladigan tarzda aniq bayon qilgan. Bu maqsadga erishish uchun u samarali munozara va soddalashtirilgan nutqlardan foydalanar edi.

Svami Vivekanandaning fikricha, din insonda azaldan mavjud bo‘lgan ilohiylikning namoyon bo‘lishidir. Shuningdek uning fikricha, “din maxluqni insonga, insonni esa Xudoga ko‘taradigan mohiyatdir” [1]. Svami Vivekanandaning fikricha, tajriba bilimning eng yaxshi manbaidir. Kimyo yoki biologiya sohalarini o‘rganmoqchi bo‘lgan talaba ushbu fanlar oid kitoblarni o‘qiydi, xuddi shu singari, agar kimdir dinni o‘rganmoqchi bo‘lsa, u o‘z aqli va qalbini tushunishi kerak, deb ta’kidlaydi. “Kimyo va boshqa tabiiy fanlar fizik dunyo haqiqatlari bilan shug‘ullangani kabi, din ham metafizik dunyo haqiqatlari bilan shug‘ullanadi. Kimyoni o‘rganish uchun o‘qish kerak bo‘lgan kitob tabiat kitobidir. Dinni o‘rganadigan kitob bu sizning aqlingiz va qalbingizdir”.

Din haqidagi ommaviy fikrlar ko‘pincha tor doiradagi va chalg‘ituvchidir. Shunga qaramay, ba’zi fikrlar keng qamrovli va yorqinroq imkoniyatlarga yo‘naltiradi. Svami Vivekananda dinning umumiy va shu bilan birga eng qisqa ta’rifini beradi: “Har bir ruh ehtimoliy ilohdir. Maqsad tashqi va ichki xarakterini nazorat qilish orqali bu ilohiylikni namoyon qilishdir. Buni mehnat, ibodat orqali yo ruhiy yoki falsafiy nazorat orqali - bittasi yo bir nechtasi yoki barchasi bilan amalga oshiring - va ozod bo‘ling. Mana shu – mukammal din. Ta’limotlar, aqidalar, marosimlar, kitoblar, ibodatxonalar yoki shakllar esa faqat ikkinchi darajali jihatlardir”. Ushbu ta’rifning zamonaviy kontekstga aloqadorligini aniqlash uchun uni diqqat bilan tahlil qilish talab qilinadi. Ushbu ta’rifdagi asosiy tushuncha "ruh" dir. Qiziq va o‘ziga jalb qiladigan jihati shundaki, Vivekananda uchun asosiy masala inson emas, balki ruh edi. Bugun biz gender va boshqa omillarga bo‘g‘liq turli xil xususiyatlarga ega haq-huquqlar uchun kurashish bilan band bo‘lgan bir davrda, din – faqat har bir ruhga tegishli, odamlar orasida mavjud bo‘lgan ma’lum bir muassasa sifatida tasvirlanadi. Har bir tirik mavjudot ruh ekanligiga ishonadigan an’anadan kelib chiqqan holda, Vivekananda, har bir tirik mavjudot “ruh”ga ega ekanligini aniq qilib ta’kidlaydi. Shuning uchun ham u: “Eng past darajadagi qurt ham, eng

[1] The Complete Works of Swami Vivekananda, 9 vols – Calcutta: Advaita Ashrama, 1–8, 1989; 9, 1997. 1.124.

yuqori darajadagi inson ham bir xil ilohiy tabiatga ega” deydi. Qurtning shakli quyiroq shaklda bo‘lib, undagi Ilohiylikka Mayya tomonidan ko‘proq soya solinadi; eng yuqori shakl bu eng kam soya tushadigan shakldir. Hamma mavjudotning ortida bir xil ilohiylik mavjud va axloqning asosi shu ilohiylikdan kelib chiqadi”.

Ushbu ta’rifdagi keyingi muhim tushuncha “ehtimoliy ilohiylik”dir. Ko‘rinib turgan nuqson yoki kamchiliklar ahimiyatsiz sifatida qaraladi va “har bir ruh” o‘zida allaqachon mavjud bo‘lgan mukammallik, ilohiylik darajasiga egaligi aytiladi. Muvaffaqiyatsizliklar tamoyili bu – ushbu ehtimoliy ilohiylik bilan bog‘liq tusatdan yuzaga keladigan jumboqdir. Ruhiy kasallar tomonidan tez-tez sodir etilayotgan tajavvuz va qurolli tuqnashuvlarning barchasi “ehtimoliy ilohiylik” natijasida sodir bo‘layapti deb o‘ylaysizmi? Ushbu ta’rifni noto‘g‘ri talqin qilishga shoshilmasdan Vivekananda hissiyot va pragmatism keltirib chiqaradigan ketma-ket hukmlarni ruhlarning ehtimoliy ilohiyligi g‘ oyasi bilan o‘zgartiradi. Keyingi, “ichkaridagi bu ilohiylikni namoyon qilish” jumlalari ehtimoliylikni kinitek (harakat kuchi)ga yoki yashirinni aniq holatga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi. Ilohiylik tabiatan mavjud, lekin har doim ham tilga olinavermaydi. Bu biz bu dunyoda ko‘rishga odatlanib qolgan ezgulik va yovuzlik qatlamlari o‘rtasidagi tafovutni izohlaydi. Yana bir muhim tushncha “maqsad” tushunchasidir. Ushbu ta’rifda aniq qilib ta’kidlangani kabi “maqsad” muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vaqtinchalik maqsad emas, balki umrbodlik maqsaddir. Ruhning “umumiy bo‘luvchiligi” bilan boshlangan ta’rif “barcha tirik mavjudotlarning umrboqiy maqsadi tomon kengayib boradi. Ushbu jumla barcha tirik mavjudotlar yashirin ilohiylikning namoyon bo‘lishiga erishish uchun bir xil hayot maqsadiga ega ekanligini e’tirof etadi.

Ta’rifning keyingi qismida ehtimoliy ilohiylikni namoyon qilishning turli xil yo‘llari yoritiladi. U bizni “ozod bo‘lishga” chaqiradi va bu keyingi muhim jumladir. Dinning ommaviy va ilmiy ta’riflaridan farqli o‘laroq, Svami Vivekananda ta’rifi hech qanday qullik hissiga majburlamaydi. Boshqa tomondan, bizni o‘z ehtimoliy ilohiyligimizga ishonishga va bu ilohiylikni namoyon qilish va “ozod bo‘lish” uchun safarni boshlashga chaqiradi. Din deyarli har doim shaxs amal qilishi majburiy bo‘lgan afsonaviy, ijtimoiy va madaniy tuzilmalar to‘plami sifatida qaralsa-da, Svami Vivekananda ta’rifi majburiyatlarni olib tashlaydi va erkinlikni ta’kidlaydi. Ba’zi sotsiologlar bu ta’rifga qo‘shiladilar. Bizga tuzilmaviy emas, balki suyuq va funksional, har bir mavzuga javob beradigan din kerak. Svami Vivekanandaning din haqidagi ta’rifida barcha ikkinchi darajali

jihatlarni ikkinchi darajali ahamiyatga tushuradi. Bu ikkinchi darajali jihatlar ko‘p holatlarda dinning “muhim tarkibi” hisoblanadi.

Svami Vivekanandaning diniy qarashlarining asosiy jihatlaridan biri, u “din erkinlikka olib chiqishi kerak” deydi. “Rivojlanishning eng muhim sharti ozodlikdir” va bu insonning umri davomidagi maqsadlariga erishishdagi muvaffaqiyatining hal qiluvchi omilidir. Vivekananda o‘z ustozi Shri Ramakrishna izidan borib inson shaxsiyatini tushunishda katolik yo‘lini qo‘llab-quvvatlaydi. U “erkin bo‘lish” usullarini belgilashda shunchalik liberal ediki, Ramakrishnaning vafotidan keyin o‘zi asos solgan monastirlik tashkiloti Ramakrishna Maktabi tomonidan qabul qilinadigan yangi ruhiy amaliyotlarga nisbatan samimiy edi. Har bir Payg‘ambar o‘z ko‘rsatgan yo‘li bilan tanilgan. Budda o‘zining sakkizta yo‘l bilan, Muhammad (s.a.v) birdamlik yo‘li bilan, Iso Masih esa o‘zining sevgi yo‘li bilan mashhur. Shri Ramakrishna birdamlik va voz kechish payg‘ambari va uning mashhur shogirdi Svami Vivekananda ozodlikka olib chiquvchi barcha yo‘llarga nisbatan samimiyligi bilan mashhur.

Vivekanandaning fikricha, erkinlik bilan bir qatorda kuch ham dinning ajralmas shartidir: “Kuch - hayot, zaiflik - o‘lim”.[1] Din zaiflashtiruvchi, bog‘lovchi yoki qo‘rqituvchi kuch bo‘lmasligi kerak. U shubha uyg‘ otuvchi narsalar va bid’atlar doim zaiflikning belgisi deb ogohlantiradi. Ular hamisha zarar yetkazish va o‘lim alomati hisoblanadi. Shuning uchun, ulardan saqlaning; kuchli bo‘ling va o‘z oyoqlaringizda turing”[2]. “Bu yerda haqiqatni imtihon qiladigan, sizni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan zaif qiladigan har qanday narsa og‘u kabi rad etiladi”. Din zaiflashayotgan mistika yoki hayotda mavjud bo‘lmagan be’mani ta’lqin emas.

Vivekananda uchun din zulmkor va majburlovchi emas, balki harakatga undovchi va ozodlikka olib chiquvchi edi. Shuningdek u din haqida shunday deydi: “Insonga berilgan ne’matlar ichida dindan ko‘ra yaxshiroq ne’mat yo‘q, ammo shu bilan birga, unga berilgan qo‘rqinchli narsalar ichida dindan ko‘ra dahshatliroq narsa ham yo‘q. Hech narsa dinchalik tinchlik va sevgiga sabab bo‘la olmagan; hech narsa dindan ko‘ra kuchliroq nafratni ham uyg‘ota olmagan. Hech bir narsa insonning birodarligini dinchalik mustahkamlay olmagan; hech narsa inson va inson o‘rtaga dindan ko‘ra kuchliroq adovat tug‘dirmagan. Hech narsa dindan ko‘ra ko‘proq insonlar

[1] The Complete Works of Swami Vivekananda, 9 vols – Calcutta: Advaita Ashrama, 1–8, 1989; 9, 1997. 2.3

[2] The Complete Works of Swami Vivekananda, 9 vols – Calcutta: Advaita Ashrama, 1–8, 1989; 9, 1997. 3.279

va hatto hayvonlar uchun xayriya muassasalari, kasalxonalar qurmagan; hech narsa dunyoni dindan ko‘ra ko‘proq qonga botirgan emas.

Din ko‘p qon to‘kilishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, u xususan, Hindistonda ko‘plab madaniyatlarning asosiy manbaidir: “Hindistonda zavqu-shavqqa to‘la barcha milliy musiqalarning markazini, asosiy g‘oyasini din tashkil qiladi”. Vivekananda dinni yo‘q qilishni emas, balki uni qayta shakllantirishni, uni barcha taraqqiyotlar markazida bo‘lishini xohlardi.

Vivekananda taklif qilgan dinda har bir kishi xuddi teleskop orqali kuzatishlar olib borgani kabi o‘z ruhiyatida mantiqiyiq tajribalarni amalga oshirish yo‘li bilan o‘z haqiqatiga erishadi.

Vivekanandaning dini hech qanday matn, shaxsiyat, aqida yoki ta’limotga asoslanmagan Vedantani qayta o‘qish. U hatto qat’iy o‘rnatilgan amaliyotlar to‘plamiga ham e’tibor qaratmaydi. U aniq tamoyil, ramz, mifologiya yoki marosimga ega emas. Bu dinning markazi tirik vujud va uning sababidir. Bunday sabab bilan ta’minlangan tirik vujuddan barcha darajalardagi haqni, haqiqatni topish uchun izlanishga kirishishi so‘raladi. Bu fanga zid emas, ammo faqatgina ilmiy ma’lumot to‘plash ruhiyatiga aynan mos keladi.

Vivekananda mavjud dinlarning o‘z tarafdorlarining barcha ishtiyoq va madorlarini so‘rib, ularni harakatsiz meduzalar galasi kabi qoldiradigan zaiflashib borayotgan nazariyalari va amaliyotlaridan zerikkan edi. Uning uchun eski dinlar og‘ir yukga aylanib qolgan, yangi din esa zaruriyatdir. Yangi din uning Vedanta haqidagi nuqtai nazari edi. U “Eski dinlarda Xudoga ishonmaydigan inson ateist deb ko‘rsatilgan. Yangi dinda esa o‘ziga ishonmaydigan inson ateist deb ko‘rsatilgan”, deydi.

Vivekananda dinning ham ommaviy, ham shaxsiy jihatlariga e’tibor qaratadi. Ijtimoiy miqyosda u Hindiston dinni o‘zining barcha taraqqiyotining asosi sifatida mahkam tutishini xohlardi. “Siz ruhiyatga ishonasizmi yoki yo‘qmi, milliy hayot uchun siz ruhiyatni ushlab qolishingiz va unga rioya qilishingiz kerak”, deydi.

Dinning shaxsiy yoki individual funksiyasi ko‘pchilik mutafakkirlar tomonidan tan olinsada, uning ijtimoiy funksiyasi borasida ko‘plab bahs-munozaralar mavjud. Vivekananda dinni boshdan kechirishning ahamiyatini ta’kidlab: “Nutq, ta’limot, nazariyalar qanchalik chiroyli bo‘lmasin ular din bo‘la olmaydi; din – bu haqiqatni anglash yo‘lidagi amaliy jarayondir. U eshitish yoki payqash emas, balki mavjudlik va shakllanish, butun bir qalbni o‘zgarib o‘zi ishongan narsaga aylanishidir. Manashu dindir.”, deydi. Vivekananda singari boshqa ba’zi sotsiologlar ham shaxsning halovatga erishishidagi tanlov sifatida rivojlanishiga ehtiyoj borligini ta’kidlashgan.

Ular shaxsning o‘z dinini ifodalashi uchun hatto uyushgan muasasalarning ichida ham alohida joy bo‘lishi zarurligini ham tasdiqlashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Svami Vivekanandaning fikricha, insonning maqsadi o‘z shaxsiyatini shubhasiz tushunishga erishishdir, din esa bu zaifdan kuchliga, mavhumlikdan aniqlikka, g‘umbagdan kapalakka aylantiruvchidir. Bu dinning o‘zagidir; boshqa barcha tushunchalar bu mohiyatning shunchaki qobiqlaridir. Agar biz mohiyatga e’tibor qaratsak va har bir kishi bu mohiyatni o‘ziga xos qatlam bilan bezashiga imkon bersak, din nomidan kelib chiqqan barcha notinchliklar bartaraf etilishi mummkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. The Complete Works of Swami Vivekananda, 9 vols – Calcutta: Advaita Ashrama, 1–8, 1989; 9, 1997.
2. Vivekananda Swami. Notes of Lectures and Classes // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 9. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013.
3. Vivekananda Swami. Inspired talks // The Complete Works of Swami Vivekananda / Vol. 7. - Kolkata: Advaita Ashrama, 2013.
4. Махабхарата. Бхагавагита / Пер. С санскр. Б.Л Смирнова. – Ашхабат: Издательство АН ТССР, 1960.
5. Вишну-смитри / Пер. С санскр. Н. А Корнеевой. – М.: Восточная литература, 2007.

Shahrizoda ABDUFATTAYEVA
1-kurs magistranti, TDSHU

ABU NASR FOROBIYNING GNOSEOLOGIK QARASHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq falsafasining buyuk siymolaridan biri bo‘lgan Abu Nasr Forobiyning gnoseologik qarashlari yoritilgan. Maqolada Forobiy yaratgan fanlar tasnifi hamda mantiq ilmi borasidagi qarashlari yunon faylasuflari, jumladan Aristotel ta’limoti bilan sholishtirilgan holda aks etgan. Maqolada Forobiy yunon ilmini chuqur o‘rganish va yunon faylasuflari asarlariga sharhlar yozish orqali yunon falsafiy g‘oyalarini musulmon Sharq falsafasiga olib kirganligi, bu esa o‘z navbatida musulmon Sharqida yangi falsafiy maktab – “Sharq Arastuchiligi” maktabining shakllanishiga va uni materialisti g‘oyalar bilan boyishiga

zamin yaratganligi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, Forobiyning “javhar” va “oraz”, aql to‘g‘risidagi konsepsiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Sharq Arastuchiligi”, “javhar” va “oraz”, aql konsepsiyasi, hissiy va aqliy bilish, Aflotun, Platon, “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Ilmlarning tasnifi haqida”, “Mantiq to‘g‘risida risolaga muqaddima”, “Mantiqqa kirish”, “Aql to‘g‘risida”, “Falsafaning ma’nosi va kelib chiqishi”, mantiq, substansiya, aksidensiya.

O‘rta Osiyoning ulug‘ mutafakkiri va qomusiy olimi Forobiy ijodi nafaqat Sharq, balki butun dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Asl ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon bo‘lgan Forobiy 873-yil Sirdaryo sohilidagi Farob shahrida turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keladi. U yoshligidan bilimga chanqoq, bilimli va g‘ayratli bo‘lib voyaga yetadi. Yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ‘ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o‘zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgani uchun “al muallim as-soniy” (“Ikkinchi Muallim”, Aristoteldan keyin), “Sharq Arastusi” nomlariga sazovor bo‘ldi. O‘sha davrda Movarounnahrda somoniylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Bo‘lajak faylasuf boshlang‘ich bilimini O‘trorda olgandan so‘ng, ilm olishni Choch, Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Forobiy ilmini yanada chuqurlashtirish maqsadida Bag‘dodga yo‘l oladi. Olim yo‘l-yo‘lakay Eronning yirik shaharlari Ray, Hamadon, Isfahon va boshqa joylarida bo‘ladi. Bag‘dodda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridan kelgan talaba va olimlar to‘plangan edi. Bu yerda ko‘zga ko‘ringan olim-u fuzalolar bilan tanishdi, yunon falsafiy maktabi, turli fan sohalari namoyandalari bilan uchrashib, ulardan ilm sirlarini o‘rgandi. Masalan, Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870-940) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan (860-920) esa tibbiyot va mantiq ilmini o‘rgandi. Ba’zi tarixiy manbalarda keltirilishicha, Farobiy 70 dan ortiq tilni bilgan.

Forobiy ilk o‘rta asrda, Sharq Uyg‘onish davrida ijod etdi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi, hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining yuksalishi, yangi shaharlarning bunyod etilishi, madaniy va ma’naviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. IX-X asrlarda ichki va tashqi savdo kuchaydi, ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Vizantiya, Afrika mamlakatlari bilan aloqa yo‘lga qo‘yildi. Bu davr qarama-qarshilik va adovatlardan xoli emas edi. Forobiyning falsafiy qarashlarida o‘sha davrning yutuq va kamchiliklari, murakkab va ziddiyatli jihatlari o‘z ifodasini topdi.

Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g‘oyalar bilan

boyitganligidir. Alloma, eng avvalo, Arastu asarlariga sharhlar bitgan, uning naturfalsafiy g‘oyalarining targ‘ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan. Farobiy, shuningdek, Aflotun, Aleksandr Afrodiziyskiy, Yevklid, Ptolemey, Porfiriy asarlariga ham sharh yozganligi ma’lum. Bulardan tashqari, Gippokrat, Epikur, Anaksagor, Diogen, Xrisipp, Aristipp, Suqrot, Zenon asarlaridan xabardor bo‘lgan hamda epikurchilar, stoiklar, pifagorchilar, kiniklar maktablarini yaxshi bilgan.

Forobiy o‘rta asrda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. Ho‘sh, Forobiy ilmlar tasnifini nimaga asoslangan holda yaratgan? Ilmlarni qaysi xususiyatlariga ko‘ra ajratgan? Fanlar tasnifi ancha murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lib, bu boradagi fikrlar turli-tuman va hatto qarama-qarshilik jihatlariga ega. Fanlarning dastlabki muayyan darajada izchil tasnifini biz Aristotel falsafiy merosida ko‘rishimiz mumkin. U o‘sha davrda falsafaga mos kelgan barcha bilimlarni uch qismga: nazariy, amaliy va ijodiy bilimlarga ajratadi.

Aristoteldan so‘ng eng izchil fanlar tasnifini taklif qilgan olimlar Markaziy Osiyodan chiqqan mutafakkirlar – Forobiy va Ibn Sinodir. Forobiy Aflotun va Aristotel ta’limotiga tayanib, fanlarning turkumlashni o‘z tasnifini taklif qildi. U “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Ilmlarning tasnifi haqida” nomli risolalarida o‘z fikrlarini bayon etgan[1]. Ularda Aristotel g‘oyalarining o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tafsilotini bayon qilib berdi. Mutafakkir tabiat va inson organizmiga xos bo‘lgan tabiiy jarayonlarni o‘rganuvchi ilm sohalarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Aristotel g‘oyalariga qo‘shilgan holda fanlarni uch asosiy qismga: nazariy, amaliy va ijodiy fanlarga bo‘ladi va fanlarning o‘rganish obyektiga ko‘ra besh turga ajratadi: 1) til haqidagi ilm (grammatika, orfografiya, she’riyat, to‘g‘ri yozuv va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 2) mantiq (8 bo‘limdan iborat bo‘lib, tushuncha, muhokama, xulosa, sillogistika, dialektika, sofistika va boshqalarni o‘z ichiga oladi); 3) aniq fanlar (arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika, optika, sayyoralar, musiqa va og‘irlik haqidagi ilmdan iborat); 4) tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika; 5) shahar haqidagi ilm (siyosiy ilm, fiqh, pedagogika, axloqshunoslik va kalom kiradi).

Aristoteldan farqli o‘laroq, Forobiy metafizikani “nazariy tafakkur fanlari” bilan “amaliy tafakkur fanlari” o‘rtasidagi bog‘lovchisi deb ko‘rsatdi. Aristotel esa u metafizikaga aqliy mushohada yuritish orqali anglab yetiladigan oliy asoslar haqidagi fan deb qaraydi.

---

[1] Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. – T.: Fan, 1993. – B. 74

Forobiy fanlarni tasniflashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqadi. Uning tasnifi, eng avvalo, tabiatni, tafakkur va nutqni, til va mantiqni o‘rganishga qaratilgan edi. Forobiyning fikriga ko‘ra, ilmlarning tasnifidan maqsad haqiqatni o‘rganish va tasdiqlashdir. Aynan ilmlar orqali ongimizda paydo bo‘lgan fikrlarni yolg‘ondan farqlash mumkin. Olimning fikricha, fanlar va umuman bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq vaqt o‘rganish asosida to‘planib boradi. Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi, balki o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qilishga va insonlarning baxt-saodatga erishishiga qaratilgandir.

Forobiyning fanlar tasnifida tabiiy va ijtimoiy fanlar o‘z vazifasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, matematika, tabiatshunoslik va metafizika ilmlari inson aql-zakovatini boyitishga xizmat qiladi, grammatika, she’riyat va mantiq esa fanlardan to‘g‘ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to‘g‘ri tushuntirish, ya’ni aqliy tarbiya uchun xizmat qiladi. Siyosat, axloqshunoslik va pedagogik bilimlar kishilarning jamoaga birlashuvi, ijtimoiy hayotning qonun va qoidalarini o‘rgatadi. Bir so‘z bilan aytganda, Forobiyning ilmlar tasnifi to‘g‘risidagi ma’lumoti o‘rta asrda turli fanlarning rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, keyingi davrlarda yashagan olimlar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tadi.

Forobiyning gnoseologik qarashlari, ya’ni bilish haqidagi ta’limoti ijtimoiy-falsafiy fikr rivoji tarixida alohida o‘rinni egallaydi. Olimning bu boradagi fikrlari uning “Mantiq to‘g‘risida risolaga muqaddima”, “Mantiqqa kirish”, “Aql to‘g‘risida”, “Falsafaning ma’nosi va kelib chiqishi” va boshqa asarlarida tahlil qilib berilgan[1]. Mutafakkir inson Yer yuzidagi oliy mavjudot ekanligini ta’kidlab, uning qobiliyati, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni idrok qilish kuchiga katta baho beradi.

Forobiy o‘z asarlarida bilish shakllari, insonning ruhiy holati, jon va tananing o‘zaro munosabati, mantiqiy fikrlash to‘g‘risidagi mulohazalarini bildiradi. Uning aytishicha, insonning bilish, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a’zolarni hayot uchun zarur bo‘lgan qon bilan ta’minlovchi markaz vazifasini bajaradi. Forobiy “Ilm va san’atning fazilatlari haqida” kitobida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga qarab o‘zgarib borishini uqtiradi. U, shunindek, “Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida”, Sharq falsafasiga xos bo‘lgan tushunchalar “oraz” va “javhar”

[1] Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования и переводы. – Т.: Фан, 1986. – С.120

masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tadi[1]. Farobiyning fikricha, oraz ya’ni zamonaviy ilm tilida aytganda, aksidensiya (jismning o‘zgaruvchan tashqi belgi, xususiyatlari) o‘zida javharning ya’ni substansiyaning (jismning asliy o‘zgarmas substansional hislatlari, u shu sababdan ham o‘zgarmas va abadiydir) hususiyatlarini aks ettiradi.

Inson voqelikni idrok, sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy tafakkur, aql, nutq va boshqa vosita hamda usullar orqali bila oladi. Olim hissiy va aqliy bilish mavjudligini, ular bir-biridan farq qilishini ham aytib o‘tadi. Hissiy bilishda sezgi a’zolari yordamida ashyolar, narsa va hodisalarning muayyan sifatlari bilib olinadi. Shu bilan birga, sezgi orqali narsa va buyumlarning muhim bo‘lmagan tomonlari, ya’ni aksidensional hususiyatlari ham idrok qilinadi. Aql yordamida esa buyum sifatlarini mavhumlashtirish orqali uning mohiyati, umumiy hususiyati, ya’ni substansional hususiyatlari anglashiladi[2]. Bir so‘z bilan aytganda, hissiy bilish orqali oraz, aqliy bilish orqali esa javhar anglab yetiladi.

Forobiy “Aql to‘g‘risida” asarida aqlni, bir tomondan, ruhiy quvvat mahsuli, ya’ni tug‘ma, ikkinchi tomondan, ta’lim-tarbiyaning mahsuli ekanligini ta’kidlaydi. Forobiy davlatni boshqarishda, qonunlarga amal qilishda, kishilararo munosabatda, axloq va xulq-odob qoidalariga rioya qilishda, ta’lim-tarbiyada aql hukmidan kelib chiqqan holda harakat qilish kerak, deb hisoblaydi. Forobiyning qimmatli fikrlaridan biri uning dunyoviy ruh va dunyoviy aql, ularning barhayotligi haqidagi ta’limotning talqinidir. Mutafakkirning nazarida kishining ruhi va aqli o‘lganidan keyin yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki dunyoviy ruh va aql bilan qo‘shiladi[3]. Demak, odamning ruhi va aqli abadiylikka ketadi. Lekin ular hech vaqt qaytib kelmaydi va namoyon bo‘lmaydi. Ular tanani tashlab ketgandan so‘ng bir butunlikni tashkil etadi, aql va ruh yashash davomida orttirgan barcha ma’naviy boylik to‘planib barhayot dunyoviy ruh va aqlni tashkil etadi. Mutafakkirning bu ta’limotida dunyoning abadiyligi, inson zotining o‘lmasligi, inson bilimlari va aqlining uzluksizligi, insoniyat ma’naviy madaniyatining taraqqiyoti haqidagi purma’no g‘oyalar mavjud. Uning talqinida aqliy bilish koinot aqli yordamida haqiqiy ilmga aylanadi. Forobiy bilishning ratsional usulini yoqlagan holda gnoseologik bilimlar taraqqiyotda, kuzatuv, bahs-munozara, bilish usullari, hissiy mushohada to‘g‘risida o‘z davri uchun e’tiborga molik fikrlarni ilgari surdi.

---

[1] Adamson, Peter. In the age of Al Farabi, Arabic Philosophy in the Fourth/Tenth Century//Journal of Islamic Studies 22 (no. 2) – L.: Press, 2011. – P.127

[2] Abu Nasr Forobiy. Aflotun qonunlari mohiyati haqida. – T.: Xalq merosi, 1993. – 180

[3] Mahdi, Muhsin. Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago: The University of Chicago Press, 2011. – P.198

Olim mantiq ilmiga bag‘ishlangan bir necha risolalarning muallifidir. “Mantiq ilmiga kirish”, “Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima”, “She’riyat san’ati qonunlari haqida risola”, “Kategoriyalar”, “Kirish” va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Forobiy mantiq ilmining mohiyati va vazifasi haqida “Mantiq to‘g‘risidagi risolaga muqaddima” asarida shunday deydi: “Bu shunday bir san’atki, u har doim odam notikqlikda adashib qoladigan bo‘lsa, to‘g‘ri fikrlashga olib keluvchi va aql yordamida biror bir xulosa qilinadigan bo‘lsa, xatolarning oldini oluvchi narsalarni o‘z ichiga oladi. Uning aqlga nisbatan munosabati grammatika san’atining tilga nisbatan munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini to‘g‘rilagani kabi, u shuning uchun ham vujudga kelgan, mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo‘lgan joyda tafakkurni to‘g‘ri yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘rilab turadi[1]”.

Forobiyning mantiq ilmi to‘g‘risidagi qarashlari Aristotel g‘oyalari bilan sug‘orilgan deyishimiz mumkin. U o‘z asarlarida mantiq ilmi va uning maqsad hamda vazifalari, voqelikni bilishdagi o‘rnini aniq ko‘rsatib bera olgan. U mantiq ilmining asosiy shakllari: tushuncha, muhokama, xulosa, isbot va boshqalarni tahlil qilib, induksiya, deduksiya va sillogizm (qiyoslash) haqida batafsil ma’lumotlar beradi. Olim o‘zining “Mantiq ilmiga kirish” asarida esa hech qanday dalil-isbotsiz bilinadigan fikrlarni 4 ga taqsimlaydi: maqbulot (ya’ni maqbul bo‘lgan fikrlar); mashhurot (ya’ni, mashhur bo‘lgan fikrlar); mahsulot (ya’ni sezish va idrok natijasida anglashilgan fikrlar); boshlang‘ich ma’qulot (ya’ni aql orqali idrok etilgan tushunchalar). Forobiyning mantiq ilmi haqidagi qarashlari hozir ham ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q, ular oliy o‘quv yurtlarida qo‘llanma vazifasini o‘tamoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, buyuk allomamiz Farobiyning yaratgan ilmlar tasnifi, falsafiy-gnoseologik g‘oyalari o‘rta asrlar ilm-fan rivojida katta burilishlar yasadi. Forobiy yunon ilmini chuqur o‘rganish va yunon faylasuflari asarlariga sharhlar yozish orqali yunon falsafiy g‘oyalarini musulmon Sharq falsafasiga olib kirdi. Bu esa o‘z navbatida musulmon falsafasining undan keying fikrlar rivojiga katta turtki bo‘ldi. Musulmon Sharqida yangi falsafiy maktab – “Sharq arastuchiligi” maktabining shakllanishiga va uni yangi materialistik g‘oyalar bilan boyishiga zamin yaratdi. Forobiy ilgari surgan fikrlar XVI-XX asrlarda ham musulmon mamlakatlari olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o‘rganildi. Mutafakkir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropada ham tarqaldi va ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotida sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

---

[1] Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования и переводы. – Т.: Фан, 1986. – С. 98

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Abu Nasr Forobiy. Aflotun qonunlari mohiyati haqida. – T.: Xalq merosi, 1993. – 180 b.
2. Abu Nasr Forobiy. Arastu falsafasi. // Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T. Xalq merosi. 1993. – 330 b.
3. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutafakkiri. – T.: Fan, 1993. – 274 b.
4. Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования ипереводы. – Т.: Фан, 1986. – 200 с.
5. Adamson, Peter. In the age of Al Farabi, Arabic Philosophy in the Fourth/Tenth Century//Journal of Islamic Studies 22 (no. 2) – L.: Press, 2011. – 247 p.
6. Mahdi, Muhsin. Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago: The University of Chicago Press, 2011. – 298 p.
7. XXI World Congress of Philosophy. Abstracts. – Istanbul: Turkey, 2003. – 444 p.

Гулчехра ДАРВИШОВА

Ўзбекистон Республикаси Жамоат Хавфсизлиги Университети филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ШАРЛОТТА БРОНТЕНИНГ ИЖОДКОРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРГАН ОМИЛЛАР

Аннотация: Ушбу мақолада ёзувчи бадиий оламини шакллантирадиган, унинг иқтидорини юзага келтирадиган омиллар яъни, Бронтелар оиласи томонидан ёзилган барча асарларда ота-онанинг фарзандлар учун муҳаббати ва таъсири, тарбияси ва уларга тўғри йўлни кўрсатиши ҳақида баён қилинган.

Калит сўзлар: омил, бадиий олам, ижтимоий мухит, ҳисса қўшмоқ, адабий муҳит, ижодкорлик қобилияти, кучли интилиш.

Шарлотта Бронте – буюк инглиз реалистлар мактаби иштирокчиларидан бири ҳисобланиб, унинг асарлари ва ижоди миллий адабиёт тараққиётига жуда катта таъсир кўрсатган. Бу таъсир нафақат XX аср адабий муҳити учун, балки ундан олдинги давр учун ҳам хос бўлганлиги бугун ҳеч биримизга сир эмас. “Джейн Эйр” номли асарнинг муаллифи ўлимидан икки йил ўтиб Элизабет Гаскелл

томонидан ёзилган “Шарлотта Бронтенинг ҳаёти” номли асарда Бронтенинг ҳаёти, аёллик турмуш тарзи ва унинг нечоғлик иқтидори, ижодидаги хусусиялар, “Йоркширлик сеҳргар”нинг новаторлик ҳиссаси кабилар жуда катта эътироф этилган эди. Энг асосийси, инглиз адабиёти анъаналарига ва бидиий дунёсига ўзига хос оригиналлик бағишлаган ёзувчи ҳақида жуда ижобий фикрлар тақдим қилган. Ўз замонасининг энг ёрқин адабий намоёндаларидан бўлган Шарлотта Бронтенинг инглиз адабиётига қўшган ҳиссалари ниҳоятда юқорилиги билан ажралиб туради. Шу билан бир қаторда, Шарлотта Бронтенинг ёзувчилик, ижодкорлик қобилиятини ривожлантиришга сабаб бўлган объектив сабабларни ўрганиш ва у бўйича маълум бир фикрларни баён қилиш мазкур мақоланинг асосий вазифаси ҳисобланади.

Ёзувчи бадиий оламини шакллантирадиган, унинг иқтидорини юзага келтирадиган омиллар турлича бўлиб, Англиянинг, хусусан айтганда Британиядаги XIX асрнинг ўрталаридан бошлаб берган адабий жараён машҳур ёзувчи Шарлотта Бронте ҳаётида ҳам катта ўзгаришлар сифатида акс этган эди. Нафақат Шарлотта, балки унинг барча ижодкор опа-сингиллари ва укасининг ижодкорлиги шаклланиши ва ривожланишида, уларнинг бадиий оламини шакллантирищда қуйидаги омиллар хизмат қилган:

1. Оила мухити;
2. Ижтимоий мухит
3. Иқтидор ва интилиш (шахсий омиллар).

Энди ушбу омиллар ҳақидап батафсил сўз юритсак.

Дастлабки омил, яъни ***оила муҳити*** ҳақида гапирганда, алоҳида қайд этиш лозимки, отаси диний хизматчи, яъни викарей (епископ) бўлган бўлсада, Бронтелар оиласида дунёвий қарашлар ҳукмрон бўлганлиги, фарзандларига отаси томонидан диний эмас, балки дунёвийликка интилиш руҳияти сингдирилганлиги ҳам кўплаб адабиётшунослар, тарихчилар томонидан эътироф этилган. Шундай бўлсада, даврнинг мураккаблиги, замоннинг ўта бешафқатлиги, аристократиянинг трансформациялашув жараёнлари, феодализмга барҳам берилиши ва янги буржуазия вакилларининг вужудга келиши билан қийинчиликлар Шарлотта Бронте оиласининг аҳволини ҳам четлаб ўтмаган эди.

Шартлотта Бронте асарларига ***ижтимоий муҳит*** таъсирини даврнинг аёл ёзувчи ва шоираларга беэътиборлиги ва айниқса ижодий юксалишига тўсқинлик қилишида кўриш мумкин. Ўша даврда Британия қанчалик бой ва тараққиёт сари тобора илгарилаб

бораётганига қарамасдан, бундай талантли ёзувчилар, шоир ва рассомлар етарлича қадр топмаган эди. Ўзлари ҳисобидан шеърий тўпламлар чоп қилган ва уларни сотиш борасида ҳам кўплаб қийинчиликларга дуч келган эдилар. Бироқ улар қобилиятли ва талантли эканликларига қарамасдан, ҳаётлари ниҳоятда оғир кечар эди. Энг ачинарлиси, Шарлоттанинг опа-сингиллари ва ёлғиз укаси сил касаллигидан оламдан ўтади ва 1849 йилда Шарлотта кекса ва касал отаси билан ёлғиз қолади

Умуман олганда, камбағал, оддийгина черков хизматчиси, асли Ирландиялик бўлган, шунингдек, кўпфарзандли ҳисобланган Патрик Бронте ва Мариялар оиласида 1816 йилнинг 21 апрелида дунёга келган Шарлотта оилада учинчи фарзанд эди (улар жами олтита фарзанд бўлиб, – Мэри, Элизабет, Шарлотта, Патрик Бренуэлл, Эмили ва Энн).

Отасининг 1820 йилда Хоэртга (Уэст-Йоркшир, Англиядаги қишлоқ бўлиб, бугунги кунда айнан Шарлотта туғилганлиги билан шараф қозонган ва туристик марказга айланган қишлоқлардан бири) кўчиб ўтиши ва викарий (епископ) лавозимига тайинланиши билан ҳаётида нисбатан ўзгариш содир бўла бошлаган бўлсада, орадан бир йил ўтиб, онасининг саратон касаллигидан оламдан ўтиши оилани чуқур қайғуга солган эди. Онадан эрта етим қолган беш қиз ва бир ўғилнинг тарбиясига алоҳида эътибор билан қараган ота, уларнинг ўқиши ва таълим олишига ўз имкониятидан келиб чиққан ҳолда, алоҳида диққатини қаратган эди. Кўпчилик адабиётчилар Шарлотта Бронтенинг бадиий ижодга анча эрта кириб келишининг сабаби сифатида унинг ўз ҳаётини ўзгартириш, қашшоқликдан чиқишнинг йўлларини жадал ахтаришида ҳам бўлган дея таъкидлаганлар.

Таъкидланганидек, болалигида отасининг ўта ғамхўрлигини ҳис қилган ва керак бўлса, бундан етарлича таъсирланган, Бронтелар оиласи томонидан ёзилган барча асарларда ота-онанинг фарзандлар учун муҳаббати ва таъсири, тарбияси ва уларга тўғри йўлни кўрсатиши ва хоказо масалалар ўрин олган. Шарлотта Бронтенинг фикрича, оила жамиятнинг асосий қисми бўлиб, унинг фаровонлигига катта таъсир кўрсатади. Табиийки, оилага ҳам турли веқеа-ҳодисалар таъсир кўрастади ва улар орқали миллат ҳаётида ҳам кенг ўзгаришлар содир бўлади. Оила ва уй муҳитининг идеаллиги бир тарихий даврдан бошқа тарихий даврга қараб муносабат ўзгариши мумкиндир, лекин шакли ўзгармайди. Шарлоттанинг “Джейн Эйр” асари ҳам ўз даврининг руҳиятинигина эмас, балки оила муҳитини, оиланинг муқаддас бир макон ва жамия эканлигини акс эттирганлиги билан аҳамиятлидир.

Шунингдек, оила муҳитида олинган билим, олинган таълим-тарбия болалар келажагини белгилаб берадиган ва уларга кенг таъсир кўрсатадиган омил дея баҳолаш мумкин.

Энг асосийси, Бронтенинг асарларида бош қаҳрамон ўзини ва ўзи яшаётган дунёни чуқур англаб етганлиги эди. “Жейн Эйр” романида ижодкорнинг болалиги ва холасининг уйида яшаб юрган кезлари тасвирланган. Ушбу даврни у мустақил ҳаётга интилиш, ҳеч кимга қарам бўлмаслик сифатида баҳолаб, ўз шахсий камолоти сари ўзи йўл очиши кераклиги ҳақидаги қарашларни илгари сурган. Асарнинг жанрий хусусиятига тўхталганда, “Жейн Эйр” реалистик услубда яратилган, сюжет воқеалари ҳаётийлик билан боғланган, асар марказида реал шахс сиймоси ифодаланган асар ҳисобланади.

Энг асосийси, ушбу асар ахлоқий сифатларни тарғиб қилган ҳолда, давр қадриятларининг улуғворлигини тараннум этган. Мутахассислар, адабиётчилар ёки танқидчилар фикрларига эътибор қаратсак, уларнинг талқинида якдиллик кузатилади, яъни Блумнинг таъкидлашича, “асар воқеалари кўплаб қиссалар бош қаҳрамони бўлган Жейн Эйрнинг ўзи томонидан сўзлаб берилади ва у реал ҳаётдаги Шарлотта Бронтенинг аниқ суррогати дейиш мумкин”[1]. Шунингдек, ўз даврида Сесила – ёзувчининг бош қаҳрамонига нисбатан эътирозлар ҳам мажуд эди. Унда Сесила – “барчаси бир хил одам ва бу, шубҳасиз, Шарлотта Бронтедир” деб ёзган эди.

Британия адабиётига ташқи адабий таъсирлар, шунингдек, хорижий адабиётнинг таъсири кенг бўлганидек, Британия адабиётининг ҳам ўша давр Европа адабиётига таъсири сезиларли бўлган эди. Биргина опа-сингил Бронтеларнинг Европа адабиёти ихлосмандлари қалбидан жой олишини Европа адабиётининг муҳим асарлари сифатида кўплаб газета, журналларда уларнинг асарлари чоп этилиши ва ўқувчилари сонининг ҳам кундан-кун ортиб боришида кузатиш мумкин.[2]

Бунинг ўзига хос сабаби шунда эдики, Европада бошланган буюк маърифатчилик ва Ренессанс бирламчи жиҳат бўлса, иккинчи жиҳат – бутун Европада аҳолининг катта қисми ўқиш-ёзишни ўрганиши, давлатлар томонидан ижтимоий сиёсатнинг жадал олиб борилиши, маданий ҳаёт дунёнинг бошқа мамлакатларига қараганда юқори

---

[1] Bloom H. The Victorian Novel. – New York: InfoBase Publishing, 2004.280 p.

[2] Сыскина А.А. Критическая и переводческая рецепция творчества Шарлотты Бронте в русской литературе второй половины XIX века: Дисс. ... канд. филол. наук. – Томск, 2013. – С. 116.

даражада ривожланганлигидир. Шу билан бир қаторда, адабиёт оммалашувининг яна бир муҳим омили – XIX асрда бутун Европада, шунингдек, дунёнинг кўплаб минтақаларида айнан матбуотнинг вужудга келиши ва ахборот воситалари қамровининг кенгайиши ҳам адабиёт ихлосмандлари сонининг ортишига сабаб бўлди[1].

Иқтидор ва интилиш (шахсий омиллар). Иқтидор ва меҳнат, комилликка интилиш – Бронтелар оиласининг доимий шиори, ҳаётий тамойиллари бўлганлиги нафақат замондошлари хотирасида ёки улар томонидан ёзилган асарларда, балки улар фаолиятига доир кейинги тадқиқот ва изланишларда ҳам ўз аксини топган эди[2]. Опа-сингил Бронтеларнинг дунёда тан олиниши билан боғлиқ жараёнлар осонлик билан кечмаганлиги барчамизга маълум. Зеро, опа-сингилларнинг болалик давридаги қизиқишлари ва адабий машқлари тадрижий давомийликда мустақил, жиддий ёзувчилик фаолиятига айланди. Албатта, бунда иқтидорнинг, табиат томонидан инъом этилган салоҳиятнинг ҳам ўрни беқиёс эди. Гарчи, опа-сингиллар ўз адабий фаолиятини кичик шеърлар ёзишдан бошлаган бўлсалар-да, бу борада ҳам жиддий қийинчиликларга дуч келганлигини, ёзган шеърларини чоп этиш борасида молиявий мураккабликларни бошдан кечирганлигини айтиб ўтиш лозим

Биз юқорида келтириб ўтганимиздек, гарчи отаси черков хизматчиси бўлишига қарамасдан, оилада кўпинча дунёвий суҳбатлар, қарашлар ҳукмронлик қилганлиги, отаси фарзандларининг доимо салоҳиятли бўлиб етишишлари билан бир қаторда, дунёвий ижод билан шуғулланишларини хоҳлаганлиги, уларга кенг йўл очиб берганлиги ва бу йўлда доимо рағбатлантириб келганлиги туфайли ҳам бутун оилада адабиётга хавас, ижодга интилиш кучли бўлган дея эътироф этишга тўла ҳақлимиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Lancer, Susan Snider. “Jane Eyre’s Legacy: Fictions of Authority”: Women Writers and Narrative Voice. Ithaca, NY: Cornell UP, 2012. 176-193.

2. Understanding Jane Eyre: A Student Casebook to Issues, Sources, and Historical

[1] Brontë, Charlotte. Charlotte and Emily Brontë the complete novels / C. Brontë, E. Brontë. - New ed. – New York:
Gramercy Books; [S. l.]: Random House, 1995. – VIII. – 714 с.

[2] Петерсон О. М. Семейство Бронте (Керрер, Эллис и Актон Белль). – СПб., 1895. – С. 232.

Documents. USA: Greenwood Press. 2001
3. https://www.history.ac.uk/ihr/Focus/Victorians/article.html
4. http://www.victorianweb.org

Нодиржон АБДУЛАҲАТОВ
тарих фанлари доктори,
Фарғона вилояти педагогларни янги
методикаларга ўргатиш марказининг профессори.

ТОЛИЙ МАРҒИНОНИЙ

Аннотация: Мақолада Марғилон алломалари орасида Толий Марғиноний номи билан машҳур бўлган Мирҳайдар Мирҳаййит ўғлининг (1833-1914) ҳаёти ва фаолияти тўғрисида сўз юритилиб, Толий адабий меросининг Марғилон маданий-марифий муҳитидаги аҳамияти кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: шайх, мадраса, мударрис, миллий озодлик ҳаракати, талимот.

2018 йил 28 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев 2019 йил учун мўлжалланган энг муҳим устувор вазифалар ҳақидаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида “Буюк аллома ва адибларимиз, азиз-авлиёларимизнинг бебаҳо мероси, енгилмас саркарда ва арбобларимизнинг жасоратини ёшлар онгига сингдириш, уларда миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини кучайтиришга алоҳида эътибор қаратишимиз керак”лиги тўғрисида алоҳида эслатиб ўтилди. Дарҳақиқат буюк аждодларимизни ибратли ҳаётини ўрганиш ва тадқиқ этиш ёшларни миллий менталитетимизга хос бўлган фазилатлар ва қадриятлар асосида тарбиялашга ўзининг бебаҳо ҳиссасини қўшиши шубҳасиздир.

Марғилон алломалари орасида Толий Марғиноний номи билан машҳур бўлган Мирҳайдар Марғиноний 1833 йилда Марғилон шаҳрининг Хўжа Форсо маҳалласида ҳунарманд Мирҳайит бўзчи хонадонида таваллуд топган. Толий тахаллуси билан ижод қилган нақшбандия тариқатининг намояндаси Мирҳайдар домла Марғилон адабий муҳитининг кўзга кўринган вакилларидан бири сифатида кўплаб ахлоқий-ирфоний мазмундаги манзумалар яратган. Ҳозиргача, унинг ўнлаб ғазаллари сақланиб қолинган. Жумладан Амоний

Арабоний (1870-1946) томонидан нашрга тайёрланиб 1912 йилда Тошкентда чоп этилган “Баёз маҳбуб ал-маҳбуб” (“Севилганнинг севимли баёзи”)га Толийнинг бир нечта ғазаллари киритилган.

Толий бошланғич таълимни Марғилонда, сўнгра Бухородаги мадрасаларнинг бирида таъсил олган. Толийнинг мадрасадаги ҳаёти осон кечмайди. Камбағал хонадондан арзимаган пул билан чиқиб кетгани, қолаверса, у ерда бирор-бир яқин кишисининг йўқлиги талабанинг ҳаётига жиддий таъсир кўрсатади. Кўпинча оч-наҳор, юпун ҳолда мадраса ҳужрасида ёлғизликда, фақат китоблари билан суҳбатлашиб ўтказади. Ушбу машаққатли кунларини кейинчалик қуйидаги мисраларда баён этган.

Бул кутублар барчаси боғим мени,
Тахта сўри сайр учун тоғим мени...
Кўрмадим мен оламда субҳу сурур,
Доимо ғам шоми ўртоғим мени.
Ҳужрани зулматидан топдим мурод,
Доғи Искандар эмас доғим мени.
Йўқла ё Раб, Толийи бечорани,
Хоҳ дийда девона ё соғим мени.[1]

Мирҳайдар Толийнинг кейинчалик мударрислик фаолиятлари давомида шогирдларга меҳрибон устоз бўлишлари бежизга бўлмаган эди. Камбағал, бечораҳол талабаларга алоҳида эътибор қилишлари, уларни оби таом, кийим-бош, ва ҳатто уй-жой билан ҳам таъминлашлари ҳам шундан. Шогирдларидан мулла Тўрақул домла у зот ҳақида ёзган марсиясида бу ҳақда шундай деган эди:

Ҳар сабоқ олганда беадад итъомлар,
Ҳеч кимга бўлмаган лутфу карам инъомлар,
Кўп навозишлар ила дилдорлик икромлар,
Эмди бўлдик бенасиб қайдин бўлур пайғомлар,
Лутфу эҳсон қилгучи султонидан айрилмасун.

Ҳам отамлар, ҳам онам, ҳам пиру устозим мани,
Очмусан ё тўқмусан, ҳар дамда сўргоним мени,
Чойу шам, ўтин кўмур берган қадрдоним мани,
Ҳар либосим кўҳна бўлганда қадрдоним мени,
Ҳеч ким менингдек қадрдон пиридан айрилмасун.[2]

---

[1] Амоний Аробоний. Баёз маҳбуб ал-маҳбуб , Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. – Т.: Наврўз, 2015. – Б..64.
[2] Мулла Тўрақул. Марсия Р.Файзуллаев кутубхонаси. №30 қўлёзма.12-варақ

Мирҳайдар Толий мадрасадан қайтгач, ҳовлилари ёнгинасидаги Хўжа Муҳаммад Форсо номли мадрасада мударрислик фаолиятини бошлай ва умрларини охиригача бу ерда хизмат қилади.

Маълумотларда мазкур мадраса Марғилонда ўз нуфузи билан бошқа мадрасалардан ажралиб туриши айтилган. Мадраса қошида мактаб бўлиб, унга "илмга чанқоқ, ўзига тўқ кишилар болаларини беришлари" таъкидланган.

XX бошларидаги миллий озодлик ҳаракатининг йирик вакили Муҳаммад Амин Аҳмадбек ўғли – Мадаминбек ҳам ушбу мадраса талабаси бўлган эди. Бу ҳақда Алишер Ибодиновнинг Қўрбоши Мадаминбек номли ҳужжатли қиссасида шундай келтиради: "...Болалигидан зеҳни ўткир, зийрак Мадаминбек ўқимишли эди. Эски мактабда савод чиқарган, Марғилон шаҳрида Хўжа Муҳаммад Порсо маҳалласида, домла Мирҳайдар қўлида таълим олган. ...Домла Мирҳайдар Марғилондаги илғор усулда дарс берадиган билимдон муаллим сифатида донғи кетган одам бўлган. Илмга чанқоқ, ўзига тўқ кишилар болаларини айни шу мактабга берганлар".[1]

Мирҳайдар Толий ҳам тариқат таълимини Муҳаммад Обид (қ.с.)дан олган. Бу зот наманганлик бўлиб, тариқат таълимини шайх, комил мукаммал, халифа Абдулкарим (қ.с.)дан олган. У зот шайх комил мукаммал, халифа Мир Ҳомид (қ.с.)дан таълим олган.

Муҳаммад Обид (қ.с) етук пир комил, юксак ирфон соҳиби бўлган. Айниқса, у зот ҳанафийлик мазҳаби, аҳли сунна вал жамоат ақидасининг мотуридийя таълимотини кенг ёйишга хизмат қилганлар. Бу борада "Мироът ул-мўътақиддин" номли асарлари машҳур.

Мазкур асар ҳанафий аллома Али ибн Усмон ибн Муҳаммад ибн Сулаймон Ўший Фарғонийнинг 569 ҳижрий йилда ёзган "Қасидайи амолий" номли китобига ёзилган шарҳдир. Сунний ақидаларнинг барча масалаларини назмда ёдлашга осон қилиб берилган машҳур асар қадимдан Мовароуннаҳр мадрасаларида бошқа ақида китоблари қаторида ўқитилган.

Асарга аллома Али ибн Султон Муҳаммад-Алий ал-қорий "Зовъ ул-маолий"номли шарҳ ёзган. Муҳаммад Обид (қ.с.) нинг шарҳлари туркий тилда ёзилган мукаммал шарҳ саналади.

Кўплаб муридлар Мирҳайдар Толийдан тасаввуф ва тариқат таълимини ўрганганлар. Бу ҳақда шогирдларидан Тўрақул домла шундай ёзган:

Ким кирур хизматларига лутфу эҳсонлар топур,

[1] Алишер Ибодинов. Қўрбоши Мадаминбек. –Т.: Ёзувчи, 1993. – Б.15.

Бўлса ҳар ким рўбарў инъом эҳсонлар топур,
Топса суҳбат гар муяссар нур имонлар топур,
Дардман бўлган кишилар келса дармонлар топур,
Ҳеч ким бизлар каби дармонидан айрилмасун.[1]

Ёзма маълумотларда Мирҳайдар Толий қуйидаги сифатлар билан таърифлаган: “фариди замон” – “замоннинг ягонаси”, “устози ҳозирони жаҳон” – “жаҳон аҳлининг устози”, “пири мукаммал”, “мушфиқи бечоракон” – “бечоралар меҳрибони”, “зубдайи дуогўён” – “дуогўйлар пешвоси” ва бошқалар.[2]

Мирҳайдар домла “Толий” тахаллуси билан ижод қилганлар. Аҳлоқий-ирфоний мазмундаги кўплаб назмий асарлари бизга етиб келган.

Толий асарлари ҳақида сўз кетганда айтиш мумкинки, шеърларининг тили содда ва равон. Фикрларини ортиқча муболаға ва ясама зийнатларсиз шундайича баён қилган. Бу эса, шеъриятда шоир фикрини ўқувчи дилига тездан етиб боришини таъминлайдиган энг яхши услублардан биридир. Асарларида шоирнинг ўқувчиларга хайрихоҳлиги, самимий дўстона насиҳатлари шундоққина билиниб туради. Толийнинг кўплаб ибратли сатрлари ҳозиргача ҳам баъзи маърифатли кишилар томонидан тез-тез ёдга олинади. Улардан бири қуйидагича,

Сақласа кимни Худо, анга балони иши йўқ,
Раҳматинг кимга насиб этса қазони иши йўқ.
Сен қазога ўчашиб йиғлама гар етса алам,
Бу сени йиғлагонинг бирла балони иши йўқ.

Толий Марғиноний 1332 ҳижрий, зулқаъда ойининг 22 куни мелодий 1914 йил, 11 октябрда 79 ёшда якшанба куни вафот этган. Марғилон шаҳрининг қадимий Хўжа Форсо қабристонига дафн қилинган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1.Амоний Аробоний. Баёз маҳбуб ал-маҳбуб , Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва луғатлар муаллифи Маҳмуд Ҳасаний. – Т.: Наврўз, 2015.

2.Мулла Тўрақул. Марсия. Р.Файзуллаевнинг шахсий кутубхонаси. № 30 қўлёзма.

3. Алишер Ибодинов. Қўрбоши Мадаминбек. –Т.: Ёзувчи, 1993.

[1] Мулла Тўрақул. Марсия. Р.Файзуллаевнинг шахсий кутубхонаси. № 30 қўлёзма.12-варақ.
[2] Мулла Тўрақул. Марсия...12-варақ.

Исломбек РАҲМОНБЕРДИЕВ
1 - босқич таянч докторанти, ТДИУ

ИБН АРАБИЙ “КОМИЛ ИНСОН” ТАЪЛИМОТИНИНГ ИЖТИМОИЙ - ФАЛСАФИЙ ВА АНТРОПОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада Ибн Арабийнинг “Комил инсон” таълимоти ва унда кўтарилган инсон камолитининг умумбашарий аҳамияти, комил инсоннинг бугунги глобаллашув жараёни жадаллашган даврда фалсафий-антропологик аҳамияти ҳақида сўз боради.

Муаллифнинг фикрича, руҳий инқироз ва таназзулларга учраган бугунги давр инсони учун “Комил инсон” таълимотининг ҳаётбахш ғоялари инсон руҳиятини муътадиллаштиришга, уни келажакка бўлган ишончини оширишга хизмат қилади. Шу нуқтаи назардан, уни фалсафий жиҳатдан жиддийроқ ўрганиш ва руҳий тарбия усулларидан бири сифатида қўллаш яхши натижалар бериши мумкин, деган хулосага келинади.

Калит сўзлар: Ибн Арабий, Комил инсон таълимотининг энг аҳамиятли жиҳатлари, инсон, биопсихосоциал мавжудот,ислом дунёси, дин, Ислом дини, шариат, тасаввуф, тасаввуф фалсафаси, тасаввуф таълимоти, тасаввуф илми, глобал, глобаллашув, ғоя, модернизм, Шарқ, Ғарб, таъсир, руҳий-маънавий тарбия, руҳий саломатлик, позитивизм, позитив анархизм, негатив анархизм, тараққиёт, камолот.

Кириш. “Инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас. Инсон қадри деганда, биз, аввало, ҳар бир фуқаронинг тинч ва хавфсиз ҳаёт кечиришини, унинг фундаментал ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашни назарда тутамиз. Инсон қадри деганда, биз ҳар бир фуқаро учун муносиб турмуш шароити ва замонавий инфратузилма ташкил этишни, малакали тиббий хизмат кўрсатиш, сифатли таълим, ижтимоий ҳимоя тизими, соғлом экологик муҳит яратиб беришни тушунамиз”.[1;3]

Замонавийлик дунёвий феномен сифатида замонавий назариётчиларнинг урф-одатлар ва динга қарши қарашларида ниҳоятда кучли таъсирга эга. Ушбу икки элемент секуляризм тараққиёти глобаллашиб бориши натижасида кучсизланиб бораётгандек. Бироқ, секуляризм тарафдорларининг давлат бошқаруви

ва демократия хусусидаги қарашлари ва уларнинг ваъдалари ўзини оқламади.Ушбу вазиятда Ислом ҳаракати ҳақиқий Исломни қайтариш ғоясини илгари суриши модернизм ва дин ўртасидаги замонавий муносабатларга яққол мисолдир.[2;3]

Бир томондан кўп маданиятли, бир томондан эса глобаллашув жараёнида ягона иқтисодий макон ва ягона маданиятга қараб кетаётган даврда,Тасаввуф таьлимоти ислом дунёсида сокинлашиб, яккаланиб қолган. Исломшунос тадқиқотчилар тасаввуфнинг инқирозига икки омилни асосий сабаб қилиб кўрсатишади: тасаввуф аҳлининг Ислом жамиятига бўлган ишончининг йўқолиши; шариат аҳлининг ҳақиқий Ислом таълимотидан узоқлашиб, шариат буюрган ибодатларни адо этишда нуқсонларга йўл қўйиши. Шунингдек, номусулмон жамиятли Ғарбнинг тараққиёти мусулмон давлардан кўплаб жиҳатларда устунлик қилишмоқда. Ушбу кўп маданиятли ва глобаллашув замонида, кўплаб мусулмонларнинг дунёқараши прагматик кўриниш ола бошлади.

Прагматик дунёқараш капитализм ривожи фонида инсониятга ниҳоятда катта босим ўтказмоқда. Ғарб мамлакатларида “Фаровонлик жамияти” ўтган асрнинг саксонинчи йилларига қадар ўрнатилган бўлсада, инсониятнинг бахт-саодатга эришуви ҳақидаги секуляризм тарафдорлари ва прагматик сиёсатчилар илгари сурган ғоялари ўзини оқламаганини бугунги кунда ривожланган мамалакатлардаги суитситситлар, турли жиноятлар ва ахлоқий бузуқликлар кўрсаткичлари ўсиб бораётгани бунга яққол далилдир. Демократик жамиятларнинг асосий шиори бўлмиш “инсон ҳуқуқлари ва хоҳишлари олий қадрият”лиги натижасида ҳозирги кунда Ғарб мамлакатлари ўз қонунчилигига бир қанча инсонийликка зид бўлган ахлоқсизликларни ўз мамлакатларида легитимлаштириш га мажбур бўлмоқда. Шветсарияда инсон яшашни истамаса уни ўз талаби асосидаосон йўл билан ҳаётига нуқта қўювчи Сарко номли 3-д мосламалар ҳукумати томонидан рухсат берилган. [2;6] Ғарб мамлакатлари, жумладан Нидерландия, Германия, Белгия, Люксембург, Канада, Колумбия каби иқтисодиёти барқарор ривожланган мамлакатларда кузатилиши [3;9] демак, иқтисодий ривожланиш ва фаровон ҳаёт ҳар доим ҳам инсонга бахт олиб келмайди деган хулоса чиқаришга олиб келади. Бир сўз билан айтганда, капитализм инсониятга фойдадан ташқари катта зарар ҳам келтирмоқда.

Ушбу фикрни Ғарб жамияти зиёли қатлами томонидан эътироф этилиши [4;5] ушбу хулосани қанчалик тўғри эканлигини исботлайди. Ғарбда “Коммунизм миллионлаб инсонларни ўлдирди, капитализм ҳам”[5;2] номли қараш ҳозирги кунда шаклланиб бўлган.

Капиатлизмга фашизмга ёқилғи вазифасини бажарди. [5;8] Ғарбда капитализм бир қанча урушларга сабабчи бўлгани омили ҳам кўтарилиб, инсоният муштарак ғоялар билан тинч-тотув яшаш ўрнига, салбий рақобат қилиб қон тўкиши ҳақида бир қанча файласуфлар томонидан бот-бот такрорланмоқда.

Инглиз файласуфи ва иқтисодчиси Адам Смит капитализм ҳақида: “Капитализм инсоний қадриятларга зарар етказади”[6;12] деган фикрни билдирганлиги бугунги кунда ўз тасдиғини топмоқда. Бу ҳақида католик черкови капитализм ўзининг моддиюнчилик тамойили туфайли инсониятга салбий таьсир ўтказмоқда, [7;18] дея даъво билан чиқган. Рим Папаси “Капитализм-шавқатсизликнинг янгича кўриниши, уни камбағал ва ночорлар душмани, иқлимий инқирознинг асосий сабабчиси” [7;14] эканлигини таъкидлаши ҳам ўзгача бир қарашдир.

XIX асрда яшаб ижод қилган рус файласуфи ва жамиятшуноси М.Бакунин инсон хохиш ва майлларининг эркинликликлари мавжуд ахлоқий кодекслар доирасида бўлса позитив анархизм, агар бунинг тескариси бўлиб унга ҳукумат ва жамият томонидан мақулланса негатив анархизмга сабаб бўлади, дея таъкидлаган ҳам ушбу икки атамани фанга қўшган. Негатив анархизм бугунги кунда Ғарбда қанчалик қарор топди? Бугунги кунда ғарб маданияти ва унга сингиб кетаётган ахлоқий бузуқликлар ҳамда Ғарб орқали кириб келаётган оммавий маданият инсониятни ахлоқий таназзулга бошлаётгани бугунги кунда сир эмас. Бакуниннинг неагтив анархизм[8;5] қарор топганлигини Ғарбда инсоний фитрат ва табиатга бутунлай зид бўлган бир жинсли никоҳ, ўз жинсини ўзгартириш ҳуқуқи, ўз жонига қасд қилишда ҳукуматнинг амалий ёрдами каби инсон эшитса сесканадиган тушунчалар бугун инсониятни иқтисодий ривожланиш қатори ушбу муаммоларни ҳам келажак авлод учун зудлик билан ҳал қилиш кераклигини кун тартибига қўймоқда. Ушбу рўй бераётган воқеалар фонида христиан оламида одамларнинг черковга бўлган ишончи кескин тушиб кетиб, айримлари динсизликни, катта қисми эса ислом динини ихтиёр қилаётгани айни ҳақиқат. Статистик маълумотларга қараганда, 2016 йилга қадар Ғарбий Европа аҳолиси исломни қабул қилиш кўрсаткичи сезиларли 11% ни ташкил қилган бўлса, ушбу кўрсаткич 2050-йилга қадар 16% дан кам бўлмаган ҳолатда етиб бориши башорат қилинган.Ушбу кўрсаткич миграция омилидан ҳоли эканлиги фактдир.[9;10] Ушбу кўрсаткич иқтисодий фаровонлиги юқори Скандинавия давлатлари, Франция, Германия, Нидерландия, Белгия, Буюк Британия, Австрия, Швецария каби давларда 12% дан юқори

кўрсаткичдалиги фикримиз исботидир. Европа мамлакатлари нафақат исломни қабул қилиб ислом шариати буюрган амалларни адо этишга ўтмоқда балки, иқтисодиёти ва сиёсатига ҳам исломий ҳкумларни жорий этаётгани ҳақиқатдир. Ислом молияси атамаси бугунги кунда дунё бўйлаб иқтисодиётга кенг қилинаётган дастур ҳисобланади. [10;12]

Мулаҳазаларни давоми ўлароқ, дунё бўйлаб, хусусан, Европада шариатдан кейинги босқич – тариқат, яъни, тасаввуф (ботиний фиқҳ) [11;32] га бўлган қизиқиш аввалгига қараганда сезиларли даражада ортган. Чор Россияси мустамлакаси бўлиб, ўзлигимиз акс этган ўтмишимиз, қадриятларимиз ва тасаввуф илмига ўз хиссаларини қўшган буюк аждодларимизни унутаёзган вақтимизда ҳам дунё бўйлаб кўплаб тадқиқотчилар уларни ўрганиб, улар илгари сурган ҳақиқатларни англаб етиб, ўз халқига таништирганларида Мусулмон Шарқи ҳали уйқуда эди.

Тасаввуф ҳақидаги тадқиқотлар ҳозирги кунда дунё олимлари томонидан амалга оширилмоқда. Ислом фалсафаси ва тасаввуф ҳақида тадқиқотлар олиб бораётган бир қанча шарқшунос олимлар тасаввуфнинг инсон руҳияти ҳар қачонгидан ҳам тарбияга, тасаллига муҳтожлигини таъкидлаб, тасаввуфни бевосита психологияга ҳам боғлиқ эканлигини эътирофи ўлароқ: “Илм-фан ва техника тараққиёти инсониятга кўплаб қулайликлар берибгина қолмай,кўплаб психологик муаммоларга ҳам сабаб бўлмоқда. Барча илмий ютуқлар ва тараққиётнинг фундаментал асоси бўлмиш инсон руҳияти учун фойдали бўлган ахлоқий кодекслар мажмуаси ҳисобланмиш дин унутилиб, моддият сари интилиш бугунги замон одами фитратига ўрнашиб,унинг олий мақсадига айланмоқда. Моддий манфаат учун кўплаб жиноятлар,мамлакатлараро эътибор берадиган бўлсак, урушлар, ядро қуролининг яратилиши,табиий ресурслар учун кураш кучайиши, турли геосиёсий ўйинлар, назарияларнинг барчаси инсониятни йўқ қилиш эвазига гегемон бўлишни мақсад қилиб олган маълум бир гуруҳлар туфайли инсониятнинг тинчи бузилган. Шундай вазиятда тасаввуфни ўрганиш ҳар қачонгидан ҳам муҳим вазифага айланиб қолмоқда. Аммо тасаввуф мураккаб ва чигалликларга эга бўлиб, исломнинг руҳий, ақлий, ахлоқий, ботиний фалсафасини ўзида мужассам этган. Унинг асосида ўз-ўзини ислоҳ қилиш, тарбиялаш, ривожлантириш ва ўзгаларга яхшилик қилиш орқали ажр умид қилиш ётади. [12;8]

Европа олимлари тасаввуфни ва комил инсон тушунчасини ислом динининг алоҳида бир ячейкаси сифатида талқин қилиб, “Sufism”,

“Perfect man” (Германия ва Францияда ҳам шундай) атамасининг сўнгги “исм”(изм) қисми унинг алоҳида бир ғояга эга тарихий мактаб эканлигининг исботидир. [13-52] Мутафаккирлар “Тасаввуф исломнинг фундаментал ажралмас қисми бўлиб, Имон, Ислом, Эҳсон номли устунларининг Эҳсон қисмига тўғри келади. Имондан дин (қалам), Исломдан шариат, Эҳсондан эса тасаввуф вужудга келди”, [14;112] деган фикрни тасдиқлайдилар.

Инсон онги ва феъл-атвори бевосита ўзида кўплаб фактлар ва қадриятларни жам қилади. Улардан бири бўлмиш факт асосан илм-фандан, қадриятлар эса диний ва диний бўлмаган фалсафалар, хусусан, гуманизм ва экзистенциализмдан қувват олади. [15;25]

Руҳият диний фалсафанинг ажралмас қисми бўлиб, қадриятларни белгилаб бергани учун инсониятнингруҳий камолот бағишлайди. Шуни англаган ҳолда, 1884-йилда [16;27] Бутунжаҳон Соғликни Сақлаш Ташкилотининг 37-Халқаро Ассамблеясида руҳий саломатликни ижтимоий ва маданий жиҳатдан инсон саломатлигининг асосий қисмларидан бири эканлиги белгиланган.Инсон руҳиятини ўрганиш Ғарбий Европанинг тиббиёт мактаблари илмий машғулотлари рўйхатига киритилган. [17;6] Руҳий саломатлик нуқтаи назаридан, руҳият ушбу соҳада бошқа ўринларда “қалб”, “кўнгил” атамалари билан ҳам қўлланилади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, инсон саломатлигига ёндашувнинг ушбу кўриниши биқ қанча позитив, баъзи ҳолларда негатив натижаларни фанга тақдим қилган. Ушбу тадқиқотлар шуни кўрсатадики, мазкур ёндашув инсон саломатлигига фойда келтириши кўрсаткичи зарар келтириши ёки ҳеч қандай фойда келтирмаслигидан анча юқоридир. [18;8] Тасаввуф нафақат мусулмон оламида, балки номусулмон оламида ҳам кенг ёйилган, Шарқдан Ғарбга томон ёйилиб бораётган ўзига хос маънавият шакли бўлиб, уни маънавий, руҳий фойдаси нуқтаи назаридан тадқиқ қилиш керак.[19;27]

Дарҳақиқат, “бугунги давр инсони, ривожланиш ва юксалишларга қарамасдан, маънавий қашшоқлик ва руҳий инқироздан азият чекмоқда. Ўзининг асл табиатидан тобора бегоналашиб бораётган инсоният Албер Камюнинг ўз онасини кўмаётган чоғда бамайлихотир сигарет чекаётган ва қаҳва ичишни хоҳлаётган (“Бегона” асари) Мерсосига ўхшаб бормоқда. Тасаввуфга ўхшаган маънавий ва фалсафий таълимотлар айнан ана шундай инқирозлар учун ўзига хос ваксинадир. Инсоният руҳий тушкунликка тушган, маънавий-ахлоқий инқирозга юз тутган бир шароитда Тасаввуфнинг ўз-ўзини назорат қилиш ва бошқариш, ўз хатти ҳаракатлари, хато ва камчиликларини

таҳлил қилиб бориш, ўзидаги ёмон хислатлар билан курашиб, улардан қутилиш, ўзини маънавий-руҳий жиҳатдан такомиллаштириш ва юксалтириш, инсонпарварлик ва ҳаётсеварлик ғоялари билан кучли иммунитет ҳосил қилиб, келажакка ишониб яшаш ва интилиш каби ахлоқий-руҳий тарбия усуллари бугунги кунда янада муҳим аҳамият касб этиб бормоқда”. [20;24]

Фалсафий жиҳатдан мушоҳада қиладиган бўлсак, тасаввуф илми ислом динининг асл моҳиятини очиб берадиган калитдир. Унинг Ислом моҳиятини чуқурроқ англаш ва идрок этишга қаратилган инсон тафаккури ва ҳис-туйғуларини ҳаракатга келтирадиган усуллари турли халқлар ва миллатларнинг тафаккур тарзи ва эстетик дидига мос тушганлиги туфайли охирги минг йил давомида Ислом дини жуғрофияси янада кенгайди. Бошқача таъбир билан айтганда, айнан Тасаввуф таълимотининг Мавлавия, Қодирия ва Нақшбандия каби айрим тариқатлари туфайли Ислом тафаккури дунё бўйлаб тарқалиб кетди.

Тасаввуф илми шунингдек, ислом динининг асосий манбаи булган Қурьони Карим ва Ҳадисни асл моҳиятини очиб берувчи таьлимот ҳисобланади. Ваҳийлик тажрибалари билан феноменологик асосга эга бўлган ушбу суфий тажрибаларини ўрганиш диний билим манбаларини илмий тадқиқ қилиш имконини беради. [21;34] Шу туфайли дунё бўйлаб кундан кунга клиник тажрибалардан тадқиқотларгача, нормал ва ғайритабиий идрок ҳодисаларини ва унинг оқибатларини ўрганиш руҳий саломатлик билан боғлиқ фанларнинг ажралмас қисмини ташкил қилади ва руҳий саломатлик фанлари тадқиқотчиларига суфийлик илми ва тажрибаларини ўрганиш учун қулай шароит яратиб беради. [22;34]

ХУЛОСА

Айни пайтда соғлом ақл билан тафаккур қилиб, бир ҳақиқатни тан олиш фурсати етиб келди: Тасаввуф ва ундаги “Комил инсон” таълимоти XXI асрга келиб, глобал маънавий-руҳий ҳодиса сифатида ўзлигини намоён эта бошлади. Зеро, “бугунги кунда Ер шарининг Японияда Америкагача бўлган ҳудудлари оралиғида Тасаввуф таълимотини фавқулодда қизиқиш билан ўрганиш жараёни бошланган. Бугунги кунда бу исломий тафаккур ва ҳаёт тарзи – Ибн Арабийнинг “Комил инсон” таълимоти ҳаётбахш ғояларини мусулмонлар билан биргаликда турли дин ва миллат вакиллари ҳам ўрганишга бел боғлашган. Нега? Чунки тобора маънавий қашшоқлик, ахлоқий тубанлик ва руҳий инқирозлар гирдобига тушиб бораётган

инсоният Тасаввуфнинг руҳий тарбия усулларидан фойдаланишга муҳтож бўлиб бормоқда”.[21;34]

Хулоса қилиб айтганда, Тасаввуф таълимотини ва унинг ажралмас бир бўлаги бўлмиш “Комил инсон” таълимоти эскирган матоҳ сифатида баҳолаш катта хато эканлигини инсоният тарихий тажрибаси кўрсатиб бермоқда. Зотан, иррационал билиш усулига асосланган, аммо, шунингдек, рационалистик билишни ҳам бутунлай инкор этмайдиган ушбу диний-фалсафий таълимот Ер шарининг катта қисмида ўзининг салкам 1300 йиллик мавжудлиги давомида такомиллашиб бориш ва модернизациялашиш имкониятлари кенглигини исботлаб берган. Бу ҳолатни айниқса, ҳам Шарқ ва ҳам Ғарб дунёсида кенг тарқалган Мавлавия (Мавлоно Жалолиддин Румий асос солган) ва Нақшбандия (Хожа Баҳоуддин Нақшбанд асос солган) каби ирфоний тариқатлар мисолида ҳам кўриш мумкин.[23;3]

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Президент Ш.М.Мирзиёев. (2022). 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси ҳусусида.
2. Achmad Ubaedillah. (2015). Sufi Islam And the nation state:Durul Arkam movement in the post Suharto er of Indonesia”. Indonesian journal of Islam and Muslim Societies 5(1), 80.
3. Insider.3 d-printed suicide pods are now legal in Switzerland//Insider
4. Nicola Davis “Euthanasia and assisted dying rates are soaring”// News, sport and opinion from the Guardian's global edition | The Guardian.
5. George Monbiot “Capitalism is killing the planet-it is time to stop buying into our own destruction”// News, sport and opinion from the Guardian's global edition | The Guardian
6. Umar Haque “If Communism killed millions, Capitalism too”. Eudaimonia. july-2018 .235p
7. Al-Farabi’s doctrine: virtuous people and a model of the «perfect man» https://articlekz.com/en/article/15139
8. "Catechism of the Catholic Church: III. The Social Doctrine of the Church". Vatican Publishing House.
9. O‘Leary, Naomi (26 November 2013). “Pope attacks ‘tyranny’ of markets in manifesto for papacy” //Business News | Reuters
10. Woodcock, George (1962, 1975). Anarchism, 158. Harmondsworth, England: Penguin Books. ISBN 0-14-020622-1.

11. Muslim Population Growth in Europe | Pew Research Center (pewforum.org)

12. Islamic Finance in Europe (deloitte.com)

13. Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал Жазарий. Тасаввуф сирлари . – Тошкент, 1999.

14. Saliyo, “Mencari Makna Hidup dengan Jalan Sufi di Era Modern”//Esoterik: Jurnal Akhlak dan Tasawuf 2, no. 1 (2016). Accessed http://dx.doi.org/10.21043/esoterik.v2i1

15. Annemarie Schimmel, Dim e nsi Mistik Dalam Islam (Jakarta: Pustaka Firdaus, 2002), 52.

16. M. Amin Syukur, Tasawuf Kontekstual Solusi Problem Manusia Modern (Yogyakarta: Pustaka, 2003), 112.

17. Fulford KW. Religion and psychiatry: Extending the limits of tolerance. In: Bhugra D, editor. Psychiatry and Religion: Context, Consensus and Controversies//London: Routledge; 1996. pp. 5–22.

18. Basu S. How the spiritual dimension of health was acknowledged by the world health assembly - A report. New Approaches Med Health // 1995;3:47–51.

19. Br J Psychiatry. 1994 Oct; 165(4):441-6.

20. Pathways to postoperative hostility in cardiac patients: mediation of coping, spiritual struggle and interleukin-6. Ai AL, Pargament K, Kronfol Z, Tice TN, Appel H. Res Nurs Health. 1987 Dec; 10(6):391-8. [PubMed]

21. S. Haque Nizamie, Mohammad Zia Ul Haq Katshu, and N. A. Uvais“Sufism and mental health” Indian J Psychiatry. 2013 Jan; 55 //(Suppl 2): S215–S223.doi: 10.4103/0019-5545.105535

22. Жаъфар Холмўминов. Тасаввуф онтологияси. – Тошкент: “Yosh avlod matbaa”, 2021. – Б.24-25.

23. Iqbal M. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. London: Oxford University Press; 1934. [Google Scholar] [Ref list]

24. Rakhmonberdiev, Islombek. (2022). Tasavvuf falsafasi va adabiyotining global ahamiyati” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2),

25. Умаржонов, С. С. (2022). Онтологияда субстансия ва аксиденсияга доир таълимотнинг Фахриддин розий томонидан ривожлантирилиши. Academic Research in Educational Sciences, 3(3), 961–968. https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-3-961-968

26. Umarjonov, S.S. (2021). Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitishda Fahriddin Roziyning ontologik qarashlarining o‘rni va ahamiyat. Oriental

renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 1029-1038.

27. Umarjonov, S.S., Safarov, M.K. (2021). Fahriddin Roziyning “Latoif ul-g‘iyosiyot” qo‘lyozma asarida aql va e’tiqod masalasining qo‘yilishi va uning diniy-falsafiy germenevtik tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1058-1068.

28. Safarov, M.K., Umarjonov, S.S. (2021). Abu Bakr ar-Roziy etikasida befoyda o‘y surish va ochko‘zlik muhokamasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 1045-1049.

29. Rahmonberdiev, Islombek. (2021). Tasavvuf ta’limotida nafs tarbiyasi bosqichlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, maxsus son, 121-130.

30. Safarov, M. (2021). Abu Bakr ar-Roziy etikasida insonning o‘z kamchilliklarini anglashi va uni bartaraf qilishi muhokamasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (9) 68-71.

Odina NIZOMOVA
2-kurs magistranti, TDSHU

“MAHABHORAT” DOSTONIDAGI GNOSEOLOGIK MASALALAR TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qadimgi Hindistonda falsafaning ilk kurtaklari shakllanishi, madaniyati, tarixida alohida o‘rin tutgan buyuk epos “Mahabhorat” dostoning yaratilishi, uning hind xalqi hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. “Mahabhorat” dostonida qadimgi hind xalqining tafakkur tarzi, gnoselogik qarashlari, bilishning inson hayotidagi ahamiyati haqida qimmatli ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Hindiston falsafasi, “Mahabhorat” dostoni, gnoseologiya, “Bhagavadgita”, Krishna, vaqt va makon, inson, olam, koinot, Dharma, fikrlash, tafakkur, ong, ruh.

Bundan uch ming yillar ilgari yaratilgan “Mahabhorat” adabiyotining ajoyib yodgorligigina bo‘lib qolmay, qadimgi Hindiston xalqlari hayoti, urf-odatlari, xulqlari, estetik va etik qarashlarining o‘ziga xos ensiklopediyasidir.

“Mahabhorat”da olamni bilish masalasi juda muhim ahamiyatga ega. Inson o‘zini anglashi orqali dunyoni biladi. Ilm ya’ni idrok etish insonga axloqiy burchini, buyuk ishni bajarish uchun muhim sanaladi. Aynan idrok orqali inson borliqni o‘zini anglaydi. Krishna dunyoni anglash bilishda insonni beparvolik dunyoviy istaklardan voz kechishga chaqiradi. Lekin dunyoni to‘liq bilib bo‘lmaydi, chunki u cheksiz, undagi olamlar ham ko‘p.

“Mahabhorat” gnoseologiyada insonning vaqt va makon kabi voqeliklarni anglashi muhim ahamiyatga ega. Ular orqali inson o‘ylaydi, ular orqali o‘z borlig‘ini belgilaydi, ular orqali o‘zini va olamni biladi. Eposda tanlangan gnoseologik asos uning mualliflari va tinglovchilarini dunyo borlig‘ining to‘liqligini izlashga va egallashga undaydi. “Mahabhorat” o‘zini va koinotni tushunishga, umumiy (dharma) va alohida kabi gnostik haqiqatlarga tayanadi.

Eposda aniq ko‘rsatilgan gnoseologiya (koinotni anglash usuli) “Bhagavad-Gita” yoki o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi “muqaddas suhbat”.[1] Krishna o‘z shogirdi Arjunga uning qalbini bezovta qiladigan muammolarni tushunish istagida ko‘rsatma beradi. Krishna o‘z ongida dunyoning mavjudligini (uning haqiqiy haqiqatini ko‘rib) ushlab, Arjunni o‘zini ma’naviyatini shart qilib qo‘yadigan dunyoviy istaklardan xalos qilishga undaydi. Arjun biror narsani tushunish uchun, Krishnaning so‘zlariga ko‘ra, o‘zi uchun boshqa ruhiy holatga ega bo‘lishi kerak. Bu holat umumiy befarqlik, barcha tirik mavjudotlarga dushmanlik bilan munosabatda bo‘lish, fikrni jamlash, uni yerdagi (shartli material) bilan bog‘liq bo‘lgan narsalardan ozod qilish, sizning birligingiz bilan sizga vahiy qilingan narsani tushunish niyati bilan tavsiflanadi. Obyekt (uyg‘ongan ong hodisasi, buddhi), unga zarar yetkazmasdan bilish mumkin bo‘lgan bilan birlashish niyati (yoga atamasining o‘zi “bog‘lanish” degan ma’noni anglatadi).[2]

“Mahabhorat” tafakkurining asosini tavsiflashga u yoki bu koinot haqiqati bo‘lish chegaralarini kengaytirish, karma bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zini yengib o‘tish kabi gnostik haqiqatni qo‘shadi. Dunyo dostonlarining hech birida bilimning ne’mat sifatidagi g‘oyasi “Mahabhorat” dagidek aniq ko‘rsatib berilmagan. Bilim inson tabiatida bor. Idrok hayotning boshqa shakllaridan farq qiladi. Inson dunyoga (axloqiy) burch, buyuk ish (artha), sevgi (kama) uchun - va fikrlash (bilim) uchun keladi. Bu uning burchi, bu uning shaxsiy dxarmasi. “Mahabhorat”ning mazmuni, - deb da’vo qiladi uni yaratuvchisining o‘zi, - “Haqiqatning vahiysi, Veda, mavhum fikrlash va

[1] Мифы древней Индии. Бхагавадгита. — СПб.: Кристалл, 2000. — С.304.
[2] Мифы древней Индии. Бхагавадгита. — СПб.: Кристалл, 2000. — С.350.

bilim”.[1] Hikoyaning eng muhim diniy va falsafiy qismi bo‘lgan “Bhagavad-Gita” bilimni ne’mat sifatida aytadi.

Bilim barcha his-tuyg‘ulardan muhimroqdir. Fikrimizcha, insoniyat tarixidagi boshqa dostonlarning (mifologiyalarning) hech birida (Misr matnlari, qadimgi yunon eposi, Kalevala, Injil) bilish hodisasining bunday izchil rivojlanishi sodir bo‘lmagan. Bilimning maqsadi insonni o‘zidan yuqori ko‘taradigan, u hech qachon erisha olmaydigan, lekin uni to‘xtovsiz ravishda o‘ziga tortadigan va shu bilan uni haqiqatga aylantiradigan narsadir. “Mahabhorat” o‘z qahramonlarining og‘zi orqali “bilim kuchi” haqida bir necha bor guvohlik beradi.[2] Bilim orqali inson yanada yuksaladi, dharmani anglaydi. Bilimsizlikda, insonning bilimi yo‘q bo‘lsa inson ham halok bo‘ladi.

“Mahabhorat”ning ideali - hamma narsada va butun “yagona mohiyat”ni aniq ko‘radigan donishmanddir,[3] “benuqson donishmand”dir.[4] “Vedalar va Vedantalarning mohiyatini biladiganlar... har doim o‘zlarining barcha ishlarida muvaffaqiyat qozonganlar”, deyiladi “Mahabhorat”da.[5] Mohiyatni anglash, ya’ni borliqning mohiyati, dharmasini aniq ko‘ra olish insoniyatga muvaffaqiyat va baxt olib keladi. Aslida ham shunday, inson qachonki dunyoni borliqni anglash uchun o‘zini anglashi lozim. O‘zini anglagandan song u borliqning mohiyati tushunib unga qarab harakatlansa, unda ortiqcha fikrlar va o‘ylar, uni qiynaydigan savollar qolmaydi.

“Mahabhorat”dagi odam - bu ma’lum bir varnaga mansubligidan yuqori bo‘lgan narsa, u ma’lum diniy va boshqa harakatlarni bajarish uchun rioya qiladigan qoidalardan, Vedik an’analarining boshqa qoidalaridan yuqoriroqdir. Eposdagi odam faqat mutlaq bilan solishtirish mumkin bo‘lgan narsadir (bu gnoseologiya nuqtai nazaridan ham muhimdir). Eposda xudolar va insonlar bir-biriga yaqin tasvirlanadi. Ya’ni xudolar inson qiyofasida tasvirlanishi, insonlar xudolar bilan ko‘rishib gaplashishi xudolardan inson tug‘ilishi, inson shoh bo‘lganda uning qarorlari xudolar so‘ziga aylanishi, ko‘pgina bilim, qobilyatlarni xudolar in’om etishi va hokazolar.

Fikrlash - va bu fikrning tabiatiga oid “Mahabhorat”ning yana bir muhim nuqtasi - bu qarama-qarshilik. “Mahabhorat” o‘z-o‘zidan

---

[1] Махабхарата. Книга Первая. Адипарва / Пер. с санскр. и ком- мент. В.И. Кальянова. Под ред. акад. А.П. Баранникова. — М.-Л.: Академия наук СССР, 1950. —С.10.
[2] Махабхарата. Рамаяна / Пер. с санскр. — М.: Художественная литература, 1974. — С.310.
[3] Махабхарата. Рамаяна / Пер. с санскр. — М.: Художественная литература, 1974. — С.187.
[4] Махабхарата. Рамаяна / Пер. с санскр. — М.: Художественная литература, 1974. — С.188.
[5] Махабхарата. Книга Первая. Адипарва / Пер. с санскр. и ком- мент. В.И. Кальянова. Под ред. акад. А.П. Баранникова. — М.-Л.: Академия наук СССР, 1950. — С.309.

Sankhyaning qarama-qarshiliklarni hal qilish kabi fikrlash haqidagi g‘oyalarini rivojlantiradi.[1] “Mahabhorat”da biror narsani anglash qarama-qarshilikni hal qilishdir. Malika Savitri Yama xudosiga murojaat qiladi: “Solihlarning abadiy dharmasi - na fikr, na so‘z, na ish bilan hech bir mavjudotga zarar yetkazmaslikdir ...”.[2] Fikr bilan tirik mavjudotga zarar yetkazmang. Savitri va “Mahabhorat” uchun fikr, xuddi harakat kabi, haqiqiy va samarali. Fikrlash orqali biz hayotimizdagi qaysidir qarama-qarshilikni bartaraf etamiz, unga yechim topamiz. Fikrlashning yaxshi hamda yomoni bo‘ladi. Fikrlashda inson fikrining boshqalarga zarar yetkazmasligini o‘ylash lozim.

O‘z-o‘zini bilishning boshlanishi (izlanuvchan fikrning boshlanishi) - bu dharma nafasini his qilish. Dharma odamga o‘zi uchun, boshqa odamlar uchun, boshqa hayot (o‘simliklar, hayvonlar va boshqalar) uchun azoblanish hissi shaklida namoyon bo‘ladi. Arjun jang oldidan dramatik shubhalarni boshidan kechirgandan keyingina, o‘zining va umumiy dharmani tushunadi; Yudxishthira, surgunda bo‘lib, kshatriya bo‘lish ma’nosini o‘rganadi; Savitri, erini yo‘qotib, hayotda nima yashiringanini va inson hayotining o‘zi nima ekanligini tushunadi. Dharmaning namoyon bo‘lishi sifatida fikr ontologik va shuning uchun samaralidir. U hamma narsaga qodir (albatta, agar u dharmik bo‘lsa). Brahma fikrlash orqali o‘zini karmadan xalos qiladi, fikr bilan u Brahma bilan birlashadi, fikr bilan zohid xudolar irodasiga qarshi chiqadi, fikr bilan koinotdagi yaxshilik saqlanib qoladi. Fikrlar to‘plami, deydi “Bhagavad-Gita”, “dunyoning yaxlitligini, saqlashga olib keladi.[3] Krishnaning ta’kidlashicha, shahvatdan ajralishga erishgan kishi yogi (so‘zma-so‘z: Brahma bilan birlashuvchi) bo‘ladi. Bunga erishgan kishi Brahmaga yaqinlashadi. Brahmaga yaqinlashish aql bilan ravshan - yoritilgan. U “haqiqatni ko‘ruvchi” bo‘ladi.[4] Unga haqiqiy voqelik - Brahma haqiqati, ochib beriladi. Qadimgi hind xalqining dunyoqarashida insonning oliy maqsadlaridan biri bu Brahmaga yetishish bo‘lsa, bu yo‘lda unga fikrlash yordam beradi. Fikrlash insonning oliy maqsadi karmadan ozod bo‘lish va nirvanaga yetishishda muhim sanaladi.

O‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini o‘rganish (yoga bilan shug‘ullanish) - bu o‘z-o‘ziga – “men” ga - vaqtinchalik, ehtiroslar va shaxsiy manfaatlar bilan

---

[1] Смирнов Б.Л. Санкхья и Йога // Махабхарата. Книга Двенадцатая, Шантипарва. Мокша-Дхарма (Основа освобождения) / Пер., пре- дисл., вводные ст., примеч., толковый слов. акад. АН ТССР Б.Л. Смирнова. — Ч. 1. — М.: Древнее и Современное, 2012. — С.90.

[2] Махабхарата. Книга Третья. Лесная (Араньякапарва) / Пер. с санскр., предисл. и коммент. Я.В. Василькова и С.Л. Невелевой. — М.: Гл. ред. воет. лит. изд-ва «Наука», 1987. —С.564.

[3] Мифы древней Индии. Бхагавадгита. — СПб.: Кристалл, 2000. — С.232.

[4] Мифы древней Индии. Бхагавадгита. — СПб.: Кристалл, 2000. — С.223.

bog‘liq bo‘lgan holda, diqqatni jamlashni anglatadi. O‘z o‘zini bilish - bu sizning o‘tkinchi istaklaringiz, maqsadlaringiz ba’zi natijalarga erishishga qaratilgan harakatlaringiz siz uchun qanchalik ahamiyatsiz ekanligini ko‘rishni anglatadi. O‘z-o‘zini bilish - bu o‘z xohish-istaklari va his-tuyg‘ulari ustidan hukmronlik qilishdan xalos bo‘lishni anglatadi.

Tuyg‘ular ustidan hukmronlikka erishgan, nafratini jilovlagan qaramlikni bilmaydi, ularni abadiy o‘z irodasiga bo‘ysundiradi. Ma’rifatga erishgan, darddan xalos bo‘lgan, va shundan keyin uning yuragi benuqson, aqli mustahkam bo‘ladi.[1] Kimki his-tuyg‘ular olamidan joziba va nafratdan ajralgan, irodasi kuchli, Atmanga bo‘ysunuvchi tuyg‘ular bilan o‘tsa, u ravshanlikka (ruhga) erishadi. Aniqlik (ruh) bilan uning barcha azoblari yo‘qoladi, chunki ong (chetas) aniq bo‘lsa, aql (buddhi) tez orada mustahkamlanadi.

Fikrini yig‘a olmagani uchun insonda ijodiy fikr yo‘q; ijodiy tafakkurga ega bo‘lmaganlarga dunyo yo‘q, lekin dunyosi yo‘qlarga qanday baxt bo‘lsin?[2] Inson tarqoq fikrlarini ongiga yig‘ib, dharmalarning mohiyatini anglab, ijodiy tafakkurga ega bo‘lgandagina u butun dunyoni tushunadi va baxtni his qiladi.

Bilish yoki istaklardan voz kechish orqali o‘z-o‘zini chuqurlashtirish inson uchun tabiiydir. Bu uning ontologiyasi. Bu uning o‘zini tiklashi - karmadan xalos bo‘lishidir .[3]

Xulosa qilib aytganda, “Mahabhorat” dostonida bilim avvalo bu dharmani anglashdir. Inson o‘zini anglashi, tuyg‘ularini jilovlashi insonni yanada yuksaltiradi va Brahma bilan bilan bog‘lanishga olib keladi. Inson bilimi, uning aqli tabiatdan beriladi. Uning fikrlashi to‘g‘ri va yaxshi bo‘lsa, tarqoq fikrlarini to‘plasa u tafakkurga erishadi. Har bir inson buddaga aylanish imkoniyati bor, bu holatga tafakkur qilishi, yoga bilan erishiladi. Oliy istaklardan biri bo‘lgan haqiqatni anglashda fikrlarni to‘plash muhim sanaladi. Qachonki inson fikrlarini to‘plasa, dunyoning yaxlitligini anglaydi, bu esa Brahmaga yetishish imkoniyatini beradi. Brahmaga bog‘lanish haqiqatni ko‘rishni tuhfa etadi. “Mahabhorat” eposida bilishda his tuyg‘ularga tayanib emas, ilohiy qonun dharma hamda aqlga tayanishni ko‘rsatadi.

---

[1] Махабхарата. Рамаяна / Пер. с санскр. – М.: Художественная литература, 1974. – С.179.
[2] Мифы древней Индии. Бхагавадгита. – СПб.: Кристалл, 2000. – С.228.
[3] Махабхарата. Книга Третья. Лесная (Араньякапарва) / Пер. с санскр., предисл. и коммент. Я.В. Василькова и С.Л. Невелевой. – М.: Гл. ред. воет. лит. изд-ва «Наука», 1987. – С.17.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Мифы древней Индии. Бхагавадгита. – СПб.: Кристалл, 2000. – 511с.
2. Махабхарата. Книга Первая. Адипарва / Пер. с санскр. и коммент. В.И. Кальянова. Под ред. акад. А.П. Баранникова. – М.-Л.: Академия наук СССР, 1950. – 738 с.
3. Махабхарата. Рамаяна / Пер. с санскр. – М.: Художественная литература, 1974. – 606 с.
4. Смирнов Б.Л. Санкхья и Йога // Махабхарата. Книга Двенадцатая, Шантипарва. Мокша-Дхарма (Основа освобождения) / Пер., пре- дисл., вводные ст., примеч., толковый слов. акад. АН ТССР Б.Л. Смирнова. – Ч. 1. – М.: Древнее и Современное, 2012. – С. 47-211.
5. Махабхарата. Книга Третья. Лесная (Араньякапарва) / Пер. с санскр., предисл. и коммент. Я.В. Василькова и С.Л. Невелевой. – М.: Гл. ред. воет. лит. изд-ва «Наука», 1987. – 799 с.

XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISOD

Obidjon ABUDRAHMONOV
tayanch doktorant, TDSHU

2001-2021-YILLARDA ERON TASHQI SIYOSIY QARASHLARIDA AFG‘ONISTON MUAMMOSI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Afg‘oniston va Eron Islom Respublikasi o‘rtasidagi munosabatlarning salbiy va ijobiy jihatlari hamda Eron Islom Respublikasi tashqi siyosatida afg‘on muammosining tutgan ahamiyati, rasmiy Tehron hukumatining Afg‘onistonga nisbatan qarashlarining mintaqa uchun ahamiyati kabi masalar o’rin olgan. Bundan tashqari, 2001-yil voqealarining Afg‘oniston – Eron munosabatlarig ta’siri va AQSh boshchiligidagi koalitsiyaning Afg‘onistondagi terrorizmga qarshi kurashish borasidagi harbiy operatsiyalarning Eron uchun ahamiyatini ochib berish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: Shimoliy Alyans, Tolibon, yovuzlik o‘qi, AQSh-Afg‘oniston strategik sheriklik bitimini (SPA), P5+1, “Sharqqa nigoh”.

Kirish. Afg‘on muammosini hal etishda Eron faktori katta ahamiyat kasb etadi. Zero, Afg‘oniston bilan chegaralarga ega bo‘lgan Eron uchun Afg‘onistonda sodir bo‘layotgan har qanday siyosiy voqea va hodisa ta’sir etmasdan qolmaydi. Shu sababli ham Eron tashqi siyosatida Afg‘on muammosini hal etish masalasi har doim yuqori ahamiyat kasb etadi. Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiyning tabiri bilan aytganda: “Eron Islom Respublikasi doimo Afg‘onistonda tinchlik va osoyishtalik o‘rnatilishiga, qon to‘kilishi va notinchliklarning to‘xtashiga, xalq irodasining suverenitetiga intilib kelgan. Biz afg‘on xalqi tomonidan saylangan hukumatni qo‘llab-quvvatlaymiz” [1]. Albatta, Tehron uchun Afg‘onistondagi notinch vaziyatni hal etilishi har tomonlama muhim ahamiyat kasb etadi. Eronning Mazrkaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarida ham ushbu muammoning hal etilishi muhimdir. Bundan tashqari, iqtisodiy jihatdan Tehron uchun yangi bozorlarga chiqish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish masalalsi ancha ustuvor ahamiyatga ega. Eron sobiq prezidenti Hasan Ruhoniy qo‘shnilar, xususan, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlari bilan yaqin aloqalarni o‘rnatish Islom

[1] Iran president calls for election in Afghanistan. (05.09.2021). http://timesofindia.indiatimes.comtext_campaign=cppst

Respublikasining asosiy tashqi siyosat tamoyillaridan biri ekanligini ta'kidlagan edi.

Asosiy qisim. Ta'kidlash joizki, 2001-2021-yillar davomida Eron va Afg'oniston munosabatlarini ikki toifaga ajratib o'rganish mumkin: ***ijobiy va salbiy.***

Salbiy munosabatlar. 1979-yilda Sovet Ittifoqi Afg'onistonga bostirib kirganidan so'ng, Saudiya Arabistoni mablag'lari va vahhobiylik oqimini olgan Deobandi uyushmalariga ko'plab pushtun jangchilari jalb qilingan.Ushbu anti-shia diniy muhitga qo'shimcha ravishda, shia teokratik ruhoniylari hukmronlik qiladigan tuzumga ega, ko'pchilik shia mamlakati bo'lgan Eronning Shimoliy ittifoqni (ularning asosiy qismi fors xalqi bo'lgan etnik tojiklar va boshqa ozchiliklar) qo'llab-quvvatlashi tabiiy edi. Afg'onistondagi Tolibon rejimi Eronga dushman sifatida ko'rilib, Tehron uchun xavfsizlikka asosiy tahdid manbai sifatida ko'riladi. 1998-yilning avgustida Tolibon Shimoliy Alyansning vaqtinchalik markaziMazori Sharifni egallab oldi. "Tolibon" yuzlab shia musulmonlarini o'ldirishdan tashqari, shahardagi Eron konsulligiga bostirib kirib, sakkiz nafar eronlik diplomat va bir eronlik jurnalistni o'ldirdi, yana 50 nafar Eron fuqarosini asirga oladi. Bunga javoban Tehron uyushtirilganqotilliklardan g'azablangan va hukumat bostirib kirish yoki qilmaslikka qaror qilganda chegaraga 200 000 askar yuborgan. "Tolibon" Eron tahdididan keyin va Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosimi ostida o'ldirilgan diplomatlarning jasadlarini qaytarib, qolgan eronlik asirlarni uylariga jo'natgani bilan urush oldi olindi. Eronliklarning o'ldirilishi va asirga olinishi Tehronda milliy tahqirlash va ehtimol, Tehronning Afg'onistondagi muvaffaqiyatsiz siyosatining yorqin eslatmasi sifatida ko'rildi.[1]. Mazkur mojaro natijasida Eronda furor avj oldi va hukumat chegaraga yuz minglab askarlarni safarbar qildi. Toliblar eronlik diplomatlarni o'ldirishda dindan qaytgan a'zolar buyruqsiz harakat qilganini va BMT vaziyatni yumshatish uchun vositachilik qilganini ta'kidladi. "Tolibon" harakati a'zolari Eron fuqarolariga to'g'ridan-to'g'ri hujumni kuchaytirgan holda, asosan shialardan iborat hazora etnik guruhi a'zolarini ham o'ldirdi. Tashkil topganidan beri shialarni himoya qilish uchun turli yo'llar bilan aralashib, shialikning global himoyachisi sifatida o'zini namoyon qilib kelayotgan Eron Islom Respublikasi uchun hazoralarni qatl ettirilishi anti toliblarni moliyalashtirishni kuchaytirishga sabab bo'ladi. Shunday qilib, Tehron Shimoliy Alyans va Tolibonni mag'lub etishga

[1]Neda Bolourchi. Iran's Strategy in Afghanistan: Pragmatic Engagement with the Taliban. (23. 09. 2021). https://newlinesinstitute.org/afghanistan/irans-strategy-in-afghanistan-pragmatic-engagement-with-the-taliban/

intilayotgan boshqa guruhlarni qo‘shimcha moliyalash, o‘q-dorilar bilan ta’minlaydi. Biroq, 2001-yilgi 11-sentyabr voqealaridan so‘ng, AQSh va G‘arb davlatlarining Afg‘onistonga kirib kelishi natijasida “Tolibon” harkatining Afg‘oniston hokimiyatidan ag‘darilishi va yangi hokimiyat shakllanishi oqibatlari Eron uchun juda qattiq zarba bo‘ldi. Garchi, yuzaga kelgan vaziyat 1979-yilgi inqilobdan keyin xalqaro maydonda Tehron va Vashington o‘rtasidagi munosabatlar yomonlashib, Eronga nisbatan xalqaro sanksiyalar qo‘llanilib kelinayotgan bir davrda rasmiy Tehron hukumati uchun AQSH bilan munosabatlarni yumshatishga qulay imkoniyat paydo bo‘lgandek ko‘rilgan bo‘lsa-da, vaziyat tamomila boshqacha tus oladi. Jorj Bushning 2002-yil yanvar oyida Eronni “yovuzlik o‘qi”ning asosiy o‘yinchisi sifatida tasvirlashi Eronda nafrat bilan kutib olindi. Bu oxir-oqibat prezident Muhammad Xotamiyning “Tolibon”ning ag‘darilishi natijasida taqdim etilgan diplomatik ochilish va AQSh va Eronning Afg‘onistonda barqarorlikdan manfaatdorligidan qandaydir yaqinlashish uchun katalizator sifatida foydalanishga bo‘lgan sa’y-harakatlarini izdan chiqardi. Mana shunday davrda, azaliy raqibining chegaradosh davlatiga harbiy kuchlarining joylashtirilishi va davlat boshqaruviga bevosita ta’sir o‘tkazishi Eron uchun katta muammoga aylanadi. Xususan, Afg‘onistondagi vaziyatning keskinlashishi va xalqaro kuchlarning mamlakat hududiga kirib kelishi natijasida ko‘plab afg‘onlar Eron hududiga ko‘chib otdi.

2001-yil voqealari Afg‘oniston – Eron munosabatlarida yangi sahifa ochdi. AQSh boshchiligidagi koalitsiya Afg‘onistondagi terrorizmga qarshi kurashish borasidagi harbiy operatsiyalar bevosita qo‘shni Eron manfaatlariga ham mos kelardi. Chunki, “Tolibon” davrida Afg‘onistondagi islomning shia oqimiga e’tiqod qiluvchilarga nisbatan keskin choralar ko‘rilgan edi. Afg‘onistonda aksilterror operatsiyasiga tayyorgarlik haqida e’lon qilinganida, Eron nafaqat uning havo maydonlarini o‘tkazish uchun taqdim etishdan bosh tortdi, balki Eron-Afg‘oniston chegarasi bo‘ylab joylashtirilgan qurolli kuchlari va havo mudofaasi kuchlarini ham jangovor shay holatga keltirdi. Ushbu operatsiya boshlanganidan so‘ng, Tehron Afg‘oniston hududiga, xususan Eron chegarasiga yaqin joylashgan Hirot shahri va uning atroflariga, shuningdek, Afg‘onistondan Eron chegaralariga yaqin hududlarga yangi qochqinlar kelishi bilan bog‘liq holda raketa va bombalar zarbalari borasida jiddiy tashvish bildirdi[1]. Eron 2001-yilda Afg‘onistonga AQSh qo‘shinlari kiritilgandan keyin harbiy-siyosiy vaziyatning rivojlanishini diqqat bilan kuzatib bordi. Eron bu missiyaning tezda tugab, Afg‘onistonda tinchlik

[1] Афганистан в начале XXI века. Институт изучения Израиля и Ближнего Востока институт востоковедения РАН. Москва – 2004. – С. 77.

o‘rnatilishidan manfaatdor edi. Biroq, AQShning Eron sharqiy qo‘shnisidagi harbiy mavjudligi juda uzoqqa cho‘zildi.

Ijobiy munosabatlar. Ammo, qisqa fursatda Eron Afg‘oniston uchun asosiy iqtisodiy hamkorga aylandi. 2006-yilda Eron Afg‘onistonga yana 100 million AQSh dollari miqdorida yordam ko‘rsatib, uni Afg‘onistonning asosiy hamkoriga aylandi. Ayni paytda Afg‘onistonda turli sohalarda 2000 dan ortiq Eron kompaniyalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ayniqsa, Eronning infratuzilma loyihalari Afg‘oniston iqtisodiyotini Eron bilan bog‘lashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu esa dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan Afg‘oniston uchun muhim istiqbolni belgiladi. Xususan, Yangi yo‘l qurilishi loyihasi Afg‘onistonni Eronning Chahbahor porti bilan bog‘lab, muhim xalqaro savdo yo‘lini taklif qildi. Iqtisodiy integratsiya energetika sohasida ham yaqqol namoyon bo‘ldi. Xususan, Eron Afg‘oniston neft iste’molining yarmini ta’minlaydi[1]. Afg‘on rasmiylarining ma’lumotlariga ko‘ra, Eron bilan savdo Afg‘oniston savdosining yarmini tashkil qiladi. Garchi bu savdo bir yo‘nalishli bo‘lsa-da, Eron Afg‘oniston bozorini o‘z mahsulotlari bilan to‘ldiradi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, Eronga qo‘yilgan xalqaro sanksiyalar Afg‘onistonga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu moliyaviy sektorda eng ko‘p e’tiborga loyiqdir. Eron valyutasi (rial) qiymatining pasayishi va Eron iqtisodiyotining qisqarishi pul o‘tkazmalari Afg‘oniston iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lgan afg‘on qochqinlariga bosim o‘tkazdi. *“The Wall Street Journal”* nashriga ko‘ra, o‘sh davrda Afg‘oniston Savdo va sanoat vaziri o‘rinbosari Muzammil Shinvari sanksiyalarning halokatli ta’siriga e’tibor qaratgan holda quyidagicha fikr bildiradi: “Biz Rial kursining tushib ketishidan juda xavotirdamiz... u yerda ko‘plab afg‘onlar yashab, ishlamoqda va ular birinchi bo‘lib o‘z ishlarini yo‘qotishlari mumkin"[2]. Shuningdek, 2001-yilda “Tolibon” rejimi qulagandan beri Eronning Afg‘onistonda ikki yo‘nalishli siyosat olib borganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. *Birinchi yo‘nalish,* barqarorlikni saqlash va Afg‘oniston markaziy hukumatini qo‘llab-quvvatlash bo‘lsa, *ikkinchi yo‘nalish,* mamlakatda xorijiy kuchlarning bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatish edi. Tehron uchun Afg‘oniston “Sharqqa qarash” bosh strategiyasining asosiy nuqtasi bo‘lib, u birinchi navbatda Eron va Osiyo mintaqasidagi sharqiy davlatlar, xususan Hindiston, Xitoy va Yaponiya o‘rtasidagi energiya va iqtisodiy aloqalarni oshirishga hamda Janubiy va

---

[1]Hersh, J. Afghanistan’s trade deal with Iran complicates U.S. aims. (05.09.2012). Huffington Post**.** Retrieved (29.09.2013). from http://www.huffingtonpost.com/

[2]Shahram Akbarzadeh**.** Iran's Policy towards Afghanistan: In the Shadow of the United States. Journal of Asian Security and International Affairs 2014. – P. 67.

Markaziy Osiyoda barqarorlikni o‘rnatishni maqsad qiladi. Shuning uchun ham Eron so‘nggi 13 yil ichida Tolibondan keyingi Afg‘onistonda davlat qurish bo‘yicha ko‘plab sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatladi. Ayni paytda Eron Afg‘onistonda xorijiy kuchlarning, xususan, AQSh kuchlarining bo‘lishiga qarshi bo‘lib, bu mamlakatda va umuman mintaqada ekstremizmni yoyish uchun bahona ekanligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, Eron AQSh kuchlarining mavjudligini Vashingtonning Eronning milliy va xavfsizlik manfaatlari hisobiga Markaziy va Janubiy Osiyo, shuningdek, Fors ko‘rfazidagi o‘z strategik mavqeini mustahkamlash strategiyasining bir qismi sifatida qabul qiladi. Eron, shuningdek, AQShning Afg‘onistondagi siyosati Eronning qonuniy talablarini, jumladan, Eron va Afg‘oniston hukumatlari o‘rtasida yaqin siyosiy va iqtisodiy aloqalarni qayta tiklashga putur yetkazadi, deb hisoblaydi. Shu sababli, Eron 2012-yilgi AQSh-Afg‘oniston strategik sheriklik bitimini (SPA) tanqid qiladi, bu esa AQSh uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. 2016-yilda bekor qilingan afg‘on munosabatlari, bunday kelishuv Afg‘onistonning Janubiy va Markaziy Osiyodagi an’anaviy betarafligiga zid ekanligini ta’kidlab, mintaqa davlatlarining munosabatlariga ishonchsizlik uyg‘otdi. Bunday kelishuv ostidagi muhit Eronning siyosiy-xavfsizlik rolini minimallashtiradi. Kelajakdagi xavfsizlik muammolarini oldini olish uchun uning bevosita chegaralari orqali faol va kuchli siyosiy-xavfsizlik mavjudligi Eron milliy xavfsizlik strategiyasining doimiy qismiga aylandi. Eronning Afg‘onistondagi tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri kengroq mintaqada nisbatan xavfsizligini oshirishdir. Eron xavfsizlikni butun Osiyo bo‘ylab ishlaydigan o‘zaro bog‘langan tarmoq sifatida ko‘radi - bir hududdagi ishonchsizlik butun mintaqa xavfsizligiga teng, shuning uchun Afg‘onistondagi beqarorlik boshqa mamlakatlarga osongina o‘tib borishi mumkin. Shunday qilib, AQShdan keyingi davrda Eronning Afg‘onistondagi tashqi siyosatida Pokiston va Qo‘shma Shtatlar kabi boshqa mintaqaviy va transmintaqaviy o‘yinchilar bilan “hamkorlik” va “raqobat” ikkita mavzu atrofida aylanadi. Bu tendentsiya agar Eron va P5+1 o‘rtasidagi yadroviy muzokaralar keyinchalik AQSh va Eron munosabatlarini yaxshilaydigan keng qamrovli kelishuvga erisha olmasa Hasan Ruhoniyning pragmatik hukumati davrida ham davom etishi mumkin. Eronning Afg‘onistondagi manfaatlari geografik jihatdan Afg‘oniston “Katta Ariana” deb ataladigan mintaqada joylashgan bo‘lib, bu mintaqa Tojikistondan shimoldan janubga Maldiv orollarigacha va sharq-g‘arbda Birmadan Erongacha cho‘zilgan keng

hududni o‘z ichiga oladi[1]. Afg‘oniston bu mintaqaga muhim darvoza bo‘lib xizmat qiladi va shu tariqa Eronning “Sharqqa nigoh” strategiyasida muhim rol o‘ynaydi. Eron bu yerda tashqi siyosatda energiya xavfsizligi va iqtisodiy integratsiya orqali rivojlanish yondashuvidan foydalanadi. So‘nggi bir necha yil ichida G‘arb sanksiyalari tufayli Eronning energiya eksporti va iqtisodiy integratsiyasi yo‘nalishi Osiyoga qaratildi, buning natijasida Osiyo mamlakatlari, xususan, Hindiston va Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarning hajmi oshdi. Bugungi kunda ushbu davlatlar bilan iqtisodiy faoliyatning kuchayishi Eronning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu maqsadga erishish yo‘li Janubiy Osiyo mintaqasida siyosiy barqarorlikni izlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan Afg‘onistonda xavfsizlik va barqarorlikni o‘rnatish Eron uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan geosiyosiy manfaatdir.

Xulosa qilib aytganda, 2001-2021-yillar davomida Eron tashqi siyosatida Afg‘oniston muammosini hal etish masalasi muhim o‘rin egalladi. Bunda 2001-yilda “Tolibon” rejimi qulagandan beri Eronning Afg‘onistonda ikki yo‘nalishli siyosat olib borganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Ya’ni barqarorlikni saqlash va Afg‘oniston markaziy hukumatini qo‘llab-quvvatlash hamda mamlakatda xorijiy kuchlarning bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatishga harakat qildi. Bundan tashqari, Tehron va “Tolibon” o‘rtasidagi munosabatlarda ham ancha iliqlik kuzatildi. Jumladan, Tehronda toliblarning shtab kvartirasining tashkil etilishi, Qo‘shma Shtatlarga nisbatan munosabatda yaqin manfaatga egaligini alohida ta’kilab o‘tish joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Kayhan Barzegar Iran's Foreign Policy in Post-Taliban Afghanistan. The Washington Quarterly. A publication of: Center for Strategic and International Studies Volume: 37, Issue: 2 (Summer 2014). https://ciaotest.cc.columbia.edu/journals/twq/v37i2/04.html
2. Hersh, J. Afghanistan’s trade deal with Iran complicates U.S. aims. (05.09.2012). Huffington Post. Retrieved. (29.09.2013). from http://www.huffingtonpost.com/
3. Shahram Akbarzadeh. Iran's Policy towards Afghanistan: In the Shadow of the United States. Journal of Asian Security and International Affairs 2014. – P. 67.

[1] Kayhan Barzegar Iran's Foreign Policy in Post-Taliban Afghanistan. The Washington Quarterly. A publication of: Center for Strategic and International Studies Volume: 37, Issue: 2 (Summer 2014) https://ciaotest.cc.columbia.edu/journals/twq/v37i2/04.html

4. Афганистан в начале xxi века. Институт изучения Израиля и Ближнего Востока институт востоковедения РАН. Москва – 2004. – С. 77.

5. Neda Bolourchi. Iran's Strategy in Afghanistan: Pragmatic Engagement with the Taliban. (23. 09. 2021). https://newlinesinstitute.org/afghanistan/irans-strategy-in-afghanistan-pragmatic-engagement-with-the-taliban/

6. Iran president calls for election in Afghanistan. (05.09.2021). http://timesofindia.indiatimes.comtext_campaign=cppst

Шухрат КАМИЛОВ
1-курс магистранти, ТДШУ

ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ СИЁСАТИДА МАРКАЗИЙ ОСИЁ ВЕКТОРИ

Аннотация. Мазкур мақолада Президент Ш.М.Мирзиёев маъмурияти даврида Ўзбекистон ташқи сиёсатининг устивор йўналишлари, унда Марказий Осиё давлатларининг ўрни очиб берилган. Ўзбекистоннинг Марказий Осиё бўйича сиёсатнинг замонавий тенденциялари, устувор йўналишлари ва асосий таклиф ва ташаббуслари таҳлил этилган. Шунингдек, икки ва кўп томонлама савдо-иқтисодий алоқалари кўрсаткичлари ҳам келтириб ўтилган.

Калит сўзлар. Марказий Осиё, Ҳаракатлар стратегияси, тараққиёт стратегияси, маслаҳат учрашувлари, минтақавий сиёсати, икки ва кўп томонлама ҳамкорлик.

Кириш. Ўзбекистоннинг ташқи сиёсатида Марказий Осиё вектори доимо устувор йўналиш ҳисобланган. Марказий Осиё давлатлари билан ҳамкорликни мустаҳкамлаш Ўзбекистон ҳукумати томнидан минтақавий интеграциянинг асосий сифатида кўрилган. Ўзбекистон биринчи президенти И.А.Каримов даврида бу борада маълум даражада ютуқларга ҳам эришилиб, Марказий Осиё ҳамкорлик ташкилоти ҳам тузилган эди. Бироқ кейинги йилларда чегара муамммолари, миллий-этник муносабатлар ва асосийси ташқи кучлар таъсирида Марказий Осиё давлатлари ўртасида муносабатларнинг таранглашуви ҳолатлари ҳам кўзга ташланди. Хусусан, бугунги кунда Қирғизистон ва Тожикистон чегара муносабатлари буни бир кўриниши ҳисобланади.

Асосий қисм. Ўзбекистонда 2016 йилда ҳокимият тизимида ўзгаришлар юз берди ҳамда мамлакат раҳбари сифатида М.М.Мирзиёев рационал-ошкора тартибда сайловларда ғалаба қозониб, фаолият юрита бошлади. Ўзининг президент сифатидаги дастлабки кунларидан бошлаб, "яхши қўшничилик" принципи асосида Марказий Осиё давлатлари билан ўзаро муносабатларни мустаҳкамлашга эътибор қаратди. Ўзбекистон Президенти мамлакат ташқи сиёсати бўйича қуйидаги фикрларни билдирган: "Мамлакатимизнинг ташқи сиёсат соҳасидаги муҳим устувор йўналиши дунёнинг етакчи давлатлари ва халқаро ташкилотлари билан стратегик шерикчилик ҳамда ҳамкорликнинг мувозанатланган тизимини шакллантиришдан иборат. Бизнинг бундай ёндашувимиз иқтисодиётни модернизациялаш, барқарорлик ва хавфсизликни таъминлаш, Марказий Осиёда ҳамкорлик учун қулай шарт-шароитларни яратиш вазифаларининг самарали ҳал қилинишини таъминлашга қаратилган"[1].

Бугунги кунда Ўзбекистон тараққиётини белгилаб берадиган иккита йирик тизимли ва комплекс стратегиялар қабул қилинди.

Биринчиси, 2017 йил 7 февралда қабул қилинган *"Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"*ги Ўзбекистон Президентининг ПФ-4947-сонли Фармони. Мазкур стратегиянинг бешинчи устивор йўналиши ташқи сиёсат масаласига бағишланган бўлиб, чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий ташқи сиёсат ютириш белгилаб олинган[2].

Иккинчиси, 2022 йил 28 январда қабул қилинган *"2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"*ги Ўзбекистон Президентининг ПФ-60-сонли Фармони[3]. Мазкур хужжатни контент таҳлил қилганда, Ўзбекистон тараққиётининг 7-йўналиши 94-мақсади сифатида айнан Марказий Осиё билан боғлиқ масалалар киритилган. Хусусан, Марказий Осиёда хавфсизлик, савдо-иқтисодий, сув, энергетика, транспорт ва маданий-гуманитар соҳалардаги яқин ҳамкорликни сифат жиҳатидан юқори босқичга олиб чиқиш масаласига алоҳида

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2021. – Б.334.

[2] Қаранг. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/ru/docs/3107036

[3] Қаранг. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/ru/docs/5841063

эътиблор қаратилган. Бунинг учун қуйидаги ***вазифалар***ни амалга ошириш белгилаб олинган:

- Марказий Осиё давлатлари билан олий даражадаги мулоқот ва икки томонлама ҳамкорликнинг барча форматдаги механизмлари асосида (ҳукуматлараро комиссиялар, сиёсий маслаҳатлашувлар, парламентлараро ҳамкорлик комиссияси ва бошқалар) йиғилишларни ташкил этиш.

- Марказий Осиё давлатлари раҳбарларининг Маслаҳат учрашувларини ҳар йили мунтазам ташкил қилишни таъминлаш ва уларда фаол иштирок этиш.

- Марказий Осиё бўйича минтақавий ҳамкорлик стратегиясини ишлаб чиқиш ишларини бошлаш.

- Минтақавий ташкилотлар доирасида Ўзбекистоннинг миллий манфаатларини фаол илгари суриш.

- Ўзбекистон Республикасининг чегараолди назорат-ўтказиш пунктларини реконструкция қилиш ва кенгайтириш орқали уларнинг ўтказувчанлигини ошириш.

- Марказий Осиёда экология, атроф-муҳитнинг ифлосланишини олдини олиш ва табиатни муҳофаза қилиш борасида ҳамкорликни янги босқичга олиб чиқиш.

- Ўзбекистон ва Марказий Осиё давлатлари музейлари ҳамда архивлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорликни кенгайтириш, икки мамлакат тарихи ва маданиятини акс эттирувчи каталогларни биргаликда нашр этиш.

- Туризм соҳасида янги воқелик ва эпидемиологик талабларни ҳисобга олган ҳолда мувофиқлаштирилган чора-тадбирларни қабул қилиш.

- Марказий Осиё давлатларида Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси мухбирлик пунктларини очиш.

- Ўзбекистоннинг Европа мамлакатлари ва Европа Иттифоқи (ЕИ) институтлари билан савдо-иқтисодий, сув, энергетика, транспорт ва маданий-гуманитар соҳалардаги алоқаларини ривожлантиришга қаратилган ҳамкорлик шаклларини қўллаб-қувватлаш.

2017-2021 йиллар давомида Марказий Осиё давлатлари ўртасида олий ва юқори даражада расмий ташрифлар, улар доирасида имзоланаётган икки ва кўп томонлама шартномалар сони ва кўлами сезиларли равишда ортди. Жумладан, ўтган давр мабойнида Ўзбекистон қўшни Туркманистон, Қирғизистон (2017 йил) ва Тожикистон (2018 йил) билан стратегик шериклик ўрнатди, 2021 йилда

эса Ўзбекистон ва Қозоғистон ўртасида иттифоқчилик муносабатлари тўғрисида декларация имзоланди [1] . Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёев 2023 йил 26-27 январь кунлари Қирғизистонга давлат ташрифи чоғида икки мамлакат ўртасида ҳар томонлама стратегик шериклик тўғрисидаги Декларацияни имзоланди[2].

Шунингдек, Ўзбекистон президентининг ташаббуси билан Самарқанд шаҳрида 2017 йил 10-11 ноябрь кунлари БМТ шафелигида Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарор ривожланишни таъминлаш бўйича *"Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик"* мавзуида халқаро конференция ўтказилди. Мирзиёев Марказий Осиёни яқин келажакда барқарор, иқтисодий ривожланган ва юксак тараққий этган минтақага айлантиришга хизмат қиладиган **олти таклиф**ни илгари сурди[3].

Биринчидан, бу савдо-иқтисодий алоқаларни ривожлантириш ва товар айирбошлаш ҳажмини ошириш ҳамда кооперацияни мустаҳкамлаш учун қулай шароитлар яратиш.

Иккинчидан, минтақанинг транзит-логистика салоҳиятидан янада самарали фойдаланиш ва транспорт инфратузилмасининг жадал ривожланишини таъминлаш.

Учинчидан, бу – Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш мақсадида амалий ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш.

Тўртинчидан, бу – давлат чегараларини делимитация ва демаркация қилиш жараёнини тезда ва узил-кесил якунига етказиш.

Бешинчидан, минтақада сув ресурсларидан адолатли фойдаланиш муаммосини имкон қадар тезроқ тартибга солиш.

Олтинчидан, мамлакатларимиз ва халқларимиз ўртасида маданий-гуманитар алоқалар, дўстлик ва яхши қўшничилик муносабатларини мустаҳкамлаш.

Шу бирга Ўзбекистон ташаббуси билар илгари сурилган муҳим таклифлардан бири бу бевосита **Марказий Осиё давлат раҳбарларининг маслаҳат учрашуви**нинг ташкил этилишидир. Бугунги кунга қадар тўрт марта учрашувлар ташкил этилди. Биринчи

---

[1] Хакимов Ф. Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати: асосий устувор йўналишлар ва эришилган натижалар // Strategy of Uzbekistan. – №04. – 2021. – Б.97.

[2] Ўзбекистон ва Қирғизистон стратегик шериклик тўғрисидаги декларацияни имзолади // https://www.gazeta.uz/uz/2023/01/27/documents-kg/ - 27 январ 2023

[3] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи // Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти // https://president.uz/uz/lists/view/1227 - 10.11.2017

учрашув 2018 йил 15 мартда Остона шаҳрида ўтказилган бўлса, иккинчиси Тошкент ва учинчиси Ашхободда бўлиб ўтган. 2022 йил 21 июлда Қирғизистоннинг Чўлпонота курорт шаҳрида 4-маслаҳатлашув учрашувлари ўтказилди.

Натижада, Ўзбекистоннинг 2017-2021 йиллар давомида Марказий Осиё давлатлари билан ташқи савдо айланмаси ҳажми икки баробардан зиёдга ўсиб, 2021 йил якунида минтақавий ташқи савдо айланмаси 6,3 миллиард долларни ташкил қилди [1]. Хусусан, Ўзбекистон статистика қўмитаси маълумотлари кўра, 2022 йил январь-октябрь ойларида Ўзбекистон ташқи савдо айланмаси 40,1 млрд долларни ташкил этди. Қозоғистон билан ташқи савдо айланмаси хажми 3721,2 млн (умумий улушнинг 9,3%и), Қирғизистон Республикаси билан 989,9 млн (2,5%), Туркманистон билан 614,1 млн (1,5%)ни ташкил этди [2]. Тўғри бугунги кунда Марказий Осиё давлатлари билан савдо-иқтисодий алоқалар етарли даражада эмас, лекин йилдан йилга ўсиш тенденцияси кузатилмоқда.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, бугунги Ўзбекистон маъмурияти очиқ ва прагматик ташқи сиёсати олиб бормоқда. Мамлакат ташқи сиёсатининг устувор йўналиши сифатида Марказий Осиё давлатлари билан ҳамкорлик ўзининг янги босқичига кўтарилди.

Биринчидан, Ўзбекистон Марказий Осиё давлатлари билан чегара муаммосини мувафаққиятли ҳал этишга эришди. Охирги чегара масаласи Қирғизистон билан 2022 йилда ниҳоясига етказилди.

Иккинчидан, Ўзбекистон минтақавий сиёсатда барча давлатларининг манфаатларини ҳисобга олган ҳолда фаолият юритмоқда. Натижада Тожикистон билан Роғун, Қирғизистон билан Қамбарота ГЭСлари масаласида умумий келишувга эришди.

Учинчидан, Ўзбекистон Марказий Осиё давлатлари ўртасидаги масалаларни ташқи кучлар аралашувисиз, икки ва кўп томонлама форматлар асосида ривожлантиришга интилмоқда. Бундай платформа сифатида Марказий Осиё давлат раҳбарларининг маслаҳат учрашувини келтириш мумкин.

Тўртинчидан, Ўзбекистон томонидан савдо-иқтисодий алоқалар, транспорт-логистика масаласи минтақа давлатлари ҳамкорлигининг драйвери сифатида эътироф этилмоқда. Йилдан йилга минтақа

---

[1] Хакимов Ф. Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати: асосий устувор йўналишлар ва эришилган натижалар // Strategy of Uzbekistan. – №04. – 2021. – Б.97.

[2] Ўзбекистоннинг ташқи савдо айланмаси $40 млрддан ошди // https://www.gazeta.uz/uz/2022/11/23/commerce/ 23 ноябр 2022

давлатлари билан савдо-иқтисодий алоқалар кўрсаткичи ортиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021.
2. Хакимов Ф. Ўзбекистоннинг ташқи сиёсати: асосий устувор йўналишлар ва эришилган натижалар // Strategy of Uzbekistan. – №04. – 2021.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонунчилик маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/ru/docs/5841063.
4. Ўзбекистон ва Қирғизистон стратегик шериклик тўғрисидаги декларацияни имзолади // https://www.gazeta.uz/uz/2023/01/27/ documents-kg/ - 27 январ 2023.

Shahnoza TOSHQULOVA
2-kurs magistranti, O‘zMU

O‘ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLAR BILAN MUNOSABATLARINING O‘RNATILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, shu bilan bir qatorda jahon hamjamiyatda ham o‘z o‘rniga, statusiga ega bo‘lish maqsadida xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lishiga doir ma’lumotlar keltirilgan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlikni ta’minlashda O‘zbekistonning o‘rni muhim. Shu sababdan ham Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti va Turkiy Davlatlar tashkiloti doirasida Markaziy Osiyoning yanada birlashuvini hamda bu jarayonda O‘zbekistonning hissasi katta ekanligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga boshqa tashkilotlar bilan munosabatlarning o‘rnatilishi, o‘zaro aloqalarning qay yo‘sinda rivojlanayotgani xususida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi, BMT, Orol fojeasi, Antonio Guterresh, Shavkat Mirziyoyev, Islom Karimov, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YeXHT),

Yevropa Ittifoqi, Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO), Shanxay hamkorlik Tashkiloti (ShHT).

Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o‘z taraqqiyot ko‘lami bilan jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egallash uchun harakat boshladi. Shu qatorda O‘zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish maqsadida o‘zining ijtimoiy-siyosiy yangilanish dasturini ishlab chiqdi. O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay geografik-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun imkon berdi. Xususan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni, bu hududda istiqomat qiladigan xalqlarning qadimdan hamfikr bo‘lib kelgani Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi siyosat yuritishda ijtimoiy zarurat hisoblanib kelinmoqda. O‘zbekistonning bu borada amalga oshirgan ulkan yutuqlari umumjahon sivilizatsiyasi bilan mushtarak ekanligini alohida qayd etish lozim.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo‘lgan tinchlikparvar tashqi siyosati uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta’minladi. Bugungi kunda O‘zbekiston 130 ga yaqin davlat bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatgan.

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy xususiyati Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasiga moslab shakllantirilganligi va amalga oshirilayotganligidir. Bu siyosatning mohiyati shundan iboratki, vujudga kelgan muammolarni tizimli va bosqichma-bosqich hal etishdir. Tashqi siyosiy vazifalarni ro‘yobga chiqarishda O‘zbekiston, avvalambor, o‘zining milliy manfaatlaridan kelib chiqadi. Millat yoki mamlakat aholisining ijtimoiy ahvolini in’ikos etar ekan, u milliy taraqqiyot kuchlarini harakatga undovchi muhim omil vazifasini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi 100 dan ziyod xalqaro tashkilot a’zosidir. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) a’zosi bo‘ldi. BMT bilan hamkorlikdagi asosiy ustuvor yo‘nalishlar bu – xavfsizlikka tahdidlarga qarshi kurashish, ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslik, Afg‘onistonni qayta tiklash, ekologik muammolarni yechish, shu jumladan, Orol fojeasi oqibatlarini yengillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish masalalaridir [1, Б. 37].

1993 yil fevralda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ta’sis etildi va ish boshladi. O‘zbekiston Respublikasi va BMT rahbarlarining sa’y-xarakatlari natijasida bugungi kunda respublikamizda BMT vakolatxonasi BMTning taraqqiyot dasturi, qochoqlar ishi buyicha oliy qo‘mita komissari, jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, aholi joylashishjamg‘armasi,

narkotiklarni nazorat qilish dasturi, bolalar jamg‘armasi singari iqtisoslashgan muassasalarni o‘z tarkibiga birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi.

Mamlakatimizni jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta’minlab berdi. O‘zbekiston Respublikisi o’zining tashqi siyosatdagi yo’nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991-yil dekabrdan 1992-yil iyul oyigacha bo’lgan davr ichida Respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O’zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi, ularning 100 dan ortig‘i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. O‘zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda [2]. O‘z navbatida O’zbekistonning elchilari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko’rsatib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasiga 2002-yil oktyabrda BMT Bosh kotibining tashrifi chog‘ida ilgari surilgan tashabbusning amaliy natijasi sifatida giyohvand, psixotrop moddalar va prekursorlarga qarshi kurash bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazining ta’sis etilishi [8] 2017-yilda BMT Bosh kotibi Antonio Guterreshning tashrifi chog‘ida ham o‘ziga xos va samarali hamkorlik masalalarida kelishuvlar amalga oshirildi. O‘zbekistonning BMT bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan katta hissasi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi BMTning inson huquqlari sohasiga oid 70 ortiq xalqaro hujjatlari, shu jumladan, 6 ta asosiy kelishuv a’zosidir [10]. O‘zbekiston bu yo‘nalishda o‘zining xalqaro majburiyatlarini bajarmoqda va mazkur yo‘nalishda o‘z siyosatini ishlab chiqmoqda [11].

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ishtirokidayoq xalqaro tashkilotga “Orol dengizining halokati butun dunyo uchun oldini olib bo‘lmaydigan oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Biz jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, Orolni va Orolbo‘yini qutqarishda yordam berishga chaqiramiz. Dastlabki qadam sifatida mazkur komissiya ushbu muammo bo‘yicha Nukus shahrida BMT homiyligida xalqaro konferensiyani tayyorlash mumkin bo‘lur edi”, deb tavsiya bergandi” [4, B. 16].

Prezident Shavkat Mirziyoyev ham Islom Karimov singari o‘zining ilk BMTdagi nutqida xalqaro hamjamiyat e’tiborini yana Orol fojiasiga qaratdi: “Bugungi kunning eng o'tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e'tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening

qo'limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O'ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo'q. Dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda. Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz” [12].

O‘zbekiston 1992-yil 26-fevralda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YeXHT)ga a’zo bo‘ldi. 2006 yil iyun oyida YeXHTning Doimiy kengashi tomonidan Toshkent shahrida shu vaqtgacha faoliyat yuritgan YeXHT Markazi o‘rniga YeXHTning O‘zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi idorasi ta’sis etildi. 2006-yil iyul oyida O‘zbekiston Respublikasi hukumati va YeXHT o‘rtasida YeXHTning O‘zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi lavozimini ta’sis etish to‘g‘risida Memorandum imzolandi. Imzolangan Memorandum doirasida respublika vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda 2007-yil 18 ta, 2008-yil 15 ta loyiha amalga oshirildi. 2009-yilda 14 ta loyiha hayotga tatbiq etilgan. 2019-yilning dekabrida Shavkat Mirziyoyev va YeXHT DIIHB Saylovlarni kuzatish rahbari Kayetana de Zulueta Outram bilan uchrashdi. Kayetana de Zulueta O‘zbekistondagi saylovlar mutlaqo yangi siyosiy muhitda, salmoqli darajada takomillashtirilgan huquqiy normalar asosida o‘tayotgani, shu sababli DIIHB saylov jarayonlarini katta qiziqish bilan kuzatayotganini ta’kidladi [12]. Bundan avval Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi (DIIHB) Ehtiyojlarni baholash Missiyasining Saylovlar bo‘yicha Departamenti boshlig‘i A.Shlik [14] bilan ham uchrashuv bo‘lib o‘tgan edi.

O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligi. O‘zbekiston bilan Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar ikki tomonlama va 1999-yilning 1-iyulidan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi hamda unga a’zo davlatlar bilan Sherikchilik va hamkorlik kelishuvi [17] doirasida rivojlanib bormoqda.

O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy va savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish hamda mustahkamlash doirasida so‘nggi yillardagi hamkorligi va tashriflar almashinuvi ikki tomonlama va mintaqalararo doirada faollashib bormoqda [18].

O‘zbekistonning Yevropa Ittifoqi bilan ikki tomonlama muloqoti faol xarakterga ega bo‘lib, u 5 asosiy qo‘shma organ doirasida amalga oshirilmoqda: Hamkorlik kengashi, Hamkorlik qo‘mitasi, Parlament hamkorligi qo‘mitasi, Savdo va investitsiyalar bo‘yicha quyi qo‘mita hamda Adliya, ichki ishlar va boshqa masalalar bo‘yicha quyi qo‘mita [19]. Yevro-

Atlantika hamkorlik kengashi (EAHK) va “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” (TYH) dasturi doirasida O‘zbekiston va Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) hamkorligi to‘g‘risidaO‘zbekiston va NATO o‘rtasidagi hamkorlik 1994-yil 13 iyulda tasdiqlangan NATOning “Tinchlik yo‘lida hamkorlik” dasturining Doiraviy bitimiga muvofiq hamda 1996-yildan boshlab har yil ishlab chiqariladigan hamkorlikning muhim sohalarini qamrab oladigan (harbiy ta’lim, mudofaa siyosati, terrorizmga qarshi kurash, ilmiy izlanishlar, favqulodda holatlarda fuqarolar muhofazasini ta’minlashni rejalashtirish) sherikchilik bo‘yicha individual dasturlar doirasida amalga oshirib kelinmoqda.

2008-yil 3-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov NATO Bosh kotibi Y.Sxefferning taklifiga binoan NATO/EAHKning Buxarest shahridagi sammitida ishtirok etdi va Afg‘onistonda barqarorlikni ta’minlash maqsadida «6+3» Guruhini tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. O‘zbekiston va NATO o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalarni rivojlanish masalalarini muhokama kilish maqsadida Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari bo‘yicha NATO Bosh kotibining maxsus vakili R. Simmons Respublikaga bir necha bor tashrif buyurgan.

O‘zbekiston Respublikasining Shanxay hamkorlik Tashkiloti (ShHT) faoliyatidagi ishtiroki Shanxay hamkorlik tashkilotini tashkil etish to‘g‘risidagi Deklaratsiya 2001-yilning 15-iyunida Shanxay shahrida imzolangan. O‘zbekiston Tashkilotning ta’sischilaridan biri hisoblanib, boshqa davlatlar bilan teng ravishda ShHT doirasidagi hamkorlikning istiqboldagi strategiyasini aniqlaydi.

ShHT Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mutahkamlash bo‘yicha ko‘ptomonlama hamkorlik mexanizmi, ochiq va konstruktiv muloqotning, shuningdek turli yo‘nalishlarda hamkorlik rivojining maydoni hisoblanadi [21, Б. 20]. O‘zbekiston ShHT Xartiyasiga zid bo‘lmagan Tashkilot doirasidagi barcha asosiy tadbirlarda ishtirok etadi. Tashkilotning asosiy maqsadlari – mintaqada xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, xalqaro terrorizm, separatizm, ekstremizm va uning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurashish, shuningdek giyohvandlik moddalari va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishiga qarshi kurashish; ko‘ptomonlama o‘zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni kengaytirish; gumanitar, ijtimoiy va madaniy sohalarda ko‘ptomonlama hamkorlikni amalga oshirishdir.

O‘zbekiston Tashkilot doirasida o‘zaro xarakatlarni to‘plash zaruriyati har bir a’zo-davlatning manfaatlariga birday javob beradigan yo‘nalishlarda olib borish tarafdoridir, ya’ni – mintaqada barqarorlikni ta’minlash, o‘zaro

iqtisodiy aloqalar, iqtisodiyotning barqaror o‘sib borishi va a’zo mamlakatlarda turmush darajasini oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratishdir. O‘zbekiston uchun investitsion hamkorlikni faollashtirish, transport aloqalarini, telekommunikatsiyani rivojlantirish, joylarda yashaydigan aholiga qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish va boshqa ijtimoiy muammolarni bartaraf etish muhim hisoblanadi.

2008-yilning 28-avgustida Dushanbeda o‘tkazilgan ShHT sammitida davlatimiz Rahbari o‘zining nutqida hamkorlikning boshqa yo‘nalishlari bilan bir qatorda ShHT a’zo-davlatlarinig ulkan iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish masalalariga, yirik ko‘lamdagi loyihalarga, jumladan, transport-kommunikatsion aloqalarni ta’minlashga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, zamonaviy xalqaro logistik markazlarni, savdo va turizmni shakllantirish, yangi korxonalarni barpo etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayotganligiga e’tiborni qaratdi. 2010-yilgi mamlakatimizda o‘tgan sammitda ham bir qator aktual masalalar ko‘rib chiqildi. 2016-yilgi Toshkent sammiti ham yirik masalalar bilan bir qatorda Hindiston va Pokiston mamlalakatlarining ShHTga rasman a’zo bo‘lib kirishiga strat berilgani bilan ajralib turadi. 2022-yilning sentyabtrida Samarqandda bo‘lib o‘tadigan sammitda esa Eron Islom Respublikasining ShHTga rasmiy a’zo sifatida kirishi masalasi kun tartibida bosh o‘rinni egallagan.

O‘zbekiston jahondagi 105 mamlakatni birlashtiruvchi Qo‘shilmaslik harakatiga qabul qilingan, bo‘lg‘usi jahon parlamentining timsoli bo‘lmish Parlamentlararo Ittifoqqa kirgan. Islom konferensiyasi O‘zbekistonni kuzatuvchi sifatida qabul qilib, mamlakatimizga ishonchli va mas’uliyatli sherik deb qarashmoqda. O‘zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro tashkilotlar – “Xalqaro mehnat tashkiloti”, “Jahon Pochta ittifoqi”, “Elektr aloqasi buyicha xalqaro ittifoq”, “Jahon meteorologiya tashkiloti”, “Xalqaro Olimpiada qo‘mitasi”, Atom energiyasi buyicha xalqaro agentlik kabilarning a’zosidir. Bularning hammasi O‘zbekiston Respublikasining tarixan qisqa vaqt ichida xalqaro hamjamiyatga jadal qo‘shilganligining, uning teng xuquqli a’zosi sifatida dunyo siyosatida faol qatnashayotganligining yaqqol ifodasidir.

Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, integratsiya jarayonlari mintaqa xalqlari uchun, ularning yorqin kelajagi uchun milliy istiqlol butunlay yangi sahifa ochdi. O‘z milliy boyliklari, resurslarini tasarrufiga kiritgan Markaziy Osiyo xalqlari istiqlol yo‘lidan izchil odimlamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Каримов И.А. БМТ БА 48-сессиясидаги маъруза, Нью-Йорк, 28 сентябрь // Биздан озод ва обод ватан қолсин. Тошкент: Ўзбекистон, 1996. 2-ж. Б. 37,47.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Тошкент: Ўзбекистон, 2000. Б. 66.
3. Karimov I. A. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT 48-sessiyasida so‘zlagan nutqi. T.: O‘zbekiston, 1995. B. 15.
4. Касимов А., Васкин И. Основние направления внешней политики Республики Узбекистан. Ташкент – 1994. С. 32.
5. Hakimov R. O‘zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2001. B. 41.
6. Кофи Аннан. “Мы народи Объединенних наций”. ООН и права человекав XXI веке. Правда Востока. 1999 г. 28 декабря.
7. Murodov X., Muxammadiev N, Jamolov G. O‘zbekiston Jahon Hamjamiyati safida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi
8. Adabiyot vasan’at nashriyoti, 2000 y. – B. 39.
9. Тараққиёт ва ҳамкорлик йўлларида. Ўзбекистон ташқи сиёсати ва дипломатияси. Т.: Ўзбекистон, 1993. Б. 20
10. https://hozir.org/ozbekiston-va-jahon-hamjamiyati-ozbekistonning-tinchliksevar-m.html
11. https://uzbekistan.un.org/uz/resources/publications
12. https://www.un.org/securitycouncil/ctc/
13. https://www.osce.org/ru/mc/39573
14. https://uzbekistan.un.org/uz/about/about-the-un
15. https://uzbekistan.un.org/uz/91556-birlashgan-millatlar-tashkilotining-umumiy-mamlakat-tahlili-ozbekiston
16. www.un.org
17. https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72sessiyasida-nutq-sozladi.html
18. https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/ozbekiston-prezidenti-yexht-diihb-saylovlarni-kuzatish-missiyasi-rahbarini-qabul-qildi.html
19. https://cemc.uz/uz/page/2257/yexht-diihb-missiyasi-bilan-uchrashuv
20. www.worldbank.org
21. https://lex.uz/ru/docs/-3822465
22. https://lex.uz/docs/-734688?ONDATE2=10.01.2018&action=compare

23. https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonning-evropa-mamlakatlari-va-xalqaro-tashkilotlar-bilan-ozaro-manfaatli-hamkorligida-yangi-davr-boshlandi
24. https://www.eeas.europa.eu/uzbekistan/yevropa-ittifoqi-va-ozbekiston_uz?s=233

Dostonjon TOJIYEV
O'zR FA SHI tayanch doktoranti

ORGANIZATION OF TURKISH STATES AND UZBEKISTAN – NEW STEPS TOWARDS THE WORLD COMMUNITY

Annotation: This article presents a brief history of the Cooperation Council of Turkic-speaking states, the integration of this structure into the world community, political and economic activities of the Republic of Uzbekistan, as well as the countries of Central Asia.

Key words: Organization of Turkic States, world community, Naxichevan, Tashkent, Cholpan-Ata, Shavkat Mirziyoev, Cooperation Council of Turkic Speaking States, Azerbaijan, Istanbul summit

The 21st century has advanced ahead of all previous eras as an era in which artificial intelligence, information communications, automation and manufacturing have been dominated by robots. At the same time, there is a growing number of cases that need to be addressed in a problematic and painful way. This was especially evident during the coronavirus pandemic. In the end, it was reaffirmed that no society, no state can develop without mutual cooperation and good neighborliness. The most important aspect is that the closeness of language and religion has been a major factor to unite people around the world in every age. In particular, the Organization of Turkic States is now in the spotlight of the world community, and due to the unity of its historical roots, its member states have become a strong, mutually supportive economic, political, cultural and social structure.

Historically, since 1992, summits of Turkic-speaking heads of state have been held. At the initiative of the leaders of these countries, the Organization of Culture of Turkic-speaking peoples (TurkSoy) was established in 1993. A number of structures, such as the TurkPA (Parliamentary Assembly of Turkic Speaking States), the Turkish Culture and Heritage Foundation, and the

Turkish Academy for Research, have been operating in cooperation with Turkic-speaking countries. The first Cooperation Council of Turkic Speaking States was established on October 3, 2009 in Nakhichevan, Azerbaijan. Initially, the founders and full members of the council were Turkey, Azerbaijan, Kazakhstan and Kyrgyzstan.

The main goal of this international organization is to strengthen political consultations on global and regional issues, economic and technical cooperation, including cooperations in science, art and culture, as well as the preservation and further development of the material and spiritual culture of the Turkic-speaking world.

The linguistic, religious, cultural and historical closeness of these states has shown that they are ready to unite under the banner of one organization and to provide all-round partnership support. In all the summits of this organization as a Council to date, closer ties between peoples with historically close roots, the comprehensive cooperation in social-political issues have been achieved at the same time. In particular, the results of the first extraordinary summit in the history of the Turkish Council on Solidarity and Cooperation, initiated by the President of the Republic of Azerbaijan Ilham Aliev on April 10, 2020 to combat the CoVID-19 pandemic, which were difficult for all showed that they do not spare mutual aid.

During his official visit to Tashkent in 2018, the President of the Republic of Turkey Recep Tayyip Erdogan was invited Uzbekistan to join the Turkish Council and to the summit in Kyrgyzstan. Another important aspect was that the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev also represented our country for the first time at the sixth summit of the Cooperation Council of Turkic Speaking States, which took place on September 3, 2018 in Cholpon-Ata, Kyrgyzstan. While the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev and the Prime Minister of the Republic of Hungary Viktor Orban attended the summit as honorary guests, the foundation stone was laid for the process of obtaining the official membership of Uzbekistan. In his speech at the summit, the head of our state noted that our people are bound by a common language, common spiritual and cultural values and independent cooperation, and that there are no problems or disagreements on the political agenda of the Council today.

This process has brought Uzbekistan closer to the Cooperation Council of Turkic Speaking States, as well as laid the foundation for strengthening cooperation with countries with the same language and religion.

The close cooperation between the Turkic-speaking countries is being reflected in the development of their political and economic life. In 2017

alone, the volume of trade between Uzbekistan and the member states of the Cooperation Council of Turkic Speaking States increased by more than 40%. These are just statistics from the period when Uzbekistan was not yet a member of this organization. At the end of 2018, when Uzbekistan was one step closer to becoming an official member of the organization, the volume of bilateral trade and economic relations doubled from the previous year.

It would be preferable, if it this process is analyzed in a different way, in the context of Uzbekistan's relations with the member states of the Cooperation Council of Turkic Speaking States. Until now, the Republic of Uzbekistan and the Republic of Kazakhstan have been cooperating extensively in trade, economic, cultural and social spheres as equal members of the Commonwealth of Independent States and the Shanghai Cooperation Organization. This closeness has also been increased between 2016 and 2018 compared to previous years. Uzbekistan also has a large trade turnover with its close neighbors Turkmenistan and Tajikistan. Economic and social cooperation between Azerbaijan and Turkey continued until 2018, although not at a high level. In recent years, relations with these countries have become stronger. High-level and high bilateral visits were made.

The seventh summit of the Cooperation Council of Turkic Speaking States was held in Azerbaijan on October 15-16, 2019. The Baku summit ensured Uzbekistan's accession to the organization as an equal and full member of the Turkic Council. The Law of the Republic of Uzbekistan "On ratification of the Nakhichevan Agreement on the establishment of the Cooperation Council of Turkic Speaking States" was approved and signed by President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoev on September 14, 2019 at the twenty-second plenary session of the Senate. This process marked the beginning of a new era of cooperation that will last until 2019. From the very beginning, the organization's prestige has grown in the eyes of the world community as a rapid growth, strengthening all-round ties, restoring the ancient unity of the Turkic world (the President of Uzbekistan supported the granting of observer status to Turkmenistan at the Istanbul Summit in 2021).

This year's Istanbul Summit was the last meeting of the Cooperation Council of Turkic Speaking States and the official establishment of the Organization of Turkic Speaking States. Another important highlight was Afghanistan. Touching upon the current difficult situation in the country, which borders Uzbekistan and Turkmenistan and is historically close to Turkic-speaking countries, the President called on it not to fall into a humanitarian crisis, to become an isolated terrorist hotbed in the international arena and to cooperate with the government.

At a time when the processes of integration and globalization in the political, economic, cultural and social spheres of the world are intensifying, it is important to identify the main trends and directions of development of the countries of the world. At a time when the signs of the development of integration processes in world politics and economy are changing, the Republic of Uzbekistan is deeply integrated into the world community and is expanding its social-economic, political and cultural relations with these countries. Approaches to the study of the positive and negative aspects of the development of the world's major integration centers, as well as the countries that have long been partners of our country, are of great importance in the economy, political and social relations of our republic. Today, the cooperation of the Republic of Uzbekistan with the Organization of Turkish States is also developing at a high level.

All the member states of this organization, as fraternal people, demonstrate to the world that the strategies for further enhancing the age-old ties of friendship play an important role in ensuring peace, stability and cooperation in the region and the world.

References

1. Special Edition of World of Diplomacy Journal of the Ministry of Foreign Affairs of Azerbaijan dedicated to the Turkic Council. Baku – 2020.

2. Azerbaycan cumhuriyeti disisleri bakanliginin yayini diplomasi dunyasi dergisi turk konseyi ozel sayisi. № 56. Baku – 2020.

3. https://president.uz/uz/2939

4. SPECIAL PUBLICATION – Turkic Council: 10th Anniversary of the Nakhchivan Agreement. Baku – 2019.

5. https://www.turkkon.org/tr/organizasyon-tarihcesi

6. Назарова Г., Халилов Х. ва бошқ. Халқаро иқтисодий интеграция. Тошкент: Тафаккур, 2010.

7. https://president.uz/uz/lists/view/2012

8. https://uza.uz/uz/posts/turkiy-kengash-arorgo-ida-zbekiston-bayro-i-ilpiraydi-14-10-2019

9. https://www.turkkon.org/tr/zirveler

10. https://xs.uz/uzkr/20088

11. https://president.uz/uz/lists/view/4758

12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy_davlatlar_tashkiloti

Adhamjon MAMADJONOV
stajor-tadqiqotchi, TDSHU

“SOFT POWER” KONSEPSIYASIGA OID NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro munosabatlardagi “yumshoq kuch” konsepsiyasining ayrim nazariy jihatlari tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, davlatlar uchun “yumshoq kuch” resurslaridan foydalanishning ijobiy tomonlarini aniqlash maqsad qilingan. Ishda, umumilmiy usullardan foydalanilgan tarixiy, tahlil qilish, analogiya, mantiqiy usul, qiyosiy-siyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining yetakchi davlatlarining tashqi siyosatida qo‘llaniladigan “yumshoq kuch” vositalari, shakllari va turlaridagi farqlar ko‘rsatilgan. Tashqi siyosatga “yumshoq kuch”, madaniy va xalq diplomatiyasini joriy etishning muvaffaqiyatli misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Jahon siyosati, Jozef Nay, “yumshoq kuch”, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi, tashqi siyosat resursi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarning bugungi bosqichi yangi, Yalta-Potstam tizimidan keyingi dunyo tartibotining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Ikki qutbli qarama-qarshilik o‘tmishda qolib, hozirgi zamonaviy dunyo tizimi vaqt o‘tgani sari ma’lum bir kuchga ega aktorlar bilan to‘ldirib borildi va ko‘p qutbli dunyo shakllantirildi. XX asrning o‘rtalaridan boshlab xalqaro munosabatlarda yangi yo‘nalish rivojlanib, endi ta’sir o‘tkazishning kuch va zo‘ravonlik hamda cheklovlar orqali majburlashdan tashqari, o‘z tomoniga jalb qilishning turli iqtisodiy, madaniy va gumanitar ta’sir kuchi yordamida, qo‘yilgan maqsadlarga erishish mumkinligi haqidagi tushuncha paydo bo‘ldi. Ushbu yo‘nalishning nazariy asoslari Sovuq urushning yakunida rivojlandi va davlatlar tashqi siyosiy faoliyatini “yumshoq” va “qattiq” kuchlarga ajratish boshlandi.

Bugungi kunda “yumshoq kuch” xalqaro munosabatlardagi eng mashhur atamalardan biridir. Ko‘pchilik - tahlilchi olimlar, siyosatchilar o‘zlarining nutqlarida, bayonotlarida va ilmiy ishlarida ushbu atamadan foydalanadilar. “Yumshoq kuch” atamasini birinchi marta Garvard universiteti professori Jozef Nay o‘zining 1990-yilda chop etilgan “Yetakchilikka asoslangan: Amerika qudratining o‘zgaruvchan tabiati” kitobida kiritadi. Keyinchalik, u ushbu konsepsiyani 2004-yilda “Yumshoq kuch: Jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari” kitobida va “Yumshoq kuch va AQSh-

Yevropa munosabatlari” maqolasida mukammalroq tarzda ishlab chiqdi. Jozef Nay o‘z kitobida bu atamani birinchi marta qo‘llaganida, “yumshoq kuch” atamasi bu qadar mashhur bo‘lishini tahmin ham qilmagan edi. Vaqt o‘tgani sari bu atama keng e’tibor va mashhurlikka erishgan bo‘lsada, uning aniq ma’nosi ustida bahs munozaralar ko‘payib bordi. 2004-yilda Jozef Nay “Yumshoq kuch: Jahon siyosatida muvaffaqiyatga erishish vositalari” nomli navbatdagi kitobini nashr etdi, unda u “yumshoq kuch” atamasini Amerika tajribasi orqali o‘rganib chiqib, uning qamrovini aniqlashga harakat qildi va konsepsiya mohiyatini batafsil tushuntirib berdi[1]. Biroq, “yumshoq kuch” manbalari va undan boshqa davlatlar tomonidan o‘z tashqi siyosatini amalga oshirishda qanday samarali foydalanish mumkinligi borasida hali ham noaniqlik mavjud.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, xalqaro munosabatlardagi kuchlar muvozanati qattiq va yumshoq kuchlar dixotomiyasini shakllantirish sifatida tushuniladi. Harbiy va iqtisodiy qudratning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan o‘lchovlarini o‘z ichiga olgan qattiq kuchga murojaat qilish “hokimiyatni amalga oshirishning ko‘rsatma yoki buyruq berish usuli” deb hisoblanishi mumkin[2]. Biroq, Naill Fergyuson AQSh dollari va armiyasi maxsus kuchlariga ishora qilib, XXI asrda “haqiqiy global kuchni qo‘llash uchun faqat yashil pullar va yashil beretlardan ko‘proq narsa kerak bo‘ladi”[3] aytgan so‘zlari bejiz emas albatta. Ta’kidlash joizki, Jeyms Medisonning keltirilgan “hamyon” va “qilich” iborasi yigirma birinchi asrda hokimiyatni amalga oshirish uchun endi yetarli bo‘lmasligi mumkin[4]. So‘ngi o‘zgarishlar davomida ko‘rishimiz mumkinki harbiy kuch yordamida muammolar hal etilishidan ko‘ra uni yanada chigallashtirib yubormoqda.

Bunday munozaralarga muvofiq, Jozef Nay asarida shunday deyd, “Amerika kuchining o‘zgaruvchan tabiati, bu “klassik” qattiq kuch manbalaridan tashqari hokimiyatni amalga oshirishning bilvosita yo‘li ham mavjud, mamlakat jahon siyosatida o‘zi ma’qul ko‘rgan natijalarga erishishi mumkin, chunki boshqa davlatlar unga ergashishni xohlaydilar yoki bunday ta‘sirlarni keltirib chiqaradigan tizimga rozi bo‘ldilar”[5]. Aytishimiz mumkinki

---

[1] Joseph S. Nye, Soft Power: The Means To Success In World Politics. https://www.amazon.com/Soft-Power-Means-Success-Politics/dp/1586483064

[2] Hendrik W. Ohnesorge Soft Power. The Forces of Attraction in International Relations. P. -34-37. Center for Global Studies University of Bonn Bonn, Germany. SBN 978-3-030-29922-4 (eBook) https://doi.org/10.1007/9780-29922-4

[3] Niall Ferguson, “Think Again: Power,” Foreign Policy, No. 134 (January/February 2003), P. 18

[4] By John Yoo. Foreign Affairs and Separation of Powers in the Twenty-first Century. Chicago: University of Chicago Press, 2005. P. 23

[5] Jozeph Nye, Bound to Lead, P. 31. Jozef Nay o'zining keyingi asarlarida odatda formulaning ikkinchi qismini ("yoki bunday effektlarni keltirib chiqaradigan tizim bilan kelishilgan") o'tkazib

ishlab chiqilgan hokimiyatning bunday shakllari, birinchi navbatda, bir ishtirokchining boshqalarni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish yoki harbiy yo‘l bilan majburlash usuliga asoslangan bo‘lsada, hokimiyatning bu jihati, ya’ni boshqalarni siz istagan narsani xohlashga majbur qilishning bilvosita yoki optik kuch harakati deb nomlanishi mumkin. 1990-yilda kiritilgan va majburlashdan ko‘ra jalb qilishga asoslangan qo‘shma hokimiyatning ushbu ta’rifi bugungi kungacha “yumshoq kuch” tushunchasining ajralmas qismini tashkil etadi[1]. Ushbu munozaralardan so‘ng, turli mualliflar qattiq va yumshoq kuch o‘rtasidagi asosiy kontrastni ko‘rsatadigan oddiy formulani taklif qilishga harakat qilishdi. Geraldo Zahran va Leonardo Ramos quyidagicha fikr bildiradi, “Buyruqbozlik kuchi boshqalar qilayotganini o‘zgartirish qobiliyatidir, optik kuch esa boshqalarning xohish-istaklarini shakllantirish qobiliyatidir”[2]. Yana bir olim Metyu Freyzer bu borada “Qattiq kuch tahdid soladi, yumshoq kuch da’vat etadi. Qattiq kuch ko‘ndiradi, yumshoq kuch ishontiradi”[3] va Jozef Nay “Qattiq kuch bu turtki, yumshoq kuch - bu jalb qilishdir”[4]. Mulohaza yuritar ekanmiz, yumshoq kuchning jozibali yoki maftunkor xilma-xilligi haqidagi ushbu g‘oyaning kelib chiqishi va asosiy xususiyatlarini batafsil ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga ko‘ra XXI asrda “Amerika tanazzuli” fonidan tashqari, bir vaqtning o‘zida va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli voqealar o‘sha davrda yumshoq kuch konsepsiyasining zafarli yurishiga hissa qo‘shdi, iqtisodiyotni liberallashtirish, o‘sib borayotgan global demokratlashtirish, globallashuv, axborot asrining boshlanishi va yangi muammolar o‘rnatilgan xalqaro munosabatlar kun tartibining birinchi o‘ringa yumshoq kuch tushunchasi dolzarb ekanligini qo‘ydi[5]. Frensis Fukuyama G‘arb liberalizmi va demokratiyasining muqarrar g‘alabasidan so‘ng e’lon qilgan “Tarix intixosi” asarida shunday ta’kidlaydi “Ko‘pchilik tarix o‘qi demokratiyaga ishora qiladi, ko‘plar demokratiya degan g‘oya bilan bog‘lanadi”[6]. Samuel

---

yubordi, bu formula quyida muhokama qilinganidek, Syuzan Strenjning tizimli kuch tushunchasini eslatadi.

[1] Jozeph Nye, Bound to Lead, P. 31.

[2] Zahran and Ramos, “From Hegemony to Soft Power,” P. 17.

[3] Matthew Fraser, Weapons of Mass Distraction: Soft Power and American Empire (New York, N.Y.: St. Martin’s Press, 2003), P. 10.

[4] Jozeph Nye, “Hard, Soft, and Smart Power,” P. 565.

[5] Hendrik W. Ohnesorge Soft Power. The Forces of Attraction in International Relations. P. -34-37 . Center for Global Studies University of Bonn Bonn, Germany. SBN 978-3-030-29922-4 (eBook) https://doi.org/10.1007/9780-29922-4

[6] Francis Fukuyama, “The Neoconservative Moment,” The National Interest, No. 76 (Summer 2004), P. 60. https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/1354066105055482

Xantington demokratiyaning global yuksalishi haqida “demokratlashtirishning uchinchi to‘lqini”[1] deb atagani - bu borada ta’sirning yumshoq kuch vositasi boshqa har qanday vositadan ko‘ra samaraliroq ekanini isbotlaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunga kelib mamlakatlarning “yumshoq kuch”lari reytingida o‘zgarishlar kuzatilmoqda va G‘arb davlatlarining yaqqol gegemonligiga Sharq davlatlarining harakati ta’sir etmoqda: AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, kabi mamlakatlarga Xitoy, Yaponiya davlatlarining yetib olishi o‘zgarishlar ko‘lamini belgilab beradi. Davlatlar tashqi siyosatida “Yumshoq kuch” konsepsiyasini qo‘llash borasidagi ba’zi amaliy yondashuvlarga to‘xtalib o‘tamiz.

So‘nggi yillarda Qo‘shma Shtatlar o‘z yetakchiligini qayta qo‘lga kiritdi, xususan 2017-2020-yillar oralig‘ida yetakchilikni qo‘ldan boy berishi turli harbiy-siyosiy o‘yinlar bilan izohlansada 2022-yilga kelib Amerika hayot modelining ommalashishi Green Card (Ing. United States Permanent Resident Card) uchun harakat qilayotgan chet el fuqarolari sonining haddan tashqari ko‘payishiga olib keldi[2]. AQShning “Amerika demokratiyasini” yoyish bo‘yicha olib borilayotgan tashqi siyosati ham “yumshoq kuch” vositalariga asoslanadi: OAV, Internet, kino sanoati, ular gullab-yashnashi va farovonligi uchun yo‘q qilinishi kerak bo‘lgan dushmanning jamoaviy qiyofasini shakllantirilib, butun dunyo ongida “yaxshi va adolatli Amerika” qiyofasini shakllantirishga urg‘u beriladi[3]. Amerika Qo‘shma Shtatlari Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) o‘z mablag‘larining 60% dan 70% gacha NPO sektoriga ajratadi, bu bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari Qo‘shma Shtatlar agentlari sifatida faoliyat yuritishidan oqlangan sug‘urta hisoblanadi[4].

Ingliz ta’limining nufuzi, texnologik taraqqiyot bilan birga mamlakat madaniyati va tarixiga qiziqish joriy yilda Buyuk Britaniyani ko‘p jihatdan Yevropada yetakchi maqomga olib chiqdi. Buyuk Britaniya “yumshoq kuch”dan foydalanishining o‘ziga xosligini, eng avvalo ingliz tilining butun dunyodagi yetakchilik roli (IELTS, TOEFL), Britaniya universitetlarining xalqaro tan olinganlik nufuzi, jahon ommaviy axborot vositalarining Britaniya qirollik oilasiga doimiy e’tibori kabilarda namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, Forbes ma’lumotlariga ko‘ra BBC Jahon axborot xizmatining global

---

[1] Samuel P. Huntington, “Democracy’s Third Wave,” Journal of Democracy, Vol. 2, No. 2 (Spring 1991), P. 12–34 https://www.journalofdemocracy.org/articles/democracys-third-wave

[2] The Soft Power 30 A Global Ranking of Soft Power 2016. – URL: https://portland-communications.com/pdf/The-Soft-Power-30-Report-2016.pdf

[3] Пентегова А. В Концепция «Мягкой силы» во внешней политике стран. С 123-124. file:///C:/Users/Admin/Downloads/kontseptsiya-myagkoy-sily-vo-vneshney-politike-stran.pdf

[4] U.S. Agency for International Development (USAID). — URL: http://www.usaid.gov/whowe-are (date of access: 14.01.2023).

auditoriyasi 2022-yilga kelib haftasiga taxminan 500 million kishiga yetgani yuqorida keltirgan fikrlarimizni davom ettiradi[1].

Fransiyaning “yumshoq kuchi”i asosan madaniy diplomatiya bilan ifodalanadi. Fransiya globallashuv sharoitida o‘zining madaniy va milliy o‘ziga xosligini izchil himoya qilshi, Yevropada milliy tilni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunni qabul qilgan yagona davlat ekanligi bilan ifodalanadi[2]. Mingdan ortiq madaniy-ma’rifiy nodavlat idoralaridagi ishlarini muvofiqlashtirgan Alliance Française tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Jahonga mashhur adabiyot, falsafa, musiqa, rasm, arxitektura va kino, nufuzli universitetlar, noyob, yuksak fransuz modasi va ommaviy madaniyat ta’sirining boshqa ko‘plab jihatlarini targ‘ib qiluvchi vositalar Fransiyaga “yumshoq kuch” yetakchilari qatorida qolish imkonini beradi[3].

Germaniya “yumshoq kuch”i va xalq diplomatiyasi byudjetidan doimiy moliyalashtirilishi mamlakatning insonparvarlik siyosati muvaffaqiyatining garovidir. Masalan, Gyote instituti 170 dan ortiq mamlakatlarda vakillik qiladi va chet elda nemis madaniyati va tilini targ‘ib qilish bo‘yicha sifatli ishlarni amalga oshiradi[4]. Talabalar almashinuvi va axborot va ta’lim dasturlari faoliyati orqali oliy ta’lim sohasidagi aloqalarni kengaytirishga ixtisoslashgan Germaniya Akademik almashinuv xizmati ham xalqaro aloqalarni rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda.

Xitoy “yumshoq kuch” salohiyatidan foydalanish zarurati haqida o‘n yil avval o‘ylay boshladi. Faqat 2007 yilda Xitoy Kommunistik partiyasining 17-siyezdida “madaniy yumshoq kuch” siyosati mamlakat tashqi siyosatining yo‘nalishlaridan biri sifatida e’lon qilindi. So‘nggi paytlarda an’anaviy “yumshoq kuch” institutlarini moliyalashtirish doimiy ravishda ortib bormoqda: “Konfutsiy institut”lari xalqaro madaniy-ma’rifiy markazlar tarmog‘ini yaratdilar. Xitoy madaniyatining jozibadorligi va o‘rganilmaganligi, sharqona xushmuomalalik bilan to‘ldirilishi tarmoqni 15 yil ichida 142 ta davlatda 516 ta institut va 1076 ta Konfutsiy maktabiga qadar kengaytirish imkonini berdi va tinglovchilarning umumiy soni rekord

---

[1] Josh Wilson. BBC Set To Reach 500 Million Viewers Globally In 2022. https://www.forbes.com/sites/joshwilson/

[2] Косенка С. И. «Мягкая сила» как фактор культурной дипломатии Франции // Знание. Понимание. Умение. 2014. №1. С. 114-125. http://www.zpu-journal.ru/zpu/contents/2014/1/Kosenko_Soft-Power-Factor-Frances-Cultural-Diplomacy/

[3] Пентегова А. В Концепция «Мягкой силы» во внешней политике стран. С 120-122. file:///C:/Users/Admin/Downloads/kontseptsiya-myagkoy-sily-vo-vneshney-politike-stran.pdf

[4] Смирнов А. И., Кохтюлина И. Н. Глобальная безопасность и «мягкая сила 2.0» вызовы и возможности для России. - М.: ВНИИ геосистем, 2012. - 280 с. https://mgimo.ru/upload/iblock/60a/60ad847142af1c.pdf

darajadagi yetti million kishiga yetdi[1]. Ekspertlar fikriga ko‘ra Sharqda “yumshoq kuch” tushunchasi G‘arbga qaraganda kengroqdir va bu uni qo‘llash uchun yangi imkoniyatlar ochadi. “Qadimgi Xitoy donoligida aytilishicha, Osmon podsholigida eng yumshoq narsa qattiqdan ustun turadi”[2]. Iqtisodiy qudratning o‘sishi va butun dunyo bo‘ylab savdo-iqtisodiy ishtirokining kuchayishi Xitoy hukumatini mamlakat imidji va jozibadorligini yaxshilash uchun jamoatchilik fikriga ta’sir qilish uchun “yumshoq” vositalarga murojaat qilishga undadi.

Rossiya an’anaviy ravishda yetakchilar qatoriga kirmaydi, biroq rus “yumshoq kuchi” salohiyati juda katta. Muvaffaqiyatli foydalanish uchun vositalar, birinchi navbatda, moliyaviy ko‘mak, sobiq SSSR davlatlarining ma’lum bir vaqt davomidagi umumiy tarixiy merosi (cheklangan regionda), rus tili, jahon sport tadbirlarining muvaffaqiyati hamda Sharqiy Pravoslav birligi kabilar[3].

Ushbu konsepsiyani qo‘llash borasida borasida Turkiyaning ham o‘z yo‘nalishi va ustunlik jihatlari mavjud. Birinchi navbatta beminnat gumanitar tibbiy yordam, talim tizimini yaxshilash uchun yo‘naltirilgan moliyaviy fondlar, Turkiya madaniyati va ta’limini targ‘ib qilish uchun ishlab chiqilgan loyihalar “TÜRKSOY”, “TIKA”, “Türkiye Buruslari” kabilarni aytish mumkin. Bugungi kunga kelib Turkiya tashqi siyosatida “sharqqa burilish”ni ko‘rishimiz mumkin, asosiy e’tiborini Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyoga qaratmoqda hamda mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni izchil amalga oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan Turkiya o‘z tashqi siyosatini amalga oshirishda “qattiq kuch”dan ko‘ra ko‘proq “yumshoq kuch” vositalaridan foydalanmoqda.

Yuqoridagi tahlilardan shularni xulosa qilishimiz mumkinki mamlakat tashqi siyosatini amalga oshirishda yumshoq kuch konsepsiyasining nazariy jihatdan tahlil etish hamda undan unumli foydalanish uchun yetakchi davlatlar tajribasini o‘rganish muhim, xususasn Amerika, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Turkiya kabi. Takidlash lozimki “yumshoq kuch” siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat mustahkam institutsional va huquqiy bazaga asoslangan va ma’lum bir mamlakatning afzalliklarini ijobiy ta’kidlaydigan va mavjud ko‘p yoki kamroq muvaffaqiyatli modellardan nusxa ko‘chirmasdan aniq strategiyani ishlab chiqishi kerak.

---

[1] Синьхуа Новости. — URL: http://russian.news.cn/2017-09/30/c_136650568.htm.

[2] Косачев К. И. Не рыбу, а удочку. — URL: http://www.globalaffairs.ru/number/Ne-rybu-a-udochku- 15642

[3] Пентегова А. В Концепция «Мягкой силы» во внешней политике стран. С 124-125. file:///C:/Users/Admin/Downloads/kontseptsiya-myagkoy-sily-vo-vneshney-politike-stran.pdf

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Joseph S. Nye, Jr., Bound to Lead, P. 31
2. Joseph S. Nye, Soft Power: The Means To Success In World Politics. https://www.amazon.com/Soft-Power-Means-Success-Politics/dp/ 1586483064
3. Hendrik W. Ohnesorge Soft Power. The Forces of Attraction in International Relations. P. -34-37 . Center for Global Studies University of Bonn Bonn, Germany. SBN 978-3-030-29922-4 (eBook) https://doi.org/10.1007/9780-29922-4
4. Niall Ferguson, “Think Again: Power,” Foreign Policy, No. 134 (January/February 2003), P. 18
5. By John Yoo. Foreign Affairs and Separation of Powers in the Twenty-first Century. Chicago: University of Chicago Press, 2005. P. 23
6. Zahran and Ramos, “From Hegemony to Soft Power,” P. 17.
7. Matthew Fraser, Weapons of Mass Distraction: Soft Power and American Empire (New York, N.Y.: St. Martin’s Press, 2003), P. 10.
8. Jozeph Nye, “Hard, Soft, and Smart Power,” P. 565.
9. Francis Fukuyama, “The Neoconservative Moment,” The National Interest, No. 76 (Summer 2004), P. 60. https://journals.sagepub.com /doi/10.1177 /55482
10. Samuel P. Huntington, “Democracy’s Third Wave,” Journal of Democracy, Vol. 2, No. 2 (Spring 1991), P. 12–34 https://www.journalofdemocracy.org/ /democracys-third-wave
11. Josh Wilson. BBC Set To Reach 500 Million Viewers Globally In 2022. https://www.forbes.com/sites/joshwilson/
12. Косенка С. И. «Мягкая сила» как фактор культурной дипломатии Франции // Знание. Понимание.
13. Пентегова А. В Концепция «Мягкой силы» во внешней политике стран. С 120-122. file:///C:/Users/Admin/Downloads/kontseptsiya-myagkoy-sily-vo-vneshney-politike-stran.pdf
14. Смирнов А. И., Кохтюлина И. Н. Глобальная безопасность и «мягкая сила 2.0» вызовы и возможности для России. - М.: ВНИИ геосистем, 2012. - 280 с. https://mgimo.ru/upload/iblock/60a /60ad847142af1c.pdf
15. The Soft Power 30 A Global Ranking of Soft Power 2021. — URL: https://portland- communications.com/pdf/The-Soft-Power-30-Report-2016.pdf

16. Пентегова А. В Концепция «Мягкой силы» во внешней политике стран. С 123-124. file:///C:/Users/Admin/Downloads/kontseptsiya-myagkoy-sily-vo-vneshney-politike-stran.pdf

Mavluda NURMETOVA
Tayanch doktorant, JIDU

XALQARO SIYOSIY NIZOLARNI HAL QILISHDA MEDIATORNING ROLI

Annotatsiya. Xalqaro nizolarni hal qilishda siyosiy mediatsiya amaliyotidan foydalanish xalqaro munosabatlarda keng tarqalgan bo‘lib, ushbu fenomenni o‘rganish va tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola xalqaro siyosiy nizoni yechishda mediatorning roliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif uchinchi tomon kategoriyalariga o‘z e’tiborini qaratadi. Siyosiy mediator sifatida yakka shaxs, davlat, mintaqaviy va xalqaro tashkilot hamda nodavlat nohukumat tashkilotlari faoliyat olib borishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: xalqaro nizo, siyosiy mediatsiya, mediator, davlat, tashkilot.

Dunyoda millatlar va xalqlar bir-biridan kelib chiqishi, tili, dini, urf-odati, an’analari, dunyoqarashi, rivojlanish darajasi kabi mezonlar bilan farq qiladi. Tarixdan ma’lumki, shu farqli jihatlari sabab ular o‘rtasida juda ko‘p nizolar kelib chiqqan. Ba’zi hollarda nizolar tinch yo‘llar orqali hal etilgan, ba’zida ular qurolli to‘qnashuv va urushlarga aylangan. Nizo va urushlar qanday sabablarga ko‘ra kelib chiqishidan qat’iy nazar, ular jamiyat uchun ko‘p hollarda vayronkor hodisa hisoblanadi. Zero, nizolarsiz jamiyat va taraqqiyot o‘sish va rivojlanishda to‘xtab qoladi. Nizolarning konstruktiv yoki destruktiv xarakterga ega bo‘lishi esa, ularning qanday usullar orqali yechilishiga bog‘liq.

Mediatsiya bu – vositachilik bo‘lib, nizolashayotgan tomonlarga yordam berish uchun jarayonga uchinchi tomonning kirib kelishini nazarda tutadi. Mediatsiya minglab yillardan beri mavjud bo‘lib, juda uzoq tarixga ega. Bugungi kunda mediatsiya – vositachilik tushunchasi, xalqaro munosabatlar sohasida davlat ichidagi va davlatlararo nizolarni hal qilishda ancha rivojlangan bo‘lib, olimlar, siyosatchilar va siyosatshunoslar uni o‘rganishga ko‘p e’tibor qaratib kelmoqdalar. Mediatsiyaning bu sohasi

siyosiy mediatsiya hisoblanadi. Siyosiy mediatsiyani ilmiy jihatdan tadqiq etish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, uni ilm-fanning alohida sohasi darajasiga ko‘targan olimlardan Djeykob Berkovitch, Skott Zigmund Gartner, Kristofer Mitchell, Uilyam Zartman, Jeffri Rubin, Saadia Tuval kabi tadqiqotchilarni aytishimiz mumkin.

Xalqaro nizolarni bartaraf etishda siyosiy mediatsiyadan foydalanish har doim ham samarali natija bilan yakunlanmaydi. Ushbu jarayonda turli xil omillar rol o‘ynaydi. Nizoning turi, uning mukammallik darajasi, nizolashayotgan tomonlarning tabiati, xalqaro shart-sharoit, mediator kategoriyasi va mediatsiya strategiyalari mavjud muammoni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada biz yuqorida sanab o‘tilgan omillardan mediator kategoriyalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Xalqaro munosabatlar subyektlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda yakka shaxs, davlat, mintaqaviy tashkilot, xalqaro tashkilot va nodavlat nohukumat tashkilotlari mediator sifatida ishtirok etishi mumkin. Aytish joizki, mediatsiya ixtiyoriy jarayon bo‘lib, u mediatorning o‘zi hamda uni qabul qiluvchi tomonlarning roziligi asosida amalga oshiriladi.

Xalqaro siyosatda nizolarni hal qilishda yakka shaxsning mediatorlik qilishi deganda, hukumat yoki davlat nomidan emas, balki muammoni bartaraf etish uchun aynan yakka shaxs bo‘lib mediatsiyani amalga oshirishi tushuniladi. Djeykob Berkovitchning ta’kidlashicha, bunda mediatorlik qiluvchi shaxs bu sohada katta bilim va tajribaga ega bo‘lib, u ko‘plab mediatsiya jarayonlarida ishtirok etgan va nizolarni yechishga o‘z hissasini qo‘shgan olim va tadqiqotchi ham bo‘lishi mumkin. Ularga Byorton, Doob va Kelman kabi xalqaro nizolarni boshqarish va hal qilishda bevosita ishtirok etgan olimlarni misol sifatida keltirib o‘tadi [1]. Yakka mediatorlar sobiq davlat rahbarlari, diniy yetakchilar yoki tashkilot rahbarlari orasidan ham tayinlanishi mumkin.

Mediatsiya jarayoniga eng ko‘p jalb qilingan mediator kategoriyasi bu – davlat hisoblanadi. Xalqaro maydonda turli xil transmilliy siyosiy birliklar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, siyosiy aktor sifatida davlat, bugungi kungacha tuzilgan eng mukammal ijtimoiy va siyosiy tashkilot hisoblanadi. Shuning uchun uni xalqaro munosabatlarning asosiy aktori desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlatlar xalqaro siyosiy nizolarni hal qilishda faol ishtirok etishadi. Bunday vaziyatda davlat nomidan prezident, bosh vazir, davlat kotibi yoki boshqa soha vakillari mediator sifatida nizo jarayonida qatnashadilar.

Mediator bo‘lib, AQSh va Rossiya kabi xalqaro siyosatda katta ta’sirga ega davlatlar yoki ushbu sohada salmoqli tajribaga ega Norvegiya,

Shveysariya, Qatar kabi nisbatan o‘rta va kichik davlatlar ham faoliyat yuritishi mumkin. Bugungi kunda nisbatan o‘rta va kichik davlatlar mediatorlik qilishi borasida Valday xalqaro klubi a’zosi Yaroslav Lisovolik fikrini ta’kidlab o‘tish joiz: “Iqtisodiyoti rivojlangan nisbatan o‘rta va kichik davlatlarning nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda nizolarni boshqarish va hal qilishdagi roli oshib bormoqda. Ularning ba’zilari, masalan, Avstriya, Shveysariya va Singapur neytral davlat maqomiga ham ega. Bu ularga mediatorlikni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib bermoqda” [2].

Nizolarni hal qilishda mintaqaviy tashkilotlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bitta mintaqada joylashgan ikkita davlat o‘rtasida nizo kelib chiqadigan holatda, mintaqaviy tashkilot ushbu nizo global miqyosda xavfsizlikka tahdid solishining oldini olishi mumkin. BMT Nizomining 8-bob 52-moddasida shunday deyiladi: “Xavfsizlik Kengashiga murojaat qilishdan oldin, mavjud nizoni yechish uchun mintaqaviy tashkilotlar bor kuchlarini ishga solishlari lozim” [3].

Mintaqaviy tashkilotlarda, odatda, unga a’zo davlatlar o‘rtasidagi nizolarni muvaffaqiyatli yechish uchun imkoniyatlar ko‘proq bo‘ladi. Chunki, birinchidan, tashkilot a’zolari o‘rtasida nizoning mavjudligi, qurolli to‘qnashuvlar sodir bo‘lishi xavfini tug‘dirishi, bu esa, o‘z navbatida, butun mintaqa davlatlari uchun turli xil ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun tashkilot nizoning qisqa muddatda hal qilinishidan manfaatdordir. Ikkinchidan, bu tashkilotni xalqaro maydonda ta’siri pasayishiga va obro‘si tushishiga sabab bo‘ladi. Bu jihatdan ham tashkilot nizoni e’tiboridan chetda qoldira olmaydi. Uchinchidan, yakka davlat yoki ko‘plab davlatlarni qamrab olgan xalqaro tashkilotdan ko‘ra, mintaqaviy tashkilot nizoni tezroq hal qilish resurslariga ega bo‘ladi, ya’ni unda o‘z a’zo davlatlarining tarixi, madaniyati, ichki va tashqi siyosati hamda nizoning sabablari to‘g‘risida ko‘proq ma’lumot bo‘ladi.

Mediatsiyani samarali amalga oshira oladigan yana bir kategoriya bu xalqaro tashkilotlardir. Xalqaro tashkilotlar nizo va urush kelib chiqishining oldini olish, mavjud nizoga optimal yechim topish va tomonlarning muzokaralar natijasida erishilgan kelishuvga amal qilishlarini nazorat qilish resurslariga ega tuzilma hisoblanadi. Xalqaro tashkilotning mediator sifatida nizoga kirib kelishining qator ustunliklari mavjud. Birinchidan, xalqaro tashkilot doimo har ikkala nizolashayotgan tomon o‘zaro teng ravishda manfaatli bo‘lgan kelishuv imzolanishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi, u *“shaxsiy”* manfaatni ko‘zlamaydi. Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar davlat vakillaridan tashkil topgan tuzilma bo‘lsa-da, mediatsiya

jarayonida, davlatlardan farqli ravishda, uning betaraflik va neytrallik darajasi yuqori bo‘ladi. Holbuki, ba’zi mintaqaviy tashkilotlarda yetakchi davlat bo‘ladi, ko‘p hollarda u mintaqadagi nizoni hal etishga o‘z manfaatlari nuqtayi nazaridan turib yondashadi [4].

Bugungi kungacha dunyodagi universal yagona tashkilot – Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy maqsadi jahonda tinchlikni ta’minlashdir. Shu kungacha BMT Bosh kotibi lavozimida faoliyat yuritgan shaxslar hamda uning maxsus tayinlagan vakillari uning nomidan ko‘plab mediatsiya jarayonlarida ishtirok etishgan.

Nodavlat nohukumat tashkilotlari hajmi, resurslari va maqsadi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ular davlat va hukumatlararo tashkilotlardan farqli ravishda ancha egiluvchan, moslashuvchan va kam siyosiy cheklovlarga ega. Nodavlat nohukumat tashkilotlari mediatorlik qilishda faqat o‘zining obro‘-e’tiboriga tayanadi, chunki ular bosim o‘tkazish kuchiga ega emas, resurslari ham cheklangan. Bu kategoriyadagi aktorning mediatsiya jarayoniga kirishidan asl maqsadi – nizoni hal qilishdir [5].

Muzokaralar va mediatsiya fenomenini tadqiq qiluvchi olimlardan Sinisa Vukovichning ta’kidlashicha [6], so‘nggi yillarda gumanitar va diniy maqsadlarda tuzilgan nodavlat nohukumat tashkilotlari sonining o‘sishi nizolarni yechishga bo‘ladigan yondashuvni o‘zgartirdi. Birinchidan, ushbu tuzilmalarning nizoli hududlarda faoliyat yuritishi, ularga nizo tabiatini yaqindan bilishi va uning mediatsiya jarayoniga tayyor ekanligini aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, ular nizolashayotgan tomonlarning vakillari bilan olib borilgan muzokaralari natijasida ma’lumot to‘plashadi va uni xalqaro hamjamiyatga yetkazishadi. Natijada, ushbu nizoning hal qilinishida qaysi davlat yoki tashkilotlar manfaatdor ekanligi va mediatorlik qilishi uchun yetarlicha resurslarga egaligi aniqlanadi hamda mediatorlar guruhi shakllana boshlaydi. Uchinchidan, nodavlat nohukumat tashkilotlari nizolashayotgan tomonlarning quyi darajadagi vakillari o‘rtasida mediatorlik qilishlari, ularning kuch va resurslarga ega rasmiy mediator (davlat yoki hukumatlararo tashkilot) vositachiligida rasmiy muzokaralarni boshlashlari uchun o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajaradi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, xalqaro munosabatlarda suverenitet, hudud, resurs, etnik, g‘oyaviy va boshqa sabablarga ko‘ra kelib chiqadigan davlatlararo nizolarni insoniyatga ko‘p ziyon va talafotlar yetkazmasidan oldin hal qilish juda muhimdir. Shu jihatdan, siyosiy mediatsiya fenomenini nazariy jihatdan tahlil qilish, tarixiy keyslarni o‘rganish, u qanday hollarda samarali yakunlanishini va qay holatlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashini qiyosiy tahlil qilish lozim.

Bugungi kunga kelib, jahon siyosatida nisbatan o‘rta va kichik *“ta’sir”*ga ega davlatlar tomonidan tashqi siyosatda mediatsiyani qo‘llash amaliyotining tatbiq etilishi, xalqaro doiralarda ularning tinchlikparvar davlat hamda samarali mediator sifatidagi imidjini oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ham mediatorlik amaliyotini o‘z tashqi siyosatida qo‘llash uchun barcha resurslarga ega. Buni Afg‘oniston masalasida ko‘rishimiz mumkin. Agar ushbu sohada faoliyatini kengaytirsa, u xalqaro maydonda o‘z o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Jacob Bercovitch, “In Theory. Mediators and Mediation Strategies in International Relations”. Negotiation Journal, April, 1992. P-100.
2. Ярослав Лисоволик, “Малые страны как посредники в урегулировании конфликтов”, 15.03.2022. https://ru.valdaiclub.com/a/highlights/malye-strany-kak-posredniki/
3. https://www.un.org/en/about-us/un-charter/chapter-8
4. Jacob Bercovitch, Jeffrey Rubin, “Mediation in International Relations. Multiple Approaches to Conflict Management”, Palgrave Macmillan, 1994. P-177.
5. Jonas Baumann, Govinda Clayton, “Mediation in Violent Conflict”, CSS Analyses in Security Policy, N0. 211, June 2017. P-2.
6. Sinica Vukovic, “International Multiparty Mediation and Conflict Management. Challenges of Cooperation and Coordination”, 2016. P-24.

Маъмурахон АЛИШЕРХЎЖАЕВА

«Шарқ мамлакатлари сиёсати ва халқаро муносабатлар» кафедраси таянч докторанти, ТДШУ

НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОСИНИ АСРАШ ВА ТАНИТИШ БОРАСИДАЎЗБЕКИСТОН ВА ЮНЕСКО ҲАМКОРЛИГИ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Аннотация. Маданият, фан ва таълим ва бир қатор бошқа муҳим соҳаларга ўзининг беназир ҳиссасини қўшган, бир нечта цивилизацияларнинг чорраҳаси ҳисобланган Марказий Осиё минтақаси ҳудудида жойлашган Ўзбекистоннинг маданий меросини муҳофаза қилиш, кенг миқёсда танитиш халқаро аҳамиятга эга.

ЮНЕСКОнинг маданий меросни 2 йирик гуруҳ - моддий ва номоддий маданий меросни асраш фаолияти аъзо давлатлар иштирокида кўп томонлама дипломатия воситасида амалга оширилиб, бирининг иккинчисидан устун ёки аксинча эмаслигини эътироф этади. Ўзбекистоннинг Ташкилот доирасидаги ҳамкорлиги ушбу йўналишини янги босқичда изчил ривожлантириш учун унинг ривожланиш тенденцияларини ўрганиш ва илмий хулосаларни ишлаб чиқиш долзарб аҳамият касб этади. Мақолада ЮНЕСКО Рўйхатига киритилган ўзбек номоддий маданий мероси намуналари, ўзига хосликлари ўрганилган бўлиб, замонавий дипломатик трендларни ўрганишда илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Калит сўзлар: ЮНЕСКО, номоддий маданий мерос, кўп томонлама дипломатия, маданий дипломатия, мерос дипломатияси, Репрезентатив рўйхат, Шарқ тароналари, Жаҳон хотираси.

Ўзбек дипломатиясининг “Янги даври” бошланиши, ЮНЕСКО билан кўп томонлама ва маданий дипломатиянинг ҳам чин маънода гуллаб яшнаши, яқин муносабатларни ривожланиш даври деб аташ мумкин. Бу давр Ташкилотнинг Репрезентатив рўйхатини Ўзбекистон маънавий мероси билан янада бойиб бораётгани билан ҳам ажралиб туради [1] . Таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон Республикаси ЮНЕСКОнинг 2003 йил 17 октябрида қабул қилинган “Номоддий маданий меросни мухофаза қилиш тўғрисидаги” Конвенция [2] га қўшилгани асрлар давомида шаклланиб келган маънавий бойлик ҳисобланувчи барча номоддий маданий меросимизни глобал даражада тарғиб қилиш учун кенг имкониятларни очди.

ЮНЕСКОнинг бу Конвенцияси дунё давлатлари маданиятлари ҳар бирининг ўзига хослигини глобал даражада танитишни ва бу орқали уларнинг сақланишига сабаб бўлиши учун ишлаб чиқилган. Асосийси, маданий мерос намуналарининг ўзаро тинчликни, миллатлараро тотувлик ва уйғунликни мустаҳкамлаш йўлида фойдаланишда буюк қадам бўлган. “Номоддий маданий меросни мухофаза қилиш тўғрисидаги” Конвенцияга бугунги кунда 180 давлат

[1] Сайфуллаев Д. Ўзбекистон Республикаси маданий дипломатиясининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи(1991-2016) Монография. Инновацион ривожланиш нашриёт-манбаа уйи.,Т.-2020. Б. 147.

[2] 2003 Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Available at: https://ich.unesco.org/doc/src/15164-EN.pdf

қўшилган бўлиб, Ўзбекистон 2007 йил декабрь ойида унинг иштирокчисига айланган[1].

Умуман олганда, бугунги кунга қадар Инсониятнинг номоддий маданий меросининг репрезентатив рўйхатига қуйидагилар киритилди:

1-жадвал

№	Ўзбек номоддий маданий мероси	Рўйхатга киритилган сана
1.	“Бойсун минтақаси маданий муҳити”	2001 йилда номзодлиги топширилиб, 2008 йил Рўйхатга киритилган;
2.	“Шашмақом” мусиқаси (Ўзбекистон ва Тожикистон давлатларига тегишли)	2003 йилда номзодлиги топширилиб, 2008 йил Рўйхатга киритилган;
3.	“Катта ашула”	2009 йил Рўйхатга киритилган;
4.	“Наврўз” байрами (12 давлат, жумладан, Ўзбекистонга тегишли)	2016 йил Рўйхатга киритилган;
5.	“Палов” маданияти ва анъанаси	2016 йил Рўйхатга киритилган;
6.	“Марғилон хунармандчиликни ривожлантириш маркази, атлас ва адрасни ишлаб чиқариш анъанавий технологияларини ҳимоя қилиш”	2017 йилда яхши ҳимоя амалиёти Реестри намунаси сифатида танлаб олинган;
7.	“Лазги” Хоразм рақси	2019 йил Рўйхатга киритилган;
8.	“Миниатюра” санъати (Азарбайжон, Эрон, Туркия ва Ўзбекистонга тегишли)	2020 йил Рўйхатга киритилган;
9.	“Бахшичилик” санъати	2021 йил Рўйхатга киритилган.
10.	“Ипакчилик ва тўқув учун анъанавий ипак ишлаб чиқариш”	2022 йил Рўйхатга киритилган.
11.	“Хўжа Насриддин ҳақидаги латифаларни такрорлаш анъаналари”	2022 йил Рўйхатга киритилган.

[1] The States Parties to the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage (2003). Available at: https://ich.unesco.org/en/states-parties-00024

Репрезентатив рўйхатга киритилган маданий дурдоналар бўйича ЮНЕСКОнинг “Номоддий маданий меросни мухофаза қилиш тўғрисидаги” Конвенциясини бажарилиши борасида давлатлар ҳар 6 йилда 1 марта даврий ҳисобот тақдим этадилар. Рўйхатга киритиган ҳар бир маданий мероснинг бир эмас бир нечта халқ маданияти уйғунлигини акс эттиришини, ва ушбу халқларнинг умумий маънавий илдизларини ифода этишини кузатиш мумкин. Қолайверса, улар асрлар ошиб сақланиб келаётган – тарихий, бир неча минг йилликларга тенг маданият намуналари ҳисобланади. Масалан, юқоридаги жадвалга аҳамият берилса, Афғонистон, Азарбайжон, Ҳиндистон, Эрон, Ироқ, Қозоғистон, Қирғизистон, Ўзбекистон, Покистон, Тожикистон, Туркманистон, Туркия давлатларидаги уч юз миллиондан ортиқ инсонларнинг умумий байрами ҳисобланмиш Наврўзнинг БМТ томонидан 3 минг йиллик тарихга эга эканлиги эътироф этилди. 2010 йилдан эътиборан ҳар йили халқаро байрам сифатида Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бош қароргоҳида нишонланиши белгиланди.

Тарихан, Ўзбекистон ҳам моддий ҳам номоддий маданий меросни ўзида жам этган буюк маданиятга эга. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг ушбу соҳадаги ҳамкорлигини янада ривожлантириш, уни ўрганиш ва танитиш бугунги кунда долзарб аҳамият касб этади. Ўзбекистоннинг ЮНЕСКО Бутунжаҳон мероси ҳамда Инсониятнинг номоддий маданий мероси Репрезентатив рўйхатига киритилиши лозим бўлган маданият дурдоналари талайгина. Номоддий маданий меросни сақлашга оид таҳлилий натижалар қаторида, ҳар йили ЮНЕСКО шафейлигида ўтказилувчи “Шарқ тароналари” халқаро фестивали катта аҳамият касб этади. “Шарқ тароналари” халқаро мусиқа фестивали – жаҳониннинг турли нуқталаридан ташриф буюрувчи ижодий жамоалар ўз маданий меросини намоён этишлари учун икки йилда бир ўтказилади. Илк маротаба ушбу тадбир Ўзбекистон биричи Президенти И.А.Каримов ташаббуси билан Самарқанд шаҳрида 1997 йил август ойида ЮНЕСКО шафейлигида ўтказилган. Ва ўрганилган маълумотлар асосида шуни таъкидлаш лозимки, Ўзбекистон ва ЮНЕСКО ўртасидаги муносабатларнинг шаклланиши ҳамда ривожланиши жараёнида айнан маданий жихатлама ушбу халқаро фестивальнинг аҳамияти катта ҳисобланади. Шу билан бирга, агар аввал бошида Фестивальнинг халқаро иштирокчилари сони жаҳоннинг 31 давлатини ташкил қилган бўлса, бу кўрсаткич фестивальнинг VIII чи сонида, яъни 2011 йилда 50 дан ортиқ давлат иштирок этганини,

2015 йилда 65 давлат, 2019 йилга келиб, дунёнинг қарийб 75 давлати вакилларининг иштирок этганини кузатиш мумкин.

Бу тадбир 1999 йилдан буён ЮНЕСКОнинг ўз тадбирлари рўйхатига киритилган. Самарқанднинг Регистон майдонида ўтказилиши анъанага айланган тадбир бугунги кунга келиб, нафақат Марказий Осиё балки глобал даражада аҳамиятли бўлиб бормоқда. “Шарқ тароналари” – турли давлатларнинг маданият ва санъат соҳаларида эришган ютуқлари, шунингдек, асрлар давомида шаклланиб дурдонага айланган маданий мерос намуналарини намойиш қилиш, ривожлантириш ҳамда ЮНЕСКОнинг маданий меросни асрашдек энг муҳим вазифаларини амалга ошириш учун ўзига хос майдон ҳисобланади. “Шарқ тароналари” халқаро фестивали маҳаллий ва халқаро олимлар тарафидан Ўзбекистон маданий дипломатияси ютуғлари қаторига қўшилган. Қолайверса, фикримизча, турли давлатлардан ташриф буюрувчи санъат ва маданият вакилларининг Ўзбекистонга, Самарқанддек қадимий шаҳарга илк келишлари, хатто энди танишаётганлари Ўзбекистоннинг жаҳон миқёсида танилишига, муносабатларнинг илиқлашуви ва маданий-гуманитар ўзаро алмашинувларни кучайишига катта хизмат қилади.

Ўзбекистоннинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти фан, таълим ва маданият бўйича махсус муассаси билан маданий меросни асраш ҳамкорлиги соҳасидаги яна бир жихати бу – ЮНЕСКОнинг “Жаҳон хотираси”(“Memory of the World”) дастури халқаро рўйхатига қуйидаги ноёб ёзма ёдгорликларининг киритилгани ҳисобланади:

– Ўзбекистонда сақланаётган муқаддас Усмон Қуръони;

– Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси шарқшунослик институти қўлёзмалари:

– Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат Архивида сақланаётган “Хива хонлиги канцеляриясии”[1].

Ўзбекистоннинг инсоният моддий ва номоддий меросига энг бой давлат экани, қолайверса уни танитиш ва ўрганиш – тарихнинг энг муҳим ихтиролари ва маданиятини ўрганиш ва танитишни англатади. Аслида, маданий мероснинг энг муҳим хусусияти ҳам айнан тарихий аҳамиятни чуқур ўрганган ҳолда, ҳозирги кун манфаатларига эришишда фойдаланишдан иборат эканини ушбу тадқиқот ва таҳлилий ишлар яққол кўрсатди. Бошқа тарафдан, олимлар ўз тадқиқотларида глобаллашув жараёни ва тўхтовсиз чақириқ, ўзгаришлар замонида

[1] The Lists of Intangible Cultural Heritage and the Register of good safeguarding practices. Available at: https://ich.unesco.org/en/lists?text=&country[]=00165&multinational=3#tabs

асрларга тенг маънавий бойликларнинг яшаб қолиши ҳамда кейинги авлод учун ҳам ўзининг аҳамиятини йўқотмаслигини ЮНЕСКО ташкилоти билан яқин ҳамкорлик орқали эришиши эҳтимоли келтирилади[1]. Хулоса қилиб, *биринчидан*, Маданий мерос ҳозирги пайтда нафақат тарих, маданият, дин, илм ва бошқа кўплаб соҳаларнинг сўзловчиси балки дипломатияниг энг муҳим воситаси бўлиб хизмат қилишини таъкидлаш мумкин. Худди шу муҳим бўлган вазифани глобал миқёсда ЮНЕСКО ўз зиммасига олиб деярли 80 йил мобайнида дунё давлатлари маданий, тарихий, табиий меросини муҳофаза қилиб келмоқда. Фандаги "мерос дипломатияси"нинг ҳам ҳаётга тадбиқ қилувчи, бу тушунчанинг эффективлигини исботлаган ҳам айнан шу ташкилот ва унга аъзо давлатлардир.

Иккинчидан, маданий мерос бу – шундай муҳим категорияки, у халқга тегишли ва айни дамда халқ маданий ва тарихий меросга тегишлидир, сабаби – асрлар давомида сақланган бу намуналар аждодларнинг изланишларини ва қолдирган улкан илмларини ўзида мужасссам этади. Уни муҳофаза этиш инсониятнинг вазифаси бўлса, уни таниш, билиш ва баҳраманд бўлиш ҳам бутун инсониятнинг ҳуқуқи ҳисобланади. Ўзбекистон ЮНЕСКО ташкилоти билан бу соҳада турли ҳамкорликларни йўлга қўйганини ва сўнгги беш йил давомида ташкилот билан кўп томонлама, хусусан, маданий ва *мерос дипломатиясин*и жадал равишда ривожлантираётгани тенденциялари ўрганилди ва натижада, ЮНЕСКОнинг Ўзбекистон маданиятига бўлган катта қизиқиши ва маданий меросини ҳимоя қилишга бўлган ташаббуслари кузатилди. Шу билан бирга, Ўзбекистоннинг Янги даври бошланиши билан томонлар ҳамкорлиги ривожланиши, ЮНЕСКОнинг Ўзбекистон маданиятини кўрсатиш ва танитишдаги ташаббусларини қўллаб қувватлаши ушбу ташкилот билан кейинги муносабатларнинг фақат кенгайиши, янада яқинлашиши эҳтимоли юқори эканлигини келтириб ўтиш керак.

Учинчидан, ЮНЕСКО билан ҳамкорликнинг илк йиллариданоқ амалга оширилган қатор ишлар натижасида тарихий шаҳарларниг дунёга танилиши билан бир қаторда маънавий мерос намуналарини танитиш ва ЮНЕСКО Репрезентатив рўйатига киритиш ишлари тезлашгани ҳам катта аҳамиятга эга. Ҳозирга қадар ЮНЕСКО билан амалий ҳамкорликка давлатимизнинг кўрсатаётган эътирофи ҳам катта фикримизча. 2022 йилда ЮНЕСКО экспертлари Кенгаши тарафидан

[1] Kurin, R. (2007). Safeguarding intangible cultural heritage: Key factors in implementing the 2003 Convention. International journal of intangible heritage, 2(8), 9-20.

Ўзбекистон томонидан Озарбайжон, Афғонистон, Қозоғистон, Қирғизистон, Эрон, Тожикистон, Туркманистон ва Туркия билан “Ипакчилик ва тўқув учун анъанавий ипак ишлаб чиқариш” ва “Хўжа Насриддин ҳақидаги латифаларни такрорлаш анъаналари”нинг Репрезентатив рўйхатга қабул қилингани ушбу фикрнинг исботи ҳисобланади. Жаҳон цивилизациялари бешиги ҳисобланувчи, фаннинг турли соҳалари нуқтаи назаридан ҳам машҳур ҳисобланувчи ҳар бир моддий ва номоддий маданий меросни сақлаб қолиш глобал даражадаги аҳамиятга эга экани ва истиқболда бу борада илмий тадқиқотларни ривожлантириш кераклигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Сайфуллаев Д. Ўзбекистон Республикаси маданий дипломатия-сининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи (1991-2016) Монография. Инновацион ривожланиш нашриёт-манбаа уйи.,Т.-2020. Б. 147.
2. 2003 Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Available at: https://ich.unesco.org/doc/src/15164-EN.pdf
3. The States Parties to the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage (2003). Available at: https://ich.unesco.org/en/states-parties-00024
4. The Lists of Intangible Cultural Heritage and the Register of good safeguarding practices. Available at: https://ich.unesco.org/en/lists?text=&country[]=00165&multinational=3#tabs
5. Kurin, R. (2007). Safeguarding intangible cultural heritage: Key factors in implementing the 2003 Convention. International journal of intangible heritage, 2(8), 9-20.

Dildora YORQULOVA

1-kurs magistranti, TDSHU

AUTSORSING KOMPANIYANING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya: Maqolada biznes jarayonlarini autsorsingning mazmuni va tipologiyasi biznesni optimallashtirishning eng samarali va tez rivojlanayotgan turi sifatida ochib berilgan. Moliyaviy operatsiyalarning autsorsingiga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: autsorsing, autsorsing, subpudrat, moliyaviy operatsiyalarning autsorsingi, mehnat taqsimoti, autsorsing xizmatlari bozori.

Rivojlanayotgan raqobat sharoitida biznesning izchil rivojlanishi ko‘p jihatdan aktivlarni samarali boshqarish, shu jumladan asosiy faoliyatga resurslarni jamlash, asosiy biznesning ustuvor vazifalarini hal qilish va "qo‘llab-quvvatlash" funktsiyalari xarajatlarini minimallashtirish orqali mumkin bo‘ladi. Shu munosabat bilan korxona faoliyati samaradorligini oshirish iqtisodiy jihatdan foydali o‘zaro munosabatlar tizimini shakllantirish yo‘lida mumkin bo‘lib, ular orasida autsorsing munosabatlari muhim o‘rin tutadi. Shuni takidlash lozimki, bugungi kunda jahonda 59% kompaniyalar xarajatlarni kamaytirish maqsadida autsorsing xizmatlaridan foydalanishadi, shu bilan birgalikda, 2019-yilda global autsorsing xizmatlarining qiymati 92,5 milliard dollarga yetgan. Bu 2018-yilga nisbata 8 foizga oshgan[1]. Bu ko‘rsatgichlar jahon miqiyosida autsorsing ahamiyati oshib borayotganini ko‘rsatib beradi.

“Autsorsing” atamasi ingliz tilidan (inglizcha “autsorsing” dan) olingan va so‘zma-so‘z "boshqa odamlarning resurslaridan foydalanish" deb tarjima qilinadi. Tashqi iqtisodiy adabiyotlarda zamonaviy autsorsingning kontseptual dizaynining boshlanishi o‘tgan asrning 60-yillarida qo‘yilgan. Shunday qilib, IT sohasida autsorsingning zamonaviy kontseptsiyasi 1963 yilda Elektron Ma’lumotlar Tizimlari (EDS) tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi mijoz va kerakli sohadagi mutaxassis o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar turi sifatida yaratilgan[2].

Hozirgi vaqtda autsorsing deganda sub'ektning asosiy bo‘lmagan funktsiyalari va korporativ ro‘llarini shartnoma asosida ma’lum bir sohada ixtisoslashgan, bilim, tajriba va texnik jihozlarga ega bo‘lgan tashqi ijrochilarga (autsorserlarga) berish tushuniladi[3]. AQSh autsorsing instituti tomonidan autsorsingning ta’rifi “tashkilotning ba'zi biznes funktsiyalari yoki individual biznes jarayonlarini uchinchi tomon pudratchiga o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qaror” sifati deb hisoblanadi[4].

Autsorsing shartnomasi bo‘yicha, qoida tariqasida, quyidagi funktsiyalar o‘tkaziladi: axborot tizimlarini qo‘llab-quvvatlash (mahalliy

---

[1] Outsourcing Statistics 2022: In the US and Globally// URL:https://teamstage.io/outsourcing-statistics/

[2] Новожилов, С. Аутсорсинг 2011: ТОП-10 тенденций / С. Новожилов/ URL: http://www. outsourcing.ru.

[3] Аутсорсинг и аутстаффинг. Высокие технологии менеджмента / Б.А.Аникин, И.Л.Рудая. – М.: Изд-во «Инфра-М», 2009. – 288с.

[4] “Финансовый аутсорсинг”/ URL: http://www.e-xecutive.ru.

tarmoqlar, veb-sayt; axborotni himoya qilish; kompyuter tarmoqlarini boshqarish; korporativ dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, joriy etish va keyinchalik texnik xizmat ko‘rsatish); xodimlarni izlash va tanlash; xodimlarni ijaraga olish; PR va reklama xizmatlari; ofisni tozalash; xavfsizlik va xavfsizlik xizmatlari; umumiy ovqatlanish; tashkilotning xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tashishni tashkil etish; ma'muriy yordam va boshqa xizmatlar. Fortune jurnaliga ko‘ra, zamonaviy G‘arb korxonalarining kamida 90% allaqachon autsorsing qilingan.ishlab chiqarishning kamida bitta funktsiyasi. Toyota, Honda, Chrysler kabi korxonalar ilgari mustaqil ravishda amalga oshirgan biznes jarayonlarining qariyb 70 foizini uchinchi shaxslarga topshirgan. 2022-yilga kelib Global autsorsing bozori 92,5 milliard dollarga baholanadi, AQSh bozori esa umumiy xalqaro daromadning 62 milliard dollarini olib keldi[1].

“Autsorsing” va “subpudratchilik” kabi atamalarning yaqinligi va ba’zan mosligini ta’kidlash lozim. Autsorsing - bu, asosan, buyurtmachi va pudratchi o‘rtasida shartnoma shartnomalari asosidagi barqaror va uzoq muddatli biznes munosabatlaridir. Shu bilan birga, pudratchi o‘zining ishlab chiqarish va texnologik vositalarini yoki ilmiy-texnikaviy va intellektual salohiyatini buyurtmachi manfaatlariga muvofiq foyda ulushi bilan emas, balki xizmatlarning ustun qiymati bilan belgilanadigan to‘lovga moslashtiradi. Aksincha, subpudratchilik, autsorsingning alohida holati bo‘lib, har qanday buyurtmani bajarish doirasida shartnoma munosabatlariga asoslangan cheklangan ish munosabatlarini nazarda tutadi. Shunday qilib, buxgalteriya hisobini autsorsing qilish mustaqil buxgalterni yollash bilan bir xil emas. Autsorsing asosan muntazam funktsiyalarni topshirish bilan tavsiflanadi. Frilanser mutaxassisni jalb qilish epizodik hajmdagi ishlarni ma’lum bir pudratchiga topshirish deb hisoblanadi. Shunga ko‘ra, autsorsing va subpudratchilik o‘rtasidagi muhim va iqtisodiy asosli farq shundaki, xarajatlarni pasaytirish nafaqat pudratchining biznes jarayonlari yoki unga o‘tkaziladigan vazifalar yoki jarayonlardagi yuqori malakasi, balki uzoq muddatli davr tufayli ham erishiladi[2].

Autsorsingning eng to‘liq mazmuni uning quyidagi mezonlar yig‘indisiga ko‘ra tasnifini aks ettiradi:

- funktsional asosda (ishlab chiqarish va operatsion, boshqaruv va resurs autsorsingi);

---

[1] “40+ VITAL OUTSOURCING STATISTICS [2022]: HOW MANY JOBS LOST TO OUTSOURCING?”/ /URL: https://www.zippia.com/advice/outsourcing-statistics/

[2] “Аутсорсинг: создание высокоэффективных и конкурентоспособных организаций”: учебное пособие / Б.А. Аникин. – М.: Изд-во «Инфра-М», 2003. – 192с.

- mavzu mezoni bo‘yicha (ishlab chiqarish jarayonlari, biznes jarayonlari, kognitiv jarayonlar va bilimlarning autsorsingi);
- topshirilgan funktsiyalar hajmi bo‘yicha (to‘liq, qisman, qo‘shma, oraliq, transformatsion autsorsing).

Shunday qilib, samarali autsorsing faqat raqobat muhitida mumkin va korxona raqobatbardoshligining ko‘plab tarkibiy qismlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning asosiylari jarayonlarni qayta qurish va ratsionalizatsiya qilish, xarajatlarni kamaytirish, sifatni yaxshilash, jarayonlarni tezlashtirish, xavflarni taqsimlash, tashkiliy-resurs-moliyaviy ta’siri tufayli yetishmayotgan resurslar va ilg‘or texnologiyalar[1].

Shu nuqtai nazardan, rus yozuvchisi I.A. Mezinova autsorsingni tijorat asosida korxona tovarlari va xizmatlari qiymatini yaratish jarayonida tashqi/xorijiy yetkazib beruvchilarni o‘z funktsiyalari/jarayonlarining bir qismini bajarishga o‘tkazish orqali jalb qiladigan biznesning o‘ziga xos shakli sifatida ta'riflashni taklif qiladi. kontragentning mavjud raqobatdosh afzalliklaridan foydalangan holda korxonaning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish maqsadida. Shu bilan birga, milliy va global iqtisodiy sharoitda korxona tomonidan qo‘llaniladigan raqobat strategiyasining har bir turi (xarajatlarni minimallashtirish, ishlab chiqarishni ratsionalizatsiya qilish, sifatni yaxshilash, noyob mahsulotni taklif qilish va boshqalar) foydalanish uchun mos bo‘lgan autsorsingning ma’lum turlariga mos keladi. (ishlab chiqarish, resurs, strategik, qisman, mahalliy, xorijiy va boshqalar)[2].

Shunga ko‘ra, zamonaviy menejment doirasidagi mehnat taqsimoti printsipi “bo‘lingan jarayon”ni yangi bir butunga muvofiqlashtirishi, yuqori mehnat unumdorligi va firma samaradorligini ta'minlashi kerak. Tabiiyki, bugungi kunda rivojlanayotgan autsorsing texnologiyasi qo‘shimcha birliklar yaratish (ushbu jarayonga mos keladigan qo‘shimcha xarajatlar bilan) emas, balki mavjud xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarni tizimga birlashtirish orqali daromad olish imkonini beradi.

Shu bilan birga, yuqoridagilarga ko‘ra, raqobatbardosh korxona uchun muhim bo‘lmagan ikkilamchi, periferik funktsiyalar autsorsingga o‘tkazilishi kerak, xususan:

---

[1] Heywood, J. Br. “Outsourcing. In search of competitive advantage” / J. Br. Haywood. – Moscow: Publishing House of the “Williams”, 2004. – 176P.

[2] Мезинова, И.А. Международный аутсорсинг и его роль в повышении конкурентоспособности российских компаний в мирохозяйственной среде [Текст]: автореф. дисс. на соискание ученой степени канд.экон. наук / И.А. Мезинова. – Ростов-на-Дону, 2009. – 24с.

- asosiy bo‘lmagan, lekin yuqori malaka va tajribani talab qiladigan jarayonlar (bosh buxgalter vazifasi, soliq maslahati, yillik buxgalteriya hisobi va soliq hisobotini tayyorlash va taqdim etish);
- ko‘p sonli takrorlanuvchi vazifalardan iborat bo‘lgan jarayonlar, muntazam jarayonlar (ish haqi fondi, debitorlik va debitorlik qarzlarini yuritish, xodimlarni boshqarish);
- maxsus bilimlarni talab qiladigan, lekin asosiylari bilan bog‘liq bo‘lmagan jarayonlar (yuridik shaxsni ro‘yxatdan o‘tkazish, ishlashga ruxsat olish, qidirish va tanlash)[1].

Moliyaviy maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan ko‘pincha daromad keltirmaydigan, ammo kompaniyaning ishini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan potentsial daromadli bo‘limlarni va rejalashtirilgan zararsiz bo‘limlarni ajratib ko‘rsatish taklif etiladi. Aksariyat kompaniyalar uchun rejalashtirilgan norentabel bo‘limlarning funktsiyalari autsorsingga berilishi mumkin, agar bu nafaqat ushbu bo‘limning xarajatlarini kamaytiradi, balki ushbu bo‘limning asosiy ko‘rsatkichlarini maqbul darajada ushlab turish yoki yaxshilaydi. Ushbu ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- bajarilgan ishlarning sifati;
- ish samaradorligi;
- maxfiylikning zarur darajasini ta'minlash;
- muayyan biznesga qarab boshqa ko‘rsatkichlar ham mumkin[2].

Moliyaviy operatsiyalarning autsorsingini hisobga olgan holda, uning asosiy foydasi shu kabi muammolarni hal qilishda boshqa birovning yuqori professional tajribasidan foydalanish va yangi texnologiyalar va bilimlardan doimiy foydalanish qobiliyati bilan bog‘liqligini ta'kidlash kerak. Muayyan xizmatlarni ko‘rsatishga ixtisoslashgan tashkilot ushbu sohada paydo bo‘lgan muammolarga birinchi bo‘lib duch keladi, muammolarni hal qilish va tegishli texnologiyalarni ishlab chiqishga, o‘z xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirishga sarmoya kiritadi. Ko‘pgina mijozlarga xizmat ko‘rsatgan holda, autsorser qo‘shimcha xarajatlarni taqsimlaydi va ishning iqtisodini optimallashtiradi, bu esa mavzu bo‘yicha tor ixtisoslashuv bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar narxini pasaytirish va ularning sifatini oshirish imkonini beradi.

Moliyaviy funktsiyani autsorsing qilish mintaqalarda sho‘ba korxonalari bo‘lgan ko‘p darajali kompaniyalar uchun qiziqish uyg‘otadi.

---

[1] Козорезова, Г. Аутсорсинг бизнес-процессов: акцент на главном / Г. Козорезова http://www.outsourcing.ru.

[2] Пушкин, С. Аутсорсинг финансовых функций. Особенности и преимущества] / С. Пушкин, М. Савостьянов// Управление компанией. – 2009. — №12. – С.27-31.

Shu bilan birga, “hodimlar” ning har biri hisob-kitoblarni yuritadi va hisobotlarni o‘ziga xos tarzda taqdim etadi, bu esa hisobotlarni birlashtirish va kompaniyani boshqarishni qiyinlashtiradi. Tashqi buxgalteriya xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilot guruhning barcha korxonalari uchun ma'lumotlarni to‘plash va markazlashtirilgan qayta ishlashni ta'minlaydi. Shu bilan birga, agar korxona o‘zining korporativ xizmat ko‘rsatish markazini yaratsa va kompaniyalar guruhiga kiruvchi firmalar o‘rtasida hisobot berish va moliyaviy oqimlarni nazorat qilish uchun barcha javobgarlikni o‘tkazsa, vaziyatning takrorlanishi istisno qilinmaydi. Biroq, shuni tushunish kerakki, yangi tuzilma barcha moliyaviy oqimlarning o‘ziga xos kesishmasiga aylanadi, Yagona platforma va yaxlit tizim yaratish uchun IT sohasiga jiddiy sarmoya kiritish zarur .

Xulosa qilib aytganda , sifatli va ayni paytda byudjet mahsulotini yaratish maqsadida autsorsing kompaniyalari hududlarga intensiv harakatni boshladilar, ularda malakali va arzon kadrlar, operatsion xarajatlari past bo‘lgan markazlar va ofislar ochildi. Shu bilan birga, autsorser o‘ziga kerak bo‘lgan barcha resurslarni to‘playdi va yagona xarajatlarni nazorat qilish markaziga ega. Autsorsing biznesni yuritish xarajatlarini kamaytirishning ajoyib usuli. Bu, shuningdek, ichki resurslarni bo‘shatish va xavfni kamaytirish orqali samaradorlikni oshirish uchun aqlli dastakdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘xati:

1. Outsourcing Statistics 2022: In the US and Globally// URL:https://teamstage.io/outsourcing-statistics/

2. Новожилов, С. Аутсорсинг 2011: ТОП-10 тенденций / С. Новожилов/ URL: http://www. outsourcing.ru.

3. Аутсорсинг и аутстаффинг. Высокие технологии менеджмента / Б.А.Аникин, И.Л.Рудая. – М.: Изд-во «Инфра-М», 2009. – 288с.

4. “Финансовый аутсорсинг” / URL: http://www.e-xecutive.ru.

5. “40+ VITAL OUTSOURCING STATISTICS [2022]: HOW MANY JOBS LOST TO OUTSOURCING?”/ /URL: https://www.zippia.com/advice/outsourcing-statistics/

6. Аутсорсинг: создание высокоэффективных и конкурентоспособных организаций”: учебное пособие / Б.А. Аникин. – М.: Изд-во «Инфра-М», 2003. – 192с.

7. Heywood, J. Br. “Outsourcing. In search of competitive advantage” / J. Br. Haywood. – Moscow: Publishing House of the “Williams”, 2004. – 176P.

8. Мезинова, И.А. Международный аутсорсинг и его роль в повышении конкурентоспособности российских компаний в мирохозяйственной среде [Текст]: автореф. дисс. на соискание ученой степени канд.экон. наук / И.А. Мезинова. – Ростов-на-Дону, 2009. – 24с.

9. Козорезова, Г. Аутсорсинг бизнес-процессов: акцент на главном / Г. Козорезова http://www. outsourcing.ru.

10. Пушкин, С. Аутсорсинг финансовых функций. Особенности и преимущества] / С. Пушкин, М. Савостьянов// Управление компанией. – 2009. — №12. – С.27-31.

Сарварбек ФАЙЗУЛЛАЕВ
мустақил тадқиқотчи, ТДШУ

ЭРОН ИСЛОМ РЕСПУБЛИКАСИ ТАШҚИ СИЁСАТИНИНГ УСТУВОРЛИКЛАРИ

Аннотация: Мақолада Эрон Ислом Республикаси Яқин Шарқ минтақасининг энг йирик давлати ҳисобланиб, халқаро ва минтақалараро муносабатларда муҳим ўрин тутади. Табиий ресурслар ва биринчи навбатда энергия ресурсларининг катта заҳираларига эга бўлган Эрон яқин йилларда минтақавий куч марказига айланишни ўз ташқи сиёсатининг устуворлиги сифатида кўрмоқда. АҚШ санкциялари туфайли иқтисодий қийинчиликларга дуч келган Эрон халқаро майдонда ўз манфаатларини кучайтиришга ҳаракат қилиш йўллари ҳақида ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Эрон ташқи сиёсати, АҚШ-Эрон муносабатлари, ислом инқилоби, Оятуллоҳ Ҳумайний.

Эрон Ислом Республикаси Яқин Шарқ минтақасининг энг йирик давлатларидан бири бўлиб, халқаро ва минтақалараро муносабатларда муҳим ўрин тутади. Табиий ресурслар ва биринчи навбатда энергия ресурсларининг катта заҳираларига эга бўлган Эрон яқин йилларда минтақавий куч марказига айланишни ўз ташқи сиёсатининг устуворлиги сифатида кўрмоқда. АҚШ санкциялари туфайли иқтисодий қийинчиликларга дуч келган Эрон халқаро майдонда ўз манфаатларини кучайтириш ва АҚШ гегемонлигига қарши курашиш йўлида ўз мавжуд потенциалидан самарали фойдаланмоқда.

Кўпгина олимлар ўз асарларида Эроннинг жаҳон иқтисодиёти ва жаҳон сиёсатидаги ўрни ва ролини ўрганишга эътибор қаратадилар. Тадқиқотчи Эзги Узун ўзининг “Қаршилик ўқи: Эрон ташқи сиёсатида диннинг ўрни” асарида Эроннинг 1979-2018 йиллардаги ташқи сиёсатини таҳлил қилган. Асар муаллиф томонидан танланган даврга оид давлат ташқи сиёсатининг барча даражаларини тизимли йўлга қўйгани, шунингдек, минтақавий миқёсдаги сиёсат таҳлил этилгани билан бошқалардан ажралиб туради [1]. И.Н.Тимофеев [2], Н.М.Мамедова [3] томонидан халқаро сиёсий ва иқтисодий санкцияларнинг замонавий жиҳатлари, “санкция” тушунчасига таъриф, Эрон ва Россияга қарши санкциялар мисолида халқаро санкцияларни таҳлил қилиш механизми ҳамда АҚШнинг Эронга қарши киритган иқтисодий санкциялар сиёсати ўрганиб чиқилган. К.Катсман ва М.Варнарларнинг тадқиқот ишларида Эрон ислом инқилобидан сўнг Эрон мафкурасига миллатни бирлаштириш йўлидаги асосий омиллардан бири сифатида қаралади. Шунингдек, уларнинг тадқиқот ишларида Эроннинг миллий манфаатлари, диний мафкураси, миллий хавфсизлик стратегиясининг воситалари, ядровий ва мудофаа дастури, Эроннинг Ироқ, Сурия ва Туркия билан ташқи алоқалари, Эроннинг Марказий ва Жанубий, Шарқий Осиё билан ҳамкорлиги ҳамда дунёнинг бошқа мамлакатлари билан халқаро муносабатлари кенг ёритилган. Г.Юлдашева муаллифлигидаги тадқиқот ишида АҚШ ва Эрон стратегияларининг геосиёсий асослари ва 1990 йилдан 2017 йилгача Марказий Осиё минтақасига нисбатан ёндашувлари, ушбу давлатларнинг етакчи минтақавий иштирокчилар билан ўзаро муносабатларининг таърифи ва моҳияти, шунингдек, АҚШ–Эрон муносабатларининг Марказий Осиёнинг сиёсий ва иқтисодий (энергия ва транспорт ҳамда транзит йўлаклари) ривожланишига таъсири сингари масалалар ўрганилган [4]. Бироқ маҳаллий олимлар томонидан ташқи сиёсий механизм сифатида қўшни минтақада жойлашган Эроннинг ташқи сиёсати, ҳозирги дунё сиёсатида Эронга қарши етакчи давлатлар томонидан қўлланилган санкциялар, уларнинг мақсадлари, йўналиш ҳамда оқибатларига оид масалаларга етарлича эътибор қаратилмаган.

Шу муносабат билан Эроннинг ташқи сиёсатини, халқаро майдондаги геосиёсий вазиятни ўрганиш Яқин Шарқдаги вазиятнинг ривожланиш тенденцияларини аниқлаш имконини беради.

Эрон ташқи сиёсатининг асосий йўналишларини тушуниш учун, аввало, 1979 йилги Эрон ислом инқилоби ғоясини тушуниш лозим. Қисқача айтганда, ислом инқилоби ички диктатурага, шунингдек,

инқилобчилар томонидан “адолатсиз” деб топилган халқаро дунё тизимига қарши қўзғолон эди. Шундай қилиб, Ислом Республикаси Шарқ ва Ғарб блоклари ўртасида бўлинган икки қутбли дунё тизими дунёнинг барча халқлари учун адолат ва хавфсизликни таъминлаш керак деган фараз асосида қурилган эди. Кейин Эрон Совуқ уруш даврида Қўшилмаслик ҳаракатининг фаол аъзоси бўлиб, АҚШ ва собиқ Совет Иттифоқининг Яқин Шарқдаги манфаатларига кескин қаршилик кўрсатди.

Шу тариқа Оятуллоҳ Ҳумайнийнинг “На Шарқ, на Ғарб” таълимоти инқилобдан кейин Эрон ташқи сиёсатининг асосий йўналишига айланди. Ушбу умумий таълимотга кўра, Эроннинг устувор вазифаси дунёдаги мусулмон халқлар ва охир-оқибат барча «мазлум» халқлар ўртасида мавжуд дунё тузуми зулмига қарши «бирлик»ни сақлаш эди [5]. Бир мунча вақт бу сиёсат чет элда «инқилобни экспорт қилиш» деб номланган. Бироқ, бу терминология, шунингдек, Эроннинг бу ҳаракатлари икки қудратли давлатнинг ҳар бири билан самимий муносабатларни сақлаб қолишга ҳаракат қилаётган консерватив араб ҳукуматларининг аксарияти томонидан қўллаб-қувватланмади [6].

Совет Иттифоқи парчаланиб, Совуқ уруш тугаганидан бери Эрон ташқи сиёсати стратегияси ўзгармади. Асосий мақсад ривожланаётган давлатлар ўртасида эълон қилинмаган иттифоқ тузиш орқали АҚШнинг жаҳон сиёсатидаги “бир томонлама”лигига қарши туришдир. “Инқилобни экспорт қилиш” атамаси расман тарк этилган бўлса-да, Эрон ўз минтақасидан ташқарида ва ҳатто мусулмон дунёсидан ташқарида, хусусан, Лотин Америкаси ва Африкада ўз таъсирини кенгайтиришга муваффақ бўлди.

Деярли икки аср давомида Эроннинг асосий хавфсизлик муаммолари ўзгармади. Эрон ҳукуматлари жаҳон кучлари билан муомала қилишда ўзини доимо алданган ва камситилгандек ҳис қилган. Эрон ҳукуматлари бутун 19-20 асрлар давомида жаҳон кучларини Эронни эътиборга олиш керак бўлган куч эканлигига ишонтиришга ҳаракат қилдилар.

Эрон XIX аср бошларида бўлиб ўтган икки йирик урушда Россияга ўз ҳудудларининг катта қисмини ёқотди. 1941 йилда Россия, Буюк Британия ва Америка қўшинлари томонидан ўтказилган ҳарбий ҳаракатлар туфайли шоҳ Ризо Паҳлавий тахтдан воз кечишга мажбур бўлди [7]. Эрон халқининг кўпчилиги томонидан қўллаб-қувватланган Оятуллоҳ Ҳумайнийнинг инқилобий ҳукумати саккиз йиллик уруш

(1980-1988) пайтида тўлиқ қуролланган ва тўлиқ қўллаб-қувватланган Саддам Ҳусайннинг ҳарбий тажовузи билан мағлуб этилди [8].

Тарихдаги кўплаб ҳарбий аччиқ тажрибалар Эрон сиёсий руҳиятига шунчалик таъсир қилдики, Эрон ўз хавфсизлигини ҳеч кимнинг ёрдамига таянмасдан ўзи сақлаб қолиши керак деган хулосага келди. Тарихий ва географик жиҳатдан Эрон жаҳон кучларидан минтақавий қўшниларга келаётган хорижий таҳдидлар денгизида ўзини “ёлғиз” ҳис қилди. АҚШнинг Ироқ ва Афғонистондаги ҳарбий аралашуви, шунингдек, Форс кўрфази минтақаси ва Марказий Осиёдаги ҳарбий иштироки сўнгги ўн йил ичида Эроннинг хавфсизлик хавотирларини кучайтирди.

Демократлар ва республикачилар давридаги АҚШ ҳукуматлари худди шундай тарзда Эронга нисбатан “стол устидаги барча вариантлардан фойдаланиш” ҳақида гаплашдилар. АҚШ томонидан кўрилган чоралар, гарчи ҳеч қандай қонуний чоралар билан оқлаб бўлмайдиган ёки тушунарли бўлмаса-да, Эрон бўйича сўнгги Америка мунозараларида одатий ҳолга айланди ва бу эронликларни чуқур хавотирга солади.

Исроил, шунингдек, минтақавий даражада Эронга қарши хавфсизликка таҳдид солмоқда. Сўнгги пайтларда икки томон ўртасидаги адоват қайноқ нуқтага кўтарилиб, Исроилнинг Эронга қарши эҳтимолий зарбаси ҳақида доимий равишда музокаралар олиб борилмоқда [9].

Бошқа томондан, Эрон ва Ироқ ўртасидаги можаро аллақачон тугаган ва Ироқнинг янги ҳукумати Эрон билан яқин алоқалар ўрнатишга тайёр бўлса-да, Эрон-араб муносабатлари сўнгги ўн йилликларда доимо нотинч бўлиб келган ва Эрон ҳеч қачон ўзини араб қўшниларидан бутунлай хавфсиз ҳис қила олмайди.

Эрон ташқи ишлар вазири Ҳусайн Амир Абдуллоҳиён Ғарбий Осиёда кучли минтақа яратишни Эрон ташқи сиёсатининг устувор йўналишларидан бири деб таърифлади [10].

Бугун биз глобал ҳамжамият минтақавий ва халқаро миқёсда тобора кучайиб бораётган муаммоларга дуч келаётган бир вазиятда, ноқонуний санкцияларни қўллаш халқаро ҳуқуқ нормалари ва инсон ҳуқуқларига зиддир ҳамда айрим глобал кучларнинг чексиз бир томонламалик ва гегемонлиги халқаро ҳамжамиятга нотинчлик ва беқарорликнинг янги даврини олиб келди, дея таъкидлаб ўтди.

АҚШнинг Биргаликдаги кенг кўламли ҳаракатлар режасидан чиқиши яна бир бор унинг халқаро мажбуриятларини менсимаслигини

ва Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Хавфсизлик Кенгаши томонидан маъқулланган резолюцияни очиқдан-очиқ бузганини кўрсатди.

Унинг таъкидлашича, барча халқаро кузатувчиларга кўра, Эрон Ислом Республикаси сўнгги йилларда АҚШнинг салбий ҳаракатларлари ва Европанинг ҳаракатсизлигига қарамай, ядровий муаммони тинч йўл билан ҳал қилишга содиқ қолган ва ҳар доим ўз келишувни сақлаб қолиш учун музокаралар очиқ йўлини тутган. Ачинарлиси шундаки, халқаро ҳамжамиятнинг очиқ илтимосига ҳамда олдинги ваъда ва даъволарга қарамай, АҚШнинг амалдаги маъмурияти Эрон халқига қарши душманона ҳаракатларни давом эттирмоқда ва максимал босим сифатида танилган муваффақиятсиз сиёсатни давом эттирмоқда. Мустақил давлатларнинг ички ишларига аралашув асосий иштирокчилар томонидан ва янги усуллар билан давом этмоқда, деб қўшимча қилди [10].

Ғарбий Осиёда кучли минтақа яратиш ҳар доим Эрон Ислом Республикаси ташқи сиёсатининг устувор йўналишларидан бири бўлиб келган.

Бироқ сўнгги ўн йилликларда минтақадан ташқари фаолларнинг минтақа давлатларининг ички ишларига кенг кўламли аралашуви ва босиб олиниши, улар томонидан ноқонуний санкциялар қўлланилиши ушбу мақсадни амалга оширишда жиддий муаммога дуч келди.

Ғарбий давлатларнинг Ғарбий Осиё минтақасида Афғонистондан Ироқ, Ливан, Фаластин, Сурия ва Ямангача бўлган ҳудудда халқаро ҳуқуқ нормаларига зид ҳаракатларини давом эттириши террорчи ва сепаратистик гуруҳларнинг кучайишига олиб келди, минтақавий ва халқаро тинчлик ва барқарорликни хавф остига қўйди.

Президен Иброҳим Раисий Эрон иқтисодий инқироз ва ички низоларга дуч келган, ҳукмрон тизимнинг қонунийлигини хавф остига қўйган мураккаб даврда - қаттиқ ташқи босим остида бўлган даврда лавозимга киришди. Ҳасан Руҳонийдан фарқли ўлароқ, Иброҳим Раисий ташқи сиёсатда яхши тажрибага эга эмас, шунинг учун у ўз лавозимини эгаллашига ёрдам берган давлат институтлари ва арбобларига, хусусан, мамлакат ташқи сиёсатида сўнгги сўзни айтадиган Олий раҳбар Али Хоманаийга таянади. Айниқса, ядровий келишув, Эроннинг Ғарб билан муносабатлари ва “Шарққа нигоҳ” сиёсати билан боғлиқ. Шунинг учун Иброҳим Раисий ҳукумати Жо Байден маъмуриятининг ядровий келишувни қайта тиклаш дипломатиясига қарши чиқмади. У ўзининг ҳаётий манфаатлари билан боғлиқ

қизил чизиқларга амал қилган ҳолда кескинликни кучайтириш учун минтақавий мулоқотни кенгайтириш истагини билдирди.

Эрон президенти Иброҳим Раисий лавозимга киришгач, Эроннинг хорижий кучлар билан муносабатларини диверсификация қилиш ва Ғарб босимига, айниқса АҚШдан келаётган босимга қарши туриш учун “Шарққа нигоҳ” стратегиясини қабул қилди. Ғарб билан музокара ўтказиш ўрнига, Шарққа бурилиш Эроннинг Хитой ва Россия каби ғарбий бўлмаган кучлар билан ҳамкорлигига урғу берди. Хитой ва Россия мустақил ва Америкага қарши ташқи сиёсат юритади ва иккаласи ҳам ўхшаш давлатлар билан келишувларга воситачилик қилишга интилади [11].

Хулоса қилиб айтганда, Эроннинг бугунги кундаги асосий халқаро мақсади “норозилик” минтақавий гегемонлик ва жаҳон акторига айланишдир. Бунинг учун Эроннинг ташқи сиёсатидаги устуворликларини қуйидагича умумлаштириш мумкин:

- Қўшнилари билан яхши муносабатларни сақлаб қолиш ва шу билан бирга Исроилни ушлаб туришни талаб қиладиган сўзсиз минтақавий устунликка эга бўлиш;
- Осиёдан Лотин Америкасигача ривожланаётган мамлакатлар ўртасида иттифоқ тузиш;
- Ғарбнинг жаҳон сиёсати ва иқтисодиёти устидан ҳукмронлиги ва бир томонламалигига қарши очиқ тўқнашувларга олиб келмайдиган йўллар билан жаҳон мухолифати гуруҳини яратиш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ezgi Uzun. The axis of resistance: the role of religion in Iranian foreign policy. Sabanji university, 2018. // URL: https://research.sabanciuniv.edu/id.

2. И.Н. Тимофеев. Экономические санкции как политическое понятие. Вестник МГИМО. 2018. 2(59). С. 26-42.

3. Мамедова Н.М. Экономика Ирана. - М.: МГИМО-Университет, 2018. - 333 с.

4. Г.Юлдашева: “Геополитические процессы в Центральной Азии: роль Ирана и США”. Latvian institute of International affairs. 2017. // URL: https://www.caa-network.org/archives/9702.

5. 1 января 1989 года высший руководитель Ирана аятолла Хомейни написал Михаилу Горбачёву. 01.01.1989. // URL: https://diletant.media/art

6. Власть аятолл. Как Иран стал сверхдержавой региона и в чем он не хочет уступать Москве. ТАСС ахборот агентлиги. 2019. // URL: https://tass.ru/opinions/6273813

7. Gholam Reza Afkhami. The Life and Times of the Shah. Univ. of California Press, 2009. 740 p.

8. Д.Окунев. «Священная оборона»: как Саддам воевал с Аятоллой Хомейни. Центр военно-политических исследований МГИМО. // URL: http://eurasian-defence.ru/?q=node/47633

9. Израиль предупредил о риске удара по Ирану из-за ядерной программы. РБК. 2022. URL: https://www.rbc.ru/politics/26/07/2022

10. FM terms creating strong region in West Asia as Iran's foreign policy priority. Government of the Islamic Republic of Iran. 2022. // URL: https://irangov.ir/detail/399037

11. А. Вахшитех. Вопрос вступления Ирана в Шанхайскую организацию сотрудничества в политическом дискурсе и экспертных оценках. Постсоветские исследования. Т.4. № 7 (2021). // URL: file:///C:/Users/s.fayzullayev/Downloads/vopros-vstupleniya-irana.

Sabokhon TURSUNALIEVA
1st year master degree student, TSUE

THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION AND CHINA'S NEW DIPLOMACY

Annotation: This article offers a Chinese perspective of the elements and approaches of what is often called China's 'New Diplomacy' and argues that China's involvement in the development of the Shanghai Cooperation Organization (SCO) can be regarded as an exemplary case of 'China's New Diplomacy. The article furthermore aims to contribute to the understanding of China'semerging role in the international multilateral arena.

Key Words: Shanghai Cooperation Organization, New Diplomacy, Harmonious, security, economic.

During the past 30 years of reform and opening up to the outside world, tremendous changes have taken place in China. In particular the rapid growth of China's economy and the country's growing ties with the rest of the world stand out. Against the background of this changing domestic situation and developments in the international environment the country has

been readjusting its foreign policy and diplomacy through a process of constant learning and feedback. In this process, new concepts of and approaches to Chinese diplomacy are developing. The concepts include the New Security Concept, the New Development Approach, the New Civilization Outlook and the Harmonious World Concept. Together they form the basis of China's New Diplomacy.[Much has been written about China's New Diplomacy. See e.g. Qin Yaqing, International System and China's Diplomacy, Beijing: World Knowledge Press, 2009]. China's New Diplomacy has first and foremost been visible in China's diplomacy towards the Asian region, as neighbouring countries are crucial to creating a favourable and stable international environment for China.

The term New Diplomacy is generally used for the approach to diplomacy that China developed from the mid-90s onwards. The goals of Chinese diplomacy have remained the same since the period of reform and opening up starting in 1978: to focus on the central task of economic construction, and to ensure a peaceful and favourable international environment for China's domestic development. The form and content of China's diplomacy, however, changed considerably. A new set ofideas and concepts were introduced including the New Security Concept, the New Development Approach, the New Civilization Outlook and the concept of a Harmonious World.

These concepts all contribute to another long-term objective of Chinese diplomacy: to build a harmonious world that will guarantee China and the world's continuous peace and common prosperity. The first new concept to be put forward was The New Security Concept. After the Cold War, China was determined to discard 'Cold War thinking' and it introduced the New Security Concept. Under this concept, China seeks to safeguard its security via dialogue and cooperation based on mutual trust, mutual benefit, equality and consultation as its basic contents.[Cong Peng (Ed.), Comparative Studies: Security Concepts of Great Powers (International Affairs Publishing House, 2004), pp. 267-268]. The New Security Concept takes a long-term view of security relations and respects other nations' practical interests. It encourages nations to build trust through consultations and to seek national security by means of multilateral coordination.

A Harmonious World is a peaceful, stable, open and tolerant world which promotes enduring peace and equal prosperity. In a Harmonious World, different civilizations, each with its own social system and development model, communicate and learn from each other, trust each other, develop together and get along well in harmony; based on the

principles of international law, countries maintain peace and safety via just and efficient security institutions and world affairs are settled with dialogue and negotiations. [Chinese Deputy Foreign Minister Zhang Yesui explained the meaning of a “Harmonious World”. http://news.sohu.com/20060402/n242595778.shtml]. With the introduction of these new concepts, China has embarked upon a journey to achieve all-round involvement in the international arena not only out of consideration for its national interest, but also because of its responsibility as a major power.

The development of the Shanghai Cooperation Organization The SCO includes China, Russia, Kazakhstan, Uzbekistan, Kyrgyzstan and Tajikistan, and was founded in June 2001. Its immediate predecessor, the Shanghai Five mechanism, was initiated by China in 1996, and was the first international organization of that kind that China had ever initiated. The initial purpose of the Shanghai Five mechanism was to build military trust in order to resolve the border issues among China, Russia, Kazakhstan, Kyrgyzstan and Tajikistan.

This Treaty can be compared in importance to the SCO Charter. If the Charter is the “soul” of the Organization, its “compass”, then the Treaty is the “conscience” of the SCO. Each member state is responsible for contributing to its implementation. This document is aimed at ensuring the correct, rhythmic and stable functioning of the “compass” that enables the Organization to stay on the chosen path. The Charter and the Treaty are the foundation for the political and legal relations of the SCO, determining its philosophy and image for the long term, for the entire period of the existence of the Organization. [The 7th international student symposium: Celebrating research& creative endeavor. Tursunalieva Sabokhon Samarkand, 2022.p.p111].

Deepening Military Trust in Border Regions’. This agreement served as an important policy guarantee for the bilateral and multilateral relations among the five and helped to launch the ‘Shanghai Five’ mechanism in Shanghai in 1996 which laid the foundation for the SCO. In April 1997, the five nations signed the ‘Agreement on Reduction of Military Forces in Border Regions’. The two documents which proposed the principles of equality, trust, consultation, and mutual benefit in order to encourage the removal of military threats that could hinder the development of nations and regions were combined into a joint statement by the five and became essential contributors to the peaceful settlement of border issues. China settled its border disputes with Kazakhstan in 1998, Kyrgyzstan in 1999,

Russia in 2004, and Tajikistan in 2006. [Zhao Huasheng, New Ttrends in SCO Security Cooperation, http://www.sectsco.org/CN/show.asp?id=263].

In addition to building trust and resolving border issues, the Shanghai Five mechanism soon provided the five countries with a platform to jointly cope with non-conventional threats in the region. The situation in Central Asia had become very complicated as a result of the so-called 'three evils': international terrorism, separatism, and extremism. Furthermore, cross-border crimes such as drug trafficking, the proliferation of weapons and illegal immigration also posed threats to the security and stability of the region. The maintenance of Central Asia's peace and stability required regional cooperation.

The New Security Concept and the SCO: the principles of equality and mutual trust As discussed above, the New Security Concept serves as China's primary diplomatic ideology. The Shanghai Five mechanism and the subsequent founding of the SCO exemplify the New Security Concept in practice. The Shanghai Five mechanism in fact initiated the practice of the New Security Concept by developing state-to-state relationships based on partnerships rather than alliances, which is regarded by many as an enrichment of contemporary international relations. A 'partnership' differs from an 'alliance' in that partners coordinate their actions but do not have treaty obligations on specific issues. The SCO's charter, therefore, does not require member states to support one another in a time of war. This was illustrated in 2008, when SCO members did not side with Russia when it invaded Georgia. The SCO thus hints at new, more loosely organized, regional cooperation models. The framework of the SCO enshrines informal, consensus-based decision-making so all the member states are able to veto or opt out of any decision. In this way all countries, no matter how big or small, have an equal status [Xing Guangcheng, Sun Zhuangshi, Shanghai Cooperation Organization Studies (Changchun Publishing house, 2020), pp. 92-93] The central distinctive feature of the SCO as a regional cooperation and security framework is that it enables Central Asian states to take part in generating regional approaches to cooperation and security on an equal footing with the larger regional powers. It provides an opportunity that Central Asia previously did not have.[Ruslan Maksutov, 'The Shanghai Cooperation Organization: A Central Asian Perspective'.Sipri Project paper, August 2008.]

In conclusion, Many of the concepts that are part of China's New Diplomacy have found their realization in the development and working of the SCO. China and other SCO members settled traditional border disputes,

established mutual trust and promoted anti-terrorism cooperation in line with China's New Security Concept. Cooperation in trade and energy has been facilitated under China's New Development Approach of equality and mutual benefit and conflicts between the different cultures and social institutions in the SCO have been reduced in line with the principles of a Harmonious World and the New Civilization Outlook.

The development of the SCO is based on practical achievements. It started with the narrow issue of border negotiations but gradually broadened to include economic and cultural cooperation. There are still many intractable problems concerning both the SCO's internal and external relations. The former British Diplomat Ernest Satow once said, 'Diplomacy is the application of intelligence and tact to the conduct of official relations between the governments of independent states.'As his words suggest, today's SCO calls for diplomatic wisdom to overcome these difficulties. In its attempt to solve these problems, China's New Diplomacy aims to further improve and move towards maturity.

References:

1. Jan Melissen (ed.), The New Public Diplomacy: Soft Power in International Relations, (Basingstoke: Palgrave-Macmillan, 2005) pp. 16-25.
2. Much has been written about China's New Diplomacy. See e.g. Qin Yaqing, International System and China's Diplomacy, Beijing: World Knowledge Press, 2009.
3. Cong Peng (Ed.), Comparative Studies: Security Concepts of Great Powers (International Affairs Publishing House, 2004), pp. 267-268
4. Chinese Deputy Foreign Minister Zhang Yesui explained the meaning of a 'Harmonious World.'http://news.sohu.com/20060402/n242595778.shtm.
5. The 7th international student symposium: Celebrating research& creative endeavor. Tursunalieva Sabokhon Samarkand, 2022.p p111
6. Zhao Huasheng, New Ttrends in SCO Security Cooperation, http://www.sectsco.org/CN/show.asp?id=263.
7. Xing Guangcheng, Sun Zhuangshi, Shanghai Cooperation Organization Studies (Changchun Publishing house, 2020), pp. 92-93.
8. Ruslan Maksutov, 'The Shanghai Cooperation Organization: A Central Asian Perspective'. Sipri Project paper, August 2008.
9. Lord Gore-Booth, Satow's Guide to Diplomatic Practice (London and New York: Longman, 1979), p. 3.

10. Abdullaev, Erkinbay. “The Shanghai Cooperation Organization as a subject of international relations.http://fikr.uz/blog/tdyi/shanxay-hamkorlik-tashkiloti-xalqaro-munosabatlar-subyekti-sifatida. Html

Mehri VOXIDOVA
dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, TDSHU

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDOSI TARKIBI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tezisda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo tarkibi va hajmi tahlil qilingan bo‘lib, tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlariga transport vositalari, mineral yoqilg‘i, trikotaj, kiyimlar, meva va sabzavotlar eksport qilsa, uning importi tarkibida mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlar, tuz, oltingugurt, tuproq, tosh, gips, ohak va sement, yorma, mashinalar, yadro reaktorlari va qozonxonalar ustunlik qiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, eksport, import, savdo hajmi, tashqi savdo aylanmasi.

2016-yildan keyin O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining takomillashishi natijasida uning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham savdo aloqalari rivojlonib bormoqda. Jumladan, O‘zbekistonning yirik 5 ta eksport hamkorlarining 2 tasi (Qozog‘iston-11%, Qirg‘iziston-8,2 % ulushga ega), import hamkorlarining 1 tasi (Qozog‘iston-11% ulushga ega) ushbu mamlakatlardir. Mamlakat Markaziy Osiyo mamlakatlarining barchasi bilan aktiv savdo aylanmasiga ega.

Jumladan, 2021-yilda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi ikki tomonlama savdo hajmi 3,9 mlrd dollarni tashkil qilgan bo‘lsa (2020-yilga nisbatan 30,4 foizga ko‘p), 2022-yil yanvarь noyabrda – 4,2 mlrd dollar (+18,8%): eksport – 1,27 mlrd dollar (+20,2%), import – 2,93 mlrd dollar (+18,1%) ga yetdi.

Eksportning asosiy pozitsiyalari: transport vositalari (27,8%), oziq-ovqat tovarlari (19,1%), xizmatlar (14%), plastmassa va undan yasalgan buyumlar (5%), to‘qimachilik mahsulotlari (4,5%), qora metallar (4,2%) va boshqalar.

Import: un mahsulotlari (27,3%), qora metallar ulardan yasalgan mahsulotlar (17,8%), energiya mahsulotlari (10,5%), ruda va shlak (12,7%), qurilish materiallari (5%), transport vositalari (4,6%) va boshqalar.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan umumiy hisobda 7 mlrd AQSH dollariga teng o‘zaro savdosining 60 foizi Qozog‘istonga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi o‘zaro savdo Markaziy Osiyodagi hududiy ichki savdoning 25 foizini tashkil qiladi (16,5 mlrd) [1].

O‘zbekiston Qirg‘iziston bilan ham ikki tomonlama kelishuvlar, ShHT va MDH doirasida savdo-iqtisodiy munosabatlarini olib boradi. 2016-yildan 2020-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonning Qirg‘iziston bilan tovar aylanmasi 3,5 barobar o‘sib, 903 million dollarga yetdi [2]. 2021-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 953,5 million dollardan, 2022-yil birinchi yarmida esa 590 million dollardan oshdi [3].

O‘zbekistonda qirg‘iz sarmoyasi ishtirokidagi 187 ta korxona bor (ular soni 2016 yilda 49 ta bo‘lgan), shulardan 98 tasi qo‘shma korxona hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, energetika, yengil sanoat, farmatevtika, avtomobilsozlik, qurilish materiallari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida qo‘shma loyihalar sonini ko‘paytirish istiqbollari mavjud.

O‘zbekiston savdo salohiyati uchun foydali bo‘lgan “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” transport koridorining imkoniyatlari juda baland. U mamlakatga dengizga va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga chiqish imkonini beradi.

2021-yilda O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 22,6 foizga oshib, 604,5 million dollarni tashkil etgan bo‘lsa, Tojikistonga eksport hajmi 23,6 foizga oshib, 500,9 million dollarni, import 17,7 foizga oshib, 103,6 million dollarni tashkil etdi. Pandemiya davrida Tojikiston bilan tovar ayirboshlash hajmi kamaymadi va bir oz bo‘lsada, 2019 yildagi 480,5 million dollardan 2020 yilda 493,1 million dollargacha 2,7 foizga oshganini ko‘rsatdi [4].

2021-yilda O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi ikki tomonlama savdo hajmi 902,0 mln dollarni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 67,6%ga o‘sdi. Shu bilan birga, 2022-yil yanvar-may oylarida mamlakatlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 322,6 mln dollarni tashkil etdi va 2021-yilning shu davriga nisbatan 1,2% ga oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi 2021-yilda dunyoning 182 davlati bilan savdo aloqalarini amalga oshirdi. O‘zbekiston tashqi savdosida

Turkmanistonning ulushi umumiy savdo aylanmasida - 2,1%, eksportda - 1,2% va importda - 2,8%ni tashkil etdi.

2021-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda Turmaniston kapitali ishtirokida 173 ta korxona[5] faoliyat olib boradi. Ikki mamlakat o‘rtasida chegaraviy savdoni rivojlantirish bo‘yicha kelishuv imzolangan.

Markaziy Osiyodagi har bir mamlakat O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasida o‘ziga xos salohiyatga ega. Ushbu mamlakatlar etnik tarkibining bir-biriga o‘xshashligi o‘zaro savdo imkoniyatlarini oshirsa, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonning JSTga a’zo ekanligi hamda O‘zbekiston va Turkmanistonning a’zo emasligi savdo munosabatlarini murakkablashtiradi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlariga transport vositalari, mineral yoqilg‘i, trikotaj, kiyimlar, meva va sabzavotlar eksport qilsa, uning importi tarkibida mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlar, tuz, oltingugurt, tuproq, tosh, gips, ohak va tsement, yorma, mashinalar, yadro reaktorlari va qozonxonalar ustunlik qiladi. O‘zbekiston MO mamlakatlariga oziq-ovqat mahsulotlarining boshqa pozitsiyalari bo‘yicha ham eksportni amalga oshiradi, ammo umumiy hisobda ularning narxi yuqori emasligi sababli, eksport hajmida yuqori ahamiyat kasb etmaydi.

O‘zbekistonning savdo balansi manfiy sal’doga ega (2022-yil noyabr bo‘yicha eksport 1539,5 mln dollarni, import 2754 mln dollarni tashkil etgan). Buni MO mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasida ham ko‘rish mumkin. Masalan, birgina MO mamlakatlarining Tojikistondan tashqari barchasi bilan O‘zbekiston manfiy sal’doga ega.

1-jadval. O‘zbekistonning MO mamlakatlari bilan eksport va import tuzilmasi (2021 yil, mln. AQSH dollarida) [6]

	Eksport (AQSH dollarida)	Import (AQSH dollarida)
O‘zbekiston-Qozog‘iston	Transport vositalari (325,06 mln), meva, yong‘oq, qovun (112,77 mln), sabzavotlar (74,43 mln), plastmassa (58,08 mln), mashina, yadro reaktorlari, kotellar (49,38 mln dollar) va boshqalar.	Yorma (649 mln), temir va po‘lat (474,3 mln), rudalar (347,21 mln), mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlar (288, 80 mln), temir yo‘l va tramvaydan tashqari transport vositalari (119,95 mln) va boshqalar.

O‘zbekiston-Qirg‘iziston	Kiyim (187,48 mln), trikotaj va to‘qilgan buyumlar (97,52 mln), boshqa tekstil buyumlari (33,66 mln), plastmassa (31,51 mln), sabzavotlar (28,95 mln) va boshqalar.	mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlar (44,11 mln), tuz, oltingugurt, tuproq, tosh, gips, ohak va tsement (33,03 mln), temir va po‘lat (21,05 mln), mashinalar, yadro reaktorlari va qozonxonalar (8,65 mln), shisha va shisha idishlar (6,96 mln) va boshqalar.
O‘zbekiston-Tojikiston	Mineral yoqilg‘i (54,83 mln), oziq-ovqat sanoati chiqindilari (43,79 mln), o‘qitlar (30,13 mln), plastmassa (17,69 mln), temir va po‘lat (17,46 mln) va boshqalar.	tuz, oltingugurt, tuproq, tosh, gips, ohak va tsement (33,77 mln), mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlar (22,99 mln), temir va po‘lat (17,96 mln), alyuminiy (8,28 mln), paxta (5,62 mln) va boshqalar.
O‘zbekiston-Turkmaniston	O‘g‘itlar (48,41 mln), tuz, tsement va gips (5,79 mln), meva, yong‘oq va qovun (5,49 mln), hayvon, hayvon yog‘lari (3,74 mln), tosh, gips va asbest (3,47 mln) va boshqalar.	mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlar (633,54 mln), plastmassa (31,00 mln), shisha va shisha idishlar (7,76 mln), sun’iy iplar (2,08 mln), mashinalar, yadro reaktorlari va qozonxonalar (1,94 mln) va boshqalar.

O‘zbekiston MO mamlakatlariga transport vositalari, meva va sabzavotlar, hayvon, hayvon yog‘lari, temir va po‘lat, oziq-ovqat sanoati chiqindilari, kiyim, trikotaj va tekstil buyumlarini eksport qiladi.

MO mamlakatlaridan import tarkibida rudalar, mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlar, yorma, mashinalar, yadro reaktorlari va qozonxonalar ustunlikka ega (1-jadval).

Buni bir necha omillar bilan asoslash mumkin:

-Mamlakatda mavjud mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlarning aholi ehtiyojlarini to‘liq qoplamasligi va buning natijasida importga ehtiyojni keltirib chiqarishi;

-mashinalar, yadro reaktorlari va qozonxonalar ishlab chiqarishning O‘zbekistonda rivojlanmaganligi;

-kimyo sanoatining modernizatsiyalanmagan tarmoqlarining saqlanib qolayotganligi va kimyo sanoatida innovatsiyalarni joriy etish zaruriyati.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi takliflar shakllantirildi:

-O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining ortishidagi eng katta muammoning uning JSTga a’zo bo‘lmaganligida emas, balki ishlab chiqarishning modernizatsiya qilinishi kerakligidadir. Shu sababli ham, kimyo sanoatining tarmoqlarini modernizatsiya qilish va ushbu yo‘nalishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni ham iqtisodiy-matematik tahlil qilish zaruriyati kelib chiqadi;

-Markaziy Osiyo mamlakatlarining eksport va import tovarlari tarkibi bir-biriga o‘xshash. Shu sababli ham MO mamlakatlari o‘rtasida sanoat kooperatsiyani rivojlantirish maqsadga muvofiq. Masalan, tuz, oltingugurt, tuproq, tosh, gips, ohak va tsement, plastmassa ishlab chiqarish jarayonida kooperatsini yo‘lga qo‘yish mumkin. Bu kooperatsiyaga kirgan tarmoq va sohalarning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi;

-O‘zbekistonning Turkmaniston bilan savdo aloqalarini rivojlantirish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Turkmaniyaton bozoriga meva va sabzavotdan tashqari, boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim va trikotaj mahsulotlari , o‘g‘itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar eksporti hajmini oshirish va tarkibini rivojlantirish imkoni mavjud. Mineral yoqilg‘ilar, moylar va distillatorlar, plastmassa, shisha va shisha idishlar, neft tarkibidan olinadigan kimyo mahsulotlari importini oshirish O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun foydali bo‘lishi mumkin. Sababi, Turkmaniston kimyo sanoatiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar natijasida kimyo sanoati rivojlanish tendentsiyasini ko‘rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. https://daryo.uz/k/2022/12/21/songgi-6-yilda-amalga-oshirilgan-13-dan-ortiq-ozaro-tashriflar-2-mlrd-dollardan-4-mlrd-dollargacha-osgan-ozaro-savdo-yildan-yilga-rivojlanayotgan-madaniy-gumanita
2. https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/9826/
3. https://sputniknews-uz.com/20220726/ozbekiston-va-qirgiziston-avtomobilsozlik-sohasidagi-qoshma-loyihalarni-kopaytirmoqchi-26543226.html
4. Infografika: O‘zbekistonning Tojikiston bilan savdosi. https://review.uz/oz/post/infografika-torgovlya-uzbekistana-s-tadjikistanom

5. Опыт торгово-экономического сотрудничества Узбекистана и Туркменистана в современный период https://www.uzdaily.uz/ru/post/70320
6. Trading economics sayti ma'lumotlaridan olingan. https://tradingeconomics.com/uzbekistan/indicators

Iroda MIRZAMUKHAMEDOVA
1-kurs magistranti, TDSHU

REGIONAL DEVELOPMENT ECONOMY IN UZBEKISTAN

Annotation: Uzbekistan's international trade cooperation continues to grow, and the volume of import and export trade is also constantly increasing. In order to promote the development of relations between Uzbekistan and other countries, this article analyzes the development status of Uzbekistan's trade with other regions, and uses trade The index of combination degree and explicit comparison analyzes the potential of Uzbekistan's trade development, and finds that the overall dependence of China-Uzbekistan trade is high and the complementarity is strong. partner.

Keywords: international trade, import and export trade, degree of trade integration.

Uzbekistan is located in Asia. For the current economy of Uzbekistan, the development of the economy has created new technologies and innovative innovations based on existing technology. Large -scale enterprises have adjusted the current level of the company and the status of production, and they have built the higher and faster and efficient system production that currently needed. In the process, more profits can be harvested. For enterprises, technological innovation reflects not only the innovation in scientific research, but also contains this reform in many aspects of the management market and technology design. Innovation, replacement of management methods, and so on. With the advancement of the times and the technology development of science and technology, the motivation and source of economic development have gradually become the theory of technological innovation, because technological theory is not only the theory of technological innovation, but the economic theory is a whole new, focusing on it, focusing on it. The application of market technology in

daily economic activities such as management is also the needs of the level of technology creative capabilities and their attention. At present, technological innovation that affects economic development is increasingly prominent. Uzbekistan, as a world -developed country, is inexhaustible as a source of economic innovation as a source of economic development. Studies can achieve the economic development of the country.

The city of Tashkeng is the capital of Uzbekistan. The Republic of Uzbekistan is composed of the Republic of Karakar Parkistan and 12 regions. It is a democratic and independent, secular and constitutional country. Uzbekistan is a CIS, a member of the United Nations, Shanghai Cooperation Organization and Ou'an Organization. There are five inland countries: Kazakhstan in the north; Kyrgyzstan in the northeast; Tagikistan from the southeast; south of Afghanistan; bordering Turkmenistan in the southwest. Uzbekistan's economy is gradually transitioning to the market economy, and foreign trade policies are based on import substitution. In September 2017, the country's currency has been completely converted at the market exchange rate. Uzbekistan is one of the world's leading cotton producers. During the Soviet Union, because the area of Uzbekistan was very suitable for planting cotton, cotton plantation was planted alone, and any other plants were allowed to plant in the area. 98 % of the total area of crops. The Republic produces an average of about 4.5 million tons of raw cotton per year. At that time, the area of cotton planting exceeded 2 million hectares, and the Republic was supplying cotton to Soviet companies more than 60 %. In the last few years when the Soviet Union existed, the plan of cotton mining finally began to decrease. This has been greatly promoted by the promotion of the famous "cotton business". The amount of cotton picking fell to 3 million tons. In 1998, the first chairman of Uzbekistan Islamic Karimov proposed technological innovation and the state was implemented. The country's use of processing has increased economic growth. It is also worth noting that 8 % of export revenue provided by cotton in international service trade provided a fairly favorable price for Uzbekistan's agricultural department. Uzbekistan is also known for its orchards and vineyards, and also pays great attention to breeding sheep and silkworms: the agricultural and agricultural industry departments contribute more than 40 % of Uzbekistan's GDP. Cotton is the main crop of Uzbekistan, accounting for about 45 % of the country's exports. Gold ranks second with 22 %. Uzbekistan also produced a large number of silk. Since 2010, the silk made by Micro - McGrady Uzbekistan has basically been promoted to the world. The global market standards, the clothes made by France in 2015 won the first place in

French Fashion Week, and the Xinjiang Autonomous Region in China also imported these silk fabrics from McGrady in Uzbekistan. Not only this can now be in the world In various places, I can see Ertles and Edryles in Uzbekistan. Basically, most of the new styles will be sold short, which also helps Uzbekistan's economic growth. Uzbekistan's agriculture also follows the development of other aspects of Uzbekistan and has improved, because Uzbekistan is now one of the countries that provide fruit to other countries. In addition to these Uzbekistan, Uzbekistan also has some persimmons, grapes, peaches, tomatoes, apples, pears, potatoes, cucumbers and so on. In order to market innovation, Uzbekistan provided great help for this product differentiation. After comparison, Uzbekistan's geographical environment was suitable for planting many plants. Therefore A variety of dried fruits and sauce jams that have not been produced in dried fruits or jams, which contains the unique purple pearl raisins, dried blueberries, dried oranges of Ferganna, dried apricot, peaches Dry, almonds, dried persimmons, dried strawberry, cherry sauce, apricot sauce, strawberry sauce, blueberry sauce, peach sauce, orange sauce, persimmon sauce, etc. Products, and the sales volume is extremely high. There are also minerals and oil and gas reserves and rich in minerals and mining industries, Uzbekistan. The importance to Uzbekistan's economy is also very high. Gold is the source of Uzbekistan's second main foreign exchange income, accounting for 22 % of income. Uzbekistan is the seventh largest producing country in the world, with an annual output of about 80 tons and has the fourth largest storage volume. Uzbekistan has a wealth of natural gas, which can be used in domestic consumption or export. Petroleum is almost enough to meet all the needs required in China; as well as a large number of copper, lead, zinc, tungsten and uranium reserves. In view of the fact that the unable to use the real price signal, the user saves energy, and the energy use is extremely efficient. Trade and investment in Uzbekistan have adopted an import alternative policy.

In 2020, the emergence of the epidemic caused Uzbekistan's economic decline. As the number of patients became more and more, the virus infection became more and more intense. Restaurants, markets, etc. are open. After the crisis, it can generally calculate the damage to the world economy. The impact of economic damage may not be great, but it must be limited by it. Practice clearly shows that if strict measures are not taken, it is likely to lead to great catastrophic consequences and casualties of many people. In such a difficult environment, the state has looked at the main goal to the economy, supports economic development, and hopes that the usual economy can recover quickly. According to many international financial

institutions, Uzbekistan's economic growth will become slower. Before the crisis, the World Bank predicted that the number would be 5.7 %, and it was the highest in Europe and Central Asia, but the epidemic was controlled.

References:

1. Much has been written about China's New Diplomacy. See e.g. Qin Yaqing, International System and China's Diplomacy, Beijing: World Knowledge Press, 2009.
2. Relations, (Basingstoke: Palgrave-Macmillan, 2005) pp. 16-25.
3. Lord Gore-Booth, Satow's Guide to Diplomatic Practice (London and New York: Longman, 1979), p. 3.
4. Chinese Deputy Foreign Minister Zhang Yesui explained the meaning of a 'Harmonious World.'http://news.sohu.com/20060402/n242595778.shtm.
5. Jan Melissen (ed.), The New Public Diplomacy: Soft Power in International
6. Cong Peng (Ed.), Comparative Studies: Security Concepts of Great Powers (International Affairs Publishing House, 2004), pp. 267-268
7. Zhao Huasheng, New Ttrends in SCO Security Cooperation, http://www.sectsco.org/CN/show.asp?id=263.
8. The 7th international student symposium: Celebrating research& creative endeavor. Tursunalieva Sabokhon Samarkand,2022.p.p111
9. Ruslan Maksutov, 'The Shanghai Cooperation Organization: A Central Asian Perspective'.Sipri Project paper, August 2008.
10. Xing Guangcheng, Sun Zhuangshi, Shanghai Cooperation Organization Studies (Changchun Publishing house, 2020), pp. 92-93.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон-АҚШ. Стратегик шерикликнинг янги даври. М.:2018. 180 Б.
2. М.Юлдашев. "Хронология Американо-Узбекских отношений 1992-2012". М.:2012.
3. Ўзбекистон-АҚШ. Стратегик шерикликнинг янги даври. М.: 2018 . 180 Б.
4. Афғонистон ва Ўзбекистонни боғловчи темирйўл лойиҳаси 4,8 млрд доллар дея баҳоланмоқда. https://www.spot.uz/oz/2021/02/03/temiryol/. М.:2021.

Азиза КУЧИЕВА
магистрант 1 курса ТГУВ

ВЛИЯНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ САНКЦИЙ 2018-2019 ГОДОВ НА РАЗВИТИЕ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ИРАНА

Аннотация: В статье рассмотрено влияние экономических санкций на объем добычу и экспорта нефти Исламской Республике Иран, особенности государственной политики, изменение курса национальной валюты Иран во время экономических санкций, дана оценка перспективам развития нефтяной промышленности.

Ключевые слова: нефть, экономические санкции, курс национальной валюты, спрос и предложения, нефтяная промышленность Ирана, экспорт, добыча нефти.

На сегодняшний день с уверенностью можно сказать о том, что в мировой экономике, энергетике и политике происходят колоссальные изменения. Стоит отметить, что развивающиеся страны, обладающие крупными запасами природных ресурсов, к которым относится и Иран, являются сегодня являются ключевыми в вопросе развития мировой экономики и энергетики. Постоянное развитие конкуренции между уже развитыми странами, в которых экономики уже переходят к замедленному развитию и развивающимися странами, в которых экономики начинают переход к новому этапу развития, приводят к конфликтам интересов, в ходе которых стало обычной практикой использование такого инструмента как санкции, борьба с ними, расшатывание мировых рынков углеводородов, позиций нефтегазовых компаний.

Иран расположен на пересечении стратегически важных торговых маршрутов между Европой и Азией, занимает третье место в мире по разведанным запасам нефти и второе – по запасам природного газа, является одним из наиболее крупных экспортеров нефти в ОПЕК. Доходы Ирана от продажи нефти достигают 75% от всех экспортных доходов страны, обеспечивают половину государственного бюджета и, по разным оценкам, до 20% ВВП[1].

С приходом в США к власти новой администрации в 2017 г. американская политика в отношении Ирана претерпела принципиальную трансформацию. П мнению Д. Трампа СВПД не позволило остановить иранскую программу развития баллистических

[1] https://rasht-iran.mid.ru/ob-irane

ракет, к тому же Иран использует экспортные доходы от нефти для финансирования военной экспансии в Сирии, Ираке, Ливане и Йемене.

В мае 2018 г. США вышли из соглашения и с ноября восстановили режим санкций в отношении нефтегазового сектора и экономики Ирана в целом. Под нажимом США ввести санкции против иранских банков было вынуждено руководство SWIFT[1]. Санкции охватывают широкий спектр производственных отраслей и финансовый сектор Ирана. Их цель – свести к минимуму приток свободно конвертируемой валюты в экономику страны, без чего она не может нормально функционировать, а также блокировать иностранные инвестиции в нефтегазовые проекты.

Для избегания резкого скачка цены нефти перед введением санкций 8 стран – Греция, Италия, Турция, Китай, Индия, Южная Корея, Япония и Тайвань – получили временные разрешения на импорт иранской нефти сроком на 180 дней[2]. Другие участники СВПД не поддержали политику США. Однако предложить Ирану действенные экономические механизмы, позволяющие осуществлять импорт иранской нефти и инвестиции в иранский нефтегазовый сектор, они оказались не в состоянии.

Особняком стоит Китай, который продолжает импортировать иранскую нефть. Китайские государственные нефтяные компании предложили иранской стороне новый формат инвестиционного взаимодействия в нефтегазовой сфере. Они, во-первых, заинтересованы в получении так называемой долевой нефти, под импорт которой рассчитывают получить разрешения США, что предполагает участие в акционерном капитале; во-вторых, настаивают на полной самостоятельности при закупках нефтегазового оборудования; в-третьих, полагают, что компенсация издержек по инвестициям должна осуществляться сразу же после монтажа оборудования.

В январе 2019 г. вторая крупнейшая государственная нефтяная компания Китая Sinopec заявила о готовности инвестировать на таких условиях 3 млрд долл. в освоение гигантского нефтяного месторождения Yadavaran[3]. Для Ирана, который не допускает иностранные компании к контролю над запасами углеводородов и контролирует операционную

---

[1] SWIFT and Sanctions. Available at: https://www.swift.com/about-us/legal/compliance/swift-and-sanctions

[2] Tan F.U.S.Says Iran has Lost $10 Billion in Oil Revenue due to Sanctions. Available at: https://www.reuters.com/article/usceraweek-energy-iran/us-says-iran-has-lost-10-billion-in-oil-revenue-due-to-sanctions-idUSKBN1QU21X

[3] Faucon B. China Offers Iran $3 Billion Oil Deal. The Wall Street Journal, 18.01.2019, p. A7

деятельность в нефтяных проектах, включая инвестиционную политику компаний, принятие таких условий сотрудничества означало бы радикальный отход от прежних позиций. Евросоюз решил придерживаться положений СВПД до тех пор, пока достигнутые договоренности соблюдает Иран. Для защиты европейских компаний, ведущих бизнес с Ираном, было решено активировать так называемый блокирующий ста тут, который запрещает компаниям ЕС выполнять экстерриториальные санкции США, позволяет европейским компаниям получать компенсацию за ущерб, полученный в результате таких санкций, и аннулирует любые судебные решения по исполнению санкций США на территории Евросоюза.

Ведущие страны Евросоюза – Германия, Франция и Великобритания – объявили о создании Инструмента для поддержки торговых обменов, механизма специального назначения (Instrument for Supporting Trade Exchanges, a Special Purpose Vehicle, INSTEX, SAS) для обеспечения торговли между Евросоюзом и Ираном [1]. Через INSTEX планируется поддержать торговлю лекарственными препаратами, медицинской техникой и продовольствием, то есть товарами, которые не попадают под действие американских санкций.

Расчеты Ирана на то, что Евросоюз предложит механизм для поддержания импорта иранской нефти, не оправдались. Но главное, что от бизнеса с Ираном в нефтегазовой сфере отказались европейские компании и общеевропейские экономические институты. Нефтеперерабатывающие заводы в Италии и Греции отказались от закупок иранской нефти, хотя получили на это временные разрешения Министерства финансов США[2].

Французская Total не получила от США освобождения от санкций и отказалась от крупного инвестиционного проекта в Иране при том, что более чем 90% финансовых трансакций компании обслуживаются с участием американских банков, а американские инвесторы контролируют 30% ее акционерного капитала[3].

---

[1] Joint Statement on the Creation of INSTEX, the Special Purpose Vehicle Aimed at Facilitating Legitimate Trade with Iran in the Framework of the Efforts to Preserve the Joint Comprehensive Plan of Action (JCPOA) (31 January 2019). Available at: https://www.diplomatie.gouv.fr/en/country-files/iran/events/article/joint-statement-on-the-creation-of-instex-thespecial-purpose-vehicle-aimed-at

[2] Europe not Buying Iran Oil despite Waivers. Available at: https://www.shana.ir/en/newsagency/287346/Europe-NotBuying-Iran-Oil-Despite-Waivers

[3] US Withdrawal from the JCPOA: Total's Position Related to the South Pars 11 Project in Iran (16 May 2018). Available at: https://www.total.com/en/media/news/press-releases/us-withdrawal-jcpoa-totals-position-related-south-pars-11- project-iran

Иное решение могло обернуться банкротством Total. Показательно и то, что Европейский инвестиционный банк заявил, что у него нет иного выбора, кроме как выполнять санкционный режим в отношении Ирана, поскольку он активно работает на рынке капитала в США, а потому не может подвергать риску свою деятельность и выполнять роль инструмента Евросоюза для работы с иранскими проектами[1].

Позиция США практически исключает возможность использования INSTEX для поддержания европейского сотрудничества с Ираном в нефтяной сфере. Госдепартамент США заявил, что компании, вовлеченные в запрещенное санкциями экономическое взаимодействие с Ираном через этот механизм, рискуют потерять доступ к американской финансовой системе и возможность вести бизнес с американскими компаниями[2]. В апреле 2019 г. США признали КСИР международной террористической организацией[3].

Шок американских санкций 2018–2019 гг. транслировался в иранскую экономику заметно быстрее, чем это наблюдалось в 2012–2015 гг. Уже через шесть месяцев с момента объявления санкций экспорт иранской нефти, при том что восемь стран – крупнейших импортеров нефти из Ирана получили временные разрешения на ее закупки в определенных объемах, сократился наполовину.



Рисунок 1. Добыча сырой нефти в Иране, млн баррелей в день
Манба: https://investfunds.ru/indexes/624/

[1] Carbonnel A. EU's Bank Says Cannot Ignore U.S. Sanctions on Iran. Available at: https://www.reuters.com/article/us-irannuclear-europe-eib/eib-says-cannot-ignore-u-s-sanctions-on-iran-idUSKCN1J21XR

[2] U.S. Does not Expect European SPV to Affect U.S. Pressure Campaign on Iran. Available at: https://www.reuters.com/ article/us-iran-usa-sanctions-comment/u-s-does-not-expect-european-spv-to-affect-u-s-pressure-campaign-on-iranidUSKCN1PP20B

[3] A Notice by the State Department. In the Matter of the Designation of the Islamic Revolutionary Guard Corps (and Other Aliases) as a Foreign Terrorist Organization. Available at: https://www.federalregister.gov/documents/2019/04/15/2019–07415/inthe-matter-of-the-designation-of-the-islamic-revolutionary-guard-corps-and-other-aliases-as-a

В апреле 2019 г. США взяли курс на сведение иранского нефтяного экспорта к нулю. В мае импорт иранской нефти приостановили Индия и Турция. Высока вероятность того, что во второй половине 2019 г. экспорт нефти из Ирана составит не более 400–600 тыс. барр. в день. Риск снижения притока в экономику нефтедолларов обострил ситуацию на валютном рынке. Сразу же после объявления США о намерении выйти из договора СВПД началось быстрое обесценение иранского риала.

За май-сентябрь 2018 г. национальная валюта Ирана обесценилась относительно доллара в 2.3 раза, затем властям удалось на короткий срок временно приостановить ползучую девальвацию. С января 2019 г. она возобновилась. Параллельно обесценению национальной валюты заметно выросла потребительская инфляция. По оценкам Международного валютного фонда, сделанным еще до усиления санкций США в отношении экспорта иранской нефти, ВВП Ирана снизился на 3.9% в 2018 г. и в 2019 г. сократился еще на 6%.

Независимо от сценариев дальнейшего развития событий очевидно, что в краткосрочной и среднесрочной перспективе иранский нефтяной сектор, как и экономика в целом, будут функционировать в чрезвычайном режиме выживания. Это означает, что доля Ирана в мировой нефтедобыче будет снижаться. Это пример богато наделенной углеводородами страны, в которой экзогенные для нефтяного сектора политические шоки препятствуют реализации ее потенциала. Влияние Ирана на функционирование мирового рынка нефти последовательно ослабевает.

Новый раунд санкционного давления на Иран разворачивается на фоне структурного избытка предложения нефти на мировом рынке. Этот избыток формируется из-за продолжающегося роста добычи в США и нарастающего стремления стран-держателей крупных углеводородных запасов максимально монетизировать их в короткие сроки. Не без определенных трудностей и потерь уход с мирового рынка значительных объемов иранской нефти может быть компенсирован увеличением нефтедобычи в США, Бразилии, Ираке и других странах. При этом пик глобального спроса на нефть, согласно многим прогнозам, ожидается уже во второй половине 2030-х годов, что заставляет инвесторов все более тщательно оценивать риски введения в оборот капиталоемких запасов углеводородов с длительными сроками окупаемости проектов. Если по технико-экономическим характеристикам запасы нефти в Иране сравнительно

привлекательны, то в силу политико-экономических факторов значительная их часть может остаться в земле. Риск того, что значительная часть качественной и сравнительно дешевой по издержкам добычи иранской нефти будет не востребована мировым рынком, постоянно возрастает.

Список литературы:

1. https://rasht-iran.mid.ru/ob-irane
2. SWIFT and Sanctions. https://www.swift.com/about-us/legal/compliance/swift-and-sanctions
3. https://www.reuters.com/article/usceraweek-energy-iran/us-says-iran-has-lost-10-billion-in-oil-revenue-due-to-sanctions-idUSKBN1QU21X
4. Europe not Buying Iran Oil despite Waivers. Available at: https://www.shana.ir/en/newsagency/287346/Europe-NotBuying-Iran-Oil-Despite-Waivers
5. Carbonnel A. EU's Bank Says Cannot Ignore U.S. Sanctions on Iran. Available at: https://www.reuters.com/article/us-irannuclear-europe-eib/eib-says-cannot-ignore-u-s-sanctions-on-iran-idUSKCN1J21XR

Ирода АЗАМАТОВА
магистрант 1 курса ТГУВ

РАЗВИТИЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА В ИСЛАМСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ ИРАН

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы развития высшего образования в сфере туризма в Исламской Республике Иран, роль высших учебных заведений в развитии туризма страны, выявлены основные факторы и предпосылки развития высшего образования в сфере туризма.

Ключевые слова: туризм, образования в сфере туризма, туристические программы, гостеприимство, туристические услуги, экотуризм, религиозный туризм, отели.

История развития туристического образования варьируется в зависимости от структуры индустрии образования и туризма, поддерживающей его. Зарождение туристического образования в

иранском контексте восходит к 30-м годам XX века и созданию туристического офиса Джалбе-Саяхан. Одним из важнейших мероприятий дореволюционного периода было создание Высшей школы гостиничного менеджмента в 1963 году и Школы гостиничного менеджмента в 1966 году.

В 1970 году образовательный центр организации туризма Ирана подписал соглашение о сотрудничестве с Международной организацией труда (МОТ) с целью найма международных экспертов в области туризма и гостеприимства для обучения местных сотрудников, работающих в отелях, а также пересмотра плана обучения для туристических услуг. В соответствии с этим соглашением в 1971 году в Ширазе была временно основана школа гостеприимства для обучения сотрудников городских отелей. В том же году Министерством разведки и туризма Ирана был основан Высший институт туристических услуг.

В 1975 году первая группа из 25 инструкторов гостеприимства и выпускников была отправлена в Италию на трехмесячную стажировку. После Исламской революции 1979 г. произошло значительное увеличение возможностей для туризма как в системе дополнительного, так и в высшем образовании. На уровне высшего образования первая программа бакалавриата по туризму была предложена в 1995 году, а первая программа магистратуры – в 2004 году, наряду с программой бакалавриата по гостеприимству в том же году в Университете Алламе Табатабаи (АТУ) в Тегеране.

С тех пор значительно увеличилось количество университетов и колледжей, предлагающих туристические программы.

Начиная с 1995 года, АТУ играет ключевую роль в сфере высшего образования в сфере туризма в Иране. Профессора этого университета, а также первые выпускники внесли свой вклад в иранское высшее образование в области туризма и национальную туристическую литературу, хотя их труды, как правило, публиковались на персидском языке в национальных журналах и включали концептуальные работы по экономике туризма, развитию и планированию туризма, маркетингу и человеческому фактору. Начиная с конца 1990-х - начала 2000-х годов другие университеты и высшие учебные заведения начали предлагать программы бакалавриата и магистратуры в области туризма. На уровне выпускников, после первой программы выпускников по маркетингу туризма в 2004 году, в последние годы

также были предложены новые предметы, такие как «Экотуризм» и «Религиозный туризм».

Первая программа докторантуры в области туризма была предложена АТУ и Университетом науки и культуры в 2012 году. Развитие туризма в Иране наряду с нехваткой квалифицированных кадров для должностей низшего, среднего и старшего звена в туристических организациях привело к дальнейшему увеличению спрос на программы на получение степени в этой области. Одновременно с этой тенденцией были основаны институты профессионального обучения и частные университеты для дальнейшего расширения высшего образования.

Туристические программы в высших учебных заведениях Ирана разрабатывались в течение последних двух десятилетий с целью удовлетворения роста индустрии туризма и потребностей в рабочей силе. В иранских университетах и высших учебных заведениях осуществлялись три уровня туристического образования: двухлетняя степень младшего специалиста, четырехлетняя степень бакалавра и две степени последипломного образования (магистр и доктор философии).

Двухгодичные программы на получение степени младшего специалиста направлены на подготовку выпускников на руководящие должности низшего и среднего звена в организациях туризма и гостеприимства и предлагаются в университетах, а также в профессионально-технических училищах. По оценкам, к 2016 году более 6000 студентов обучались по двухгодичным программам получения степени младшего специалиста по данным Министерства науки, исследований и технологий Ирана.

Выпускники средних школ обязаны сдавать вступительные экзамены в национальные университеты, проводимые Национальной организацией образовательного тестирования (Сазман-е Санжеш-е Амузеш-е Кешвар) каждый июнь, если они хотят продолжить свое образование в государственных университетах. Студенты, которые хотят учиться в частных университетах, таких как Исламский университет Азад и Университет прикладных наук и технологий, освобождаются от сдачи национальных вступительных экзаменов. Студенты могут быть отобраны на основе их успеваемости в старшей школе. Однако им необходимо оплачивать обучение и другие расходы.

Как правило, учебная программа этих двухлетних программ состоит из четырех основных областей: общие требования, базовые

курсы, основные и специализированные курсы и стажировки. Некоторые программы специализируются в определенных областях, таких как туристические услуги, но большинство программ на получение степени младшего специалиста имеют широкую и общую направленность на управление туризмом. Ассоциированная степень (Кардани) присуждается после успешного завершения двухлетнего периода обучения, который обычно длится четыре семестра.

Четырехлетние программы на получение степени предназначены для подготовки студентов к работе в индустрии туризма на руководящих должностях и обучения их повышению качества обслуживания. Первой школой, предлагающей 4-летнюю степень в области туризма, была АТУ, основанная в 1995 году в Тегеране. Наиболее известные туристические программы находятся в Университете Семнана и Университете Мазандарана. Большинство оставшихся программ, особенно в некоммерческих университетах, были открыты в течение последнего десятилетия и все еще находятся в стадии разработки.

В результате создания других подобных школ в настоящее время существует более 30 программ бакалавриата в области туризма и гостиничного менеджмента, предлагаемых как государственными, так и частными университетами Ирана. В частности, 4-летние программы предлагают обучение в области управления туризмом и гостиничного бизнеса. По оценкам, по состоянию на 2016 год около 5000 студентов обучались по этим 4-летним программам обучения в области туризма. Студенты должны изучить более 40 предметов и получить более 132 кредитов, чтобы получить высшее образование. Степень бакалавра (Каршенаси) присуждается после успешного завершения 4-летнего периода обучения, который обычно длится восемь семестров.

Программы магистратуры предлагают углубленное образование студентам, заинтересованным в углублении своих знаний в индустрии туризма, чтобы начать карьеру в отрасли или в сфере образования. Как правило, в эти программы поступают два типа студентов: те, кто ищет академическую карьеру в университетах и направляется в докторантуру, и те, кто заинтересован в продвижении своей карьеры, чтобы получить лучшую работу в государственном или частном секторе туризма. Первая магистерская программа была запущена АТУ в 2004 году. На 2015-2016 учебный год, согласно списку, предоставленному Национальной организацией образовательного

тестирования, 63 университета предлагали магистерские программы по направлениям, связанным с туризмом.

Существует два типа магистерских программ: требующие диссертации и не требующие диссертации. Первая программа требует 32 кредита, в то время как студентам второй программы предлагается пройти несколько семинаров вместо завершения диссертации. Целью этих программ является подготовка как старших менеджеров туристических организаций, так и ученых для туристических программ.

Степень магистра (Каршенаси Аршад) присуждается после успешного завершения 2-летнего периода обучения. Государственные университеты, предлагающие магистерские программы, ежегодно объявляют о своих квотах на каждую программу через Национальную организацию образовательного тестирования.

Программы докторантуры обычно обеспечивают углубленное образование для студентов, заинтересованных в академической карьере или в развитии своих исследовательских навыков, чтобы продвинуться в частном или государственном секторе туризма. Докторские программы в области туризма были впервые предложены в Университете науки и культуры в Тегеране в 2012 году. Эти программы состоят из обязательных и факультативных курсов на 39 кредитов, квалификационного комплексного экзамена, диссертационного предложения и диссертации. Программы докторантуры обычно длятся от 4 до 5 лет. По сравнению с США, Великобританией и другими западными странами магистерские и докторские диссертации в Иране, как правило, сосредоточены на макросферах туризма, таких как планирование туризма, экономика туризма, маркетинг туризма и туристические организации и их методы управления.

Формальное образование играет решающую роль в развитии квалифицированной и компетентной рабочей силы. Однако природа индустрии туризма и ее множество различных видов работы на различных организационных уровнях требуют различных типов навыков. Поэтому подготовка квалифицированной рабочей силы, способной удовлетворить все потребности в человеческих ресурсах в индустрии туризма, является чрезвычайно сложной задачей для многих стран. Многие страны сталкиваются с проблемой соответствия образования и обучения потребностям отрасли, а квалифицированных инструкторов по туризму не хватало. Эти проблемы рассматривались

рядом исследователей, например, в странах Латинской Америки, в Таиланде и на Кипре. Что касается Ирана, то часть неспособности страны получить потенциальные экономические и социальные выгоды, доступные ей от туризма, была связана с нехваткой эффективных и обученных человеческих ресурсов, что повлияло на развитие продукта и рынка, инфраструктуру и инвестиции.

Высшее туристическое образование в Иране осуществляется на трех уровнях: младшего специалиста, бакалавра и последипломного образования. Поскольку высшее образование в области туризма началось в 1995 году, оно все еще является относительно новым явлением и имеет короткую историю в иранском высшем образовании.

В июле 2015 года после значительного смягчения санкций в Иране появились новые условия для развития туристической отрасли.

Это принесло как многообещающие возможности, так и беспрецедентные проблемы, и теперь, когда эмбарго снято, наблюдается значительный рост въездного и выездного туризма страны. Вследствие быстрого роста въездного туризма в Иране необходимость развития необходимых человеческих ресурсов в различных сегментах отрасли стала настоятельной. Общепризнано, что подготовка квалифицированных специалистов в сфере туризма является важнейшим фактором, влияющим на развитие отрасли. Поскольку высшие учебные заведения являются основным центром туристического образования в Иране, потребность в переоценке туристического образования в стране и изучении возможных путей его дальнейшего реформирования и развития стала важным элементом для развития.

С точки зрения стратегического внедрения разработки туристического продукта, туристические образовательные и учебные заведения должны быть катализаторами и играть координирующую роль со всеми заинтересованными сторонами в каждом регионе или пункте назначения.

Список литературы:

1. Эйри, Д. (2008). Образовательная жизнь в области туризма начинается в 40 лет. Téoros: Revue de recherche en Tourisme, 27(1), 27-32.

2. Алави, Дж., и Ясин, М.М. (2000). Туристический потенциал Ирана и рыночные реалии: эмпирический подход к ликвидации разрыва. Журнал маркетинга путешествий и туризма, 9 (3), 1–22.

3. Атталла, Н. Ф. (2015). Оценка воспринимаемого качества услуг, предоставляемых туристическими учреждениями в Египте. Исследования в сфере туризма и гостеприимства, 15(3), 149-160.

4. Баум, Т. (2002). Навыки и обучение для сектора гостеприимства: обзор вопросов. Журнал Профессиональное образование и обучение, 54(3), 343-364.

5. Баум, Т. (2012). Управление человеческими ресурсами в туризме: перспектива маленького острова. Международный журнал исследований культуры, туризма и гостеприимства, 6 (2), 124–132.

Бобур САБУРОВ
1 курс магистранти, ТДШУ

ЯНГИ ГЛОБАЛ ЎЗГАРИШЛАР ВА ТАҲДИДЛАР ШАРОИТИДА БРИКС МАМЛАКАТЛАРИНИНГ ЖАҲОН ИҚТИСОДИЁТИДАГИ ЎРНИ

Аннотация: Мақолада янги глобал ўзгаришлар ва таҳдидлар шароитида БРИКС мамлакатларининг жаҳон иқтисодиётида тутган ўрни ва роли, ушбу мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш хусусиятлари, БРИКСга аъзо мамлакатлар ўртасида ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириш масалалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: БРИКС, ялпи ички маҳсулот, янги формат, интеграция, нуфус салоҳияти, иқтисодий салоҳият, интеграцион салоҳият, ўзаро иқтисодий муносабатлар.

Сўнгги 20 йил давомида жаҳон хўжалик тизими ривожланишида жиддий ўзгаришлар юз берди. Бу, энг аввало, қатор ривожланаётган мамлакатларда иқтисодий ўсиш суръатларининг ўзгариши билан боғлиқ. Таҳлиллар шуни кўрсатадики, 2000-2020 йиллар давомида жаҳон ялпи ички маҳсулоти қўшимча ўсиш суръатларининг 52 фоизи ХХР, Ҳиндистон, Россия ва Бразилия ҳиссасига тўғри келди[1]. Бу тўрт мамлакат Жанубий Африка Республикаси (ЖАР) билан бирга БРИКС интеграцион ташкилоти аъзоси ҳисобланадилар. 2000-2020 йилларда ХХРнинг йиллик ўртача ўсиш суръати 8,6 фоизни, Ҳиндистон – 5,9

[1]Кондратов Д.И. БРИКС в условиях глобальной нестабильности: новые вызовы и перспективы развития. / Российский внешнеэкономический вестник. – 2021. - №1. – С.75.

фоизни, Россия, Бразилия ва ЖАР – 1,8-2,7 фоизни ташкил этди[1]. Бунинг натижасида уларнинг глобал товар ва хизматлар ишлаб чиқаришдаги улуши сезиларли даражада ўсди, жалб этилган тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ва жамғарилган халқаро захиралари ҳажми бўйича жаҳоннинг етакчи мамлакатлари қаторига кирди, бюджет ва ижтимоий соҳадаги ҳолатлари салмоқли даражада яхшиланди.

Таъкидлаш лозимки, аъзо давлатлар ўртасида диалог ва ҳамкорлик юритиш учун платформа ҳисобланган БРИКС жаҳон иқтисодиётида ўзига хос ўрин эгаллайди, йирик ресурс ва ижтимоий-иқтисодий салоҳиятга эга. У ўзининг умумий салоҳияти – аҳолисининг умумий сони, ҳудуди, табиий ресурслар захираси, ялпи ички маҳсулоти ҳажми бўйича нафақат минтақада, балки жаҳондаги энг йирик ташкилот ҳисобланади. Шундан келиб чиққан ҳолда, мутахассислар фикрича, яқин келажакда БРИКС жаҳон иқтисодий ва сиёсий тартиботини белгилаб беришда асосий ташкилотлардан бирига айланади.

Ҳисоб-китобларга шундан далолат берадики, жаҳон ЯИМнинг 25 фоизи (3,21 млрд. доллар), дунё аҳолисининг 42 фоизи БРИКС мамлакатлари ҳисобига тўғри келади[2]. Халқаро валюта фонди маълумотларига кўра, 2016-2020 йиллар давомида БРИКС “бешлиги”нинг харид қобилияти паритети бўйича ҳисобланган ялпи ички маҳсулот ҳажми 2016 йилда 33,6 трлн. доллардан 41,02 млрд. долларгача ўсди. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, 2020 йилда БРИКС мамлакатларининг ялпи ички маҳсулот ҳажми “Катта еттилик” мамлакатларининг биргаликдаги ялпи ички маҳсулот ҳажмидан юқори бўлди (мос равишда 41,02 ва 41,01 трлн. доллар)[3].

[1] https://unctadstat.unctad.org/wds/TableViewer/tableView.aspx
[2] https://unctadstat.unctad.org/wds/TableViewer/tableView.aspx
[3] https://www.imf.org/external/datamapper/PPPGDP@WEO/MAE/CHN/BRA/IND/RUS/ZAF

1-жадвал

БРИКС мамлакатларининг аҳоли сони ва ЯИМ ҳажми динамикаси[1]

	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2021 й.да БРИКС-нинг жаҳон-даги улуши, %
Аҳоли сони, минг киши							
Бразилия	206 860	208 505	210 167	211 783	213 196	214 326	41,1
ХХР	1401890	1410276	1417069	1421864	1424930	1425893	
Ҳиндистон	1338636	1354196	1369 003	1383 112	1396 387	1407 564	
Россия	145 109	145 453	145 652	145 742	145 617	145 103	
ЖАР	56 422	56 641	57 340	58 087	58 802	59 392	
Жами	3148917	3175071	3199231	3220588	3238932	3252278	
ЯИМ, млн. долл (2015 йил нархларида)							
Бразилия	1795693	2063515	1916934	1886015	1444733	1604581	25,2
ХХР	11233313	12310492	13894906	14279966	14722801	17298593	
Ҳиндистон	2290591	2624329	2761338	2889949	2664749	3171347	
Россия	1276786	1574199	1657328	1687450	1483498	1769867	
ЖАР	296341	349007	368094	351431	302141	376601	
Жами	16892724	18921542	20598600	21094811	20617922	24220989	

Шунинг билан бирга жаҳонда ишлаб чиқариладиган электр қувватининг 29 фоизи, жаҳон меҳнатга лаёқатли аҳолисининг 49 фоизи ушбу интеграцион бирлашма аъзолари ҳиссасига тўғри келади[2]. БРИКС мамлакатлари катта табиий ресурсларга эга бўлиб, улар қаторига углеводород ресурслари, ўзига хос экологик, шу жумладан чучук сув захиралари, турли ноёб ва қимматбаҳо металл ресурсларини киритиш мумкин. Юқоридаги омиллар шундан далолат берадики, БРИКС мамлакатлари ривожданган мамлакатлар билан бирга жаҳон иқтисодиётига салмоқли таъсир кўрсатишлари мумкин.

[1] https://unctadstat.unctad.org/wds/TableViewer/tableView.aspx?ReportId=97

[2] Астахов Е. М. БРИКС: перспективы развития [Электронный ресурс] // Вестник МГИМО Университета. – 2016. № 1 (46). – С. 42.

Таъкидлаш жоизки, ушбу ташкилотга эга мамлакатларнинг иқтисодиётлари бир-бирини ўзаро тўлдирувчан характерга эга. Шу билан бирга уларнинг иқтисодий ўсиш омиллари турлича. Хитой ва Ҳиндистонда иқтисодий юксалиш жамғариш меъёрининг юқори кўрсаткичларини сақлаб туриш, шунингдек, қайта ишлаш саноатининг экспортга йўналтирилган ишлаб чиқариш турларига кўплаб арзон ишчи кучини жалб этишга асосланади.

Бразилия ва ЖАР – йирик хомашё экспортерлари ҳисобланадилар. Бундай ташқари, ушбу мамлакатлар ҳукуматлари томонидан уй хўжаликлари, шу жумладан, аҳолининг қашшоқ қисми пировард истеъмолини кенгайтиришни рағбатлантирадиган ижтимоий дастурларнинг асалга оширилиши хўжалик конъюнктураси учун катта аҳамиятга эга бўлмоқда. Россия Федерацияси 2000 йиллардан бошлаб ёқилғи-энертегетика маҳсулотлари экспортини кенгайтириб борди ва ички истеъмол бозорининг катталигидан самарали фойдаланди. Иқтисодиётнинг ўсиши билан ташкилотга аъзо мамлакатлар аҳолисининг турмуш фаровонлиги ҳам ошиб борди.

Шундай қилиб, ҳозирги даврда БРИКС форматидаги ўзаро алоқалар ўз самарадорлигини намоён қилмоқда. Бугунги кунда БРИКС халқаро муносабатлар архитектурасида ўз ўрнини топди ва мавқеини сезиларли даражада мустаҳкамлади. Шу билан бирга сўнгги даврда халқаро муносабатлар тизимида юзага келган мураккабликлар (Россия ва Украина ўртасидаги муносабатларнинг чигаллашуви, жаҳон иқтисодиётида кузатилаётган дезинтеграцион жараёнлар) ушбу мамлакатлар ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ва ўзаро савдо-иқтисодий муносабатлар тизимига ўз таъсирини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Астахов Е. М. БРИКС: перспективы развития [Электронный ресурс] // Вестник МГИМО Университета. – 2016. – № 1 (46). – С. 42-50.

2. Кондратов Д.И. БРИКС в условиях глобальной нестабильности: новые вызовы и перспективы развития. / Российский внешнеэкономический вестник. – 2021. - №1. – С.75

3. https://unctadstat.unctad.org

4. https://www.imf.org

PEDAGOGIKAVA METODIKA

Малика РАСУЛХАДЖАЕВА
ТДШУ академик лицейи
араб тили фани ўқитувчиси

ГРАФИК ОРГАНАЙЗЕРЛАРДАН ШАРҚ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация: Графикли органайзерларда шарқ тилини ўқитиш ўқитувчи ҳамда талаба фаолиятига янгилик, ўзгаришлар киритиш бўлиб, уни амалга оширишда асосан интерфаол усуллардан, хусусан органайзерлардан тўлиқ фойдаланилади. Графикли органайзерлар – бу ўқув жараёнида қўйилган мақсадга эришишда ёрдам берувчи чизма, жадвал, графиклар мажмуи. Агар графикли органайзерларни ўқитувчи тайёр, тўлдирилган ҳолда қўлласа, восита вазифасини, ўқувчиларнинг машғулот мавзусига доир билимларини мустаҳкамлаш ва фикрлашни ривожлантириш мақсадида ишлатилса, метод вазифасини бажаради. Араб тилини ўқитишда Графикли органайзерлардан фойдаланиш ушбу фанни яхши ўзлаштиришга ёрдам беради.

Калит сўзлар: графикли органайзер, класстер, венн диаграммаси, т-жадвал.

Шарқ тили, жумладан, араб тили фани беш аспектда (ўқиш, ёзиш, тинглаб тушуниш, грамматик таҳлил ва гапириш) бўлиб, уларнинг ҳар бири бўйича алоҳида тушунча ва кўникмалар берилмоқда. Бу ўз навбатида таълимда янги замонавий ўқитиш технологияларини кенг жорий этиш талаб этилади. Шарқ тили мазкур ҳолатда араб тилини ўқитишда графикли органайзерлар орқали ўқитишга тўҳталиб ўтамиз, яъни турли графикли органайзерлардан, кейс, балиқ скелети, веен диаграмаси кабилардан унумли фойдаланишдир. Араб тилини ўрганишда графикли органайзерлардан фойдаланишнинг қанча афзалликлари мавжуд?

Графикли органайзер – бу ўқув жараёнида қўйилган мақсадга эришишда ёрдам берувчи чизма, жадвал, графиклар мажмуи. График органайзерлардан дарс машғулотларида фойдаланиш жуда муҳим рол ўйнайди. Масалан, “Кейс-стади” методи дарс машғулотларининг тинглаб тушуниш, аудио дарс қисмларида қўллаш, “ФСМУ” методи видео дарс машғулотларида қўллаш керакли натижа бериши мумкин.

Бугунги ахборот замонида таълим самарадорлигини оширишнинг энг мақбул йўли – машғулотларни ахборот техникалари ёрдамида, интерфаол методларни қўллаган ҳолда ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Интерфаол ўқитиш усуллари, ўз моҳиятига кўра, машғулотни “ўқувчи – ахборот-коммуникацион технологиялар” шаклида ташкил этилиши ўқувчилар томонидан мустақил равишда ёки ўқитувчи раҳбарлигида ахборот технологиялари ёрдамида билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштирилишини жадаллаштиради. “Таълим жараёнида ўқувчилар ҳамда ўқитувчи ўртасида ҳамкорликни қарор топтириш, фаолликни ошириш, таълим олувчилар томонидан билимларни самарали ўзлаштириш, уларда шахсий сифатларни ривожлантиришга хизмат қиладиган методлар интерфаол методлар саналади”[1].

Графикли органайзерлар булар: “Балиқ скелети”, “БББ”, “Концептуал жадвал”, “ВЕНН диаграммаси”, “Т-жадвал”, “Инсерт”, “Кластер”, “Нима учун?”, “Қандай?”, “Елпиғич” ва ҳоказо.

Шарқ тилини ўқитишда графикли органайзерлардан фойдаланиш, дарс жараёнида қўллаш ўқитувчи ихтиёрида, чунки мақсад аниқ, яъни бу ўқувчи – талабалар билимини оширишда, мавзуни тез ва осон ўзлаштиришида қулайлик яратади. Шарқ тилини ўқитиш жараёнида графикли органайзерлардан фойдаланишнинг ўзига хос томонлари шуки, биринчидан, ўқитувчи мавзуни аниқ бир жадваллар асосида баён этади, масалан, араб тили грамматикасига оид атамалар, иборалар, антонимлар, синонимлар, сўзларнинг бирлик ёки кўплик шакли, феъллар ва уларнинг ҳосила боблари, олд кўмакчилар ва уларнинг феъл ёки исмларга қўшилиши кабилар мавзуларни ёритишда қўллаш мумкин. Иккинчидан эса, ўқувчи-талаба учун шарқ тилини графикли органайзерларда ўрганишнинг кўпгина қулай ва самарали томонлари бор. Шулардан, янги ўтилган мавзуни ўқувчи-талаба ўз фан дафтарига графиклар ёки чизмалар орқали қайд этади. Бу ҳолатда ўқувчи-талаба дарслик китобларидаги мавзу ёки матнни ўз фан дафтарига нусҳа кўчириб олмайди. Фақат айни керакли атама ёки уларга берилган қисқа таърифини чизма, графиклар асосида ёзиб олади. Ўтилган мавзу ёки матнни ўзлаштираётганда дарс вақтида ўқитувчи томонидан айтиб ўтилган барча қоида ва маълумотларни мустақил мустаҳкамлайди.

Араб мутахассислари графикли органайзерлар ҳақида шундай дейдики,

---

[1] Иноятов У.И.,Муслимов Н.А.,Усмонбоева М.,Иноғомова Д. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб: Методик қўлланма. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2012. – Б.140-141.

تعريف الوس يه يلة من اللفظ medius بمعنى الواسط. وفي اصطلاح هو كل شكل الوسيط لتنشر وتحمل وتوصل التوصية وفكرة إلى مخاطب. وفى تعريف الأخر الوسئل هو كل الإنسان ومادة وألة أو حصول الحال الثابتة، ويمكن التلاميذ أن ينال معرفة وخبر ة 1وموقف. وفى هذا التعريف المعلم والكتاب والبيئة المدرسة هي الوسائل[1]. تعريف الخاص، وسيلة في عملية التعليم والتعلم يميل إلى أن تفسر على الأدوات الرسومية، التصوير الفوتوغرافي، أو الكترونيا لالتقاط ومعالجة وإعادة بناء والمعلومات البصرية واللفظية[2] .عندما يفهم في الخطوط العريضة، وسيلة من الناس أو الأشياء أو الأحداث التي يئة الظروف للتلاميذ لاكتساب المعارف والمهارات والمواقف. عندما يفهم في الخطوط العريضة، وسيلة من الناس أو الأشياء أو الأحداث التي يئة الظروف للتلاميذ لاكتساب المعارف والمهارات والمواقف . الأستاذ الدكتور "أزهر أرشد" يشرح في كتابه "تعليم اللغة العربية وطرق تعليمها"، أن آراء الخبراء على امتياز استخدام وسائل في تعليم اللغات، بما في ذلك الدكتور عبد العليم إبراهيم (432:1971 (ويوضح أن لغة التعليم مهم جدا للأسباب التالية : "تجلب السرور للتلاميذ وتجدد نشاطهم وتحبب اليهم المدرسة تساعد علي تثبيت الحقائق في اذهان التلاميذ تحيي الدرس بما يتطلبه استخدامها من الحركة والعمل".[3]

Шарқ тилини ўқитишда жумладан, араб тили дарсида “Кластер” методи иншо ёзиш машғулотида қўлланилганда бир неча босқичдан фойдаланилади:

1-босқич. Мавзу доскага ёки ўқувчи-талабанинг иш дафтари марказига ёзилади. Фикрнинг сифати тўғрисида ўйлаб ўтирмайди. Уларни шунчаки ёзиб қўйилади. Масалан, “ نصائح لتشجيع اطفالك علي حب القراءة” – “Фарзандингизни ўқишга бўлган қизиқиши учун маслаҳатлар”.

2-босқич. Ёзувнинг орфографияси ёки бошқа жиҳатларига эътибор берилмайди.

3-босқич. Белгиланган вақт ниҳоясига етмагунча, ёзишдан тўхтамаслик керак. Агар маълум муддат бирор-бир ғояни ўйлай олмаса, у ҳолда қоғозга бирор нарсанинг расмини чизишни бошлаш керак. Бу ҳаракатни янги ғоя туғилгунига қадар давом эттириш керак.

4-босқич. Муайян тушунча доирасида имкон қадар янги ғояларни илгари суриш ва мазкур ғоялар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик ва боғлиқликларни кўрсатишаг ҳаракат қилиш зарур. Ғоялар йиғиндисининг сифати ва улар ўртасидаги алоқаларни кўрсатишни чекламаслик зарур[4].

Яна бир метод бу “Синквейн” методи бўлиб. Унда:

---

[1] Azhar Arsyad, Bahasa Arab dan Metode Pengajaran, (Yogyakarta : Pustaka Pelajar Offset, 2010), cet III hlm. 74.

[2] Azhar Arsyad., Media Pembelajaran, (Jakarta: PT RajaGrafindo Persada, 2003), cet. 5, hlm., 3

[3] Azhar Arsyad, Bahasa Arab dan Metode Pengajarannya, , hlm., 76

[4] https://arxiv.uz/ . Илғор педагогик ва инновацион технологиялар таълим жараёнида.Тошкент. 23.09.2019.

- Бунда биринчи қаторда бир сўз билан мавзу белгиланади (от сўз туркумидан).
- Иккинчи қаторда мавзу икки сўз билан таърифланади (сифат)
- Учинчи қатор –шу маву ичида ҳаракатни уч сўз билан таърифлаш (феъл, равишдош)
- Тўртинчи қатор – мавзуга муносабатни билдирувчи тўрт сўзли (турли сўз туркумларидан) мисра ҳосил қилиш
- Бешинчи қатор – бир сўз ёритилаётган мавзуни синоними танланади.[1]
- Бу технологияни араб тили мисолида кўрамиз

- التلميذ
- عاقل، نشيط
- يساعد لاصدقائه ، ادعم أصدقاءه
هو التلميذ الذي واسع الاطلاع
- إنه طالب ناجح

Баъзи ўқитувчилар яна бир истиқболли ғояни таклиф қилишди. Улар графикли органайзерлар орқали ўқитиш талабада ҳаяжонни уйғотиши мумкин, уларнинг дарслари ҳамда фаоллигини таъминлашни фаоллаштиради. Баъзилар графикли органайзерлар ўқувчиларни тайёрлигини оширишини аниқладилар, дарс мавзуси ва ўқитувчи учун ҳам талабаларни ўқитиш жараёнини осонлаштиради. Ўқитувчилар учун графикли органайзердан фойдаланиш дарсни тузиш ва ташкил қилишда фойдалидир. Талабалар учун дарснинг мазмунини тушунишда кўп томонлама фойда келтириди.[2]

Хулоса қилиб айтганда, инновацион технологиялардан фойдаланиб, ўтилган дарсда ўқувчилар ўз қобилияти ва имкониятларини намойиш қилишга эришадилар, жамоа билан ишлаш малакасига эга бўладилар, ўзгалар фикрини ҳурмат қилишни ўрганадилар. Бу эса, дарснинг самарадорлигини ошириб, таълим сифатини кафолатлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

العربية بين يديك.د.عبد الرحمن بن ابراهيم الفوزان، دمختار الطاهر حسين، د. محمد عبد محمد فضل،.1
طبعة الثالثة ،الرياض،2007

[1] https://arxiv.uz/ . Илғор педагогик ва инновацион технологиялар таълим жараёнида.Тошкент.23.09.2019.

[2] Dr. Nurah Alfares URL: http://dx.doi.org/10.14738/assrj.62.6045. Umm AlQura University, College of Education Department of curriculum and instruction. Publication Date: Feb. 25, 2019., 136 pp.

2. Azhar Arsyad, Bahasa Arab dan Metode Pengajaran, (Yogyakarta : Pustaka Pelajar Offset, 2010), cet III hlm. 74.

3. Azhar Arsyad., Media Pembelajaran, (Jakarta: PT RajaGrafindo Persada, 2003), cet. 5, hlm., 3

4. Azhar Arsyad, Bahasa Arab dan Metode Pengajarannya, , hlm., 76

https://arxiv.uz/ . Илғор педагогик ва инновацион технологиялар таълим жараёнида.Тошкент. 23.09.2019.

5. Таълим муассасаларида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиб дарс ўтиш ва унинг афзалликлари Б.Сапаев, Ж.Тоджиев, С.Раззоқова, Ш.Ҳамдамов, Р.Бардиев I–китоб. Тошкент-2014.5-бет

6. .مفتاح العربية "Gateway to Arabic ,Book 1-3,Dr.Imran Hamza Alawiye.

7. العربية بين يديك.د.عبد الرحمن بن ابراهيم الفوزان، دمختار الطاهر حسين، د. محمد عبد الخالق محمد فضل، طبعة الثالثة ،الرياض،2007

8. Azhar Arsyad, Bahasa Arab dan Metode Pengajaran, (Yogyakarta: Pustaka Pelajar Offset, 2010), cet III hlm. 74.

9. Azhar Arsyad., Media Pembelajaran, (Jakarta: PT RajaGrafindo Persada, 2003), cet. 5, hlm., 3

10. Azhar Arsyad, Bahasa Arab dan Metode Pengajarannya, hlm., 76

11. 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lım tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2909-sonli qarori.

12. Talabov E., Arab tili darsligi, Toshkent, 1987.

13. Г.Рихсиева. Таълим методлари. Услубий қўлланма. Тошкент. 2017. 3-бет.

14. Муаллифлар гуруҳи. Янги педагогик технология ва интерактив усулларни қўллаш бўйича услубий тавсиялар. Тошкент – 2002.125-бет.

15. *Панина Т.С., Вавилова Л.Н.* Современные способы активизации обуче- ния: Учебное пособие. – М., 2008. – 176 с.

16. *Рўзиева Д.И., Усмонбоева М.Ҳ., Ҳолиқова З.* Интерфаол методлар: моҳияти ва қўлланилиши. Методик қўлланма. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ нашриёти, 2013. – 136 б.

Интернетдан манбаалар

1. www.teach-nology.com/web_tools/graphic_org/
2. http://www.enchantedlearning.com/graphicorganizers/
3. http://freeology.com/graphicorgs/
4. www.arabiclanguage.net
5. http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/79951
6. https://lex.uz/docs/-4740760
7. http://library.ziyonet.uz/ru/book/download/16933

Наргиза ШИРИНОВА
Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги
университети доценти, п.ф.н

ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ҲАРБИЙ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ КУРСАНТЛАРИНИНГ БИЛИШ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ МЕТОДЛАРИ (ЗАХИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР МАТЕРИАЛИ АСОСИДА)

Аннотация: Мақола инглиз тили дарсларида ҳарбий олий таълим муассасалари курсантларининг билиш фаоллигини ошириш муаммоларига бағишланган. Олий ўқув юрти курсантларининг билиш фаоллигини оширишнинг аҳамияти кўрсатилиб, билиш фаоллигини ошириш бўйича ўқув-топшириқлари ишлаб чиқилган. Ишлаб чиқилган Захириддин Мухаммад Бобурга бағишланган ўқув-топшириқлари курсантларнинг билиш фаоллигини оширишга хизмат қилади.

Калит сўзлар: билиш фаоллигини ошириш, инглиз тили ўқитишда ўйин-топшириқларининг самарадорлиги, ихтисосий ўқитиш, курсантларнинг қизиқишини ошириш.

Миллий тилимиз эъзозланаётган бир пайтда тараққиётимизнинг гарови бўлмиш хорижий тилларни ўрганишга ҳам катта эътибор берилмоқда.

Бугунги кунда ҳарбий кадрларни ҳар томонлама ривожлантириш бош мақсадлардан бири экан, бу ғоя курсантларга хорижий тилларни ўқитиш мақсадлари билан ҳамоҳангдир.

Маълумки, чет тилни таълимий, тарбиявий, амалий ва ривожлантирувчи мақсадларда ўрганадилар. Курсантлар билимини, ақлий қобилиятини, фикрлай олиш кўникма ва малакаларини ҳосил қилиш ҳамда уларни илмий, сиёсий, маънавий жиҳатдан юксалтириш – тарбиявий мақсадни амалга оширишда муҳим роль ўйнайди.

Шахсни ҳар томонлама ривожлантиришда унинг билиш фаоллигини ошириш алоҳида ўрин тутади. Бу эса, ўқитиш усуллари ва воситаларини тўғри танлай олиш билан боғлиқ бўлиб, ўқитувчилардан юксак маҳорат талаб қилади. Шунинг учун ҳар бир ўқитувчи чет тил ўқитиш методикасидан пухта билимга эга бўлиши зарур.

Дарс жараёнида курсантларнинг билиш фаоллигини ошириш, яъни ўрганилмаган материални амалда, мустақил баён этиш имкониятини туғдириш, курсантларнинг сўз бойлигини, дунёқарашини шаклланти-риш, ўз шахсий фикр-мулоҳазаларини баён қила билиш, уларни оғзаки

ва ёзма нутқда тўғри ифодалай олиш қобилиятини ўстириш – долзарб вазифадир. Чунончи, эркин фаолият кўрсатиш натижасида эгалланган билим пухта ва мукаммал бўлиб ҳисобланади. Шунинг учун инглиз тили дарсларида курсантларнинг билиш фаоллигини оширишда тил қоидалари, грамматик ва фонетик тушунча ва қонуниятларни илмий-назарий жиҳатдан асослаш билангина чегараланиб қолмай, ҳар хил амалий топшириқлар, мустақил ишлар, мусобақа ва ўйин-топшириқлар сингари қизиқарли усулларни қўллаш мақсадга мувофиқдир. Айниқса, ўйин-топшириқларнинг аҳамияти шундаки, мазкур усул орқали нафақат курсантларнинг топқирлиги, билимдонлиги, изланувчанлиги ва билиш фаоллиги ошади, балки уларнинг инсоний фазилатларини шакллантириш ва ривожлантириш имконияти вужудга келади.

Инглиз тили дарсларида курсантларнинг билиш фаоллигини ошириш ва уларнинг мустақил фикр юрита олишини таъминлашда ўйин-топшириқлар лингвистик тушунчаларни мукаммал ва ҳар томонлама эгаллашга имкон беради. Бинобарин, таълим жараёнида қўлланадиган ўйин-топшириқларнинг методик типологияси яратилиб, улардан амалда фойдаланиш методикаси билан ўқитувчилар тўла қуроллантирилса, бу курсантларнинг тил материалига бўлган қизиқишини оширишга хизмат қилади[3]. Ёшларнинг қизиқиши ортган сари мустақил фикрлашга, мулоҳаза юритиш ва мунозараларга ўргана боради. Уларнинг аста-секин хорижий мамлакатлар ҳарбий тизими ҳақидаги нуқтаи назари, қараши шаклланади ва билиш фаоллиги ошади. Инглиз тили дарсларида курсантларнинг билиш фаоллигини оширишда таълимий ўйинларнинг рангба-ранг турларидан фойдаланиш мумкин.

Шунингдек, тарихимизга катта эътибор берилаётган бир пайтда ҳарбий кадрларимизга Буюк саркардаларимизнинг ҳаёти, ижоди, саркардалик фаолиятини нафақат ўзбек тилида балки инглиз тилида ҳам ўргатишимиз давр талабидир.

Ўқитувчининг инглиз тилида таълим беришдан мақсади нафақат тилдаги қонуниятлардан хабардор қилиш, балки тил воситасида маълумот олиш ва уларни муҳокама қила олиш кўникма ва малакаларини шакллантиришдан иборатдир. Шунингдек, билим бериш баробарида тарбиявий мақсадни ҳам амалга ошириш курсантларнинг билиш фаоллигини оширишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Бунинг учун тарихимизда ўз изини қолдирган Буюк саркардаларимиздан бири бўлган Захириддин Муҳаммад Бобурнинг ҳаёти, ижоди ва саркардалик фаолияти ҳақида инглиз тилида билим олиш, фикр алмашиш ва хулосалар чиқариш муҳим аҳамият касб

этади. Буюк саркардамиз З.М.Бобурнинг ҳаёти ва ижодига доир қуйидаги машқлардан фойланиш орқали курсантларнинг Захириддин Бобур ҳақида инглиз тилида маълумот олиш, олинган маълумотлар бўйича фикр алмашиш, шунингдек, баҳс-мунозаралар ўтказишларига хизмат қилади [1].

Масалан, **Fill in the gaps using correct forms of *to be* in the Past.**

Since young age Z. Bobur *was* smart and courage, he liked to talk with scientists, listening to the reading of historical works. He … a good ruler and a talented organizer.

Берилган машқ грамматик мавзуни мустаҳкамлаш билан бирга Заҳириддин Бобур ҳақида инглиз тилида маьлумот олишга хизмат қилади. Ўтган замонга оид грамматик мавзуни мустаҳкамлаш, курсантларни оғзаки ва ёзма нутқда қўллашда муҳим аҳамиятга эга.

Ёки **Work in pairs. Student A choose a military leader. Do not tell your partner the name. Tell the information to Student B about that person. Student B will find out the person.**

A: He was a king. He wasn't born in Karshi. He was a struggler against Shayboniykhon. He mostly wrote about his motherland.

B: Zakhiriddin Muhammad Bobur[2].

Юқорида келтирилган топшириқ курсантларнинг топқирлиги, тинглаб тушуниш қобилияти, гапириш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилади. Бу билан бир қаторда, ушбу топшириқ мусобақа шаклида ташкил этилса, курсантларнинг тилга бўлган қизиқишини оширишга ёрдам беради.

Шунингдек, **Describe the war or difficult situation which Z.M. Bobur took part in.**

Ex: It was in ..... . Historically it is known as ..... . He struggled against..... .

Ушбу машқ курсантларнинг гапириш кўникмасини шакллантиришга хизмат қилади. Шунингдек, Заҳириддин Бобурнинг фаолияти бўйича ўзлаштирган билимлари ва уларни бир-бири билан бўлишиш, яъни бир-бирини ўқитиш машқлари бажарилади. Статистик маълумотларнинг кўрсатишича, курсантлар пассив тингловчи сифатида билимларни ўзлаштирса, материални 30%га ўзлаштиради. Материал муҳокамалар асосида ўзлаштирилса 60%га ва бир бирини

ўқитганда 90% га кўтарилади. Демак курсантларга маълумот алмашиш, яъни бир-бирини ўқитиш топшириқлари топширилса, материални ўзлаштиришнинг юқори даражасига эришиш мумкин.

Юқорида келтирилган топшириқлар курсантларга билимларни ўзлаштириш, тил материали, яъни лексика, грамматика ва талаффуз кўникма ва малакалари ҳосил қилишларида ёрдам беради ва тилни ўрганишга бўлган қизиқишни оширади. Шунингдек, курсантларга Буюк саркардамиз бўлган Захириддин Муҳаммад Бобур ҳақидаги билимларни ўзлаштириш, ушбу мавзу бўйича баҳслашиш ва тегишли хулосалар чиқариш каби амалларни бажариш, шу билан бир қаторда мусобақалар ташкил қилишда муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.:O‘qituvchi, 2012. – 429 b.

2. Ширинова Н., Ширинова Н. English for Military. – T.: JXU, 2020. – 100 b.

3. McGroarty, E. Language and Ideology. In: N.H. Hornberger and S.L.McKay. Sociolinguistics and Language Education. –Multilingual Matter: UKP, 2010, P. 3-39.

4. Закотнова П. В. Использование игр при обучении иностранному языку в вузе// Современные методы и технологии преподавания иностранных языков.Сборник научных статьей. – Россия, Чувашский государственный педагогический университет имени И.Я. Яковлева, 2019.−С.88-92.

Zilola XALILOVA
O‘zR FA Sharqshunoslik instituti doktoranti,
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEKISTON TA’LIMIDA TARBIYA FANLARINING HOLATI

Annotatsiya: Mazkur qismda Oz’bekistonda mustaqillik yillarida umumta’lim maktablarida din va tarbiya yo‘nalishida o‘qitilgan fanlar, bu sohada davlat siyosati xususida fikr-mulohazalar bildiriladi. Shuningdek,

maktab ta’limida odob-axloq, turli dinlar tarixi va tarbiya fanlarining holati tadqiq qilinadi.

Kalit so‘zlar: maktab, tarbiya, axloq, din, ta’lim

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yangi demokratik tamoyillar talablarini hisobga olgan holda milliy qadriyatlar va xalqning o‘ziga xosligi asosida ma’naviy-ma’rifiy tiklanish jarayoni boshlandi. Shu ma’noda maktab ta’limida 90-yillarning boshidanoq milliy va diniy qadriyatlariga asoslangan tarbiya fanlari umumta’lim maktablari dasturiga kiritildi. Aytish mumkinki, o‘zbek jamiyatida islom dini va uning e’tiqodlari madaniyat, xalq islomi g‘oyalari, mafkura, tarbiya va urf-odatlar bilan shu qadar chambarchas bog‘langanki, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. U ming yillar davomida tarbiya mezonini belgilab berdi va milliy mafkura vazifasini ham bajardi. Ijtimoiy ongning boshqa shakllari kabi u ham doim o‘z o‘rni va mazmuniga ega bo‘lgan. Ma’naviyat va din milliy, ko‘proq umuminsoniy xususiyatga ega bo‘lsa, mafkura va siyosat muayyan ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalaydi.

O‘zbekiston dunyoviy va diniy ta’limni mustaqil tizim sifatida ajratish tamoyiliga qat’iy amal qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda 16 ta sektaga mansub 2323 ta diniy tashkilot mavjud. Ulardan 2132 tasi islomiy, 191 tasi noislomiy (xristian, yahudiy, bahoiy, Krishna ongi jamiyati va buddistlar ibodatxonasi) tashkilotlardir. Bundan tashqari, mamlakatda dinlararo Bibliya jamiyati mavjud. O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita rasmiy bayonotiga ko‘ra, aholining 94 foizi islom diniga, 3,5 foizga yaqini pravoslav, qolgani boshqa konfessiyalarga mansub.

Demak, O‘zbekistonda din bilan munosabatlarda uning dunyoviy xususiyatini hisobga olgan holda dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish; diniy e’tiqodni fuqarolar yoki ularga qarashli shaxslarning shaxsiy ishi deb e’tirof etish, dindor va dinga e’tiqod qilmaydigan fuqarolarning huquqlarini tinch yo‘l bilan ta’minlash va ta’qib qilishning oldini olish; ma’naviy tiklanish zarurati, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar salohiyatidan foydalanish uchun turli diniy birlashmalar bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurligi; diniy sabotaj maqsadlarida foydalanish mumkin emasligini tan olish; diniy e'tiqod va e'tiqod erkinligi faqat qonun bilan belgilangan cheklovlar bilan buzilishi mumkin; hokimiyat, siyosat, iqtisod, qonunchilik uchun kurashga diniy murojaatlar bilan aralashmaslik tamoyillariga amal qilish qonuniy asosda belgilandi. “Nodavlat-notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonunlari” va “O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro‘yxatidan

o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi (1998), “Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi (2004), “Diniy ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror (2004) va boshqa qonun hujjatlari ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi (1998, 2008, 2021) qonunning yangi tahririda din va diniy tashkilotlar davlatdan alohida ekanligi, hech bir din yoki diniy e’tiqodga e’tiqod qilish mumkin emasligi ko‘rsatilgan qonun hujjatlari ishlab chiqildi. 7-moddaga asosan O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati aralashmaslik asosida amalga oshiriladi. Ushbu Qonun nafaqat diniy ta’lim tizimi, balki diniy tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish, fuqarolarning o‘z dinga munosabatini belgilash va bildirish hamda o‘z diniga e’tiqod qilish huquqlarini ta’minlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. va hech qanday qarshiliksiz marosimlar. 8-moddada ta’lim tizimi va din deb nomlanib, unda O‘zbekiston Respublikasida davlat ta’lim tizimini din va diniy tashkilotlardan ajratishga, ta’lim tizimining o‘quv rejasiga (diniy ta’lim muassasalari bundan mustasno) diniy fanlarni kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta’lim olish huquqi, ularning dinga munosabatidan qat’i nazar, har kim diniy ta’lim muassasalarida kasbiy diniy ta’lim olish, fuqarolarni umumiy o‘rta, o‘rta maxsus yoki kasb-hunar ta’limidan so‘ng diniy ta’lim muassasalariga qabul qilish huquqiga ega.

1991-yilda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro paktlar va inson huquqlari bo‘yicha konventsiyalarga asoslangan holda o‘zining rivojlanish strategiyasini belgilab oldi va dunyoviy demokratik davlat sifatida din hukumatdan ajratildi. Diniy muassasalar faoliyati nodavlat tashkilotlar ixtiyoriga o‘tkazildi. Aytish mumkinki, hozirgi O‘zbekistonda diniy fanlarni o‘qitish ijtimoiy-ma’naviy hayotning dolzarb va zarur bo‘lagi hisoblanadi. O‘zbekistonda madaniyat ijtimoiy ta’limning bir qismi bo‘lib, shu bilan jamiyatda diniy ta’limot sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotining tarbiyaviy ta’siri nuqtai nazaridan milliy ma’naviy qadriyatlar tizimi sifatida vujudga kelgan.

Davlat dinning jamiyatdagi madaniy-ma’naviy ahamiyatini oshirishga asosiy e’tiborni qaratdi. U dinni jamiyat va inson hayoti kontekstiga joylab, uning millatning ming yillik tarixida mavjudligi va ahamiyatini ifodalab berdi. Shu bois ta’lim muhitida diniy fanlar yuksak ma’naviyat va ma’rifat imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qitilib, shu maqsadda axloqiy

me’yorlar (ahloq) asosida o‘qitiladi. O‘zbekistonning dunyoviy ta’lim muassasalarida tarbiyaga oid bilimlar diniy nuqtai nazaridan emas, balki akademik yondashuv asosida beriladi. Dunyoviy ta’lim muassasalarida diniy ta’lim davlat umumiy va o‘rta maxsus hamda oliy ta’lim muassasalarining “Dinshunoslik” (Odob-axloq, O‘zbekiston tarixi, jahon tarixi, jahon dinlari tarixi, ma’naviyat, ma’rifat, milliy g‘oya) yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshiriladi. Bu darsliklarda har bir insonda insonparvarlik, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, insonlar o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘ularini kamol toptirishga xizmat qiladigan diniy matnlar, hadislar va turli diniy rivoyatlardan misollar keltirilgan. Respublika qonunchiligiga ko‘ra, ta’lim tizimining o‘quv rejasiga diniy fanlarni kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi, lekin dinga oid ma’lumotlar beruvchi fanlar bundan mustasno. Chunki dinga oid ma’lumotlar beruvchi fanlarda asosiy jahon va milliy dinlar, ularga sig‘inish va marosimlar haqida ma’lumotlar hech qaysi dinga ustunlik berilmagan holda qomusiy tarzda bayon etilgan.

O‘zbekistonda diniy ta’lim turlari asosan o‘rta maktablarda ilohiyotga asoslangan axloqiy dars sifatida olib boriladi: dinshunoslik, dunyo dinlari tarixi, tarbiya, odobnoma, eski o‘zbek yozuvi, adabiyot, tarix va boshqalar. Boshqa tomondan, madrasalar kabi maxsus davlat diniy muassasalarida diniy bag‘rikenglikka ega imomlarni boshqa din va konfessiyalarga tolerant munosabatda bo‘lishga o‘rgatish maqsadida jahon dinlari sifatida fanlar o‘qitiladi.

1991-1992-o‘quv yilida maktablarda o‘zbek tilida o‘qitiladigan 2 va 3-sinflarda din faniga oid shunday o‘quv dasturlari qabul qilingan. 1-4-sinflar uchun “Eski o‘zbek yozuvi” (eski o‘zbek yozuvi), “Odobnoma” (odob-axloq qoidalari), 5-6-sinflarda “Vatan tuyg‘usi”, “Ma’naviyat asoslari” (asosiy yo‘nalishlar) bo‘yicha darslar olib borildi. “Din tarixi” kursining asosiy tushunchalari 1-4-sinflarda boshlang‘ich sinflarda o‘qitiladi. Ular “Odobnoma”dan iborat; “O‘qish” va “Tabiatshunoslik” darslarida jami 68 soatdan, 5-8-sinflarda “Tarixdan hikoyalar”, “Adabiyot”, “Tarix”, “O‘zbekiston tarixi”, “Jahon tarixi” fanlari negizida maxsus matn va mavzularni qamrab oladi. Shuningdek, 9-sinfda “Dunyo dinlari tarixi” maktab hisobidan 34 soatlik dasturda o‘qitilgan. Jumladan, 9-sinfda din tarixi kursi haftasiga 2 soatdan o‘qitilsa, “Tarix” umumiy faniga jami 34 soat ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 22-avgustdagi “Din sohasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish uchun ijtimoiy yordam va imtiyozlar berish to‘g‘risida”gi 364-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida mazkur sinflar uchun

darsliklarda insonparvarlik, vatanparvarlik, ota-onaga hurmat, odamlar o‘rtasida o‘zaro mehr-oqibat tuyg‘ularini tarbiyalashga qaratilgan turli diniy rivoyatlardan diniy matnlar, hadislar va boshqa misollar keltirilgan. Respublika qonunchiligiga ko‘ra, ta’lim tizimining o‘quv rejasiga diniy fanlarni kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi, lekin dinga oid ma’lumotlar beruvchi fanlar bundan mustasno. Chunki din haqida ma’lumot beruvchi fanlarda hech bir dinga ustunlik berilmagan holda, asosiy jahon dinlari, jumladan, ularga ma’lumotlar qomusiy tarzda bayon etilgan. Shuningdek, o‘qitiladigan fanlarda diniy talqinlar berilmaydi.

Davlat umumta’lim maktablarida diniy fanlar bo‘yicha darsliklarni tayyorlash uchun mas’ullar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Respublika ta’lim markazi, Toshkent Islom universiteti (hozirgi O‘zbekiston Xalqaro islom akademiyasi) hisoblanadi. Darsliklarning shakllanishida tarix, din, sotsiologiya (gumanitar va ijtimoiy fanlar) hamda gumanitar va ijtimoiy fanlar pedagogika yo‘nalishlarida faoliyat olib borayotgan professor, falsafa fanlari doktorlari komissiya tarkibiga ishtirok etishdi. Diniy ta’limni tashkil etish, xususan, uning xalq ta’limi tizimidagi o‘rni va ahamiyati, diniy fanlar bo‘yicha darsliklarni qanday tayyorlash masalalari muhokama qilina boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim masalalariga bag‘ishlangan videolektor yug‘ilishida 2019-yil 23-avgustda “Dinlar tarixi”, “Odobnoma”, “Milliy istiqlol g‘oyasi”, “ma’naviyat asoslari”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni o‘zida mujassam etgan yagona “Tarbiya” fanini joriy etish zarurligiga e’tibor qaratilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’limga “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 1-9-sinflarda “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol va ma’naviyat asoslari” va “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan yagona “Tarbiya” fani – 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyot joriy etiladi.

Mazkur fan va uning darsligi “Milliy tiklanish – milliy yuksalish ibtidosi” tamoyili asosida milliy g‘oya va uning g‘oyaviy asoslarini rivojlantirish, yosh avlodni milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhimligini belgilaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlamoqchimanki, O‘zbekistonda tarbiya fani o‘zbek xalqining ming yillik qadriyatlari va tarbiyaviy ahamiyatga ega

bo‘lib, milliy, axloqiy tarbiya nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan va milliy an’analarni saqlab qolishga qaratilgan. Bu jarayonda xalqaro xuquqlar va normalariga zid bo‘lmagan holda biror dinga ustunlik berilmaydi va mazkur fan yoshlarda tolerantlikni tarbiyalshga xizmat qiladi. Shubhasiz, yangi demokratik huquqiy fuqarolik jamiyatida ta’lim tarbiya asoslarining yaratilishi dinlararo va madaniyatlararo bag‘rikenglik g‘oyalarining uyg‘un uyg‘unlashuvi, ma’naviy va dunyoviylikni birlashtirish bilan izohlanadi, bu esa ijodiy foydalanish samarasi, asrlar davomida shakllangan milliy va diniy qadriyatlar, ma’rifat va tarbiyaning ahamiyati muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. 2021 yil 5 iyul. https://lex.uz/docs/5491534
2. Seraphine F. Maerz Ma’naviyat in Uzbekistan: an ideological extrication from its Soviet past?, Journal of Political Ideologies, 23:2, (2018). 205-222, DOI: 10.1080/13569317.2018.1419448
3. Нуритдинов М.Н. Тафаккур шуълалари ёхуд исломшуносликнинг баъзи муаммолари. − Тошкент: Мовороуннаҳр, 1998. – Б. 4-5.
4. O‘zbekkiston Milliy Arxivi. Fond M-26, 1-ro‘yxat, 6-ish, 49-varaq.
5. Jo‘rayev U., Usmonov Q., Nurqulov A., Jo‘rayeva G., Tarixdan hikoyalar. − Toshkent, Cho‘lpon nashriyoti, 2015, − 184 b.
6. Концепция предмета Тарбия. Национальная база данных законодательства, 07.07.2020, № 09/20/422/1033; Национальная база данных законодательства, 05.04.2022, № 22.09.153/0266.

Fayzullo FAROMARZI

O‘zR FA Sharqshunoslik instituti

“Tarixiy manbashunoslik” bo‘limi kichik ilmiy xodimi

TEMURIYLAR DAVRI TARIXNAVISLIGIDA MANBA MASALASI (Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asari misolida)

Annotatsiya. Ma’lumki Amir Temur va temuriy shahzodalar davrida ilm-fan sohalari qatorida, tarixnavislikka ham kata e’tibor berilgan. Buning natijada, XV asrning boshlariga kelib Samarqand va Hirotda o‘rta asrlar

musulmon mamlakatlari tarixiga doir yirik tarixnomalar yozilgan. Mazkur asarlar o‘z davri tarixini yoritish bo‘ycha muhim manba bo‘lish bilan bir qatorda, ular oldingi davrlarda yozilgan ko‘plab manbalarga oid ma’lumotlarga ega. Zero bu manbalar temuriylar davri tarixnavisligining shakllanishida muhim ahamiyat kasp etgan. Buni birgina mazkur asarlarning XV asr tarixnavisligiga nazariy va manbaviy asos vazifasini o‘taganligi misolida ko‘rish mumkin. Shulardan kelib chiqqan holda, quyidagi maqolada temuriylar davri tarixnavisligining shakllanishiga xizmat qilgan tarixiy asarlar Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asari manbalari misolida tahlil qilinadi.

Tayanch so‘z va iboralar: *Hofizi Abru, Amir Temur, Mirzo Shohrux, Nizomiddin Shomiy, tarixnavislik, umumiy tarix, Hirot, Samarqand, tazkira, fathnoma.*

Amir Temur (1336-1405) va temuriylar davrida Sharq tarixnavisligining durdona asarlari yozilgan bo‘lib, ular mavzusi va geografik qamrovining kengligi, sanog‘ining ko‘pligi hamda yozilish uslibining o‘ziga xosligi bilan shuhrat topgan. Mazkur tarixiy asarlar VIII-IX asrlarda arab tili asosida shakllangan Islom olami tarixnavisligi negizida, asosan fors-tojik, qisman turkiy va uyg‘ur tillarida yozildi va shu asosda mazkur sohaning rivojini yangi bosqichga ko‘tarishga zamin yaratgan. Bu davr tarixnavislari, zamonasi ilm-fanining ko‘p sohalaridan xabardor bo‘lganliklari bois, tarixnomalarini yozishda o‘z davriga qadar yozilgan turli fanlarga doir asarlarni manbaviy asos sifatida qamrab olganlar. Bu ayniqsa Amir Temur va temuriy shahzodalar topshirig‘i asosida yozilgan tarixiy asarlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Manbashunoslik nuqtayi nazaridan har bir tarixiy asarning manbaviy asosini o‘rganish, muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero bu: birinchi navbatda, har qanday tarixiy asarning yaratilishiga xizmat qilgan manbalar haqida malumotga ega b’lishga xizmar qiladi. Mazkur masalaning muhim jihatlaridan biri shundaki, bizga qadar nusxalari yetib kelmagan yoki fanda umuman ma’lum bo‘lmagan asarlar haqida bilib olish imkonini beradi; Keyingi o‘rinda, o‘rganilayotgan manbaning qaysi asarlar ta’sirida yozilganligi va unda keltirilgan tarixiy faktlarning ishonchlilik darajasini belgilab beradi. Bu har bir muallifning tarixnavislikda kimlarning uslubiyatiga ergashganligi va o‘zidan oldingi tarixchilarda qaysi birlarini o‘z salafi sifatidan etirof qilganligini aniqlashga yordam beradi; Shuningdek, har bir asarda manba sifatida foydalanilgan kitoblarning soni va o‘z sohasi mavzularini qay darajada yoritib berganligi, o‘rganilayotgan asar muallifning zamonasi ilmlari hamda bu ilmlarning asosiy manbalaridan

qay darajada xabardor ekanligini ham ko‘rsatadi. Tarixiy asar manbaviy asosining eng muhim jihatlaridan yana biri, har bir muallifning o‘z davri tarixidan qay darajada xabardorligi va hattoki mazkur davrni yoritishga xizmat qilgan og‘zaki va yozma manbalarning sanadini aniqlashga ham xizmat qiladi. Mazkur masalalarning tarixiy manbashunoslikkda, xususan, tarixni xolis yoritishda muhim ahamiyat kasb etishi nuqtayi nazaridan, quyida temuriylar davri tarixnavisligining shakllanishiga xizmat qilgan tarixiy manbalar Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asari manbalari misolida tahlil qilinadi.

Hofizi Abru nomi bilan tanilgan Mavlono Shihobiddin Abdulloh bin Lutfulloh bin Abdurrashid al Bihdodiniy al-Xavofiy (1361-1430) XV asr tarixnavisligining yirik namoyandalaridan biridir[1]. U o‘z davrining tarixchi va geograf olimi sifatida nom qoldirgan bo‘lsada, tadqiqotlarda uning Qur’on, hadis, tasavvuf, astronomiya, adabiyot ilmlari qatorida mohir diplomat, tajribali muhandis va shatranj o‘yining ustasi ekanligi ham qayd etib o‘tilgan. Hofizi Abru 20 yildan oshiq vaqt mobaynida Amir Temur devoni xizmatida bo‘lib, uning harbiy yurishlarida, diplomatik aloqalarida, bunyodkorlik faoliyatida va ilmiy majlislarida bevosita ishtirok etgan. Amir Temur vafotidan so‘ng, Mirzo Shohrux (1377-1447) taklifi bilan Xurosonga borib, uning saroyida o‘z faoliyatini davom ettiradi. Uning topshirig‘i bilan 10 dan ortiq tarixiy va tarixiy- geografik mavzularda asarlar yozadi va shu bilan Hirotda yig‘ilgan tarixnavislarning yetakchisiga aylanadi. Tarixchi Mirzo Shohrux saroyida solnomanavis tarixchi sifatida XV asr muarrixlaridan Muiniddin Natanziy (XIV-XV asr boshlari), Fasih Ahmad Xavofiy (1375-1442) Tojiddin as-Salmoniy (XIV-XV asr boshlari) va Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482) kabilar bilan birgalikda saroy yilnomalarini yuritadi.

Hofizi Abru o‘z davrining turli fan sohalarini egallagan bo‘lsada, u o‘zidan faqatgina tarixiy va tarixiy geografik mavzularda ilmiy meros qoldirgan. Zero, Eronlik olim Xonbobo Bayoniy ham o‘z tadqiqotlarida “Hofizi Abru garchi ko‘plab fanlardan xabardor bo‘lsada uning shuhrati tarixnavislik bilan edi…” deb qayd etadi[2]. Shunday bo‘lsada uning

---

[1] Hofizi Abu haqida qarang: Ўринбоев А. Ҳофизи Абру. // Ҳасанов Ҳ. Ҳофизи Абру, Ҳайдар Мирзо, Филипп Ефремов. – Тошкент, 1964. –Б. 3-18; Xonbobo Bayoniy. Sharh-e hol va zindagi va osor va fa’lefot-e Hofiz-i Abru // Hofiz-i Abru. Zayl-i “Jome’ at-tavorix”-i Rashidiy. –Tehron, 1972. –B. 11; Бартольд В.В. Хафиз-и Абру и его сочинения. Сочинения. Т. VIII. Москва, 1973. –С. 75 и 600; Said Kamol Javodiy. Muarrifi-ye Hofizi Abru // Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. – Tehron, 2001. –B. 13-30; Faromarzi F. Hofizi Abru va uning “Zubdat at-tavorix” asariga doir ayrim mulohazalar // TerDU Ilmiy xabarnomasi, 2020. № 2. -B. 38-43.

[2] Bayoniy X. Zindage va osor-e Hofiz-i Abru. –B. 18. / حافظ ابرو. ذیل جامع التواریخ رشیدی’ تصحیح و تعلیقات: خانبابا بیانی. - تهران 1939/۱۳۲۷. ص. ۱۸.

asarlarida XIV-XV asrlar fanining bir necha sohalariga doir alohida fasllar va ma'lumotlar mavjud. Buni birgina "Zubdat at-tavorix" asari misolida ham ko'rish mumkin. Bu mazkur asarning yozilishida muallif tomonidan bir qancha fan sohalariga doir manbalardan foydalanilganligini bildiradi.

"Zubdat at-tavorix" – Hofizi Abru asarlari ichida hajm jihatidan eng yirigi bo'lgan, 4 jilddan iborat "Majma' at-tavorixi sultoniya"ning to'rtinchi jildidir. Muallif hayotining so'nggi yillari (1427 yil)da yozib tugatilgan ushbu majmua, tarixchining barcha tarixiy asarlari umumlashmasi hamda XV asrga qadar yozilgan arab va fors tilidagi tarixnomalarning xulosasi sifatida Mirzo Shohruxning o'g'li Mirzo Boysung'ur topshrig'i bilan **4 rab'** (**ربع**)[1]dan iborat holda yozilgan. Davr an'anasiga muvofiq asarda tarixiy voqealar bayoni Yerda hayotning paydo bo'lishidan - aniqrog'i Odam Atodan boshlanib, muallif davri bilan tugaydi. Uning **birinchi jildi** – Yaratilish ibtidosidan[2] to Muhammad (s.a.v.)ning zamonlari (570-yil)ga qa dar, **ikkinchi jildi** – Payg'ambar (a.s) yashagan davrdan to Abbosiylar xalifaligining inqirozi (571-1258)ga qadar, **uchinchi jildi** – safforiylardan to qoraxitoy toifasiga (1258-1335)cha (aniqrog'i mo'g'ullar davri), **to'rtinchi jildi** – esa, hijriy 736 yil[3]dan to 830 yil Rabi ul-avval oyining 23 kuniga[4] qadar bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi[5].

Kitobning mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan 4-jildi Temuriy shahzoda Mirzo Boysung'ur sharafiga "Zubdat at-tavorix-i Boysung'uriy" deb nomlanib, o'z navbatida ikki qismga bo'linadi: – birinchi qismi – shartli ravishda Amir Temur davri[6] (1336-1405); - ikkinchi qismi esa Mirzo Shohrux davri[7] (1405-1427) tarixi deb yuritiladi[8].

---

[1] **Rab' (yoki rub' – ربع)** – so'zi arab tilidan "To'rtdan bir" ma'nosini bildiradi. Rab' so'zning qo'llanilishi asarning bir-biriga hajm jihatdan teng bo'lgan to'rt qismdan iborat ekanligini bildiradi. Keyingi o'rinlarda bu so'zning o'rniga tushunarliroq bo'lishi uchun "jild" atamasi qo'llanildi.

[2] Yaratilish ibtidosi – jumlasi Odamning yaratilishi, yerda ilk hayotning boshlanishi ma'nosini bildiradi. Bu termin manbada keltirilganidek berildi.

[3] Hijriy 736 yil - milodiy 1335 y. 25-avgustdan – 1336 y. 14-avgust oralig'iga to'g'ri keladi.

[4] Hijriy 830 yil - milodiy 1426 y. 21-yanvariga to'g'ri keladi.

[5] "Zubdat at-tavorix"ning tugash qismi sanasi haqida qarang: Hofiz-i Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo'lyozmasi. № 4370/I. 602a varaq.

[6] Amir Temur davri – qismi chingiziy (elxoniy) Abusaidxon (1316-1335) hukronligining so'nggi yillari, ya'ni Amir Sohibqironning tavallud topgan yil tarixi bilan boshlanib, u vafot etgan yil tarixiy voqealari bilan nihoyasiga yetadi.

[7] Mirzo Shoxrux davri – (1405-1427) esa 1405 yildan to 1427 yil (Ahmad Lur tomonidan Shoxruxga suiqasd uyushtirilishi)ga qadar bo'lgan tarixiy voqeliklarni o'z ichiga oladi.

[8] Bu haqida yana qarang: Xonbobo Bayoniy. Sharh-e hol va zindagi va osor va fa'lefot-e Hofiz-i Abru. –B. 47; Стори Ч.А. Персидская литература (Биобиблиографический обзор, перевел с английского, переработал и дополнил Ю.Е. Брегель). Т. I. – Москва, 1972. –С. 341-349; Бартольд В.В. Хафиз-и Абру и его сочинения. Сочинения. Т. VIII. М, 1973. С. 94; Sayid Kamol

“Majma’ at-tavorix”ning to‘rtinchi jildi, asar yozib tugatilgan davrlardanoq alohida kitob sifatida, “Zubdat at-tavorix-i Boysung‘uriy” nomi bilan mashhur bo‘lgan edi. Zero, Fasih Xavofiy, Abdurrazzoq Samarqandiy va Xondamirlar o‘z asarlarida Hofiz-i Abruni “Zubdat at-tavorixi Boysung‘uriy” asarining muallifi deb qayd etganlar[1]. Shuningdek, ko‘pchilik ilmiy adabiyotlarda ham ushbu tarixiy manbaning umumiy nomi “Zubdat at-tavorix” deb yuritiladi.

Hofizi Abruning “Majma’ ut- tavorix” asari muqaddimasida ta’kidlab o‘tilganidek[2], mazkur majmuaning 1-3 jildlarini yozishda Muhhammad ibni Jarir at-Tabariyning (839-923) “Tarixi Tabariy”, Firdavsiyning (935-1025) “Shohnoma”, Ibn al-Asirning (1160-1233) “Al-komil fit-tarix”, Zahiriddin Nishopuriyning (XII asr) “Saljuqnoma”, Alouddin Atomalik Juvayniyning (1226-1283) “Tarixi Jahonkushoy” Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning (1247-1318) “Jome’ at-tavorix” asarlari kabi 20ga yaqin manbalardan foydalanadi[3].

Hofizi Abru “Majma’ ut-tavorix”ning “Zubdat at-tavorix” qismida (4-jild) ham tarixiy shaxslar bilan bog‘liq voqeliklarni yoritishda, qadimda o‘tgan payg‘ambarlar yoki podshohlar tarixiga oid voqealar bilan qiyoslab yozishi, yoki Amir Temur va uni avlodlari ta’rifida, ularning “Shohnoma” qahramonlariga o‘xshatilishi[4], mazkur asarlarni “Zubdat at-tavorix”ni yozilishida ham manba sifatida foydalanilganligini bildiradi.

Nizomiddin Shomiyning (vaf. 1412) “Zafarnoma” va G‘iyosiddin Ali Yazdiyning (XIV asr-XV asr boshlari) “Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston” asarlariga tayanib yozilgan[5] 4–jildini yozishda esa, muarrix o‘zining “Zayli “Jome’ at-tavorix”-i Rashidiy” “Zayli “Zafarnoma”-i Shomiy”, “Tarixi Hofizi Abru”, (ya’ni birinchi Majmuasi), “Jug‘rofiya” asarlari va boshqa

---

حافظ ابرو. زبدة التواريخ. (مقدمه’ تصحيح و تعليقات: سيد كمال حاج سيد جوادى. (ج. ١.) – // Javodiy. Muqaddima. تهران ’ ١٣٧٩/2001. ص. بيست، بيست و يک.

[1] Yana qarang: Фасиҳ Ҳавофий. Мужмали Фасиҳий. – Тошкент, 2018. Б. 281; Абдурраззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. – Тошкент, 2008. Б. 483; Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар. – Тошкент, 2013. Б. 469.

[2] Yana qarang: Xonbobo Bayoniy. Sharh-e hol va zindagi va osor va fa’lefot-e Hofiz-i Abru. –B. 29-35.

[3] Yana qarang: Xonbobo Bayoniy. Sharh-e hol va zindagi va osor va fa’lefot-e Hofiz-i Abru. –B. 31-32; Стори Ч.А. Персидская литература / Биобиблиографический обзор. Перев. с англ., перераб. и допол. Ю.Е. Брегель. Т. I. Москва, 1972. –С. 347; Hâfız-ı Ebrû // https://islamansiklopedisi.org. (17.02.2020).

[4] Yana qarang: Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo‘lyozmasi. № 4370/I. 1a varaq.

[5] Muallifning o‘zi bu haqda hijriy 806 (mil. 1403 yil 20-iyul – 1404 yil 8-iuyl) yil voqealari bayonida eslatib o‘tadi. Yana qarang: Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. –Tehron, 2001. –B. 1009.

kichik hajmdagi risolalaridan ham asosiy tayanch manba sifatida foydalanadi.

Muallif garchi asarning Amir Temur qismini yozishda Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sidan foydalangan bo'lsada, bu asarni o'z guvohligidagi ko'plab faktlar analizi vositasida qayta to'ldirish, tuzatish va xronologik jihatdan tartibga solish orqali "Zubdat at-tavorix"ga kiritadi. Misol uchun: Nizomiddin Shomiy Amir Temur tarixini Tug'luq Temurxonning Movarounnahrga yurish qilgan (1360 yil) yil voqealaridan boshlab tilga olgan bo'lsa, Hofizi Abru esa, Amir Sohibqironning tarjimayi holiga uning ajdodlari tarixi hamda tavalludi voqealarini ham ilova qilgan[1].

G'iyosiddin Naqqoshning "Xitoy safari kundaligi" ("Ro'znomai safari Chin") matnlarining "Zubdat-attavorix" tarkibida kelishi, bu asarni ham Hofiz-i Abru foydalangan yana bir manba bo'lganligiga dalolat beradi. Zero, bugungi kunda mazkur asar qo'lyozmasining alohida nusxasi fanda aniqlanmagan, u aynan "Zubdat at-tavorix" asari orqali yetib kelgan. Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond (1433-1498) va Xondamir (1475-1535) kabi tarixchilar ham mazkur asar matnlarini "Zubdat at-tavorixdan ko'chirganlar[2].

Tadqiqotlarda Mavlono Sa'dulloh Kirmoniyning yo'qolgan "Futuhot-e Mironshohiy", Muiniddin Muhammad Yazdiyning "Mavohib-i Ilohi"[3], Nosiriddin Umarning "Ro'znoma-i futuhot-i Hind" G'iyosiddin Alining o'gli Mavlono Shihobiddin Muhammad Munshiy tomonidan yozilganligi taxmin qilinadigan "Futuhot-i bilod-e Shom-u Rum" asarlari hamda muallifi noma'lum "Ruznoma-ye Futuhot-i Dasht" asarlari ham "Zubdat at-tavorix"ga manba vazifasini o'taganligi qayd etib o'tilgan[4].

Hofiz-i Abru Nizomiddin Shomiy kabi, XIV asr voqealarining asosiy qismini qayd etishda ularning hijriy sanalari qatorida turik-mo'g'ul oy nomlarini ham keltirib o'tgan. Bu muarrixning shu davr voqealarini yozishda, foydalangan manbalari qatorida "Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy" hamda uyg'ur baxshilarining bitiklaridan tashqari yana bir qancha turkiy manbalar va solnomalar ham bo'lganligini bildiradi.

---

[1] Qarang: O'sha asar, –B. 34-44.

[2] Yana qarang: Ґийāсаддӣн Ѐали. Дневник похода Тӣмӯра в Индию/Перевод с перс., педисл. и прим. А.А. Семенова. - Москва, 1958. –С. 13.

[3] Qarang: Резаголизадех Н.В. *Особенности исторических взглядов Хафиза Абру. // Дисс. На соискание учен. степени канд. истор. наук. -Душанбе, 2015. –С. 86.*

[4] Yana qarang: Woods. J.E. The Rise of Timurid Historiography // Journal of Near Eastern Studies (The university of Chikago ss journals) Vol. 46, No. 2 (Apr., 1987). Published by: The University of Chicago Press. Apr., 1987. –P. 99.

Uzoq yillar davomida Temuriylar shajari borasida tadqiqotlar olib borayotgan Amerikalik olim Jon Vuds o‘zining “Temuriylar davri tarixnavisligining yuksalidshi” nomli maqolasida “Zubdat at-taborix”ning qisqacha mazmunini tariflash asnosida, uning yozilishida Shomiyning “Zafarnoma”sidan tashqari Muiniddin Natanziyning “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asaridan manba sifatida foydalanilganligi haqidagi Bartoldning so‘zlarini[1] ikki asarning qiyosiy tahlili asosida tasdiqlaydi[2].

“Zubdat at-tavorix” asariga eng asosiy manbalar qatorida birinchi navbatda Qur’oni karim oyatlari va hadisi sharif matnlaridan unumli foydalanilgan. Bu yoritiliyatgan voqelikni kengroq tushuntirish maqsadida foydalanilgan musulmon tarixnavisligining muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, musulmon Sharqining arab fors va turkiy tillarda ijod qilgan olimlar va shoirlarning hikmatli so‘zlasi va she’riy parchalari orqali voqeliklarga qo‘shimcha sharh va izoh berish ham mazkur davr tarixnavisligining muhim ilmiy uslublaridan hisoblangan. Hofizi Abru shu asosda “Zubdat at-tavorix” asariga klassik arab va fors tilida ijod qilgan ilm ahlining (Sa’diy, Hofiz, Rumiy, Bedil vahk) sherlari qatorid, o‘zi tomonidan yozilgan nazm namunalarini ham kiritgan. Bu esa adabiyotga doir ko‘plab asarlar ham “Zubdat at-tavorix”ning yozilishida manba vazifasini o‘taganligini bildiradi.

Hofiz-i Abru Amir Temur davrida bevosita yashagan va uning topshirig‘i bilan fathnomalar yozgan G‘iyosiddin Ali va Nizomiddin Shomiy kabi tarixchilar qatorida turadi. U Amir Temur devoni vakili sifatida rasmiy hujjatlardan ham manba sifatida keng foydalangan. Bunga “Zubdat at-tavorix”da keltirilgan rasmiy yozishmalardan ko‘plab ko‘chirmalarning keltirilishi misol tariqasida aytib o‘tilgan[3]. Shuningdek, tarixchi Amir Temur va Mirzo Shohrux bilan bo‘lgan safarlarni esdaliklarida qayd etib, ulardan keyinchalik asarlarida manba sifatida keng foydalangan. Masalan, tarixchining o‘z asarlarida keltirgan quyidagi ma’lumotlari buning dalilidir: Amir Temur davlatining xalqaro aloqalarida uning maxsus topshirig‘i bilan diplomatik korpus tarkibida elchi sifatida (Boyazid saroyiga jo‘natilgan elchilar qatorida) shaxsan ishtirok etganligi[4]; Baylaqon shahrini suv bilan ta’minlovchi Baylaqon kanalining qurilish ishlarini boshqarganligi[5]; Amir Temurning 1386-yildan keyingi harbiy yurishlarda uning xizmatida;

---

[1] Бартольд В.В. Определение «Анонима Искандера». Сочинения. Т. VIII. М, 1973. –С. 481-482.
[2] Yana qarang: Woods. J.E. The Rise of Timurid Historiography. –P. 99.
[3] Yana qarang: Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. –Tehron, 2001. –B. 61.
[4] Qarang: O‘sha asar, –B. 61.
[5] Qarang: O‘sha asar, –B. 1011.

bo‘lganligi; Mirzo Shohruxning saroy tarixchilari qatorida bo‘lganligi va uning topshirig‘i bilan tarixiy asarlar yozganligi[1] vahokazo.

Hofizi Abru Amir Temur bilan bog‘liq tarixiy voqealarda shaxsan o‘zi ishtirok etgan jarayonlarini o‘z asarlarida qisman eslatib o‘tgan. Masalan, “Zayli Zafarnomai Shomiy” asarining muqaddimasida: “Kamina o‘sha vaqtlarda humoyun o‘rduda mulozim edim va (quyida) keltirilayotgan kechinmalarni kuzatib borganman” deb qayd etadi[2]. “Zubdat at-tavorix” asarida esa bu haqda: “... haqiqatga yaqini shu erurkim, ushbu arzga yetkaziluvchi mavzu guvohligimizdan tashqari narsa emasdir”[3] - degan so‘zlar bilan eslab o‘tilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki Hofizi Abru Amir Temur yurishlarida tarixchi sifatida shaxsan ishtirok etgan, u bilan bog‘liq tarixiy voqealarni kuzatib, ularni qayd etib borgan. Bu borada “Zubdat at-tavorix” asarida voqeliklar bayoni jarayonida ham ko‘p marta ta’kidlab o‘tilgan.

Shu asnoda muallif asar matnida voqeliklarda o‘zining ishtirokini quyidagi iboralar bilan ta’kidlab o‘tadi: - “bu bandakim ushbu kitobning muallifi erur Mavlono Shihobiddin Lisoniy bilan birgalikda Tuqchi darvozasidan to Taborak qalasigachakim Isfahon devorlarining bir qismi [shu yerda] edi kunduzi o‘tdik, 28 ta [osmonga] qad ko‘targan minoralarni sanadik... bu minoralardan shaharning boshqa tomonida ham bor edi... bu voqea 789 yil shavvol oyining oxirida sodir bo‘lgan edi”[4]; - “Muallif Mohon qal’asining egallanishi voqeasida hozir edi...”[5]; - “Kamina hazrat Sohibqirondan eshitgankim...”[6]; - “Bu kitobning muallifi ushbu safar (Dehli yurishi)da humoyun urduning mulozimi edi...”[7]; - “...kamina ...ham bu safar (Halab fathi)da mulozimlardan biri edim”[8]; - Ba’labak qal’asining egallanishida “Bu kitobning muallifi islomning jaloli ulug‘ amiri (Amir Temur) va Mavlono Shihobiddin Abdulloh Lisoniy – qabri nurga to‘lsin – bilan birga ul hisorning ostonasiga yetdik...”[9] va hokazo. Demak, “Zubdat at-tavorix” asari voqeliklarining asosiy qimsmi tarixchining o‘zi guvohligi asosidagi ko’rgan-kechganlari manba bo’lib xizmat qilgan.

---

[1] Ҳофиз Абру. Шомийнинг “Зафарномаи шоҳий” асарига илова. (Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” китобида). – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1996. –Б. 380.
[2] Qarang: O‘sha asar, –B. 380.
[3] Yana qarang: Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. –Tehron, 2001. –B. 9.
[4] O‘sha asar, –B. 667.
[5] O‘sha asar, –B. 748.
[6] O‘sha asar, –B. 767.
[7] O‘sha asar, –B. 852.
[8] O‘sha asar, –B. 912.
[9] O‘sha asar, –B. 916.

Umuman olganda har bir tarixiy asarning manbaviy asosi uning ilmiy ahamiyatini belgilab beruvchi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Tarixiy kitoblarda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchliligi avvalo uning yozilishiga xizmat qilgan manbalarga bog'liq. Keyingi navbatda muallifning o'z davri tarixiy voqealarini yoritish mahoratiga ham. Zero, muallif guvohligida yozilgan tarixiy voqealarda: uning shaxsiy ko'rgan-kechirganlari asosidagi guvohligi; boshqa guvohlardan eshitganlari; voqelikka doir yozma hujjatlardan xabardorligi va voqelik to'g'risida axborot berish xususiyatiga ega boshqa barcha manbalar ham, har qaysi asarning yozilishiga xizmat qilgan manbaviy asos hisoblanadi. Demak, musulmon olami tarixnavisligining eng rivojlangan davri bo'lgan Temuriylar davrida yozilgan tarixiy manbalarning har biri mana shu tartibdagi manbaviy asosga ko'ra yozilgan. Ularda keltirilgan tarixiy voqealarning birida qisqa birida to'liq yoritishi ham ayni mana shu manbaviy asosga bog'liqdir. Shuningdek, mazkur asarlarning har birini yozilishidan ko'zlangan maqsadlar ham turlicha bo'lgan va bir-biridan ayricha muhitlarda hamda temuriylar saltanatiga nisbatat o'zaro farqli fikrdagi mualliflar tomonidan yozilgan. Ushbu masala alohida tadqiqotni talab qiladi, shu sababdan o'z tadqiqotimizni shu yerda yakunlaymiz. So'zimiz oxirida shuni aytib o'tish joizki, Hofizi Abru o'z asarlarini yozishga xizmat qilgan manbalarning ishonchlilik darajasiga jiddiy etibor qaratgan. Bu yuqorida keltirilgan misollarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурраззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Масъул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али. II жилд, биринчи қисм. –Тошкент, 2008.

2. *Бартольд В.В. Хафизи Абру и его сочинения / Сочинения. Т. VIII. Москва, 1973.*

3. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи – Ю.Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масьул муҳаррир – А.Ўринбоев, изоҳ ва луғатларни тузувчи – Ҳ.Кароматов, жуғрофий номлар изоҳи – О.Бўриевники. Тошкент, 1996.

4. Резаголизадех Н.В. *Особенности исторических взглядов Хафиза Абру. // Дисс. На соискание учен. степени канд. истор. наук. -Душанбе, 2015.*

5. Стори Ч.А. Персидская литература / Биобиблиографический обзор. Перев. с англ., перераб. и допол. Ю.Е. Брегель. Т. I. Москва, 1972.

6. Фасиҳ Хавофий. Мужмали Фасиҳий / Форс тилидан таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсатгичлар муаллифи: тарих фанлари доктори, профессор, академик Д. Ю. Юсупова. Тошкент, 2018.

7. Ҳофиз Абру. Шомийнинг “Зафарномаи шоҳий” асарига илова // Низомиддин Шомийнинг “Зафарнома” китобида / Форс тилидан таржима, изоҳ ва кўрсатгичлар муаллифи – О.Бўриев. Тошкент, 1996.

8. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар. – Тошкент, 2013.

9. Ґийāсаддӣн Ʌли. Дневник похода Тӣмӯра в Индию / Перевод с перс., педисл. и прим. А.А. Семенова. –Москва, 1958.

10. Ўринбоев А. Ҳофизи Абру. // Ҳасанов Ҳ. Ҳофизи Абру, Ҳайдар Мирзо, Филипп Ефремов. –Тошкент, 1964.

11. Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. Istanbuldagi Sulaymoniya kutubxonasi Fotih fondi qo’lyozmasi, № 4370/I.

12. Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. // حافظ ابرو. زبدة التواريخ / مقدمه’ تصحيح و تعليقات: سيد كمال حاج سيد جوادى. (ج. ١). تهران’ ١٣٧٩/2001.

13. Faromarzi F. Hofizi Abru va uning “Zubdat at-tavorix” asariga doir ayrim mulohazalar // TerDU Ilmiy xabarnomasi, 2020. № 2. -B. 38-43.

14. Said Kamol Javodiy. Muarrifi-ye Hofizi Abru // Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix. –Tehron, 2001. –B. 13-30;

15. Xonbobo Bayoniy. Sharh-e hol va zindagi va osor va fa’lefot-e Hofiz-i Abru //Hofiz-i Abru. Zayl-i “Jome’ at-tavorix”-i Rashidiy. –Tehron, 1972.

MUNDARIJA

TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK			
1.	*Nilufar TURDIMURADOVA*	XITOY TILI PUBLITSISTIK MATNLARIDA BADIIY-TASVIRIY VOSITALAR	3
2.	*Zaxro XALILOVA*	USHA PRIYAMVADA HIKOYALARIDA ZIYOLI AYOLLAR TAQDIRI VA SHAXSIYATI MASALASINING BADIIY TALQINI	9
3.	*Mukarramxon ESHONXO‘JAYEVA*	YAPON VA O‘ZBEK TILLARIDA “YAXSHILIK VA YOMONLIK” TUSHUNCHALARIGA OID MAQOLLARNING MA’NODOSHLIK XUSUSIYATLARI	14
4.	*Nigora SAFAROVA*	XITOY TILIDA HISSIY METAFORALARNING ASOSIY KOGNITIV XUSUSIYATLARI	19
5.	*Shozoda FATXULLAYEVA*	FORS TILIDA QO‘SHMA SO‘ZLARNING O‘RGANILISHI VA YASALISHIGA OID QARASHLAR	24
6.	*Фарзона БАЗАРБАЕВА*	ПРЕДСТАВЛЕНИЕ О ТЕРПЕНИИ 忍 В КИТАЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ СОЦИАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЕ	30
7.	*Lobar DONAYEVA*	DAVLAT RAHBARI NUTQI SIYOSIY DISKURSIDA METAFORALARNING KOGNITIV TAHLILI (XITOY, AQSH, YEVROPA DAVLAT RAHBARLARI NUTQLARI MISOLIDA)	34
8.	*Nilufar SHIRINOVA*	TURLI TIZIMLI TILLARDA LISONIY PARALLELIZM	42
9.	*Mohijahonbegim SOBIROVA*	KOREYS TILI TOPIK II IMTIHONIGA OID “YOZISH” BO‘LIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (54-SAVOL MISOLIDA)	47
10.	*Азиз МУҲАММАДЖОНОВ*	ЛЕКСИКОЛОГИЯНИНГ ТИЛЛАРНИ ЎРГАНИШДАГИ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	52
11.	*Akmal XOSHIMOV*	YOQUB QODRI QORAUSMON O‘G‘LINING “YABAN” ROMANIDA ARAB TILIDAN	61

		O‘ZLASHMALARNING TURK VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MA’NO XUSUSIYATLARI	
12.	*Kumushoy MASHARIPOVA*	THE ISSUE OF ADAPTATION IN TRANSLATIONS OF ADVERTISEMENT FROM ENGLISH INTO UZBEK	66
13.	*Dilafruz OTAXONOVA*	MAHMUD ZAMAXSHARIYNING AL-MUFASSAL VA SIBAVEYHINING “AL – KITOB” ASARLARIDA FE’LLARNING TASNIFIGA DOIR AYRIM QARASHLAR	69
MANBASHUNOSLIK VA MATNSHUNOSLIK			
14.	*G‘ayratjon JUMAYEV*	MANBALARDA AMIR TEMUR TOMONIDAN TURSHIZ QAL’ASI EGALLANISHINING TASVIRLANISHI	75
15.	*Ҳамидулла АМИНОВ*	МАҲДУМИ АЪЗАМ ДАҲБЕДИЙНИНГ “ТАНБЕҲ АС-САЛОТИН” НОМЛИ АСАРИ ҲАҚИДА	81
16.	*Farhodjon DEHKANOV*	ABOUT THE FACTORS OF EMERGENCE OF 20TH CENTURY UZBEK TEXTUAL STUDIES	86
17.	*Zebiniso QURBANBOYEVA*	“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONINING ILMIY TANQIDIY MATNI VA KEYING NASHRLAR ORASIDAGI TAFOVUTLAR	91
18.	*Muxlisa NAFASOVA*	TANQIDIY MATN TUZILISHI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI	95
TARIX VA FALSAFA			
19.	*Умид ЖИЯНОВ*	ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ СВЯЗИ ТЮРКСКОГО КАГАНАТА С САСАНИДСКОМ ИРАНОМ И ВИЗАНТИЕЙ	100
20.	*Одил ЗАРИПОВ*	“ҚЎҚОН ХОНЛАРИ АРХИВИ” ЖАМҒАРМАСИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН	103
21.	*Otabek PO‘LATOV*	AFG‘ONISTON HAZORALARNING KELIB CHIQISHI TO‘G‘RISIDAGI NAZARIYALAR	109
22.	*Muhriddin TOJIBOYEV*	PARIJ TO‘PLAMLARIDA MOVOROUNNAHR BEZAKLI	114

		QO‘LYOZMA ASARLARINING SAQLANISHI VA O‘RGANILISHI	
23.	*Feruza DJUMANIYAZOVA*	KIDARIYLAR DAVLATI XUSUSIDAGI AYRIM MASALALAR TO‘G‘RISIDA	119
24.	*Шухрат ТОХТИЕВ*	МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ҲАЗРАТ АЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЗИЁРАТГОҲЛАР	127
25.	*Gulsara ABDUVAXOBOVA*	NASIRIDDIN TUSIYNING ANIQ FANLAR RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI	132
26.	*Sohibjon UMARJONOV*	FAHRIDDIN ROZIY - IBN SINO ASARLARINING MOHIR SHARHLOVCHISI	136
27.	*Shohruh ISMOILOV*	HAYOTNING MA’NOSINI BILISH – INSON ORLIG‘INING BOSH MASALASI(MI?)	146
28.	*Mirzo ZOKIROV*	MIRZO BEDIL FALSAFASIDA KOMIL INSON G‘OYASI	151
29.	*Farida IBODOVA*	SHRI AUROBINDO GXOSH. INSON VA EVOLUTSIYA	155
30.	*Abror ABDUSALIMOVA*	DIN SVAMI VIVEKANANDA TALQINIDA	159
31.	*Shahrizoda ABDUFATTAYEVA*	ABU NASR FOROBIYNING GNOSEOLOGIK QARASHLARI	164
32.	*Гулчехра ДАРВИШОВА*	ШАРЛОТТА БРОНТЕНИНГ ИЖОДКОРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРГАН ОМИЛЛАР	170
33.	*Нодиржон АБДУЛАҲАТОВ*	ТОЛИЙ МАРҒИНОНИЙ	175
34.	*Исломбек РАҲМОНБЕРДИЕВ*	ИБН АРАБИЙ “КОМИЛ ИНСОН” ТАЪЛИМОТИНИНГ ИЖТИМОИЙ - ФАЛСАФИЙ ВА АНТРОПОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ	179
35.	*Odina NIZOMOVA*	“MAHABHORAT” DOSTONIDAGI GNOSEOLOGIK MASALALAR TAHLILI	187
XALQARO MUNOSABATLAR VA IQTISOD			
36.	*Obidjon ABUDRAHMONOV*	2001-2021-YILLARDA ERON TASHQI SIYOSIY QARASHLARIDA AFG‘ONISTON MUAMMOSI	193
37.	*Шухрат КАМИЛОВ*	ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ СИЁСАТИДА МАРКАЗИЙ ОСИЁ ВЕКТОРИ	199

38.	*Shahnoza TOSHQULOVA*	O‘ZBEKISTONNING XALQARO TASHKILOTLAR BILAN MUNOSABATLARINING O‘RNATILISHI	204
39.	*Dostonjon TOJIYEV*	ORGANIZATION OF TURKISH STATES AND UZBEKISTAN – NEW STEPS TOWARDS THE WORLD COMMUNITY	211
40.	*Adhamjon MAMADJONOV*	“SOFT POWER” KONSEPSIYASIGA OID NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR TAHLILI	215
41.	*Mavluda NURMETOVA*	XALQARO SIYOSIY NIZOLARNI HAL QILISHDA MEDIATORNING ROLI	222
42.	*Маъмурахон АЛИШЕРХЎЖАЕВА*	НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОСИНИ АСРАШ ВА ТАНИТИШ БОРАСИДА ЎЗБЕКИСТОН ВА ЮНЕСКО ҲАМКОРЛИГИ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ	226
43.	*Dildora YORQULOVA*	AUTSORSING KOMPANIYANING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY VOSITASI SIFATIDA	232
44.	*Сарварбек ФАЙЗУЛЛАЕВ*	ЭРОН ИСЛОМ РЕСПУБЛИКАСИ ТАШҚИ СИЁСАТИНИНГ УСТУВОРЛИКЛАРИ	238
45.	*Sabokhon TURSUNALIEVA*	THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION AND CHINA’S NEW DIPLOMACY	244
46.	*Mehri VOXIDOVA*	O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDOSI TARKIBI	249
47.	*Iroda MIRZAMUKHAMEDOVA*	REGIONAL DEVELOPMENT ECONOMY IN UZBEKISTAN	254
48.	*Азиза КУЧИЕВА*	ВЛИЯНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ САНКЦИЙ 2018-2019 ГОДОВ НА РАЗВИТИЕ НЕФТЯНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ИРАНА	258
49.	*Ирода АЗАМАТОВА*	РАЗВИТИЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА В ИСЛАМСКОЙ РЕСПУБЛИКЕ ИРАН	263
50.	*Бобур САБУРОВ*	ЯНГИ ГЛОБАЛ ЎЗГАРИШЛАР ВА ТАҲДИДЛАР ШАРОИТИДА БРИКС МАМЛАКАТЛАРИНИНГ ЖАҲОН ИҚТИСОДИЁТИДАГИ ЎРНИ	269

PEDAGOGIKAVA METODIKA			
51.	*Малика РАСУЛХАДЖАЕВА*	ГРАФИК ОРГАНАЙЗЕРЛАРДАН ШАРҚ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИШ	273
52.	*Наргиза ШИРИНОВА*	ИНГЛИЗ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ҲАРБИЙ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ КУРСАНТЛАРИНИНГ БИЛИШ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ МЕТОДЛАРИ (ЗАХИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР МАТЕРИАЛИ АСОСИДА)	278
53.	*Zilola XALILOVA*	O‘ZBEKISTON TA’LIMIDA TARBIYA FANLARINING HOLATI	281
54.	*Fayzullo FAROMARZI*	TEMURIYLAR DAVRI TARIXNAVISLIGIDA MANBA MASALASI (Hofizi Abruning “Zubdat at-tavorix” asari misolida)	286

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SHARQSHUNOSLAR ANJUMANI

17-SON

***Ushbu ilmiy to‘plam TDSHU Kengashining 2023-yil 25-fevradagi 7-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan*.**

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023